O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TIL VA ADABIYOT INSTITUTI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SHAVKAT BUTAYEV
ABBOS IRISQULOV

ENGLISH-UZBEK UZBEK-ENGLISH DICTIONARY

70. 000 words and expressions

INGLIZCHA-O‘ZBEKCHA O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA LUG‘AT

70. 000 so‘z va ibora

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashrga tavsiya etgan

TOSHKENT
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti
2009

81.2 Ингл-4 Инглиз тили

Ushbu «Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha» lug'at O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Ilmiy kengashida tasdiqlanib, nashrga tavsiya etildi.

Mas'ul muharrirlar: *prof. G. Boqiyeva*
dots. O. Mo'minov
f.f.n. A. Madvaliyev
f.f.n. N. Maxkamov

Taqrizchilar: *dots. R. Alimardonov*
dots. N. Qambarov

HO 35605
2g1

Ushbu «Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha» lug'at akademik litsey va kasb-hunar kollej o'quvchilaridan tashqari ingliz tilini mustaqil o'rganuvchilar, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rayotganlar, oliy o'quv yurtlarining talabalari, tarjimonlar va hatto ingliz tili sohasida ishlayotgan muttaxassislar uchun mo'ljallangan.



ISBN 978-9943-09-690-5

© O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
«Fan» nashriyoti,
Shavkat Butayev, Abbos Irisqulov, 2009-yil.

SO‘ZBOSHI

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatish yana ham rivojlandi, respublikamizning ko‘p viloyatlari, shahar va tumanlari chet el sarmoyadorlari bilan birgalikda juda ko‘p qo‘shma korxonalar ochildi. Bulardan tashqari, yurtimizda ko‘pgina xalqaro musobaqalarning o‘tkazilishi, xalqaro tashkilotlar, vakolatxonalarning rasmiy faoliyat olib borayotgani, mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarning soni kundan-kunga ortib borayotgani, xorijiy tillarni o‘qitish yangi, takomillashgan dasturlar va darsliklar asosida o‘tilayotgani davr talabiga javob beradigan yangi lug‘atlar yaratish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Ayni paytda madaniyat, fan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, sport va shu kabi sohalarning rivojlanishi natijasida yangi so‘z va terminlarning paydo bo‘lishi, ayrim so‘zlarning esa eskirib, iste’mol doirasidan chiqishi ham hozirgi kun talabiga javob beradigan inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha lug‘at yaratishning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini tasdiqlaydi.

Respublikamizda hamda chet ellarda hozirgacha chop etilgan inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlar, yuqorida aytib o‘tilgan o‘zgarishlar tufayli, hozirgi kunda ingliz tili mutaxassislari talablariga to‘liq javob bera olmayapti. Shu jihatdan qaraganda mazkur lug‘at respublikamizdagi ingliz tili ta’limi sohasida ishlaydigan xodimlarning ishlarini yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi, o‘zbek leksikografiyasining rivojiga ham o‘z hissasini qo‘shadi, deb o‘ylaymiz.

Istiqlol yillarida yuz bergan katta o‘zgarish va rivojlanishlardan so‘ng mamlakatimizda ingliz tili ta’limi ancha yuqori saviyaga ko‘tarildi. Ushbu yaratilgan lug‘atning asosiy maqsadlaridan biri o‘zbek va ingliz tillarida vujudga kelgan o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish, ayrim so‘zlarning ma’nolarini so‘z birikmasi yoki iboralar tarzidagi illustrativ materiallar bilan kengroq yoritib berishga qaratilgan. Bu lug‘atning hajmini biroz kattalashtirsa-da, ammo zamon talabi darajasiga mos keladi.

Lug‘at tuzish jarayonida ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, texnikaviy, ommabop asarlar, turli xildagi darslik va buklctlarga, matbuot materiallariga tayandik, so‘zlarni adabiy tilga munosabati va qo‘llanish doirasiga qarab tanladik.

Mazkur lug‘at 60.000 so‘z va 10.000 iborani o‘z ichiga oladi. Lug‘atning inglizcha-o‘zbekcha qismida 35.000 so‘z va 5.000 ibora, o‘zbekcha-inglizcha qismida esa 25.000 so‘z va 5.000 ibora mavjud. Lug‘at so‘ngida noto‘g‘ri fe’llar jadvali, geografik nomlar ro‘yxati va qisqartmalar ilova sifatida berilgan. Bunday katta hajmdagi lug‘at birinchi marta chop etilayotgan bois ayrim kamchiliklardan xoli emas, albatta. Uni takomillashtirish bo‘yicha beriladigan barcha taklif va mulohazalarni mualliflar katta minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

Lug‘atning tuzilishi:

1. Lug‘atdagi lug‘at maqolasining tuzilishi quyidagicha: bosh so‘zdan keyin to‘rtburchak qavs ichida uning transkripsiyasi, qavsdan keyin so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansub ekanligi va qaysi tildan olinganligi yoki qaysi sohaga taalluqli ekanligi kursiv bilan berilgan. Undan keyin so‘zning ma’nosi berilgan.

2. Bosh so‘zlar lug‘atda alifbo tartibida to‘q qora rang bilan berilgan.

3. Lug‘atda barcha so‘z turkumlariga oid tub va yasama so‘zlar kiritilgan.

4. Ba’zi so‘zlarning ma’nolarini yanada yaxshiroq yoritib berish maqsadida ular ishtirok etgan iboralar berilgan. Bu holatda, so‘z yana qaytarilmasligi uchun «~» belgisidan foydalanilgan.

5. Ma’nodosh (sinonim) so‘zlar berilgan holatda ularning har biri alifbo tartibida o‘z o‘rnida bosh so‘z sifatida berilib, mustaqil ravishda tavsiflangan yoki boshqa sinonimga havola etilgan.

6. Omonimlar rim raqamlari bilan berilgan.

Etimologik ma'lumotlar:

Ingliz xalqining etnik tarkibiga kirgan boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga etimologik ma'lumot berilmagan.

Lug'atda so'zlarning ma'no xarakteristikasi:

1. Har bir so'zning ma'nosi qisqa va aniq ifoda etilgan.

2. Lug'atdagi so'zlarning, asosan, hozirgi ingliz adabiy tilida keng qo'llanadigan ma'nolari berilgan.

3. So'zlarning shaxs nomlari sifatida qo'llanishi lug'atda berilmagan.

4. Lug'atda so'z ma'nolarini ochishda misol va iboralardan keng foydalanilgan.

5. Ilmiy terminlar ma'nosini ochishda ta'rifiy izohdan keng foydalanilgan.

So'z ma'nolarining joylashish tartibi:

Lug'atda asos qilib olingan normativlik prinsipiga ko'ra so'zlarning eng asosiy ma'nosi oldin, ikkinchi darajali ma'nolari keyin berildi.

Lug'atda frazeologiya:

1. Lug'atga ingliz tilidagi frazeologik iboralar kiritilgan.

2. Frazeologik iboralar, ko'pincha birinchi komponent hisoblangan so'z maqolasida joylashtirilgan. Agar frazeologik iboraning birinchi komponenti olmosh, son yoki yordamchi so'z bo'lsa, u ikkinchi o'rindagi mustaqil ma'noli so'z maqolasida berilgan.

3. Frazeologik birikmalar lug'atda faqat bir marta izohlangan.

So'zlarning grammatik xarakteristikasi:

Lug'atda so'zlarning grammatik kategoriyasini (qaysi so'z turkumiga mansubligini) ko'rsatish uchun maxsus belgilar qabul qilingan.

Otlar:

Otlar lug'atda bosh kelishikda va birlik shaklida berilgan.

Sifatlar:

Sifatlar lug'atda oddiy daraja shaklida berilgan.

Sonlar:

Lug'atda sonlar turli tegishli grammatik belgilar bilan ko'rsatilgan.

Olmoshlar:

Lug'atda olmoshlar turli tegishli grammatik belgilar bilan berilgan.

Fe'llar:

Fe'llar «**to**» yuklamasisiz berilgan

Ravishlar:

Barcha ravishlar grammatik belgi bilan ko'rsatilgan.

Talaffuz va urg'u:

1. So'zlarning talaffuz qilinishi transkripsiya orqali to'rtburchak qavs ichida ko'rsatilgan.

2. Transkripsiya qilingan paytda so'zning urg'usi ham ko'rsatilgan.

INGLIZ ALIFBOSI

Aa	[eɪ]
Bb	[bi:]
Cc	[si:]
Dd	[di:]
Ee	[i:]
Ff	[ef]
Gg	[dʒi:]
Hh	[eɪtʃ]
Ii	[aɪ]
Jj	[dʒeɪ]
Kk	[keɪ]
Ll	[el]
Mm	[em]
Nn	[en]
Oo	[əu]
Pp	[pi:]
Qq	[kju:]
Rr	[a:]
Ss	[es]
Tt	[ti:]
Uu	[ju:]
Vv	[vi:]
Ww	[´dʌblju:]
Xx	[eks]
Yy	[waɪ]
Zz	[zed]

O‘ZBEK ALIFBOSI

A a	a
Bb	be
Dd	de
Ee	e
Ff	ef
Gg	ge
Hh	he
Ii	i
Jj	je
Kk	ke
Ll	el
Mm	em
Nn	en
Oo	o
Pp	pe
Qq	qe
Rr	er
Ss	es
Tt	te
Uu	u
Vv	ve
Xx	xe
Yy	ye
Zz	ze
O‘o‘	o‘
G‘g‘	g‘e
Sh sh	she
Ch ch	che
Ng ng	nge
(’)	tutuq belgisi

INGLIZCHA QISQARTMALAR

a	adjective	sifat
adv	adverb	ravish
attr.	attributive	aniqlovchi
cj.	conjunction	bog'lovchi
emph.	emphatic	kuchaytiruvchi
imp.	imperative	buyruq mayli
indef	indefinite	gumon
inf.	infinitive	infinitiv
int.	interjection	undov
n	noun	ot
num. card.	numeral cardinal	sanoq son
num. ord.	numeral ordinal	tartib son
p.p. of	past perfect of	...ning o'tgan zamon sifatdosh shakli
part.	particle	yuklama
pass.	passive	majhul nisbat
past of	past of	...ning o'tgan zamon shakli
pl	plural	ko'plik
predic.	predicative	qo'shma kesimning ot qismi
pref.	prefiks	prefiks
prep.	preposition	predlog
pres. p.	present participle	hozirgi zamon sifatdoshi
pron	pronoun	olmosh
pron. conj.	conjunctive pronoun	bog'lovchi olmosh
pron. def.	definite pronoun	belgilash olmoshi
pron. demonstr.	demonstrative pronoun	ko`rsatish olmoshi
pron. ind.	indefinite pronoun	gumon olmoshi
pron. neg.	negative pronoun	bo'lishsizlik olmoshi
pron. pers.	personal pronoun	kishilik olmoshi
pron. poss.	possessive pronoun	egalik olmoshi
pron. refl.	reflexive pronoun	o'zlik olmoshi
sing	singular	birlik shakl
smb.	somebody	biror kimsa
smth.	something	biror narsa
sl.	slang	jargon
v	verb	fe'l

O'ZBEKCHA QISQARTMALAR

adab.	adabiyot
amer.	amerikanizm
anat.	anatomiya
arab.	arabcha
astr.	astronomiya
av.	aviatsiya
avt.	avtomobil sanoati, avtomobil transporti
bibl.	bibleizm
biol.	biologiya
bosm.	bosmaxona
bot.	botanika
deng.	dengizchilik
din.	dinga oid so'z
dipl.	diplomatik iboralar
el.	elektrotexnika
esk.	eskirgan so'z, ibora
farm.	farmasevtika
filos.	filosofiya
fiz.	fizika
fiziol.	fiziologiya
folk.	folklor
fon.	fonetika
fr.	fransuzcha
geogr.	geografiya
geol.	geologiya
geom.	geometriya
gram.	grammatika
grek. afs.	grek afsonasi
harb.	harbiy
hazil.	hazilga oid so'z
hind.	hindcha
hisob.	hisob-kitobga oid
iqt.	iqtisod
it.	italyancha
jarg.	jargon
kim.	kimyo
kit.	kitobiy uslub
ko'ch.	ko'chma ma'no
lot.	lotincha
maq.	maqol
mat.	matematika
maxs.	*maxsus ibora*
meteor.	meteorologiya
me'mor.	me'morchilik
mif.	mifologiya
min.	mineral
mol.	moliya
mus.	musiqa
nem.	nemischa
opt.	optika
ov.	ovchilik
polig.	poligrafiya
q.x.	qishloq xo'jaligi
qur.	qurilish
radio.	radiotexnika
rus.	ruscha
siyos.	siyosat
sport.	sport
so'zl.	so'zlashuv tilidagi so'z, ibora
tar.	tarixga oid atama
teatr.	teatrga oid ibora
temir y.	temir yo'l transporti
tex.	texnika
tib.	tibbiyot
tij.	tijorat
tilsh.	tilshunoslik
turk.	turkcha
to'q.	to'qimachilik
tog'.	tog'ga oid so'z va ibora
yap.	yaponcha
yur.	yuridik atama
zool.	zoologiya
shaxm.	shaxmat
she'r.	she'riyatga oid
sheva.	shevaga oid so'zlar
shoir.	shoirona so'z va ibora
shotl.	shotland tili
cherk.	cherkovga oid

Aa

A, a [eɪ] *n* ingliz tili alifbosining birinchi harfi; **from A to Z** a) boshidan oxirigacha; b) mukammal.

a [eɪ] (*urg'uli yoki to'liq shakli*); [ə] (*urg'usiz yoki reduksiyaga uchragan shakli*), 1) *gram.* undosh harf bilan boshlanadigan so'zlardan oldin qo'llanadigan noaniq artiklning shakli: **a pencil** qalam; 2) bir, bitta; **this newspaper costs a dollar** bu gazetaning narxi bir dollar turadi.

ab- [æb-] *pref.* bo'lishsiz shaklda ishlatiladigan prefiks, masalan: **abnormal** notabiiy, aqldan ozgan, esi past, tentak.

abac ['eɪbæk] *n mat.* to'r shaklidagi (to'rsimon) nomogramma; nomogramma (*turli kattaliklar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadigan va ularni topishni osonlashtiradigan grafik chizma*).

abaca ['æbəkə] *n* 1) *bot.* abaka daraxti *yoki* shu daraxtdan qilingan ip; 2) kanoptola; 3) *me'mor.* boshtirgak.

abaci ['æbəsɪ] *pl* **abacus** *dan.*

aback [ə'bæk] *adv* 1) orqaga; 2) orqasidan; 3) orqasi bilan; **to hold oneself ~ from** ... dan o'zini uzoqda olib yurmoq; **to stand ~ from** dan o'zini olib qochmoq.

abaction [æb'ækʃn] *n yur.* katta o'g'irlik *yoki* molni o'g'irlash.

abaculus [ˌæbə'kjuːləs] *n* marmar plita.

abacus ['æbəkəs] *n* (*pl* **-ci, -es** [-ɪz]) 1) *me'mor.* boshtirgak; ustunning tepa qismi; 2) *mat.* cho't, hisobcho't; **to operate, use an ~** cho'tda hisoblamoq, cho't qoqmoq, cho't solmoq.

abaft [ə'bɑːft] **1.** *adv deng.* qayiqning orqasidan, qayiqning izidan; **2.** *prep.* orqasida(n), ketida(n); keyin; **~ the beam** traverz orqasidan (*traverz—kemaning yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan yon tomon*).

abandon [ə'bændən] **1.** *v* 1) bosh tortmoq; bekor qilmoq; **to ~ a right** huquqni bekor qilmoq; 2) tashlab ketmoq; 3) adashtirmoq; 4) qoldirmoq; **2.** *n* odobsizlik; o'zini tuta olmaslik.

abandoned [ə'bændənd] *a* bosh tortgan, bahridan o'tgan, voz kechgan; tashlab ketilgan, qoldirilgan; tashlandiq, tashlandi; **an ~ child** tashlab ketilgan bola.

abandonee [əˌbændə'niː] *n* kemani falokatdan sug'urta qilish.

abandonment [ə'bændənmənt] *n* 1) qarovsiz qoldirib ketish; 2) *yur.* bolasini *yoki* xotinini tashlab ketish.

abase [ə'beɪs] *v* 1) kamsitmoq; yerga (pastga) urmoq; **to ~ oneself** o'zini (kamsitmoq) yerga urmoq; 2) tushirmoq (*mansabdan*).

abasement [ə'beɪsmənt] *n* 1) kamsitish; 2) tushirish (*mansabdan*).

abash [ə'bæʃ] *v* uyaltirmoq, uyaltirib qo'ymoq, uyatga qoldirmoq, xijolat qilmoq, xijolatga solmoq.

abashed [ə'bæʃt] **1.** *p.p.* **abash** *dan*; **2.** *a* uyaltirilgan, xijolatda qolgan.

abashment [ə'bæʃmənt] *n* uyalib qolish, xijolat bo'lish, xijolat tortish.

abate [ə'beɪt] *v* 1) kuchsizlantirmoq; pasaytirmoq; kamaytirmoq; **to ~ the pain** og'riqni pasaytirmoq; 2) o'tmas qilmoq (*uchni, tig'ni*); **to ~ the knife** pichoqni o'tmas qilib qo'ymoq; 3) *yur.* bekor qilmoq.

abatement [ə'beɪtmənt] *n* 1) kuch-quvvatdan qolish, zaiflashish; **~ of noise** a) shovqin bilan kurashish; b) shovqinning pasayishi; 2) tushirish (*narxni, soliqni*); **to make ~** narxni tushirmoq; 3) *yur.* bekor qilish; **~ of action** sud ishini to'xtatmoq.

abatis, abbatis ['æbətɪs] *n* ag'darilgan daraxtlardan qilingan to'siq.

abat-jour [abaˈʒuːr] *n fr. esk.* 1) lampa qalpog'i; 2) shiftdagi tuynuk; 3) shiftdagi tuynukdan tushadigan yorug'lik.

abattoir ['æbətwɑː] *n fr.* qushxona, kushxona (*chorva mollarini so'yish, go'shti, yog' tayyorlash bilan shug'ullanuvchi korxona*).

abatvoix [ˌɑːbɑːvwɑː] *n fr. max.* akustik ekran.

abb ['æb] *n to'qim.* arqoq.

abbacy ['æbəsɪ] *n* abbat unvoni, abbatlik.

abbess ['æbes] *n* abbatisa (*katolik ayollar monastirining boshlig'i*); rohiba.

abbey ['æbɪ] *n* abbatlik (*katoliklar monastiri va unga qarashli yer-mulk*), monastir; **the Abbey** Vestminstr abbatligi.

abbot ['æbət] *n* abbat (*1. katolik erkaklar monastirining boshlig'i; 2. Fransiyada: katoliklar ruhoniysi*).

abbreviate [ə'briːvɪeɪt] *v* qisqartirmoq; ~d qisqartirilgan.

abbreviation [əˌbriːvɪ'eɪʃn] *n* qisqartirish; qisqartma.

ABC [ˌeɪbiː'siː] *n* 1) alifbo; **~ book** alifbo kitobi; 2) asos, negiz.

abdicate ['æbdɪkeɪt] *v* kechmoq, voz kechmoq, yuz o'girmoq, bahridan o'tmoq, o'zini mahrum qilmoq (*taxtdan, hokimiyatdan, o'z huquqidan*).

abdication [ˌæbdɪ'keɪʃən] *n* kechish, voz kechish, yuz o'girish, bahridan o'tish, o'zini mahrum qilish (*mumadandir*).

abdomen ['æbdəmen] *n* 1) *anat.* qorin, qorin bo'shlig'i; **retracted ~** ichiga kirgan qorin; 2) *zool.* qorin (*qushlarda*).

abdominal [æb'dɔmɪnl] *a anat.* qoringa oid, qorin...; **~ pain** qorin og'rig'i; **~ cavity** qorin bo'shlig'i.

abdominous [æb'dɔmɪnəs] *a* semiz, yo'g'on, qorni katta.

abducent [æb'djuːsənt] *a anat.* ajratadigan (*muskullar to'g'risida*), mushaklarning tortilishi.

abduct [əb'dʌkt] *v* (*zo'rlab, majburan*) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, olib qochmoq (*from*);

to ~ a child from its home bolani uyidan olib qochmoq.

abduction [æb´dʌkʃn] *n* (*:o'rlab, majburan*) o'g'irlash, o'g'irlab ketish; olib qochish *(asosan, bolalar va ayollarni)*.

abductor [æb´dʌktə] *n* o'g'ri, o'g'irlovchi; olib-qochar (*asosan, bolalar va ayollarni*).

abeam [ə´bi:m] *adv deng.* kemaning izidan, orqasidan.

abear [ə´beə] *v* toqat qilmoq, chidamoq.

abecedarian [ˌeɪbi:si:´deərɪən] **1.** *a* 1) alifbo tartibida joylashtirilgan; 2) oddiy, sodda; **2.** *n* savod o'rgatadigan, o'qituvchi.

abed [ə´bed] *adv* 1) ko'rpa-to'shakda; karavotda; 2) ko'rpa-to'shakka, karavotga.

abele [ə´bi:l, eɪbl] *n bot.* oq terak.

aberdevine [ˌæbədə´vaɪn] *n* tog'chumchuq (*modasi*).

aberrance, -cy [æ´berəns, -sɪ] *n* 1) to'g'ri yo'ldan chiqish; 2) *biol.* normal turdan chetga chiqish.

aberrant [æ´berənt] *a* 1) adashgan, adashib qolgan, yo'lini yo'qotib qo'ygan; 2) og'gan, chetga chiqqan, burilib ketgan; **a plane on an ~ course** belgilangan yo'ldan chetga chiqib ketgan samolyot.

aberration [ˌæbə´reɪʃn] *n* adashish, adashib qolish, yo'lini yo'qotish.

abet [ə´bet] *v* yomon ishga undamoq (**in**); **to ~ smb. in a crime** *yur.* kimnidir jinoyat sodir etishga undamoq.

abetment [ə´betmənt] *n* ig'vo, fitna.

abetter [ə´betə] *n* 1) sherik; 2) g'iybatchi, g'alamis, fitnachi.

abettor [ə´betə] = **abetter.**

abeyance [ə´beɪəns] *n* 1) noma'lum, mavhum holat; 2) *yur.* vaqtincha amalda bo'lmaslik, vaqtincha bekor qilinish (*qonun, huquq*); **the question is in~** bu masalani ko'rib chiqish to'xtatildi; **this rule has fallen into ~** bu qonun eskirgan (boshqa amal qilmaydi); **in ~** a) mavhum, kutish holatida; b) egasiz (*meros to'g'risida*); d) vaqtincha bekor qilingan (*qonun to'g'risida*).

abhor [əb´hɔ:] *v* 1) juda yomon ko'rmoq; nafrat bilan qaramoq; 2) *so'zl.* toqat qila olmaslik; yoqtirmaslik; **my son ~s being idle** o'g'lim bekor yurishni yoqtirmaydi.

abhorrence [əb´hɔrəns] *n* jirkanish, nafratlanish, yomon ko'rish; **to hold in ~** nafratlanmoq, jirkanmoq.

abhorrent [əb´hɔrənt] *a* 1) nafrat uyg'otadigan; 2) birga yashay olmaydigan, birga bo'lolmaydigan (*to - bilan*).

abidance [ə´baɪdəns] *n* rioya qilish (*nimagadir*); **~ by rules** qoidaga rioya qilmoq.

abide [ə´baɪd] *v* **(abode, abided, abidden)** 1) chidamli (pishiq) bo'lmoq; buzilmas bo'lib qolmoq; 2) yashamoq; umr ko'rmoq, istiqomat qilmoq; **~ at** biror joyda (istiqomat qilmoq) yashamoq; **~ by** sodiq bo'lib qolmoq; rioya qilmoq; amal qilmoq; **to ~ by one's promises** so'zining (va'dasining) ustidan chiqmoq; **my father ~s by what he said** mening otam doimo aytganini qiladi; **~ in** biror joyda (istiqomat qilmoq) yashamoq; **~ with** kim bilandir qolmoq.

abiding [ə´baɪdɪŋ] **1.** *pres. p.* **abide** *dan;* **2.** *a* doimiy, o'zgarmas, abadiy, mustahkam; **~ friendship** mustahkam do'stlik.

ability [ə´bɪlɪtɪ] *n* qobiliyat, iste'dod, mahorat; **(at, in; to + inf.)**; **~ to hear** eshitish qobiliyati; **negotiation ~** to'siqlarni yengish qobiliyati; **he is a master of ~** u mohir usta; **the ~ to read** o'qish qobiliyati.

abirritate [æ´bɪrɪteɪt] *v tib.* asabiylashni pasaytirmoq.

abject [´æbdʒekt] *a* 1) ayanchli, qabih, yaramas, pastkash, razil; past; **in ~ poverty** juda nochor ahvolda; 2) xo'rlangan, haqoratlangan, kamsitilgan.

abjection [æb´dʒekʃn] *n* 1) past, xarob, g'arib; 2) kamsitish, pastga urish.

abjuration [ˌæbdʒu´reɪʃn] *n* voz kechish, yuz o'girish.

abjure [əb´dʒuə] *v* yuz o'girmoq, voz kechmoq; **to ~ one's religion** o'z dinidan yuz o'girmoq.

ablactation [ˌæblək´teɪʃən] *n* ko'kragidan (bag'ridan) tortib olish (*bolani*).

ablate [ə´bleɪt] *v tib.* olib tashlamoq; kesib tashlamoq; ajratib olib tashlamoq.

ablation [æb´leɪʃn] *n* 1) *jar.* olib tashlash, kesib tashlash; 2) *geol.* jinslarning yuvilishi, muzlarning erishi.

ablative [´æblətɪv] *n gram.* o'rin-payt kelishigi.

ablaut [´æblaut] *n lingv.* ablaut.

ablaze [ə´bleɪz] **1.** *predic. a* yonayotgan, chaqnayotgan; **to be ~** porlamoq; **2.** *adv* o'tda, olovda.

able [´eɪbl] *a* qobiliyatli, mohir; **to be ~ to...** qo'lidan kelmoq.

able-bodied [ˌeɪbl´bɔdɪd] *a* chidamli, baquvvat, sog'lom, yaroqli (*harbiy xizmatga*).

ablet [´æblɪt] *n :ool.* zog'orabaliq.

abloom [ə´blu:m] *adv* gulli, gullagan; **gardens ~ with roses** atirgullar ochilib turgan bog'lar.

abluent [´æbluənt] *a tib.* tozalaydigan, tozalovchi.

ablush [ə´blʌʃ] *a* uyaltirilgan, qizargan.

ablution [ə´blu:ʃn] *n* 1) tahorat; 2) tahorat suvi; 3) *tex.* yuvish.

ably [´eɪblɪ] *adv* mohirlik bilan, mahorat bilan, mohirona.

abnegate [´æbnɪgeɪt] *v* 1) bosh tortmoq (*biror narsadan*); 2) rad qilmoq.

abnegation [ˌæbnɪ´geɪʃn] *n* 1) inkor etish; 2) bahridan o'tish, voz kechish.

abnodate [´æbnədeɪt] *v q.x.* daraxtlarning shoxbutoqlarini qirqib tashlamoq.

abnormal [æb´nɔ:məl] *a* 1) g'ayritabiiy; 2) telba, devona; ~ **psychology** psixopa:ologiya (*ruhiy kasalliklarni o'rganish va davolash haqidagi umumiy ta'limot*).

abnormality [ˌæbnɔ:´mælıtı] *n* 1) g'ayritabiiylik; noto'g'rilik; xatolik, g'alatlik; **reversive abnormalities** asl holiga kela oladigan o'zgarishlar; 2) *so'zl.* esi pastlik, tentaklik.

abnormity [æb´nɔ:mıtı] = **abnormality.**

aboard [ə´bɔ:d] *adv* 1) kemada; 2) kemaga; **to take goods** ~ kemaga yuklarni yuklamoq; **to (get) step** ~ kemaga (samolyotga) o'tirmoq.

abode [ə´bəud] *n* 1) manzil, maskan; **to make one's** ~ joylashmoq; **mean** ~ faqirona kulba; 2) turar joy, yashaydigan (istiqomat qiladigan) joy; **to take up one's** ~ ko'chib kelib (borib) joylashmoq; **to make one's** ~ qayerdadir yashamoq; **of no fixed** ~, **(with no fixed** ~) doimiy (ma'lum) yashash joyi bo'lmagan; **the** ~ **of the spirits** narigi dunyo.

abolish [ə´bɔlıʃ] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, tugatmoq; **to** ~ **taxes** soliqni bekor qilmoq.

abolishment [ə´bɔlıʃmənt] *n* o'zgartirish, bekor qilish, yo'q qilish, yo'qotish.

abolition [ˌæbə´lıʃn] *n* bekor qilish, yo'q qilish, tugatish (*shartnoma, qonun va b.*).

abolitionary [ˌæbə´lıʃnərı] *a* halokatli; buzadigan, buzuvchi.

abolitionism [ˌæbə´lıʃnızm] *n amer. tar.* abolitsionizm (*biror qonunni yo'q qilish uchun qiladigan biror jamiyatning harakati*).

A-bomb [´eıbɔm] *n* atom bombasi.

abominable [ə ´bɔmınəbl] *a* 1) jirkanch, qabih; 2) yomon; **the** ~ **weather** yomon ob-havo.

abominably [ə´bɔmınəblı] *adv* kir (iflos) qilib, iflos holda.

abominate [ə´bɔmıneıt] *v* nafratlanmoq, jirkanmoq.

abomination [əˌbɔmı´neıʃn] *n* nafratlanish, yomon ko'z bilan qarash; **to hold in** ~ nafrat bilan qarash.

aboriginal [ˌæbə´rıdʒənl] **1.** *a* 1) tub joylik; mahalliy; 2) tabiiy holicha saqlangan; tabiiy holatdagi, qo'l tegmagan; ~ **forests** haligacha inson qo'li tegmagan o'rmonlar; **2.** *n* tub joyli kishi.

aborigine [ˌæbə´rıdʒını] *n* mahalliy kishi.

aborigines [ˌæbə´rıdʒını:z] *n pl* mahalliylar, tub joyliklar, qadimgilar, muqimlar, mahalliy xalqlar.

abort [ə´bɔ:t] *v* 1) bola tashlamoq; 2) baxtsizlikka uchramoq.

aborted [ə´bɔ:tıd] *a* 1) chala tug'ilgan; 2) *biol.* yaxshi rivojlanmagan; 3) to'xtatilgan, qoldirilgan; ~ **escape** sindirilgan novda; ~ **attempt** muvaffaqiyatsiz urinish.

abortion [ə´bɔ:ʃn] *n* 1) oldindan homilador bo'lishni to'xtatish, homiladorlikning oldini olish, homiladorlikni to'xtatish, bolani sun'iy yo'l bilan olib tashlash, bola tashlash; 2) nogiron; 3) falokat, ish o'ngmasligi, muvaffaqiyatsizlik; 4) *biol.* hiror a'zoning yaxshi rivojlanmaganligi; 5) chetga chiqish hodisasi.

abortive [ə´bɔ:tıv] *a* 1) bevaqt, vaqtidan ilgari (*tug'ish haqida*); 2) badbaxt, baxtsiz, tug'maydigan; 3) *biol.* chala, chala tug'ilgan; 4) natijasiz, befoyda; ~ **attempt** befoyda urinish; 5) amalga oshmaydigan; ~ **scheme** amalga oshmaydigan reja.

abortively [ə´bɔ:tıvlı] *adv* samarasiz, foydasiz, behuda.

abound [ə´baund] *v* 1) mo'l bo'lmoq, ko'paymoq; **fish** ~ **in the sea** dengizda baliqlar ko'p; 2) (**in, with**) seroh bo'lmoq; **land** ~**s in oil** yerda neft ko'p.

about [ə´baut] **1.** *adv* 1) tevaragida, atrofida, hamma yerda, har yerda, barcha joylarda; **to look** ~ atrofga nazar solmoq; 2) taxminan, yaqin; **2.** *prep.* to'g'risida, haqida, xususida.

about-face [əˌbaut´feıs] **1.** *n* orqaga burilish, orqaga aylanish, orqaga qaytish; **2.** *v* orqaga qaytmoq, orqaga burilmoq, orqaga aylanmoq; **he did a complete** ~ u yo'lni tubdan o'zgartirdi.

about-sledge [ə´bautsledʒ] *n* bosqon, temirchining to'qmog'i.

above [ə´bʌv] **1.** *adv* ustida, ustiga, yuqorida; **my room is just** ~ mening xonam yuqorida; **as stated** ~ yuqorida aytib o'tilgandek; **2.** *prep.* ustida, yuqori; **the temprature was** ~ **zero last week** o'tgan hafta harorat noldan yuqori edi.

above-board [əˌbʌv´bɔ:d] **1.** *a* halol, vijdonli, to'g'ri so'z; **2.** *adv* insof bilan, to'g'rilik bilan.

above-ground [ə´bʌvgraund] **1.** *a* 1) tirik, yashab yurgan; 2) yer ustidagi (yuzidagi); **2.** *adv* tiriklayin.

above-mentioned [əˌbʌv´menʃnd] *a* yuqorida aytilgan; **the** ~ **story** yuqorida aytilgan hikoya.

above-water [ə´bʌvˌwɔ:tə] *a* suv ustidagi.

abracadabra [ˌæbrəkə´dæbrə] **1.** *n* safsata, bema'ni gap; **2.** *v* 1) duo qilmoq; 2) bema'ni (bemaza) gaplarni gapirmoq.

abradant [ə´breıdənt] *n tex.* abraziv material (*charxlash, silliqlash asboblari uchun ishlatiladigan mayda donador qattiq material*).

abrade [ə´breıd] *v* 1) yuvmoq; 2) ishqalab yirtmoq; 3) uzib olmoq, yulib tashlamoq; shilib olmoq (*terini, po'stni, charmni*); 4) *tex.* silliqlamoq.

abranchial [æ´brænkıəl] = **abranchiate.**

abranchiate [ə´brænkııt] *a zool.* oyoqsiz (*oyquloq – suv hayvonlarining nafas organlari*).

abrasion [ə´breıʒn] *n* ishqalash, ishqalab yo'qotish.

abrasive [ə´breısıv] **1.** *a tex.* pardoz beradigan; **2.** *n tex.* pardoz beradigan material.

abreast [ə´brest] *adv* qatorda, bir safda; **three** ~ bir safda uchtadan.

abridge [ə´brıdʒ] *v* qisqartmoq, qisqartirmoq, kichraytirmoq, kamaytirmoq.

abridged [ə´brıdʒd] *a* qisqartirilgan; **~ edition** qisqartirilgan nashr.

abrid(e)ment [ə´brıdʒmənt] *n* 1) qisqartirish; **this article requires no ~** bu maqolani qisqartirish shart emas; 2) qisqartirilgan matn; 3) cheklash (*huquq va h.*).

abroad [ə´brɔ:d] **1.** *adv* chet elga, chet elda; **to go ~** chet elga (xorijiy mamlakatlarga) bormoq; **2.** *prep. esk.* har yerda; **~ the world** butun dunyoda.

abrogate [´æbrəugeıt] *v* o'zgartirmoq (*qonun va b.*), bekor qilmoq; **~ a constitution** qonunni o'zgartirmoq, qonunni bekor qilmoq.

abrogation [ˌæbrə´geıʃn] *n* bekor qilish, kuchini yo'qotish; o'zgartirish (*qonun va b.*).

abrupt [ə´brʌpt] *a* 1) kutilmagan, tasodifiy; **~ turn** kutilmagan burilish; 2) tik jarli, tik kesilib tushgan; **~ coast** tik qirg'oq, tik jarlik.

abruption [ə´brʌpʃn] *n* 1) yoriq, yorilgan joy, ajratish, ayirish, bir-biridan judo qilish, uzib qo'yish, yulib ajratmoq, kuch bilan ajratmoq; 2) *geol.* yuzasiga chiqish (*qatlamning*).

abruptness [ə´brʌptnəs] *n* kutilmaganlik; nogahoniylik.

abscess [´æbses] *n tib.* yiringlash, chipqon, yiringli shish.

abscissa [æb´sısə] *n mat.* abssissa (*nuqtaning tekislikdagi yoki fəzodagi vaziyatini aniqlovchi koordinatalardan biri*).

abscissae [æb´sısi:] *pl* **abscissa** *dan.*

abscission [æb´sıʃn] *n* 1) *tib.* kesib tashlash; 2) *bot.* ajralib tushish; **~ of leaves** daraxtlardagi barglarning yerga tushishi; **~ fruits** mevalarning (*pishgandan keyin yoki shamol natijasida*) daraxtlardan yerga tushishi.

abscond [əb´skɔnd] *v kit.* yashirinmoq; qochib ketmoq (*suddan*) (**from, with**).

absence [´æbsəns] *n* ishtirok etmaslik; vaqtincha qatnashmaslik (**from**); **~ from school** maktabga bormaslik.

absent 1. *a* [´æbsənt] kelmagan kishi; **2.** *v* [əb´sent] kelmay qolmoq, yo'q bo'lmoq; **to be ~ from school** (*maktabdagi*) darslarni qoldirmoq; **who is ~ today?** bugun kim yo'q?

absentee [ˌæbsən´ti:] *n* kelmagan (*yo'q, qatnashmagan, hozir bo'lmagan*) kishi.

absenteeism [ˌæbsən´ti:ızm] *n* sababsiz ishga chiqmaslik.

absentia [æb´senʃıə] *n lot.* (**in ~**) yo'qligida, sirtdan.

absently [´æbsəntlı] *adv* parishonxotirlik bilan.

absent-minded [ˌæbsənt´maındıd] *a* parishonxotir; **~ look** e'tiborsiz (beparvo) qarash.

absent-mindedness [ˌæbsənt´maındıdnəs] *n* parishonxotirlik.

absinthe [´æbsınθ] *n* ermanga to'yintirilgan spirtli ichimlik, ermanli araq, erman arag'i.

absit [´æbsıt] *n* darslarda qatnashmaslik uchun ruxsatnoma (*kollej yoki universitetda*).

absolute [´æbsəlu:t] *a* 1) to'la, to'liq, shubhasiz, mutlaqo; 2) toza, sof; **~ alcohol** toza spirt.

absolutely [´æbsəlu:tlı] *adv* mutlaqo, juda, g'oyat; **You are ~ right** Siz mutlaqo haqsiz.

absoluteness [´æbsəlu:tnəs] *n* 1) mutlaqo, batamom, shubhasiz, qat'iy; 2) chegaralanmagan, cheklanmagan, butun hokimiyat.

absolution [ˌæbsə´lu:ʃn] *n* 1) oqlash, kechirish; 2) *cherk.* gunohlarni yuvish (*katoliklarda*).

absolutism [´æbsəlu:tızəm] *n* cheklanmagan hokimiyat.

absolutist [´æbsəlu:tıst] *n* absolutizm tarafdori.

absolutory [æb´sɔljutərı] *a yur.* aybsizligini ko'rsatadigan; **~ document** tasdiqlovchi hujjat.

absolve [əb´zɔlv] *v* 1) (**from**) kechirmoq; **to ~ from blame** gunohidan o'tmoq.

absolvent [æb´sɔlvənt] **1.** *n* 1) kechiruvchi; 2) qutqaruvchi, xaloskor; **2.** *a* kechiruvchi.

absonant [´æbsənənt] *a* norozi, qarshi; **~ to nature** g'ayritabiiy.

absorb [əb´sɔ:b] *v* so'rmoq; shimmoq; namni tortib olmoq.

absorbability [əbˌsɔ:bə´bılıtı] *n* namni tortib olish qobiliyati.

absorbable [əb´sɔ:bəbl] *a* namni tortuvchi.

absorbed [əb´sɔ:bd] *a* berilib ketgan, sho'ng'ib ketgan.

absorbency [əb´sɔ:bənsı] *n* yutish, namni tortib olish.

absorbent [əb´sɔ:bənt] **1.** *a* namni tortib oladigan, shimadigan, yutib yuboradigan; **2.** *n* namni tortib oluvchi modda.

absorber [əb´sɔ:bə] *n tex.* shimuvchi, namni tortuvchi.

absorbing [əb´sɔ:bıŋ] **1.** *a* nam tortuvchi, shimuvchi; **~ capacity** yutish qobiliyati; **2.** *n* yutish (*o'ziga tortib olish*).

absorption [əb´sɔ:pʃn] *n* shimirish, yutish; **~ power** o'ziga olish (*shimish*) qobiliyati.

absorptive [əb´sɔ:ptıv] *a* shimiruvchan, so'ruvchan, tortadigan, shimadigan.

absorptivity [ˌæbsɔ:p´tıvətı] *n* yutish qobiliyati.

abstain [əb´steın] *v* o'zini tutmoq, o'zini (nafsini) tiymoq, sabr-qanoat qilmoq; tonmoq, rad qilmoq.

abstainer [əb´steınə] *n* ichkilik ichmaydigan, hushyor.

abstemious [əb´sti:mıəs] *a* 1) o'zini tiygan, o'z nafsini tiygan (*ovqatdan*); **~ diet** kambag'alona (*nochor*) ovqat; 2) ehtiyotkor.

abstention [əb´stenʃn] *n* 1) o'zini tiyish (*yeb-ichishdan*), 2) betaraflik (*ovoz berishda*).

abstentious [æb´stenʃəs] *a* o'zini (nafsini) tiygan, sabr-qanoatli.

absterge [æbˈstəːdʒ] *v* 1) artmoq, artib tozalamoq, yuvmoq; 2) yuvilmoq; **to ~ oneself from one's sins** gunohlardan forig' bo'lmoq.

abstergent [əbˈstəːdʒənt] **1.** *a* yuvuvchi, tozalovchi. **2.** *n* tozalaydigan moddalar, yuvadigan moddalar (*suvni va b.*).

abstersion [əbˈstəːʃən] *n* artish, yuvib tozalash.

abstinence [ˈæbstɪnəns] *n* **(from)** o'zini tiyish, o'zini tortish.

abstinent [ˈæbstɪnənt] **1.** *n* o'z nafsini tiygan kishi, o'zini tiygan kishi (*yeb ichishdan*); **2.** *a* o'z nafsini tiygan, o'zini tiygan (*yeb ichishdan*).

abstract 1. *n* [ˈæbstrækt] 1) mavhum tushuncha; **in the ~** mavhum; 2) umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot; **2.** *a* [ˈæbstrækt] mavhum, aniq bo'lmagan; **~ noun** mavhum ot; **3.** *v* [æbˈstrækt] tortib olmoq; zo'rlik bilan olmoq.

abstracted [æbˈstræktɪd] *a* 1) xayolga cho'mgan; 2) uzoq, olis.

abstractedly [æbˈstræktɪdlɪ] *adv* parishonxotirlik bilan.

abstractedness [æbˈstræktɪdnɪs] *n* 1) mavhumlik, noaniqlik; 2) parishonlik, parishonxotirlik; 3) parokandalik, tarqoqlik.

abstracter [æbˈstræktə] *n* referat yozadigan kishi.

abstraction [æbˈstrækʃn] *n* mavhum tushuncha; noaniq narsa.

abstractive [əbˈstræktɪv] *a* noaniq, mavhum.

abstractiveness [əbˈstræktɪvnəs] *n* mavhumlik, umumiylik.

abstruse [æbˈstruːs] *a* 1) chuqur ma'noli; 2) tushunish uchun qiyin bo'lgan; 3) maxfiy.

absurd [əbˈsəːd] *a* bema'ni, bo'lmag'ur; ahmoqona; kulgini qistatadigan.

absurdity [əbˈsəːdətɪ] *n* bema'nilik, behudalik, ahmoqlik, tentaklik.

absurdly [əbˈsəːdlɪ] *adv* bema'ni; ahmoqona; kulgili.

abundance [əˈbʌndəns] *n* to'kinchilik; **~ of the heart** hissiyotga boy.

abundant [əˈbʌndənt] *a* serob; to'lib toshgan; **to be ~** to'lib toshmoq.

abuse 1. *n* [əˈbjuːs] so'kish, haqorat qilish; tahqirlash; **to exchange ~** bir-birini haqorat qilish; **2.** *v* [əˈbjuːz] so'kmoq, haqorat qilmoq.

abusive [əˈbjuːsɪv] *a* haqoratli, haqoratomuz; **~ language** so'kish, haqorat, dashnom.

abut [əˈbʌt] *v* (**~ on, upon**) borib taqalmoq; chegaradosh bo'lmoq.

abutment [əˈbʌtmənt] *n* uvat, chegara.

abutting [əˈbʌtɪŋ] *a* tutashgan.

abuzz [əˈbʌz] *a* 1) vizillaydigan; 2) faol.

abysm [əˈbɪzm] *n* tubsiz jar, chuqurlik, girdob.

abysmal [əˈbɪzməl] *a* tagsiz, chuqur, tubsiz.

abyss [əˈbɪs] *n* tagsiz chuqurlik, jar, girdob.

abyssal [əˈbɪsl] *a* chuqurlikdagi, suvning chuqur joyida yashaydigan; **~ depth** dengizning eng chuqur joyi.

acacia [əˈkeɪʃə] *n bot.* akatsiya (*daraxti*).

academe [ˈækədiːm] *n* 1) akademiya o'quv muassasasi; 2) Afina yaqinidagi Aflotun o'qigan maktab joylashgan bog'; 3) oliy o'quv yurtlarining o'qituvchisi; professor; 4) o'qimishli odam.

academic [ˌækəˈdemɪk] **1.** *n* (oliy) o'quv yurtining o'qituvchisi, professori *yoki* ilmiy xodimi; **2.** *a* universitetga oid, akademik...; **~ year** o'quv yili; **~ lyceum** akademik litsey.

academical [ˌækəˈdemɪkl] *a* akademiyaga oid, universitetga oid.

academicals [ˌækəˈdemɪk(ə)lz] *n pl* plash va beret (*universitet kiyimi*).

academician [əˌkædəˈmɪʃn] *n* akademik.

academy [əˈkædəmɪ] *n* akademiya (*oliy ilmiy muassasa*).

academy-figure [əˈkædəmɪˌfɪgə] *n rasm.* yalang'och odam rasmini chizish.

acanthi [əˈkænθaɪ] *pl* **acanthus** *dan.*

acanthus [əˈkænθəs] *n bot.* 1) ayiqtovon (*o'simlik*); 2) *me'mor.* naqsh.

acaridan [æˈkærɪdən] *n* (*pl* **-dae**) kana.

acarpous [əˈkɑːpəs] *a bot.* mevasiz, meva bermaydigan.

acataleptic [æˌkætəˈleptɪk] *a kit.* tushinib bo'lmaydigan.

acaudal [əˈkɔːdəl] *a zool.* dumsiz, quyruqsiz.

accede [ækˈsiːd] *v* rozi bo'lmoq, qabul qilmoq; **to ~ to request (to a proposal)** iltimosga rozi bo'lmoq, taklifni qabul qilmoq.

accedence [ækˈsiːdəns] *n* rozi bo'lish.

accelerant [əkˈseləɾənt] *n kim.* katalizator.

accelerate [əkˈseləɾeɪt] *v* tezlashtirmoq, tezligini oshirmoq.

accelerated [əkˈseləɾeɪtɪd] *a* tezlashtirilgan; oshirilgan (*tezlik haqida*).

accelerating [əkˈseləɾeɪtɪŋ] *a* tezlashuvchi; **~ force** *fiz.* tezlashtirish kuchi.

acceleration [əkˌselə ˈreɪʃn] *n* tezlashish; **~ of gravity** *fiz.* jismni erkin tushish suratining tezlanishi.

accelerative [əkˈseləɾətɪv] *a* tezlashtiruvchi.

accelerator [əkˈseləɾeɪtə] *n* 1) *tex.* tezlatgich, akselerator; 2) *kim.* katalizator.

accent 1. *n* [ˈæksənt] 1) urg'u; 2) talaffuz; **2.** *v* [ækˈsent] 1) urg'u qo'ymoq, urg'u bilan talaffuz qilmoq; 2) ta'kidlamoq.

accentual [əkˈsentʃuəl] *a* urg'uga oid bo'lgan; **~ prosody** tonik she'r yozish.

accentuate [əkˈsentʃueɪt] *v* 1) urg'u qo'ymoq; 2) urg'u belgisini qo'ymoq; 3) ta'kidlamoq.

accentuation [əkˌsentʃuˈeɪʃn] *n* 1) urg'u qo'yish; 2) talaffuz qilish uslubi; 3) ta'kidlash.

accept [əkˈsept] *v* qabul qilmoq; **to ~ a present** sovg'ani qabul qilmoq.

acceptability [əkˌseptəˈbɪlətɪ] *n* maqbul bo'lish, to'g'ri kelish.

acceptable [əkˈseptəbl] *a* 1) ma'qul; muvofiq keladigan; 2) yoqadigan, ko'ngildagi.

acceptance [ək ˊseptəns] *n* qabul qilish; kutib olish; ~ **of an invitation** taklifni qabul qilish.

acceptation [ˌæksepˊteɪʃn] *n* so'zning mazmunini yaxshi tushunib olish.

accepted [ək ˊseptɪd] *a* qabul qilingan; barchaga tanilgan; ~ **truth** hammaga ayon bo'lgan haqiqat.

accepter [ək ˊseptə] *n* qabul qiluvchi shaxs; qabul qiluvchi.

acceptive [ək ˊseptɪv] *a* qabul qilsa bo'ladigan.

accepter [ək ˊseptə] *n* qabul qiluvchi kishi.

acceptor [ək ˊseptə] *n savdo.* akseptant (*qabul qiluvchi kishi*).

access [ˊækses] *n* 1) kirish yo'li, kiradigan joy; 2) kirish uchun ruxsat.

accessary [ək ˊsesərɪ] *n yur.* birga ishtirok etgan.

accessibility [əkˌsesə ˊbɪlətɪ] *n* 1) kirish (o'tish, borish) mumkin bo'lgan; 2) *tex.* ko'rish va xizmat ko'rsatishning qulayligi.

accessible [ək ˊsesəbl] *a* 1) kirish mumkin bo'lgan; 2) hammabop; 3) tushunarli.

accession [æk ˊseʃn] **1.** *n* 1) o'tish (*yangi lavozimga*); 2) o'sish; ko'payish; to'ldirish: **2.** *v* ro'yxatga (katalogga) kiritmoq.

accessorial [ˌæksɔ ˊsɔːrɪəl] *a* ko'makchi; qo'shimcha.

accessories [æk ˊsesərɪz] *n pl* buyumlar, narsalar.

accessory [ək ˊsesərɪ] **1.** *a* qo'shimcha yordam; ~ **material** qo'shimcha material; **2.** *n yur.* sherik.

accidence [ˊæksɪdəns] *n* 1) *gram.* morfologiya; 2) qandaydir fanning asosi (negizi, poydevori).

accident [ˊæksɪdənt] *n* 1) hodisa, tasodif; **by** ~ tasodifan, kutilmagan; 2) baxtsiz hodisa; halokat; fojia; **to have an** ~ halokatga uchramoq; **a car (road)** ~ avtomobil halokati.

accidental [ˌæksɪ ˊdentl] *a* 1) tasodifiy; kutilmagan; ~ **coincidence** tasodifiy mos kelish; ~ **discharge**, *harb.* to'satdan o'q otish; 2) ikkinchi darajali.

accidentally [ˌæksɪ ˊdentəlɪ] *adv* tasodifan, bexosdan, to'satdan.

acclaim [ə ˊkleɪm] **1.** *n* baqiriq, xursandchilik bilan qutlash (tabriklash, kutib olish); **2.** *v* baqirib olqishlamoq (*kimnidir*).

acclamation [ˌæklə ˊmeɪʃn] *n* qizg'in ma'qullash; **carried by** ~ bir ovozdan ma'qullanganligi tufayli ovozga qo'ymay qabul qilindi.

acclamatory [ə ˊklæmətrɪ] *a* ma'qullaydigan; ~ **shouts** ma'qullash (qabul qilish) qiyqiriqlari.

acclimate [ˊækləmeɪt] = **acclimatize**.

acclimation [ˌæklə ˊmeɪʃn] = **acclimatization**.

acclimatization [əˌklaɪmətaɪ ˊzeɪʃn] *n* iqlimga moslashtirish.

acclimatize [ə ˊklaɪmətaɪz] *v* iqlimga muvofiqlashtirmoq; **to** ~ **oneself to the surroundings** atrofdagi sharoitga moslash(tir)moq.

acclivity [ə ˊklɪvətɪ] *n* qiya ko'tarib boradigan yo'l, qiya tepa.

acclivous [ə ˊklaɪvəs] *a* qiya, nishab.

accommodate [ə ˊkɔmədeɪt] *v* moslashmoq, moslashtirmoq; **to** ~ **oneself to smth.** biror narsaga moslashmoq, biror narsaga odatlanmoq.

accommodating [ə ˊkɔmədeɪtɪŋ] *a* 1) xizmatini ayamaydigan; 2) chiqishib ketadigan, gapga ko'nadigan; **in an** ~ **spirit** murosa ruhida.

accommodation [əˌkɔməˊdeɪʃn] *n* 1) ko'nikish; 2) boshpana; xona; **hotel** ~ mehmonxonadagi xona.

accommodation-ladder [əˌkɔməˊdeɪʃnˌlædə] *n deng.* olib qo'yiladigan narvon.

accommodation train [əˌkɔməˊdeɪʃntreɪn] *n amer.* har bir bekatda to'xtaydigan mahalliy yo'lovchi poyezdi.

accommodative [əˊkɔmədeɪtɪv] *a* 1) qulay; munosib, bop, o'ng'ay, mos, muvofiq; 2) chiqishadigan, chiqisha oladigan.

accompaniment [əˊkʌmpənɪmənt] *n* 1) kuzatish; 2) *mus.* jo'r bo'lish.

accompanist [əˊkʌmpənɪst] *n* jo'rlik qiluvchi sozanda.

accompany [əˊkʌmpənɪ] *v* 1) kuzatib qo'ymoq; yo'ldosh bo'lmoq, 2) *mus.* jo'r bo'lmoq.

accompanying [əˊkʌmpənɪɪŋ] *a* kuzatuvchi, ergashib boruvchi.

accomplice [əˊkʌmplɪs] *n yur.* sherik, birga ishtirok etgan (*jinoyatda*).

accompliceship [əˊkʌmplɪsʃɪp] *n yur.* birga ishtirok etish (*jinoyatda*).

accomplish [əˊkʌmplɪʃ] *v* 1) bajarmoq; **to** ~ **a task** topshiriqni bajarmoq; 2) mukammallashtirmoq; bekam-ko'st qilmoq.

accomplished [əˊkʌmplɪʃt] *a* 1) tugatilgan, oxiriga yetkazilgan, bajarilgan; 2) tajribali, eng yaxshi; ~ **violonist** eng yaxshi skripkachi.

accomplishment [əˊkʌmplɪʃmənt] *n* 1) bajarish; 2) tugatish; 3) yutuq.

accord [əˊkɔːd] *n* rozilik, yakdillik; **with one** ~ bir ovozdan, yakdillik bilan.

accordance [əˊkɔːdəns] *n* muvofiqlik, moslik; **in** ~ **with smth.** -ga muvofiq, -ga ko'ra (binoan).

accordant [əˊkɔːdənt] *a* (**with**) munosib, muvofiq, mos.

according [əˊkɔːdɪŋ] **1.** *prep.* -ga ko'ra, -ga binoan; **2.** *a* o'zaro mos, monand, muvofiq, uyg'un; bir-biriga to'g'ri keladigan.

accordingly [əˊkɔːdɪŋlɪ] *adv* 1) tegishli ravishda, yarasha, qarab, mos ravishda; 2) shunday qilib, demak.

accordion [ə ˊkɔːdɪən] *n* akkordeon, garmon.

accost [əˊkɔst] **1.** *n* murojaat qilish (*kimgadir*); **2.** *v* murojaat qilmoq (*kimgadir*).

accouchement [əˊkuːʃmɔːŋ] *n* tug'ish.

accoucheur [ˌækuːˊʃəː] *fr. n* doya.

accoucheuse [ˌækuːˊʃəːz] *fr. n* doya ayol.

account [ə´kaunt] **1.** *n* 1) raqam, hisob raqami; **bank ~** bankdagi hisob (raqam); 2) hisobot; **2.** *v* **(for)** tushuntirmoq.

accountability [ə,kauntə´bılətı] *n* 1) javobgarlik; 2) hisobot beruvchi; **she is ~ to her father** u otasining oldida hisobot berdi.

accountable [ə´kauntəbl] *a* mas'ul, javobgar.

accountably [ə´kauntəblı] *adv* sababli, uzrli.

accountancy [ə´kauntənsı] *n* buxgalterlik ishi, hisobchilik.

accountant [ə´kauntənt] *n* 1) hisobchi, buxgalter; 2) *yur.* javobgar; **~'s office** moliya bo'limi, buxgalteriya.

accountantship [ə´kauntənʃıp] *n* 1) buxgalterlik ishi; 2) buxgalterlik daftarlarini yuritish.

accoutre [ə´ku:tə] *v* kiyintirmoq, kiygizmoq.

accoutrements [ə´ku:trəmənts] *n pl harb.* (*shaxsiy*) anjom (*asosan, charmdan qilingan*).

accredit [ə´kredıt] *v* vakolat bermoq.

accreditation [ə,kredı´teıʃn] *n dipl.* chet davlatga vakil qilib yuborish.

accredited [ə´kredıtıd] *a* 1) vakil qilib yuborilgan; 2) rasm bo'lib qolgan.

accrementition [,ækrımın´tıʃn] *n biol.* organik o'sish.

accrescent [ə´kresnt] *a* o'sib boruvchi.

accrete [ə´kri:t] **1.** *a bot.* tutashib o'sgan; **2.** *v* (*o'sish yoki rivojlanish jarayonida*) bitta bo'lib qo'shilib (bitib) ketmoq.

accretion [ə´kri:ʃn] *n* 1) o'sish, ko'payish; 2) *biol.* tabiatan o'sish.

accretive [ə´kri:tıv] *a* o'sib boruvchi, o'suvchi, kattalashib borayotgan.

accrue [ə´kru:] *v* ko'paymoq; to'planib qolmoq.

accumulate [ə´kju:mjuleıt] *v* to'plamoq, yig'moq.

accumulation [ə,kju:mjə´leıʃn] *n* jamg'arish, to'plash, yig'ish; **~ of power** kuch to'plash.

accumulative [ə´kju:mjələtıv] *a* jamg'arilgan, to'plangan.

accumulator [ə´kju:mjəleıtə] *n* 1) manfaatparast odam; 2) *tex.* akkumulator.

accuracy [´ækjərəsı] *n* aniqlik, to'g'rilik; **~ of fire** *harb.* merganlik.

accurate [´ækjərət] *a* aniq, to'g'ri; **within 0,001 mm** 0,001mm gacha bo'lgan aniqlik bilan.

accurately [´ækjurətlı] *adv* aniq, to'g'ri.

accurse [ə´kə:s] *v esk.* la'natlamoq, qarg'amoq.

accursed [ə´kə:sıd] *a* 1) la'nati; 2) nafrat qo'zg'atadigan.

accurst [ə´kə:st] = **accursed.**

accusation [,ækju´zeıʃn] *n* ayblash; **to bring an ~ against smb.** kimnidir ayblamoq.

accusative [ə´kju:zətıv] *a gram.* tushum kelishigi.

accusatorial [ə,kju:zə´tɔ:rıəl] *a yur.* ayblashga oid.

accusatory [ə´kju:zətərı] *a* ayblanadigan, ayblash bilan bog'liq bo'lgan.

accuse [ə´kju:z] *v* ayblamoq; **to ~ smb. of a crime** kimnidir jinoyat sodir qilganlikda ayblamoq.

accused [ə´kju:zd] *a yur.* ayblanuvchi (*jinoyatda*).

accuser [ə´kju:zə] *n* 1) *yur.* ayblovchi, qoralovchi; 2) shikoyatchi.

accustom [ə´kʌstəm] *v* o'rgatmoq; **to~ oneself** o'rganib qolmoq.

accustomed [ə´kʌstəmd] *a* odatlangan; o'rgangan; **he is ~ to getting up early** u erta turishga odatlangan.

ace [eıs] **1.** *n* 1) ochko, xol; 2) *kart.* tuz; **the ~ of trumps** asosiy kuzur; **2.** *v* (ochko) xol olmoq (*o'yinda*).

acentric [ə´sentrık] *a* 1) markazlashtirilmagan; 2) *tib.* ustki.

acephalous [ə´sefələs] *a* 1) *zool.* boshsiz (*molluskalar guruhi to'g'risida*); 2) rahbardan mahrum etilgan, boshliqsiz.

acerb [ə´sə:b] *a* nordon, achchiq.

acerbate [´æsəbeıt] *v* 1) achitmoq, taxir (*tish qamashadigan*) qilmoq.

acerbic [ə´sə:bık] *a* nordon, achchiq.

acerose [´æsərəus] *a bot.* ignasimon; **~ leaf** ignabarg.

acescent [ə´sesənt] *a* oksidlovchi.

acetate [´æsıteıt] *n* 1) *kim.* sirka kislotasining tuzi, asetat; 2) *atter.* asetatli; sun'iy; asetatli; **~ silk** asetatli, sun'iy ipak.

acetic [ə´si:tık] *a* sirkali; **~ acid** uksus kislotasi.

acetify [ə´setıfaı] *v kim.* sirkaga aylanmoq.

acetone [´æsıtəun] *n kim.* aseton (*lok-bo'yoq sifatida va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan organik birikma, rangsiz suyuqlik*).

acetous [´æsıtəs] *a* sirkali, nordon.

acetum [´æsıtəm] *n farm.* sirka.

acetylene [ə´setəli:n] *n kim.* asetilen.

ache [eık] **1.** *n* og'riq (*surunkali*); **to have an ~** og'riqni boshdan kechirish; **2.** *v* og'rimoq (*qayeridir*); kasal bo'lmoq; **my head ~s** mening boshim og'riyapti; **3.** *n* eych, H harfining nomi.

acheless [´eıkləs] *a* og'riqsiz.

achievable [ə´tʃi:vəbl] *a* yetib (*erishib*) bo'ladigan.

achieve [ə´tʃi:v] *v* erishmoq; yetishmoq; **to ~ one's aim** o'z maqsadiga erishmoq.

achievement [ə´tʃi:vmənt] *n* yutuq, muvaffaqiyat, g'alaba; **considerable ~s** katta muvaffaqiyatlar; **scientific ~s** ilmiy yutuqlar.

aching [´eıkıŋ] *a* betob, kasal; og'riq keltiruvchi (yetkazuvchi); **~ tooth** og'riyotgan tish.

achromatic [,ækrəu´mætık] *a* rangsiz.

achromatism [ə´krəumətizəm] *n* rangsizlik.

achroous [´ækrəuəs] *a* rangsiz.

acicular [ə´sıkjulə] *a max.* ignasimon.

acid [´æsıd] **1.** *a* nordon; **2.** *n* kislota;

acid-fast [´æsıdfɑ:st] *a* kislotaga chidamli.

acidic [ə´sıdık] *a min.* nordon.
acidification [ə,sıdıfı´keıʃn] *n kim.* oksidlash.
acidify [ə´sıdıfaı] *v kim.* oksidlamoq.
acidity [ə´sıdətı] *n* 1) kislotalilik; 2) o'yuvchanlik.
acidize [´æsıdaız] *v* oksidlamoq.
acidly [´æsıdlı] *adv* 1) istar-istamas; 2) kesatib, g'azablanib.
acid-proof [´æsıdpru:f] *a* kislotaga chidamli.
acidulate [ə´sıdjuleıt] *v kim.* kislota qo'shmoq.
acidulous [ə´sıdjuləs] *a* nordonroq.
acinose [æsı´nəus] *a max.* doni ko'p, serdon.
ack-ack [,æk´æk] *n* 1) *harb. jarg.* zenit to'pi; 2) zenit artilleriyasi; 3) zenit artilleriyasining o'qi.
acknowledge [ək´nɔlıdʒ] *v* tushunmoq, anglamoq; **to ~ one's mistakes** o'z xatolarini tushunmoq.
acknowledged [ək´nɔlıdʒd] *a* tanilgan, tan olingan, e'tirof etilgan.
acknowledgem(e)nt [ək´nɔlıdʒmənt] *n* tan olish, e'tirof etish.
aclinic [ə´klınık] *a* gorizontal, nishabsiz.
acme [´ækmı] *n* (*nimaningdir*) eng yuqori nuqtasi; **the ~ of skill** mahorat cho'qqisiga erishish.
acne [´æknı] *n tib.* husnbuzar, g'udda (*yuzda*).
acock [ə´kɔk] *adv* chakkaga qo'yib, chakkaga qo'ndirib (*bosh kiyim haqida*).
acolyte [´ækəlaıt] *n* 1) *cherk.* xizmatkor; 2) yordamchi.
aconite [´ækənaıt] *n bot.* akonit, parpi (*dorivor o'simlik*).
acorn [´eıkɔ:n] *n* cho'chqayong'oq (*duh daraxtining mevasi*).
acoustic [ə´ku:stık] *a* akustik, tovushga oid; **~ velocity** tovush tezligi.
acoustically [ə´ku:stıkəlı] *adv* akustika nuqtayi nazaridan.
acoustician [,æku:´stıʃn] *n* 1) akustika bo'yicha mutaxassis; 2) eshitish apparatlari ustasi.
acoustics [ə´ku:stıks] *n* akustika.
acquaint [ə´kweınt] *v* tanishtirmoq; **to ~ smb. with smth.** kimnidir biror narsa bilan tanishtirmoq.
acquaintance [ə´kweıntəns] *n* tanish bo'lish; tanishish; **to make the ~ of smb.** kim bilandir tanishmoq.
acquainted [ə´kweıntıd] **1.** *p. p.* **acquaint** *dan*, **2.** *a* 1) tanish, oshna (*kim bilandir*); 2) biladigan (*nimanidir*).
acquest [ə´kwest] *n* 1) *kit.* egallash; 2) *yur.* sotib *yoki* in'om sifatida olingan narsa (*ammo meros sifatida emas*).
acquiesce [,ækwı´es] *v* indamay *yoki* istar-istamay rozilik bildirmoq; **he will never ~** u hech qachon rozi bo'lmaydi.
acquiescence [,ækwı´esns] *n* indamay *yoki* istar-istamay rozi bo'lish; rozilik.
acquiescent [,ækwı´esnt] **1.** *n* indamay rozi bo'ladigan kishi; **2.** *a* indamay rozi bo'ladigan; qarshi chiqmaydigan.
acquirable [ə´kwaıərəbl] *a* erishib bo'ladigan.
acquire [ə´kwaıə] *v* olmoq, erishmoq, egallamoq, qo'lga kiritmoq; **to ~ friends** do'stlar orttirmoq.
acquired [ə´kwaıəd] *a* o'z mehnati bilan topilgan.
acquirement [ə´kwaıəmənt] *n* olish, egallash (*bilimni*).
acquisition [,ækwı´zıʃn] *n* 1) o'zlashtirish; **~ of land** yerni o'zlashtirish; 2) xasis, qizg'anchiq; 3) biror narsani o'ziga tez oluvchi.
acquisitive [ə´kwızətıv] *a* tamagirlarcha.
acquit [ə´kwıt] *v* 1) (**of**) oqlamoq; **he was ~ ted of the crime** u jinoyatda aybdor emas deb topildi; 2) (**of, from**) ozod qilmoq (*majburiyat, qarz va shu kabilardan*).
acquittal [ə´kwıtl] *n* 1) *yur.* oqlab hukm chiqarish; 2) bajarish, ustidan chiqish (*majburiyat, qarz va shu kabilar*).
acquittance [ə´kwıtəns] *n* 1) bo'shatish, xalos qilish (*vazifasidan, qarzdan*); 2) tilxat (*qarzni to'laganlik haqida*).
acre [´eıkə] *n* 1) akr (*Angliyada va Shimoliy Amerikada 0,4047 gektarga teng yer o'lchovi*); 2) *pl* yer, yer-suv; **God's A.** qabriston.
acreage [´eıkərıdʒ] *n* akrlarda o'lchangan yer maydoni.
acrid [´ækrıd] *a* o'tkir, achchiq (*ta'm va h.lar*).
acridity [æ´krıdətı] *n* 1) o'tkirlik, keskinlik (*taom, ichimlik*); 2) dag'al, qo'pol (*xatti-harakat*).
acrimonious [,ækrı´məunıəs] *a* serzarda (*xulq-atvorga oid*).
acrimony [´ækrıməni] *n* badjahl (*xulq-atvorga oid*).
acrobat [´ækrəbæt] *n* akrobat (*murakkab mashqlarni bajaruvchi sportchi yoki sirk artisti*).
acrobatic [,ækrə´bætık] *a* akrobatikaga oid.
acrobatics [,ækrə´bætıks] *n* 1) akrobatika; 2) *av.* figurali uchishlar.
acronym [´ækrənım] *n* akronim.
acropolis [ə´krɔpəlıs] *n* (*pl* **-ses** [-sız], **leis**) *me'mor.* akropol (*qadimgi Yunon shaharlarining, odatda, tepalikda joylashgan va mustahkamlangan markaz qismi; qal'a, qasr*).
across [ə´krɔs] **1.** *adv* ko'ndalang, eniga; **a line drawn ~** ko'ndalangiga (eniga) chizilgan chiziq; **2.** *prep.* orqali, orasidan, ichidan.
acrylic [ə´krılık] *a* akril (*sintetik material*).
act [ækt] **1.** *n* 1) ish, **~ of kindness** xayrli ish; 2) harakat, jarayon; **2.** *v* harakat qilmoq; o'zini biror tarzda tutmoq; kechiktirmay harakat qilmoq; **to ~ wisely** o'zini yaxshi tutmoq.
actable [´æktəbl] *a* namoyish etishga yaroqli.
acting [´æktıŋ] **1.** *a* vazifasini bajaruvchi, vaqtincha; **~ manager** boshqaruvchi vazifasini bajarayotgan; **2.** *n teatr.* ijro etish.
actinia [æk´tınıə] *n* (*pl* **-ae**, **-s** [-z]) *zool.* aktiniya (*dengiz hayvonining bir turi*).
actinic [æk´tınık] *a kim.* aktiniyaga oid.
actinism [´æktınızm] *n kim.* aktiniyga oid, aktinizm.

actinium [æk´tɪnɪəm] *n kim.* aktiniy (*radioaktiv element, metall*).
actinotherapy [ˌæktɪnəu´θerəpɪ] *n tib.* nur bilan davolash.
actinometer [ˌæktɪ´nɔmɪtə] *n* aktinometr (*quyosh nuri energiyasini o'lchaydigan asbob*).
action [´ækʃn] *n* harakat, faoliyat; **in ~** harakatdagi; **to bring into ~** harakatga keltirmoq; **take ~** harakat qilmoq, chora ko'rmoq.
actionable [´ækʃnəbl] *a yur.* sudlov ishini qo'zg'ashga asos bo'ladigan.
activate [´æktɪveɪt] *v max.* faollashtirmoq.
activated [´æktɪveɪtɪd] **1.** *p. p.* **activate** *dan*; **2.** *a max.* faollashtirilgan.
activation [ˌæktɪ´veɪʃn] *n max.* faollashtiruv.
activator [´æktɪveɪtə] *n kim.* aktivator.
active [´æktɪv] *a* 1) faol, serharakat; **an ~ child** serharakat bola; 2) haqiqiy; **~ help** haqiqiy yordam; 3) amal qilib turgan, amaldagi; **~ laws** amal qilib turgan (amaldagi) qonunlar.
actively [´æktɪvlɪ] *adv* faol.
activist [´æktɪvɪst] *n* yuqori mehnat samaradorligiga erishayotgan ishchi.
activity [æk´tɪvətɪ] *n* 1) faoliyat; 2) faollik, serharakatlik; **time of full ~** eng faollik davri.
actor [´æktə] *n* aktyor.
actress [´æktrɪs] *n* aktrisa.
alteration [ˌɔːltəˈreɪʃn] *n* o'zgartirish.
alterative [ˈɔːltərətɪv] *a* o'zgartirishga sabab bo'lishga qodir.
altercate [ˈɔːltəkeɪt] *v* janjallashib qolmoq; gap talashmoq (**with**).
altercation [ˌɔːltəˈkeɪʃn] *n* janjal, mojaro.
alter ego [ˌæltərˈiːgəu] *n lot.* eng yaqin do'st va hamfikr.
alternate 1. *a* [ɔːlˈtɜːnət] navbati bilan qilinadigan; **2.** *v* [ɔːlˈtɜːneɪt] *v* galma-gal qilmoq.
alternating [ˈɔːltəneɪtɪŋ] *a* almashib turadigan.
alternation [ˌɔːltəˈneɪʃən] *n* galma-gal qilish.
alternative [ɔːlˈtɜːnətɪv] **1.** *n* ikki yo'ldan birini tanlash; **2.** *a* ikki yo'ldan birini tanlashni taqozo etadigan.
alternatively [ɔːlˈtɜːnətɪvlɪ] *adv* muqobil ravishda.
although [ɔːlˈðəu] *cj* garchi; ... ga qaramay.
altigraph [ˈæltɪgrɑːf] *n* altigraf.
altimeter [ˈæltɪˌmiːtə] *n* altimetr, balandlik o'lchagich.
altisonant [ælˈtɪsənənt] *a* dabdabali, balandparvoz.
altitude [ˈæltjuːd] *n* balandlik.
alto [ˈæltəu] *n* alt (*ovoz va torli musiqa asbobi*).
alto-cumulus [ˌæltəuˈkjuːmjuləs] *n* osmondagi to'p-to'p bulutlar.
altogether [ˌɔːltəˈgeðə] *adv* butunlay; to'la, tamoman.
alto-relievo [ˌæltəurɪˈliːvəu] *n me'mor.* gorelef (*tekis sathda ishlangan bo'rtma naqsh*).
alto-stratus [ˈæltəuˈstreɪtəs] *n meteor.* ko'p qatlamli bulut.
altruism [ˈæltruɪzm] *n* altruizm.
altruist [ˈæltruɪst] *n* altruist, g'amxo'rlik ko'rsatuvchi odam.
altruistic [ˌæltruˈɪstɪk] *a* altruistik.
alum [ˈæləm] *n* achchiqtosh.
alumina [əˈluːmɪnə] *n* aluminiy oksidi.
aluminium [ˌæljuˈmɪnɪəm] *n* aluminiy.
aluminous [əˈluːmɪnəs] *a* achchiqtoshga oid.
alumna [əˈlʌmnə] *n lot.* sobiq shogird (*kollej yoki universitetda*).
alumnae [əˈlʌmniː] *pl* **alumna** *dan.*
alumni [əˈlʌmnaɪ] *pl* **alumna** *dan.*
alumnus [əˈlʌmnəs] *n* sobiq shogird (*kollej yoki universitetda*).
alveolar [ˈælvɪələ] *a anat.* pufakchalardan tuzilgan.
alveolate [ˈælvɪəuleɪt] *a* alveolalarga oid.
alveolus [ˈælvɪəuləs] *n anat.* pufakchalar; katak, ko'z, uyacha.
always [ˈɔːlweɪz] *adv* doimo, har doim, muntazam.
am [æm] **to be** *fe'lining hozirgi zamonda birinchi shaxs uchun birlik sonda ishlatiladigan aniqlik maylidagi shakli.*
amadou [ˈæmədu:] *a* pilik, qov.
amain [əˈmeɪn] *adv esk* 1) tez, tezda, darrov, darhol; 2) hor kuch bilan.
amalgam [əˈmælgəm] *n* 1) amalgama; 2) *ko'chm. kitob.* aralash-quralash narsa.
amalgamate [əˈmælgəmeɪt] *v* birlashtirmoq.
amalgamated [əˈmælgəmeɪtɪd] *a* o'zaro bog'langan.
amalgamation [əˌmælgəˈmeɪʃn] *n* aralashish.
amanuenses [əˌmænjuˈensiːz] *pl* **amanuensis** *dan.*
amanuensis [əˌmænjuˈensɪs] *n lot.* oqqa ko'chiruvchi; kitob (*aytib turganni*) yozadigan, shaxsiy kotib.
amaranth [ˈæmərænθ] *n* 1) *bot.* amarant; 2) baxmalrang, to'q qizil rang.
amaranthine [ˌæməˈrænθaɪn] *a* 1) so'lmaydigan, so'lmas; 2) to'q qizil, qirmizi.
amass [əˈmæs] *v* yig'moq, to'plamoq.
amassment [əˈmæsmənt] *n* uyum, g'aram.
amateur [ˈæmətə] *n* havaskor; **an ~ pointer** havaskor rassom; **an ~ show** havaskorlik konserti.
amateurish [ˈæmətərɪʃ] *a* havaskorga oid.
amative [ˈæmətɪv] *a* (tez, darrov) oshiq bo'ladigan, hadeb sevaveradigan, sevuvchan.
amatol [ˈæmətɔl] *n* amatol (*portlovchi modda*).
amatory [ˈæmətərɪ] *a* ishq-muhabbatga oid.
amaze [əˈmeɪz] *v* taajjublantirmoq.
amazed [əˈmeɪzd] *a* hayratlangan; **to be ~ at smth. smb.** nimadandir *yoki* kimdandir qoyil qolmoq, hayratda qolmoq.
amazement [əˈmeɪzmənt] *n* taajjublanish.
amazing [əˈmeɪzɪŋ] *a* hayratlanarli.
amazingly [əˈmeɪzɪŋlɪ] *adv* hayron qolarli darajada, hayratomuz.
Amazon [ˈæməzən] *n grek. mif.* amazonka (*yunon afsonalarida jangovar xotin*).
ambages [æmˈbeɪdʒiːz] *n* kinoya, imo-ishora, qochirim, shama.
ambassador [æmˈbæsədə] *n* elchi.
ambassadorial [æmˌbæsəˈdɔːrɪəl] *a* elchiga va elchixonaga oid, elchi ...; elchixona ...
ambassadress [æmˈbæsədrəs] *n* 1) elchining xotini, 2) ayol elchi.
amber [ˈæmbə] **1.** *n* kahrabo; **2.** *a* kahraboga oid.
ambergris [ˈæmbəgrɪ(:)s] *n* kulrang anbar.
ambidext(e)rous [ˌæmbɪˈdekstrəs] *a* ikkala qo'lini bir xilda ishlata oladigan (*odam*).
ambience [ˈæmbɪəns] *n* muhit, sharoit, tevarak-atrof.

ambient [ˈæmbɪənt] *a* har tomondan o'rab olgan.
ambiguity [ˌæmbɪˈgjuːətɪ] *n* 1) ishora, piching, shama, kinoyali (ikki ma'noli) gap; 2) noaniqlik, noma'lumlik; noaniq (gap, fikr) narsa.
ambiguous [æmˈbɪgjuəs] *a* ikki ma'noli.
ambit [ˈæmbɪt] *n* atrof, tevarak, tevarak-atrofdagi joylar, o'rab olgan muhit, sharoit.
ambition [æmˈbɪʃn] *n* 1) shuhratparastlik; 2) kuchli orzu, niyat, maqsad, ishtiyoq; **it is her ~ to become a teacher** uning maqsadi o'qituvchi bo'lish; **to realize one's ~s** o'z orzularini amalga oshirmoq.
ambitious [æmˈbɪʃəs] *a* shuhratparast.
ambivalence [æmˈbɪvələns] *n* ikkilanish.
ambivalent [æmˈbɪvələnt] *a* (*o'y-fikr haqida*) teskari, zid, qarama-qarshi.
amble [ˈæmbl] *n* 1) yo'rg'alash, yo'rg'alab yurish; 2) yengil qadam tashlash, chaqqon yurish.
ambler [ˈæmblə] *n* yo'rg'a (*ot*)
ambrosia [æmˈbrəʊzɪə] *n* 1) *grek. mif.* yunon afsonalarida ilohlar taomi; 2) asalari ovqati (*asalarilarning uyasiga gul changlaridan to'plagan asal bilan aralashtirilgan ovqatlari*).
ambulance [ˈæmbjuləns] *n* tez yordam mashinasi.
ambulance-chaser [ˈæmbjələnsˌtʃeɪsə] *n amer.* baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga o'z xizmatini taklif qiluvchi advokat.
ambulant [ˈæmbjulənt] *a* bir joydan ikkinchi joyga o'tadigan; ko'chma (*kasallik haqida*).
ambulatory [ˈæmbjulətərɪ] *a* 1) ko'chma; 2) ambulatoriyaga oid.
ambuscade [ˌæmbəˈskeɪd] = **ambush.**
ambush [ˈæmbuʃ] **1.** *n* pistirma; **2.** *v* bir joyda o'tirmoq; pistirmada bo'lmoq; qurshovda bo'lmoq.
ameer [əˈmɪə] *n* amir.
ameliorate [əˈmiːlɪəreɪt] *v* yaxshilamoq.
amelioration [əˌmiːlɪəˈreɪʃn] *n* yaxshilash.
ameliorative [əˈmiːlərətɪv] *a* yaxshilaydigan; meliorativ.
amen [ɑːˈmen] *int* omin.
amenability [əˌmiːnəˈbɪlətɪ] *n* javobgarlik, mas'uliyat.
amenable [əˈmiːnəbl] *a* javobgar.
amend [əˈmend] *v* yaxshilamoq, tuzatmoq.
amendable [əˈmendəbl] *a* tuzaladigan.
amended [əˈmendɪd] *a* tuzatilgan.
amendment [əˈmendmənt] *n* (*xatoni*) tuzatish, yaxshilash; **to move an ~** tuzatish kiritmoq (*rezolyutsiyaga, qonun loyihasiga*).
amends [əˈmendz] *n* qoplash, o'rnini to'ldirish.
amenity [əˈmiːnətɪ] *n* yoqimlilik, mehribonlik.
amenta [əˈmentə] *n pl tib.* aqli zaif kishi.
amentia [eɪˈmenʃə] *n* aqli zaiflik.
amentum [əˈmentəm] = **amenta.**
amerce [əˈmɜːs] *v* jarima solmoq; jazolamoq.
amercement [əˈmɜːsmənt] *n* jarima solish.
American [əˈmerɪkən] **1.** *n* amerikalik; **2.** *a* amerikaga oid.
Americanism [əˈmerɪkənɪzm] *n* amerikanizm.
Americanize [əˈmerɪkənaɪz] *v* amerikalashtirish.
amethyst [ˈæməθɪst] *n* ametist (*qimmatbaho tosh*).
amethystine [ˌæməˈθɪstaɪn] *a* ametistga oid.
amiability [ˌeɪmɪəˈbɪlətɪ] *n* mehribonlik.
amiable [ˈeɪmɪəbl] *a* xushmuomala; do'stona.
amianthus [ˌæmɪˈænθəs] *n min* tog' zig'iri.
amicability [ˌæmɪkəˈbɪlɪtɪ] *n* do'stona munosabat.
amicable [ˈæmɪkəbl] *a* do'stona.
amid [əˈmɪd] *prep.* o'rtasida (*biror narsaning*).
amides [ˈæmaɪdz] *n pl kim.* amidlar.
amidships [əˈmɪdʃɪps] *adv deng.* kemaning o'rtasida.
amidst [əˈmɪdst] = **amid**.
amildar [ˈæmədɑː] *n* soliq yig'uvchi inspektor.
amir [əˈmɪə] = **ameer.**
amiss [əˈmɪs] *adv* adashib.
amity [ˈæmətɪ] *n* do'stlik.
ammeter [ˈæmˌmiːtə] *n el.* ampermetr.
ammonal [ˈæmənəl] *n* ammonal (*portlovchi modda*).
ammonia [əˈməʊnɪə] *n kim.* ammiak.
ammoniac [əˈməʊnɪæk] *a kim.* ammiakka oid.
ammonite [ˈæmənaɪt] *n geol.* ammonit.
ammonium [əˈməʊnɪəm] *n kim.* ammoniy.
ammunition [ˌæmjʊˈnɪʃn] **1.** *n* o'q-dorilar; **2.** *v* o'q-dori bilan ta'minlamoq.
amnesia [æmˈniːzɪə] *n* xotirasini yo'qotish.
amnesty [ˈæmnəstɪ] **1.** *n* gunohidan o'tish; jazodan ozod qilish; **2.** *v* gunohidan o'tmoq; jazodan ozod qilmoq.
amoeba [əˈmiːbə] *n zool.* (*pl* **-ae, -as**) amyoba.
amoebae [əˈmiːbiː] *pl zool.* amyobalar.
amok [əˈmɒk] = **amuck.**
among [əˈmʌŋ] *prep.* (*uch va undan ortiq narsa yoki kishilar uchun ishlatiladi*) o'rtasida, orasida
amongst [əˈmʌŋst] = **among.**
amoral [eɪˈmɒrəl] *a* axloqsiz, adabsiz, odobsiz, beadab.
amorous [ˈæmərəs] *a* 1) oshiq; 2) tez oshiq bo'ladigan.
amorousness [ˈæmərəsnəs] *n* hadeb sevaverish.
amorphous [əˈmɔːfəs] *a* shaklsiz.
amort [əˈmɔːt] *adv* o'lik, jonsiz.
amortization [əˌmɔːtaɪˈzeɪʃn] *n yur.* qarzni to'lash.
amortize [əˈmɔːtaɪz] *v yur.* qarzni to'lamoq.
amount [əˈmaʊnt] **1.** *n* 1) son, miqdor; **a large ~ of work** ko'p ish; 2) umumiy son, miqdor, yig'indi, jami, hammasi, majmuyi; **2.** *v* (*miqdorni, summani*) tashkil qilmoq.
amour [əˈmuə] *n* sevgi, muhabbat.
amourette [ˌæmuˈret] *n* ishqiy fitnachi.
amour-propre [ˌæmuəˈprɒprə] *fr. n* ta'bi noziklik.
amp [æmp] *n* amper (*elektr kuchi birligi*).

amperage [ˈæmpərɪdʒ] *n el.* elektr tok kuchi.
ampere [ˈæmpeə] *n fiz.* amper (*elektr kuchi birligi*).
amperemeter [ˈæmpeəˌmiːtə] *n* ampermetr.
ampere turn [ˈæmpeəˌtɜːn] *n* amper-vitok.
ampersand [ˈæmpəsænd] *n* (*&*) (= **and**) belgisi.
Amphibia [æmˈfɪbɪə] *n pl zool.* ham suvda ham quruqlikda yashovchilar.
amphibian [æmˈfɪbɪən] *a* suvda va quruqlikda yashovchi.
amphibious [æmˈfɪbɪəs] *a* suvda ham quruqlikda ham yashovchi.
amphibology [ˌæmfɪˈbɪɔlədʒɪ] *n* ikki ma'noni ifodalovchi ibora.
amphitheatre [ˈæmfɪθɪətə] *n* amfiteatr (*baland-lab boruvchi o'rinlar*).
amphora [ˈæmfərə] *n* (*pl* **-ae**) ko'zasimon qo'shquloq sopol idish (*qadimgi Yunonistonda*).
ample [ˈæmpl] *a* mo'l-ko'l, yetarli, ko'p.
amplification [ˌæmplɪfɪˈkeɪʃn] *n* ko'paytirish, kengaytirish.
amplifier [ˈæmplɪfaɪə] *n* (*radio*) kuchaytirgich.
amplify [ˈæmplɪfaɪ] *v* ko'paytirmoq, oshirmoq, kengaytirmoq, keng yoymoq.
amplitude [ˈæmplɪtjuːd] *n fiz.* amplituda.
amply [ˈæmplɪ] *adv* serob, to'kin-sochin; yetarli.
ampoule, ampule [ˈæmpuːl, ˈæmpjuːl] *n* ampula (*dori va shu kabi quyib og'zi payvandlangan naycha*).
amputate [ˈæmpjuteɪt] *v* kesib tashlamoq.
amputation [ˌæmpjuˈteɪʃn] *n* kesib tashlash.
amputee [ˌæmpjuˈtiː] *n* qo'li *yoki* oyog'i kesilgan odam.
amuck [əˈmʌk] *adv* jahli chiqqan, g'azablangan.
amulet [ˈæmjulɪt] *n* tumor.
amuse [əˈmjuːz] *v* vaqtini xush qilmoq; **~ oneself** vaqtini chog' qilmoq, yupatmoq.
amusement [əˈmjuːzmənt] *n* o'yin-kulgi.
amusing [əˈmjuːzɪŋ] *a* kulgili.
amyloid [ˈæmɪlɔɪd] **1.** *n* amiloid; **2.** *a* kraxmalli; kraxmalga oid.
an [æn, ən] *gram.* unli tovushlar bilan boshlanadigan so'zlardan oldin ishlatiladigan noaniq artiklning shakli.
ana [ˈɑːnə] *n* 1) xotira to'plami; 2) biror odam haqidagi latifa va hikoyalar.
anaemia [əˈniːmɪə] *n tib.* kamqonlik.
anaemic [əˈniːmɪk] *a tib.* qoni kam, kamqon.
anagram [ˈænəgræm] *n* anagramma.
analects [ˈænəlekts] *n pl* adabiy to'plam.
analgesic [ˌænælˈdʒiːzɪk] **1.** *a* og'riqni qoldiradigan; **2.** *n* og'riqni qoldiradigan dori.
analog [ˈænəlɔg] *n* analog (*o'xshashlik, o'xshash narsa*).
analogical [ˌænəˈlɔdʒɪkl] *a* analogiyaga asoslangan.
analogous [əˈnælɔgəs] *a* o'xshash.
analogy [əˈnælədʒɪ] *n* o'xshashlik.
analyse [ˈænəlaɪz] *v* tahlil qilmoq.
analyses [əˈnæləsiːz] *n pl* tahlil (*qilish*).
analysis [əˈnæləsɪs] *n* (*pl* **-ses**) tahlil.
analyst [ˈænəlɪst] *n* 1) analitik (*analiz bilan shug'ullanuvchi mutaxassis*); 2) sharhlovchi.
analytic(al) [ˌænəˈlɪtɪk(əl)] *a* tahliliy.
analytics [ˌænəˈlɪtɪks] *n pl* tahlil usulini ishlatish.
anamnesis [ˌænæmˈniːsɪs] *n* eslash, esga olish.
anamorphosis [ˌænəˈmɔːfəsɪs] *n* predmetning buzilgan tasviri.
ananas [əˈnɔːnəs] *n bot.* ananas (*o'tsimon tropik o'simlik va uning toinoshaqovoqqa o'xshash xushbo'y shirador hosili*).
anapaest [ˈænəpest] *n adab.* anapest (*urg'u ikki urg'usiz bo'g'indan keyingi bo'g'inga tushadigan uch hijoli she'riy turoq*).
anaplasty [ˈænəplæstɪ] *n tib.* plastik jarrohlik.
anarchic(al) [æˈnɔːkɪk(əl)] *a* anarxiyaga oid.
anarchism [ˈænəkɪzm] *n* anarxizm (*har qanday davlat hokimiyatini va siyosiy kurashni inkor etuvchi, revolutsion proletariat diktaturasiga qarshi bo'lgan reaksion mayda burjua oqimi*).
anarchist [ˈænəkɪst] *n* anarxist (*anarxizm tarafdori*).
anarchy [ˈænəkɪ] *n* anarxiya (*hokimiyatsizlik*).
anathema [əˈnæθɪmə] *n* la'natlash, qarg'ish.
anathematize [əˈnæθəmətaɪz] *v* 1) la'nat o'qimoq, la'natlamoq; 2) qarg'amoq, nafrat yog'dirmoq, urishmoq, koyimoq.
anatomic [ˌænəˈtɔmɪk] = **anatomical.**
anatomical [ˌænəˈtɔmɪkəl] *a* anatomiyaga oid, anatomik.
anatomist [əˈnætəmɪst] *n anat.* anatomiya olimi.
anatomize [əˈnætəmaɪz] *v* 1) yorib tekshirmoq (*o'likni*); 2) tahlil qilmoq.
anatomy [əˈnætəmɪ] *n* anatomiya (*tirik organizmlarning tuzilishi haqidagi fan*).
anbury [ˈænbərɪ] *n* chipqon, gazak olgan yara.
ancestor [ˈænsestə] *n* ota-bobo, ajdod, avlod.
ancestral [ænˈsestrəl] *a* meros (bo'lib) qolgan.
ancestry [ˈænsɪstrɪ] *n* ajdod, avlod.
anchor [ˈæŋkə] *n* langar; **to cast ~** langar tashlamoq.
anchorage [ˈæŋkərɪdʒ] *n* langar tashlab turish.
anchored [ˈæŋkəd] *a* langar tashlagan.
anchoress [ˈæŋkərɪs] *n* tarki dunyo qilgan (*ayol*).
anchoret [ˈæŋkəret] *n* tarki dunyo qilgan (*erkak*).
anchovy [ˈæntʃəvɪ] *n* anchous, xamsa (*mayda dengiz balig'i*)
anchylosis [ˌæŋkɪˈləʊsɪs] *n tib.* ankiloz (*bo'g'imlar harakatsizligi*).
ancient [ˈeɪnʃənt] *a* qadimgi, qadimiy.
ancillary [ænˈsɪlərɪ] *a* yordamchi; ko'makchi.
and [ænd] *cj* va, ham, esa.
andante [ænˈdæntɪ] *it. mus.* andante (*1) sekin, ravon – musiqa asari ijrosining sur'ati haqida; 2) shunday sur'atdagi musiqa asari*).
andiron [ˈændaɪən] *n* kamindagi o'tin qo'yish uchun yasalgan temir taglik.
androgynous [ænˈdrɔdʒənəs] *n bot.* ikki jinsli.
anecdote [ˈænɪkdəʊt] *n* latifa.

anecdotic [ˌænɪkˈdɒtɪk] *a* kulgili.
anemograph [əˈnemɑgrɑːf] *n* anemograf.
anemometer [ˌænɪˈmɒmɪtə] *n* anemometr (*havo va gaz oqimi tezligini o'lchaydigan asbob*).
anemone [əˈnemənɪ] *n bot.* ayiqtovon (*yovvoyi gullilar oilasiga mansub o'tlar*).
anemoscope [əˈnemɔskəup] *n* anemoskop (*shamolning yo'nalishini ko'rsatadigan asbob*).
aneroid [ˈænərɔɪd] *n* barometr-aneroid.
aneurism, aneurysm [ˈænʊərɪzm] *n tib.* anevizm (*arteriyaning bir yeridagi kengayishi*).
anew [əˈnjuː] *adv* yana, qaytadan.
anfractuous [ænˈfræktjʊəs] *a* 1) egri-bugri; spiralsimon; 2) murakkab.
angary [ˈæŋgərɪ] *n* urushuvchi tomonlarning bosib olish huquqi.
angel [ˈeɪndʒəl] *n* farishta.
angelic [ænˈdʒelɪk] *a* farishtalarga (malaklarga) oid.
anger [ˈæŋgə] **1.** *n* g'azab; **2.** *v* g'azablantirmoq.
Angevin [ˈændʒɪvɪn] *a tarix.* anjuyga oid.
angina [ænˈdʒaɪnə] *n* angina.
angle I [ˈæŋgl] *n mat.* burchak;
angle II [ˈæŋgl] **1.** *n* qarmoq; **2.** *v* baliq ovlamoq.
angler [ˈæŋglə] *n* baliqchi.
angleworm [ˈæŋlwɜːm] *n* chuvalchang.
Anglican [ˈæŋglɪkən] **1.** *a* 1) anglikan (*protestant dinining Angliyada ustun bo'lgan turiga oid*); 2) *amer.* Angliyaga va inglizlarga oid; **2.** *n* anglikan mazhabidagi shaxs.
Anglicism [ˈæŋglɪsɪzm] *n* 1) ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'z *yoki* ibora; 2) inglizlarga xos urf-odat; maxsus iboralar va b.lar
Anglicist [ˈæŋglɪsɪst] *n* inglizshunos.
Anglicize [ˈæŋglɪsaɪz] *v* inglizchalashtirish.
Anglistics [æŋˈglɪstɪks] *n pl* inglizshunoslik.
Anglomania [ˈæŋgləuˈmeɪnjə] *n* inglizparastlik.
Anglophobia [ˌæŋgləuˈfəubjə] *n* Angliyaga va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi odam.
Anglo-Saxon [ˌæŋgləuˈsæksən] **1.** *a* anglosaksonlarga oid; **2.** *n* qadimgi ingliz tili.
angola [æŋˈgəulə] *n* angoriy mushuk.
angora [æŋˈgɔːrə] *n* angoriy echki junidan qilingan gazlama; **~ cat** angoriy mushuk; **~ goat** angor (angoriy) echki.
angrily [ˈæŋgrɪlɪ] *adv* g'azabli, g'azab bilan, g'azablangan holda.
angry [ˈæŋgrɪ] *a* badjahl; **to be ~** jahli chiqmoq; **to be ~ with smb.** kimdandir xafa bo'lmoq.
anguine [ˈæŋgwɪn] *a* ilonsimon.
anguish [ˈæŋgwɪʃ] *n* qattiq og'riq.
angular [ˈæŋgjulə] *a* 1) burchakli; 2) juda ozg'in.
angularity [ˌæŋgjʊˈlærətɪ] *n* 1) qirradorlik; 2) ozg'inlik.
anhydride [ænˈhaɪdraɪd] *n kim.* angidrid.
anhydrite [ænˈhaɪdraɪt] *n min.* angidrit (*kalsiy sulfat, ko'pincha oq rangli mineral*).
anhydrous [ænˈhaɪdrəs] *a kim.* suvsiz.
anil [ˈænɪl] *n* nil bo'yog'i (*to'q ko'k rang*).
anile [ˈeɪnaɪl] *a* 1) kampirlaga xos (oid); 2) esi past.
anility [əˈnɪlətɪ] *n* keksalik, qarilik.
animadversion [ˌænɪmædˈvɜːʃn] *n* tanbeh, tanbeh berish.
animadvert [ˌænɪmædˈvɜːt] *v* tanqid qilmoq, tanbeh bermoq.
animal [ˈænɪməl] **1.** *n* hayvon; **2.** *a* hayvonlarga oid; **~ husbandry** chorvachilik; **~ products** chorvachilik mahsulotlari.
animalcule [ænɪˈmælkjuːl] *n* mikroskop orqali ko'riladigan jonivor.
animalism [ˈænɪməlɪzm] *n filos.* 1) animalizm (*har bir narsaning ruhi, joni bor degan e'tiqod*); 2) sezgirlik qobiliyati.
animate 1. *a* [ˈænɪmət] tirik; jonli; **2.** *v* [ˈænɪmeɪt] jon kiritmoq.
animated [ˈænɪmeɪtɪd] *a* tirik, jonli.
animation [ˌænɪˈmeɪʃn] *n* 1) jonlanish; 2) multiplikatsiya.
animism [ˈænɪmɪzm] *n filos.* animizm (*ibtidoiy xalqlarda: har bir narsaning joni, ruhi bor degan e'tiqod*).
animosity [ˌænɪˈmɒsətɪ] *n* dushmanlik.
animus [ˈænɪməs] *n* 1) noto'g'ri tushuncha; 2) dushmanlik.
anise [ˈænɪs] *n* arpabodiyon (*o'simlik*).
anker [ˈæŋkə] *n* anker (*suyuqlik o'lchovi*).
ankle [ˈæŋkl] *n* to'piq suyagi.
ankle-joint [ˈæŋkldʒɔɪnt] *n* boldir suyagi bilan tovon suyagi.
anklet [ˈæŋklət] *n* oyoq bilakuzugi.
anna [ˈænə] *n* anna (*hind tangasi =1/16 rupiy*).
annalist [ˈænəlɪst] *n* tarixni yozib boruvchi (*solnomanavis*).
annals [ˈænlz] *n pl* yilnoma, solnoma.
anneal [əˈniːl] *v tex.* yumshatmoq; qizdirmoq.
annealing [əˈniːlɪŋ] **1.** *p. p.* **anneal** *dan*; **2.** *n tex.* yumshatish.
Annelida [əˈnelɪdə] *n pl zool.* bo'g'im-bo'g'im qurtlar (chuvalchanglar).
annex [ˈæneks] **1.** *n* qo'shimcha, ilova (*hujjat*); **2.** [əˈneks] *v* birlashtirmoq.
annexation [ˌænekˈseɪʃən] *n* birlashtirish.
annexe [ˈæneks] *n* qo'shish.
annihilate [əˈnaɪəleɪt] *v* yo'q qilmoq.
annihilation [əˌnaɪəˈleɪʃn] *n* yo'q qilish.
anniversary [ˌænɪˈvɜːsərɪ] *n* yillik; yubiley.
Anno Domini [ˌænəuˈdɒmɪnaɪ] *adv lot.* yangi (asr) era.
annotate [ˈænəteɪt] *v* 1) izoh bermoq; 2) annotatsiya yozmoq.
annotated [ˈænəteɪtɪd] *a* izohli, eslatmali (*kitob*).
annotation [ˌænəˈteɪʃn] *n* annotatsiya (*asar haqidagi qisqa ma'lumot, uning qisqa mazmuni*).
announce [əˈnaʊns] *v* xabar qilmoq, e'lon qilmoq; **to ~ on the radio** radio orqali e'lon qilmoq.
announcement [əˈnaʊnsmənt] *n* e'lon, xabar.
announcer [əˈnaʊnsə] *n* suxandon, notiq.

annoy [ə´nɔi] *v* 1) xafa qilmoq; 2) jonga tegmoq.
annoyance [ə´nɔiəns] *n* 1) jahli chiqish; 2) o'kinch, alam.
annoyed [ə´nɔid] *a* g'azablangan, achchiqlangan.
annoying [ə´nɔiiŋ] *a* biror narsani qo'zg'aydigan.
annual [´ænjuəl] **1.** *n* yilda bir marta chiqadigan to'plam; **2.** *a* bir yilda bir marta bo'ladigan (o't-kaziladigan), yillik.
annually [´ænjuəli] *adv* har yili; har yilda; yil sayin.
annuitant [ə´nju:itənt] *n* har yilgi (yillik) daromadni oladigan kishi.
annuity [ə´nju:iti] *n* yillik daromad.
annul [ə´nʌl] *v* 1) bekor qilmoq; 2) yo'q qilmoq.
annular [´ænjulə] *a* halqasimon.
annulary [´ænjuləri] *n* so'fi barmoq (*jimjiloq yonidagi to'rtinchi barmoq*).
annulate [´ænjulit] *a* halqali.
annulet [´ænjulit] *n* halqacha.
annulment [ə´nʌlmənt] *n* bekor qilish; yo'q qilish.
annunciate [ə´nʌnsieit] *v* e'lon qilmoq.
annunciation [ə,nʌnsi´eiʃn] *n* hammaga e'lon qilish.
annunciator [ə´nʌnʃieitə] *n* xabar beruvchi asbob.
anode [´ænəud] *n el.* anod (*musbat elektron*).
anodyne [´ænəudain] **1.** *n* og'riqni qoldiradigan dori; **2.** *a* og'riqni qoldiradigan.
anoint [ə´nɔint] *v* surtmoq, surkamoq.
anointment [ə´nɔintmənt] *n* surkash (*teriga moyni va b.*).
anomalistic [ə,nɔmə´listik] *a* normadan chetga chiqqan; noto'g'ri.
anomalous [ə´nɔmələs] *a* noto'g'ri, xato.
anomaly [ə´nɔməli] *n* normadan chetga chiqish.
anon [ə´nɔn] *adv* hozir, tezda, darrov.
anonym [´ænənim] *n* anonim (*nomini yashirgan muallif*).
anonymity [,ænə´nimiti] *n* anonimlik (*nomsizlik*).
anonymous [ə´nɔnimməs] *a* noma'lum.
anopheles [ə´nɔfəli:z] *n* anofeles, bezgak chivini.
anorak [´ænəræk] *n* kapushonli kurtka (*anorak*).
anorexia [,ænə´reksiə] *n tib.* ishtahaning yo'qligi.
anorganic [,ænɔ:´gænik] *a* noorganik.
another [ə´nʌðə] *pron. hind.* 1) boshqa; **one ~** bir-birini; 2) yana bitta (biri).
anourous [ə´nuərəs] *a zool.* dumsiz, quyruqsiz.
anoxaemia [,ænɔk´si:miə] *n* qonda kislorodning yetishmasligi.
anserine [´ænsərain] *a* 1) g'ozga oid; 2) aqlsiz.
answer [´ɑ:nsə] **1.** *n* javob; **2.** *v* javob bermoq; **~ in the affirmative** ijobiy javob bermoq; **in ~ to your letter** sizning xatingizga javoban.
answerable [´ɑ:nsərəbl] *a* javob berib bo'ladigan; (mas'ul) javobgar (*kimningdir oldida*).
ant [ænt] *n* chumoli.
antacid [,ænt´æsid] *a tib.* kislotani neytrallashtiruvchi.
antagonism [æn´tægənizm] *n* 1) raqiblik; 2) dushmanlik.
antagonist [æn´tægənist] *n* raqib; dushman; g'anim.
antagonistic [æn,tægə´nistik] *a* dushmanlik ruhidagi.
antagonize [æn´tægənaiz] **1.** *n* qarshi harakat; **2.** *v* qarshi harakat qilmoq.
Antarctic [ænt´ɑ:ktik] *a* Antarktikaga oid.
ant-bear [´æntbeə] *n zool.* chumolixo'r (*hayvon*).
ante- [´æntɪ-] *pref.* biror-bir vaqt va voqeani oldin sodir bo'lganligini ifoda etish uchun xizmat qilib, -oldin, ilgari, -gacha deb tarjima qilinadi.
ant-eater [´ænt,i:tə] *n* chumolixo'r (*hayvon*).
ante-bellum [,æntɪ´beləm] *a lat.* urushdan oldingi.
antecedent [,æntɪ´si:dənt] **1.** *n* o'tgan umr, o'tmish; **my ~s** mening o'tmishim; **2.** *a* oldingi, avvalgi; burungi, o'tgan.
antechamber [´æntɪ,tʃeimbə] *n* dahliz.
antedate [,æntɪ´deit] **1.** *n* o'tib ketgan kun bilan qo'yilgan sana; **2.** *v* o'tib ketgan sanani qo'ymoq.
antediluvian [,æntɪdi´lu:viən] *a* qadimiy.
antelope [´æntiləup] *n zool.* antilopa (*kiyik*).
ante meridian [,æntimə´ridiən] *a* ertalabki, erta bilan bo'ladigan.
antemeridiem [,æntimə´ridiəm] *adv* choshgohdan oldin.
antenatal [,æntɪ´neitl] *a* qorindagi rivojlanish davrga oid, tug'ilishgacha.
antenna [æn´tenə] *n* 1) *rad.* antenna; 2) *zool.* mo'ylov.
antennae [æn´teni:] = **antenna** 2).
antenuptial [,æntɪ´nʌpʃəl] *a* nikohdan oldingi.
antepenult(imate) [,æntɪpi´nʌlt(imət)] *a* oxiridan uchinchi bo'g'in.
anteprandial [,æntɪ´prændiəl] *a* tushlikdan oldingi.
anterior [æn´tiəriə] *a* oldingi, burungi, ilgarigi, avvalgi.
anteriority [æn,tiəri´ɔriti] *n* birinchilik.
anteriorly [æn´tiəriəli] *adv* erta, barvaqt, vaqtli.
ante-room [´æntiru:m] *n* dahliz, qabulxona.
ant-fly [´æntflai] *n* uchadigan chumoli (qumursqa).
anthem [´ænθəm] *n* madhiya; **national ~** davlat madhiyasi.
anther [´ænθə] *n bot.* changdon.
ant-hill [´ænt,hil] *n* chumoli uyasi.
anthologist [æn´θɔlədʒist] *n* antalogiya tuzuvchi.
anthology [æn´θɔlədʒi] *n* antologiya (*turli mualliflarning saylanma asarlari, ko'pincha she'rlar to'plami*).
anthracene [´ænθrəsi:n] *n kim.* antratsen.
anthracite [´ænθrəsait] *n* antratsit (*toshko'mirning eng yaxshi navi*).
anthrax [´ænθræks] *n tib.* ho'ppoz, ko'k yara, karbunkul, kuydirgi.
anthropoid [´ænθrəupɔid] **1.** *n* odamsimon maymun; **2.** *a* odamsimon.
anthropologist [,ænθrə´pɔlədʒist] *n* antropologiya olimi.

anthropology [ˌænθrəˈpɒlədʒɪ] *n* antropologiya (*odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi, jismoniy tuzilishi va irqlarning paydo bo'lishi haqidagi fan*).
anthropometry [ˌænθrəˈpɒmətrɪ] *n* antropometriya (*antropologiya ilmida: odam tanasi va a'zolarini o'lchashga asoslangan tekshirish usuli*).
anthropophagi [ˌænθrəˈpɒfəgaɪ] *n pl* odamxo'rlar.
anthropophagy [ˌænθrəˈpɒfədʒɪ] *n* odamxo'rlik.
anti- [ˈæntɪ-] *pref.* qarshi, zid (*murakkab so'zlarda*).
anti-aircraft [ˌæntɪˈeəkrɑ:ft] *a* havo hujumiga qarshi; ~ **gunner** zenitchi.
antiaircrafter [ˌæntɪˈeəkrɑ:ftə] *n harb. so'zl.* zenitchi.
antibiosis [ˌæntɪbaɪˈəʊsɪs] *n biol.* antibioz.
antibiotic [ˌæntɪbaɪˈɒtɪk] **1.** *n* antibiotik (*ba'zi mikrob va bakteriyalarning ko'payishini to'xtatadigan organik modda, dorivor*); **2.** *a* antibiotik, antibiotikka oid; ~ **treatment** antibiotik bilan davolash.
antiblackout suit [ˌæntɪˈblækaʊt ˈsju:t] *n* yuk tashish uchun kiyiladigan kiyim.
antibody [ˈæntɪˌbɒdɪ] *n fiziol.* antijismlar (*organizmda antigenlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keladigan va ularning ta'sirini yo'qotadigan moddalar*).
antic [ˈæntɪk] **1.** *n* hazil-huzul, sho'xlik; **2.** *a* hazilkashlik bilan qilingan.
Antichrist [ˈæntɪkraɪst] *n din.* 1) dajjol; 2) iblis.
anticipant [ænˈtɪsɪpənt] **1.** *n* kutayotgan kishi; **2.** *a* kutayotgan.
anticipate [ænˈtɪsɪpeɪt] *v* bashorat qilmoq.
anticipation [ænˌtɪsɪˈpeɪʃn] *n* oldindan sezish.
anticipatory [ænˈtɪsɪpeɪtərɪ] *a* oldingi, avvalgi.
anticlerical [ˌæntɪˈklerɪkl] *a* antiklerikal, klerikalizmga qarshi.
anticlimax [ˌæntɪˈklaɪmæks] *n* kuchsizlanish, kuchini yo'qotish.
anticlinal [ˌæntɪˈklaɪnl] *a geol.* antiklinikalga oid.
anticline [ˈæntɪklaɪn] *n geol.* antiklinikal.
anticlockwise [ˌæntɪˈklɒkwaɪz] *a* soat miliga (teskari) qarshi.
antics [ˈæntɪks] *n pl* g'alati, g'ayritabiiy qiliqlar.
anticyclone [ˌæntɪˈsaɪkləʊn] *n* antisiklon.
antidazzle [ˌæntɪˈdæzl] *a* ko'zni olmaydigan (*chiroqning yorug'ligi to'g'risida*).
antidemocratic [ˌæntɪdeməˈkrætɪk] *a* demokratiyaga qarshi.
antidotal [ˈæntɪdəʊtl] *a* zaharga qarshi.
antidote [ˈæntɪdəʊt] *n* zaharga qarshi dori.
anti-fascist [ˌæntɪˈfæʃɪst] **1.** *n* fashizm dushmani; **2.** *a* fashizm dushmaniga oid.
antifebrile [ˌæntɪˈfi:braɪl] *a* isitmaga qarshi.
antifreeze [ˈæntɪfri:z] *n tex.* antifriz (*suvning muzlash haroratini pasaytiradigan moddalar*).
antifriction [ˌæntɪˈfrɪkʃn] *a tex.* ishqalashni kamaytiruvchi.
antigen [ˈæntɪdʒən] *n fiziol.* antigen (*organizm uchun yot modda*).
anti-icer [ˌæntɪˈaɪsə] *n* muzlashga qarshi vosita, modda.
anti-imperialistic [ˌæntɪɪmpɪərɪəˈlɪstɪk] *a* antiimperialistik, imperializmga qarshi.
antijamming [ˌæntɪˈdʒæmɪŋ] **1.** *n radio* to'siqni bartaraf etish; **2.** *a radio.* to'siqni bartaraf etuvchi.
antiknock [ˌæntɪˈnɒk] *n* antidetonator.
antilogy [ænˈtɪlədʒɪ] *n* qarama-qarshilik; ziddiyat (*terminda*).
antimacassar [ˌæntɪməˈkæsə] *n* qo'l sochiq.
antimech(anized) [ˌæntɪˈmek(ənaɪzd)] *a amer.* tankka qarshi qo'llanadigan.
antimilitaristic [ˌæntɪmɪlɪtəˈrɪstɪk] *a* militarizmga qarshi.
antimony [ˈæntɪmənɪ] *n kim.* surma.
antinomy [ænˈtɪnəmɪ] *n* qonundagi ziddiyat, paradoks.
antipathetic [ˌæntɪpəˈθetɪk] *a* yoqimsiz, xunuk.
antipathetical [ˌæntɪpəˈθetɪkəl] = **antipathetic.**
antipathy [ænˈtɪpəθɪ] *n* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik.
antipersonnel [ˌæntɪpɜ:səˈnel] *a harb.* piyoda askarlarga qarshi.
antiphlogistic [ˌæntɪfləʊˈdʒɪstɪk] *a tib.* yallig'lanishga qarshi.
antipode [ˈæntɪpəʊd] *a* antipod (*1. Yer sharining qarama-qarshi tomonlarida yashovchi odamlar; 2. fe'l, didi, qarashlari qarama-qarshi odamlar*).
antipoison [ˌæntɪˈpɔɪzn] *n* zaharga qarshi dori.
antipole [ˈæntɪpəʊl] *n* qarama-qarshi qutb.
antipyretic [ˌæntɪpaɪˈretɪk] **1.** *n* isitmani pasaytiradigan dori; **2.** *a* isitmani pasaytiradigan.
antiquarian [ˌæntɪˈkweərɪən] **1.** *n* antiqiy narsalar bilan savdo qiluvchi kishi; antikvar; **2.** *a* antiqiy.
antiquary [ˈæntɪkwərɪ] *n* nodir narsalarni to'plovchi.
antiquated [ˈæntɪkweɪtɪd] *a* eskirgan, ishdan chiqqan.
antique [ænˈti:k] **1.** *n* qadimiy (eski) narsa; **2.** *a* qadimiy.
antiquity [ænˈtɪkwətɪ] *n* qadim zamon.
antirrhinum [ˌæntɪˈraɪnəm] *n bot.* itog'iz.
antiscorbutic [ˌæntɪskɔˈbju:tɪk] **1.** *n* singa (zangila) kasalligiga qarshi dori; **2.** *a* singa kasalligiga qarshi.
anti-Semite [ˌæntɪˈsi:maɪt] *n* antisemit (*yahudiylar dushmani*).
anti-Semitic [ˌæntɪsɪˈmɪtɪk] *a* antisemitga oid.
anti-Semitism [ˌæntɪˈsemɪtɪzm] *n* antisemitizm.
antiseptic [ˌæntɪˈseptɪk] **1.** *n* antiseptik, gazak olishdan saqlaydigan dori; **2.** *a* gazak olishdan saqlaydigan.
antiskid [ˈæntɪˈskɪd] *a tex.* sirg'anmaydigan.
antisocial [ˌæntɪˈsəʊʃəl] *a* jamiyatga qarshi bo'lgan.

anti-submarine [ˌæntɪsʌbmə´ri:n] *a deng.* kemaga qarshi.
anti-tank [ˌæntɪ´tæŋk] *a* tankka qarshi bo'lgan.
antitheses [æn´tɪθəsi:z] *pl* **antithesis** *dan.*
antithesis [æn´tɪθəsɪs] *n* (*pl* **-ses**) 1) qaramaqarshilik, tafovut; 2) kontrast, butunlay qaramaqarshilik.
antitoxic [ˌæntɪ´tɔksɪk] *a* zahardan himoya qiladigan.
antitoxin [ˌæntɪ´tɔksɪn] *n* zaharga qarshi dori.
anti-trade [ˌæntɪ´treɪd] *n meteor.* antipassat (*tropik kengliklarda: tropiklardan ekvatorga tomon doim esib turadigan quruq shamolga qarshi yo'nalgan doimiy havo oqimlari*).
antiviral [ˌæntɪ´vaɪrəl] *a* virusga qarshi.
antiwar [ˌæntɪ´wɔ:] *a* urushga qarshi.
antler [´æntlə] *n* bug'u shoxi.
antonym [´æntənɪm] *n tilshun.* antonim.
anus [´eɪnəs] *n anat.* orqa yo'l (*ko'ton*).
anvil [´ænvɪl] *n* sandon (*temir kunda*).
anxiety [æŋ´zaɪətɪ] *n* notinchlik, bezovtalik.
anxious [´æŋkʃəs] *a* tashvishga tushgan; bezovtalangan.
anxiously [´æŋkʃəslɪ] *adv* xavotirlik bilan.
any [´enɪ] **1.** *indef.* 1) kim bo'lsa ham; 2) qanday bo'lmasin; 3) har bir (*bo'lishli gaplarda*); **2.** *adv* biroz, ozgina (*so'roq va bo'lishsiz gaplarda*).
anybody [´enɪˌbɔdɪ] *pron. indef.* 1) har bir; 2) kim bo'lsa ham.
anyhow [´enɪhaʊ] *adv* qanday qilib bo'lmasin.
anymore [ˌenɪ´mɔ:] *adv amer. so'zl.* (*inkor gaplarda ishlatiladi*) endi, bundan keyin, bundan boshqa (*tashqari*); ikkinchi.
anyone [´enɪwʌn] *indef. pron.* 1) har bir; 2) kim bo'lsa ham.
anything [´enɪθɪŋ] *indef. pron.* biror narsa.
anyway [´enɪweɪ] *adv* nima bo'lganda ham, baribir.
anywhere [´enɪweə] *adv* 1) qayerda bo'lmasin; qayerda bo'lmasin (*bo'lishli gaplar*); 2) qayerda bo'lmasin (*so'roq va bo'lishsiz gaplarda*).
anywise [´enɪwaɪz] *adv* qanday qilib bo'lsa ham.
aorta [eɪ´ɔ:tə] *n anat.* shotomir.
aortic [eɪ´ɔ:tɪk] *a anat.* shotomirga oid.
apace [ə´peɪs] *adv* tezda, darhol.
apanage [´æpənɪdʒ] *n* parlament tomonidan monarx uchun ajratiladigan mablag'.
apart [ə´pɑ:t] *adv* 1) tomoniga; 2) chetda.
apartheid [´əpɑ:theɪt] *n* irqchilik, irqiy kamsitish siyosati.
apartment [ə´pɑ:tmənt] *n* 1) xona; 2) turar joy, *amer.* xonadon.
apartness [ə´pɑ:tnəs] *n* alohidalik.
apathetic [ˌæpə´θetɪk] *a* beparvo, bee'tibor.
apathy [´æpəθɪ] *n* loqaydlik, beparvolik.
apatite [´æpətaɪt] *n min.* fosforli mineral.
ape [eɪp] **1.** *n* maymun; **2.** *v* ko'r-ko'rona taqlid qilmoq, bachkana qiliqlar qilmoq.

3 – Sh. Butayev, A. Irisqulov

apeak [ə´pi:k] *adv* tik holatda.
aperient [ə´pɪərɪənt] *n tib.* surgi dori.
aperitif [əˌperə´ti:f] *n* aperitiv (*ovqatdan oldin ichilgan spirtli ichimlik*).
aperture [´æpetjə] *n* teshik, tirqish.
apery [´eɪpərɪ] *n* ko'r-ko'rona taqlid qilmoq.
apex [´eɪpeks] *n* tepa, cho'qqi.
aphasia [æ´feɪzɪə] *n tib.* afaziya (*so'zlash qobiliyatini yo'qotish*).
aphelion [æ´fi:lɪən] *n astr.* afeliy (*Quyosh atrofidagi orbitaning Quyoshdan eng uzoq nuqtasi*).
aphides [´eɪfɪdi:z] *n pl* shira, o'simlik biti.
aphis [´eɪfɪz] *n* shira, o'simlik biti.
aphonia [eɪ´fəʊnɪə] *n tib.* afoniya (*ovozni yo'qotish*).
aphony [´æfənɪ] *n* afoniya (*ovozni yo'qotish*).
aphorism [´æfərɪzm] *n* aforizm (*hikmatli so'z*).
aphoristic [ˌæfə´rɪstɪk] *a* aforizmdan iborat bo'lgan.
aphrodisiac [ˌæfrə´dɪzɪæk] *n* jinsiy hisni oshiradigan dori.
Aphrodite [ˌæfrə´daɪtɪ] *n mif.* Afrodita, go'zallik timsoli.
aphtha [´æfθə] *n tib.* til (og'iz) oqarishi, yelikish (*chaqaloqlarda bo'ladigan kasallik*).
apian [´eɪpɪən] *a* asalariga oid.
apiarian [ˌeɪpɪ´eərɪən] *a* asalarichilikka oid.
apiarist [´eɪpɪərɪst] *n* asalarichi.
apiary [´eɪpɪərɪ] *n* asalari qutilari qo'yilgan joy, asalarizor.
apical [´æpɪkl] *a* yuqoridagi, cho'qqidagi.
apices [´eɪpɪsi:z] *pl* **apex** *dan.*
apiculture [´eɪpɪkʌltʃə] *n* asalarichilik.
apiece [ə´pi:s] *adv* har bir, har bir donasiga.
apis [´eɪpɪs] *n* asalari.
apish [´eɪpɪʃ] *a* maymunga oid.
a-plenty [ə´plentɪ] *adv amer.* juda ko'p, serob, mo'l-ko'l.
aplomb [ə´plɔm] *fr.* o'ziga bino qo'yish, oro berish.
apocalypse [ə´pɔkəlɪps] *n* apokalipsis (*xristianlarning «oxir zamon» haqidagi rivoyatlarni o'z ichiga olgan diniy kitobi*).
apocope [ə´pɔkəpɪ] *n ling.* so'zda oxirgi harf *yoki* tovushning tushib qolishi.
Apocrypha [ə´pɔkrəfə] *n pl* apokrifik (*cherkov tan olmaydigan*) kitoblar.
apocryphal [ə´pɔkrəfəl] *a* cherkov tan olmaydigan.
apodal [´æpədəl] *a zool.* oyog'i yo'q, oyoqsiz (*baliqlar haqida*).
apogee [ə´pədʒi:] *a astr.* apogey (*Oy yoki sun'iy yo'ldosh orbitasining Yerdan eng uzoq nuqtasi*).
Apollo [ə´pɔləʊ] *n grek.* go'zal (chiroyli) kishi.
apologetic [əˌpɔlə´dʒetɪk] *a* iltijoli.
apologetics [əˌpɔlə´dʒetɪks] *n pl ko'chm.* ko'r-ko'rona himoya qilish.
apologize [ə´pɔlədʒaɪz] *v* kechirim so'ramoq.
apologue [´æpəʊlɔg] *n* ibratli masal.
apology [ə´pɔlədʒɪ] *n* kechirish.

apoplectic [ˌæpəˈplektɪk] *a* apopleksiya oqibatidagi.
apoplexy [ˈæpəpleksɪ] *n tib.* shol.
apostasy [əˈpɒstəsɪ] *n* dindan qaytish.
apostate [əˈpɒsteɪt] *n* dindan qaytgan kishi.
apostatize [əˈpɒstətaɪz] *v* qaytmoq; voz kechmoq, bahridan o'tmoq.
a posteriori [ˌeɪpɒsterɪˈɔːraɪ] *adv lot.* aposteriori, tajribaga, dalillarga asoslanib.
apostle [əˈpɒsl] *n* targ'ibotchi.
apostolic [ˌæpɛsˈtɒlɪk] *a* targ'ibotchilikka oid.
apostrophe [əˈpɒstrəfɪ] *n* 1) (*nutqda kimgadir qilinadigan*) murojaat; 2) apostrof (*ajratish belgisi*).
apostrophize [əˈpɒstrəfaɪz] *v* murojaat qilmoq (*nutqda, dostonda va h. da kimgadir yoki biror narsaga*).
apothecary [əˈpɒθəkərɪ] *n* 1) *og'z.* aptekachi; 2) *amer.* dorixona.
apotheoses [əˌpɒθɪˈəusiːz] *pl* **apotheosis** *dan.*
apotheosis [əˌpɒθɪˈəusɪs] *n* (*pl* -ses) maqtash, ko'klarga ko'tarish.
appal [əˈpɔːl] *v* qo'rqitmoq.
appalling [əˈpɔːlɪŋ] *a* dahshatli, qo'rqinchli.
appallingly [əˈpɔːlɪŋlɪ] *adv* dahshatga soladigan.
apparatus [ˌæpəˈreɪtəs] *n* 1) asbob; uskuna; 2) apparat.
apparel [əˈpærəl] **1.** *n* libos, kiyim; **2.** *v* kiy(in)moq.
apparent [əˈpærənt] *adj* ravshan, tushunarli, aniq, shak-shubhasiz.
apparently [əˈpærəntlɪ] *adv* 1) aniq, ravshan, shubhasiz; 2) ehtimol, balki, chamasi, aftidan.
apparition [ˌæpəˈrɪʃn] *n* paydo bo'lish.
apparitor [əˈpærɪtɔː] *n* sud ijrochisi.
appeal [əˈpiːl] **1.** *n* shikoyat arizasi; **2.** *v* shikoyat arizasi bilan murojaat qilmoq.
appealable [əˈpiːləbl] *a* shikoyatga loyiq bo'lgan.
appealing [əˈpiːlɪŋ] *a* 1) ta'sirli, 2) jozibali.
appear [əˈpɪə] *v* paydo bo'lmoq.
appearance [əˈpɪərəns] *n* 1) paydo bo'lish; 2) tashqi ko'rinish.
appeasable [əˈpiːzəbl] *a* qobil, gapga ko'nadigan.
appease [əˈpiːz] *v* 1) tinchlantirmoq; 2) yengillashtirmoq (*dardni*).
appeasement [əˈpiːzmənt] *n* tinchlantirish.
appellant [əˈpelənt] *n* shikoyatchi.
appellate [əˈpelɪt] *a* shikoyatga oid.
appellation [ˌæpəˈleɪʃn] *n* nom, ot, ism.
appellative [əˈpelətɪv] **1.** *n gram.* turdosh ot; **2.** *a gram.* turdosh.
appellee [ˌæpeˈliː] *n yur.* shikoyat bo'yicha javobgar shaxs.
append [əˈpend] *v* birlashtirmoq.
appendage [əˈpendɪdʒ] *n* qo'shimcha.
appendicitis [əˌpendəˈsaɪtɪs] *n tib.* ko'richak kasalligi.
appendix [əˈpendɪks] *n* 1) ilova (*hujjat*); qo'shimcha; 2) *anat.* appendiks (*chuvalchangsimon o'simta*).
apperception [ˌæpəˈsepʃn] *n psixol.* appersepsiya (*mavjud tajriba, bilim, tushuncha, tasavvur va sh. k. asosida o'rganish*).
appertain [ˌæpəˈteɪn] *v* qarashli bo'lmoq (*nimagadir*).
appertence, -cy [ˈæpɪtəns,-sɪ] *n* istak, orzu.
appetite [ˈæpɪtaɪt] *n* ishtaha.
appetizer [ˈæpɪtaɪzə] *n* 2)ishtahani ochadigan narsa; 2) *amer.* gazak.
appetizing [ˈæpɪtaɪzɪŋ] *a* ishtahani qo'zg'atadigan.
applaud [əˈplɔːd] *v* olqishlab chapak (qarsak) chalmoq; **to ~ smb.** kimnidir olqishlamoq.
applause [əˈplɔːz] *n* olqishlash, qarsak chalish; **to greet smb. with (a storm of) ~** kimnidir gulduros qarsaklar bilan olqishlamoq.
apple [ˈæpl] *n* olma; **~ pie** olmali pirog.
apple-brandy [ˌæplˈbrændɪ] *n* olma sharobi.
apple-cart [ˈæplkɑːt] *n* olma solingan arava.
apple dumpling [ˌæplˈdʌmplɪŋ] *n* xamirga o'rab pishirilgan olma.
apple-grub [ˈæplgrʌb] *n* 1) qurt; 2) qurt tushgan (yegan *yoki* teshgan) joy.
apple-jack [ˈæplˌdʒæk] *n amer.* olma sharobi.
apple-pie [ˌæplˈpaɪ] *n* olma solingan pirog.
apple-sauce [ˌæplˈsɔːs] *n* olma pyuresi.
apple-tree [ˈæpltriː] *n* olma daraxti.
appliance [əˈplaɪəns] *n* moslama, asbob, asbob-uskunalar, anjom.
applicable [əˈplɪkəbl] *a* ishlatsa bo'ladigan, yaroqli.
applicant [ˈæplɪkənt] *n* 1) nomzod, da'vogar, talabgor; 2) iltimos qiluvchi, so'rovchi, homiy; 3) ariza beruvchi kishi; iltimosnoma bilan murojaat qiluvchi kishi.
application [ˌæplɪˈkeɪʃn] *n* ariza.
application blank [ˌæplɪˈkeɪʃn ˈblæŋk] *n* ishga kiruvchining (anketasi) so'roq varaqasi, so'rovnoma.
application form [ˌæplɪˈkeɪʃənˈfɔːm] *n* ishga kiruvchining (anketasi) so'roq varaqasi.
applied [əˈplaɪd] *a* amaliy; **~ sciences** amaliy fanlar.
applique [æˈpliːkeɪ] *n fr.* applikatsiya (*rang-barang qog'oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul hosil qilish usuli; shu usulda hosil qilingan naqsh, gul*).
apply [əˈplaɪ] *v* murojaat qilmoq.
appoint [əˈpɔɪnt] *v* belgilamoq, tayinlamoq.
appointed [əˈpɔɪntɪd] *a* tayinlangan; **to be ~ director** direktor etib tayinlanmoq.
appointee [əˌpɔɪnˈtiː] *n* topshiriq olgan shaxs.
appointive [əˈpɔɪntuv] *a amer.* saylov yo'li bilan emas, balki kimningdir tomonidan (*u yoki bu lavozimga*) vaqtincha tayinlangan.
appointment [əˈpɔɪntmənt] *n* 1) uchrashuv; **to break an ~** uchrashuvga kelmaslik; **to make an ~ with smb.** kim bilandir uchrashuv belgilamoq; **to have an ~** uchrashmoq; **to keep an ~** kelishgan vaqtda kelmoq; **to cancel an ~** uchrashuvni bekor qilmoq; 2) tayinlamoq (*lavozimga*); **to hold an ~** lavozimni egallamoq.

apportion [ə´pɔ:ʃn] *v* taqsimlamoq.
apportionment [ə´pɔ:ʃnment] *n* mutanosib taqsimlash.
apposite [´æpəzit] *a* munosib (*to*), o'z o'rnida.
apposition [ˌæpə´ziʃn] *n* 1) qo'shish; 2) *gram.* izohlovchi.
appraisal [ə´preizl] *n* narxni aniqlash, baholash, narxlash.
appraise [ə´preiz] *v* baholamoq, narx qo'ymoq.
appraisement [ə´preizmənt] *n* baho, narx.
appraiser [ə´preizə] *n* baholovchi, narx qo'yuvchi.
appreciable [ə´pri:ʃəbl] *a* sezilarli, bilinarli.
appreciate [ə´pri:ʃieit] *v* 1) yuqori baholamoq (narxlamoq); 2) qadrlamoq; 3) tushunmoq; 4) hisobga olmoq.
appreciated [ə´pri:ʃieitid] *a* yuqori baholanadigan, yuqori narx qo'yilgan.
appreciation [əˌpri:ʃi´eiʃn] *n* 1) yuqori baho, yuqori narx; 2) minnatdorchilik; 3) ijobiy taqriz.
appreciative [ə´pri:ʃiətiv] *a* 1) zehni o'tkir; 2) yuqori baho bera oladigan; 3) minnatdor; 4) qadriga yeta oladigan.
apprehend [ˌæpri´hend] *v* 1) tushunib yetmoq (*aql bilan*); 2) tutmoq, qo'lga olmoq.
apprehensible [ˌæpri´hensəbl] *a* tushunib bo'ladigan.
apprehension [ˌæpri´henʃn] *n* 1) xavotirlanish; 2) qamoqqa (hibsga) olish.
apprehensive [ˌæpri´hensiv] *a* xavfsirayotgan (*ninnadandir*).
apprentice [ə´prentis] *n* 1) o'quvchi; 2) shogird.
apprenticeship [ə´prentiʃip] *n* ta'lim olish.
apprise [ə´praiz] *v* xabar bermoq.
appro [´æprəu] *n* ma'qullash, manzur ko'rish.
approach [ə´prəutʃ] **1.** *n* yaqinlashish; **2.** *v* 1) yaqinlashmoq; 2) erishmoq.
approachable [ə´prəutʃəbl] *a* kirish (foydalanish) mumkin bo'lgan; erishsa bo'ladigan.
approbate [´æprəubeit] *amer.* ma'qul topmoq.
approbation [ˌæprəu´beiʃn] *n* ma'qul topish.
approbatory [ˌæprəu´beitəri] *a* ma'qullaydigan.
appropriate **1.** *a* [ə´prəuprıət] mos, muvofiq, munosib, loyiq, to'g'ri keladigan, javob beradigan, tegishli; **2.** *v* [ə´prəuprieit] o'zlashtirmoq, egallab (o'ziniki qilib) olmoq; mo'ljallamoq.
appropriately [ə´prəuprıtli] *adv* 1) taxmin; 2) o'rinli, o'z vaqtida qilingan.
appropriation [əˌprəupri´eiʃn] *n* o'zlashtirish.
appropriation-in-aid [əˌprəupri´eiʃnin´eid] *n* subsidiya (*yordamga beriladigan pul*).
approval [ə´pru:vəl] *n* ma'qullash, ma'qul ko'rish, quvvatlash.
approve [ə´pru:v] *v* ma'qullamoq, ijobiy baho bermoq.
approved [ə´pru:vd] *a* 1) tasdiqlangan; 2) ma'qullangan.
approvingly [ə´pru:viŋli] *adv* ma'qullab, ma'qul topib.
approximate **1.** *a* [ə´prɔksımət] taxminiy; **2.** *v* [ə´prɔksımeit] yaqinlashmoq, deyarli mos tushmoq.
approximative [ə´prɔksımətiv] *a* yaqin, taxminiy.
approximately [ə´prɔksımətli] *adv* taxminan, taqriban, deyarli.
approximation [əˌprɔksı´meiʃn] *n* yaqinlashish.
appurtenance [ə´pə:tınəns] *n* asbob, buyum, jihoz; ashyo; narsa.
appurtenant [ə´pə:tınənt] **1.** *n* buyum, asbob, narsa; **2.** *a* tegishli.
apricot [´eiprıkɔt] *n* o'rik.
April [´eiprəl] **1.** *n* aprel; **the first of ~** birinchi aprel.; **2.** *attr.* Aprel oyidagi.
April-fool [ˌeiprəl´fu:l] *n* 1-aprel kunida aldangan odam.
April Fools' Day [ˌeiprəl´fu:lzdei] *n* aldash kuni (*1-aprel*).
a priori [ˌeiprai´ɔ:rai] *lot.* **1.** *a* tajribada ko'rilmagan; **2.** *adv* tajribada ko'rmasdan.
apriority [ˌeiprai´ɔrətı] *n* tajribaga asoslanmaganlik.
apron [´eiprən] *n* 1) g'ilof, jild; 2) etak.
apron-strings [´eiprənstrıŋz] *n pl* etak (peshband) bog'ichi.
apropos [ˌæprə´pəu] *fr.* **1.** *a* o'rinli; o'z vaqtida (qilingan); **2.** *adv* aytganday.
apse [æps] *n me'mor.* toq, ravoq.
apt [æpt] *a* 1) (*to*) moyil; 2) (*at*) layoqatli; 3) mos keladigan; 4) qobiliyatli.
apterous [´æptərəs] *a zool.* qanotsiz.
aptitude [´æptitju:d] *n* qobiliyat, layoqat.
apyrous [ei´paiərəs] *a* o'tga chidamli.
aquafortis [ˌækwə´fɔ:tis] *n* to'yingan azot kislotasi
aquafotist [ˌækwə´fɔ:tist] *n* ofortchi rassom (*ofort-kislota bilan o'yib ishlangan naqsh va undan basilgan surat*).
aqualung [´ækwəlʌŋ] *n* akvalang (*suv ostida bemalol nafas olib suzishga imkon beradigan apparat*).
aquamarine [ˌækwəmə´ri:n] *n min.* akvamarin (*yashil havorang qimmatbaho tosh*).
aqua regia [ˌækwə´ri:dʒiə] *n kim.* zar suvi (*azot kislotasi bilan xlorid kislota qorishmasi*).
aquarelle [ˌækwə´rel] *n* akvarel (*suvda qoriladigan bo'yoq*).
aquarellist [ˌækwə´relist] *n* akvarelchi (*akvarel bo'yoqlar bilan rasm soluvchi rassom*).
aquarium [ə´kweəriəm] *n* akvarium.
Aquarius [ə´kweəriəs] *n* Dalv (*o'n ikki burjning biri*).
aquatic [ə´kwætik] *a* suvli; **~ sports** suv sporti.
aquatics [ə´kwætiks] *n pl* suvda o'ynaydigan sport turlari.
aqua-vitae [ˌækwə´vaiti:] *n* aroq, o'tkir spirtli ichimlik.
aqueduct [´ækwıdʌkt] *n* osma quvur.
aqueous [´eikwiəs] *a* suvga oid, suvli.
aquifer [´ækwifə] *n geol.* yerning nam saqlaydigan qatlami.

aquiferous [ə´kwɪfərəs] *a geol.* nam saqlaydigan qatlam.
aquiline [´ækwɪlaɪn] *a* burgutga oid.
Arab [´ærəb] **1.** *n* arab; arab ayoli; **2.** *a* arablarga oid, arabcha.
arabesque [ˌærə´besk] **1.** *n* arabeska (*me'morlik va rassomlik san'atida: geometrik shakllardan, barg, gul va sh. k. ning tasviridan tarkib topgan murakkab naqsh*); **2.** *a* arablarga oid (*arabcha*).
Arabian [ə´reɪbɪən] *a* arabcha.
Arabic [´ærəbɪk] *n* 1) arab; 2) arab tili.
arable [´ærəbl] **1.** *n* yer haydash; **2.** *v* haydaladigan.
arachnid [ə´ræknɪd] *n* o'rgimchaksimonlar.
arachnoid [ə´ræknɔɪd] *a bot.* o'rgimchaksimon.
Aramaic [ˌærə´meɪɪk] *n* aramey tili.
arbalest [´ɑ:bəlɪst] *n tar.* 1) arbalet (*kamon*ga o'xshash *qadimiy qurol*); 2) qo'ndoqli kamon.
arbalester [´ɑ:bəlɪstə] *n tarix.* kamon otuvchi.
arbiter [´ɑ:bɪtə] *n* 1) hakam; 2) *sport.* arbitr, sudya.
arbitrage [´ɑ:bɪtrɑ:ʒ] *n* hakamlar sudi muhokamasi.
arbitral [´ɑ:bɪtrəl] *a* arbitrajga oid, arbitraj (*hakamlik sudi*)ga oid.
arbitrament [ɑ´bɪtrəmənt] *n* hakamlik sudi qarori.
arbitrary [´ɑ:bɪtrərɪ] *a* tasodifiy, kutilmagan, nogahoniy.
arbitrate [´ɑ:bɪtreɪt] *v* xolis hukm (*qaror*) chiqarmoq.
arbitration [ˌɑ:bɪ´treɪʃn] *n* hakamlar sudi muhokamasi.
arbitrator [´ɑ:bɪtreɪtə] *n* hakam.
arbor [´ɑ:bɔ:] **1.** *n* daraxt; **2.** *n tex.* val; o'q; shpindel.
arboraceous [ˌɑ:bə´reɪʃəs] *a* daraxtzor.
arboreal [ɑ:´bɔ:rɪəl] *a zool.* daraxtlarda yashovchi.
arboreous [ɑ:´bɔ:rɪəs] *a* serdaraxt, daraxtzor.
arborescent [ˌɑ:bə´resnt] *a* daraxtga o'xshagan.
arboreta [ˌɑ:bə´ri:tə] *pl* **arboretum** *dan.*
arboretum [ˌɑ:bə´ri:təm] *n* (*pl* **-ta, -tums**) ko'chatxona.
arboriculture [´ɑ:bərɪˌkʌltʃə] *n* o'rmonshunoslik.
arboriculturist [ˌɑ:bərɪ´kʌltʃərɪst] *n* o'rmonshunos.
arborization [ˌɑ:bərɪ´zeɪʃn] *n min.* tog' jinslari, kristallardagi daraxtsimon shakllar.
arbour [´ɑ:bə] *n* shiyponcha.
arbutus [ɑ:´bju:təs] *n* yertut daraxti.
arc [ɑ:k] **1.** *n* 1) *mat.* yoy; 2) *el.* elektr yoyi; **2.** *v el.* do'g'a ishlab chiqarmoq.
arcade [ɑ:´keɪd] *n* do'konlar rastasi.
arcana [ɑ:´keɪnə] *pl* **arcanum** *dan.*
arcanum [ɑ:´keɪnəm] *n* (*pl* **-na**) sir, maxfiy narsa.
arc-boutant [ˌɑ:bu:´tɑ:ŋ] *fr. n* (*pl* **arcs-boutants**) *qur.* tirgakli ravoq.
arch I [ɑ:tʃ] *n* ravoq, gumbaz.
arch II [ɑ:tʃ] *a* o'ynoqi, mug'ombir.
Archaean [ɑ:´kɪ:ən] *a geol.* arxey erasi (*Yerda hali hayot yuzaga kelmagan eng qadimiy davr*).
archaeological [ˌɑ:kɪə´lɔdʒɪkəl] *a* arxeologiyaga (qadimshunoslikka) oid.
archaeologist [ˌɑ:kɪ´ɔlədʒɪst] *n* arxeolog, qadimshunos.
archaelogy [ˌɑ:kɪ´ɔlədʒɪ] *n* arxeologiya.
archaic [ɑ:´keɪɪk] *a* eskirgan, eski; iste'moldan chiqqan.
archaism [´ɑ:kɪˌɪzm] *n* eskirib qolgan so'z.
archaize [´ɑ:kɪeɪz] *v* uzoq o'tmishga taqlid qilmoq.
archangel [´ɑ:kˌeɪndʒəl] *n* Arxangel (*farishtalarning eng kattasi*).
archbishop [ˌɑ:tʃ´bɪʃəp] *n* arxiyepiskop.
arched [ɑ:tʃt] *a* 1) gumbaz (qubba) shaklidagi, gumbazsimon; 2) egilgan, bukilgan, qayrilgan.
arch-enemy [ˌɑ:tʃ´enəmɪ] *n* ashaddiy dushman.
archer [´ɑ:tʃə] *n* kamonboz, o'qotar (*12 burjdan biri*).
archery [´ɑ:tʃərɪ] *n* kamon otish (*san'ati*).
archetype [´ɑ:kɪtaɪp] *n* asl nusxa; namuna.
arch-fiend [ɑ:tʃ´fi:nd] *n* iblis (*shayton*).
archipelago [ˌɑ:kɪ´peləgəu] *n* arxipelag (*bir-birига yaqin orollar guruhi*).
architect [´ɑ:kɪtekt] *n* arxitektor, me'mor.
architectonic [ˌɑ:kɪtek´tɔnɪk] *a* me'morchilikka oid.
architectonics [ˌɑ:kɪtek´tɔnɪks] *n* arxitektonika (*bir butunning ayrim qismlari o'rtasidagi uyg'unlik, mutanosiblik, kompozitsiya, tuzilish*).
architectural [ˌɑ:kɪ´tektʃərəl] *a* me'moriy.
architecture [´ɑ:kɪtektʃə] *n* me'morchilik.
architrave [´ɑ:kɪtreɪv] *n me'mor.* asosiy to'sin.
archival [ɑ:´kaɪvl] *a* arxivga oid.
archives [´ɑ:kaɪvz] *n pl* arxiv.
archivist [´ɑ:kɪvɪst] *n pl* arxiv boshlig'i.
archly [´ɑ:tʃlɪ] *adv* makkorona.
archness [´ɑ:tʃnəs] *n* hiyla, makr.
archway [´ɑ:tʃweɪ] *n* ark ostidagi o'tish yo'li.
arcing [´ɑ:kɪŋ] *n el.* uchqun chiqish.
Arctic [´ɑ:ktɪk] **1.** *n* (**the** ~) Arktika; **2.** *a* arktikaga oid.
Arctic Circle [ˌɑ:ktɪk´sə:kl] *n* Shimoliy qutb doirasi.
arctic fox [´ɑ:ktɪkfɔks] *n* shimol (qutb) tulkisi.
arcticize [´ɑ:ktɪsaɪz] *v* Arktika sharoitidagi ishga moslashmoq.
arcuate, arcuated [´ɑ:kjuət,-ɪd] *a* ravoqshakl, egilgan.
ardent [´ɑ:dənt] *a* 1) qizg'in; 2) jo'shqin; 3) tirishqoq.
ardently [´ɑ:dəntlɪ] *adv* jon-jahd bilan, g'ayrat bilan.
ardour [´ɑ:də] *n* 1) jo'shqinlik; 2) ishtiyoq.
arduous [´ɑ:djuəs] *a* qiyin, og'ir.
are [ɑ:] **to be** fe'lining hozirgi zamon ko'plik sonda ishlatiladigan shakli.
area [´eərɪə] *n* maydon, hudud, yer maydoni.
area sketch [ˌeərɪə´sketʃ] *n top.* xomaki chizma.
arena [ə´ri:nə] *n* sahna, kurash maydoni.
arenaceous [ˌærɪ´neɪʃəs] *a* qumli, qumloq.

areometer [ˌeərɪˊɔmɪtə] *n* areometr (*suyuqlikning zichligini, solishtirma ogirligini olchaydigan asbob*).
Areopagus [ˌærɪˊɔpəgəs] *n grek. tar.* areopag (*qadimgi Afinada: oliy sud va oliy hokimiyat*).
arête [eˊreɪt] *n fr.* tog'ning o'tkir qirrasi.
argent [ˊɑ:dʒənt] **1.** *a* kumushdek, kumushsimon; **2.** *n* kumush, nuqra.
argentic [ɑ:ˊdʒentɪk] *a kim.* tarkibiga kumush qo'shilgan.
argentiferous [ˌɑ:dʒənˊtɪfərəs] *a geol.* tarkibida kumushi bo'lgan (*ruda haqida*).
Argentine [ˊɑ:dʒəntɪ:n] **1.** *n* argentinalik kishi (*ayol*), **2.** *a* Argentina va argentinaliklarga oid.
argentine [ˊɑ:dʒəntɪ:n] *a* kumushdan qilingan.
Argentinean, Argentinian [ˌɑ:dʒənˊtɪnɪən] *n* argentinalik kishi (ayol).
argil [ˊɑ:dʒɪl] *n* kulolchilik *yoki* oq tuproq.
argillaceous [ˌɑ:dʒɪˊleɪʃəs] *a* tuproqli; tarkibiga tuproq qo'shilgan, sertuproq.
argon [ˊɑ:gɔn] *n kim.* argon (*kimyoviy element, hidsiz, tussiz inert gaz*).
Argonaut [ˊɑ:gənɔ:t] *n* 1) *amer.* oltin qidiruvchi; 2) *zool.* Agronavt (*bosh-oyoqli molluskalarning bir turi*).
argosy [ˊɑ:gəsɪ] *n tar.* katta savdo kemasi.
argot [ˊɑ:gəu] *n fr.* argo, jargon (*ma'lum doirada qo'llaniladigan yasama so'zlar, iboralar*).
arguable [ˊɑ:gjuəbl] *a* munozarali, tortishuvli.
argue [ˊɑ:gju:] *v* 1) isbot qilmoq; 2) bahslashmoq; **to ~ with smb. about or over smth.** kim bilandir nimadir haqida bahslashmoq.
argufy [ˊɑ:gjufaɪ] *v so'z.* arzimagan narsaga bahslashmoq.
argument [ˊɑ:gjumənt] *n* 1) dalil-isbot; 2) bahs; munozara.
argumentation [ˌɑ:gjumenˊteɪʃn] *n* 1) dalillar; 2) bahs.
argumentative [ˌɑ:gjuˊmentətɪv] *a* bahslashishni yoqtiradigan, dalil-isbot keltiradigan.
Argus [ˊɑ:gəs] *n grek.* hushyor, sergak.
Argus-eyed [ˊɑ:gəsaɪd] *a* hushyor, ziyrak.
argute [ɑ:ˊgjut] *a* o'tkir, uchli.
aria [ˊɑ:rɪə] *n mus.* ariya (*bir ovoz uchun yozilgan musiqa asari – opera va sh. k. ning bir qismi*).
arid [ˊærɪd] *a* 1) quruq; 2) hosilsiz (*yer haqida*).
aridity [əˊrɪdətɪ] *n* quruqlik.
Aries [ˊeəri:z] *n* qo'y burji; qo'y burji vakili.
aright [əˊraɪt] *adv* to'g'ri, bexato.
aril [ˊærəl] *n bot.* qobiq, po'choq.
arioso [ˌɑ:rɪˊəuzəu] *it. adv mus.* ariozo (*kichik ariya*).
arise [əˊraɪz] *v* (**arose; arisen**) 1) ko'tarilmoq; 2) paydo bo'lmoq.
arisen [əˊrɪzn] *p.p.* **arise** *dan.*
arista [əˊrɪstə] *n lot. (pl* **-ae**) *bot.* qiltiq, qiltanoq.
aristae [əˊrɪsti:] *pl* **arista** *dan.*
aristocracy [ˌærɪsˊtɔkrəsɪ] *n* oqsuyaklar.
aristocrat [ˊærɪstəkræt] *n* oqsuyak, zodagon.
aristocratic [ˌærɪstəˊkrætɪk] *a* zodagonlarga oid.
arithmetic [əˊrɪθmətɪk] *n* arifmetika, hisob (*metematikaning sonlar va ular ustidagi amallar haqidagi bo'limi*).
arithmetical [ˌærɪθˊmetɪkl] *a* arifmetikaga (hisobga) oid.
arithmetician [əˌrɪθməˊtɪʃn] *n* arifmetika sohasi mutaxassisi.
arithmometer [ˌærɪθˊmɔmɪtə] *n* arifmometr (*arifmetik amallarni bajaradigan va o'zi yozib boradigan hisoblash mashinasi*).
ark [ɑ:k] *n* Nuh kemasi (*afsonaviy to'fonda Nuh, uning oilasi va hayvonlar saqlanib qolgan kema*).
arm [ɑ:m] **1.** *n* 1) qo'l (*panjadan elkagacha bo'lgan*); 2) *pl* qurol; **take up ~s** jang qilmoq; **2.** *v* qurollantirmoq.
armache [ˊɑ:meɪk] *n* qo'ldagi og'riq.
armada [ɑ:ˊmɑ:də] *n* armada (*tanklarning yirik to'dasi*).
armadillo [ˌɑ:məˊdɪləu] *n zool.* chumolixo'r.
Armageddon [ˌɑ:məˊgedn] *n bibl.* qiyomat kunidagi katta jang.
armament [ˊɑ:məmənt] *n* qurollanish; **~ work** harbiy zavod.
armature [ˊɑ:mətʃə] *n* 1) qurol-yarog'; 2) armatura.
armband [ˊɑ:mbænd] *n* yengga (bog'lanadigan) tiqiladigan lenta, yengbog'.
arm-chair [ˊɑ:mtʃeə] *n* tayanma stul, kreslo.
arme blanche [ˌɑ:rm ˊblɑ:ntʃ] *fr.n* sovuq qurol.
colloid [ˈkɔlɔɪd] **1.** *n* kolloid (*kristallanmaydigan, suvda quyuq eritma hosil qiladigan oqsil kraxmal, yelim singari modda*); **2.** *a* kolloidlarga oid.
colloidal [kəˈlɔɪdl] *a* kolloidlarga oid.
colloquial [kəˈləukwɪəl] *a* so'zlashuvga oid.
colloquialism [kəˈləukwɪəˌlɪzm] *n* so'zlashuvga oid ibora.
colloquy [ˈkɔləkwɪ] *n* suhbat; gaplashish.
collusion [kəˈluːʒn] *n* maxfiy kelishuv, til biriktirish.
cologne [kəˈləun] *n* odekolon, atir.
Colombian [kəˈlʌmbɪən] **1.** *a* Kolumbiya va kolumbiyaliklarga oid; **2.** *n* kolumbiyalik kishi (*ayol*).
colon [ˈkəulən] *n* 1) ikki nuqta; 2) *anat.* yo'g'on ichak.
colonel [ˈkɜːnl] *n* polkovnik.
colonelcy [ˈkɜːnlsɪ] *n* polkovnik unvoni.
colonial [kəˈləunɪəl] *a* mustamlakachilikka oid.
colonialist [kəˈləunɪəlɪst] *n* mustamlakachi.
colonist [ˈkɔlənɪst] ko'chmanchi (*yangi joyga ko'chib, borib o'rnashgan kishi*).
colonization [ˌkɔlənaɪˈzeɪʃn] *n* mustamlakaga aylantirish.
colonize [ˈkɔlənaɪz] *v* mustamlakaga aylantirmoq (*mustamlaka qilib olmoq*).
colonizer [ˈkɔlənaɪzə] *n* mustamlakachi.
colony [ˈkɔlənɪ] *n* mustamlaka, qaram mamlakat.
colophony [kəˈlɔfənɪ] *n* kanifol (*ignabargli daraxt yelimidan (shirasidan olinadigan sarg'ish shaffof modda*).
color [ˈkʌlə] = **colour.**
coloration [ˌkʌləˈreɪʃən] *n* bo'yash.
colorific [ˌkɔləˈrɪfɪk] *a* bo'yoqqa (rangga) oid.
colossal [kəˈlɔsl] *a* juda katta, ulkan, azim.
colossus [kəˈlɔsəs] *n* juda katta haykal (*ustun va sh.k.*).
colour [ˈkʌlə] **1.** *n* rang; **2.** *v* bo'yamoq, rang bermoq.
coloured [ˈkʌləd] *a* rangli; bo'yalgan.
colour-blindness [ˈkʌləˌblaɪndnəs] *n* ba'zi rangtuslarni farq qila olmaslik kasalligi (*daltonizm*).
colourcast [ˈkʌləkɑːst] *n* rangli televizor.
coloured [ˈkʌləd] *a* rangli.
colour film [ˈkʌləˌfɪlm] *n* rangli film.
colourful [ˈkʌləfəl] *a* yorqin bo'yoqlar bilan ishlangan.
colouring [ˈkʌlərɪŋ] *n* bo'yash.
colourless [ˈkʌlələs] *a* rangsiz.
colour-man [ˈkʌləmən] *n* bo'yoq sotuvchi kishi.
colt [kəult] *n* toycha, toy.
colter [ˈkəultə] *n q-x.* chimqirqar.
coltish [ˈkəultɪʃ] *a* toychaga xos bo'lgan (*oid*).
coluber [ˈkɔljubə] *n zool.* chipor ilon.
column [ˈkɔləm] *n me'mor.* ustun.
columnar [kəˈlʌmnə] *a* ustun shaklidagi.
columned [ˈkɔləmd] = **columner.**
columnist [ˈkɔləmnɪst] *n amer.* sharhlovchi.
colza [ˈkɔlzə] *n bot.* surepitsa (*urug'idan moy olinadigan o'simlik*).
colza-oil [ˈkɔlzəˌɔɪl] *n* surepitsa moyi.
coma [ˈkəumə] *n tib.* koma (*og'ir behushlik holati*).
comatose [ˈkəumətəus] *a tib.* komaga (*og'ir behushlik holatiga*) oid.
comb [kəum] **1.** *n* taroq; **2.** *v* taramoq.
combat [ˈkɔmbæt] **1.** *n* jang qilish, urushish; jang, urush; **2.** *v* jang qilmoq, urushmoq.
combatant [ˈkɔmbətənt] *n* jangchi, jang qatnashchisi.
comber [ˈkəumə] *n to'qim.* tituvchi, tarovchi.
combination [ˌkɔmbɪˈneɪʃn] *n* birikma, birikish.
combine [ˈkɔmbaɪn] **1.** *n q-x.* kombayn (*bir yo'lda bir necha ishni bajaradigan murakkab mashina*); **2.** [kəmˈbaɪn] *v* birlashtirmoq.
combined [kəmˈbaɪnd] *a* birlashtirilgan.
combings [ˈkəumɪŋz] *n* titish (tarash) ishlari.
comb-out [ˈkəumaut] *n* taroq bilan tozalash.
combustibility [kəmˌbʌstəˈbɪlətɪ] *n* tez o't olish, tez yonib ketish.
combustible [kəmˈbʌstəbl] **1.** *a* yonadigan; **2.** *n pl* yonilg'i.
combustion [kəmˈbʌstʃən] *n* yonish, kuyish.
come [kʌm] *v* (**came; come**) kelmoq; ~ **about** yuz bermoq; sodir bo'lmoq; ~ **again** qaytib kelmoq; ~ **away** ketmoq; ~ **back** qaytib kelmoq; ~ **before** biror kimsa yoki narsadan oldin o'tmoq; ~ **down** yog'moq (*qor va yomg'ir to'g'risida*); ~ **forward** ochiq joyga (*yoki oldinga*) surilmoq; ~ **in** kirmoq; ~ **of** yuz bermoq (*sodir bo'lmoq*); ~ **off** tushmoq (*yuqoridan pastga*); ~ **on** yaqinlashmoq; ~ **out** chiqmoq; ~ **round** yo'l-yo'lakay kirib o'tmoq; ~ **through** ichiga kirmoq; ~ **to** o'ziga kelmoq; ~ **up** ko'tarilmoq; ~ **upon** kutilmaganda hujum qilmoq.
come-and-go [ˌkʌmənˈgəu] **1.** *n* orqa oldinga harakat qilish; **2.** *attr.*: ~ **people** kelib-ketuvchi odamlar.
come-back [ˈkʌmbæk] *n* qaytish.
come-between [ˌkʌmbɪˈtwiːn] *n* dallol.
comedian [kəˈmiːdɪən] *n* komik (*kulgili rollarni ijro etuvchi aktyor*).
come-down [ˈkʌmdaun] *n* pasayish, tushish.
comedy [ˈkɔmədɪ] *n* komediya (*kulgili sahna asari*).
comeliness [ˈkʌmlɪnəs] *n* yoqimlilik, chiroylilik, go'zallik.
comely [ˈkʌmlɪ] *a* chiroyli, go'zal, barno.
come-off [ˈkʌmɔf] *n* tugatish, bitirish, oxiriga yetkazish.

comer [ˈkʌmə] *n* keluvchi.
comet [ˈkɔmɪt] *n astr.* kometa (*dumli yulduz*).
comfort [ˈkʌmfət] **1.** *n* yupatish, tasalli berish; **2.** *v* yupatmoq, tasalli bermoq.
comfortable [ˈkʌmfətəbl] *a* qulay, shinam.
comforter [ˈkʌmfətə] *n* yupatuvchi, tasalli beruvchi.
comforting [ˈkʌmfətɪŋ] *a* yupatadigan, tasalli beradigan.
comfortless [ˈkʌmfətləs] *a* 1) qayg'uli; 2) noqulay.
comfy [ˈkʌmfɪ] *a* qulay. shinam.
comic [ˈkɔmɪk] *a* kulgili, qiziqarli.
comical [ˈkɔmɪkl] *a* kulgili.
comicality [ˌkɔmɪˈkælətɪ] *n* kulgililik.
comics [ˈkɔmɪks] *n pl* komiks (*qisqa tekst va rasmlar berilgan adabiy asar*).
coming [ˈkʌmɪŋ] **1.** *n* kelish, yetib kelish; **2.** *a* yaqinlashayotgan, kelayotgan.
coming-in [ˌkʌmɪŋˈɪn] *n* tashqaridan mol keltirish.
coming-out [ˌkʌmɪŋˈaʊt] *n* chetga mol chiqarish.
comity [ˈkɔmətɪ] *n* xushmuomalalik, muloyimlik.
comma [ˈkɔmə] *n* vergul.
command [kəˈmɑːnd] **1.** *n* buyruq; **2.** *v* buyurmoq.
commandant [ˌkɔmənˈdænt] *n* 1) harbiy o'quv yurtining rahbari; 2) boshliq (*shahar va umuman aholi yashaydigan nuqtalarga harbiylarning imtizomi uchun javobgar boshliq*); 3) komendant (*jamoat uylarining boshqaruvchisi*).
commandeer [ˌkɔmənˈdɪə] *v* qo'mondonlik qilmoq, qo'mondonlikka tayinlamoq.
commander [kəˈmɑːndə] *n* komandir; boshliq.
Commander-in-Chief [kəˌmɑndərɪnˈtʃiːf] *n* bosh qo'mondon.
commanding [kəˈmɑːndɪŋ] *a* qo'mondonlik qiluvchi.
commandment [kəˈmɑːndmənt] *n* buyruq.
commando [kəˈmɑːndəʊ] *n* tezkor hujumchi guruh.
commemorate [kəˈmeməreɪt] *n* bayram qilmoq, nishonlamoq (*yubileyni*).
commemoration [kəˌmeməˈreɪʃn] *n* bayram qilish, nishonlash (*yubileyni*).
commemorative [kəˈmemərətɪv] *n* xotira uchun belgilangan.
commence [kəˈmens] *v* boshlamoq, boshlab yubormoq.
commencement [kəˈmensmənt] *n* boshlanishi.
commend [kəˈmend] *v* maqtamoq.
commendable [kəˈmendəbl] *a* maqtashga arziydigan.
commendation [ˌkɔmenˈdeɪʃn] *n* maqtov.
commensal [kəˈmensl] *n* birga (*bir dasturxonda*) ovqatlanuvchi, hamtovoq.
commensurable [kəˈmenʃərəbl] *a* o'lchovdosh, umumiy o'lchovli.
commensurate [kəˈmenʃərət] *a* ... ga mos (to'g'ri) keladigan.
comment [ˈkɔment] **1.** *n* mulohaza, fikr; **2.** *v* 1) (*tanqidiy*) mulohazalar bildirmoq; 2) sharhlamoq.
commentary [ˈkɔməntərɪ] *n* sharh, tushuntirish.
commentation [ˌkɔmenˈteɪʃn] *n* sharhlash, tushuntirib berish.
commentator [ˈkɔmenteɪtə] *n* sharhlovchi.
commerce [ˈkɔməːs] *n* savdo, savdo-sotiq.
commercial [kəˈməːʃl] *a* savdo-sotiqqa oid.
commingle [kəˈmɪŋgl] *v* 1) aralashmoq, qorishmoq; 2) aralashtirmoq, qorishtirmoq.
comminute [ˈkɔmɪnjuːt] *v* maydalamoq, yanchmoq.
commiserate [kəˈmɪzəreɪt] *v* 1) hamdard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq.
commiseration [kəˌmɪzəˈreɪʃn] *n* 1) hamdard bo'lish; 2) ta'ziya bildirish.
commissar [ˌkɔmɪˈsɑː] *n* komissar (*harbiy komissarlikning boshlig'i*).
commissary [ˈkɔmɪsərɪ] *n* komissariat.
commission [kəˈmɪʃn] **1.** *n* 1) vakolat; 2) vakolatnoma; 3) komissiya (*ayrim masala yuzasidan tuzilgan muvaqqat yoki doimiy tashkilot*); **2.** *v* 1) biror vazifaga tayinlamoq; 2) vakolat bermoq.
commissioned [kəˈmɪʃnd] *a* vakolatli; ishonilgan.
commissioner [kəˈmɪʃnə] *n* 1) maxsus vakil; 2) komissiya a'zosi.
commit [kəˈmɪt] *v* 1) (*jinoyat*) sodir qilmoq; **to ~ suicide** o'z joniga qasd qilmoq; 2) fikrini ochiq ifoda etmoq; 3) va'da bermoq.
commitment [kəˈmɪtmənt] *n* majburiyat, burch.
committee [kəˈmɪtɪ] *n* 1) komitet (*saylanma organ*); 2) *yur.* vasiy.
committee-man [kəˈmɪtɪmən] *n* komissiya yoki komitetning a'zosi.
commixture [kəˈmɪkstʃə] *n* aralashma; qorishma.
commode [kəˈməʊd] *n* komod (*kiyim-kechak turadigan qutili javon*).
commodious [kəˈməʊdɪəs] *n* keng.
commodity [kəˈmɔdətɪ] *n* mahsulot.
commodore [ˈkɔmədɔː] *n deng.* 1-rang kapitan.
common [ˈkɔmən] **1.** *a* 1) umumiy; 2) oddiy; **2.** *n* umumiy hol, umumiylik.
commoner [ˈkɔmənə] *n* oddiy odam.
common law [ˌkɔmənˈlɔː] *n* urf-odatlarga asoslangan (odatiy) huquq.
commonly [ˈkɔmənlɪ] *adv* odatga ko'ra.
commonplace [ˈkɔmənpleɪs] **1.** *a* siyqasi chiqqan, ko'p chaynalgan; **2.** *n* siyqasi chiqqanlik (*ibora, fikr haqida*).
commonplace-book [ˈkɔmənpleɪsˌbuk] *n* umumiy daftar.
common-room [ˈkɔmənruːm] *n* umumiy xona (*jamoat tashkilotlarida*).
commons [ˈkɔmənz] *n* 1) oddiy xalq; 2) (**the C**) parlamentning quyi palatasi (*Angliyada*).
commonweal [ˈkɔmənwiːl] *n* umumiy manfaat.
commonwealth [ˈkɔmənwelθ] *n* 1) mamlakat, davlat; 2) hamdo'stlik; 3) ittifoq, uyushma.

commotion [kə´məuʃn] *n* (*yurakdagi*) g'ashlik; iztirob, g'ulg'ula.
communal [ˈkɔmjunl] *a* jamoaga qarashli.
commune 1. *n* [ˈkɔmju:n] 1) kommuna (*mulk va mehnatni umumlashtirish asosida tuzilgan kishilar jamoasi*); 2) jamoa; 2. *v* [kə´mju:n] muomala qil-moq, aralashib yurmoq.
communicable [kə´mju:nɪkəbl] *a* odamga el bo'-ladigan, dilkash.
communicate [kə´mju:nɪkeɪt] *v* xabar qilmoq.
communicating [kə´mju:nɪkeɪtɪŋ] *a* yonma-yonlik (*xona to'g'risida*).
communication [kə,mju:nɪ´keɪʃn] *n* axborot, xabar.
communicative [kə´mju:nɪkətɪv] *a* odamga el bo'-ladigan.
communicatory [kə´mju:nɪkeɪtərɪ] *a* axborot be-radigan.
communion [kə´mju:nɪən] *n* 1) aloqa qilish, alo-qada bo'lish; 2) umumiylik, bir xillik.
communiqué [kə´mju:nɪkeɪ] *fr. n* rasmiy xabar.
communism [ˈkɔmju,nɪzm] *n* kommunizm.
communistic [,kɔmju´nɪstɪk] *a* kommunizmga va kommunistlarga oid.
community [kə´mju:nətɪ] *n* 1) jamoa; 2) umumiy-lik.
commutable [kə´mju:təbl] *a* almashtirishga yaray-digan, almashtirsa bo'ladigan (*samolyot, poyezd va boshqalarning chiptalari haqida*).
commutation [,kɔmju´teɪʃn] *n* almashtirish.
commutator [ˈkɔmjuteɪtə] *n* kommutator (*tele-fon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*).
commute [kə´mju:t] *v* almashtirmoq.
compact [ˈkɔmpækt] 1. *n* bitim, kelishuv; shart-noma; 2. *a* zich, g'uj; 3. *v* zichlamoq.
companion [kəm´pænjən] 1. *n* o'rtoq, og'ayni; 2. *v* o'rtoq bo'lmoq.
companionable [kəm´pænjənəbl] *a* odamga el bo'ladigan, dilkash.
company [ˈkʌmpənɪ] *n* shirkat; jamiyat.
comparable [ˈkɔmpərəbl] *a* taqqoslab (solishtirib) bo'ladigan.
comparative [kəm´pærətɪv] 1. *a* qiyosiy, solishtir-ma; chog'ishtirma; 2. *n gram.* cho'g'ishtirma da-raja.
comparatively [kəm´pærətɪvlɪ] *adv* nisbatan.
compare [kəm´peə] *v* qiyoslamoq, solishtirmoq, taqqoslamoq.
comparison [kəm´pærɪsn] *n* qiyoslash, taqqos-lash.
compartment [kəm´pɑ:tmənt] *n* kupe (*temir yo'l vagonlarida; ayrim xona*) bo'lma.
compass [ˈkʌmpəs] 1. *n* 1) kompas; 2) *pl* sirkul, pargar; 2. *a* kompasga oid; 3. *v* amalga oshirmoq, yuzaga chiqarmoq.
compassion [kəm´pæʃən] *n* rahm; shafqat.
compassionate [kəm´pæʃənət] 1. *a* rahmdillikni ifodalovchi; 2. *v* rahm (shafqat) qilmoq.
compatibility [kəm,pætə´bɪlətɪ] *n* bir-biriga to'g'-ri (mos) kelish.
compatible [kəm´pætəbl] *a* birga (ayni bir vaqt-da) bo'la oladigan, bir-biriga to'g'ri (mos) kela-digan, sig'ishadigan, mos.
compatriot [kəm´pætrɪət] *n* vatandosh.
compeer [ˈkɔmpɪə] *n* tengdosh, o'rtoq, jo'ra.
compel [kəm´pel] *v* majbur qilmoq, zo'rlamoq.
compelling [kəm´pelɪŋ] *a* yengib bo'lmaydigan.
compendium [kəm´pendɪəm] *n* 1) konspekt; 2) qisqa xulosa, qisqacha mazmun, yakun.
compendious [kəm´pendɪəs] *a* qisqa, qisqartirilgan.
compensate [ˈkɔmpənseɪt] *v* mukofotlamoq.
compensation [,kɔmpen´seɪʃn] *n* mukofotlash.
compensator [,kɔmpənseɪtə] *n fiz. el.* transforma-tor (*o'zgaruvchan elektr tokining kuchlanishini pasaytiradigan yoki oshiradigan moslama*).
compère [ˈkɔmpeə] *n* konferansye (*dasturni olib boruvchi va ora-sira qiziq gaplar bilan tomo-shabinlarni mashg'ul qiluvchi artist*).
compete [kəm´pi:t] *v* musobaqalashmoq, bellash-moq.
competence [ˈkɔmpɪtəns] *n* mahorat; qobiliyat.
competent [ˈkɔmpɪtənt] *a* 1) yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, xabardor; 2) asosli, e'tiborli, diqqatga sazovor.
competition [,kɔmpə´tɪʃn] *n* musobaqa.
competitioner [,kɔmpə´tɪʃnə] *n* musobaqa qat-nashchisi.
competitive [kəm´petətɪv] *a* 1) raqobatlashadi-gan, raqobatga ega; 2) raqobatbardosh.
competitor [kəm´petətə] *n* raqib.
compilation [,kɔmpɪ´leɪʃn] *n* quramachilik (*bosh-qalarning ishlaridan ulab-qurab asar yozish*).
compile [kəm´paɪl] *v* tuzmoq (*lug'at va b.*).
compiler [kəm´paɪlə] *n* tuzuvchi.
complacence, -cy [kəm´pleɪsns, -sɪ] *n* 1) o'ziga ishonib ketish, mag'rurlik; 2) muloyimlik.
complacent [kəm´pleɪsnt] *a* 1) o'ziga ishonib ket-gan, mag'rur; 2) ko'ngilchan.
complain [kəm´pleɪn] *v* shikoyat qilmoq.
complainant [kəm´pleɪnənt] *n* shikoyatchi.
complaint [kəm´plemt] *n* 1) shikoyat; 2) norozilik.
complaisance [kəm´pleɪzns] *n* xushmuomalalik, iltifot.
complaisant [kəm´pleɪzənt] *a* xushmuomala, iltifotli.
complement [ˈkɔmplɪmənt] *n gram.* to'ldiruvchi.
complementary [,kɔmplɪ´mentərɪ] *a* qo'shimcha qilingan.
complete [kəm´pli:t] 1. *a* mukammal, to'liq; 2. *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq.
completely [kəm´pli:tlɪ] *adv* mutlaqo.
completeness [kəm´pli:tnəs] *n* mukammallik.
completion [kəm´pli:ʃn] *n* oxiriga yetkazish, tu-gatish.
completive [kəm´pli:tɪv] *a* yakunlovchi, oxirgi, so'nggi.

complex [ˈkɔmpleks] **1.** *a* murakkab; **2.** *n* kompleks (*uyg'un birlik tashkil etgan predmetlar, voqea-hodisalar, harakat, belgi va sh. k. majmuyi*).
complexion [kəmˈplekʃn] *n* betning tusi (rangi).
complexity [kəmˈpleksəti] *n* murakkablik.
compliance [kəmˈplaɪəns] *n* rozilik.
compliant [kəmˈplaɪənt] *a* yon beradigan, gapga ko'nadigan.
complicacy [ˈkɔmplɪkəsɪ] = **complexity.**
complicate [ˈkɔmplɪkeɪt] *v* murakkablashtirmoq, mushkullashtirmoq, qiyinlashtirmoq.
complicated [ˈkɔmplɪkeɪtɪd] *a* murakkab.
complication [ˌkɔmplɪˈkeɪʃn] *n* murakkablik.
complicity [kəmˈplɪsɪtɪ] *n* birga qatnashish (*jinoyat va b.*).
compliment 1. *n* [ˈkɔmplɪmənt] maqtov; xushomad; **2.** *v* [ˈkɔmplɪment] maqtamoq; xushomad qilmoq.
complimentary [ˌkɔmplɪˈmentərɪ] *a* tabriklashga oid.
comply [kəmˈplaɪ] *v* **(with)** 1) bajarmoq, ijro etmoq; 2) bo'ysunmoq; **to ~ with the rules** qoidalarga rioya qilmoq; 3) ko'nmoq, rozi bo'lmoq; 4) biror narsadan kechmoq, bahridan o'tmoq, bermoq, in'om qilmoq.
component [kəmˈpəunənt] *a* tarkibiy qism.
comport [kəmˈpɔ:t] *v* 1) o'zini yaxshi tutmoq; 2) muvofiq kelmoq.
compose [kəmˈpəuz] *v* 1) tuzmoq; 2) yozmoq, ijod qilmoq, yaratmoq (*musiqali yoki badiiy asarni*).
composed [kəmˈpəuzd] *a* 1) yuvosh, beozor; o'zini tuta biladigan; 2) yozilgan.
composer [kəmˈpəuzə] *n* bastakor.
composing-room [kəmˈpəuzɪŋrum] *n poligr.* harf terish sexi.
composing-stick [kəmˈpəuzɪŋstɪk] *n poligr.* harf teriladigan taxtakach, verstatka.
composite [ˈkɔmpəzɪt] **1.** *n* aralashma, qorishma; **2.** *a* murakkab.
composition [ˌkɔmpəˈzɪʃn] *n* musiqali *yoki* adabiy (badiiy) asar.
composition-metal [kɔmpəˈzɪʃn,metl] *n* jez (*mis va rux qotishmasi*).
compositive [kəmˈpɔzɪtɪv] *a* sintez usuliga asoslangan, sintetik.
compositor [kəmˈpɔzɪtə] *n harf* teruvchi.
compost [ˈkɔmpɔst] *n q-x.* kompost (*har xil chiqindilardan tuproq yoki torfda chiritib tayyorlangan organik o'g'it*).
composure [kəmˈpəuʒə] *n* 1) xotirjamlik, og'irlik, bosiqlik; 2) sovuqqonlik.
compote [ˈkɔmpəut] *n fr.* kompot.
compound 1. *n* [ˈkɔmpaund] 1) birikma, aralashma, tarkib; 2) *ling.* murakkab so'z; **2.** *a* [ˈkɔmpaund] 1) qo'shma; murakkab; 2) *gram.* bog'langan qo'shma gap; **3.** *v* [kəmˈpaund] aralashtirmoq.
comprador [ˌkɔmprəˈdɔ:] *n* komprador (*chet el kapitali bilan mahalliy bozor o'rtasida vositachilik qiluvchi yerlik savdogar*).
comprehend [ˌkɔmprɪˈhend] *v* tushunmoq, anglamoq.
comprehensible [ˌkɔmprɪˈhensəbl] *a* tushunarli, tushunsa bo'ladigan.
comprehension [ˌkɔmprɪˈhenʃn] *n* tushunish, anglash.
comprehensive [ˌkɔmprɪˈhensɪv] *a* 1) mufassal; 2) har tomonlama.
compress 1. *n* [ˈkɔmpres] *tib.* kompress (*og'rigan joyga biror dorili suvga botirib yoki quruq holda bog'lanadigan latta, paxta va h.*); **2.** *v* [kəmˈpres] siqmoq, bosmoq.
compressed [kəmˈprest] *a* siqilgan, qisilgan.
compressibility [kəmˌpresəˈbɪlətɪ] *n* siqilish xususiyati.
compression [kəmˈpreʃn] *n* siqish, qisish.
compressor [kəmˈpresə] *n tex.* kompressor (*dam beradigan, bosim ostida havo, gaz, bug' yuboradigan mashina*).
comprise [kəmˈpraɪz] *v* ichiga olmoq.
compromise [ˈkɔmprəmaɪz] **1.** *n* bir-biriga yon berish (*murosa*); komprimes, kelishuv; **2.** *v* murosa qilmoq.
compromiser [ˈkɔmprəmaɪzə] *n* kelishuvchi, murosachi.
comptometer [ˌkɔmpˈtɔmɪtə] *n* arifmometr (*arifmetik amallarni bajaradigan sodda hisoblash mashinasi*).
comptroller [kəmˈtrəulə] = **controller.**
compulsion [kəmˈpʌlʃn] *n* majbur qilish, zo'rlash.
compulsive [kəmˈpʌlsɪv] *a* majburiy.
compulsory [kəmˈpʌlsərɪ] *a* majburiy.
compunction [kəmˈpʌŋkʃn] *n* vijdon azobi.
computable [kəmˈpju:təbl] *a* hisoblanadigan, sanaladigan.
computation [ˌkɔmpjuˈteɪʃn] *n* hisoblash.
compute [kəmˈpju:t] *v* sanamoq, hisoblamoq.
computer [kəmˈpju:tə] *n* kompyuter.
computerization [kəmˌpju:tərɑɪˈzeɪʃn] *n* hisoblash mashinasidan foydalanish; kompyuterlashtirish.
comrade [ˈkɔmreɪd] *n* o'rtoq, do'st.
comrade-in-arms [ˌkɔmreɪdɪnˈɑ:mz] *n pl* quroldosh.
comradely [ˈkɔmreɪdlɪ] *a* do'stona, o'rtoqlarcha.
comradeship [ˈkɔmreɪdʃɪp] *n* do'stlik munosabatlar.
con I [kɔn] *v* yodlab olmoq.
con II [kɔn] **1.** *n* 1) firibgar, qallob, muttaham; 2) firibgarlik, qalloblik; muttahamlik; **2.** *a* qallohlikdan iborat bo'lgan; **3.** *v* qallohlik (muttahamlik) qilmoq.
concatenate [kənˈkætəneɪt] *v* ulamoq, bog'lamoq.
concatenation [kɔn,kætəˈneɪʃn] *n* 1) *tex.* zanjir; 2) ulash, bog'lash.

concave [ˌkɔnˈkeɪv] **1.** *a* ichiga botgan, bukilgan, egilgan; **2.** *v* bukmoq, egmoq; **3.** *n* chuqur, chuqurcha.

concavity [ˌkɔnˈkævətɪ] *n* botiqlik, egilganlik.

conceal [kənˈsi:l] *v* berkitmoq, yashirmoq.

concealer [kənˈsi:lə] *n* yashiruvchi, berkituvchi.

concealment [kənˈsi:lmənt] *n* yashirish.

concede [kənˈsi:d] *v* 1) yon bermoq; 2) ruxsat etmoq.

conceit [kənˈsi:t] *n* manmanlik, o'ziga ortiqcha ishonish.

conceited [kənˈsi:tɪd] *a* o'ziga bino qo'ygan, mag'rur.

conceivable [kənˈsi:vəbl] *a* aqlga to'g'ri keladigan (sig'adigan).

conceivably [kənˈsi:vəblɪ] *adv* taxminan.

conceive [kənˈsi:v] *v* fikr yuritmoq; ko'z oldiga keltirmoq, tasavvur etmoq, o'ylamoq.

conceiving [kənˈsi:vɪŋ] **1.** *pres. p.* **conceive** *dan*; **2.** *n* homilador bo'lish.

concentrate [ˈkɔnsəntreɪt] *v* 1) to'plamoq, jamlamoq; 2) to'planmoq, jamlanmoq.

concentrated [ˈkɔnsəntreɪtɪd] *a* bir yerga to'plangan.

concentration [ˌkɔnsənˈtreɪʃn] *n* to'plash.

concentre [kənˈsentə] *v* bir yerda to'plamoq (*biror narsaga qaratmoq fikr va b.*).

concentric [kənˈsentrɪk] *a* konsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*).

concentrically [kənˈsentrɪklɪ] *adv* kontsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*).

concentricity [ˌkɔnsənˈtrɪsətɪ] *n* bitta umumiy markazga egalik, konsentriklik.

concept [ˈkɔnsept] *n* tushuncha, g'oya.

conception [kənˈsepʃn] *n* tushunish.

conceptual [kənˈseptʃuəl] *a* tajribaga asoslanmagan, sinalmagan.

concern [kənˈsɜ:n] **1.** *n* 1) munosabat, aloqa; **it is no ~ of mine** bu mening ishim emas; **to have no ~ with** ... ga hech qanday aloqasi bo'lmaslik; 2) tashvishlanish, g'amxo'rlik; **to show ~ for an invalid** nogironga g'amxo'rlik qilish; 3) ishtirok etish, qiziqish; 4) firma, korxona; **paying ~** daromadli korxona; 5) muhimlik, ahamiyatlilik; **matter of great ~** o'ta muhim masala; **2.** *v* 1) aloqador bo'lmoq, daxldor bo'lmoq; **That doesn't ~ you at all.** Uni sizga hech qanday aloqasi yo'q; 2) tashvishlanmoq, g'amxo'rlik qilmoq; 3) qiziqmoq, shug'ullanmoq.

concerned [kənˈsɜ:nd] **1.** *p. p.* **concern 2** *dan*; **2.** *a* 1) aloqador bo'lgan (*biror narsaga*); bog'liq bo'lgan (*biror narsa bilan*); manfaatdor; **all ~** barcha manfaatdor shaxslar; 2) tashvishli, tashvishlangan; 3) band bo'lgan, mashg'ul (*biror narsa bilan*).

concerning [kənˈsɜ:nɪŋ] **1.** *p. p.* **concern 2** *dan*; **2.** *prep.* 1) haqida, to'g'risida; xususida; 2) taalluqli, tegishli.

concernment [kənˈsɜ:nmənt] *n* 1) ish, korxona; 2) munosabat; **matter of private ~** xususiy tusdagi ish; 3) muhimlik; **of vital ~** hayotiy muhim; 4) ishtirok etish, manfaatdorlik.

concert 1. *n* [ˈkɔnsət] *n* 1) konsert; 2) rozilik, kelishish; **2.** *v* [kənˈsɜ:t] kelishmoq.

concerted [kənˈsɜ:tɪd] **1.** *p. p.* **concert 2** *dan*; **2.** *a* kelishib olingan.

concertina [ˌkɔnsəˈti:nə] *n* konsertino (*1. olti qirrali garmon; 2. konsert tipidagi sodda musiqa asbobi*).

concerto [kənˈtʃeətəu] *n ital.* konsert (*musiqa asari*).

concession [kənˈseʃn] *n* 1) yon berish (*ko'nish, rozi bo'lish*); 2) yer, kon, korxona va sh.k. dan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist *yoki* firma o'rtasida tuziladigan shartnoma (*konsessiya*).

concessionaire [kənˌseʃəˈneə] *n fr.* konsessioner.

concessive [kənˈsesɪv] *a* 1) yon beradigan, gapga ko'nadigan; 2) *gram.* to'siqsiz.

conch [kɔŋk] *n* chig'anoq.

concha [ˈkɔŋkə] *n anat.* quloq chanog'i (*suprasi*).

concilia [kənˈsɪlɪə] *pl* **concilium** *dan*.

conciliate [kənˈsɪlɪeɪt] *v* 1) murosaga keltirmoq, yarashtirmoq; 2) tinchlantirmoq, yupatmoq.

conciliation [kənˌsɪlɪˈeɪʃn] *n* murosaga keltirish, yarashtirish.

conciliatory [kənˈsɪlɪətərɪ] *a* murosaga keltiruvchi, yarashtiruvchi.

concilium [kənˈsɪlɪəm] *n* konsilium (*og'ir yoki noaniq kasallikni aniqlash va uni davolash choralarini belgilash uchun chaqiriladigan shifokorlar kengashi*).

concise [kənˈsaɪs] *a* qisqartirilgan, qisqa, lo'nda.

conciseness [kənˈsaɪsnəs] *n* qisqalik, qisqachalik, lo'ndalik.

concision [kənˈsɪʒn] = **conciseness.**

conclave [ˈkɔŋkleɪv] *n* maxfiy kengash.

conclude [kənˈklu:d] *v* 1) tugatmoq, yakunlamoq; **to ~ a lecture** ma'ruzani yakunlamoq; 2) tuzmoq; **to ~ a treaty** shartnoma tuzmoq; 3) xulosaga kelmoq, xulosa chiqarmoq; 4) hal qilmoq, qarorga kelmoq (*biror narsa qilishga*).

conclusion [kənˈklu:ʒn] *n* 1) tugatish, yakunlash; **the ~ of a speech** nutqning yakuniy qismi; 2) tuzish; **~ of truce** yarash ahdi tuzish; 3) xulosa; **to draw a ~** xulosa chiqarmoq; 4) yakun, natija; 5) *yur.* sud qarori.

conclusive [kənˈklu:sɪv] *a* 1) yakunlovchi, so'nggi, oxirgi; 2) hal qiluvchi.

concoct [kənˈkɔkt] *v* 1) ovqat tayyorlamoq (*pishirmoq, qilmoq*); 2) o'ylab topmoq, to'qimoq.

concoction [kənˈkɔkʃn] *n* 1) qaynatma ovqat, suyuq osh; 2) uydirma, to'qima, bo'lmagan, yolg'on; 2) o'ylab topish.

concomitance [kənˈkɔmɪtəns] *n* birga yurish, bir vaqtda sodir bo'lish.

concomitant [kən´kɔmıtənt] **1.** *a* birga yuradigan, bir vaqtda sodir bo'ladigan; **2.** *n* ketidan keladigan ahvol.
concord [´kɔŋkɔ:d] *n* 1) rozilik; 2) bitim, shartnoma.
concordance [kən´kɔ:dəns] *n* moslik, muvofiqlik.
concordant [kən´kɔ:dənt] *a* rozi bo'lgan, rozilik bergan.
concordat [kən´kɔ:dæt] *n* shartnoma, bitim.
concourse [´kɔŋkɔ:s] *n* 1) omma to'planadigan ochiq joy; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi, olomon.
concrescence [kən´kresəns] *n biol.* bitish, ulanish, bitgan (ulangan) joy.
concrete [´kɔnkri:t] **1.** *n* beton (*sement, qum va qorib tayyorlangan qurilish materiali*); **2.** *a* 1) aniq, ravshan; 2) betondan ishlangan; **3.** *v* betonlamoq, beton bilan mustahkamlamoq.
concrete-mixer [,kɔnkri:t´mıksə] *n* betonqorg'ich, beton yoradigan mashina.
concretion [kən´kri:ʃn] *n* bitish, ulanish.
concretize [´kɔnkrıtaız] *v* aniqlamoq.
concubinage [kən´kju:bınıdʒ] *n* nikohsiz birga yashash.
concubine [´kɔŋkjubaın] *n* o'ynash, nikohsiz xotin, jazman.
concupiscence [kən´kju:pısəns] *n* 1) zo'r istak, xohish, orzu; suqlanish; 2) nafs, hirs, shahvat.
concupiscent [kən´kju:pısənt] *a* shahvatparastlarcha, shahvoniy.
concur [kən´kə:] *v* 1) to'g'ri kelmoq; 2) rozi bo'lmoq.
concurrence [kən´kʌrəns] *n* 1) mos kelish, o'xshashlik (*fikr va b.*); 2) rozilik.
concurrent [kən´kʌrənt] **1.** *n* ajralmas qism; **2.** *a* 1) bir-biriga to'g'ri keladigan; 2) bir vaqtda yoki birgalikda amalga oshadigan.
concuss [kən´kʌs] *v* 1) tebratmoq; 2) majbur qilmoq (*nimagadir*).
concussion [kən´kʌʃn] *n* 1) titrash; chayqalish; turtki; **~ of the brain** miyaning chayqalib lat yeyishi; 2) kontuziya; 3) *yur.* do'q yoki zo'ravonlik bilan biror narsa qilishga majburlash.
condemn [kən´dem] *v* 1) ayblamoq, tanbeh bermoq; 2) *yur.* hukm qilmoq; 3) yaroqsiz deb topmoq; **to ~ to death** o'limga hukm qilmoq; 4) musodara qilmoq, hibsga olmoq.
condemnation [,kɔndem´neıʃn] *n* qoralash, ayblash; hukm.
condemnatory [kən´demnətərı] *a* ayblash bilan bog'liq bo'lgan.
condemned [kən´demd] *a* jazoga hukm qilingan.
condensation [,kɔnden´seıʃn] *n* quyulish, zichlanish.
condense [kən´dens] *v* quyultirmoq, zichlashtirmoq.
condensed [kən´denst] *a* quyultirilgan, zichlangan; **~ milk** quyultirilgan sut.
condenser [kən´densə] *n* kondensator (*1. elektr to'playdigan asbob; 2. bug'ni sovitib suyuqlikka aylantiradigan kondensat to'playdigan asbob*).
condescend [,kɔndı´send] *v* marhamat ko'rsatmoq; iltifot qilmoq.
condescending [kɔndı´sendıŋ] *a* marhamatli, iltifotli, iltifot bilan qilingan.
condescension [,kɔndı´senʃn] *n* ko'ngilchanlik, ko'ngli bo'shlik.
condign [kən´daın] *a* loyiq, sazovor (*jazoga*).
condiment [´kɔndımənt] *n* ziravor (*ovqatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan narsa*).
condition I [kən´dıʃn] *n* 1) holat, ahvol; **in good ~** iste'molga yaroqli; 2) *pl* muhit, shart-sharoit; **~ s of life** turmush shart-sharoitlari; 3) shart; **to meet the ~ s** shartlarni bajarmoq.
condition II [kən´dıʃn] *v* shart qo'ymoq, talab qo'ymoq.
conditional [kən´dıʃnl] *a* shartli, o'zaro shart qilingan.
conditioned [kən´dıʃnd] *a* shart qilingan.
conditioning [kən´dıʃnıŋ] *a sport.* chiniqtirish; umumrivojlantiruvchi mashqlar.
condolatory [kən´dəulətrı] *n* xayrixoh.
condole [kən´dəul] *v* 1) hamdard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq.
condolence [kən´dəuləns] *n* dardiga (qayg'usiga) sherik bo'lish, ta'ziya bildirish.
condominium [,kɔndə´mınıəm] *n* kondominium (*bir hudıdning bir necha davlat tomonidan birgalikda tasarruf qilinishi, boshqarilishi*).
condonation [,kɔndə´neıʃn] *n* chidab turishlik (*asosan, er-xotinning xiyonatida*).
condone [kən´dəun] *v* murosa qilmoq, ko'nikmoq; chidamoq.
condor [´kɔndɔ:] *n zool.* kondor (*Janubiy Amerikada yashaydigan o'limtikxo'r yirik yirtqich qush*).
conduce [kən´dju:s] *v* imkon (imkoniyat) tug'dirmoq.
conducive [kən´dju:sıv] *a* yaxshi ta'sir ko'rsatadigan.
conduct 1. *n* [´kɔndʌkt] 1) yurish-turish, xulq-atvor; **good (bad) ~** yaxshi (yomon) xulq-atvor; 2) yuritish, rahbarlik qilish; **~ of a business** ishni boshqarish; **2.** *v* [kən´dʌkt] 1) olib bormoq, hamroh bo'lmoq; 2) boshqarmoq, rahbarlik qilmoq; **to ~ a meeting** majlisni boshqarmoq; 3) dirijorlik qilmoq (*orkestrga, xorga*).
conductance [kən´dʌktəns] = **conduction.**
conduction [kən´dʌkʃn] *n fiz.* o'tkazuvchanlik, o'tkazish qobiliyati.
conductivity [,kɔndʌk´tıvətı] *n fiz.* elektr o'tkazuvchi.
conductor [kən´dʌktə] *n* 1) chipta sotuvchi, konduktor (*tramvay, avtobusda*), 2) yo'l ko'rsatuvchi, gid, rahbar; **~ of a party** guruh rahbari; 3) dirijor; 4) *fiz.* o'tkazgich.

conductress [kən'dʌktrəs] *n* chipta sotuvchi ayol (*avtobus, tramvay va b.*).
conduit ['kɔndɪt] *n* 1) suv quvuri. 2) truboprovod (*uzoq masofaga quvur orqali gaz, suv yoki suyuqlik o'tkazadigan inshoot*).
cone [kəun] *n* 1) *mat.* konus; 2) *bot.* so'ta (*ignabargli daraxtlarning so'tasimon to'p guli*).
coney ['kəunɪ] = **cony.**
confabulate [kən'fæbjuleɪt] *v* suhbatlashmoq; gaplashmoq.
confabulation [kən,fæbju'leɪʃn] *n* 1) do'stona suhbat; 2) bekorchi gap.
confection [kən'fekʃn] **1.** *n* shirinliklar (*qandqurs*), **2.** *v* shirinliklar tayyorlamoq (pishirmoq).
confectionary [kən'fekʃnərɪ] qandolat mahsulotlari.
confectioner [kən'fekʃnə] *n* qandolatchi, shakarpaz.
confectionery [kən'fekʃnərɪ] *n* 1) qandolat do'koni; 2) qandolatchilik.
confederacy [kən'fedərəsɪ] *n* konfederatsiya (*ba'zi tashkilotlarning ittifoqi. birikmasi*).
confederate 1. *n* [kən'fedərət] 1) ittifoqchi; 2) konfederatsiya a'zosi; **2.** *a* [kən'fedərət] o'zaro birlashgan; ittifoq tuzgan; **3.** *v* [kən'fedəreɪt] o'zaro birlashmoq, ittifoq tuzmoq.
confederation [kən,fedə'reɪʃn] *n* ittifoq, uyushma.
confer [kən'fə:] *v* 1) bermoq, bag'ishlamoq; 2) (*ilmiy daraja va b.*) bermoq; 3) maslahatlashmoq, kengashmoq.
conferee [,kɔnfə'ri:] *n* kengash qatnashchisi.
conference ['kɔnfərəns] *n* kengash, konferensiya.
conferment [kən'fə:mənt] *n* 1) unvon berish; 2) (*ilmiy daraja*) berish.
confess [kən'fes] *v* 1) tan olmoq, e'tirof qilmoq; 2) e'tiqod (amal, rioya) qilmoq.
confession [kən'feʃn] *n* 1) bo'yniga olish; iqror bo'lish (*xatosini, aybini*); 2) *cherk.* tavba, gunohlariga tavba qilish.
confessor [kən'fesə] *n* tavbani qabul qiluvchi ruhoniy.
confetti [kən'fetɪ] *n u.* konfetti (*bayramlarda kishilar ustidan sochiladigan rangli qog'oz tangachalar*).
confidant ['kɔnfɪdænt] *n* sirdosh (yaqin) do'st, ishonchli shaxs.
confidante ['kɔnfɪdænt] *n* sirdosh (yaqin) dugona.
confide [kən'faɪd] *v* ishonmoq.
confidence ['kɔnfɪdəns] *n* ishonch, ishonish.
confident ['kɔnfɪdənt] *a* 1) ishonch bilan qilingan; 2) o'ziga ishongan.
confidential [,kɔnfɪ'denʃl] *a* maxfiy.
confidentially [,kɔnfɪdenʃɪ'ælɪlɪ] *adv* maxfiy ravishda, yashirincha.
configuration [kən,figju'reɪʃn] *n* tashqi ko'rinish (qiyofa, shakl).
confine [kən'faɪn] *v* cheklamoq, cheklanmoq.
confined [kən'faɪnd] *a* chegaralangan, cheklangan.
confinement [kən'faɪnmənt] *n* chegaralash, cheklash.
confines ['kɔnfaɪnz] *n pl* chegaralar, hududlar.
confirm [kən'fə:m] **1.** *v* tasdiqlamoq; **2.** *n* tasdiqlash.
confirmation [,kɔnfə'meɪʃn] *n* tasdiq, isbot, tasdiqlash.
confirmative [kən'fə:mətɪv] *a* tasdiqlaydigan, tasdiqlovchi.
confirmed [kən'fə:md] *a* 1) uzoq davom etadigan (cho'ziladigan); 2) qat'iy ishongan.
confiscate ['kɔnfɪskeɪt] *v* musodara qilmoq.
confiscation [,kɔnfɪs'keɪʃn] *n* musodara qilish.
confiture ['kɔnfɪtjə] *n* murabbo, qiyom.
conflagration [,kɔnflə'greɪʃn] *n* katta yong'in.
conflict 1. *n* ['kɔnflɪkt] 1) nizo, mojaro; 2) to'qnashuv; 3) ziddiyat, qarama-qarshilik; **2.** *v* [kən'flɪkt] 1) qarshi chiqmoq; 2) kurashmoq.
conflicting [kən'flɪktɪŋ] **1.** *pres. p.* **conflict 2** *dan*, **2.** *a* qarama-qarshi, zid, teskari.
confluence ['kɔnfluəns] *n* 1) daryoning tutashgan joyi; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi; 3) yo'llar kesishib o'tgan joy (chorraha).
confluent ['kɔnfluənt] *n* irmoq, jilg'a.
conform [kən'fɔ:m] *v* to'g'ri (muvofiq) kelmoq.
conformable [kən'fɔ:məbl] *a* to'g'ri (muvofiq) keladigan.
conformation [,kɔnfɔ:'meɪʃn] *n* tuzilish.
conformity [kən'fɔ:mətɪ] *n* to'g'ri kelish (*munosiblik*).
confound [kən'faund] *v* 1) uyaltirib qo'ymoq; 2) adashtirmoq; 3) buzmoq, barbod qilmoq (*reja, orzu-umidni*).
confounded [kən'faundɪd] *a so'zl.* o'taketgan, ashaddiy.
confoundedly [kən'faundɪdlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari.
confraternity [,kɔnfrə'tə:nətɪ] *n* do'stlik, qardoshlik.
confront [kən'frʌnt] *v* yuzma-yuz turmoq, qarshi turmoq.
confrontation [,kɔnfrʌn'teɪʃn] *n* qarshi kurashish, qarshilik ko'rsatish, konfrantatsiya.
confuse [kən'fju:z] *v* adashtirmoq, chalkashtirmoq.
confused [kən'fju:zd] *a* 1) chigal, chalkash-chulkash; 2) xijolatda (uyalib) qolgan.
confusedly [kən'fju:zɪdlɪ] *adv* xijolat bo'lib, uyalib, xijolatda.
confusion [kən'fju:ʒn] *n* 1) xijolat bo'lish, uyalib qolish; 2) tartibsizlik.
confutation [,kɔnfju'teɪʃn] *n* rad (etish) qilish.
confute [kən'fju:t] *v* rad qilmoq, noto'g'riligini isbot qilmoq.
congeal [kən'dʒi:l] *v* muzlatmoq.
congelation [,kɔndʒɪ'leɪʃn] *n* muzlatish.

congeneric(al) [ˌkəndʒɪˈnerɪk(əl)] *a* bir turdagi, o'xshash.
congenerous [kənˈdʒenərəs] *a* 1) bir turdagi, o'xshash; 2) qarindoshlikka oid.
congenial [kənˈdʒi:nɪəl] *a* munosib, bop, muvofiq.
congeniality [kənˌdʒi:nɪˈælətɪ] *a* 1) yaqinlik; 2) o'xshashlik.
congenital [kənˈdʒenɪtl] *a* tug'ma, zotida bo'lgan.
conger [ˈkɔŋgə] *n zool.* dengiz ilonbalig'i.
congeries [kənˈdʒɪəri:z] *n* 1) (*pl o'zgarishsiz*) juda ko'p, bir talay; 2) yig'ish, to'plash, jamg'arish.
congest [kənˈdʒest] *v* 1) ortiqcha yuklamoq; 2) to'ldirib yubormoq.
congested [kənˈdʒestɪd] **1.** *p. p.* **congest** *dan*. **2.** *a* aholisi g'oyat ko'p (*rayon va b.*).
congestion [kənˈdʒestʃən] *n* aholining juda zichligi, aholining tig'iz joylashganligi.
conglobate [ˈkɔnɡləubeɪt] *a* sharsimon, dumaloq.
conglomerate **1.** *n* [kənˈglɔmərət] konglomerat (*xilma-xil narsalarning tartibsiz, tasodifiy yig'indisi*); **2.** *v* [kənˈglɔməreɪt] yig'moq, to'plamoq.
conglomeration [kənˌglɔməˈreɪʃn] *n* yig'ish, to'plash.
conglutination [kənˌglu:tɪˈneɪʃn] *n* yopishtirish, yelimlab ulash.
congou [ˈkɔŋgu:] *n* Xitoy qora choyining bir navi.
congratulate [kənˈgrætʃuleɪt] *v* tabriklamoq, qutlamoq.
congratulation [kənˌgrætʃuˈleɪʃn] *n* tabriklash, qutlash.
congratulatory [kənˌgrætʃuˈleɪtərɪ] *a* tabriklashga (qutlashga) oid.
congregate [ˈkɔŋgrɪgeɪt] *v* yig'moq, yig'ilmoq.
congregation [ˌkɔŋgrɪˈgeɪʃn] *n* yig'in, yig'ilish.
congress [ˈkɔŋgres] *n* 1) kongress (*siyosiy, ilmiy yoki jamoat tashkilotlarining xalqaro majlisi, kengashi*); 2) qurultoy.
congressional [kənˈgreʃnl] *a* kongressga oid.
Congressman [ˈkɔŋgresmən] *n amer.* kongress a'zosi.
congruence [ˈkɔŋgruəns] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik, muvofiqlik, birdamlik, hamjihatlik, kelishilganlik.
congruent [ˈkɔŋgruənt] = **congruous.**
congruous [ˈkɔŋgruəs] *a* mos, muvofiq, munosib, loyiq, tog'ri keladigan.
conic(al) [ˈkɔnɪk(əl)] *a* konusga oid, konusga o'xshagan.
conifer [ˈkənɪfə] *n* ignabargli daraxt.
coniferous [kəuˈnɪfərəs] *a bot.* ignabargli daraxtga oid, ignabargli daraxtdan olingan.
coniform [ˈkəunɪfɔ:m] = **conic(al).**
conjectural [kənˈdʒekʧərəl] *a* taxminiy, chamalab belgilangan.
conjecture [kənˈdʒekʧə] **1.** *n* taxmin, faraz; **2.** *v* taxmin (faraz) qilmoq, chamalamoq.
conjee [ˈkɔndʒɪ] *n* yovg'on xo'rda.
conjoin [kənˈdʒɔɪn] *v* qo'shilmoq, birlashmoq.
conjoint [kɔnˈdʒɔɪnt] *a* qo'shilgan, birlashgan.
conjugal [ˈkɔndʒugəl] *a* nikohga (er-xotinlikka) oid.
conjugality [ˌkɔndʒuˈgælətɪ] *n* er-xotinlik.
conjugate [ˈkɔndʒugət] *a gram.* tuslamoq (*grammatik shakllar bo'yicha o'zgartirmoq*).
conjugation [ˌkɔndʒuˈgeɪʃn] *n gram.* tuslanish.
conjunct [ˈkɔndʒʌŋkt] *a* 1) *gram.* bog'lovchi; 2) birikish, qo'shilish.
conjunction [kənˈdʒʌŋkʃn] *a* 1) qo'shilish; aloqa; **in ~** birgalikda; 2) *amer.* bog'lovchi.
conjunctive [kənˈdʒʌŋktɪv] *a* 1) bog'laydigan, bog'lovchi; 2) *gram.* bog'lovchili, bog'lovchi orqali bog'langan.
conjuncture [kənˈdʒʌŋkʧə] *n* voqealarning birbiriga to'g'ri kelib qolishi, zamonaning zayli.
conjuration [ˌkɔndʒuəˈreɪʃn] *n* sehrgarlik, jodugarlik.
conjure [ˈkʌndʒə] *v* sehrlamoq, sehr-jodu qilmoq.
conjurer, conjuror [ˈkʌndʒərə] *n* sehrgar, jodugar, afsungar.
conk [kɔŋk] **1.** *n* 1) burun; 2) burunga urish; 3) dvigatelning ishdan chiqishi; **2.** *v* 1) burunga urmoq; 2) o'lmoq; **~ out** buzilib qolmoq (*mashina haqida*).
connate [ˈkɔneɪt] *a* tug'ma, zotida bor.
connect [kəˈnekt] *v* bog'lamoq, ulamoq.
connected [kəˈnektɪd] *a* bog'langan, aloqador.
connecting [kəˈnektɪŋ] *n* bog'lanish.
connecting-link [kəˈnektɪŋlɪŋk] *n* bog'lovchi bo'g'in.
connecting-rod [kəˈnektɪŋrɔd] *n tex.* shatun (*porshen va dvigatelni birlashtiruvchi detal*).
connection [kəˈnekʃn] *n* bog'lanish, aloqa.
connective [kəˈnektɪv] **1.** *a* biriktiruvchi, bog'lovchi; **2.** *n gram.* biriktiruvchi so'z.
connexion [kəˈnekʃn] = **connection.**
conning tower [ˈkɔnɪŋˌtauə] *n deng.* jangovar rubka (*rubka – kema palubasi ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy*).
connivance [kəˈnaɪvns] *n* erkalatib yuborish, erk berish.
connive [kəˈnaɪv] *v* erkalatib yubormoq, erk bermoq.
connoisseur [ˌkɔnəˈsə:] *n fr.* yaxshi biladigan (bilimdon, bilarmon) kishi.
connotation [ˌkɔnəˈteɪʃn] *n* qo'shimcha ma'no.
connote [kəˈnəut] *v* qo'shimcha ma'noga ega bo'lmoq (*so'z to'g'risida*).
connubial [kəˈnju:bɪəl] *a* er-xotinga *va* er-xotinlikka oid.
conquer [ˈkɔŋkə] *v* 1) zabt etmoq; 2) yengmoq, g'alaba qilmoq.
conqueror [ˈkɔŋkərə] *n* 1) zabt etgan kishi; 2) g'olib (*yengib chiqqan kishi*).

conquest [ˈkɔŋkwest] *n* 1) zabt etish; 2) g'alaba.
consanguine [kɔnˈsæŋwɪn] = **consanguineous**.
consanguineous [ˌkɔnsæŋˈgwɪnɪəs] *a* qon-qarindosh, qondosh.
consanguinity [ˌkɔnsæŋˈgwɪnətɪ] *n* qon-qarindosh, qondoshlik.
conscience [ˈkɔnʃəns] *n* 1) vijdon; **clear (good) ~** toza vijdon; **freedom (liberty) of ~** vijdon erkinligi; 2) ong; **public ~** ijtimoiy ong.
conscienceless [ˈkɔnʃənsləs] *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdonsiz, insofsiz.
conscientious [ˌkɔnʃɪˈenʃəs] *a* halol, vijdonli, insofli.
conscientiously [ˌkɔnʃɪˈenʃəslɪ] *adv* vijdonan, insof bilan.
conscious [ˈkɔnʃəs] *a* 1) anglaydigan, tushunadigan; 2) *sezadigan*; **~ *of pain*** *og'riqni sezadigan*; 3) *predic.* aql-hushi o'zida bo'lgan.
consciousness [ˈkɔnʃəsnəs] *n* 1) tushunish, bilish, anglash; 2) onglilik, ong.
conscript [ˈkɔnskrɪpt] **1.** *n* harbiy xizmatga chaqirilgan kishi; **2.** *a* harbiy xizmatga chaqirilgan.
conscription [kənˈskrɪpʃn] *n* majburiy harbiy xizmat.
consecrate [ˈkɔnsɪkreɪt] **1.** *a* bag'ishlangan; **2.** *v* bag'ishlamoq; **3.** *n* bag'ishlash.
consecration [ˌkɔnsɪˈkreɪʃn] *n* bag'ishlash; **the ~ of one's life to study** hayotini fanga bag'ishlash.
consecution [ˌkɔnsɪˈkju:ʃn] *n* ketma-ketlik.
consecutive [kənˈsekjutɪv] *a* *ketma-ket (birin-ketin)* sodir bo'ladigan.
consenescence [ˌkɔnsɪˈnesns] *n* keksayish, qarib qolish.
consensus [kənˈsensəs] *n* rozilik, kelishuv.
consent [kənˈsent] **1.** *n* rozilik; 2) ijozat, ruxsat; **2.** *v* rozi bo'lmoq.
consentaneity [kənˌsentəˈni:ɪtɪ] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik.
consentaneous [ˌkɔnsenˈteɪnɪəs] *a* bir-biriga mos, muvofiq.
consentient [kənˈsenʃənt] *a* yakdillik bilan qabul qilingan, yakdil, hamjihat.
consequence [ˈkɔnsɪkwəns] *n* 1) oqibat, natija; 2) xulosa, yakun; 3) ahamiyatga ega bo'lgan ish, ahamiyat, imkoniyat; **a matter of great ~** muhim, ahamiyatga ega bo'lgan narsa.
consequent [ˈkɔnsɪkwənt] **1.** *a* ketma-ket sodir bo'ladigan; **2.** *n* natija.
consequential [ˌkɔnsɪˈkwenʃl] *a* muhim.
consequently [ˈkɔnsɪkwəntlɪ] *adv* shunday qilib.
conservation [ˌkɔnsəˈveɪʃn] *n* saqlash.
conservatism [kənˈsə:vətɪzm] *n* konservatizm, eskilikka yopishib olish.
conservative [kənˈsə:vətɪv] **1.** *a* eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan; **2.** *n* eskilik tarafdori.
conservatoire [kənˈsə:vətwɑ:] *n fr.* konservatoriya.
conservatory [kənˈsə:vətrɪ] *n* 1) issiqxona; 2) *amer.* konservatoriya (*oliy musiqa o'quv yurti*).
conserve [kənˈsə:v] *v* saqlamoq, asramoq.
consider [kənˈsɪdə] *v* 1) ko'rib chiqmoq; 2) e'tiborga olmoq; 3) hisoblamoq, deb bilmoq, tushunmoq.
considerable [kənˈsɪdərəbl] *a* muhim, ahamiyatli, zarur.
considerate [kənˈsɪdərət] *a* xushmuomala.
consideration [kənˌsɪdəˈreɪʃn] *n* 1) ko'rib chiqish, muhokama qilish; 2) fikr, mulohaza; 3) e'tibor, hurmat.
considering [kənˈsɪdərɪŋ] *prep.* nazarga (e'tiborga, hisobga) olib.
consign [kənˈsaɪn] *v* zimmasiga yuklamoq, topshirmoq.
consignee [ˌkɔnsaɪˈni:] *n* yukni oluvchi kishi, vazifa yuklangan kishi.
consigner [kənˈsaɪnə] = **consignor**.
consignment [kənˈsaɪnmənt] *n* yuk; bir to'p mol.
consignor [kənˈsaɪnə] *n* yuk jo'natuvchi kishi.
consilience [kənˈsɪlɪəns] *n* bir-biriga to'g'ri kelish.
consilient [kənˈsɪlɪənt] *a* bir-biriga to'g'ri keladigan.
consist [kənˈsɪst] *v* ... dan iborat bo'lmoq, tuzilgan bo'lmoq, tarkib topmoq.
consistence [kənˈsɪstəns] *n* qalinlik, zichlik.
consistency [kənˈsɪstənsɪ] *n* 1) ketma-ketlik; 2) doimiylik, o'zgarmaslik.
consistent [kənˈsɪstənt] *a* 1) to'g'ri keladigan, uyg'unlashadigan; 2) izchil, mantiqiy, tadrijiy.
consolation [ˌkɔnsəˈleɪʃən] *n* yupatish so'zlari, taskin beradigan so'zlar.
consolatory [kənˈsɔlətərɪ] *a* yupatadigan, taskin beradigan.
console [kənˈsəul] *v* yupatmoq, taskin bermoq.
console-mirror [ˈkɔnsəulˌmɪrə] *n* tosh oyna, tikka turadigan katta tosh oyna.
consolidate [kənˈsɔlɪdeɪt] *v* 1) mustahkamlamoq; mustahkamlanmoq; 2) birlashtirmoq; birlashmoq.
consolidation [kənˌsɔlɪˈdeɪʃn] *n* mustahkamlash.
consols [kənˈsɔlz] *n pl* uzoq muddatga aylantirilgan davlatning qisqa muddatli qarzlari; konsolidatsiya qilingan renta.
consonance [ˈkɔnsənəns] *n* 1) *hamohanglik, ohangdoshlik*; 2) *mus.* tovuslarning o'zaro ohangdoshligi.
consonant [ˈkɔnsənənt] **1.** *a* to'g'ri keladigan, bir xil; **2.** *n fon.* undosh tovush.
consort 1. *n* [ˈkɔnsɔ:t] er, xotin (*asosan, qirol oilalarida*); **2.** *v* [kənˈsɔ:t] aloqada bo'lmoq, muomala qilmoq (*kim bilandir*).
consortium [kənˈsɔ:tɪəm] *n* konsorsium (*bir necha bank yoki bankirlarning yirik moliyaviy operatsiyani amalga oshirish uchun tuzgan muvaqqat bitimi, monopolistik birlashmasi*).
conspicuous [kənˈspɪkjuəs] *a* ko'zga ko'ringan, atoqli, taniqli.

conspiracy [kən'spirəsi] *n* fitna, til biriktirish.
conspirator [kən'spirətə] *n* fitnachi, til biriktiruvchi.
conspiratorial [kən,spirə'tɔ:riəl] *a* makkorona.
conspire [kən'spaiə] *v* til biriktirmoq.
constable ['kʌnstəbl] *n* politsiyachi, mirshab (*lavozim*).
constabulary [kən'stæbjuləri] *a* politsiyaga oid.
constancy ['kɔnstənsi] *n* doimiylik.
constant ['kɔnstənt] **1.** *a* doimiy; **2.** *n mat.* o'zgarmas miqdor, kattalik.
constellation [,kɔnstə'leiʃn] *n astr.* yulduzlar turkumi (*burj*).
consternation [,kɔnstə'neiʃn] *n* qo'rquv.
constipation [,kɔnstɪ'peiʃn] *n tib.* ich qotish (*qabziyat*).
constituency [kən'stitjuənsi] *n* 1) saylovchilar; 2) saylov okrugi.
constituent [kən'stitjuənt] **1.** *a* 1) saylovga oid; 2) tarkibiy, tarkibli, murakkab; **2.** *n* 1) saylovchi; 2) tarkibiy qism.
constitute ['kɔnstitju:t] *v* 1) yaratmoq, hosil qilmoq; 2) tayinlamoq, belgilamoq.
constitution [,kɔnstɪ'tju:ʃn] *n* 1) *siyos.* konstitutsiya (*asosiy qonun*); 2) qaddi-qomat, bo'ybast; 3) tuzilish.
constitutional [,kɔnstɪ'tju:ʃnəl] *n* 1) konstitutsion, kostitutsiyaga oid; 2) *tib.* organik.
constitutor ['kɔnstitju:tə] *n* joriy etuvchi, tuzuvchi, asos soluvchi.
constrain [kən'strein] *v* majbur qilmoq; zo'rlamoq; qamamoq.
constrained [kən'streind] **1.** *p. p.* **constrain** *dan*; **2.** *a* noiloj, majburiy.
constrainedly [kən'streinədli] *adv* g'ayriixtiyoriy; majburan.
constraint [kən'streint] *n* majbur qilish, zo'rlash.
constrict [kən'strikt] *v* qattiq (siqib) bog'lamoq.
constriction [kən'strikʃn] *n* qattiq (tortib, siqib) bog'lash.
constrictor [kən'striktə] *n zool.* oddiy bo'g'ma ilon.
construct [kən'strʌkt] *v* 1) qurmoq; 2) yaratmoq, ishlab chiqmoq.
construction [kən'strʌkʃn] *n* 1) qurish, bino qurish, qurilish; 2) inshoot, qurilayotgan bino.
constructional [kən'strʌkʃnəl] *a* qurilishga (binokorlikka) oid.
constructive [kən'strʌktiv] *a* 1) qurilishga (binokorlikka) oid; 2) ijodiy, ijod qilishga oid.
constructor [kən'strʌktə] *n* quruvchi, binokor.
construe [kən'stru:] *v* sintaktik tahlil qilmoq.
consul ['kɔnsl] *n* konsul (*biror davlatning boshqa bir davlat shahariga o'z davlatining fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish uchun qo'ygan rasmiy vakili*).
consular ['kɔnsjulə] *a* konsulga va konsullikka oid.
consulate ['kɔnsjulət] *n* 1) konsulxona; 2) konsullik vazifasi.
consulship ['kɔnsəlʃip] *n* konsullik vazifasi.
consult [kən'sʌlt] *v* 1) maslahat olmoq, maslahatlashmoq; 2) maslahat bermoq.
consultant [kən'sʌltənt] *n* maslahatchi.
consultation [,kɔnsəl'teiʃn] *n* 1) konsultatsiya (*biror masala yuzasidan mutaxassis maslahati*); 2) kengash (*maslahat majlisi*).
consultative [kən'sʌltətiv] *a* maslahat beruvchi.
consume [kən'sju:m] *v* iste'mol qilmoq, ehtiyojga ishlatmoq; sarf qilmoq.
consumer [kən'sju:mə] *n* iste'molchi, iste'mol qiluvchi.
consummate **1.** *a* [kən'sʌmət] tugatilgan; **2.** *v* ['kɔnsəmeit] tugatmoq.
consummately [kən'sʌmətli] *adv* mutlaqo, g'oyat.
consummation [,kɔnsə'meiʃn] *n* ishni tugatish.
consumption [kən'sʌmpʃən] *n* 1) iste'mol qilish, ehtiyojga ishlatish; 2) *tib.* o'pka sili.
consumptive [kən'sʌmptiv] *a* sil kasaliga oid.
contact ['kɔntækt] **1.** *n* 1) aloqada (muomalada) bo'lish; 2) aloqa, munosabat; **2.** *v* aloqa o'rnatmoq, kim bilandir.
contagion [kən'teidʒən] *n* 1) yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblar; 2) infeksiya (*kasallikning yuqishi*).
contagious [kən'teidʒəs] *a* yuqumli, yuqadigan.
contain [kən'tein] *v* o'z ichiga olmoq.
container [kən'teinə] *n* 1) konteyner (*yuk joylab avtomobilga yoki temir yo'l platformasiga ortiladigan maxsus quti*); 2) biror narsa saqlanadigan idish.
contaminate [kən'tæmineit] *v* iflos (kir) qilmoq.
contamination [kən,tæmi'neiʃn] *n* iflos (kir) qilish.
contemplate ['kɔntəmpleit] *v* 1) o'ylamoq, fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq; 2) xayoliga keltirish, eslamoq.
contemplation [,kɔntəm'pleiʃn] *n* 1) xayoliga keltirish, eslash; 2) o'ylash, fikr yuritish.
contemplative [kən'templətiv] *a* 1) xayolotga beriluvchi, o'z fikr-xayoliga cho'madigan; 2) o'ychan.
contemporaneity [kən,tempərə'ni:əti] *n* zamonaviylik, zamon talabiga moslik.
contemporary [kən'tempərəri] **1.** *a* zamonaviy, hozirgi kundagi; **2.** *n* zamondosh, asrdosh.
contempt [kən'tempt] *n* nafratlanish, jirkanish.
contemptible [kən'temptəbl] *a* jirkanch, razil.
contemptuous [kən'temptjuəs] *a* nafrat (*yoki* jirkanish)ni ifodalaydigan.
contemptuously [kən'temptjuəsli] *adv* nafratlanib, nafrat bilan; jirkanib.
contend [kən'tend] *v* 1) kurashmoq; 2) tasdiqlamoq.
contender [kən'tendə] *n* raqib (*saylov va b.*).
content I ['kɔntent] *n* ichidagi narsalar, ichidagi bor narsalar.

content II [kən'tent] **1.** *a* mamnun, xursand, shod; **2.** *v* *mamnun (xursand) qilmoq.*
contented [kən'tentɪd] **1.** *p. p.* **content II, 2.** *dan*; **2.** *a* mamnun, xursand, shod.
contention [kən'tenʃən] *n* 1) bahs, kurash; 2) musobaqa.
contentious [kən'tenʃəs] *a* munozarali.
contentment [kən'tentmənt] *n* mamnunlik, xursandlik; mamnuniyat.
contents ['kɔntents] *pl* mazmun; mundarija (*kitobda*).
conterminous [kɔn'tə:mɪnəs] *a* yonma-yon, chegaradosh.
contest 1. *n* ['kɔntest] 1) bahs; 2) musobaqa; **2.** *v* [kɔn'test] bahslashmoq, musobaqalashmoq, ko'rik o'tkazmoq; kurashmoq.
contestant [kən'testənt] *n* raqib.
contestation [,kɔntes'teɪʃn] *n* 1) musobaqa; 2) kurash.
contested *[kən'testɪd]* **1.** *p. p.* ***contest*** **2.** *dan*; **2.** *a* bahsga qatnashgan, kurashgan; **~ election** *amer.* bir nechta nomzodlarning nomlari ko'rsatilgan saylov.
context ['kɔntekst] *n* 1) kontekst (*nutq yoki asarning tugal fikr anglatuvchi parchasi*); 2) vaziyat.
contextual [kən'tekstjuəl] *a* kontekstdan kelib chiqadigan.
contexture [kən'tekstʃə] *n* to'qish, to'qib yasash.
contiguity [,kɔntɪ'gjuətɪ] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik.
contiguous [kən'tɪgjuəs] *n* chegaradosh, qo'shni.
continence ['kɔntɪnəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik.
continent I ['kɔntɪnənt] *a* o'zini tuta biladigan, og'ir, bosiq.
continent II ['kɔntɪnənt] *n* materik, qit'a.
continental *[,kɔntɪ'nentl] n* qit'aga (*materikka*) oid.
contingency [kən'tɪndʒənsɪ] *n* tasodifiy (kutilmagan) hol.
contingent [kən'tɪndʒənt] *n* 1) miqdor; 2) *harb.* shaxsiy tartib.
continual [kən'tɪnjuəl] *a* doimiy.
continuance [kən'tɪnjuəns] *n* davom etish (cho'zilish) muddati (uzunlik, uzoqlik).
continuant [kən'tɪnjuənt] *n fon.* sirg'aluvchi undosh tovush.
continuation [kən,tɪnju'eɪʃn] *n* davom (etish) ettirish (*biror narsaning davomi*).
continue [kən'tɪnju:] *v* 1) davom ettirmoq; 2) davom etmoq.
continued [kən'tɪnju:d] **1.** *p. p.* **continue** *dan*; **2.** *a* uzluksiz, to'xtovsiz.
continuity [,kɔntɪ'nju:ətɪ] *n* uzluksiz.
continuous *[kən'tɪnjuəs] a* 1) uzluksiz, to'xtovsiz; 2) doimiy harakatdagi; 3) *gram.* uzoq davom (etadigan) etgan; davomli.
contort [kən'tɔ:t] *v* 1) egib (qiyshaytirib) yubormoq, egmoq, bukmoq; 2) noto'g'ri talqin qilmoq, buzib ko'rsatmoq.
contortion [kən'tɔ:ʃn] *n* 1) egib (qiyshaytirib) yuborish, egish, bukish; 2) noto'g'ri talqin qilish, buzib ko'rsatish.
contortionist [kən'tɔ:ʃnɪst] *n* akrobat.
contour ['kɔntuə] *n* 1) yotiq chiziq; 2) sirtqi ko'rinish (shakl; chiziq).
contra- ['kɔntrə-] *pref. qo'shma so'zlarda* «qarshi» *ma'nosini bildiradi.*
contraband ['kɔntrəbænd] **1.** *n* kontrabanda (*davlat chegarasidan yashirincha, boj to'lamasdan mol o'tkazish*); **2.** *a* kontrabandaga oid.
contrabandist ['kɔntrəbændɪst] *n* kontrabanda bilan shug'ullanuvchi kishi.
contrabass [,kɔntrə'beɪs] *n mus.* kontrabas.
contraception [,kɔntrə'sepʃn] *n* homilador bo'lishdan saqlaydigan vositalardan foydalanish.
contraceptive [,kɔntrə'septɪv] *a* homilador bo'lishdan saqlanadigan dori (*vosita*); homila bo'lishga qarshi.
contract 1. *n* ['kɔntrækt] shartnoma, bitim; **2.** *v* [kən'trækt] 1) shartnoma (bitim) tuzmoq; 2) toraymoq; 3) qisqarmoq.
contracted [kən'træktɪd] *a* shartnoma asosidagi; shartnomadan kelib chiqadigan.
contractile [kən'træktaɪl] *a* kamayuvchan, qisqaradigan.
contractility [,kɔntræk'tɪlətɪ] *n fiz.* siqilish qobiliyati.
contracting parties [kən,træktɪŋ 'pɔ:tɪz] *n* bitim tuzuvchi tomonlar.
contraction [kən'trækʃn] *n* 1) qisqarish, qisqartirish; 2) siqish, qisish.
contractor [kən'træktə] *n* pudratchi.
contractual [kən'træktʃuəl] *a* shartnoma asosidagi.
contradict [,kɔntrə'dɪkt] *v* 1) qarshi chiqmoq, e'tiroz bildirmoq; 2) rad qilmoq.
contradiction [,kɔntrə'dɪkʃn] *n* ziddiyat, qarama-qarshilik.
contradictor [,kɔntrə'dɪktə] *n* raqib; muxolif.
contradictory [,kɔntrə'dɪktərɪ] *a* qarama-qarshi, zid, tezkor.
contradistinction [,kɔntrədɪs'tɪŋkʃən] *n* 1) qarshi (zid, tezkor) qo'yish; 2) farq qilish.
contradistinguish [,kɔntrədɪ'stɪŋgwɪʃ] *v* 1) qarshi (teskari) qo'ymoq; 2) farq qilmoq.
contrail ['kɔntreɪl] *n* samolyotning o'rin almashishdagi izi.
contraindication [,kɔntrəɪndɪ'keɪʃn] *n tib.* (*biror dori yoki davolashni*) yoqmasligini yoki to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi belgi.
contralto [kən'trɔ:ltəu] *n* kontralto (*ayollarning eng past, yo'g'on ovozi*).
contraposition [,kɔntrəpə'zɪʃn] *n* qarama-qarshi qo'yish.

contraption [kən´træpʃn] *n so'zl.* makkorlik bilan o'ylab chiqarilgan narsa (*ish, gap va b.*).
cultivation [ˌkʌltɪˈveɪʃn] *n* 1) ishlov berish; 2) ekish, o'stirish; yetishtirish.

cultivator [ˈkʌltɪveɪtə] *n* 1) dehqon, ziroatchi; 2) *q.x.* kultivator (*haydalgan yerni yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish va ekin qator oralarini ishlash uchun xizmat qiladigan qishloq xo'jalik mashinasi*).

cultural [ˈkʌltʃrəl] *a* 1) madaniy, madaniyat...; madaniyatga oid, madaniyatli, keng ma'lumotli, ma'rifatli; **~ centre** madaniyat markazi, madaniyat saroyi; **~ achievements** madaniyat sohasidagi yutuqlar; 2) *q.x.* ishlanadigan, ishlov beriladigan (*yer*).

culture [ˈkʌltʃə] **1.** *n* 1) madaniyat; **Uzbek ~** O'zbek madaniyati; 2) qishloq xo'jalik ekini; **~ of cotton** paxta ekini; 3) ko'paytirish, boqish, qarash (*asalari, ipak qurti va b.lar*); **2.** *v* 1) yerga ishlov bermoq; 2) ekmoq, o'stirmoq.

cultured [ˈkʌltʃəd] *a* madaniyatli.

culver [ˈkʌlvə] *n* yovvoyi kaptar (kabutar).

culvert [ˈkʌlvət] *n kon.* yerning zaxini qochirish maqsadda qurilgan quvur.

cum [kʌm] *prep.* shuningdek, shu bilan birga.

cumber [ˈkʌmbə] **1.** *n* qiynalish; **2.** *v* qiynab qo'ymoq.

cumbersome [ˈkʌmbəsəm] *a* 1) beso'naqay, beo'xshov; 2) malol keladigan, malollik keltiradigan, og'ir, qiyin.

Cumbrian [ˈkʌmbrɪən] **1.** *n* Kamberlendda yashovchi kishi; **2.** *a* Kamberlendga oid.

cumbrous [ˈkʌmbrəs] = **cumbersome.**

cumin [ˈkʌmɪn] *n* zira (*o'simlik va uning urug'i*).

cummer [ˈkʌmə] *n* cho'qintirgan ona.

cumulate 1. *a* [ˈkju:mjulət] to'plangan; **2.** *v* [ˈkju:mjuleɪt] jamg'anmoq, to'plamoq.

cumulation [ˌkju:mjuˈleɪʃn] *n* to'plash.

cumulative [ˈkju:mjulətɪv] *a* birgalikdagi.

cumulo-nimbus [ˌkju:mjuləˈnɪmbəs] *n* to'p-to'p yomg'ir hulutlari.

cuneiform [ˈkju:nɪəfɔ:m] *a* ponasimon.

cunning [ˈkʌnɪŋ] **1.** *n* makkorlik; **2.** *a* makkor.

cup [kʌp] *n* 1) piyola; **china ~s and saucers** chinni piyolalar va tarelkalar; 2) musallas, vino; **to be fond of the ~** ichishni yaxshi ko'rmoq; 3) *sport.* kubok, sovrin; **to win the ~** kubokni yutmoq, sovrinni qo'lga kiritmoq; 4) qismat, taqdir; **bitter ~** achchiq qismat.

cup and ball [ˌkʌpənˈbɔ:l] *n* bilboke (*o'yin*).

cup-bearer [ˈkʌpˌbeərə] *n tar.* sharbatdor, soqiy.

cupboard [ˈkʌbəd] *n* 1) shkaf, javon, sandiq; 2) devorga ishlangan shkaf.

cupful [ˈkʌpful] *n* bir piyola to'la (*narsa*).

Cupid [ˈkju:pɪd] *n afs.* sevgi tangrisi va uning haykalchasi.

cupidity [kju:ˈpɪdətɪ] *n* ochko'zlik, xasislik.

cupola [ˈkju:pələ] *n* gumbaz, quhba.

cuppa [ˈkʌpə] *n so'zl.* bir piyola choy.

cupping-glass [ˈkʌpɪŋglɑ:s] *n tib.* banka.

cupreous [ˈkju:prɪəs] *a* misga oid, tarkibida mis bo'lgan.

cupriferous [kju:ˈprɪfərəs] *a* misli, tarkibida mis bo'lgan.

cuprite [ˈkju:praɪt] *n* qizil misli ruda.

cuprous [ˈkju:prəs] *a kim.* tarkibida bir valentli mis bo'lgan; **~ chloride** mis oksidi.

cuprum [ˈkju:prəm] *n kim.* mis.

cur [kɜ:] *n* ko'ppak it.

curability [ˌkjuərəˈbɪlɪtɪ] *n* davosi borlik.

curable [ˈkjuərəbl] *a* tuzaladigan, davosi bor.

curacao [ˌkjuərəsəu] *n* kuraso likori.

curacy [ˈkjuərəsɪ] *n* 1) ruhoniylik mansabi (unvoni; darajasi); 2) qavm (*biror hududnaga qatnovchi dindorlar*).

curate [ˈkjuərət] *n* pop yordamchisi.

curative [ˈkjuərətɪv] *a* shifobaxsh, shifoli, davo bo'ladigan, dorivor.

curator [kjuˈreɪtə] *n* muzeyni qo'riqlovchi (soqchi).

curb [kɜ:b] **1.** *n* yugan, jilov, jilovlash; **~ to violence** zo'ravonlikka barham berish; **2.** *v* 1) jilovlamoq, yuganlamoq (*otni*); 2) bo'ysundirmoq, tiymoq; **to ~ one's temper** jahlini tiymoq, o'zini bosmoq.

curb roof [ˈkɜ:bru:f] *n* qiya shipli boloxona tomi.

curd [kɜ:d] *n* suzma.

curdle [ˈkɜ:dl] *v* ivimoq, quyulmoq; ivib qolmoq (*qon, sut to'g'risida*).

curdy [ˈkɜ:dɪ] *a* ivitgan, suzmaga aylantirgan.

cure I [kjuə] **1.** *n* 1) dori, dori-darmon, vosita; **~ for a cough** yo'talga qarshi vosita; 2) davolash, davolash kursi; **to undergo a ~** davolash kursini o'tamoq; 3) davolanish, sog'ayish; **2.** *v* 1) davolamoq, sog'aytirmoq; 2) tayyorlamoq, konservalamoq, tuzlamoq; quritmoq.

cure II [kjuə] *jarg. n* g'alati (tentaksimon) odam, qiziq tabiatli odam.

cure-all [ˈkjuɔ:l] *n* panasiya (*ming dardga davo, har halodan qutqaradigan vosita deb qaraladigan narsa*).

cureless [ˈkjuələs] *n* tuzatib bo'lmaydigan, bedavo.

curfew [ˈkɜ:fju:] *n* komendant soati (*harbiy yoki qamal sharoitida ko'chalarda ruxsatsiz yurish man qilingan soatlar*).

curie [ˈkjuərɪ] *n fiz.* kuri (*radioaktivlikning o'lchov birligi*).

curing [ˈkjuərɪŋ] *n* davolash, davolanish; davo; muolaja.

curio [ˈkjuərɪəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) antiqiy (qadimiy; noyob va qummatbaho) buyum.

curiosity [ˌkjuərɪˈɔsətɪ] *n* qiziquvchanlik, sinchkovlik.

curious [ˈkjuərɪəs] *a* har narsani bilishga intiluvchi, qiziquvchan.

curiously [ˈkjuərɪəslɪ] *adv* kishini ajablantiradigan bir tarzda (ajib; g'alati).

curium [ˈkjuərɪəm] *n kim.* kuriy (*sun'iy yo'l bilan qilingan radioaktiv kimyoviy element*).

curl [kɜ:l] **1.** *n* chirmashmoq; **2.** *v* jingalak soch (zulf).

curlew [ˈkɜ:lju:] *n* uzunburun balchiqchi, chonguldoq (*qush*).

curlicue [ˈkɜ:lɪkju:] *n* jimjimador gulbezak.

curling [ˈkɜ:lɪŋ] *n* chirmashish.

curling-irons [ˈkɜ:lɪŋˌaɪənz] *n pl* jingalak qiladigan qisqich.

curling-tongs [ˈkɜ:lɪŋtɔŋz] = **curling-irons.**

curl-paper [ˈkɜ:lˌpeɪpə] *n* papilotka (*sochni jingalak qilish uchun ishlatiladigan qog'oz yoki latta*).

curly [ˈkɜ:lɪ] *a* jingalak (*soch haqida*).

curmudgeon [kɜˈmʌdʒən] *n so'zl.* 1) qo'rs (qo'pol muomalali) odam; 2) xasis (ziqna) odam.

curmudgeonly [kɜˈmʌdʒənlɪ] *a* 1) qo'rs, qo'pol; 2) xasis, ziqna.

currant [ˈkʌrənt] *n* 1) smorodina, qorag'at (*butasi yoki mevasi*); 2) korinka (*qora kishmish navi*).

currency [ˈkʌrənsɪ] *n* 1) qo'llanuvchanlik, tarqalganlik; **words in common ~** keng tarqalgan (*ko'p ishlatiladigan*) so'zlar; **to give ~ to smth** biror narsani muomalaga (ishlatishga) kiritmoq; 2) pul muomalasi; 3) valuta, pul; **paper ~** qog'oz pul; **gold (silver) ~** oltin (kumush) valuta; 4) davomiyligi, amalda bo'lish muddati (*biror narsaning*); **during the ~ of contract** shartnoma amalda bo'ladigan muddat mobaynida.

current [ˈkʌrənt] **1.** *a* 1) joriy, shu kungi, zamonaviy; **~ month** joriy (shu) oyda; 2) amalda (ishlatilishda) bo'lgan, muomalada bo'lgan; **~ coin** ishlatilishda (muomalada) bo'lgan tanga; 3) *og'z.* silliq (*ustub to'g'risida*); **2.** *n* 1) oqim; **great ocean ~s such as the Gulf Stream** Golfstrim kabi kuchli okean oqimlari; 2) borish, oqim; **the ~ of events** voqealarning borishi.

curricle [ˈkʌrɪkl] *n* qo'sh otli fayton, yengil arava.

curricula [kəˈrɪkjulə] *pl* **curriculim** *dan.*

curriculum [kəˈrɪkjuləm] *n* (*pl* **-la**) 1) o'quv kursi; 2) o'quv rejasi (*maktab, institut, universitetda*).

currish [ˈkəːrɪʃ] *a* tarbiyasiz, dag'al, qo'pol.

curry [ˈkʌrɪ] *v* 1) ot qashlagich bilan qashlamoq (tozalamoq); 2) terisini shilmoq (ajratmoq); 3) urmoq, do'pposlamoq, po'stagini qoqmoq.

curry-comb [ˈkʌrɪkəum] *n* otqashlagich.

curse [kəːs] **1.** *n* 1) la'nat, nafrat, qarg'ish; **to call down ~s upon smb.** birovga la'natlar yog'dirmoq; 2) so'kish; 3) ofat, kulfat; **2.** *v* 1) la'natlamoq, qarg'amoq; **He ~d the day he was born.** U tug'ilganiga la'natlar o'qirdi; 2) so'kinmoq; **He ~d loudly.** U bor ovozi bilan so'kinadi; 3) dinni tahqirlamoq, shakkoklik qilmoq.

cursed 1. [ˈkəːst] *p. p.* **curse 2** *dan*; **2.** *a* [ˈkəːsɪd] la'natlangan, la'nati.

cursedly [ˈkəːsɪdlɪ] *adv* yoqimsiz bir holda.

cursive [ˈkəːsɪv] **1.** *n* sodda tez yozuv (*qadimiy qo'lyozmalarda*); **2.** *a* 1) tez yozish usuliga asoslangan; 2) qo'lyozmaga oid.

cursor [ˈkəːsə] *n tex.* strelka, mil, ko'rsatkich.

cursorial [kəːˈsɔːrɪəl] *a* yuguradigan, chopadigan (*qushlar to'g'risida*).

cursory [ˈkəːsərɪ] *a* naridan beri qilingan, yuzaki.

curst [kəːt] qo'zg'atilgan.

curt [kəːt] *a* qisqa, lo'nda (*javob haqida*).

curtail [kəːˈteɪl] *v* qisqartirmoq.

curtailment [kəːˈteɪlmənt] *n* qisqartirish, ixchamlashtirish.

curtain [ˈkəːtn] **1.** *n* parda; **2.** *v* parda tutib qo'ymoq.

curtain-call [ˈkəːtnkɔːl] *n* (*sahnaga*) aktyorni chaqirish, taklif qilish (*qarsaklar ostida*).

curtain-fire [ˈkəːtn,faɪə] *n harb.* o't parda.

curtilage [ˈkəːtəlɪdʒ] *n yur.* uyga taqalib (yaqin) turadigan yer maydoni.

curtsey [ˈkəːtsɪ] *n* tiz cho'kib ta'zim qilish.

curtsy [ˈkəːtsɪ] = **curtsey.**

curvature [ˈkəːvətʃə] *n* 1) egrilik, qiyshiqlik; 2) qiyshaygan (bukilgan) joy.

curve [kəːv] **1.** *v* 1) egmoq, bukmoq; 2) egilmoq, bukilmoq; **2.** *n* egri (qiyshiq) chiziq.

curve piece [ˈkəːvpiːs] *n qur.* gumbaz qolipi (*gumbaz qurish uchun qilingan yoy shaklidagi qolip*).

curvet [kəːˈvet] **1.** *n* otning oldingi oyoqlarini bukib sakrashi; **2.** *v* oldingi oyoqlarini bukib sakramoq (*ot haqida*).

curvilinear [ˌkəːvɪˈlɪnɪə] *a* egri chiziqli, qing'ir-qiyshiq.

cushat [ˈkʌʃət] *n* govkaptar.

cushion [ˈkuʃən] **1.** *n* 1) divan yostig'i; 2) bilyard stolining yon devori (*borti*); **2.** *v* yostiq qo'ymoq.

cushiony [ˈkuʃnɪ] *a* yostiqqa o'xshagan yumshoq.

cushy [ˈkuʃɪ] *a* yengil va yaxshi to'lanadigan; **a ~ job** issiq joy; **~ wound** yengil jarohat.

cusp [kʌsp] *n* tog' cho'qqisi.

cuspid [ˈkʌspɪd] *n anat.* qoziqtish, so'yloqtish.

cuspidal [ˈkʌspɪdl] *a* uchi o'tkir, uchli.

cuspidate(d) [ˈkʌspɪdeɪt(ɪd)] *a* uchi o'tkir, uchli.

cuspidor [ˈkʌspɪdɔː] *n amer.* tupdon (*tupurish uchun ishlatiladigan idish*).

cuss [kʌs] **1.** *n so'zl.* qarg'ish, la'nat; **2.** *v* so'kishmoq, urishmoq.

cussed [ˈkʌsɪd] *a so'zl.* o'jar, qaysar.

custard [ˈkʌstəd] *n* (*tuxum va sutdan qilingan*) shirin krem.

custodian [kʌsˈtəudɪən] *n* qorovul, soqchi; qo'riqchi.

custody [ˈkʌstədɪ] *n* 1) vasiylik, vasiylik qilish; **to be in the ~** vasiyligida bo'lmoq; 2) saqlash, asrash, qo'riqlash; **to place securities ~** boyliklarni saqlashga qo'ymoq; 3) qamoqqa (hibsga) olish; **to commit to ~** hibsga (qamoqqa) olmoq.

custom [ˈkʌstəm] **1.** *n* 1) urf-odat, udum; 2) odat, o'rganish; **2.** *v amer.* buyurtma asosida tayyorlangan.

customary [ˈkʌstəmərɪ] *a* 1) oddiy, odatdagi; 2) odat bo'lib qolgan, odatga aylangan.

custom-built [ˌkʌstəmˈbɪlt] *a amer.* maxsus buyurtma asosida qurilgan.

customer [ˈkʌstəmə] *n* xaridor (*odatda doimiy*), mijoz.

custom-house [ˈkʌstəmhaus] *n* bojxona.

custom-made [ˌkʌstəmˈmeɪd] *a* buyurtma asosida tayyorlangan (qilingan, qurilgan).

customs [ˈkʌstəms] *n pl* bojxona boji; **~ free** bojsiz; **to pass through the ~** bojxona nazoratidan o'tmoq; **the C** bojxona boshqarmasi.

cut [kʌt] **1.** *v* (**cut; cut**) 1) kesmoq, qirqmoq, to'g'ramoq; 2) sochini olmoq; 3) qisqartirmoq; **~ at** zarba bermoq (*qilich va b.*); **~ away** qirqib (kesib) olmoq; **~ down** qisqartirmoq (*maqola va b.*), **~ in** qo'shilmoq, aralashmoq; **~ off** kesib (qirqib) tashlamoq; **~ out** kesib (qirqib) olmoq; **~ over** o'rmondagi daraxtlarni kesmoq; **~ under** arzonroq narxda sotmoq; **~ up** bo'laklarga bo'lmoq; **2.** *n* 1) kesilgan (tilingan) joy; 2) qirqib olingan narsa; 3) qisqartirish; **3.** *a* kesilgan, qirqilgan.

cutaneous [kjuˈteɪnɪəs] *tib.* teriga oid.

cut-away [ˈkʌtəweɪ] *n* vizitka.

cutback [ˈkʌtbæk] *n* qisqartirish.

cute [kjuːt] *a so'zl.* 1) aqlli; 2) jozibali, ko'rkam.

cut-glass [ˈkʌtglɑːs] qirrali (qirralangan) shisha (*oynak*).

cutler [ˈkʌtlə] *n* arrakash.
cutlery [ˈkʌtlərɪ] *n* vilka-qoshiq.
cutlet [ˈkʌtlət] *n* to'qmoqlangan go'shtdan tayyorlangan kotlet.
cut-off date [ˌkʌtɔf ˈdeɪt] *n* oxirgi (so'nggi) muhlat
cut-out [ˈkʌtaut] *n el.* saqlagich.
cut sugar [ˈkʌtˌʃugə] *n* chaqmoq qand.
cutter [ˈkʌtə] *n* o'ymakor usta, o'ymakor naqqosh.
cutthroat [ˈkʌtθraut] *n* kallakesar, qotil.
cutting [ˈkʌtɪŋ] **1.** *n* kesish, qirqish; **2.** *a* o'tkir, keskir.
cutting area [ˈkʌtɪŋˌeərɪə] *n* o'rmonning daraxt kesilayotgan joyi.
cutting room [ˈkʌtɪŋrum] *n* yig'ish usta xonasi.
cuttle [ˈkʌtl] *n zool.* karakatitsa (*dengiz molluskalarining bir turi*).
cutty [ˈkʌtɪ] *n* 1) kalta qoshiq; 2) *so'zl.* axloqsiz ayol.
cutty-stool [ˈkʌtɪstu:l] *n* pastak stul.
cutwater [ˈkʌtˌwɔ:tə] *n deng.* suv keskich (*kemaning tumshug'i*).
cuvette [kju:ˈvet] *n rasm.* fotoplastinka, fotoqog'oz yuviladigan vannacha.
cyanic [saɪˈænɪk] *a kim.* sianli, tarkibida sian bo'lgan, sian; ~ **acid** sian kislota.
cyanide [ˈsaɪənaɪd] *n kim.* sianid.
cyanogen [saɪˈænədʒən] *n kim.* sian (*tussiz zaharli gaz*).
cyanosis [ˌsaɪəˈnəusɪs] *n tib.* ko'karib qolgan joy (*badanda*).
cybernated [ˌsaɪbəˈneɪtɪd] *a* kompyuterlar bilan jihozlangan.
cybernetics [ˌsaɪbəˈnetɪks] *n* kibernetika (*avtomatik boshqarish sistemalari va usullari haqidagi fan*).
cyclamen [ˈsɪkləmən] *n bot.* siklamen (*Alp binafshasi*).
cycle [ˈsaɪkl] **1.** *n* 1) sikl, davr, davra; **the ~ of the seasons** yil fasllarining davriy almashishi; 2) davriylik; 3) uzoq davr, asr; 4) *so'zl.* velosiped; **2.** *v* 1) rivojlanish davrini o'tmoq; davriy takrorlanmoq; 2) doira bo'ylab harakat qilmoq; 3) velosipedda uchmoq.
cycle-car [ˈsaɪklkɑ:] *n* mototsiklning kolaskasi.
cycler [ˈsaɪklə] = **cyclist.**
cyclic(al) [ˈsɪklɪk(əl)] *a* davriy, ma'lum davrda bo'ladigan.
cycling [ˈsaɪklɪŋ] *n* velosipedda yurish; velosport.
cyclist [ˈsaɪklɪst] *n* velosipedchi.
cycloid [ˈsaɪklɔɪd] *n mat.* sikloida (*nuqtalar bilan ko'rsatilgan doirasimon chiziq*).
cyclometer [saɪˈklɔmɪtə] *n* siklometr (*asbob*).
cyclone [ˈsaɪkləun] *n meteor.* siklon (*atmosfera girdobi; bo'ron; dovul*).
cyclonic [saɪˈklɔnɪk] *a* siklonga oid, siklonsimon.
cyclop(a)edia [ˌsaɪkləuˈpi:dɪə] *n* ensiklopediya, qomus.
cyclop(a)edic [ˌsaɪkləuˈpi:dɪk] *a* ensiklopediya (qomus)ga oid.
Cyclopean [ˌsaɪkləuˈpi ən] *a* juda katta, zo'r, azim.
Cyclopes [saɪˈkləunpi:z] *pl* **Cyclops** *dan.*
Cyclops [ˈsaɪklɔps] *a* (*pl* **-opes**) siklop (*qadimgi grek afsonalarida bir ko'zli pahlavon*).
cyclotron [ˈsaɪkləutrɔn] *n fiz.* tsiklotron (*yadro tadqiqotida zaryadlangan og'ir mikrozarrachalarni tezlatadigan qurilma*).
cyder [ˈsaɪdə] = **cider**
cygnet [ˈsɪgnət] *n* kichkina oqqushcha.
cylinder [ˈsɪlɪndə] *n mat.* silindr.
cylindrical [səˈlɪndrɪkl] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi.
cymbal [ˈsɪmbl] *n* 1) *mus.* kimval, chang (*birbiriga urib chalinadigan to'garak yog'och yoki mis asbobi*); 2) *mus. pl* zil (*tarelka*).
cyme [saɪm] *n bot.* to'pgul.
cymograph [ˈsaɪməugrɑ:f] *n* kimograf (*organizmdagi fiziologik jarayonlarni egri chiziq shaklida yozib oladigan apparat*).
cymometer [saɪˈmɔmɪtə] *n el.* to'lqin o'lchagich.
cymoscope [ˈsaɪməskəup] *n el.* tebranish indikatori.
cynic [ˈsɪnɪk] *n* beadab (uyatsiz, hayosiz, surbet) odam.
cynical [ˈsɪnɪkl] *a* beadab, uyatsiz, hayosiz, surbet.
cynicism [ˈsɪnɪˌsɪzm] *n* beadablik, uyatsizlik.
cynosure [ˈsɪnəzjuə] *n* 1) qutb yulduzi; 2) yo'l ko'rsatadigan yulduz, yo'lchi yulduz.
cypher [ˈsaɪfə] = **cipher.**
cypress [ˈsaɪprəs] *n bot.* sarv.
Cypriote [ˈsɪprɪəut] *n* Kipr fuqarosi, kiprlik.
Cyrillic [səˈrɪlɪk] *a* : ~ **alphabet** kirill alifbosi.
cyst [sɪst] *n* 1) *anat.* pufak, qovuq; 2) *tib.* kista (*sariq suv olgan shish, o'sma*).
cystic [ˈsɪstɪk] *a anat.* siydik pufagiga oid, qovuqqa oid.
cystitis [sɪˈstaɪtɪs] *n tib.* siydik pufagining yallig'lanishi.
cytology [saɪˈtɔlədʒɪ] *n biol.* sitologiya (*hujayralarning tuzilishi, rivojlanishi va funksiyalarini o'rganadigan fan*).
cytoplasm [ˈsaɪtəuˌplæzm] *n biol.* sitoplazma.
czar [zɑ:] *n rus.* podsho.
czardas[ˈtʃɑ:dæʃ]*n* chardash (*vengrcha raqs va shu raqs musiqasi*).
czarevitch [ˈzɑ:rɪvɪtʃ] *n rus.* shahzoda.
czarina [zɑ:ˈri:nə] *n rus.* malika.
Czech [tʃek] **1.** *a* chexlarga oid; **2.** *n* chex, chex ayoli.
Czechoslovak [ˌtʃekəuˈsləuvæk] **1.** *n* Chexoslovakiyada yashovchi kishi; **2.** *a* Chexoslovakiyada ishlab chiqilgan, Chexoslovakiyaga oid.
Czekh [tʃek] = **Czech.**

Dd

D, d [di:] *n* (*pl* **Ds, D's** [di:z]) ingliz tili alifbosining to'rtinchi harfi.

da [dɑ:] *so'zl.* dada, ota, ada.

dab I [dæb] **1.** *n* yengil zarba; **2.** *v* sekingina tegmoq; urmoq; tushirmoq.

dab II [dæb] *n* 1) *zool.* yorsh balig'i; 2) *so'zl.* yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi.

dabble ['dæbl] *v* 1) shapillatmoq, sachratmoq (*suvni*); 2) (*loy*) sachratib iflos qilmoq.

dabbler ['dæblə] *n* 1) ishqiboz, o'ch; havaskor, shunchaki qiziquvchi; 2) yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi, mutaxassis.

dabby ['dæbɪ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.

dace [deɪs] *n* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*).

dachshund ['dækshʊnd] *n nem.* taksa (*oyoqlari katta, gavdasi uzun bir xil it*).

dactyl ['dæktɪl] *n* daktil (*urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan uch bo'g'inli turoq*).

dactylic [dæk'tɪlɪk] *n* 1) daktilik; 2) daktilik she'r, bayt, misra.

dactylography [ˌdæktɪlɪ'ɔgrəfɪ] *n* o'ymakorlik san'atining tarixi (*qimmatbaho toshlar va uzuklarda*).

dactylogram [dæk'tɪləgræm] *n* barmoq izi.

dactylography [ˌdæktɪ'lɔgrəfɪ] *n* daktiloskopiya (*barmoq izlari va ularga qarab kishilarning shaxsini aniqlash*).

dactylology [ˌdæktɪ'lɔlədʒɪ] *n* daktilologiya, barmoq tili (*kar-soqovlarning imo-ishoralariga asoslangan o'zaro tili*).

dad, daddy [dæd, 'dædɪ] *n so'zl.* dada, ota, ada.

daddylonglegs [ˌdædɪ 'lɔŋlegz] *n* uzunoyoqlar, ikki qanotli hasharot (*karam zararkunandasi*).

dado ['deɪdəu] **1.** *n* sokol (*devorning pastki qalinroq qismi*); **2.** *v* panel (*devorning pastki qismini yog'och-taxta bilan qoplash yoki bo'yab qo'ymoq*).

daedal ['di:dəl] *a shoir.* mohir, usta, mahoratli, ustasi farang.

Daedalian [dɪ'deɪlɪən] *n* murakkab tarkibli, qo'shma; chigal; aqli o'tkir, ziyrak, topqir, tadbirkor, makkor, hiylagar.

daemon ['di:mən] = **demon.**

daemonic [di:'mɔnɪk] = **demonic.**

daffodil ['dæfədɪl] *n bot.* nargiz, narkas (*gul*).

daffodilly ['dæfədɪlɪ] = **daffodil.**

daffy ['dɔ:fɪ] = **daft.**

daft [dɑ:ft] *a so'zl.* aqli kam, aqli past, aqldan ozgan, jinni, telba, devona; **to go** ~ aqldan ozmoq.

dag [dæg] *n* 1) *tar.* katta to'pponcha; 2) bir tutam jun.

dagger ['dægə] **1.** *n* xanjar; **2.** *v* xanjar sanchmoq (suqmoq, tiqmoq).

daggle ['dægl] *v* loy (balchiq, botqoq) bilan sudramoq (tortmoq).

dago ['deɪgəu] *n amer.* dago (*italyan, ispan va portugallarning laqabi*).

dahlia ['deɪlɪə] *n bot.* kartoshkagul.

Dail (Éireann) [ˌdɔɪl (eərən)] *n* Irlandiya Respublikasi parlamentining quyi palatasi.

daily ['deɪlɪ] **1.** *adv* kun sayin, har kuni; **2.** *a* har kungi, kundalik; **3.** *n* kundalik ro'znoma (*gazeta*).

daintiness ['deɪntɪnəs] *n* nafislik, noziklik, nazokat.

dainty ['deɪntɪ] **1.** *n* shirinlik, shiravor; **2.** *a* shirin, totli, mazali, lazzatli, xushxo'r.

dairy ['deərɪ] *n* 1) moy ishlab chiqaradigan korxona; 2) sut mahsulotlari do'koni; ~ **products** sut-qatiq mahsulotlari.

dairy-farm ['deərɪfɑ:m] *n* sutchilik xo'jaligi.

dairying ['deərɪɪŋ] *n* sutchilik xo'jaligi.

dairymaid ['deərɪmeɪd] *n* sutchilik fermasidagi ishchi ayol; sut sog'uvchi; sigir sog'uvchi ayol.

dairyman ['deərɪmən] *n* sutchilik fermasining ishchisi *yoki* egasi.

dais ['deɪɪs] *n* taxtasupa, minbar, ko'prik taxtasi; tepalik, balandlik, baland joy.

daisied ['deɪzɪd] *a* dastorgul bilan qoplangan.

daisy ['deɪzɪ] *n* dastorgul.

daisy-cutter ['deɪzɪˌkʌtə] *n* yugurayotganda oyog'ini zo'rg'a ko'taradigan ot.

dak [dɔ:k] *n hind.* almashinuvchi hammollar (*yuk tashuvchilar*) *yoki* otlar.

dak bungalow [ˌdɔ:k'bʌŋgələu] *n* pochta bekatidagi mehmonxona (*Hindiston va Pokistonda*).

Dalai Lama [ˌdælaɪ'lɑ:mə] *n* Dalay-Lama (*Tibet hokimi va bosh ruhoniysi*).

dale [deɪl] *n* vodiy.

dalesman ['deɪlzmən] *n* vodiy aholisi, vodiyda yashovchi (*Shimoliy Angliyada*).

dalle [dæl] *n* kafel, koshin; plitka, kichkina plita (*pol qilish uchun*).

dalliance ['dælɪəns] *n* 1) bekor (behuda) vaqt o'tkazish; 2) o'yin-kulgi; 3) (*nimagadir*) jiddiy munosabatda bo'lmaslik.

dally ['dælɪ] *v* imillamoq, sustkashlik qilmoq.

daltonism ['dɔ:ltənɪzm] *n tib.* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*).

dam [dæm] **1.** *n* damba, ko'tarma, to'g'on; **2.** *v* bo'g'moq, to'smoq, bog'lamoq.

damage ['dæmɪdʒ] **1.** *n* zarar, ziyon, shikast, buzilish; **2.** *v* ziyon (zarar) yetkazmoq; ziyon keltirmoq.

damaged ['dæmɪdʒd] *a* zararlangan; buzuq.

damaging ['dæmɪdʒɪŋ] *a* zarar yetkazadigan, shikastlaydigan.

damask ['dæmɔsk] **1.** *n* ipak kimxob; **2.** *a* kimxob gulli, guldor; **3.** *v* gul solib gazlama to'qimoq.

dame [deɪm] *n* ayol, xotin.

dame-school ['deɪmsku:l] *n* yosh bolalar maktabi (*ayollar boshqaradigan*).

damn [dæm] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarg'ish; **2.** *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.

damnably ['dæmnəblɪ] *adv* yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon.

damnation [dæm'neɪʃn] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarg'ish. **2.** *int.* la'nati!

damned [dæmd] *a* jazoga hukm etilgan.

damnific [dæm'nɪfɪk] *a* zarar keltira oladigan, zararli, juda zararli.

damnification [ˌdæmnɪfɪ'keɪʃn] *n yur.* zarar yetkazish.

damnify ['dæmnɪfaɪ] *v* zarar yetkazmoq.

Damocles ['dæməkli:z] *n grek. mif.* Damokl.

damp [dæmp] **1.** *a* namlik, zaxlik, ho'llik; **2** *n* nam, zax, ho'l, zaxkash; **3.** *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq.

damp course ['dæmpkɔ:s] *n* nam o'tkazmaydigan qilish.

dampen ['dæmpən] *v* 1) namlamoq, ho'llamoq; 2) susaytirmoq.

damper ['dæmpə] *n* namlagich, ho'llagich.

damping ['dæmpɪŋ] *n* namlash, ho'llash, nam berish; namlanish, nam bo'lish.

dampish ['dæmpɪʃ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.

damp-proof ['dæmppru:f] *a* suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan.

dampy ['dæmpɪ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.

damsel ['dæmzl] *n hazil.* bo'yi yetgan qiz.

damson ['dæmzn] *n* tikan olxo'ri.

damson-coloured ['dæmznˌkʌləd] *a* qizil-ko'k (*olxori rangi*).

Dan [dæn] *n esk. shoir.* xo'jayin, taqsir, janob.

dan [dæn] *n deng.* bo'y (*suvda sayozlik, yo'l va h.k.larni ko'rsatadigan qalqovich belgi*).

dance [dɑ:ns] **1.** *n* raqs, o'yin va unga moslab yozilgan musiqa; **2.** *v* raqsga tushmoq, o'yinga tushmoq, o'ynamoq.

dancer ['dɑ:nsə] *n* raqqos, raqqosa, o'yinchi.

dancing ['dɑ:nsɪŋ] **1.** *n* raqslar, o'yinlar, o'yin, raqs; **2.** *attr.* raqsga oid; **~ master** raqs o'qituvchisi; **~ party** raqs kechasi.

dancing-hall ['dɑ:nsɪŋhɔ:l] *n* qahvaxona-restoranlarda (*o'yinga tushadigan zal*).

dandelion ['dændɪlaɪən] *n* momaqaymoq, qoqi o't.

dander ['dændə] *n* g'azablanish; jahli chiqish, qoni qaynash.

dandiacal [dæn'daɪəkəl] *a* olifta larcha (oliftalardek, satanglardek) kiyingan.

dandified ['dændɪfaɪd] *a* juda chiroyli, kelishgan.

dandify ['dændɪfaɪ] *v* olifta kiyinmoq; yasantirmoq, bezattirmoq, yasatmoq.

dandle ['dændl] *v* 1) (*bolani*) tizzada *yoki* qo'lda tebratmoq; 2) erkalatmoq.

dandruff ['dændrəf] *n* qazg'oq, bosh kepagi.

dandy I ['dændɪ] **1.** *n* olifta, yasanchoq (*kiyimga zeb beradigan*) odam; **2.** *a* juda chiroyli, kelishgan.

dandy II ['dændɪ] *n* 1) *deng.* bir machtali yelkanli kema; 2) *hind.* qayiqchi, qayiq haydovchi (*Gang daryosida*).

dandy-brush ['dændɪbrʌʃ] *n* ot-qashlagich; qattiq cho'tka (*otlarni tarash uchun kit mo'ylovidan qilingan*).

dandyish ['dændɪɪʃ] *a* olifta.

dandyism ['dændɪɪzm] *n* oliftalik, bashanglik; olifta kiyinish.

Dane [deɪn] *n* daniyalik kishi.

Danelagh ['deɪnlɔ:] = **Danelaw.**

Danelaw ['deɪnlɔ:] *n tar.* Daniya qonunlari (*Britaniyaning shimoliy sharqida X asrda joriy etilgan*).

dang [dæŋ] *v* : **~ it!** jin ursin!

danger ['deɪndʒə] *n* xavf, tahdid, xavf-xatar, xatar, qo'rqinch; **out of ~** xatardan xoli.

danger arrow ['deɪndʒərˌærəʊ] *n* zigzag (*siniq chiziq shaklidagi*) o'q, chaqmoq alomati.

dangerous ['deɪndʒrəs] *a* xavfli, tahdid soluvchi, xatarli, tahlikali, qaltis, yomon.

danger-signal ['deɪndʒəˌsɪgnl] *n* xavf (xatar) signali (xabari).

dangle ['dæŋgl] *v* osilib turmoq, osilib tushmoq.

dangle-dolly ['dæŋglˌdɔlɪ] *n* avtomashinalarga osiladigan o'yinchoq.

dangler ['dæŋglə] *n* ishyoqmas (bekorchi, tanbal) kishi.

dangling ['dæŋglɪŋ] *a* osilib turgan, osib qo'yilgan, osilib tushgan.

Danish ['deɪnɪʃ] **1.** *a* Daniyaga va daniyaliklarga oid; **2.** *n* daniyaliklar tili.

dank [dæŋk] *a* nam, ho'l.

dap [dæp] **1.** *n* irg'ib ketish, sakrab ketish, irg'ib tushish (*koptok haqida*); **2.** *v* qarmoq bilan baliq tutmoq (*baliq ovlamoq*).

daphne ['dæfnɪ] *n bot.* mevasi zaharli buta.

dapper ['dæpə] *a* ozoda, toza, pokiza.

dapple ['dæpl] *v* yozib (*chizib*) tashlamoq, olabula qilib yubormoq.

dapple-bay ['dæplbeɪ] *n* oriq ot.

dappled ['dæpld] *a* xol-xol, olachipor, dog'li.

dapple-grey [ˌdæpl'greɪ] **1.** *a* kulrang, ko'kimtir, bo'z (*ot to'g'risida*); **2.** *n* kulrang chavkar ot.

darby ['dɑ:bɪ] *n* suvoqchilik (gilkorlik) qoidasi; g'isht teruvchi ustaning belchasi.

dare [deə] **1.** *v* botinmoq, jur'at etmoq, yuragi betlamoq; jazm qilmoq; **2.** *n* chaqiriq, chaqiruv, taklif, da'vat.

dare-devil ['deəˌdevl] **1.** *n* dovyurak odam, botir odam; **2.** *a* botir, jasur, mard, dovyurak, qo'rqmas, jur'atli, jasoratli, mardonavor, mardlarcha.

daring ['deərɪŋ] **1.** *n* dadillik, botirlik, jasurlik, mardonavorlik; **2.** *a* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak; jasoratli, jur'atli.

dark [dɑ:k] **1.** *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q; noma'lum, tushunarli bo'lmagan; **~ eyed** qorako'z; **2.** *n* qorong'ilik, qorong'i; kechki payt; zulmat.

darken [ˈdɑːkən] *v* qorong'ilashtirmoq, qorong'i qilmoq, to'smoq.

darkening [ˈdɑːkənɪŋ] *n* qoraytirish (zoklash), ho'yash.

darkey [ˈdɑːkɪ] *n* negr, qoracha, qorachadan kelgan.

dark lantern [ˈdɑːk,læntən] *n* maxfiy fonus, shishali chiroq.

darkle [ˈdɑːkl] *v* qoraymoq, qorayib qolmoq; qorong'ilashmoq, qorong'i tushmoq.

darkling [ˈdɑːklɪŋ] *a* qoraytiradigan, qorong'ilashtiradigan, qoraytiradigan.

darkly [ˈdɑːklɪ] *adv* dushmanlik ko'zi bilan, g'azab bilan, yomon, yovuz, achchiqlanib.

darkness [ˈdɑːknəs] *n* qorong'ilik, qorong'i; tim-qorong'ilik, zimiston, zim-ziyo; kechki payt.

darksome [ˈdɑːksəm] *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q.

darling [ˈdɑːlɪŋ] *n* 1) sevimli, sevikli, sevilgan, sevgan, oshiq, muhabbat qo'yilgan, mehr qo'yilgan, ishqi tushgan; mahbub; 2) dilrabo, dilbar, jonon, yoqimli, aziz, chiroyli, go'zal, iltifotli.

darn [dɑːn] **1.** *n* to'rlab yamalgan joy; to'rlash, to'rlab yamash; **2.** *v* to'rlab yamamoq; to'rlamoq.

darnel [ˈdɑːnl] *n bot.* mastak (*begona o't*).

darner [ˈdɑːnə] *n* to'rlovchi (*usta*); to'rlovchi ayol.

darning [ˈdɑːnɪŋ] *n* to'rlash, to'rlab yamash.

darning-needle [ˈdɑːnɪŋ,niːdl] *n* to'rlab yamaydigan igna.

dart [dɑːt] **1.** *n* irg'itiladigan (otiladigan) o'q, nayza; **2.** *v* irg'itmoq, tashlamoq, otmoq; ~ **glances** nazar tashlamoq.

darting [ˈdɑːtɪŋ] *a* 1) jadal (ildam, tez, juda tez, shiddatli, shitob) bilan olib boriladigan; 2) g'ayrati ichiga sig'maydigan.

dartre [ˈdɑːtə] *n tib.* temiratki.

Darwinian [dɑːˈwɪnɪən] **1.** *n* darvinist, darvinchi, darvinizm tarafdori; **2.** *a* darvinchilarga oid, darvinistlarga oid.

Darwinism [ˈdɑːwɪn,ɪzm] *n* Darvin ta'limoti (nazariyasi).

Darwinist [ˈdɑːwɪnɪst] = **Darvinism.**

dash [dæʃ] **1.** *n* 1) tez (ildam, jadal) harakat; **to make a ~ against the enemy** dushmanga shiddat bilan tashlanmoq; 2) tire; **2.** *v* 1) irg'itmoq; uloqtirmoq; 2) chopqillamoq.

dash-board [ˈdæʃbɔːd] *n* ashob-uskuna taxtasi.

dasher [ˈdæʃə] *n* zo'r muvaffaqiyat bilan hayratda qoldiruvchi inson.

dashing [ˈdæʃɪŋ] *a* epchil, chaqqon, abjir, uchqur.

dash-pot [ˈdæʃpɔt] *n tex.* havoli *yoki* moyli bufer, amortizator.

dastard [ˈdæstəd] *n* 1) qo'rqoq (yuraksiz) kishi; 2) yaramas (razil, ablah) kishi.

dastardly [ˈdæstədlɪ] *a* qo'rqoq, yuraksiz, qo'rqoqlik, razil, qabih, yaramas, pastkash.

data [ˈdeɪtə] *n pl* ma'lumotlar, dalillar.

data-sheet [ˈdeɪtəʃiːt] *n* 1) tasniflash; 2) tafsilotli ro'yxat.

date [deɪt] **1.** *n* 1) sana (*oyning kuni*), kun, tarix; ~ **of birth** tug'ilgan kun; 2) muddat; **out of ~** eskirgan; 3) uchrashuv; **to make a ~** uchrashuv belgilamoq; **2.** *v* sanasini ko'rsatmoq.

dated [ˈdeɪtɪd] *a* sanasi yozilgan; sanasi bor.

dateless [ˈdeɪtləs] *a* sanasi yozilmagan, sanasi yo'q.

date-palm [ˈdeɪtpɑːm] *n* xurmo daraxti.

dative [ˈdeɪtɪv] *n gram.* jo'nalish kelishigi.

datum [ˈdeɪtəm] *n* (*pl* **data**) *mat.* 1) berilgan kattalik, ma'lum kattalik; 2) ma'lumot.

datum line [ˈdeɪtəmlaɪn] *n* baza chizig'i.

datura [dəˈtjuərə] *n bot.* bangidevona.

daub [dɔːb] **1.** *n* 1) yomon chizilgan rasm; 2) suvoq; **2.** *v* surkamoq, surtmoq, bo'yamoq, suvamoq; suvamoq.

dauber [ˈdɔːbə] *n* no'noq rassom, yomon rassom.

dauby [ˈdɔːbɪ] *a* yomon chizilgan (*rasm to'g'risida*).

daughter [ˈdɔːtə] *n* qiz (*farzand*).

daughter-in-law [ˈdɔːtərɪnlɔː] *n* o'g'lining xotini, kelini, kelinoyi, yanga.

daughterly [ˈdɔːtəlɪ] *a* qiz (*farzand*)ga oid; qiz (*farzand*)larga xos bo'lgan.

daunt [dɔːnt] *v* 1) qo'rqitmoq, qo'rqitib qo'ymoq, cho'chitmoq; 2) hayvonlarni bo'ysundirmoq.

dauntless [ˈdɔːntləs] *a* jasoratli, jasur, qo'rqmas.

dauphin [ˈdɔːfɪn] *n tar.* shahzoda *(1830-yildan ilgarigi Fransiyada).*

davenport [ˈdævnpɔːt] *n* 1) kichkina yozuv stoli; 2) *amer.* divan-karavot.

daw [dɔː] *n* zog'cha.

dawdle [ˈdɔːdl] *v* 1) sudralib yurmoq, imillamoq; 2) vaqtini behuda o'tkazmoq.

dawdler [ˈdɔːdlə] *n* dangasa, yalqov.

dawn [dɔːn] **1.** *n* sahar, azon, tong, tong payti; **2.** *v* tong otmoq; tong yorishmoq.

day [deɪ] **1.** *n* kun, muhim sana, g'alaba; ~ **and night** erta-yu kech; **2.** *a* kunduzgi.

day-and-night [ˈdeɪən(d)ˈnaɪt] *a* kecha-kunduz davom etadigan, kecha-kunduz to'xtamaydigan.

day-bed [ˈdeɪbed] *n* pastak, keng divan.

day-blindness [ˈdeɪ,blaɪndnəs] *n tib.* kunduz kuni hech narsani ko'ra olmaslik (ajrata olmaslik).

day-book [ˈdeɪbuk] *n* 1) kundalik daftar; 2) *hisob.* jurnal.

day-boy [ˈdeɪbɔɪ] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi.

daybreak [ˈdeɪbreɪk] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt.

day-dream [ˈdeɪdriːm] *n* shirin xayol, orzu.

day-dreamer [ˈdeɪdriːmə] *n* xayol suruvchi, xayolparast kishi.

day-fly [ˈdeɪflaɪ] *n zool.* qisqa umrlilar, juda qisqa (*masalan, bir yoki bir necha kungina umr ko'radigan hasharotlar*).

day-girl [ˈdeɪgə:l] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi qiz.
day-labour [ˈdeɪˌleɪbə] *n* kunbay ish.
day-labourer [ˈdeɪˌleɪbərə] *n* kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor.
daylight [ˈdeɪlaɪt] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt.
daylight-saving [ˌdeɪlaɪtˈseɪvɪŋ] *n* (*elektr energiyani tejash maqsadida*) soat milini yozda bir soat oldinga surish.
day-lily [ˈdeɪˌlɪlɪ] *n bot.* lolagul.
day-long [ˈdeɪlɔŋ] *adv* kun bo'yi, ertalabdan kechgacha.
day nursery [ˈdeɪˌnə:sərɪ] *n* bolalarning kunduzgi bog'chasi.
day-school [ˈdeɪsku:l] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchilarning maktabi; kunduz kuni o'qiydigan maktab; oddiy maktab.
day-shift [ˈdeɪʃɪft] *n* kunduzgi smena.
daysman [ˈdeɪzmən] *n* kunbay ishchi, mardikor.
day-spring [ˈdeɪsprɪŋ] *n shoir.* shafaq, tong, subh.
day-star [ˈdeɪstɑ:] *n* tong yulduzi.
daytaler [ˈdeɪtələ] *n* kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi (*asosan, ko'mir konlarida*).
day-time [ˈdeɪtaɪm] *n* kun, kunduz kun.
day-to-day [ˌdeɪtəˈdeɪ] *a* kunda bo'ladigan, har kungi.
day-work [ˈdeɪwə:k] *n* kundalik ish.
daze [deɪz] **1.** *v* hayron (qoyil) qoldirmoq, mahliyo qilmoq; **2.** *n* hayron bo'lish, qoyil qolish.
dazedly [ˈdeɪzɪdlɪ] *adv* hayron qolib, mahliyo bo'lib.
dazzle [ˈdæzl] **1.** *n* 1) ko'zni qamashtirish; 2) yorqin nur; **2.** *v* ko'zni qamashtirmoq.
d-d [di: ˈdi:] (**damned** *so'zining qisqartirilgan shakli*) *a* jazoga hukm etilgan kishi.
D-day [ˈdi:deɪ] *n harb.* operatsiya (harbiy harakat)ning boshlanish kuni.
de- [ˌdi:-, dɪ-, də-] *pref.* 1) quyidagilarni ko'rsatadi: a) dan ajratish, dan mahrum etish; 2) yomon sifat, yetishmovchilik; 3) so'zlarga teskari (aks) ma'no beradi.
deacon [ˈdi:kən] *n* dyakon (*pravoslav cherkovida*).
deaconess [ˌdi:kəˈnes] *n* dyakon xotini *(dyakon pravoslav cherkovida ruhoniylarning quyi unvoni).*
dead I [ded] **1.** *n* o'lik, murda, jasad; **2.** *a* o'lik, o'lgan, jonsiz.
dead II [ded] *adv* to'la, to'liq, mutlaqo, g'oyat.
dead-alive [ˌdedəˈlaɪv] *a* o'lik, jonsiz, ruhsiz.
dead-beat [ˌdedˈbi:t] *a so'zl.* o'lgudek charchagan, tinkasi qurigan.
dead centre [ˌdedˈsentə] *n fiz. tex.* 1) turish nuqtasi; 2) *ko'ch.* ish to'xtagan, jilmay qolgan payt.
dead colour [ˈdedˌkʌlə] *n* xomaki bo'yoq berib chiqmoq.
deaden [ˈdedn] *v* 1) pasaytirmoq, yumshatmoq (*ovozni*); 2) pasaytirmoq (*kasallikni*).
dead(-)end [ˌdedˈend] **1.** *n* tupik, boshi berk ko'cha; **2.** *a* hech qayoqqa jilmay o'tkaziladigan.
deadfall [ˈdedfɔ:l] *n amer.* qopqon, tuzoq.
dead ground [ˌdedˈgraund] *n harb.* o'q tushmaydigan (tegmaydigan) fazo.
dead-hand [ˈdedhænd] = **mortmain.**
deadhead [ˈdedhed] *n* teatrga bepul kiruvchi kishi.
dead letter [ˌdedˈletə] *n* o'zgartirilmagan, ammo amalda joriy etilmaydigan qonun.
dead-level [ˌdedˈlevl] *n* tekislik, tekis yer.
dead lift [ˌdedˈlɪft] *n* behuda zo'r berish (*og'ir ko'tarishda*).
deadlight [ˈdedlaɪt] *n deng.* ochilmaydigan oyna.
deadline [ˈdedlaɪn] = **dead-line.**
dead-line [ˈdedlaɪn] *n* so'nggi muddat.
dead load [ˌdedˈləud] *n tex.* keraksiz yuk, ortiqcha yuk.
deadlock [ˈdedlɔk] boshi berk ko'cha.
deadly [ˈdedlɪ] **1.** *a* o'limga (halokatga) olib boradigan, halokatli; **2.** *adv* o'lar (tuzalishdan umid yo'q) darajada.
dead man's handle [ˌdedmənzˈhændl] *n* elektr poyezdlarda avtomatik ravishdagi tormoz (*haydovchi to'satdan kasal bo'lib qolsa, yoki o'lib qolsa, poyezdni to'xtatadigan tormoz*).
dead march [ˈdedmɑ:tʃ] *n* motam marshi.
dead-office [ˈdedˌɔfɪs] *n* janoza, janoza marosimi.
dead-pan [ˈdedpæn] *n* xotirjam ko'rinish.
dead-point [ˌdedˈpɔɪnt] = **dead centre.**
dead reckoning [ˌdedˈrekənɪŋ] *n av.* navigatsion hisoblash (*yo'lni*).
dead set [ˌdedˈset] **1.** *n ov.* ovchi itning ovni payqab qotib turishi; **2.** *a* to'la jur'at etilgan, bir qarorga kelib bo'lingan.
dead short [ˈdedʃɔ:t] *n el.* to'liq qisqa tutashuv.
dead shot [ˈdedʃɔt] *n* 1) xato ketmaydigan o'q; 2) bexato otadigan mergan.
dead-spot [ˌdedˈspɔt] *n radio.* sukunat mintaqasi (doirasi).
dead wall [ˌdedˈwɔ:l] *n* teshik-tuynugi (derazasi) yo'q devor.
dead-water [ˈded,wɔ:tə] *n* ko'lmak suv.
dead weight [ˌdedˈweɪt] *n* to'la yuk ko'tarish qobiliyati *(kemaning).*
dead-wind [ˌdedˈwɪnd] *n* qarama-qarshi tomondan esayotgan shamol.
dead-wood [ˈdedwud] *n* qurib qolgan daraxt.
deaf [def] *a* qulog'i og'ir, kar, garang.
deaf-and-dumb [ˌdefnˈdʌm] *n* gung, kar-soqov.
deafen [ˈdefn] *v* kar (*garang*) qilmoq.
deafening [ˈdefnɪŋ] *a* juda qattiq, quloqni kar qiladigan, quloqni qomatga keltiradigan.
deaf-mute [ˌdefˈmju:t] *n* gung, kar-soqov.
deafness [ˈdefnəs] *n* garanglik, qulog'i og'irlik, karlik.
deal [di:l] **1.** *n* biroz miqdordagi, bir necha; **a great ~ of** ko'p; **2.** *v* (**dealt; dealt**) 1) tarqatmoq; taqsimlamoq; 2) shug'ullanmoq.
dealer [ˈdi:lə] *n* olibsotar.
dealing [ˈdi:lɪŋ] *n* 1) taqsimlash (*nimanidir kimningdir orasida*); 2) harakat, muomala, ish.

dealt [delt] *past., p.p.* **deal 2.** *dan.*

dean [di:n] *n* 1) *cherk.* bosh ruhoniy; 2) dekan; **~ of the faculty** fakultet dekani.

deanery [ˈdi:nərɪ] *n* 1) dekanlik; 2) dekanat.

dear [dɪə] **1.** *a* sevikli, dildan sevgan, yurakdan urgan, qadrdon; **~est** jonajon, suyukli; 2) qimmat; **2.** *n* oshiq, mashuqa.

dearborn [ˈdɪəbɔ:n] *n amer.* to'rt g'ildirakli yengil arava.

dear-bought [ˈdɪəbɔ:t] *a* qimmatga topiladigan, topib bo'lmaydigan; qimmatga sotib olingan.

dearly [ˈdɪəlɪ] *adv* muloyimlik bilan, mehribonlik bilan, xushmuomalalik bilan.

dearth [dɜ:θ] *n* oziq-ovqatning yetishmasligi, ochlik.

deary [ˈdɪərɪ] *n so'zl.* (*murojaatda*) azizim, jonim.

death [deθ] *n* ajal, o'lim, qazo, vafot; **~ sentence** o'lim jazosi; **~less** o'lmas, abadiy yashaydigan.

death-agony [ˈdeθˌægənɪ] *n* o'lim oldidagi jon talvasasi.

deathbed [ˈdeθbed] *n* o'lim oldidagi damlar (lahzalar); o'lim to'shagi.

death-bell [ˈdeθbel] *n* dafn marosimi qo'ng'irog'i.

death-blow [ˈdeθbləʊ] *n* halokatli (qattiq) zarba.

death-cup [ˈdeθkʌp] *n* rangsiz qurbaqasalla (*zaharli zamburug'*).

death-damp [ˈdeθdæmp] *n* sovuq ter (*jon berayotgan odamda*).

death-feud [ˈdeθfju:d] *n* ashaddiy dushmanlik.

death-hunter [ˈdeθˌhʌntə] *n* kafanduzd (*jang maydonida o'lgan va yaradar bo'lganlarni talovchi odam*).

deathless [ˈdeθləs] *a* abadiy yashaydigan, o'lmaydigan, boqiy.

deathly [ˈdeθlɪ] **1.** *a* o'ldiradigan, halokatli, halokatga (o'limga) olib boradigan; **2.** *adv* o'lar (tuzalishidan umid yo'q) darajada.

death-rate [ˈdeθreɪt] *n* o'lim soni, miqdori.

death-rattle [ˈdeθˌrætl] *n* o'lish oldidagi xiralashish.

death-roll [ˈdeθrəʊl] *n* o'lganlar ro'yxati.

death's-head [ˈdeθshed] *n* bosh suyagi (*ajal timsoli*).

death-struggle [ˈdeθˌstrʌgl] *n* o'lim talvasasi, jon talashish.

death-trap [ˈdeθtræp] *n* 1) xavfli (xatarli) joy; 2) halokatli (borsa-kelmas) joy.

deb [deb] (**debutante** *so'zining qisqarmasi*) *n so'zl.* birinchi marta chiquvchi (boshlovchi), ilk bor ishtirok etuvchi.

debacle [deɪ ˈbɑ:kl] *fr. n* tor-mor qilish, tor-mor bo'lish.

debar [dɪ ˈbɑ:] *v* taqiqlamoq, man qilmoq.

debark [dɪˈbɑ:k] *v* 1) tushmoq, tushib qolmoq, tushib ketmoq; 2) tushirmoq, tushirib qo'ymoq.

debarkation [ˌdɪbɑ:ˈkeɪʃn] *n* yukdan bo'shatish; yukni tushirish.

debase [dɪˈbeɪs] *v* 1) tushirmoq, arzonlashtirmoq (*narxni*); 2) pasaytirmoq (*narxni, sifatni*).

debasement [dɪˈbeɪsmənt] *n* 1) kamsitish, xo'rlash; 2) narxlarning pasayishi; 3) sifatning yomonlashishi.

debatable [dɪˈbeɪtəbl] *a* janjalli, munozarali.

debate [dɪˈbeɪt] **1.** *n* munozara, muzokara, bahs, tortishuv; **2.** *v* muhokama qilmoq; munozara qilmoq; bahslashmoq.

debater [dɪˈbeɪtə] *n* bahs qatnashuvchisi (ishtirokchisi).

debauch [dɪˈbɔ:tʃ] **1.** *n* urish-janjal, mushtlashish, to'polon; **2.** *v* axloqini buzmoq, axloqsizlikni o'rgatmoq; yo'ldan ozdirmoq; **~ed** axloqi buzuq; **~ery** yomon yo'lga kirganlik, axloqi buzilganlik.

debauched [dɪˈbɔ:tʃt] *a* buzuq (yomon yo'lga kirib ketgan).

debauchee [ˌdebɔ:ˈtʃi:] *n* buzuq kishi, xotinboz, yomon yo'lga kirgan kishi.

debauchery [dɪˈbɔ:tʃərɪ] *n* araqxo'rlik, ichkilikbozlik.

debenture [dɪˈbentʃə] *n* qarz olish-berish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar.

debilitate [dɪˈbɪlɪteɪt] *n tib.* kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashmoq, bequvvat qilib qo'ymoq.

debilitation [dɪˌbɪlɪˈteɪʃn] *n tib.* zaiflashib ketish, kuch-quvvatdan qolish, kuchsizlik.

debility [dɪˈbɪlətɪ] *n* kuchsizlik, zaiflik, darmonsizlik, kasalmandlik.

debit [ˈdebɪt] **1.** *n his.* debet, kirim; **2.** *v* debetga yozib qo'ymoq.

debonair [ˌdebəˈneə] *n* xushfe'l, xushmuomala, muloyim, ko'ngli ochiq, quvnoq.

debouch [dɪˈbaʊtʃ] *v* daradan ochiq joyga chiqmoq *(daryo to'g'risida).*

debouchment [dɪˈbaʊtʃmənt] *n* daradan chiqish (*yo'li*).

debris [ˈdebrɪ:] *n* 1) xaroba, vayrona, xarobazor; 2) asorat, qoldiq.

debt [det] *n* qarz; nasiya; **get into ~** qarzga botmoq.

debtor [ˈdetə] *n* qarzdor; **~'s prison** qarzdorlar qamoqxonasi.

debunk [ˌdi:ˈbʌŋk] *n so'zl.* 1) obro'yini ketkazmoq, fosh qilmoq, sharmandasini chiqarmoq; 2) taxtdan tushirmoq.

debus [dɪˈbʌs] *v* 1) mashinadan tushmoq, tushib qolmoq; 2) tushirmoq; 3) avtomashinadan yukni tushirmoq.

debusing-point [dɪˈbʌsɪŋˈpɔɪnt] *n* mashinadan tushish joyi.

debut [ˈdeɪbu:] *n* birinchi marta chiqish (boshlash); **to make one's ~** birinchi marta chiqmoq (boshlamoq).

debutant [ˈdebjutɑ:ŋ] *n fr.* boshlovchi, birinchi marta chiquvchi, ilk bor ishtirok etuvchi.

debutante [ˈdebjutɑ:nt] *n fr.* boshlovchi (*ayol*).

deca- [ˈdekə-] *pref.* o'n, o'nta, o'nov.

decachord [ˈdekəkɔːd] *n mus.* arfa (*qadimgi greklarda: chertib chaladigan katta musiqa asbobi*).
decadal [ˈdekədəl] *a* o'n yilda bir marta bo'ladigan.
decade [ˈdekeɪd] *n* 1) o'nta, o'n dona, o'n nafar; 2) o'n yillik muddat (*vaqt*); o'n yillik marosim.
decadence [ˈdekədəns] *n* pasayish, tushish, zaiflashish, kuchsizlanish.
decadency [ˈdekədənsɪ] = **decadence.**
decadent [ˈdekədənt] 1. *n* dekadent (*dekadentlik oqimi namoyandasi*); 2. *a* 1) tushkunlikka tushgan; 2) inqirozga uchragan.
decaffeinated [ˌdiːˈkæfɪneɪtɪd] *a* kofein qo'shilmagan, kofeinsiz (*kofein – kofe urug'i yoki choy bargidan olinadigan alkogol*).
decagon [ˈdekəgən] *n* o'nburchakli (*shakl*).
decagonal [dekˈægənəl] *a* o'n burchakli.
decagram(me) [ˈdekəgræm] *n* dekagramm (*o'n gramm*).
decahedral [ˌdekəˈhiːdrəl] *a* o'n yoqlik (*shakl*).
decalitre [ˈdekəˌliːtə] *n* dekalitr (*o'n litr*).
Decalogue [ˈdekəlɔg] *n bibl.* dinda *(diniy kitoblarda)* buyurilgan o'nta din amri.
decametre [ˈdekəˌmiːtə] *n* dekametr (*o'n metr*).
decamp [dɪˈkæmp] *v* 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) yashirinmoq; 3) lagerdan chiqmoq.
decampment [dɪˈkæmpmənt] *n* 1) lagerdan chiqish; 2) qochish, qochib ketish.
decanal [dɪˈkeɪnl] *a* dekanga oid, dekan.
decangular [dekˈæŋgjulə] *a* o'n burchakli.
decant [dɪˈkænt] *v* suzg'ichdan o'tkazmoq, suzmoq, g'alvirdan o'tkazmoq, saralamoq.
decanter [dɪˈkæntə] *n* 1) grafin; 2) boshini urish, kallasini olish.
decaphyllous [ˌdekəˈfɪləs] *a bot.* o'n bargli (*o'simlik*).
decapitate [dɪˈkæpɪteɪt] *v* 1) boshini uzmoq, kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq; 2) boshliqsiz (rahbarsiz) qoldirmoq.
decapod [ˈdekəpɔd] *n zool.* 1) o'n oyoqli qisqichbaqa; 2) o'n oyoqli.
decarbonate [diːˈkɑːbəneɪt] *v* uglerodsizlantirmoq.
decarbonize [diːˈkɑːbənaɪz] = **decarbonate.**
decasualize [diːˈkæʒjuəlaɪz] *v* qo'nimsiz ishchi kuchlarni yo'qotish.
decathlon [dɪˈkæθlən] *n sport.* o'nkurash (*sportning o'n turini o'z ichiga olgan musobaqa*).
decay [dɪˈkeɪ] 1. *n* 1) chirish, yemirilish; parchalanish; 2) inqiroz, tanazzul; 2. *v* yiringlamoq, chirimoq; **~ed** chirigan.
decease [dɪˈsiːs] 1. *n* o'lim, vafot; qazo, ajal; 2. *v* vafot etmoq, jon bermoq.
deceased [dɪˈsiːst] *n* rahmatli, marhum.
decedent [dɪˈsiːdnt] *n yur.* tinch, osoyishta.
deceit [dɪˈsiːt] *n* makr, aldash, pand berish, muttahamlik.
deceitful [dɪˈsiːtfl] *a* 1) yolg'on, noto'g'ri; 2) kishini aldaydigan.
deceitfully [dɪˈsiːtflɪ] *adv* makkorona, xiyonatkorona, xoinona.
deceive [dɪˈsiːv] *v* aldamoq, chalg'itmoq; avramoq, tovlamoq; laqillatmoq; **~d** adashgan.
deceiver [dɪˈsiːvə] *n* yolg'onchi, ko'z bo'yamachi, qallob.
decelerate [ˌdiːˈseləreɪt] *v* 1) sekinlashtirmoq, sekinlatmoq; 2) tezlikni pasaytirmoq.
deceleration [ˌdiːseləˈreɪʃn] *n* 1) sekinlashtirish, sekinlashish, susaytirish; 2) tormoz berish, to'xtatish.
December [dɪˈsembə] 1. *n* dekabr; 2. *attr.* dekabrda bo'ladigan.
Decembrist [dɪˈsembrɪst] *n tar.* dekabrist.
decenary [dɪˈsenərɪ] = **decennary.**
decency [ˈdiːsnsɪ] *n* odob, tartib, xushxulqlik.
decennary [dɪˈsenərɪ] *n* o'n yillik vaqt, muddat, o'n yil.
decenniad [dɪˈseniæd] = **decennary.**
decennial [dɪˈseniəl] *a* o'n yil davom etadigan.
decent [ˈdiːsnt] *a* 1) odobli, tartibli, tarbiyali; 2) vijdonli, insofli, nomusli, to'g'ri, halol.
decently [ˈdiːsntlɪ] *adv* 1) insof bilan, odob bilan; 2) yoqimli qilib, iltifot bilan.
decentralize [diːˈsentrəlaɪz] *v* markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tmoq *yoki* o'tkazmoq.
deception [dɪˈsepʃn] *n* firibgarlik, tilyog'lamachilik; aldash, firib berish.
deceptive [dɪˈseptɪv] *a* 1) yolg'on, yolg'ondan iborat bo'lgan; 2) kishini aldaydigan, chalg'itadigan, ishonib bo'lmaydigan.
deceptively [dɪˈseptɪvlɪ] *adv* yolg'ondakam, yolg'ondan.
deci- [desɪ-] *pref.* o'ndan bir.
decibel [ˈdesɪbel] *n fiz.* detsibel.
decide [dɪˈsaɪd] *v* hal qilmoq, qaror qilmoq, botinmoq.
decided [dɪˈsaɪdɪd] *a* 1) hal bo'lgan, hal etilgan; 2) qaror qilingan.
decidedly [dɪˈsaɪdɪdlɪ] *adv* qat'iy, qat'iyat bilan, tortinmay, ikkilanmay.
deciduous [dɪˈsɪdjuəs] *a bot.* bargi to'kiladigan (*daraxt to'g'risida*).
decigram(me) [ˈdesɪgræm] *n* o'ndan bir gramm; gramning o'ndan biri.
decilitre [ˈdesɪˌliːtə] *n* o'ndan bir litr; litrning o'ndan biri.
decimal [ˈdesɪməl] 1. *n* o'nli kasr; 2. *a* o'nli.
decimalism [ˈdesɪməlɪzm] *n* o'nli sistemalarni qo'llash, ishlatish.
decimalize [ˈdesɪməlaɪz] *v* o'nga bo'lmoq.
decimally [ˈdesɪməlɪ] *adv* o'nli usulga ko'ra.
decimate [ˈdesɪmeɪt] *v* har o'n kishidan bittasini o'ldirmoq (*qatl etmoq*).

decimation [ˌdesəˈmeɪʃən] *n* har o'n kishidan bittasini qatl etish.
decimetre [ˈdesɪˌmiːtə] *n* detsimetr, o'ndan bir metr.
decimosexto [ˌdesɪməʊˈsekstəʊ] *n poligr.* 1/16 varaqdagi kitob hajmi.
decipher [dɪˈsaɪfə] *v* topib o'qimoq (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*).
decipherable [dɪˈsaɪfərəbl] *a* (*topih*) o'qisa bo'ladigan.
decision [dɪˈsɪʒn] *n* qaror, hukm, xulosa, fikr.
decisive [dɪˈsaɪsɪv] *a* hal qiluvchi.
deck [dek] *n deng.* paluba, paroxod (*kema*) sahni.
deck alighting [ˈdekəˌlaɪtɪŋ] *n deng.* kema sahniga chiqish.
deck-bridge [ˈdekbrɪdʒ] *n* ustida mashinalar yuradigan ko'prik.
deck-cabin [ˌdekˈkæbɪn] *n* kema sahnidagi (kayuta) xona.
deck-cargo [ˈdekˌkɑːgəʊ] *n* kema sahnidagi yuk.
deck-chair [ˈdekʧeə] *n* yengil kreslo (*kema sahnidagi yo'lovchilar uchun*).
-decker [-dekə] murakkab so'zlarda: shuncha paluba borligini bildiradi.
deck-hand [ˈdekhænd] *n* dengizchi.
deck-house [ˈdekhaus] *n deng.* kema sahni ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy.
decking [ˈdekɪŋ] **1.** *n* 1) bezak, zeb-ziynat; 2) bezatish; **2.** *v* kema sahnini bezatmoq.
deck landing [ˈdekˌlændɪŋ] = **deck alighting.**
deckle [ˈdekl] *v* qog'ozlarning chekkalarini qirqmoq.
deckle-edged [ˌdekl̩ˈedʒd] *a* chekkalari tekis bo'lmagan (*qog'oz to'g'risida*).
deck-light [ˈdeklaɪt] *n deng.* paluba.
deck-passage [ˈdekˌpæsɪdʒ] *n* palubaga o'tish (*kayutadan foydalanmasdan*).
deck start [ˈdekstɑːt] *n deng.* kema sahnidan uchish.
declaim [dɪˈkleɪm] *v* jo'shqinlik bilan nutq so'zlamoq.
declamation [ˌdekləˈmeɪʃn] *n* deklamatsiya, badiiy o'qish.
declamatory [dɪˈklæmətərɪ] *a* 1) notiqlikka oid; notiqlik; 2) ifodali o'qishga oid; 3) balandparvoz, dabdabali.
declarant [dɪˈkleərənt] *n yur.* ariza yozuvchi kishi.
declaration [ˌdekləˈreɪʃn] *n* bayonot, bayonnoma.
declarative [dɪˈklærətɪv] *a* tantanali; **~ sentence** *gram.* darak gap.
declaratory [dɪˈklærətərɪ] *a* tushuntirish uchun yozilgan; tushuntirib beradigan.
declare [dɪˈkleə] *v* e'lon qilmoq, bildirmoq, aytmoq.
declared [dɪˈkleəd] *a* 1) e'lon qilingan; 2) tan olingan.
declasse [deɪˈklæseɪ] = **declassed.**
declassed [ˌdɪˈklɑːst] *a fr.* sinfsizlashgan, o'z sinfidan (*ijtimoiy hayotdan*) tamoman uzilgan, tubanlikka tushgan.
declassify [diːˈklæsɪfaɪ] *v* sirni oshkor qilmoq, ma'lum qilmoq.
declension [dɪˈklenʃn] 1) *gram.* turlash, turlanish; 2) pasayish, kamayish, tushish; 3) yomonlashish.
declensional [dɪˈklenʃnəl] *a gram.* turlash bilan bog'liq bo'lgan; turlanishga oid.
declinable [dɪˈklaɪnəbl] *a gram.* turlanadigan, turlanuvchi.
declination [ˌdeklɪˈneɪʃn] *n* 1) og'ish, chetga chiqish; 2) magnit og'ish burchagi; 3) *gram.* turlash, turlanish.
declinator [ˈdeklɪneɪtə] *n* deklinator (*magnit og'ish burchagini o'lchaydigan asbob*).
declinatory [dɪˈklaɪnətərɪ] *a* 1) og'adigan; 2) rad qilingan, qabul qilmaydigan.
decline [dɪˈklaɪn] **1.** *n* 1) qisqarish; 2) arzonlashish (*narx*); **2.** *v* 1) rad qilmoq, qaytarmoq; 2) egilmoq; egmoq; yomonlashmoq (*sog'liq haqida*); tushmoq (*xarorat*).
declining [dɪˈklaɪnɪŋ] **1.** *p. p.* **decline 2** *dan*; **2.** *a* keksaygan, keksayib qolgan; **~ years** keksaygan yillar.
declinometer [ˌdeklɪˈnɒmɪtə] *n* deklinometr (*magnit og'ish burchagini o'lchaydigan asbob*).
declivitous [dɪˈklɪvətəs] *a* ancha tik tushib boradigan (*qiyalik to'g'risida*).
declivity [dɪˈklɪvətɪ] *n* qiyalik, nishablik.
declivous [dɪˈklaɪvəs] *a* qiya, nishab.
declutch [diːˈklʌʧ] *v tex.* ajratib (uzib) qo'ymoq.
decoct [dɪˈkɔkt] *v* qaynatmoq, qaynatib pishirmoq.
decoction [dɪˈkɔkʃn] *n* 1) qaynatish, tayyorlash; 2) (*shifobaxsh*) qaynatma (*qaynatib pishirilgan narsaning mazasi chiqqan suvi*).
decode [ˌdiːˈkəʊd] *v* topib o'qimoq (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*).
decollate [dɪˈkɔleɪt] *v esk.* kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq.
decollation [ˌdiːkɔˈleɪʃn] *n* kallasini olish, boshini tanasidan judo qilish.
decollete [deɪˈkɔlteɪ] *a fr.* dekolte yoqali (*dekolte – ayollar ko'ylagining chuqur o'yilgan yoqasi va shunday yoqali ko'ylak*).
decolo(u)r [diːˈkʌlə] = **decolo(u)rize.**
decolo(u)rant [diːˈkʌlərənt] *n* rangini (yo'qotadigan) o'chiradigan modda.
decolo(u)ration [diːˌkʌləˈreɪʃn] *n* rangini (yo'qotish) o'chirish.
decolo(u)rize [diːˈkʌləraɪz] *v* rangini yo'qotmoq, o'chirmoq.
decompensation [diːˌkɔmpenˈseɪʃn] *n tib.* kompensatsiyaning buzilishi (*kompensatsiya – orga-*

nizmda buzilgan muvozanatning birmuncha tiklanishi, nuqson o'rnining to'lishi).

decomplex [ˌdi:kəmˈpleks] *a* 1) ikki baravar murakkab; 2) murakkab qismlardan iborat bo'lgan.

decompose [ˌdi:kəmˈpəuz] *v* tarkibiy qismlarga ajralmoq, parchalanmoq.

decomposite [diˈkɔmpəzit] **1.** *a* murakkab qismlardan iborat bo'lgan; **2.** *n* tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan qandaydir narsa (*modda, so'z va b.*).

decomposition [ˌdi:kɔmpəˈziʃn] *n* 1) *fiz. kim.* ajralish, ajratish, parchalanish; 2) buzilish, chirish.

decompound [ˌdi:kəmˈpaund] *v* tarkibiy qismlardan iborat bo'lmoq.

decompress [ˌdi:kəmˈpres] *v* bosimni pasaytirmoq.

deconsecrate [ˌdi:ˈkɔnsikreit] *v* davlat mulkiga aylantirmoq (*cherkov yeri yoki mulkini*).

decontaminate [ˌdi:kənˈtæmineit] *v* zararsizlantirmoq, zararli mikroblardan tozalamoq.

decontrol [ˌdi:kənˈtrəul] *n* davlat nazoratidan (chiqarish) ozod qilish.

decor [ˈdeikɔ:] *n fr.* 1) bezash, bezatish (*ko'rgazma va b.*); 2) *teatr.* dekoratsiya (*sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar*).

decora [diˈkɔ:rə] *pl* **decorum** *dan.*

decorate [ˈdekəreit] *v* 1) bezatmoq; 2) orden bilan taqdirlamoq.

decorated [ˈdekəreitid] **1.** *p. p.* **decotrate** *dan.*; **2.** *a* 1) bezalgan, bezatilgan; 2) taqdirlangan.

decoration [ˌdekəˈreiʃn] *n* 1) bezak; 2) mukofot.

decorative [ˈdekərətiv] *a* 1) savlat bag'ishlaydigan, fayzli; 2) bezash (*zeb-ziynat berish uchun xizmat qiladigan*).

decorator [ˈdekəreitə] *n* 1) bo'yoqchi; 2) mebel qoplovchi usta.

decorous [ˈdekərəs] *a* odobli, axloqli, axloq qoidalari doirasidagi.

decorticate [ˌdi:ˈkɔ:tikeit] *v* yulib olmoq, uzib ol-moq, shilmoq, shilib olmoq (*po'st, po'stloq va b.*).

decorum [diˈkɔ:rəm] *n* odob, tartib, xushxulqlik.

decoy **1.** *n* [ˈdi:kɔi] qarmoq, tuzoq, qopqon; **2.** *a* [diˈkɔi] aldab chaqirmoq.

decoy-duck [diˈkɔidʌk] *n* yovvoyi o'rdaklarni tuzoqqa ilintirish uchun qo'yilgan yem (*xo'rak*).

decrease **1.** *n* [ˈdi:kri:s] ozaytirish, kichraytirish; kamayish; **2.** *v* [ˌdi:ˈkri:s] kamaymoq, ozaymoq.

decree [diˈkri:] **1.** *n* farmon, qaror, qonun, farmoyish; **2.** *v* qonun kuchiga kiritmoq.

decrement [ˈdekrimənt] *n* ozaytirish, pasaytirish, kamaytirish.

decrepit [diˈkrepit] *a* 1) qartaygan, qartayib kuch-quvvatdan qolgan; 2) eskirib ishdan chiqqan.

decrepitate [diˈkrepiteit] *v tex.* 1) qizdirib cho'g' qilmoq; 2) o'tga tutib qizdirmoq.

decrepitation [diˌkrepiˈteiʃn] *n tex.* 1) qizdirib cho'g' qilish; 2) o'tga tutib qizdirish.

decrepitude [diˈkrepitju:d] *n* 1) qartayganlik, munkillaganlik; 2) eskirganlik, eskilik.

decrescent [diˈkresnt] *a* o'ldiradigan.

decretal [diˈkri:tl] *n cherk.* dekret *(qonun kuchiga ega bo'lgan qaror).*

decretive [diˈkri:tiv] *a* dekret bilan belgilangan, dekret bilan ishlab chiqarilgan.

decretory [diˈkri:təri] = **decretive**.

decrial [diˈkraiəl] *n* ochiqdan-ochiq tanbeh berish, yomonlash, ayblash.

decry [diˈkrai] *v* tanbeh bermoq, haqorat qilmoq.

decuman [ˈdekjumən] *a* kuchli, baquvvat, qudratli (*to'lqin haqida*).

decuple [ˈdekjupl] *a* o'n hissa ko'paygan.

decussate [diˈkʌseit] *a* to'g'ri burchakning ostidan ko'ndalang kesib o'tadigan.

dedicate [ˈdedikeit] *v* 1) bag'ishlamoq, atamoq; 2) mo'ljallamoq, atab (belgilab, mo'ljallab) qo'ymoq.

dedicated [ˈdedikeitid] **1.** *p.p.* **dedicate** *dan.* **2.** *a* sodiq, sadoqatli; fidokorlik.

dedication [ˌdediˈkeiʃn] *n* 1) sadoqat, sodiqlik; fidokorlik; 2) bag'ishlash, bag'ishlov.

dedicator [ˈdedikeitə] *n* sadoqatli kishi.

dedicatory [ˈdedikətəri] *a* bag'ishlovchi, bag'ishlaydigan.

deduce [diˈdju:s] *v* xulosa chiqazmoq, iziga tushmoq.

deduct [diˈdʌkt] *v* ayirmoq, olib tashlamoq, ayiruv amalini bajarmoq.

deduction [diˈdʌkʃn] *n* 1) *mat.* ayirish, chiqarib tashlash; 2) faraz, xulosa.

deductive [diˈdʌktiv] *a mantiq.* deduksiyaga asoslangan (*deduksiya – umumiy holatda xususiy xulosalar chiqarish*).

dee [di:] *n* 1) D harfining nomi; 2) *tex.* D-shaklidagi halqa.

deed [di:d] *n* 1) jasorat, mardlik; 2) ish, harakat, ishlash, muomala; **~s** xatti-harakat.

deed-poll [ˈdi:dpəul] *n yur.* bir tomonlama majburiyat.

deem [di:m] *v* faraz qilmoq, hisoblamoq, ... deb hisoblamoq.

deep [di:p] **1.** *a* chuqur, teran; **~ place** o'yiq, o'yilgan joy; **2.** *n* chuqur joy.

deepen [ˈdi:pən] *v* 1) chuqurlashmoq; 2) kuchayib ketmoq.

deep-felt [ˌdi:pˈfelt] *a* chuqur his etilgan.

deepfreeze [ˌdi:pˈfri:z] **1.** *n* muzlatuvchi qurilma; muzxona; **2.** *v* muzlatmoq *(mahsulotlarni).*

deep-frozen [ˌdi:pˈfrəuzn] *a* yangi muzlatilgan, endigina muzlatilgan.

deep-laid [ˌdi:pˈleid] *a* 1) mayda-chuydasigacha ishlab chiqilgan maxfiy (reja); 2) chuqur joylashgan.

deeply [ˈdi:pli] *adv* chuqur, teran, chuqur qilib.

deep mining [ˈdi:p,maınıŋ] *n* yer ostidan ko'mir qazish.

deep-mouthed [ˌdi:pˈmauðd] *a* 1) qattiq, o'tkir, jarangli, gulduros; 2) qattiq akillaydigan.

deepness [ˈdi:pnəs] *n* chuqurlik, teranlik.

deep-piled [ˌdi:pˈpaıld] *a* uzun tukli, uzun patli.

deep-rooted [ˌdi:pˈru:tıd] *a* chuqur ildizli, ildizi chuqur.

deep-sea [ˌdi:pˈsi:] *a* 1) dengiz qa'rida yashaydigan; 2) chuqur (*suv havzalari haqida*).

deep-seated [ˌdi:pˈsi:tıd] *a* chuqur o'rnashgan, tomir (ildiz) otgan.

deer [dıə] *n* bug'u, kiyik; **red ~** asl bug'u.

deer-forest [ˈdıə,fɔrıst] *n* bug'ular qo'riqxonasi.

deer-hound [ˈdıəhaund] *n* Shotlandiya tozi iti.

deer-lick [ˈdıəlık] *n* bug'ular tuz yalaydigan tuz-tuproqlardan iborat bo'lgan yer maydoni.

deer-neck [ˈdıənek] *n* ingichka bo'yin *(otlarda)*.

deer-park [ˈdıəpɑ:k] = **deer-forest.**

deerskin [ˈdıəskın] *n* bug'u terisi.

deerstalker [ˈdıə,stɔ:kə] *n* bug'ularni ovlaydigan ovchi.

deerstalking [ˈdıə,stɔ:kıŋ] *n* bug'ularni ovlash.

deface [dı'feıs] *v* 1) buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq, noto'g'ri talqin qilmoq; 2) obro'-e'tiborini to'kmoq.

defacement [dı'feısmənt] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish.

de facto [deı'fæktəu] *lot. adv* aslida, haqiqatan.

defalcate [ˈdi:fælkeıt] *v* 1) begonalarning pulini o'ziniki qilib olmoq; 2) ishonchni yo'qotmoq.

defamation [ˌdefə'meıʃn] *n* tuhmat, bo'hton; g'iybat; yolg'on-yashiq, uydirma.

defamatory [dı'fæmətərı] *a* tuhmat qilib aytilgan, tuhmatdan (bo'htondan) iborat bo'lgan, bo'hton.

defame [dı'feım] *v* tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq, g'iybat qilmoq.

defatted [di:'fætıd] *a* yog'sizlantirilgan, yog'i olingan.

default [dı'fɔ:lt] **1.** *n* 1) burchni bajarmaslik (*asosan, pullik*); 2) (*pala-partishlik natijasida qilingan*) yanglish ish; yaxshi qaramaslik; e'tiborsizlik; **2.** *v* to'lov to'lashni to'xtatmoq.

defaulter [dı'fɔ:ltə] *n* 1) o'z majburiyatini bajarmaydigan kishi; 2) kamomad qilgan kishi; 3) obro'-e'tiborini yo'qotgan shaxs; 4) singan savdogar.

defeasance [dı'fi:zns] *n* 1) bekor qilish; kuchdan qoldirish; 2) *yur.* bekor qilish shartlari.

defeasible [dı'fi:zəbl] *a* bekor qilinish.

defeat [dı'fi:t] **1.** *n* 1) mag'lubiyat; **to sustain a ~** mag'lubiyatga uchramoq; 2) barbod bo'lish (*reja haqida*); 3) yo'qqa chiqish (*orzu-umidlar haqida*); 4) *yur.* bekor qilish; **2.** *v* 1) mag'lubiyatga uchramoq; 2) barbod qilmoq (*rejalarni*); 3) puchga chiqarmoq (*orzu-umidlar va b.*); 4) *yur.* bekor qilmoq.

defeatism [dı'fi:tızm] *n* taslim bo'lish, mag'lub bo'lish.

defeatist [dı'fi:tıst] *n* 1) taslim bo'lish tarafdori; 2) qo'rqoq, jur'atsiz.

defeature [dı'fi:tʃə] *v* tanimaydigan qilib qo'ymoq.

defecate [ˈdefəkeıt] *v* 1) tozalamoq, tozalanmoq; 2) tinitmoq, tindirmoq (*suyuqlikni*); 3) yozilmoq, ichni bo'shatmoq.

defecation [ˌdefı'keıʃən] *n* 1) tozalash; 2) tinitish, tindirish; 3) yozilish, ichni bo'shatish.

defect 1. *n* [ˈdi:fekt] 1) nuqson, illat, ayb; kamchilik, buzuqlik; 2) kamomad, kam chiqish, kam kelish; **2.** *v* [dı'fekt] 1) o'z burchini bajarmaslik; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq.

defection [dı'fekʃn] *n* buzish *(burchni)*, xizmatdan *(vazifadan)* bosh tortish.

defective [dı'fektıv] *a* 1) kam-ko'sti bor, chala; 2) kam, oz, yetmaydigan; 3) mukammal emas; 4) buzuq, buzilgan, shikastlangan; 5) nuqsonlik.

defence [dı'fens] *n* mudofaa, himoya.

defenceless [dı'fensləs] *a* himoyachisiz, ojiz, bechora, o'zini himoya qila olmaydigan.

defend [dı'fend] *v* himoya qilmoq, mudofaa qilmoq, yoqlamoq.

defendant [dı'fendənt] *n yur.* aybdor (javobgar, ayblanuvchi, sudlanuvchi) kishi.

defender [dı'fendə] *n* himoyachi, himoya qiluvchi.

defense [dı'fens] = **defence.**

defensible [dı'fensəbl] *a harb.* himoya uchun qulay.

defensive [dı'fensıv] **1.** *a* 1) mudofaa; 2) qo'shinning jang paytida mudofaa uchun o'rnashgan joyi; **2.** *a* mudofaaga qaratilgan, mudofaaga xizmat qiladigan.

defer [dı'fə:] *v* 1) kechiktirmoq, keyinga qoldirmoq; **~red** qoldirilgan, kechiktirilgan; 2) kimningdir fikri bilan hisoblashmoq; 3) boshqalarning maslahat *yoki* xohishi bilan ish tutmoq.

deference [ˈdefrəns] *n* hurmat, hurmat bilan qarash; **to show ~ to smb.** kimgadir hurmat bilan muomala qilmoq.

deferential [ˌdefə'renʃl] *a* 1) hurmat qiladigan, odobli; 2) ancha, anchagina, katta.

deferment [dı'fə:mənt] *n* kechiktirish, keyinga qoldirish, muhlat berish.

deferred [dı'fə:d] *a* 1) sekinlashgan, paysalga solingan; 2) keyinga surilgan, kechiktirilgan.

defervescence [ˌdi:fə'vesns] *n tib.* haroratning (tushishi) pasayishi.

defiance [dı'faıəns] *n* bo'ysunmaslik, itoat qilmaslik, bosh tortish.

defiant [dı'faıənt] *a* dag'al, qo'pol, qo'rs.

defiantly [dı'faıəntlı] *adv* dag'allik (qo'rslik, qo'pollik) bilan, qo'rs.

deficiency [dı'fiʃnsı] *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik.

deficient [dɪˊfɪʃnt] *a* 1) kamchil, tanqis, yetarli bo'lmagan; 2) takomillashmagan.

deficit [ˊdefəsɪt] *n* 1) kamomad, kam chiqish, kam kelish; 2) yetishmaslik, tanqislik.

defilade [ˌdefɪˊleɪd] *n harb.* tabiiy pana joy.

defile I [dɪˊfaɪl] *v* 1) kir qilmoq, bulg'amoq; ~**d** harom; 2) tahqirlamoq, xo'rlamoq.

defile II [dɪˊfaɪl] **1.** *n* tor tog' oralig'i, tor yo'lak, dara; **2.** *v* tantanali yurish qilmoq.

defilement [dɪˊfaɪlmənt] *n* iflos qilish, kir qilish, bulg'ash.

definable [dɪˊfaɪnəbl] *a* aniqlab bo'ladigan.

define [dɪˊfaɪn] *v* 1) aniqlamoq, belgilamoq, topmoq; 2) tariflamoq.

definite [ˊdefənət] *a* aniq, ma'lum, muqarrar; ~ **article** *gram.* aniq artikl; ~**ly** aniq, shaksiz; ~**ness** qat'iylik; qat'iyat.

definition [ˌdefəˊnɪʃn] *n* izoh, ta'rif.

definitive [dɪˊfɪnətɪv] *a* 1) shak-shubhasiz; 2) ikkilanmaydigan, jasur; 3) eng so'nggi.

deflagrate [ˊdeflәgreɪt] *v* tez yonmoq *yoki* yoqmoq.

deflagration [ˌdeflәˊgreɪʃn] *v* portlaydigan moddalarning birdan (*lov etib*) yonishi.

deflate [ˌdiːˊfleɪt] *v* 1) havoni nasos bilan tortib (so'rib) olmoq, chiqarib tashlamoq; 2) narxni kamaytirmoq (tushirmoq).

deflation [ˌdiːˊfleɪʃn] *n mol.* 1) muomaladagi pul miqdorini kamaytirish; 2) havoni chiqarib yuborish.

deflect [dɪˊflekt] *v* 1) biror tomonga (burmoq, og'dirmoq) burib qo'ymoq; 2) cg'moq, engashmoq, qiyshaymoq, burilmoq; 3) yo'nalishini o'zgartirmoq.

deflected [dɪˊflektɪd] *a* 1) qaytgan, yo'nalishni o'zgartirgan; 2) bukilgan, egilgan; 3) qiyshiq.

deflection [dɪˊflekʃn] *n* yo'nalishini o'zgartirish.

deflective [dɪˊflektɪv] *a* bukiladigan, egiladigan.

deflector [dɪˊflektə] *n tex.* qaytargich.

deflexion [dɪˊflekʃn] = **deflection**.

deflorate [dɪˊflɔːrɪt] *a bot.* gullab bo'lgan, guldan tushgan.

defloration [ˌdiːflɔːˊreɪʃn] *n* 1) gullarini tushirish; 2) zo'rlash; nomusiga tegish.

deflower [ˌdiːˊflaʊə] *v* 1) gullarni uzmoq (yulmoq); 2) zo'rlamoq, nomusiga tegmoq.

defoliate [diːˊfəʊlɪeɪt] **1.** *a* barglari tushgan, bargsiz; **2.** *v* 1) barglarini tushirmoq; 2) o'simliklarni yo'q qilmoq.

defoliation [diːˌfəʊlɪˊeɪʃn] *n* barglarning tushishi; xazonrez, xazonrezlik.

deforest [ˌdiːˊfɔrɪst] *v* o'rmondagi daraxtlarni kesib, o'rmonni yo'q qilmoq.

deforestation [diːˌfɔrɪˊsteɪʃən] *v* o'rmonni, dov-daraxtlarni yo'q qilmoq, daraxtsiz yalanglikka aylantirmoq.

deform [dɪˊfɔːm] *v* 1) majruh qilmoq, ishdan chiqarmoq; 2) buzib ko'rsatmoq; noto'g'ri talqin qilmoq (*fikrni*).

deformation [ˌdiːfɔːˊmeɪʃn] *n* 1) buzib ko'rsatish, noto'g'ri talqin qilish; 2) *tex.* shaklning o'zgarishi *yoki* o'zgartirilishi.

deformity [dɪˊfɔːmətɪ] *n* xunuklik, badbasharalik, beo'xshovlik.

defraud [dɪˊfrɔːd] *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq, firib bermoq, pand bermoq.

defray [dɪˊfreɪ] *v* to'lamoq, haq (*xarajat, soliq va h.k. uchun pul*) to'lamoq.

defrayal [dɪˊfreɪəl] *n* to'lanadigan (olinadigan) pul, haq, to'lov.

defrayment [dɪˊfreɪmənt] = **defrayal**.

defreeze [ˌdiːˊfriːz] *v* eritmoq, muzdan tushirmoq (*oziq-ovqatni*).

defrock [ˌdiːˊfrɔk] *v* martabadan tushirmoq (*rohibni*).

defrost [ˌdiːˊfrɔst] *v* muz (*yax*) dan tushirmoq. eritmoq.

defroster [ˌdiːˊfrɔstə] *n tex.* eritgich, muzlatuvchi asbob.

deft [deft] *a* epchil. chaqqon, abjir; usta, mohir, chapdast.

defunct [dɪˊfʌŋkt] **1.** *a* marhum, rahmatli, o'lgan. vafot etgan; **2.** *n yur.* (**the** ~) o'lib ketgan kishi.

defuse [ˌdiːˊfjuːz] *v* 1) vaziyatni yumshatmoq; 2) zararsizlantirmoq.

defy [dɪˊfaɪ] *v* 1) chorlamoq, chaqirmoq; 2) nazarpisand qilmaslik, mensimaslik; 3) e'tiborsizlik (beparvolik) bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik.

degas [diːˊgæs] *v* zaharli gazdan tozalab zararsizlantirmoq.

degeneracy [dɪˊdʒenərəsɪ] *n* 1) zotning (naslning) buzilishi; boshqacha tug'ilish; 2) tushkunlik, inqiroz, tanazzul.

degenerate 1. *n* [dɪˊdʒenerət] zoti (nasli) buzilgan shaxs; chala (zoti, nasli buzilgan, jismoniy *yoki* ruhiy jihatdan aynigan) tug'ilgan odam; **2.** *a* [dɪˊdʒenərət] chala tug'ilgan, zoti (nasli) buzilgan.

degeneration [dɪˌdʒenəˊreɪʃn] *n* zotning (naslning) buzilishi.

degenerative [dɪˊdʒenərətɪv] *a* 1) chala tug'ilgan; 2) zoti buzilgan.

degradation [ˌdegrəˊdeɪʃn] *n* 1) inqiroz, zavol, tanazzul, tushkunlik; 2) *geol.* (*biror yerni*) yuvib ketmoq; 3) *biol.* naslning buzilishi.

degrade [dɪˊgreɪd] *v* 1) tushkunlikka (inqirozga) yuz tutmoq; zavol topmoq; 2) pasaytirmoq, tushirmoq, kamaytirmoq (*kuch, narx va h.*), 3) pasaytirmoq (*mansabdan*), 4) kamsitmoq, yerga urmoq.

degraded [dɪˊgreɪdɪd] *a* inqirozga yuz tutib turgan.

degrading [dɪˊgreɪdɪŋ] *a* pastkash; kamsitadigan.

degree [dɪˊgriː] *n* 1) daraja, bosqich. palla, pog'ona; **by** ~**s** asta-sekin; **to the last** ~ so'nggi darajagacha; 2) daraja, saviya; 3) unvon, ilmiy daraja; 4) qarindoshlik darajasi; 5) *gram.* daraja; 6) *mat.* daraja.

degression [dɪˈgreʃn] *n* 1) kamayish, ozayish; 2) soliqlarning pasayishi.
degressive [dɪ ˈgresɪv] *a* pasayuvchi, kamayib boradigan.
dehisce [dɪˈhɪs] *v* ochilmoq, yorilib chiqmoq (*ko'sak haqida*).
dehiscent [dɪˈhɪsnt] *a* ochilayotgan, yozilayotgan (*ko'sak haqida*).
dehorn [ˌdiːˈhɔːn] *v* shoxlarni (muguzni) arralamoq.
dehumanize [diːˈhjuːmənaɪz] *v* vahshiyga aylantirmoq.
dehydration [ˌdiːhaɪˈdreɪʃn] *n kim.* suvsizlantirish, suvini qochirish.
dehydrogenize [ˌdiːˈhaɪdrədʒɪnaɪz] *v kim.* vodorodni (olib tashlamoq, yo'qotmoq) ketkizmoq.
de-ice [ˌdiːˈaɪs] *v* muzlashni oldini olmoq (bartaraf etmoq).
de-icer [ˌdiːˈaɪsə] *n* muzlashga qarshi vosita (modda).
deictic [ˈdaɪktɪk] *a log.* bevosita isbotlovchi, ishontiruvchi; **~ function** ko'rsatish funktsiyasi.
deification [ˌdeɪfɪˈkeɪʃn] *n* ilohiylashtirish, sig'inish, xudo deb bilish.
deify [ˈdeɪfaɪ] *v* ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq, cho'qinmoq.
deign [deɪn] *v* lozim ko'rmoq (topmoq); munosib ko'rmoq.
deism [ˈdeɪˌɪzm] *n* deizm (*xudoni tan oluvchi, lekin uning tabiat taraqqiyotiga daxli yo'q deb biluvchi diniy-falsafiy ta'limot*).
deist [ˈdeɪɪst] *n* deizm tarafdori.
deity [ˈdeɪətɪ] *n* 1) tangri; olloh; 2) ma'buda, buda, sanam.
deject [dɪˈdʒekt] *v* xafa qilib (ranjitib) qo'ymoq.
dejecta [dɪˈdʒektə] *n pl* 1) ichni bo'shatish; 2) axlat, najas.
dejected [dɪˈdʒektɪd] *a* xafa bo'lgan, ranjigan.
dejection [dɪˈdʒekʃn] *n* ruhiy tushkunlik, g'amginlik, ma'yuslik.
déjeuner [ˈdeɪʒənеɪ] *n fr.* dabdabali, bezatilgan *yoki* rasmiy (*nonushta*).
de jure [diːˈdʒuərɪ] *adv* yuridik.
delaine [dəˈleɪn] *n* yengil ko'ylakbop mato.
delate [dɪˈleɪt] *v* 1) ayblamoq; 2) xabardor qilmoq; 3) ovoza qilib yubormoq.
delation [dɪˈleɪʃn] *n* chaquv, zimdan berilgan xabar, chaqim.
delator [dɪˈleɪtə] *n* chaqimchi, xabar beruvchi.
delay [dɪˈleɪ] **1.** *n* kechiktirish, keyinga surish; **2.** *v* kechiktirmoq, keyinga surmoq; **~ed** kechiktirilgan.
delayed-action mine [dɪˌleɪdækʃnˈmaɪn] *n harb.* belgilangan vaqtda portlaydigan mina.
delayed drop [dɪˈleɪddrɔp] *n* parashutni ancha vaqt ochmay tushish.
dele [ˈdiːliː] *n* 1) chiqarib tashlashning korrektura (korrekturaga oid) belgilari; 2) belgilarni o'chirib tashlamoq (*korrekturada*).
delectable [dɪˈlektəbl] *a* g'oyat go'zal, ajoyib, qoyilmaqom.
delectation [ˌdiːlekˈteɪʃn] *n* 1) orom, lazzat, maza, zavq; 2) orom olish, lazzatlanish, zavqlanish.
delectus [dɪˈlektəs] *lot. n* lotin *yoki* grek xrestomatiyasi.
delegacy [ˈdelɪgəsɪ] *n* 1) delegatsiya; 2) delegatning vakilligi; 3) vakillik.
delegate 1. *n* [ˈdelɪgət] vakil; **2.** *v* [ˈdelɪgeɪt] vakil qilib yubormoq.
delegated legislation [ˈdelɪgeɪtɪdˌledʒɪsˈleɪʃn] *n* vazirning qonun kuchiga ega bo'lgan qaror chiqarish huquqi.
delegation [ˌdelɪˈgeɪʃn] *n* vakil, delegatsiya.
delete [dɪˈliːt] *v* o'chirib tashlamoq, chizib tashlamoq.
deleterious [ˌdelɪˈtɪərɪəs] *a* zararli, ziyon qiladigan, zarar keltira oladigan.
deletion [dɪˈliːʃn] *n* 1) o'chirish, chizish; 2) o'chirib (chizib) tashlangan narsa.
delft [delft] *n* 1) fayans (*ganch aralash loy*); 2) fayans buyumlar.
deliberate [dɪˈlɪbərеɪt] *v* kengashmoq, maslahatlashmoq.
deliberately [dɪˈlɪbərətlɪ] *adv* 1) ataylab, jo'rttaga, qasddan; 2) ehti-yotkorlik bilan; 3) sekin-asta, shoshilmasdan.
deliberation [dɪˌlɪbəˈreɪʃn] *n* 1) chuqur o'ylash, mulohaza qilish; 2) shoshilmaslik; **to speak with ~** shoshilmasdan gapirmoq.
deliberative [dɪˈlɪbərətɪv] *a* maslahat (kengash)ga oid.
delicacy [ˈdelɪkəsɪ] *n* 1) nafislik, noziklik, xipchalik; 2) odoblilik, muloyimlik, nazokat.
delicate [ˈdelɪkət] *a* 1) nazokatli, mahoratli, mohir; 2) latofatli, nozik, go'zal; 3) quvvatsiz, nozik, nimjon.
delicatessen [ˌdelɪkəˈtesn] *n nem. pl* gastronomiya magazini, gastronom.
delicious [dɪˈlɪʃəs] *a* 1) g'oyat go'zal, maftunkor, dilrabo; 2) juda shirin; mazali.
delict [ˈdiːlɪkt] *n yur.* qonunbuzarlik, qonunni buzish, qonunga xilof ish qilish.
delight [dɪˈlaɪt] *v* 1) zavqlantirmoq, xursand qilmoq; **~edly** zavq bilan, qoyil qilib; **~ful** zavqli, fayzli; 2) lazzatlanmoq.
delightful [dɪˈlaɪtfl] *a* maftunkor, dilrabo, jozibali.
delightsome [dɪˈlaɪtsəm] *a* qoyilmaqom, ajoyib.
delimit [dɪˈlɪmɪt] *v* chegarani aniqlamoq, alohida bo'lmoq.
delimitate [dɪˈlɪmɪteɪt] = **delimit.**
delimitation [dɪˌlɪmɪˈteɪʃn] *n* chegarani aniqlash.
delineate [dɪˈlɪnɪeɪt] *v* 1) ustidan chizib chiqmoq, ustidan qalam yurgizmoq; 2) tasvirlab bermoq.
delineation [dɪˌlɪnɪˈeɪʃn] *n* tasvir, bayon, chizma.
delineator [dɪˈlɪnɪeɪtə] *n* 1) o'lchamni belgilovchi (*odam, inson*), 2) andaza.

delinquency [dɪˈlɪŋkwənsɪ] *n* 1) ayb, nojo'ya ish, noo'rin xatti-harakat; 2) jinoyatchilik, jinoyatkorlik.

delinquent [dɪˈlɪŋkwənt] *n* qonunni buzuvchi (jinoyatchi, jinoyat qiluvchi) kishi.

deliquesce [ˌdelɪˈkwes] *v kim.* erimoq, erib ketmoq.

deliquescence [ˌdelɪˈkwesns] *n kim.* eruvchanlik, moddaning eruvchanlik xususiyati.

deliquescent [ˌdelɪˈkwesnt] *a* eriydigan (*havodan yutilgan namlikdan*).

delirious [dɪˈlɪrɪəs] **1.** *v* bosinqiramoq; **2.** *a* aqldan ozgan, telba.

delirium [dɪˈlɪrɪəm] *n* darg'azab, ortiq darajada asabiylashish.

delirium tremens [dɪˌlɪrɪəmˈtrɪːmenz] *n* alkogolizm oqibatidagi og'ir ruhiy kasallik.

delitescence [ˌdelɪˈtesns] *tib. n* yashirin, inkubatsion davri (*kasallikning yashirin davri*).

delitescent [ˌdelɪˈtesnt] *a tib.* sirtdan bilinmaydigan (*kasalliklar simptomlari*).

deliver [dɪˈlɪvə] *v* yetkazib bermoq, tarqatmoq (*xatlar, mollarni*); **~ing** topshiruv.

deliverance [dɪˈlɪvrəns] *n* ozod qilish, ozod bo'lish, ozodlikka chiqish.

delivery [dɪˈlɪvərɪ] *n* eltib berish, ta'minlash, yetkazib berish.

delivery note [dɪˈlɪvərɪnəʊt] *n* yopishtirma, qoplama.

delivery van [dɪˈlɪvərɪvæn] *n* yuk tashuvchi arava.

dell [del] *n* o'rmonli (*serdaraxt*) vodiy.

Delphian [ˈdelfɪən] *a qad. grek.* 1) jumboqli, sirli; 2) tushunib bo'lmaydigan.

Delphic [ˈdelfɪk] = **Delphian.**

delphinium [delˈfɪnɪəm] *n bot.* delfinium.

delta [ˈdeltə] *n* 1) *geog.* delta (*daryoning tarmoqlanib qo'lga yoki dengizga quyiladigan joyi*); 2) delta (*grek alifbosining to'rtinchi harfi*).

deltaic [delˈteɪɪk] *a* delta yasovchi.

deltoid [ˈdeltɔɪd] *a* uchburchakli, delta shaklidagi.

delude [dɪˈluːd] *v* aldamoq, firib bermoq.

deluge [ˈdeljuːdʒ] **1.** *n* toshqin; **2.** *v* suv bosmoq; suv bostirmoq.

delusion [dɪˈluːʒn] *n* adashtirish, yanglishtirish, chalg'itish.

delusive [dɪˈluːsɪv] *a* yolg'ondan iborat bo'lgan, yanglishtiradigan, chalg'itadigan, aldovchi; **~ hopes** ushalmaydigan orzular.

delusory [dɪˈluːsərɪ] = **delusive.**

de luxe [dəˈlʌks] *a* dabdabali, hashamatli, ziynatli, yasatilgan, bezatilgan, dang'illama, muhtasham, serhasham.

delve [delv] *v esk.* kovlamoq, qazimoq, qazib chuqurlashtirmoq.

demagnetization [ˌdiːmægnətaɪˈzeɪʃn] *n* magnitsizlantirish, magnitlik xususiyatini yo'qotish.

demagnetize [diːˈmægnətaɪz] *v* magnitsizlantirmoq, magnitlik xususiyatini yo'qotmoq.

demagog [ˈdeməgɔg] = **demagogue.**

demagogic [ˌdeməˈgɔgɪk] *a* demagogiyadan (safsatabozlikdan) iborat bo'lgan.

demagogue [ˈdeməgɔg] *n* demagog, safsataboz.

demagogy [ˈdeməgɔgɪ] *n* laqillatish, safsataboz-lik, quruq gap.

demand [dɪˈmɑːnd] **1.** *n* ehtiyoj, talab, zarurat; **2.** *v* talab qilmoq, qattiq turib so'ramoq.

demandant [dɪˈmɑːndənt] *n yur.* da'vogar, haq talab qiluvchi.

demanding [dɪˈmɑːndɪŋ] *a* talabchan.

demarcate [ˈdiːmɑːkeɪt] *v* 1) chegaralamoq, ajratmoq; 2) demarkatsiya chizig'i o'tkazmoq.

demarcation [ˌdiːmɑːˈkeɪʃn] *n* chegaralash, chegarasini belgilash; boshqalardan ajratish.

démarche [ˈdeɪmɑːʃ] *n fr dipl.* demarsh, namoyishkorona diplomatik harakat, murojaat.

demean [dɪˈmiːn] *v* 1) o'zini tutmoq; 2) kamsitmoq, yerga urmoq, xo'rlamoq; **to ~ oneself** o'zini munosib tutmoq.

demeanour [dɪˈmiːnə] *n* axloq, fe'l-atvor, muomala, yurishturish.

dement [dɪˈment] *v* aqldan ozmoq.

demented [dɪˈmentɪd] **1.** *p. p.* **dement** *dan*; **2.** *a* aqldan ozgan, jinni, savdoyi, telba, devona; **to become ~** aqldan ozmoq.

dementia [dɪˈmenʃə] *n tib.* aqli kamlik, aqli pastlik.

demerit [dɪˈmerɪt] *n* 1) nuqson, illat, ayb, kamchilik; 2) yetishmaslik, kamlik, tanqislik; 3) muhtojlik, kambag'allik.

demeritorious [ˌdiːmerɪˈtɔːrɪəs] *a* tanbehga loyiq.

demi- [ˈdemɪ-] *pref.* yarimtasi, yarmi.

demigod [ˈdemɪgɔd] *n* yarmi xudo.

demijohn [ˈdemɪdʒɔn] *n* katta to'qib o'rilgan idish.

demilitarization [ˈdiːˌmɪlɪtəraɪˈzeɪʃn] *n* qurolsizlantirish, qurolli kuch va harbiy sanoatdan mahrum etish.

demilitarize [diːˈmɪlɪtəraɪz] *v* demilitarizatsiyalashtirmoq.

demilune [ˈdemɪljuːn] *n es.* yarimoy.

demi-monde [ˌdemɪˈmɔnd] *n fr.* yarimchiroq.

demi-rep [ˈdemɪrep] *n* yomon xulqli ayol.

demisable [dɪˈmaɪzəbl] *a* meros sifatida qoldirsa bo'ladigan (*mulk haqida*).

demise [dɪˈmaɪz] *n* 1) o'lim, vafo, qazo; 2) mulkni meros sifatida qoldirish; 3) mulkni ijaraga berish.

demission [dɪˈmɪʃn] *n* ishdan bo'shash, iste'foga chiqish.

demiurge [ˈdiːmɪɜːdʒ] *n din.* yaratuvchi, egam, parvardigor.

demobee [ˌdiːməˈbiː] *n* demobilizatsiya qilingan shaxs.

demobilization [dɪˌməʊbəlaɪˈzeɪʃn] *n* demobilizatsiya.

demobilize [dɪˈməʊbɪlaɪz] *n* demobilizatsiya qilinmoq.

democracy [dɪˈmɔkrəsɪ] *n* demokratiya, xalq-parvarlik.
democrat [ˈdeməkræt] *n* demokrat.
democratic [ˌdeməˈkrætɪk] *a* demokratiyaga asoslangan; demokratik.
democratization [dɪˌmɔkrətaɪˈzeɪʃn] *n* demokratlashtirmoq, demokratlashish.
democratize [dɪˈmɔkrətaɪz] *v* demokratlashtirmoq, demokratik asosda qayta qurmoq.
démodé [deɪˈməudeɪ] *a fr.* eskirgan, modadan qolgan.
demographic [ˌdemɔˈgræfɪk] *a* demografiyaga oid.
demography [dɪˈmɔgrəfɪ] *n* demografiya, aholishunoslik.
demoiselle [ˌdemwɑːˈzel] *n fr.* 1) qiz bola; 2) go'zal turna.
demolish [dɪˈmɔlɪʃ] *v* parchalamoq, buzmoq; yemirmoq; **~ed** yemirilgan.
demolition [ˌdemɔˈlɪʃn] *n* buzish, yo'q qilib tashlash, qirilib ketish.
demon [ˈdiːmən] *n* jin, ajina.
demonetize [diːˈmʌnɪtaɪz] *v* o'z qiymatini yo'qotmoq (*tangaga nisbatan*).
demoniac [dɪˈməunɪæk] = **demoniacal.**
demoniacal [ˌdɪməuˈnaɪək] *a* 1) iblisga (*shaytonga*) oid, iblisona; 2) johil, iblis.
demonic [dɪˈmɔnɪk] *a* iblisga (*shaytonga*) oid; iblisona.
demonstrable [dɪˈmɔnstrəbl] *a* isbotlanishi mumkin bo'lgan, isbot qilib bo'ladigan.
demonstrate [ˈdemənstreɪt] *v* ko'rsatmoq, namoyish qilmoq.
demonstration [ˌdemənˈstreɪʃn] *n* namoyish, ko'rsatish.
demonstrationist [ˌdemənˈstreɪʃnɪst] = **demonstrator.**
demonstrative [dɪˈmɔnstrətɪv] *n* **1.** *a* namoyish etilayotgan, ko'rsatilayotgan; **2** *gram.* **~ pronouns** ko'rsatish olmoshlari.
demonstrator [ˈdemənstreɪtə] *n* namoyishchi, namoyish qiluvchi (ko'rsatuvchi).
demoralization [dɪˌmɔrəlaɪˈzeɪʃn] *n* intizomning, jangovar ruhning yo'qolishi, tushkunlik kayfiyati; 2) maishiy buzulish, buzuqlik, razolat.
demoralize [dɪˈmɔrəlaɪz] *v* tushkunlikka solmoq, buzmoq.
Demos [ˈdiːmɔs] *n qad. rim.* xalq.
demote [ˌdiːˈməut] *v amer.* (*mansabini*) pasaytirmoq.
demotic [dɪˈmɔtɪk] *a* xalqqa (oid) mansub; ommaviy.
demount [dɪˈmaunt] *v* qismlarga (bo'laklarga) ajratmoq.
demountable [dɪˈmauntəbl] *a* qismlarga ajraladigan va qayta yig'ib qo'yiladigan, yig'ma.
demulcent [dɪˈmʌlsənt] **1.** *n tib.* tinchlantiradigan dori; **2.** *a* tinchlantiradigan, og'riqni pasaytiradigan.
demur [dɪˈmɜː] *v* e'tiroz (*qarshi fikr*) bildirmoq, qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq; so'z qaytarmoq.
demure [dɪˈmjuə] *a* kamtar, kamsuqum, oddiy, sipo; kamtarin.
demurrage [dɪˈmʌrɪdʒ] *n* bekor turish, bekor to'xtab turish (*kema, vagon*).
demurrer I [dɪˈmɜːrə] *n* shubhalanadigan, gumonsiraydigan, ikkilanadigan kishi.
demurrer II [dɪˈmʌrə] *n yur.* e'tiroz, qarshilik.
demy [dɪˈmaɪ] *n* qog'ozning formati.
den [den] *n* 1) ayiq ini; 2) uy, kulba.
denarius [dɪˈneərɪəs] *n* dinariy (*Qadimgi Rim tangasi*).
denary [ˈdiːnərɪ] *a* o'nlik, o'ntalab sanaladigan.
denatured [diːˈneɪtʃəd] *a* aynitilgan (*ichib, iste'mol qilib bo'lmaydigan holga keltirilgan*).
denatured alcohol [diˌneɪtʃədˈælkəhɔl] *n* denaturat (*denaturatsiya qilingan, aynitilgan spirt*).
denazification [diːˌnɑːtsɪfɪˈkeɪʃn] *n* fashizmni yo'qotish.
denazify [diːˈnɑːtsɪfaɪ] *v* denatsifikatsiya qilmoq.
dendriform [ˈdendrɪfɔːm] *a* daraxtga o'xshagan, daraxtsimon, daraxt shaklidagi.
dendritic [denˈdrɪtɪk] *a* daraxtga o'xshash.
dendroid(al) [ˈdendrɔɪd(əl)] = **dendritic.**
dendrology [denˈdrɔlədʒɪ] *n* dendrologiya (*botanikaning daraxt va butalar haqidagi bo'limi*).
dene [diːn] *n* 1) vodiy, uva; 2) qirg'oq bo'yidagi qumlar.
deniable [dɪˈnaɪəbl] *a* janjalli, munozarali, talash.
denial [dɪˈnaɪəl] *n* rad, inkor, salbiy javob.
denigrate [ˈdenɪgreɪt] *v* 1) qoraytirmoq, qoraga bo'yamoq; 2) yomonlamoq, qoralamoq, yomonga chiqarmoq, sharmanda qilmoq; 3) badnom qilmoq, obro'sini to'kmoq; yomon otliq qilmoq.
denigration [ˌdenɪˈgreɪʃn] *n* tuhmat, bo'hton, uydirma, g'iybat.
denim [ˈdenɪm] *n* dag'al ip gazlama.
denizen [ˈdenɪzn] **1.** *n* 1) iqlimga moslashtirilgan o'simlik yoki hayvon; 2) istiqomat qiluvchi, yashovchi, turuvchi; **2.** *v* fuqarolikka qabul qilmoq.
denominate [dɪˈnɔmɪneɪt] *v* 1) nomlamoq, atamoq, ot qo'ymoq; 2) aniqlamoq, ayon qilmoq, ko'rsatmoq.
denomination [dɪˌnɔmɪˈneɪʃn] *n* 1) nom, ot, ism; 2) din, e'tiqod, mazhab.
denominator [dɪˈnɔmɪneɪtə] *n mat.* 1) maxraj; 2) bo'luvchi.
denotation [ˌdiːnəuˈteɪʃn] *n* 1) belgilash, belgi qo'yish; 2) belgi qo'yib ko'rsatish, 3) alomat, belgi.
denotative [dɪˈnəutətɪv] *a* bildiradigan, anglatadigan.
denote [dɪˈnəut] *v* bildirmoq, ma'no anglatmoq, ma'no bermoq.
denotement [dɪˈnəutmənt] *n* belgi, alomat, ishora.
dénouement [deɪˈnuːmɔŋ] *n fr.* yechim, oqibat, yakun, pirovardi, oxiri (*roman haqida*).

denounce [dɪˈnauns] *v* 1) (*aybni*) fosh qilmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; 2) ayblamoq, qoralamoq, yomonlamoq, ta'na qilmoq.

dense [dens] *a* zich, tig'iz, qalin.

densely [ˈdenslɪ] *adv* zich, tig'iz; qalin, zich (qalin) qilib; **a ~ populated area** aholisi zich joylashgan joy.

densimeter [denˈsɪmɪtə] *n fiz.* arcometr (*suyuqlikning zichligini, solishtirma og'irligini o'lchaydigan asbob*).

density [ˈdensətɪ] *n* qalinlik, zichlik, tig'izlik.

dent [dent] *n* 1) chuqur, o'yilgan joy; 2) *tex.* tish, tishcha; **~ed** tishli.

dental [ˈdentl] *a* tishga oid; tish ..

dentate [ˈdenteɪt] *a* tishli.

denticle [ˈdentɪkl] *n* kichkina (mayda) tish, tishcha.

denticular [denˈtɪkjulə] = **denticulate.**

denticulate, denticulated [denˈtɪkjulət, -eɪd] *a* o'tmaslashgan, dami qaytgan, o'tmaslangan.

dentifrice [ˈdentɪfrɪs] *n* tish kukuni (*pastasi*).

dentist [ˈdentɪst] *n* tish doktori.

dentistry [ˈdentɪstrɪ] *n* 1) tishlarni davolash; 2) tish doktorligi kasbi.

denuclearization [dɪˌnjuːklɪəraɪˈzeɪʃn] *n* yadro qurolidan xalos qilish mintaqasini yaratish.

denuclearized [dɪˈnjuːklɪəraɪzd] *n* yadro qurolidan xalos etilgan; **~ zone** yadro qurolidan xalos etilgan mintaqa.

denude [dɪˈnjuːd] *v* yalang'ochlamoq, ochmoq, ochib tashlamoq.

denunciation [dɪˌnʌnsɪˈeɪʃn] *n* chaqimchilik, aybni fosh qilish, oshkor qilish, ochib tashlash.

denunciative [dɪˈnʌnsɪətɪv] *a* ayblash bilan bog'liq bo'lgan, ayblaydigan.

denunciator [dɪˈnʌnsɪeɪtə] *n* ayblovchi, qoralovchi, tanqid qiluvchi.

deny [dɪˈnaɪ] *v* inkor qilmoq, tonmoq, rad qilmoq.

deodorant [dɪˈəudərənt] **1.** *n* dezodorator (*badbo'y hidni yo'qotadigan qurilma yoki modda*); **2.** *a* badbo'y hidni yo'q qiluvchi.

deodorize [dɪˈəudəraɪz] *v* badbo'y hidni yo'q qilmoq.

deontology [ˌdiːɔnˈtɔlədʒɪ] *n* etika (*axloq haqidagi filosofik ta'limot*).

depart [dɪˈpɑːt] *v* jo'namoq, jo'nab ketmoq.

departed [dɪˈpɑːtɪd] *a* marhum, rahmatli.

department [dɪˈpɑːtmənt] *n* bo'lim, sho'ba, muassasa, idora.

departmental [ˌdiːpɑːtˈmentl] *a* biror korxonaga qarashli; biror korxona ixtiyoridagi.

departmentalism [ˌdiːpɑːtˈmentəlɪzm] *n* rasmiyatchilik, qog'ozbozlik.

departure [dɪˈpɑːtʃə] *n* jo'nash, jo'nab ketish.

depend [dɪˈpend] *v* bog'liq, qaram bo'lmoq; **~ant** tobe, qaram.

dependence [dɪˈpendəns] *n* qaramlik, bog'liq, tobelik.

dependency [dɪˈpendənsɪ] = **dependence**.

dependent [dɪˈpendənt] *a* qaram, tobe.

depict [dɪˈpɪkt] *v* tasvirlamoq; **~ed** tasvirlangan.

deplete [dɪˈpliːt] *v* ozdirib yubormoq, darmonini qurutmoq, holdan toydirmoq.

depletion [dɪˈpliːʃn] *n* 1) kamayish, ozayish; 2) yemirilish.

deplorable [dɪˈplɔːrəbl] *a* 1) mungli, hazin; 2) o'ta achinarli, ayanchli.

deplorably [dɪˈplɔːrəblɪ] *adv* 1) ma'yus, xafa (g'amgin) ravishda; 2) afsus, attang.

deplore [dɪˈplɔː] *v* o'ksinmoq.

deploy [dɪˈplɔɪ] *v harb.* jangovar holga keltirmoq.

deployment [dɪˈplɔɪmənt] *n* kengaytirish, avj oldirish, kuchaytirish.

deponent [dɪˈpəunənt] *n* 1) *yur.* guvoh, shohid; 2) deponent; 3) puli depozitga o'tkazilgan kishi.

depopulate [diːˈpɔpjuleɪt] *v* odamsiz qoldirmoq; huvillatib qo'ymoq.

deport [dɪˈpɔːt] *v* surgun qilmoq.

deportation [ˌdiːpɔːˈteɪʃən] *n* surgun.

deportment [dɪˈpɔːtmənt] *n* axloq, xulq, muomala, yurish-turish.

depose [dɪˈpəuz] *v* ag'darmoq, yiqitmoq, tushirmoq, ag'darib tashlamoq.

deposit [dɪˈpɔzɪt] **1.** *n* zakalat; garovga qo'yilgan pul; **~or** pul qo'ygan kishi; **2.** *v* garovga pul bermoq.

depositary [dɪˈpɔzɪtərɪ] *n* ishonchli odam.

deposition [ˌdepəˈzɪʃn] *n* mansabdan tushirish.

depository [dɪˈpɔzɪtərɪ] *n* ombor, omborxona.

depot [ˈdepəu] *n* 1) ombor, omborxona; 2) *harb.* o'quv bo'limi; 3) *amer.* temir yo'l stansiyasi.

deprave [dɪˈpreɪv] *v* 1) jinsiy buzuqlikka (fohishabozlikka) o'rgatmoq; 2) axloqni buzmoq, axloqsizlikka o'rgatmoq, yo'ldan ozdirmoq.

depravity [dɪˈprævətɪ] *n* axloqsizlik, odobsizlik, buzuqlik.

deprecate [ˈdeprəkeɪt] *v* e'tiroz bildirmoq, qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq.

depreciate [dɪˈpriːʃɪeɪt] *v* kamsitmoq, xor (bequadr) qilmoq.

depredation [ˌdeprəˈdeɪʃn] *n* bosqinchilik, o'g'rilik.

depress [dɪˈpres] *v* kuch bilan bosmoq, bosib qo'ymoq, yanchib tashlamoq.

depressed [dɪˈprest] **1.** *p. p.* **depress** *dan*; **2.** *a* g'amgin, tushkunlikka tushgan.

depression [dɪˈpreʃn] *n* 1) ma'yuslik, g'amginlik; umidsizlik; 2) chuqurlik, jar.

deprivation [ˌdeprɪˈveɪʃn] *n* 1) mahrum qilish; 2) qo'ldan berish, ajralish, yo'qotish.

deprive [dɪˈpraɪv] *v* mahrum etmoq, judo qilmoq; **~d** benasib, mahrum bo'lgan.

depth [depθ] *n* 1) chuqurlik, teranlik; 2) tubanlik, razillik, pastlik.

depurate [ˈdepjureɪt] *v* tozalanmoq, soflanmoq, toza bo'lmoq.

deputation [ˌdepjuˈteɪʃn] *n* delegatlar, vakillar.
depute [dɪˈpjuːt] *v* (*kimgadir*) hokimiyatni topshirmoq.
deputize [ˈdepjutaɪz] *v* vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq.
deputy [ˈdepjutɪ] *n* 1) deputat, delegat; 2) o'rinbosar, muovin.
derail [diːˈreɪl] *v* halokatga uchramoq, izdan chiqmoq.
derange [dɪˈreɪndʒ] *v* 1) tartibsizlikka olib kelmoq; 2) aqldan ozdirmoq; **~d** miyasi aynigan, aqldan ozgan.
derelict [ˈderəlɪkt] *a* tashlandiq.
dereliction [ˌderɪˈlɪkʃən] *n* 1) tashlab qo'yish, qarovsiz qoldirish; 2) adashish, kamchilik, xato.
derestrict [ˌdiːrɪˈstrɪkt] *v* chegarani olib tashlamoq.
deride [dɪˈraɪd] *v* masxara qilmoq, ustidan kulmoq.
derision [dɪˈrɪʒn] *n* masxara qilish, ustidan kulish.
derisive [dɪˈraɪsɪv] = **derisory**.
derisory [dɪˈraɪsərɪ] *a* kulgili, istehzoli, maynabozlikdan iborat bo'lgan, kulgidan boshqaga arzimaydigan.
derivation [ˌderɪˈveɪʃn] *n* manba, kelib chiqish.
derivative [dɪˈrɪvətɪv] *a* yasama; **~ word** yasama so'z.
derive [dɪˈraɪv] *v* 1) sazovor (ega) bo'lmoq, olmoq, topmoq; 2) ko'rmoq; chiqarmoq; 3) hosil qilmoq, ajratib olmoq.
derm(a) [ˈdɜːm(ə)] *n anat.* teri, po'st.
dermal [ˈdɜːml] *a anat.* teriga oid, teri.
dermatic [dɜːˈmætɪk] = **dermal**.
dermatitis [ˌdɜːməˈtaɪtɪs] *n tib.* dermatit (*terining yallig'lanishi*).
dermatologist [ˌdɜːməˈtɔlədʒɪst] *n* dermatolog, dermatologiya mutaxassisi, teri kasalliklari shifokori.
dermatology [ˌdɜːməˈtɔlədʒɪ] *n* dermatologiya (*tibbiyotning teri va teri kasalliklari haqidagi bo'limi*).
dermis [ˈdɜːmɪs] = **derm(a)**.
dernier [ˈdɜːnɪə] *a fr.* oxirgi, keyingi, so'nggi.
derogate [ˈderəgeɪt] *v* 1) kamsitmoq; 2) kamsitilmoq; 3) qoidaga xilof ish qilmoq.
derogation [ˌderəˈgeɪʃn] *n* 1) kamaytirish, pasaytirish, bo'shashtirish; 2) kamsitish, yerga urish.
derogatory [dɪˈrɔgətərɪ] *a* haqoratomuz, kamsitadigan, obro'yini to'kadigan, yerga uradigan.
derrick [ˈderɪk] *n* 1) burg'ilash minorasi; 2) jo'mrak.
desalt [dɪˈsɔːlt] *v* chuchuk qilmoq, sho'rini tozalamoq, tuzsizlantirmoq.
descant 1. *n* [ˈdeskænt] diskant (*holalarga xos baland ingichka ovoz va shunday ovozli ashulachi*); 2. *v* [dɪˈskænt] fikr qilmoq, mulohaza qilmoq, o'ylamoq.
descend [dɪˈsend] *v* tushmoq.
descendant [dɪˈsendənt] *n* avlod, zurriyot.
descent [dɪˈsent] *n* 1) qiyalik; 2) sulola.
describe [dɪˈskraɪb] *v* tasvirlamoq; ta'riflamoq; **~d** yoritilgan.
description [dɪˈskrɪpʃn] *n* tavsifnoma; ta'rif.
descriptive [dɪˈskrɪptɪv] *a* tasvirlovchi.
descry [dɪˈskraɪ] *v* 1) ko'rmoq, ko'rib qolmoq, ko'zi tushmoq; 2) payqamoq, fahmlamoq, e'tibor bermoq.
desecrate [ˈdesɪkreɪt] *v* harom qilmoq, bulg'amoq; 2) masxaralamoq, xo'rlamoq.
desert 1. *n* [ˈdezət] sahro, dasht, cho'l, biyobon; 2. *a* [ˈdezət] odam yashamaydigan; cho'lga o'xshagan; 3. *v* [dɪˈzɜːt] tashlab ketmoq, qochib ketmoq; **~ed** tashlandiq; **~ion** darbadarlik.
deserter [dɪˈzɜːtə] *n* qochoq.
deserve [dɪˈzɜːv] *v* 1) ... ga munosib (... ga loyiq) bo'lmoq; 2) sazovor bo'lmoq.
deserved [dɪˈzɜːvd] *a* 1) arziydigan, loyiq; 2) mehnat qilib erishilgan.
deservedly [dɪˈzɜːvɪdlɪ] *adv* xizmatiga yarasha, qilmishiga yarasha.
deserving [dɪˈzɜːvɪŋ] *a* arzirli, arziydigan, loyiq, munosib, sazovor.
desiccate [ˈdesɪkeɪt] *v* quritmoq, qoq quritmoq.
desiderata [dɪˌzɪdəˈrɑːtə] *pl* **desideratum** *dan.*
desideratum [dɪˌzɪdəˈrɑːtəm] *v* kamlik (ozlik) qilmoq.
design [dɪˈzaɪn] 1. *n* niyat; loyiha; reja; 2. *v* 1) reja tuzmoq; niyat qilmoq; 2) xizmatga tayinlamoq.
designate [ˈdezɪgneɪt] *v* 1) aniqlamoq, belgilamoq, tonmoq, aniq qilmoq; 2) tayinlamoq (*lavozimga, ishga*); **~d** tayinlangan, belgilangan.
designation [ˌdezɪgˈneɪʃn] *n* 1) belgi, alomat, ishora; 2) ko'rsatma, yo'l-yo'riq; 3) (*lavozim, ishga*) tayinlash.
designedly [dɪˈzaɪnɪdlɪ] *adv* ataylin, ataylab, jo'rttaga, qasddan.
designer [dɪˈzaɪnə] *n* mashina, inshoot va sh.k.ning loyihasini tuzuvchi mutaxassis.
designing [dɪˈzaɪnɪŋ] 1. *pres. p.* **design** 2 *dan*; 2. *n* loyihalash, loyiha tuzish, loyihalashtirish.
desirable [dɪˈzaɪərəbl] *a* istalgan, tilangan, matlub, ma'qul, kerak.
desire [dɪˈzaɪə] 1. *n* xohish, istak, orzu, havas; 2. *v* xohlamoq, istamoq.
desirous [dɪˈzaɪərəs] *a* xohlovchi, istovchi; **to be ~ to succeed** muvaffaqiyatga harakat qilmoq.
desist [dɪˈzɪst] *v* 1) o'zini tiymoq, o'zini tutmoq, sabr-qanoat qilmoq; 2) hetaraf qolmoq, xolis turmoq (*ovoz berishda*).
desk [desk] *n* parta, yozuv stoli.
desman [ˈdesmən] *n zool.* 1) suv kalamushi; 2) suv kalamushi mo'ynasi.
desolate 1. *a* [ˈdesəlɪt] tashlandiq, qarovsiz qolgan, xaroba; 2. *v* [ˈdesəleɪt] xarob qilmoq, vayron qilmoq.

desolation [ˌdesəˈleɪʃn] *n* xarob bo'lish, xonavayron bo'lish (qilish).

despair [dɪˈspeə] **1.** *n* noumidlik, ma'yuslik, umidsizlik; **2.** *v* umidsizlanmoq; ma'yus bo'lmoq.

despatch [dɪˈspætʃ] = **dispatch**.

desperate [ˈdespərət] *v* umidsiz, noumid, ma'yus, ishonchsiz.

desperately [ˈdespərətlɪ] *adv* o'ylamay, mulohaza qilib ko'rmay; tentaklarcha.

desperation [ˌdespəˈreɪʃn] *n* 1) aqldan ozganlik, jinnilik; 2) o'ylamay ish qilish, bemulohazalik.

despicable [deˈspɪkəbl] *a* jirkanch, razil.

despise [dɪˈspaɪz] *v* nafratlanmoq, jirkanmoq, hazar qilmoq.

despite [dɪˈspaɪt] *pron.* -ga qaramay.

despiteful [dɪˈspaɪtful] *a* yomon, yovuz, serjahl, badjahl, g'azablangan.

despoil [dɪˈspɔɪl] *v* talamoq, talon-taroj qilmoq.

despoilment [dɪˈspɔɪlmənt] *n* bosqinchilik, o'g'rilik, talonchilik.

despoliation [dɪˌspəʊlɪˈeɪʃn] = **despoilment.**

despond [dɪˈspɔnd] *v* ruhi tushmoq, umidsizlanmoq, ishonchini yo'qotmoq.

despondency [dɪˈspɔndənsɪ] *n* ruhiy tushkunlik, chorasizlik, mushkul ahvol.

despondent [dɪˈspɔndənt] *a* ma'yus, g'amgin, umidsiz.

despot [ˈdespɔt] *n* zolim, shaddod, zulmkor.

despotic [deˈspɔtɪk] *a* zulmkor, zolim, zulmi o'tkir.

despotism [ˈdespəˌtɪzm] *n* zolimlik, zulmkorlik, zulmini o'tkazish, qattiq zulm qilish.

desquamate [ˈdeskwəmeɪt] *v tib.* shilinmoq, archilmoq, po'st tashlamoq.

dessert [dɪˈzɜːt] *n* desert (*ovqatdan keyin yeyiladigan meva, shirinlik*).

destination [ˌdestɪˈneɪʃn] *n* belgilangan joy, manzil.

destine [ˈdestɪn] *v* atamoq, mo'ljallamoq, belgilab (atab) qo'ymoq.

destined [ˈdestɪnd] *a* mo'ljallanganlik, atalganlik.

destiny [ˈdestənɪ] *n* taqdir, qismat.

destitute [ˈdestɪtjuːt] **1.** *a* muhtoj, qashshoq, nochor; **2.** *n* kambag'al odam, qashshoq, bechora.

destitution [ˌdestɪˈtjuːʃn] *n* yetishmovchilik, muhtojlik, kambag'allik, qashshoqlik, bechoralik, nochorlik.

destroy [dɪˈstrɔɪ] *v* buzmoq, vayron qilmoq; **~ed** buzilgan.

destroyer [dɪˈstrɔɪə] *n* vayron qiluvchi, buzuvchi, xarob qiluvchi, xarobaga aylantirmoq.

destruction [dɪˈstrʌkʃn] *n* 1) vayrona; 2) xaroblik.

destructive [dɪˈstrʌktɪv] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli; **~ to health** sog'lik uchun zararli.

desultory [ˈdesltərɪ] *a* bog'lanmagan, tartibsiz, yopishmagan, bog'lanishsiz, poyma-poy.

detach [dɪˈtætʃ] *v* 1) chegaralamoq, ajratmoq, ajratib turmoq; 2) komandirovka qilmoq, boshqa joyga (*o'qishga va h.k.*) jo'natmoq.

detachable [dɪˈtætʃəbl] *a* olinadigan, olib qo'yiladigan, chiqadigan.

detached [dɪˈtætʃt] *a* alohida, bo'lak, mustaqil; **~ house** alohida uy.

detachment [dɪˈtætʃmənt] *n* 1) alohidalik, yakkalik, xolislik, ayrimlik; 2) guruh, bo'lim.

detail [ˈdiːteɪl] **1.** *n* mukammallik; tafsilot; **2.** *v* mukammal (*mayda-chuydasigacha*) bayon etmoq; **~ed** batafsil; **~s** tafsilot.

detailed [ˈdiːteɪld] *a* to'la, batafsil, mufassal, mukammal.

detain [dɪˈteɪn] *v* 1) kechiktirmoq; ushlab turmoq; kutishga majbur etmoq; **~ed** kechiktirilgan; 2) qamamoq.

detect [dɪˈtekt] *v* ochmoq, fosh etmoq, kashf etmoq.

detection [dɪˈtekʃn] *n* ochish, kashf etish, ixtiro.

detective [dɪˈtektɪv] **1.** *a* qidiruv, detektiv, maxfiy; **2.** *n* maxfiy agent.

detent [dɪˈtent] *n tex.* lo'kidon, suzilma zanjir.

detente [deˈtɔ:ŋt] *fr. n* keskinlikni yumshatish (*asosan, davlatlar o'rtasidagi*).

detention [dɪˈtenʃn] *n* 1) qo'lga (tushirish) olish; 2) qamoqqa olish.

detenu [ˌdetəˈnjuː] *fr. n* hibsga olingan kishi; mahbus.

deter [dɪˈtɜː] *v* aynitmoq, biror ishdan qaytarmoq.

detergent [dɪˈtɜːdʒənt] *a* yuvish vositalari (*poroshok, kukun va sh.k.*).

deteriorate [dɪˈtɪərɪəreɪt] *v* yomonlashmoq, og'irlashmoq, yomonlashib ketmoq.

deteriorating [dɪˈtɪərɪeɪtɪŋ] *n* 1) yomonlashib borayotgan (*xususan siyosiy*) ahvol; 2) buzilish, aynish, ishdan chiqish.

deterioration [dɪˌtɪərɪəˈreɪʃn] *n* yomonlashtirish, mushkullashtirish, og'irlashtirish, battar qilish.

determinant [dɪˈtɜːmɪnənt] *a* hal qiluvchi, asosiy, eng muhim.

determinate [dɪˈtɜːmɪnɪt] *a* aniq, ma'lum, muayyan, tayin.

determination [dɪˌtɜːmɪˈneɪʃən] *n* 1) aniqlash; 2) iroda, qat'iylik, qat'iy ishonch.

determinative [dɪˈtɜːmɪnətɪv] *a* hal qiluvchi, eng muhim, asosiy.

determine [dɪˈtɜːmɪn] *v* aniqlamoq, belgilamoq.

determined [dɪˈtɜːmɪnd] **1.** *p. p.* **determine** *dan*; **2.** *a* qasd qilingan.

determinism [dɪˈtɜːmənɪzm] *n* determinism (*narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi ta'limot*).

deterrent [dɪˈterənt] *n* qo'rqitish vositasi.

detersive [dɪˈtɜːsɪv] = **detergent.**

detest [dɪˈtest] *v* nafratlanmoq.

detestable [dɪˈtestəbl] *a* jirkantiradigan, nafratini qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz.

dethrone [dɪˈθraun] *v* 1) (*yuqoridan*) tashlamoq, tashlab yubormoq; 2) yiqitmoq, ag'darmoq, taxtdan tushirmoq.

detonate [ˈdetəneɪt] *v* portlatmoq, portlatib yubormoq.
detonation [ˌdetəˈneɪʃn] *n* juda tez portlash, yonish.
detonator [ˈdetəneɪtə] *n* portlatgich modda.
detour [ˈdi:tuə] *n* aylanma yo'l.
detract [dɪˈtrækt] *v* 1) kichraytirmoq, ozaytirmoq, qisqartirmoq, kamaytirmoq; 2) kamsitmoq, yerga urmoq.
detraction [dɪˈtrækʃn] *n* kamaytirish, pasaytirish.
detractory [dɪˈtræktərɪ] = **detractive**.
detrain [ˌdiːˈtreɪn] *v* poyezddan tushirib qo'ymoq (*yoki tushirib yubormoq*).
detriment [ˈdetrɪmənt] *n* zarar, ziyon.
detrimental [ˌdetrɪˈmentl] *n* zarar, shikast, zararli, ziyonli.
detrition [dɪˈtrɪʃn] *n* artish, o'chirish, yo'qotish, yo'q qilish.
detritus [dɪˈtraɪtəs] *n* detrit (*chechak emi, chechakga qarshi emlanadigan dori-darmon*).
de trop [dəˈtrəu] *n* ortiqcha, keragidan ortiq, kerak bo'lmagan.
detrude [dɪˈtruːd] *v* tashlamoq, otmoq, irg'itmoq.
detruncate [diːˈtrʌŋkeɪt] *v* qirqmoq, kesmoq, qirqib olmoq, butamoq.
deuce [djuːs] *n* 1) ikkilik, ikkitalik (*kartada*); 2) shayton, iblis (*diniy tasavvurda*); 3) ikkiyuzlamachi.
devaluation [ˌdiːvælju'eɪʃn] *n* devalvatsiya (*nuomaladagi qadrsizlangan qog'oz pullarini bekor qilish yoki qiymatini tushirish*).
devalue [ˌdiːˈvælju:] *v* qadr-qimmatini tushirmoq, beqadr qilmoq.
devastate [ˈdevəsteɪt] *v* xarob qilmoq, vayron qilmoq.
devastated [ˈdevəsteɪtɪd] *a* vayron qilingan, xarob bo'lgan.
devastating [ˈdevəsteɪtɪŋ] 1. *pres. p.* **devastate** *dan*; 2. *a* 1) hayratlantiradigan, qayg'uga soladigan, tashvishlantiradigan; 2) vayron (xarob) qiladigan.
devastatingly [ˈdevəsteɪtɪŋlɪ] *adv* vayron (xarob) qilish.
devastation [ˌdevəsˈteɪʃn] *n* vayron qilish, xarob qilish.
develop [dɪˈveləp] *v* rivojlantirmoq, rivojlanmoq.
developed [dɪˈveləpt] *a* rivojlangan.
developer [dɪˈveləpə] *n* yakka tartibda imorat soluvchi (quruvchi) shaxs.
development [dɪˈveləpmənt] *n* taraqqiyot, rivojlanish.
deviate [ˈdi:vieɪt] *v* og'moq, engashmoq, qiyshaymoq, burilmoq, surilmoq.
deviation [ˌdi:vɪˈeɪʃn] *n* og'ish, chetga chiqish.
device [dɪˈvaɪs] *n* qurilma, mexanizm.
devil [ˈdevl] *n* shayton, iblis.
devildom [ˈdevldəm] *n* 1) mushkul ahvol; mushkulot; 2) shaytonlik.
devilish [ˈdevlɪʃ] *a* do'zaxga, jahannamga oid, do'zaxda bo'ladigan; **~ly** *adv* juda, rosa, o'ta, o'lguday, g'oya, chunon, benihoyat.
devil-may-care [ˌdevlmeɪˈkeə] *a* g'am-tashvishdan holi, betashvish, beg'am.
devilment [ˈdevlmənt] *n* sho'xlik, shumlik.
devilry [ˈdevlrɪ] = **devilment**
devil's darning-needle [ˌdevlzˈdɑ:nɪŋni:dl] *n amer.* ninachi, so'zanak.
devious [ˈdi:vɪəs] *a* egri-bugri ilon izi.
devise [dɪˈvaɪz] 1. *n yur.* vasiyat, vasiyatnoma; 2. *v* o'ylamoq; niyat qilmoq.
deviser [dɪˈvaɪzə] *n* ixtirochi; kashfiyotchi.
devoid [dɪˈvɔɪd] *a* erki (huquqi) o'zida bo'lmagan, biror narsadan mahrum.
devoir [ˈdevwɑ:] *n* 1) qarz, burch; 2) hurmat.
devolution [ˌdi:vəˈlu:ʃn] *n* 1) birovga yetkazish, topshirish, o'tkazish, berish; 2) *biol.* aynimoq, zoti (nasli) buzilmoq.
devolve [dɪˈvɔlv] *v* topshirmoq (*mansabni*).
Devonian [deˈvəunɪən] *a geol.* devon davri (*polenzoy erasining uchinchi davri*)ga oid.
devote [dɪˈvəut] *v* bag'ishlamoq.
devoted [dɪˈvəutɪd] *a* 1) bag'ishlangan; 2) fidoyi, sodiq.
devotee [ˌdevəu ˈti:] *n* ishqiboz, muxlis, ixlosmand; tarafdor.
devotion [dɪˈvəuʃn] *n* 1) fidoyilik, sodiqlik; 2) bag'ishlash.
devour [dɪˈvauə] *v* 1) yemoq, yeb qo'ymoq; 2) yamlamoq, komiga tortmoq; 3) qirmoq, qirib tashlamoq.
devout [dɪˈvaut] *a* izzat-hurmatni ifodalaydigan, hurmatli, izzatli, aziz, e'zozli.
dew [dju:] 1. *n* shudring, shabnam; 2. *v* sug'ormoq; ho'llamoq.
dewy [ˈdju:ɪ] *a* shudring bosgan, shabnam tushgan.
dexterity [dekˈsterətɪ] *n* chaqqonlik, epchillik, ildamlik.
dexterous [ˈdekstərəs] *a* tez, chaqqon, shaxdam.
dia- [ˈdaɪə-] *pref.* orasida, o'rtasida, oralig'ida, mobaynida; orqali, vositasida.
diabetes [ˌdaɪəˈbi:ti:z] *n tib.* diabet (*modda almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan va siydikning ko'payishi bilan kechadigan kasalliklar nomi*).
diabetic [ˌdaɪəˈbetɪk] *n* diabet kasaliga yo'liqqan kishi.
diabolic(al) [ˌdaɪəˈbɔlɪk(əl)] *a* iblisona, yovuz, makrli, makkorona.
diadem [ˈdaɪədem] *n* diadema (*1. toj; 2. tillaqosh*).
diagnose [ˈdaɪəgnəuz] *v* tashxis qo'ymoq.
diagnosis [ˌdaɪəgˈnəusɪs] *n* tashxiz, diagnoz.
diagnostic [ˌdaɪəgˈnɔstɪk] *a* tashxisga oid, diagnostik, diagnostika...
diagnostician [ˌdaɪəgnɔsˈtɪʃn] *n* kasalni aniqlovchi mutaxassis shifokor.

diagonal [daɪˈægnəl] **1.** *n mat.* diagonal; **2.** *a* diagonal yo'nalishidagi, diagonal orqali o'tgan, diagonal...

diagram [ˈdaɪəgræm] *n* diagramma.

dial [ˈdaɪəl] **1.** *n* 1) quyosh soati; 2) raqam terish diski (*telefonda*); **2.** *v* telefon raqamini termoq.

dialect [ˈdaɪəlekt] *n* dialekt, sheva.

dialectal [ˌdaɪəˈlektl] *a* shevaga oid, shevaga xos bo'lgan.

dialectical [ˌdaɪəˈlektɪkl] *a filos.* shevaga oid.

dialectics [ˌdaɪəˈlektɪks] *n* dialektika (*harakat va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi falsafiy ta'limot, harakat va rivojlanishning o'zi*).

dialectology [ˌdaɪəlekˈtɔlədʒɪ] *n* shevashunoslik.

dialogic [ˌdaɪəˈlɔdʒɪk] *a* dialogik, dialog (*so'zlashuv, suhbat*) tarzidagi.

dialogue [ˈdaɪəlɔg] *n* dialog, so'zlashuv, suhbat.

diameter [daɪˈæmɪtə] *n* diametr, ko'ndalang kesimi o'lchami.

diametric(al) [ˌdaɪəˈmetrɪk(əl)] *a* diametrda joylashgan, diametr orqali o'tgan, diametral.

diametrically [ˌdaɪəˈmetrɪklɪ] *adv* butunlay, tamoman, mutlaqo.

diamond [ˈdaɪəmənd] *n* olmos (*qimmatbaho asl tosh*).

diamond-fields [ˈdaɪəməndfi:ldz] *n pl* olmos konlari.

diapason [ˌdaɪəˈpeɪzn] *n* diapazon (*bilim, o'zgarish va sh. k. ko'lami, hajmi, doirasi*).

diaper [ˈdaɪəpə] **1.** *n* yo'rgak; **2.** *v* yo'rgaklamoq.

diaphanous [daɪˈæfənəs] *a* tiniq, shaffof.

diaphragm [ˈdaɪəfræm] *n anat.* diafragma (*ko'krag-qorsoq pardasi*).

diarchy [ˈdaɪɑ:kɪ] *n* qo'sh hokimiyatchilik.

diarize [ˈdaɪəraɪz] *v* kundalik (xotira) daftari tutmoq.

diarrhoea [ˌdaɪəˈrɪə] *n tib.* ich ketish, ichburug', dizenteriya.

diary [ˈdaɪərɪ] *n* kundalik (xotira) daftari.

diathermic [ˌdaɪəˈθɔ:mɪk] *n fiz.* diatermiyaga oid; diatermik.

diathermy [ˈdaɪəθɔ:mɪ] *n tib.* diatermiya (*yuqori chastotali tok bilan qizdirib davolash*).

diathesis [daɪˈæθəsɪs] *n tib.* diatez (*organizmning kasalga moyillik holati*).

diatomic [ˌdaɪəˈtɔmɪk] *a* ikki atomli, ikki atomdan iborat bo'lgan.

diatribe [ˈdaɪətraɪb] *n* fosh qilinadigan nutq.

dice [daɪs] **1.** *n* oshiq o'yini (*qimor*); **2.** *v* oshiq o'ynamoq (*qimor*).

dice-box [ˈdaɪsbɔks] *n* ichiga oshiqlarni solib o'ynatadigan piyola (*stakan*).

dicer [ˈdaɪsə] *n* oshiqboz.

dicey [ˈdaɪsɪ] *a so'zl.* 1) noaniq, tushunib bo'lmaydigan; 2) xavfli, xatarli, qaltis.

dichromatic [ˌdaɪkrəuˈmætɪk] *a* ikki rangli.

dickens [ˈdɪkɪnz] *n so'zl.* shayton, iblis.

dicky, dickey [ˈdɪkɪ] **1.** *n* 1) ko'ylakning qadama ko'krak qismi; 2) bolalar oshxo'ragi; **2.** *a* kuchsiz, bo'sh, nimjon, zaif, kasalmand.

dicotyledon [ˌdaɪkɔtɪˈli:dn] *n bot.* ikki pallali (*urug'i, doni ikki pallali*) o'simlik.

dicotyledonous [ˌdaɪkɔtɪˈli:dənəs] *a bot.* ikki pallali.

dicta [ˈdɪktə] *pl* **dictum** *dan.*

dictate [dɪkˈteɪt] *v* aytib turib yozdirmoq.

dictation [dɪkˈteɪʃn] *n* aytib turish; diktant.

dictator [dɪkˈteɪtə] *n* o'z so'zini o'tkazuvchi; yakka hokim.

dictatorial [ˌdɪktəˈtɔ:rɪəl] *a* yakka hokimiyatchilikka asoslangan.

dictatorship [dɪkˈteɪtəʃɪp] *n* diktatura, hokimiyat.

diction [ˈdɪkʃn] *n* fikrni bayon etish uslubi; so'z tanlash.

dictionary [ˈdɪkʃənrɪ] *n* lug'at.

dictum [ˈdɪktəm] *n* hikmatli so'z.

did [dɪd] *v past* **do** *dan.*

didactic [daɪˈdæktɪk] *a* didaktikaga oid; ta'lim tarbiyaviy.

didacticism [daɪˈdæktɪsɪzm] *n* nasihatgo'ylik, nasihatomuzlik.

diddle [ˈdɪdl] *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq.

dido [ˈdaɪdəu] *n amer. so'zl.* sho'xlik, hazilkashlik; hazil-huzul; **to cut ~es** ahmoqlik (tentaklik) qilmoq.

die [daɪ] *v* o'lmoq, vafot etmoq.

die-away [ˈdaɪəˌweɪ] *a* 1) majolsiz, toliqqan, horg'in; 2) zahmat chekkan.

die-hard [ˈdaɪhɑ:d] *n* 1) aqidaparast; 2) ahmoq, aqlsiz, qovoqbosh, kallavaram.

diesel [ˈdi:zl] *n* dizel yoqilg'isi.

Dies irae [ˌdi:eɪzˈɪəraɪ] *n lot.* qiyomat, qiyomat qoyim, mahshar kuni.

diet [ˈdaɪət] **1.** *n* 1) ovqat, oziq, taom; 2) parhez; **2.** *v* parhez qilmoq.

dietary [ˈdaɪətərɪ] **1.** *a* diyetik, parhezli; **2.** *n* ovqatlanish tartibi, parhez.

dietetic [ˌdaɪəˈtetɪk] *a* parhezli; parhezga oid.

dietitian [ˌdaɪəˈtɪʃn] *n* parhez bo'yicha mutaxasis shifokor.

differ [ˈdɪfə] *v* 1) ajralib turmoq, farq qilmoq; 2) ajratmoq.

difference [ˈdɪfrəns] *n* farq, tafovut.

different [ˈdɪfrənt] *a* turli, boshqa, bo'lak; o'zgacha; **~ly** turlicha.

differential [ˌdɪfəˈrenʃl] **1.** *a mat.* differensialga oid; **2.** *n* differensial (*o'zgaruvchan miqdorning cheksiz kichik orttirmasi*).

differentiate [ˌdɪfəˈrenʃɪeɪt] *v* turlamoq, ajratmoq.

differentiation [ˌdɪfərenʃɪˈeɪʃn] *n* farqlash, darajalash, tabaqalashtirish.

difficile [ˈdɪfɪsi:l] *a fr.* og'ir, vazmin.

difficult [ˈdɪfɪklt] *a* qiyin, murakkab, og'ir, mushkul.

difficulty [ˈdɪfɪkltɪ] *n* 1) qiyinchilik, mushkullik; **without ~** mushkulotsiz; 2) moddiy qiyinchilik.
diffident [ˈdɪfɪdənt] *a* 1) o'ziga ishonmaydigan; 2) uyatchan, tortinchoq, iboli.
diffuse [dɪˈfju:s] *a* 1) yoyilgan; 2) tarqoq (*nur va b.lar*).
diffused light [dɪˈfju:zdlaɪt] *n* tarqoq nur.
diffusion [dɪˈfju:ʒn] **1.** *v* kengaytirmoq, yerini (chegarasini) kengaytirib yubormoq; **2.** *n* diffuziya, shimilish, singish.
dig [dɪg] *v* kovlamoq, qazimoq.
digest 1. *n* [ˈdaɪdʒest] 1) qisqa izoh; 2) ma'lumotnoma; 3) (*materiallar*) to'plami; **2.** *v* [daɪˈdʒest] 1) hazm qilmoq (*ovqat haqida*); 2) o'zlashtirmoq, o'rganmoq; 3) chidamoq, toqat qilmoq.
digester [daɪˈdʒestə] *n* 1) ovqatni hazm qilishda yordam beradigan vosita; 2) zich yopiladigan idish; 3) *tex.* avtoklav (*narsalarni yuqori bosim ostida qizdirish uchun ishlatiladigan zich yopiladigan qopqoqli idish*).
digestibility [daɪˌdʒestəˈbɪlətɪ] *n* tez (*yaxshi*) hazm bo'lishlik.
digestible [daɪˈdʒestəbl] *a* yengil hazm bo'ladigan.
digestion [daɪˈdʒestʃən] *n* hazm qilish; ovqatni singdirish.
eudiometer [ˌjuːdɪˈɔmɪtə] *n kim.* evdiometr (*gazlarni analiz qilish uchun ishlatiladigan asbob*).

eugenic [juˈdʒenɪk] *a* yevgenikaga oid, yevgenika; (*yevgenika – odamlar naslining irsiy sog'lomligi va uni yaxshilash yo'llari haqidagi ta'limot*).

eugenics [juˈdʒenɪks] *n pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) yevgenika.

eulogist [ˈjuːlədʒɪst] *n* panegirik yozuvchi (*panegirik – maqtov tarzidagi*).

eulogistic(al) [ˌju:lə´dʒıstık(əl)] *a* maqtovga (*madh qilishga*) oid, maqtovdan iborat.
eulogize [´ju:lədʒaız] *v* maqtamoq, madh etmoq.
eulogy [´ju:lədʒı] *n* maqtov, tasanno, madh, hamd-u sano.
eunuch [´ju:nək] *n* bichilgan odam, haram og'asi.
euphemism [´ju:fəˌmızm] *n* evfemizm (*aytish noqulay bo'lgan so'z o'rnida ishlatiladigan pardali so'z yoki ibora*).
euphemistic(al) [ˌju:fə´mıstık(əl)] *a* evfemizmga oid; evfemistik, pardali.
euphonic(al) [ju:´fɔnık(əl)] *a* quloqqa yoqadigan, yoqimli, xushovoz, ohangdor.
euphonious [ju´fəunıəs] = **euphonic(al).**
euphony [´ju:fənı] *n* xushovozlik, xushohanglik, ohangdorlik, yoqimlilik.
euphoria [ju:´fɔ:rıə] *n tib.* eyforiya (*o'zidan o'zi xursand bo'lavеrishlik*); ko'tarinki kayfiyat.
eurodollar [´juərəuˌdɔlə] *n* Yevropa dollari.
European [ˌjuərə´pi:ən] **1.** *a* 1) Yevropa, Yevropaga oid; 2) yevropacha; **2.** *n* yevropalik.
euthanasia [ˌju:θə´neızıə] *n* 1) og'riqsiz, og'ritmaydigan, beozor; 2) *tib.* evtanaziya.
evacuate [ı´vækjueıt] *v* ko'chirmoq (*aholini*); ko'chirib ketmoq.
evacuation [ıˌvækju´eıʃn] *n* 1) xavfli joydan ko'chish; 2) *tex.* havoni haydash (*vakuum hosil qilish*).
evacuee [ıˌvækju´i:] *n* evakuatsiya qilingan, ko'chirilgan, ko'chib kelgan, ko'chirib keltirilgan.
evade [ı´veıd] *v* qochmoq, o'zini chetga olmoq; chap bermoq.
evaluate [ı´væljueıt] *v* 1) baholamoq, narx qo'ymoq; 2) hisoblamoq.
evaluation [ıˌvælju´eıʃn] *n* baholash, hisoblash, o'rganib chiqish.
evanescent [ˌevə´nesnt] *a* 1) qo'lmay uchib o'tuvchi, o'tkinchi; 2) bir lahzali, bir onli.
evangelical [ˌi:væn´dʒelıkl] *a* injilga oid; injil (*xristianlarning diniy kitobi*).
evaporate [ı´væpəreıt] *v* 1) bug'lamoq, bug'lab tozalamoq; 2) bug'ga aylanmoq.
evaporation [ıˌvæpə´reıʃn] *n* bug'lantirmoq, bug'ga aylantirmoq.
evaporative [ı´væpərətıv] *a* bug' hosil qiladigan.
evaporator [ı´væpəreıtə] *n tex.* bug'latgich.
evasion [ı´veıʒn] *n* og'ish, chetga chiqish; bosh tortish.
evasive [ı´veısıv] *a* gapni chalg'itadigan, to'g'ri javobdan qochadigan, noaniq, mujmal.
Eve [i:v] *n* 1) Momo Havo Odam atoning jufti; 2) ayol; **daughters of ~** ayollar.
eve [i:v] *n* arafa; **on the ~ of ...** ...ning arafasida.
even [´i:vən] **1.** *a* 1) to'g'ri, tekis; **~ development** tekis rivojlanish; 2) bir xil; 3) bir xil darajada; 4) to'g'ri so'z, sofdil; **2.** *v* tenglashtirmoq, to'g'rilamoq; **3.** *adv* hatto, hattoki.
evening [´i:vnıŋ] *n* 1) kechqurun, oqshom; **on Monday ~** dushanba oqshomida; 2) kunning ikkinchi yarmi; **good ~** kechki salom.
event [ı´vent] *n* 1) voqea, hodisa; **international ~** xalqaro voqea; 2) *sport.* musobaqa; **jumping ~** sakrash musobaqasi; 3) natija.
eventful [ı´ventfl] *a* voqealarga to'la, voqealarga boy.
eventide [´i:vntaıd] *n* tong yorishgan *yoki* qosh qoraygan payt.
eventual [ı´ventʃuəl] *a* 1) bo'lishi mumkin bo'lgan, amalga oshirsa bo'ladigan; ro'yobga chiqadigan; 2) eng so'nggi, oxirgi, yakuniy.
eventually [ı´ventʃuəlı] *adv* axir, vaqti kelib.
ever [´evə] *adv* 1) qachondir; **have you ~ been in the USA?** Siz biror marta AQSHda bo'lganmisiz? 2) har doim, abadiy; **Zulfiya will ~ be a great poet** Zulfiya har doim buyuk shoira bo'lib qoladi; 3) **~ so** juda (*nisbatan*) **this road is ~ so much shorter** bu yo'l anchagina qisqaroq; **for ~ and ~** abadul-abad; **for ~ and a day** har doim.
evergreen [´evəgri:n] *a* hamisha yashil, doim ko'm-ko'k.
everlasting [ˌevə´lɑ:stıŋ] **1.** *a* abadiy; **2.** *n* abadiylik.
evermore [ˌevə´mɔ:] *adv* umrbod, mangu.
every [´evrı] *a* har bir, har qanday **~ word** har bir so'z; **~ year** har yili; **~ one** har kim; **~ time** har vaqt.
everybody [´evrıbɔdı] *pron.* 1) har bir kishi; 2) hamma.
everyday [´evrıdeı] *a* har kungi, kundalik, odatiy.
everyone [´evrıwʌn] = **everybody.**
everyplace [´evrıpleıs] *adv* har (hamma) yerda, hamma joyda.
everything [´evrıθıŋ] *prep. indef.* hamma narsa, har narsa.
every way [´evrıweı] *adv* har sohada; turlicha.
everywhere [´evrıweə] *adv* har joyda, hamma yoqda.
evict [ı´vıkt] *v* majburan ko'chirmoq, ko'chishga majbur qilmoq.
eviction [ı´vıkʃn] *n* 1) ko'chirish, surgun, yangi rayonlarga ko'chirish; 2) mahrum bo'lish; 3) isbot.
evidence [´evıdəns] **1.** *n* 1) dalil, asos; **historical ~** tarixiy asos; 2) dalil, ashyo **oral and written ~** og'zaki va yozma dalillar; **2.** *v* 1) guvoh bo'lmoq; 2) tasdiqlamoq; 3) ko'rsatma bermoq.
evident [´evıdənt] *a* aniq, oydin, ravshan, ochiq-oydin ko'rinib turgan, ayon, oshkora.
evidential [ˌevı´denʃl] *a* asosli, dalil bo'la oladigan, ishonchli.
evidentiary [ˌevı´denʃərı] = **evidential.**
evidently [´evıdntlı] *adv* aniq, ravshan, shubhasiz.
evil [´i:vl] *a* 1) yomon, yaramas, halokatli; 2) yomonlik, yovuzlik.

evil-doer [ˈi:vl,du:ə] *n* jinoyatchi, xiyonatchi; yomonlik qiluvchi; yovuz odam.

evil-minded [ˌi:vlˈmaindid] *a* yovuz niyatli, niyati buzuq, jahli yomon, battol, badjahl.

evince [iˈvins] *v* ko'rsatmoq, namoyon qilmoq.

evincible [iˈvinsbl] *a* isbotlanishi mumkin bo'lgan, isbot qilib bo'ladigan.

eviscerate [iˈvisəreit] *v* ichak-chovog'ini olib tashlamoq, ichak-chovoqdan tozalamoq.

evocation [ˌevəˈkeiʃn] *n tex.* bug'latgich.

evocative [iˈvɔkətiv] *a* esga soladigan.

evoke [iˈvəuk] *v* chaqirmoq, taklif qilmoq.

evolution [ˌi:vəˈlu:ʃn] *n* 1) rivojlanish, avj olish; taraqqiyot; 2) evolutsiya.

evolutional [ˌi:vəˈlu:ʃnl] *a* evolutsiyaga (*tarixiy rivojlanishga doir*) oid.

evolutionary [ˌi:vəˈlu:ʃnəri] = **evolutional.**

evolutionism [ˌi:vəˈlu:ʃnizm] *n* evolutsiya nazariyasi (*evolutsiya – tabiat va jamiyatdagi uzluksiz o'zgarish, rivojlanish jarayoni*).

evolutionist [ˌi:vəˈlu:ʃnist] *n* evolutsionist (*evolutsionizm tarafdori*).

evolve [iˈvɔlv] *v* rivojlantirmoq, taraqqiy ettirmoq.

evolvent [iˈvɔlvənt] *n mat.* razvyortka, yoyilgan holat (*geometrik shaklning tekislikda yoyilgan holati*).

evulsion [iˈvʌlʃn] *n* ildizi bilan yulib olish.

ewe [ju:] *n* sovliq qo'y, qo'y.

ewer [ˈju:ə] *n* ko'za, kuvacha.

ex- [eks-] *pref.* eks, sobiq, o'tgan; **exchampion** sobiq chempion.

exacerbate [igˈzæsə:beit] *v* 1) o'tkirlashtirmoq, kuchaytirmoq; 2) *tib.* kasalning kuchayishi.

exacerbation [igˌzæsəˈbeiʃn] *n* tortishuvning (janjalning) kuchayishi, tortishuvni (janjalni) kuchaytirish; (*kasalning*) kuchayishi.

exact [igˈzækt] **1.** *a* 1) talabchan; 2) aniq, puxta; **~ meaning** aniq ma'ni (fikr); **2.** *v* talab qilmoq, undirmoq.

exacting [igˈzækting] *a* talabchan, qattiqqo'l.

exaction [igˈzækʃn] *n* 1) qo'yarda-qo'ymay talab qilish, xiralik bilan so'rash, undirish; 2) *yur.* sudga chaqiruv.

exactitude [igˈzæktitju:d] *n* aniqlik, to'g'rilik.

exactly [igˈzæktli] *adv* aniq, to'g'ri; **I dont know ~ what happened** aniq nima bo'lganini bilmayman.

exactness [igˈzæktnəs] *n* aniqlik, to'g'rilik.

exactor [igˈzæktə] *n* qo'rqitib (*yoki do'q-po'pisa va boshqa yo'llar bilan*) undiruvchi, oluvchi, tovlamachi, ta'magir, yulg'ich.

exaggerate [igˈzædʒəreit] *v* 1) orttirib yubormoq, bo'rttirib ko'rsatmoq; **to ~ difficulties** qiyinchiliklarni bo'rttirmoq; 2) kengaytirmoq **to ~ in scale** masshtabni kengaytirmoq.

exaggerated [igˈzædʒəreitid] **1.** *p. p.* **exaggerate** *dan*; **2.** *a* qiyinchiliklarni bo'rttirib yuborish.

exaggeratedly [igˈzædʒəreitli] *adv* oshirib ko'rsatilgan; aytib o'tilgan.

exaggeration [igˌzædʒəˈreiʃn] *n* 1) mubolag'a, lof; 2) bo'rttirib ko'rsatish, bo'rttirish.

exaggerative [igˈzædʒərətiv] *a* oshirib yuboriladigan; cheki yo'q cheksiz, haddan tashqari.

exalt [igˈzɔ:lt] *v* ulug'lamoq, shuhratini oshirmoq, ko'klarga ko'tarmoq.

exaltation [ˌegzɔ:lˈteiʃn] *n* 1) ulug'lash; 2) katta shavq (zavq), xursandlik.

exalted [igˈzɔ:lud] **1.** *p. p.* **exalt** *dan*; **2.** *a* g'oyat zavqli, zavqqa to'lgan, quvonchli, o'zida yo'q xursand.

exam [igˈzæm] *n so'zl.* imtihon.

examination [igˌzæmiˈneiʃn] *n* 1) tekshirish, ko'rik; **~ of equipment** texnik ko'rik; 2) *yur.* qidiruv, so'roq; 3) imtihon; **to take an ~** imtihon topshirmoq.

examinational [igˌzæmiˈneiʃənl] *a* imtihonga (sinovga) oid.

examination-paper [igˌzæmiˈneiʃnˌpeipə] *n* imtihon varaqasi.

examine [igˈzæmin] *v* 1) tadqiq qilmoq, tanishmoq; 2) tekshirmoq; **to ~ condition** holatni tekshirmoq; imtihon olmoq.

examiner [igˌzæminə] *n* imtihon oluvchi.

example [igˈzɔ:mpl] *n* 1) misol; 2) namuna; **for ~** masalan; **to give an ~** misol keltirmoq.

exanimate [igˈzænimət] *a* o'lik, jonsiz, tiriklik nishonasi yo'q; so'ligan.

exarch [ˈeksɑ:k] *n cherk.* ekzarx (*pravoslav cherkovi tashkilotida: mustaqil cherkov boshlig'i*).

exasperate [igˈzɔ:spəreit] *v* g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; g'ashiga tegmoq.

exasperating [igˈzɔ:spəreitiŋ] *a* jahlini chiqaradigan; g'ashiga tegadigan.

exasperation [igˌzɔ:spəˈreiʃn] *n* 1) g'azablanish, achchiqlanish, jahli chiqish; 2) *tib.* kasalning o'qtin-o'qtin tutib qolishi.

excavate [ekskəveit] *v* qazimoq, kovlamoq, o'ymoq.

excavation [ˌekskəˈveiʃn] *n* kovlash, qazish, o'yish.

excavator [ˈekskəveitə] *n* 1) ekskavator; 2) yer kovlovchi (qazuvchi).

exceed [ikˈsi:d] *v* ortiq bo'lmoq, o'tib ketmoq, ustun chiqmoq; oshirmoq, oshib ketmoq.

exceeding [ikˈsi:diŋ] **1.** *pres. p.* **exceed** *dan*; **2.** *a* beo'lchov, behad, cheksiz.

exceedingly [ikˈsi:diŋli] *adv* juda, g'oyatda, nihoyatda; favqulodda.

excel [ikˈsel] *v* 1) ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib ketmoq, ustun chiqmoq; 2) biror xususiyati bilan boshqalardan farq qilmoq.

excellence [ˈeksələns] *n* ustunlik, afzallik, ortiqlik.

Excellency [ˈeksələnsi] *n* zoti oliy, janobi oliy.

excellent [ˈeksələnt] *a* a'lo, oliy.

except [ikˈsept] **1.** *v* inkor (rad) etmoq, chiqarib tashlamoq; **2.** *prep.* ...dan boshqa, tashqari.

excepting [ɪkˈseptɪŋ] 1. *pres. p.* **except** 1. *dan*; 2. *prep.* dan tashqari.
exception [ɪkˈsepʃn] *n* istisno, mustasno.
exceptionable [ɪkˈsepʃnəbl] *a* benuqson (sof, pok) deb bo'lmaydigan, kamchiliklardan xoli emas.
exceptional [ɪkˈsepʃnəl] *a* 1) maxsus, alohida; 2) g'ayrioddiy; o'zgacha.
exceptionally [ɪkˈsepʃnəlɪ] *adv* favqulodda, juda, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari.
exceptive [ɪkˈseptɪv] *a* tirnoq ostidan kir izlaydigan, injiq.
excerpt [ˈeksɜ:pt] *n* ko'chirma, parcha, bo'lak.
excerption [ekˈsɜ:pʃn] *n* sitata (*tekst parchasi*).
excess [ɪkˈses] *n* 1) mo'llik, ortiqchalik; 2) keragidan ortiq narsa, ortiq, ortiqcha.
excessive [ɪkˈsesɪv] *a* haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta.
exchange [ɪksˈtʃeɪndʒ] 1. *n* almashish, ayirboshlash; (*pulni*) maydalash; 2. *v* almashmoq, (*pulni*) maydalamoq.
exchangeable [ɪksˈtʃeɪndʒəbl] *a* almashtirsa bo'ladigan.
exchequer [ɪksˈtʃekə] *n* davlatga qarashli molmulk, pul, mablag', xazina, g'azna.
excisable [ekˈsaɪzəbl] *a* aksiz solig'i soladigan.
excise [ekˈsaɪz] 1. *v* kesib olmoq, kesib tashlamoq; 2. *n* aksiz (*keng iste'mol mollariga solinadigan qo'shimcha soliq*).
exciseman [ekˈsaɪzmæn] *n* aksiz amaldori.
excision [ekˈsɪʒən] *n* 1) tishni olish (*sug'urib olib tashlash*); 2) qirqish.
excitability [ɪkˌsaɪtəˈbɪlətɪ] *n* tez ta'sirlanish, hayajonga kelish, ta'sirchanlik.
excitable [ɪkˈsaɪtəbl] *a* tez (salga) hayajonlanadigan; ta'sirlanadigan.
excitant [ˈeksɪtənt] *a* hayajonga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi.
excitation [ˌeksɪˈteɪʃn] *n* qiziqish tug'dirish; aktivlashtirish.
excitative [ekˈsaɪtətɪv] *a* hayajonga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi; jonlantiruvchi, kishini hayratga soluvchi.
excitatory [ekˈsaɪtətərɪ] = **excitative**.
excite [ɪkˈsaɪt] *v* 1) qo'zg'atmoq, undamoq; 2) ta'sir qilmoq, hayajonlanmoq, hayajonlantirmoq.
excited [ɪkˈsaɪtɪd] *a* 1) xursand, xursand bo'lgan; 2) hayajonlangan, to'lqinlangan.
excitedly [ɪkˈsaɪtɪdlɪ] *adv* hayajonlanib, to'lqinlanib, hayajon bilan.
excitement [ɪkˈsaɪtmənt] *n* qiziqish tug'dirish; ta'sirlanish, hayajonlanish.
exciter [ɪkˈsaɪtə] *n el.* qo'zg'atuvchi omil; qiziqish uyg'otuvchi, hayajonlantiruvchi omil.
exciting [ɪkˈsaɪtɪŋ] 1. *pres. p.* **excite** *dan*; 2. *a* hayajonga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi, jonlantiruvchi.
exclaim [ɪksˈkleɪm] *v* xitob qilmoq, undamoq, chaqirmoq, hayqirmoq, na'ra tortmoq.
exclamation [ˌeksklə ˈmeɪʃn] *n* xitob, nido, undov, haqiqiy.
exclamatory [ekˈsklæmətərɪ] *a* undovni bildiruvchi (ifodalovchi), xitobli, undalma; ~ **sentence** undov gap.
exclude [ɪkˈsklu:d] *v* 1) chiqarmoq; 2) haydamoq.
excluding [ɪkˈsklu:dɪŋ] *prep.* -dan tashqari, -dan boshqa.
exclusion [ɪkˈsklu:ʒən] *n* 1) istisno, mustasno, tashqari; 2) chiqarish, haydash.
exclusive [ɪkˈsklu:sɪv] *a* maxsus, alohida, ayrim, boshqalardan farqli, o'ziga xos.
exclusively [ɪkˈsklu:sɪvlɪ] *adv* yolg'iz, faqat, nuqul.
excogitate [eksˈkɔdʒɪteɪt] *v* o'ylab chiqarmoq, ixtiro qilmoq.
excogitation [eksˌkɔdʒɪ ˈteɪʃn] *n* o'ylab topish, o'ylab chiqarish, o'zidan to'qib aytish.
excommunicate [ˌekskə ˈmju:nɪkeɪt] 1. *v* cherkovdan ajratmoq (chiqarmoq); 2. *a* cherkovdan ajratilgan, chiqarilgan, haydalgan.
excommunication [ˈekskəmju:nɪ ˈkeɪʃn] *n* cherkovdan chiqarish (ajratish, haydash).
excoriate [ekˈskɔ:rɪeɪt] *v* terisini shilmoq (shilib, ajratib olmoq).
excoriation [ekˌskɔ:rɪ ˈeɪʃn] *n* terisini shilish (shilib, ajratib olish).
excorticate [ekˈskɔ:tɪkeɪt] *v* po'stlog'ini shilib olmoq (ajratmoq).
excrement [ˈekskrɪmənt] *n* bavl, chiqarindi (*najas, siydik*).
excrescence [ɪksˈkresns] *n* 1) o'sib (ko'payib) ketish; 2) o'simta, qatqaloq.
excrescent [ɪkˈskresnt] *a* ortiq, oshiq, ortiqcha, oshiqcha.
excrete [ɪkˈskri:t] *v* ajratmoq, ajratib olmoq.
excretion [ɪkˈskri:ʃn] *n fiziol.* ajratish, ajratib olish.
excretive [ɪkˈskri:tɪv] *a* 1) organizmdan ajralib chiqadigan; 2) ajratib chiqishga yordam beradigan.
excretory [ɪkˈskri:tərɪ] *a* tashqariga chiqadigan.
excruciate [ɪkˈskru:ʃɪeɪt] *v* azob (ozor) bermoq.
excruciating [ɪkˈskru:ʃɪeɪtɪŋ] 1. *pres. p.* **excruciate** *dan*; 2. *a* azob beradigan, qiynaydigan.
excruciation [ɪkˌskru:ʃɪˈeɪʃn] *n* 1) azoblanish, qiynalish; 2) azob berish, qiynash.
exculpate [ˈekskʌlpeɪt] *v yur.* oqlamoq, to'g'ri deb topmoq.
exculpation [ˌekskʌlˈpeɪʃn] *n* oqlash haqidagi hukm, oqlash, to'g'ri deb topish.
exculpatory [ekˈskʌlpətərɪ] *a* oqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan, isbotlaydigan.
excursion [ɪkˈskɜ:ʃn] *n* sayr, (*qisqa muddatli*) safar *yoki* sayohat, ekskursiya.
excursionist [ɪkˈskɜ:ʃnɪst] *n* ekskursant, ekskursiyachi.
excursive [ekˈskɜ:sɪv] *a* tartibsiz, betartib.

excursus [ek´skə:səs] *n* (*pl* **-es** [-ız]) mavzudan chetga chiqish.

excusable [ık´skju:zəbl] *a* kechirsa bo'ladigan, kechirimli.

excusatory [ık´skju:zıtərı] *a* kechirsa bo'ladigan, kechirimli.

excuse 1. *n* [ıks´kju:s] 1) oqlash, bahona, vaj; 2) uzr, kechirim; 2. *v* [ık´skju:z] 1) kechirmoq, avf etmoq; 2) ozod qilmoq (*ishdan, vazifadan*).

execrable [´eksıkrəbl] *a* jirkanch, xunuk.

execrate [´eksıkreıt] *v* juda yomon ko'rmoq.

execration [ˌeksı´kreıʃn] *n* la'nat, nafrat.

executant [ıg´zekjutənt] *n* bajaruvchi, ijro etuvchi, amalga oshiruvchi.

execute [´eksıkju:t] *v* 1) bajarmoq, amalga oshirmoq; **to ~ plan** rejani amalga oshirmoq; 2) yaratmoq; 3) qatl etmoq.

execution [ˌeksı´kju:ʃn] *n* bajarish, bajarilish, amalga oshirish, ijro etish.

executioner [ˌeksı´kju:ʃnə] *n* 1) jallod; 2) *ko'ch.* jabr-zulm qiluvchi, ezuvchi, zolim.

executive [ıg´zekjutıv] *a* ijroiya, ma'muriy, ijro etuvchi, bajaruvchi, amalga oshiruvchi; **~ committee** ijroiya komiteti.

executor [ıg´zekjutə] *n* 1) vasiy; 2) sud ijrochisi.

exemplar [ıg´zemplə:] *a* namuna, nusxa.

exemplary [ıg´zempləri] *a* namunali, namuna bo'ladigan.

exemplification [ıgˌzemplıfı´keıʃn] *n* 1) misol bilan tushuntirish; 2) tasdiqlangan nusxa.

exemplify [ıg´zemplıfaı] *v* misol bo'lmoq.

exempt [ıg´zempt] 1. *a* (*soliqdan, harbiy xizmatdan*) ozod qilingan, bo'shatilgan (*vazifasidan, soliq to'lashdan*); 2. *v* ozod qilmoq (*harbiy xizmat va b.*).

exemption [ıg´zempʃn] *n* bo'shatish, ozod qilish (*soliq to'lashdan va b.lar*).

exequies [´eksıkwız] *n pl* dafn qilish, ko'mish marosimi.

exercise [´eksəsaız] 1. *v* mashq qilmoq, ijro etmoq; 2. *n* mashq.

exergue [ek´sə:g] *n* (*metall va qog'oz pullarning orqasida*) yozuvlarning joyi va yozuv.

exert [ıg´zə:t] *v* zo'r bermoq, chiranmoq; **~ oneself** harakat qilmoq.

exertion [ıg´zə:ʃn] *n* zo'r g'ayrat, diqqat-e'tibor, qizg'inlik.

exes [´eksız] *n pl so'zl.* chiqimlar, xarajatlar, xarjlar, sarflar.

exfoliate [eks´fəulıeıt] *v* shilinmoq, archilmoq, po'st tashlamoq.

exhalation [ˌekshə´leıʃn] *n* 1) nafas chiqarish; 2) bug'lanish, bug'ga aylanish.

exhale [eks´heıl] *v* 1) nafas chiqarmoq; 2) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq.

exhaust [ıg´zɔ:st] 1. *n* chiqarish, chiqish (*ishlangan gazlar haqida*); 2. *v* holdan toydirmoq; qiynamoq.

exhausted [ıg´zɔ:stıd] 1. *p. p.* **exhaust 2** *dan*; 2. *a* ozib ketgan, ortiqlagan, darmoni qurigan.

exhauster [ıg´zɔ:stə] *n* 1) so'ruvchi ventilator, 2) changso'rar, changyutgich (*uy va jihozlarning changini so'rib tozalaydigan apparat*).

exhaustible [ıg´zɔ:stəbl] *a* oriqlatib yuboradigan.

exhausting [ıg´zɔ:stıŋ] 1. *pres. p.* **exhaust 2** *dan*; 2. *n* charchatish, oriqlatish.

exhaustion [ıg´zɔ:stʃən] *n* ozib (oriqlab) ketish, ozib-to'zish, ozg'inlik.

exhaustive [ıg´zɔ:stıv] *a* 1) to'la-to'kis, tugal, mukammal; 2) ozadigan, oriqlab ketadigan.

exhibit [ıg´zıbıt] 1. *n* eksponat (*ko'rgazmaga qo'yilgan narsa, material*); 2. *v* ko'rgazmaga qo'ymoq.

exhibition [ˌeksı´bıʃn] *n* ko'rgazma, namoyish.

exhibitioner [ˌeksı´bıʃnə] *n* stipendiat, stipendiya oluvchi (*kishi*).

exhibitionism [ˌeksı´bıʃnızm] *n* o'zini ko'z-ko'z qilishga qiziqish.

exhibitor [ıg´zıbıtə] *n* eksponent (*ko'rgazmaga o'z eksponatini qo'yadigan kishi, tashkilot yoki mamlakat*).

exhilarate [ıg´zıləreıt] *v* ko'nglini ochmoq, xursand qilmoq.

exhilarated [ıg´zıləreıtıd] 1. *p. p.* **exhilarate** *dan*; 2. *a* shod, xursand.

exhilaration [ıgˌzılə´reıʃn] *n* vaqtichog'lik, xursandlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik.

exhort [ıg´zɔ:t] *v* ishontirmoq, inontirmoq, ko'ndirmoq.

exhortation [ˌegzɔ:´teıʃn] *n* 1) nasihat (o'git) qilish; pand-nasihat, o'git; 2) targ'ib (targ'ibot) qilish, tarqatish.

exhortative [ıg´zɔ:tətıv] *a* o'gitga (pand-nasihatga) oid; nasihatomuz.

exhumation [ˌekshju:´meıʃn] *n* eksgumatsiya (*murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kovlab olish*).

exhume [eks´hju:m] *v* 1) murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kavlab olmoq; 2) yerdan qazib olmoq.

exigence [´eksıdʒəns] *n* biror narsaning juda zarurligi; biror narsaga g'oyat muhtojlik.

exigency [´eksıdʒənsı] = **exigence.**

exigent [´eksıdʒənt] *a* 1) talabchan, qattiqqo'l; 2) shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan.

exigible [´eksıdʒəbl] *a* talabchan, talabi zo'r; didi baland.

exiguity [ˌeksı´gju:ətı] *n* 1) ozlik, yetarli (ko'p) emaslik; 2) sayozlik; 3) arzimaslik, arzimaganlik.

exiguous [eg´zıgjuəs] *a kitob.* oz, kam, ozgina, yetarlicha bo'lmagan.

exile [´eksaıl] 1. *n* quvg'in, surgun; badarg'a; 2. *v* surgun qilmoq.

exility [eg´zılətı] *n* yupqalik, nafislik, ingichkalik, noziklik, nazokat.

exist [ɪg´zɪst] *v* mavjud bo'lmoq, tirikchilik o'tkazmoq; yashamoq.

existence [ɪg´zɪstəns] *n* mavjudlik, butun mavjudot, turmush, tirikchilik, hayot.

existent [ɪg´zɪstənt] *a* mavjud, bor bo'lgan, bor, naqd.

exit [´eksɪt] *n* chiqish, chiqish yo'li.

ex-libris [ˌeks´li:brɪs] *n lot.* ekslibris (*kitob egasining familiyasi yozilgan, badiiy uslubda tayyorlangan yorliqcha*).

exodus [´eksədəs] *n* ommaviy (*ko'pchilik bo'lib*) safarga chiqish (*asosan, ko'chmanchilar haqida*).

ex officio [ˌeksə fɪʃɪəu] *lat. a* vazifasi bo'yicha.

exogamy [ɪg´sɔgəmɪ] *n* ekzogomiya (*o'z qabilasidagi, urug'idagi kishiga uylanish yoki erga tegishni man qiluvchi odat*).

exonerate [ɪg´zɔnəreɪt] *v* 1) og'ir yukni olib tashlamoq; gunohini (oqlamoq) kechirmoq; vazifasidan olib tashlamoq; 2) yengillashtirmoq.

exoneration [ɪgˌzɔnə´reɪʃn] *n yur.* 1) oqlash, oqlash haqida hukm; 2) vaj, sabab, bahona.

exonerative [ɪg´zɔnərətɪv] *a yur.* oqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan.

exorbitance [ɪg´zɔ:bɪtəns] *n* haddan tashqarilik, benihoya darajadagi, (o'ta) ortiqlik; cheksizlik.

exorbitancy [ɪg´zɔ:bɪtənsɪ] = **exorbitance.**

exorbitant [ɪg´zɔ:bɪtənt] *a* haddan tashqari, o'ta.

exorcism [´eksɔ:ˌsɪzm] *n* afsun (jodu, sehr, duo) orqali jin va ajinalarni haydab yuborish.

exorcize [´eksɔ:saɪz] *v* 1) avramoq, afsunlamoq, sehrlamoq; 2) duo orqali jin va ajinalarni haydamoq.

exordia [ek´sɔ:dɪə] *pl* **exordium** *dan.*

exordial [ek´sɔ:dɪəl] *a* boshlang'ich, kirish.

exordium [ek´sɔ:dɪəm] *n* (*pl* **-dia**) kirish, muqaddima, daromad, so'z boshi.

exoteric [ˌeksəu´terɪk] *a* hammaning kuchi (*qurbi, imkoni*) yetadigan; hammaning imkoni doirasidagi; hammabop.

exothermal [ˌeksəu´θə:məl] = **exothermic.**

exothermic [ˌeksəu´θə:mɪk] *a fiz.* ekzotermik (*kimyoviy reaksiya jarayonida o'zidan issiqlik chiqaradigan*).

exotic [ɪg´zɔtɪk] *a* ajoyib, qiziq, g'alati, g'ayrioddiy.

expand [ɪk´spænd] *v* 1) kengaytirmoq; 2) ko'paytirmoq.

expanse [ɪk´spæns] *n* masofa, ko'lam (*bo'y, en va balandlik*).

expansibility [ɪkˌspænsə´bɪlətɪ] *n* cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik.

expansion [ɪk´spænʃn] *n* kengaytirish, eskpansiya.

expansionism [ɪk´spænʃnɪzm] *n* bosqinchilik siyosati.

expansive [ɪk´spænsɪv] *a* 1) keng , bepoyon; 2) o'zini tiya olmaydigan, tez qizishib ketadigan.

expansivity [ˌekspænˈsɪvɪtɪ] *n* o'zini tiya olmaslik, tez qizishib ketishlik.

expatiate [ek´speɪʃɪeɪt] *v* tarqalmoq, yoyilmoq, kengayib ketmoq.

expatriate 1. *n* [eks´pætrɪət] 1) emigrant, muhojir; 2) o'z yurtini tark etuvchi; 2. *v* [eks´pætrɪeɪt] haydamoq, surgun qilmoq (*Vatandan*).

expatriation [eksˌpætrɪ´eɪʃn] *n* emigratsiya (*chet mamlakatga ko'chib ketish*), muhojirlik.

expect [ɪk ´spekt] *v* kutmoq, umid qilmoq; **~ed you yesterday** men sizni kecha kutdim.

expectance [ɪk ´spektəns] *n* 1) kutish; poylash; 2) umid, ishonch.

expectancy [ɪk´spektənsɪ] = **expectance.**

expectant [ɪk´spektənt] 1. *n* 1) da'vogar, nomzod; 2. *a* 1) homilador, **~ mother** ona bo'ladigan ayol; 2) ko'z tutayotgan, umid qilayotgan.

expectation [ˌekspek´teɪʃn] *n* kutish, ko'z tutish.

expectorant [ek´spektərənt] *n tib.* balg'am ko'chiradigan (tashlatadigan) dori.

expectorate [ek´spektəreɪt] *v* yo'talib tupurib tashlamoq.

expectoration [ekˌspektə´reɪʃn] *n* yo'talib tupurib tashlash.

expedience [ɪk´spi:dɪəns] *n* maqsadga muvofiqlik, ma'qullik, maqbullik.

expediency [ɪk´spi:dɪənsɪ] = **expedience.**

expedient [ɪk´spi:dɪənt] *a* maqsadga muvofiq, ma'qul, maqbul.

expedite [´ekspədaɪt] *v* 1) ko'maklashmoq, yordamlashmoq; tezlashtirmoq; 2) tez tugatmoq (*ish va b.larni*).

expediter [´ekspɪdaɪtə] *n* dispetcher (*markazlashgan boshqaruv punkti yoki sistemasining xodimi*).

expedition [ˌekspə´dɪʃn] *n* ekspeditsiya (*biror maqsad bilan uyushtirilgan safar*).

expeditionary [ˌekspə´dɪʃnərɪ] *a* 1) ekspeditsion (*mol, tovar tarqatish ishlari bilan shug'ullanadigan*); 2) ekpeditsiyaga oid.

expeditious [ˌekspə´dɪʃəs] *a* tezlik bilan bo'ladigan; tez bo'lib o'tadigan; tez, ildam, jadal.

expel [ɪk ´spel] *v* haydamoq, haydab chiqarmoq, haydab yubormoq.

expend [ɪk´spend] *v* sarflamoq, sarf qilmoq.

expendable [ɪk´spendəbl] *a* sarflanadigan, xarajat qilinadigan.

expendables [ɪk´spendəblz] *n pl harb.* sarflanadigan ta'minotdagi narsalar.

expenditure [ɪk´spenditʃə] *n* sarf qilish, sarflash, xarajat.

expense [ɪk´spens] *n* 1) xarajat; **to go to ~** xarajat qilmoq; 2) chiqim.

expensive [ɪk´spensɪv] *a* qimmat, bahosi baland; **~ clothes** qimmat kiyimlar.

experience [ɪk´spɪərɪəns] 1. *n* (*hayotiy*) tajriba; **to know smth. by (from) ~** nimanidir tajribasidan bilmoq; 2) ish tajribasi; 3) mahorat; 2. *v* sinamoq, sinab ko'rmoq.

experienced [ɪk´spɪərɪənst] **1.** *p. p.* **experience 2** *dan;* **2.** *a* tajribali, mahoratli, mohir.
experiential [ɪk,spɪərɪ´enʃl] *a filos.* tajribaga asoslangan.
experiment 1. *n* [ɪk´sperɪmənt] tajriba; **an ~ in chemistry** kimyoviy tajriba; **2.** *v* [ɪk´sperɪment] tajriba o'tkazmoq.
experimental [ek,sperɪ´mentl] *a* tajribaga oid, ilmiy tajribaga asoslangan.
experimentalize [ek,sperɪ´məntəlaɪz] *v* ilmiy tajriba o'tkazmoq, sinab ko'rmoq.
experimentally [ek,sperɪ´mentlɪ] *adv* tajriba asosida.
experimentation [ek,sperɪmenˊteɪʃn] *n* ilmiy tajriba (*eksperiment*) o'tkazish.
experimenter [ɪksˊperɪməntə] *n* ilmiy tajriba o'tkazuvchi; tajribachi, tajriba yo'li bilan biror narsa yetishtiruvchi (*dehqon*).
expert [´ekspə:t] *n* ekspert (*tekshirish o'tkazadigan mutaxassis*).
expertise [,ekspə:´ti:z] *fr. n* 1) tekshirish; 2) bilim va tajriba.
expiate [´ekspɪeɪt] *v kit.* gunohini yuvmoq.
expiation [,ekspɪ´eɪʃn] *n* gunohini yuvish.
expiatory [´ekspɪətərɪ] *a* gunohni yuvadigan, gunohdan xalos qiladigan.
expiration [,ekspə´reɪʃn] *n* 1) nafas chiqarish; 2) o'tish, tugash, tamom bo'lish (*vaqt, muddat haqida*).
expiratory [ɪk´spaɪrətərɪ] *a* nafas chiqarishga oid, nafas chiqarish.
expire [ɪk´spa(ɪ)ə] *v* 1) tugamoq, bitmoq, o'tmoq, to'lmoq (*muddat haqida*); 2) nafas chiqarmoq; 3) o'lmoq, favot etmoq.
expiry [ɪk´spa(ɪ)ərɪ] *n* 1) yetish, tugash; 2) muddatning tugashi.
explain [ɪk´spleɪn] *v* tushuntirmoq, izohlamoq; tushuntirib bermoq.
explanation [,eksplə´neɪʃn] *n* 1) tushuntirish, izohlash; 2) izoh, sharh, talqin.
explanatory [ɪk´splænətərɪ] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...
expletive [ɪk´splɪtɪv] **1.** *a* 1) yasama; 2) haqoratli, uyatli; **2.** *n* 1) yasama so'z; 2) haqoratli so'z, so'kish so'zi.
explicable [ɪk´splɪkəbl] *a* sababi bor, sababli, sababini tushunib bo'ladigan.
explicate [´eksplɪkeɪt] *v* tushuntirmoq, anglatmoq, tushuntirib bermoq.
explication [,eksplɪ´keɪʃn] *n* 1) sabab (*bahona*) qilish; 2) tushuntirish.
explicative [ek´splɪkətɪv] *a* izohlaydigan; tushuntirib beradigan.
explicatory [ek´splɪkətərɪ] = **explicative.**
explicit [ɪk´splɪsɪt] *a* 1) aniq, ravshan; 2) samimiy, sofdil.
explode [ɪk´spləud] *v* portlatmoq, portlamoq; **to ~ a mine** minani portlatmoq; 2) bu:rmoq, qo'pormoq.
exploded [ɪk´spləudɪd] *p. p.* **explode** *dan.*
exploder [ɪk´spləudə] *n* 1) portlatuvchi moslama, portlatgich; 2) portlatgich modda.
exploit 1. *v* [´eksplɔɪt] birovning kuchidan (mehnatidan) foydalanmoq; **2.** *n* [´eksplɔɪt] qahramonlik, mardlik, jasorat.
exploitation [,eksplɔɪ´teɪʃn] *n* foydalanish, ishlatish, ishga solish.
exploiter [ɪk´splɔɪtə] *n* eskpluatatsiya qiluvchi, ekspluatator.
exploration [,eksplə´reɪʃn] *n* tadqiqot, tadqiq etish, o'rganish.
explorative [ek´splɔrətɪv] = **exploratory.**
exploratory [ek´splɔ:rətərɪ] *a* tadqiqiy, tadqiqotga oid, tekshirishga oid.
explore [ɪk´splɔ:] *v* o'rganmoq, tadqiq etmoq; **to ~ the Antarctica** Antarktikani o'rganmoq; 2) *tib.* yarani (jarohatni) tekshirmoq.
explorer [ɪk´splɔ:rə] *n* tadqiqotchi, tekshiruvchi.
explosion [ɪk´spləuʒn] *n* 1) portlash, avj olish; 2) tez o'sish; **cultural ~** madaniyatning gullashi.
explosive [ɪk´spləusɪv] **1.** *a* portlovchi, portlaydigan; **2.** *n* portlovchi modda.
exponent [ek´spəunənt] *n* 1) tushuntiruvchi, izohlovchi; 2) ijro etuvchi (*musiqa*); 3) namuna; 4) eksponent, ko'rgazma ishtirokchisi.
exponential [,ekspə´nenʃl] *a mat.* namuna bo'ladigan, o'ziga xos.
export 1. *n* [´ekspɔ:t] chet elga chiqarish (*pul, mol va b.*); **2.** *v* [ɪk´spɔ:t] chetga chiqarmoq.
exportation [,ekspɔ:´teɪʃn] *n* olib ketish, tashib ketish; tashqariga (*chetga*) mol chiqarish.
exporter [ɪk´spɔ:tə] *n* eksportchi, eksport, eksport qiluvchi (*chet elga mol chiqaruvchi davlat*).
expose [ɪk´spəuz] *v* 1) (*xavfga*) uchramoq, duchor bo'lmoq; 2) fosh etmoq, (*sirni*) ochmoq; 3) nusxa ko'chirmoq.
exposition [,ekspə´zɪʃn] *n* 1) tavsif, ta'rif, tasvir, bayon; 2) ta'sirlanib (ta'riflab) berish.
expositive [ɪk´spɔzɪtɪv] *a* 1) tushuntirib beradigan, izohlaydigan; 2) tasviriy, tavsifiy.
expositor [ɪk´spɔzɪtə] *n* sharhlovchi, izohlovchi, tushuntirib beruvchi.
expository [ɪk´spɔzɪtərɪ] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish.
expostulate [ɪk´spɔstjuleɪt] *v* ko'ndirishga harakat qilmoq, pand-nasihat qilmoq, ko'ndirmoq, unatmoq.
expostulation [ɪk,spɔstjʊ´leɪʃn] *n* nasihat (o'git) qilish, pand, nasihat, o'git.
exposure [ɪksˊpəuʒə] *n* 1) (*tahlikaga*) uchrash, fosh etish; 2) ochib tashlash.
expound [ɪk´spaund] *v* bayon (*hikoya*) qilmoq, ifoda etmoq, aytib bermoq.
express [ɪk´spres] **1.** *a* tez, shoshilinch, tez yuradigan; **2.** *v* bildirmoq, ifodalamoq; **to ~ one's opinion** o'z fikrini bayon etmoq.
expressible [ɪk´spresəbl] *a* ifoda etib bo'ladigan.

expression [ɪkˈspreʃn] *n* ifoda, ibora; **to give ~** ifoda etmoq.

expressionism [ɪkˈspreʃnɪzm] *n* ekspressionizm (*Yevropada san'at va adabiyotda 20-asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan yo'nalish. Bu yo'nalishning namoyondalari san'atkorning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosini yoritishdan iborat, deb hisoblaydilar*).

expressive [ɪkˈspresɪv] *a* ifodali, jonli, ma'noli, ta'sirli, ma'nodor; **~ voice** jonli ovoz.

expressly [ɪkˈspreslɪ] *adv* 1) atayin, ataylab, jo'rttaga, qasddan; 2) aniq, ravshan.

expressman [ɪkˈspresmæn] *n amer.* transport idorasining vakili.

expropriate [ekˈsprəʊprɪeɪt] *v* 1) musodara qilmoq, mol-mulkdan mahrum qilmoq; 2) egasidan tortib olmoq.

expropriation [ek,sprəʊprɪˈeɪʃn] *n* 1) majburiy tarzda tortib olish; 2) mulkdan majburan mahrum qilish, musodara qilish, majburiy tarzda tortib olish.

expulsion [ɪkˈspʌlʃn] *n* 1) (*maktab, klub va b.dan*) quvish, chiqarish; 2) surgun, badarg'a, quvg'in.

expulsive [ɪkˈspʌlsɪv] *a* haydovchi, quvib (*surib*) chiqaruvchi.

expunge [ekˈspʌndʒ] *v* 1) o'chirmoq (*ro'yxatdan, kitobdan*); 2) yo'q qilmoq, o'chirib tashlamoq.

expurgate [ˈekspəgeɪt] *v* kitobdagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirmoq.

expurgation [,ekspəˈgeɪʃn] *n* kitobdagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirish.

exquisite [ɪkˈskwɪzɪt] **1.** *n* olifta, satang, o'ziga bino qo'yuvchi odam; **2.** *a* 1) nazokatli, latofatli, nozik, nafis, go'zal; 2) qattiq, kuchli, o'tkir, zo'r, og'ir; **~ pain** qattiq og'riq; 3) juda yaxshi, g'oyat yoqimli, juda chiroyli, zebo, ko'rkam, dilbar, ajoyib.

exsanguinate [ekˈsæŋgwɪneɪt] *v* qonsizlantirmoq, qonini ketkazmoq, qonini ko'chirmoq.

exsanguine [ekˈsæŋgwɪn] *a* qonsiz, qoni kam, qoni qochgan.

exscind [ekˈsɪnd] *v* kesib (qirqib) olmoq; kesib (qirqib) tashlamoq.

ex-service [,eksˈsɜ:vɪs] *a* 1) harbiy xizmatdan bo'shatilgan; 2) iste'foga chiqqan, iste'fodagi.

ex-serviceman [,eksˈsɜ:vɪsmən] *n* urush faxriysi, sobiq jangchi.

exsiccate [ˈeksɪkeɪt] *v* 1) quritmoq; 2) qurimoq.

exsiccation [,eksɪˈkeɪʃn] *n* 1) quritish; 2) qurish.

extant [ekˈstænt] *a* bor, mavjud, yashayotgan, kun kechirayotgan.

extemporaneous [ek,stempəˈreɪnɪəs] *a* tasodifiy, o'ylanmagan, nogahoniy.

extempore [ekˈstempərɪ] **1.** *a* maxsus tayyorlanmagan, tayyorgarliksiz aytilgan (ijro etilgan); **2.** *adv* tayyorlanmasdan, oldindan tayyorgarlik ko'rmasdan, to'g'ridan-to'g'ri, birdaniga, qo'qqisdan.

extemporization [ek,stempəraɪˈzeɪʃn] *n* tayyorgarliksiz (birdan) kuy yaratish.

extemporize [ɪkˈstempəraɪz] *v* tayyorgarliksiz (*ijro paytida*) aytmoq, to'qimoq, yaratmoq.

extend [ɪkˈstend] *v* cho'zmoq, uzatmoq; **to ~ one's hand for a handshake** so'rashish uchun qo'l cho'zmoq.

extended [ɪkˈstendɪd] **1.** *p. p.* **extend** *dan*; **2.** *a* uzoq muddatli, uzoq davomli, uzoqqa cho'zilgan (cho'ziladigan), uzoq davom etgan (etadigan); **in an ~ sense** keng ma'noda.

extender [ɪkˈstendə] *n tex.* to'ldirgich, plastmassa to'ldirgichlari.

extensible [ɪkˈstensəbl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, kengayadigan, kengayuvchan, cho'ziluvchan.

extensile [ɪkˈstensaɪl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan.

extension [ɪkˈstenʃn] *n* 1) kengaytirish; 2) yoyish; cho'zish, uzaytirish; 3) qo'shilgan narsa, qo'shimcha, ilova.

extensive [ɪkˈstensɪv] *a* keng, bepoyon; **~ front** keng front.

extensively [ɪkˈstensɪvlɪ] *adv* 1) keng, katta; 2) keng ravishda, keng ko'lamda, har taraflama; 3) mufassal, to'la, to'liq.

extent [ɪkˈstent] *n* 1) masofa, keng sath (*maydon, joy*); 2) o'lcham, miqdor; 3) ko'lam (*bo'y, en va balandlik*), miqyos, daraja.

extenuate [ekˈtenjueɪt] *v* 1) kuchsizlantirmoq, darmonsizlashtirmoq, kuch-quvvatdan qoldirmoq; 2) yumshatmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, yengillashtirmoq.

extenuation [ek,stenjuˈeɪʃn] *n* holdan toyish, ozib-to'zish, beholllik, bemajollik.

extenuatory [ɪkˈstenjuətərɪ] *a* 1) gunohni yengillatuvchi; 2) og'riqni pasaytiruvchi.

exterior [ɪkˈstɪərɪə] *a* ustki, tashqi.

exteriority [ɪk,stɪərɪˈɔrətɪ] *n* ustki (tashqi) tomoni.

exteriorize [ɪkˈstɪərɪəraɪz] = **externalize.**

exterminate [ɪkˈstɜ:mɪneɪt] *v* tag-tomiri bilan yo'q qilmoq; barham bermoq, ildizini quritmoq.

extermination [ɪk,stɜ:mɪˈneɪʃn] *n* qirish, yo'q qilish, tag-tomiri bilan yo'q qilish.

exterminator [ɪkˈstɜ:mɪneɪtə] *n* qiruvchi, qiruvchi samolyot.

exterminatory [ɪkˈstɜ:mɪnətərɪ] *a* qiruvchi, qiron soluvchi, qirg'in keltiruvchi, qironli; **~ war** qirg'inbarot jang.

external [ɪkˈstɜ:nl] **1.** *a* tashqi, xorijiy; sirtqi; **2.** *n* tashqi ko'rinish, qiyofa; turq; **~ angle** tashqi burchak.

externality [,ekstɜ:ˈnælətɪ] *n* tashqi ko'rinish, qiyofa, aft-angor, turq.

externalize [ekˈstɜ:nəlaɪz] *v* gavdalantirmoq, mujassamlantirmoq, gavdalantirib ko'rsatmoq.

exterritorial [,eksterɪˈtɔ:rɪəl] *a* eksterritorial (*eksterritoriallik huquqiga ega bo'lgan*).

exterritoriality [ˌeksterɪtɔːrɪˈælətɪ] *n* eksterritoriallik (*chet elda xizmat qiladigan diplomatik vakillarning faqat o'z davlati qonunlariga bo'ysunish huquqi*).

extinct [ɪkˈstɪŋkt] *a* o'chgan, so'ngan, o'chib (so'nib) qolgan.

extinction [ɪkˈstɪŋkʃn] *n* o'chirish, so'ndirish.

extinguish [ɪkˈstɪŋgwɪʃ] *v* o'chirmoq, bartaraf qilmoq.

extinguisher [ɪkˈstɪŋgwɪʃə] *n* o'chirgich, o't o'chirgich, o'chiruvchi.

extirpate [ˈekstɜːpeɪt] *v* tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, barham bermoq, ildizini quritmoq.

extirpation [ˌekstɜːˈpeɪʃn] *n* barham berish, tugatish, yo'qotish.

extirpator [ˈekstɜːpeɪtə] *n* tag-tomiri bilan yo'q qiluvchi, barham beruvchi (*kishi*).

extol [ɪkˈstəʊl] *v* juda ham maqtab yubormoq, rosa ta'rif-tavsif qilmoq, ko'klarga ko'tarmoq.

extort [ɪkˈstɔːt] *v* qo'rqitib (*yoki* tovlab) pulini olmoq.

extortion [ɪkˈstɔːʃn] *v* qo'rqitib (*yoki do'q-po'pisa va boshqa yo'llar bilan*) undirish.

extortionate [ɪkˈstɔːʃnət] *a* 1) haddan tashqari baland (*narxlar to'g'risida*); 2) tamagirlikka qaratilgan, tovlamachilikdan iborat bo'lgan.

extortioner [ɪkˈstɔːʃnə] *n* qo'rqitib (*yoki do'q-po'pisa bilan*) undiruvchi, bosmachi, o'g'ri; tovlamachi, tamagir, yulg'ich.

extra [ˈekstrə] **1.** *a* 1) qo'shimcha; **~ charges** qo'shimcha xarajat; 2) maxsus; 3) oliy sifat; **2.** *n* qo'shimcha nimadir narsa.

extra- [ˈekstrə-] *pref.* -dan tashqari, -dan ortiq.

extracellular [ˌekstrəˈseljulə] *a biol.* hujayraga oid bo'lmagan, g'ayri-hujayraviy.

extract 1. *n* [ˈekstrækt] *n* parcha, ko'chirma; **2.** *v* [ɪkˈstrækt] *v* 1) sug'urib (*yoki* oldirib) tashlamoq; **to ~ a tooth** tishni sug'urmoq; 2) siqib chiqarmoq (*sok*); 3) chiqarmoq; 4) *mat.* ildizini topmoq.

extraction [ɪkˈstrækʃn] *n* 1) parcha, ko'chirma; 2) kelib chiqish; nasab, nasl-nasab; **an American of Germany ~** Nemis millatiga mansub amerikalik.

extractive [ɪkˈstræktɪv] **1.** *a* 1) topib bo'ladigan; 2) ajratib olish yo'li bilan hosil qilingan; **2.** *n* ekstrakt (*kimyoviy yo'l bilan organik to'qimalardan olingan modda*).

extractor [ɪkˈstræktə] *n tib.* jarrohlik qisqichi.

extracurricular [ˌekstrəkəˈrɪkjulə] *a* 1) majburiy bo'lmagan, ixtiyoriy; 2) darsdan tashqari.

extradite [ˈekstrədaɪt] *v* jinoyatchini boshqa davlatga bermoq.

extradition [ˌekstrəˈdɪʃən] *n* jinoyatchini boshqa davlatga topshirish.

extra-judicial [ˌekstrədʒuˈdɪʃl] *a yur.* norasmiy.

extramarital [ˌekstrəˈmærɪtl] *a* nikohsiz, nikohdan oldingi, nikohdan oldin bo'lgan.

extra-mundane [ˌekstrəˈmʌndeɪn] *a din.* narigi dunyoda bo'ladigan, narigi dunyodagi.

extra-mural [ˌekstrəˈmjuərəl] *a* sirtqi *yoki* kechki; **~ courses** sirtqi o'qish kurslari.

extraneous [ɪkˈstreɪnɪəs] *a* begona, yot, o'zga, tashqi, sirtqi.

extra-official [ˌekstrəəˈfɪʃl] *a* rasmiy emas, norasmiy.

extraordinarily [ɪkˈstrɔːdnrəlɪ] *adv* g'ayrioddiy tarzda, juda ham ajoyib.

extraordinary [ɪkˈstrɔːdnərɪ] *a* 1) favqulodda, turfa, hayron qolarli, sira ko'rilmagan (eshitilmagan); haddan tashqari, ajoyib, g'alati; 2) tasodifiy.

extrapolation [ekˌstræpəˈleɪʃn] *n mat.* ekstrapolatsiya (*narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish*).

extra-territorial [ˌekstrəterɪˈtɔːrɪəl] *a* eksterritorial (*eksterritoriallik huquqiga ega bo'lgan*).

extravagance [ɪkˈstrævəgəns] *n* isrofgarchilik, nobudgarchilik, behuda sarflashlik, sovurib yuborishlik.

extravagancy [ɪkˈstrævɪgənsɪ] = **extravagance.**

extravagant [ɪkˈstrævəgənt] *a* 1) isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi; 2) beaql, esi yo'q, tentak, jinni, ko'ngliga kelganini qilaveradigan, bema'ni (ahmoqona) ish tutadigan; ahmoqona, telba-teskari; 3) bema'ni, kelishmagan, kurakda turmaydigan; tuturiqsiz; 4) adashib yuradigan, sanqi, darbadar; 5) haddan tashqari, cheksiz (*talab to'g'risida*).

extravaganza [ekˌstrævəˈgænzə] *n teatr.* ertak sujetiga asoslangan, teatr *yoki* sirk tomoshasi.

extravasation [ekˌstrævəˈseɪʃn] *n tib.* qon quyilish.

extreme [ɪkˈstriːm] **1.** *a* 1) keskin, eng oxirgi, chetdagi; **the ~ edge of a field** maydonning eng uzoq tomoni; 2) *og'z.* eng oxirgi (so'nggi); **2.** *n* chegara, haddan ortiq holat.

extremely [ɪkˈstriːmlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari, nihoyatda; juda ham, g'oyat.

extremism [ɪkˈstriːmɪzm] *n* ekstremizm (*siyosatda: keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik*).

extremist [ɪkˈstriːmɪst] *n siyos.* ekstrimist (*keskin choralar tarafdori*).

extremity [ɪkˈstremətɪ] *n* uch, bosh, etak; qirra, chekka, lab, oxiri.

extricate [ˈekstrɪkeɪt] *v* olib chiqmoq (*qiyin ahvoldan*) **(from, out of).**

extrication [ˌekstrɪˈkeɪʃn] *n* bo'shatib yuborish, ozod qilish, qutqarish.

extrinsic(al) [eksˈtrɪnsɪk(əl)] *a* tashqi, sirtqi, ustki; begona.

extroversion [ˌekstrəˈvɜːʃn] *n* muvaffaqqiyatlarga qiziqish, ruhiy qiziqishning yo'qligi, faqat o'z manfaatini o'ylash.

extrovert [ˈekstrəuvə:t] *n* 1) *psixol.* faqat o'zining manfaatini ko'zlaydigan kishi (*shaxs*); 2) faqat tashqi muhit bilan qiziqadigan kishi.
extrude [ekˈstru:d] *v* itarib (turtib-turtib) chiqarmoq, turtib-surtib chiqarib yubormoq.
extrusion [ikˈstru:ʒn] *n* itarib (turtib-turtib) chiqarish, turtib-surtib chiqarib yuborish.
exuberance [igˈzju:brəns] *n* mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kinsochinlik.
exuberancy [igˈzju:brənsi] = **exuberance.**
exuberant [igˈzju:brənt] *a* mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p, to'kin-sochin.
exuberate [igˈzju:bəreit] *n* juda ko'p bo'lmoq, to'lib-toshib yotmoq, boy (serob, mo'l-ko'l) bo'lmoq.
exudation [ˌeksju:ˈdeiʃn] *n tib.* nazla (*badandagi teshikchalardan terning ajralib chiqishi*).
exude [igˈzju:d] *v tib.* ter chiqazmoq.
exult [igˈzʌlt] *v* 1) quvonmoq, zavqlanmoq, shodlanmoq, shod-xurram bo'lmoq; **to ~ in a victory** g'alabani nishonlamoq; 2) shodlikdan sakramoq.
exultancy [igˈzʌltənsi] = **exultation.**
exultant [igˈzʌltənt] *a* shod, shod-xurram; **~ cry** shod-xurramlik qiyqiriqlari.
exultation [ˌegzʌlˈteiʃn] *n* shodlik, shod-xurramlik, shodiyona.
exuviate [igˈzju:vieit] *v* tullamoq, po'st tashlamoq.
exuviation [igˌzju:viˈeiʃn] *n* tullash, po'st tashlash.
eyas [ˈaiəs] *n* lochin bolasi.
eye [ai] **1.** *n* 1) ko'z; **blue large ~s** katta ko'k ko'z, **to see with one's own ~s** o'z ko'zlari bilan ko'rmoq; **~ disease** ko'z og'rig'i; **~ hospital** ko'z kasalxonasi; 2) teshik, ko'z (*ignada*); 3) *sheva* izquvar, detektiv; 4) *sheva* televizor ekrani; **2.** *v* 1) qaramoq, qarab chiqmoq; 2) nazorat qilmoq.
eyeball [ˈaibɔ:l] *n* ko'z soqqasi.
eye-bath [ˈaibɑ:θ] *n tib.* ko'z vannachasi (*vanna – davolanish uchun belgilangan kichkina toscha*).
eye-beam [ˈaibi:m] *n* o'ynoqi ko'z, tez nigoh.
eyebrow [ˈaibrau] *n* qosh; **to raise the ~s** qosh chimirmoq.
eye-catcher [ˈai,kætʃə] *n* yorug' (yorqin) manzara.
eye-cup [ˈaikʌp] *n tib.* ko'z vannachasi (*rumka shaklidagi*).
eye drop [ˈaidrɔp] *n pl* ko'zga tomiziladigan dori.
eyeful [ˈaiful] *n so'zl.* 1) ajoyib manzara; 2) *so'zl.* g'oyat go'zal ayol.
eye-glass [ˈaiglɑ:s] *n* 1) linza, okular (*optik asbobning ko'zga tutib qaraladigan tomondagi shishasi*); 2) ko'z qorachig'i; 3) ko'zoynak oynasi; 4) *pl* ko'zoynak.
eyehole [ˈaihəul] *n* 1) kichkina (torgina) teshikcha, tirqish; kovak, yoriq; 2) ko'z kosasi.
eyelash [ˈailæʃ] *n* kiprik, mujgon.
eyeless [ˈailəs] *a* ko'zi (*yoki bir ko'zi*) yo'q, ko'r.
eyelet [ˈailət] *n* kichkina teshikcha.
eyelid [ˈailid] *n* qovoq (*ko'z qovog'i*).
eye-opener [ˈai,əupnə] *n so'zl.* kishini juda ham hayratda qoldiradigan narsa; odamning ko'zini ochib qo'yadigan nimadir (*qandaydir narsa*).
eyepiece [ˈaipi:s] *n* okular (*optik asbobning tutib qaraladigan tomondagi shishasi*).
eye-service [ˈai,sə:vis] *n* o'zini yaxshi ko'rsatish uchun qilinadigan ish.
eyeshadow [ˈai,ʃædəu] *n* qoshqalam.
eyeshot [ˈaiʃɔt] *n* ko'rish maydoni, doirasi.
eyesight [ˈaisait] *n* ko'rish qobiliyati, ko'rish; **good ~** yaxshi ko'rish, ko'zning o'tkirligi; **poor ~** xira ko'rish; yomon ko'rish.
eye-socket [ˈai,sɔkit] *n* ko'z chanog'i, ko'z kosasi.
eyesore [ˈaisɔ:] *n* ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq.
eye-tooth [ˈaitu:θ] *n anat.* so'yloq tishlar, yoriq tishlar.
eyewash [ˈaiwɔʃ] *n* ko'z malhami (*latta yoki paxtaga surtib og'riq joyga qo'yish uchun tayyorlangan suyuq dori*).
eyewater [ˈai,wɔ:tə] *n* ko'z yoshi.
eye-wink [ˈaiwiŋk] *n* ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt (lahza, on, fursat, dam, nafas).
eyewitness [ˈai,witnəs] *n* guvoh, shohid.
eyrie [ˈɛəri] = **aerie.**

Ff

F, f [ef] *n* 1) ingliz tili alifbosining oltinchi harfi; 2) *mus.* fa notasi.
fa [fɑ:] *n mus.* fa (*musiqa gammasining to'rtinchi notasi*).
fab [fæb] *a* 1) afsonaviy; xayoliy; 2) ertakka oid.
Fabian [ˈfeibiən] *a* ehtiyotli, ehtiyotkor, payt poylaydigan; **~ policy** payt poylash siyosati.
fable [ˈfeibl] *n* 1) masal, to'qima, zarbulmasal; 2) cho'pchak, ertak.
fabler [ˈfeiblə] *n* 1) masalchi, masal yozuvchi, masalnavis; 2) ertakchi.
fabric [ˈfæbrik] *n* 1) gazlama, gazmol, mato; **silk and woolen ~** ipak va jun gazlama; 2) tuzilish, tuzilma; **the ~ of society, the social ~** ijtimoiy tizim; 3) bo'rtma, gul, bezak (*gazmolda*); **cloth of beautiful ~** bezagi chiroyli gazlama; 4) buyum, fabrikat; 5) inshoot, bino.
fabricate [ˈfæbrikeit] *v* 1) o'ylab chiqarmoq; **the story was ~d from beginning to end** hikoya boshidan oxirigacha to'qilgan edi; 2) qalbakilashtirmoq; **to ~ papers** qalbaki hujjatlar tayyorlamoq; 3) ishlab chiqarmoq, tayyorlamoq.

fabricated [ˈfæbrɪkeɪtɪd] *a* yig'ma, tayyor qismlardan yasalgan; ~ **house** tayyor qismlardan qurilgan uy (*panelli uy*).

fabrication [ˌfæbrɪˈkeɪʃn] *n* 1) uydirma, yolg'on, to'qima; **his story was an entire** ~ uning hikoyasi boshidan oxirigacha uydirma edi; 2) soxta, qalbaki narsa; **the document was undoubtedly a** ~ hujjat so'zsiz soxta edi.

fabulist [ˈfæbjulɪst] *n* 1) masalchi, masal yozuvchi, masalnavis; 2) uydirmachi, yolg'onchi.

fabulosity [ˌfæbjʊˈlɔsətɪ] *n* afsonaviy, misli ko'rilmagan, aqlga sig'mas narsa.

fabulous [ˈfæbjuləs] *a* afsonaviy, misli ko'rilmagan; ~ **hero** *afsonaviy qahramon.*

facade [fəˈsɑːd] *n* fasad, binoning old tomoni (*oldi*), tashqi ko'rinish.

face [feɪs] **1.** *n* 1) yuz, afti, qiyofa; 2) yuz ifodasi; chehrasida aks etgan belgi; **straight** ~ ehtirossiz (*hech narsani ifodalamaydigan*) yuz, «niqob»; **to make ~s** aftini burishtirmoq; 3) tashqi ko'rinish, tashqi qiyofa; **on the** ~ **of** tashqi ko'rinishiga ko'ra; 4) *so'zl.* surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik; **to show a** ~ o'zini surbetlarcha tutmoq; 5) sath, tashqi tomon; ~ **of a door** eshik tomonlari (*ichki va tashqi tomon*); 6) usti, sathi (*yerning, suvning*); 7) o'ng, old tomon (*mato, medal va b.larning*); **2.** *v* 1) yuzga qarab turmoq, o'tirmoq; **they sat so as to** ~ **each** ular qarama-qarshi (*betma-bet*) o'tirishardi; **the man now facing me** hozir oldimda turgan kishi; 2) mardona kutib olmoq (*biror narsani*); hech bir qo'rquvsiz yuzga qaramoq; **to** ~ **danger** xavfni qo'rquvsiz kutib olmoq; 3) duch kelmoq, to'qnash kelmoq; **to be ~d with a difficulty** qiyinchilikka duch (to'qnash) kelmoq.

face-ache [ˈfeɪseɪk] *n tib.* yuz asablari, nevralgiyasi (*asab sistemasining biror yeri kasallanishi yoki yallig'lanishi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*).

face-card [ˈfeɪskɑːd] *n* surat, suratli qarta (*korol, valet, dama*).

face-guard [ˈfeɪsgɑːd] *n sport.* himoya qiladigan (saqlaydigan) niqob.

faceless [ˈfeɪsləs] *a* xususiyatsiz, o'ziga xos xislati bo'lmagan.

facelift [ˈfeɪsˌlɪft] *n* yuzni plastik operatsiya qilish.

face-lifting [ˈfeɪsˌlɪftɪŋ] *n* kosmetik maqsadda yuzning plastik operatsiyasi.

face powder [ˈfeɪsˌpaudə] *n* upa.

facer [ˈfeɪsə] *n* 1) betga urilgan zarba; 2) *amer. so'zl.* kutilmagan to'siq.

face-saving [ˈfeɪsˌseɪvɪŋ] *a* obro' uchun qilingan, yuzxotir sifatida.

facet [ˈfæsɪt] **1.** *n* 1) qirra (*olmos va b.larda*); 2) jihat, tomon; **to study all the ~s of matter** masalaning barcha tomonlarini o'rganib chiqmoq; **2.** *v* qirralamoq, silliqlab qirra chiqarmoq.

facetiae [fəˈsiːʃɪˌiː] *n pl lot.* hazillar, qochirimlar, pichinglar.

facetious [fəˈsiːʃəs] *a* 1) hazillashadigan, hazilkash; 2) quvnoq.

face-value [ˈfeɪsˌvælju:] *n* nominal baho, o'z bahosi (*tanga, banknot, aksiyaning*).

facial [ˈfeɪʃl] *a* 1) yuzga oid, yuzdagi; ~ **expression** chehrasida aks etgan belgi; chehra; 2) yuzadagi, sirtqi, ustki; ~ **layer** ustki qatlam; 3) kosmetik; ~ **massage** kosmetik uqalash.

facile [ˈfæsaɪl] *a* 1) yengil, oson, zo'r berishni talab qilmaydigan; ~ **victory (success)** oson erishilgan g'alaba (*muvaffaqiyat*); 2) moyil, ta'sirchan, zehnli; 3) yuzaki, shoshmashosharlik bilan qilingan; ~ **decision** shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan qaror; 4) ko'ngilchan, ko'nikuvchan, yumshoq tabiat; ~ **parents** muruvvatli ota-onalar.

facilitate [fəˈsɪlɪteɪt] *v* yordam bermoq, ko'maklashmoq, yengillatmoq, hamkorlik qilmoq.

facilitation [fəˌsɪlɪˈteɪʃn] *n* yordam berish, ko'mak berish, yengillatish.

facility [fəˈsɪlətɪ] *n* 1) qulaylik, imtiyoz; **good transportation facilities** yaxshi uyushtirilgan transport; 2) yengillik, qiyin emaslik; **the** ~ **of the task** vazifaning yengilligi.

facing [ˈfeɪsɪŋ] *n* 1) qoplama; 2) pardoz sayqal berish; 3) ustki qatlam, silliqlash.

facsimile [fækˈsɪməlɪ] *n* faksimile (*qo'lyozma, hujjat yoki imzoning ayni nusxasi*).

fact [fækt] *n* 1) dalil, chin, haqiqat, mohiyat; 2) haqiqat, reallik; 3) dalil, asos; **you must prove your** ~**s** siz keltirgan dalilni to'g'riligining isbotlashingiz kerak.

fact-finding [ˈfækt,faɪndɪŋ] *n* tekshirish, dalillarni aniqlash.

faction [ˈfækʃn] *n siyos.* fraksiya (*biror tashkilot yoki partiya ichidagi maqsadi va qarashlari bilan boshqalardan farq qiladigan alohida guruh*).

factional [ˈfækʃnəl] *a* fraksion, guruhlikka oid.

factionalism [ˈfækʃnəlˌɪzm] *n* fraksiyachilik, guruhbozlik.

factitious [fækˈtɪʃəs] *a* sun'iy, yasama.

factitive [ˈfæktətɪv] *a gram.* sabab...

factor [ˈfæktə] *n* 1) omil, harakatga keltiruvchi kuch; 2) vositachi; o'rtada turuvchi, dallol; 3) *matem.* ko'paytiruvchi.

factorial [fækˈtɔːrɪəl] *a* o'rtada turuvchi, vositachilikka oid; ~ **duties** o'rtada turuvchining vazifasi.

factory [ˈfæktərɪ] *n* zavod, fabrika; ~ **law** fabrika qonunlari.

factory-buster [ˈfæktərɪˌbʌstə] *n harb.* og'ir fugas bombasi.

factotum [fækˈtəutəm] *n* ishonchli xizmatkor; 2) qo'li gul usta.

factual [ˈfækʧuəl] *a* dalilga asoslangan, haqqoniy.

facultative [ˈfækəltətiv] *a* fakultativ, majburiy bo'lmagan; ixtiyoriy.

faculty [ˈfækəlti] *n* 1) qobiliyat, iste'dod; ~ **of speech** so'zlash qobiliyati, notiqlik; **the mental faculties** aqliy qobiliyatlar; 2) hokimiyat, huquq (*cherkovga oid*); 3) fakultet, bo'lim, bo'linma; **the ~ of law** yuridik fakulteti; 2) o'qituvchi-professorlar tarkibi.

fad [fæd] *n* g'alati qiliq, g'alatilik; **this is a passing ~** o'tkinchi (qisqa muddatli) havas.

faddiness [ˈfædinəs] *n* g'alatilik, qiziqlik, jinnilik.

faddist [ˈfædist] *n* g'alati (*tentaksimon*) odam, qiziq tabiatli kishi.

faddy [ˈfædi] *a* (*tabiati*) qiziqroq, g'alatiroq, tentaksimon.

fade [feid] *v* so'lmoq, qurimoq, sekin yo'q bo'lmoq; **summer ~s into autumn** yoz sekin-asta kuzga aylanmoqda.

fadeaway [ˌfeidəˈwei] *n* asta-sekin (sekin-asta) yo'qolish.

fade-in [ˈfeidin] *n kino. radio. tv.* tovush *yoki* tasvirning asta-sekin paydo bo'lishi.

fadeless [ˈfeidləs] *a* so'lmaydigan, so'lmas, o'chmas.

fade-out [ˈfeidaut] *n kino. radio. tv.* tovush *yoki* tasvirning sekin-asta yo'q bo'lib ketishi.

fading [ˈfeidiŋ] **1.** *pres. p.* **fade** *dan*; **2.** *n radio.* so'nish, o'chish, pasayish, to'xtash.

faeces [ˈfi:si:z] *n pl* 1) cho'kindi, loyqa; quyqum; 2) najas, axlat, tezak.

faerie [ˈfeiəri] *n* 1) ertaklardagi podsholik; 2) pari.

faery [ˈfeiəri] = **faerie.**

fag [fæg] **1.** *n* 1) ng'ir, toliqtiradigan *yoki* zerikarli ish; 2) kattalarga xizmat qiluvchi kichik o'quvchi; **2.** *v* 1) mehnat qilmoq, ishlamoq; 2) kichik do'stlarning xizmatidan foydalanmoq.

fag-end [ˌfægˈend] *n* 1) keraksiz narsa; 2) oxiri; **the ~ of the day** kunning oxiri; **at the ~ of a book** kitobning oxirida.

faggot [ˈfægət] **1.** *n* bog', bog'lam; **2.** *v* shox-shabbalarni bir bog'lam qilib bog'lamoq.

fagot [ˈfægət] *amer.* = **faggot.**

Fahrenheit [ˈfærənhait] *n* Farangeyt termometri, Farangeyt termometrining shkalasi.

faience [faiˈɑ:ns] *n fr.* fayans (*ganch aralash loy*).

follow [ˈfɔləu] *v* 1) ergashmoq, orqasidan bormoq, amal qilmoq; **a concert ~ ed the lecture, the lecture was ~ ed by a concert** ma'ruzadan so'ng konsert bo'ldi (*berildi*); **one misfortune ~s (upon) another** baxtsizlik ustma-ust keldi, baxtsizlik ketma-ket keldi; 2) hamroh bo'lmoq; 3) fikrini qo'llamoq; **I cannot ~ you in all your views** Men sizning hamma fikrlaringizni (*hamma takliflaringizni ham*) qo'llayvermayman; 4) (*biror narsa bilan*) mashg'ul bo'lmoq; **to ~ the plough** yer haydamoq; **to ~ the hounds** ov itlari bilan ovlamoq; **to ~ the law** huquqshunos (*yurist*) bo'lmoq; **to ~ the sea** dengizchi bo'lmoq; 5) poylamoq, kuzatmoq; 6) ko'z qiri bilan kuzatmoq; 7) tinglamoq; **(do) you ~ me?** tushunarlimi? 8) mantiqan kelib chiqmoq.
follower [ˈfɔləuə] *n* izdosh, tarafdor, muxlis, shogird.
following [ˈfɔləuɪŋ] **1.** *pres. p.* **follow** *dan*; **2.** *a* keyingi, navbatdagi.
follow-up [ˈfɔləuʌp] *n* ijroni tekshirish.
folly [ˈfɔlɪ] *n* ahmoqlik, aqlsizlik.
foment [fəu ˈment] *v* 1) *tib.* malham qo'ymoq, malham surmoq; 2) yomon ishga undamoq, g'alamislik qilmoq; 3) yondirmoq, alanga oldirmoq.
fond [fɔnd] *a* sevuvchi, yoqtiruvchi, yaxshi ko'ruvchi; **to be ~ of smb.** (**smth.**) kimnidir (nimanidir) sevmoq.
fondle [ˈfɔndl] *v* erkalamoq, suymoq, erkalatmoq.
fondness [ˈfɔndnəs] *n* nazokat, latofat.
font [fɔnt] *n* 1) *cherk.* jom, tog'ora (*bolani suvga botirib cho'qintiriladigan katta idish*); 2) shrift.
food [fu:d] *n* oziq-ovqat, ozuqa, yemish, yem; **the ~ here is exellent** bu yerning ovqatlari juda yaxshi; **to become ~ for fishes** cho'kmoq, cho'kib ketmoq; **to become ~ for worms** o'lmoq (*qurt-qumursqaga yem bo'lmoq*).
food-card [ˈfu:dkɑ:d] *n* oziq-ovqat kartochkasi.
food-stuffs [ˈfu:dstʌfs] *n* oziq-ovqat mahsulotlari.
fool [fu:l] **1.** *n* ahmoq; tentak; devona; **2.** *v* aldamoq, ahmoq qilmoq; **~ about** ishsiz laqillatib yurmoq.
foolery [ˈfu:lərɪ] *n* ahmoqona xatti-harakat, ahmoqlik, tentaklik.
foolhardy [ˈfu:lhɑ:dɪ] *a* behudaga tavakkal qiladigan, o'zini behudaga xavf ostiga qo'yadigan.
foolish [ˈfu:lɪʃ] *a* kaltafahm, tentak, jinni; **~ness** tentaklik.
foolproof [ˈfu:lpru:f] *a* ishonchli, adashmaydigan.
foot [fut] *n pl* **(feet)** 1) oyoq (*to'piqdan pastki qismi*); 2) tovon; 3) fut (*uzunlik o'lchovi*); bir fut (*30,48 sm.ga teng*); **on ~** piyoda, yayov.

footage [ˈfutɪdʒ] *n* 1) filmning davomiyligi; 2) oyoq kaftida o'lchangan uzunlik.
football [ˈfutbɔ:l] *n* futbol.
footballer [ˈfutbɔ:lə] *n* futbolchi.
foot brake [ˈfutbreɪk] *n* oyoq tormozi.
footer [ˈfutə] *n so'zl.* futbol.
footfall [ˈfutfɔ:l] *n* qadam, qadam tashlash.
foothold [ˈfuthould] *n* tayanch, suyanchiq, tirgak.
footing [ˈfutɪŋ] *n so'zl.* 1) holat, vaziyat; 2) tik turish, muvozanat.
footle [ˈfu:tl] *v so'zl.* ahmoqlik (tentaklik) qilmoq, jinnilik qilmoq.
footlights [ˈfutlaɪts] *n* rampa (*sahna oldiga o'rnatilgan, yorug'i faqat sahnaga tushadigan chiroqlar*).
footling [ˈfutlɪŋ] *a* arzimas, aham iyatsiz, behuda; oson.
footman [ˈfutmən] *n* yugurdak.
foot-mark [ˈfutmɔ:k] *n* iz, oyoq izi.
foot-note [ˈfutnəut] *n* (*sahifa ostidagi*) izoh.
foot-path [ˈfutpɑ:θ] *n* piyoda yurishga mo'ljallangan yo'l, so'qmoq, yo'l.
footprint [ˈfutprɪnt] *n* oyoq izi.
foot-race [ˈfutreɪs] *n* yugurish musobaqasi.
footsore [ˈfutsɔ:] *adv* yeyilgan (siyqalangan) oyoqlar bilan.
footstalk [ˈfutstɔ:k] *n bot.* poya, tana.
footstep [ˈfutstep] *n* 1) qadam, odim; 2) iz.
footstool [ˈfutstu:l] *n* oyoq ostiga qo'yiladigan kursicha.
foot-wear [ˈfutweə] *n* poyabzal, oyoq kiyim.
foozle [ˈfu:zl] *v* naridan-beri (chala-chulpa, palapartish) bajarmoq (*ish va b.*).
fop [fɔp] *n* olifta, satang, o'ziga bino qo'yuvchi odam.
foppery [ˈfɔpərɪ] *n* oliftalik, satanglik.
foppish [ˈfɔpɪʃ] *a* olifta, satang, havoyi, o'ziga bino qo'ygan.
for [fɔ:] *prep. cj.* 1) davomida, vaqtida; 2) uchun; 3) sababli; ~ **life** umrbod; ~ **ever** butunlay; abadiy; ~ **example** misol uchun, chunonchi; 4) ...ga qarshi; **medicine** ~ **a cough** yo'talga qarshi dori.
forage I [ˈfɔrɪdʒ] *n* yem-xashak.
forage II [ˈfɔrɪdʒ] *v* yem-xashak tayyorlamoq.
forasmuch as [fərəzˈmʌtʃæz] *adv* modomiki, hamonki; sababli, uchun.
foray [ˈfɔreɪ] *n* bosqin, hujum, bostirib kelish.
forbad, forbade [fəˈbædz] *past* **forbid** *dan.*
forbear I [ˈfɔ:beə] *n* avlod; ajdod; ota-bobo.
forbear II [ˈfɔ:beə] **2.** *v* 1) **(forbore; forborne)** o'zini tiymoq (tutmoq, to'xtatmoq); 2) chidamli bo'lmoq.
forbearance [fɔ:ˈbeərəns] *n* o'zini tiyishlik; sabr-toqat.
forbid [fəˈbɪd] *v* **(forbad, forbade; forbidden)** taqiqlamoq, man etmoq.
forbidden [fəˈbɪdn] *p. p.* **forbid** *dan.*
forbone [fɔ:ˈbɔ:n] *p. p.* **forbear II** *dan.*
forbore [fɔ:ˈbɔ:] *past.* **forbear II** *dan.*
forborne [fɔ:ˈbɔ:n] *p. p.* **forbear II** *dan.*
force [fɔ:s] **1.** *n* 1) kuch, zo'rlik; **the** ~ **of the blow** zarba kuchi; 2) majburlash; **by** ~ kuch bilan; 3) harbiy guruh; **2.** *v* 1) majbur qilmoq, zo'rlamoq; ~**ful** kuchli; 2) kuch bilan olmoq; **to** ~ **smb. to do smth.** kimnidir nimagadir majburlamoq; 3) tezlashtirmoq.
forced [fɔ:st] **1.** *p. p.* **force 2.** *dan*; **2.** *a* majbur bo'lgan, nochor, majburiy.
force-meat [ˈfɔ:smi:t] *n* qiyma.
forceps [ˈfɔ:seps] *n* jarrohlik qisqichi, pinset.
force-pump [ˈfɔ:spʌmp] *n tex.* dam beradigan nasos.
forcible [ˈfɔ:səbl] *a* 1) majburiy, zo'raki; 2) asosli, ishonchli (*fikrlar va b.lar*).
ford [fɔ:d] **1.** *n* kechuv, kechish; **2.** *v* kechib o't-moq.
fore [fɔ:] **1.** *n* yuz (old) tarafi; **2.** *a* yuz (old) tarafdagi.
fore-and-aft [ˌfɔ:rəndˈɑ:ft] *a deng.* bo'ylama, uzunasiga, bo'yiga.
forearm [ˈfɔ:rɑ:m] *n* bilak.
forebear [ˈfɔ:beə] = **forbear I.**
forebode [fɔ:ˈbəud] *v* 1) bashorat qilmoq, oldindan xabar bermoq; 2) oldindan sezmoq.
foreboding [fɔˈbəudɪŋ] **1.** *pres. p.* **forebode** *dan*; **2.** *n* oldindan sezish, ko'ngil sezish.
forecast [ˈfɔ:kɑ:st] **1.** *n* bashorat, karomat, oldindan aytish; **2. (forecast, forecasted)** *v* oldindan aytib bermoq, bashorat qilmoq; **weather** ~ ob-havo ma'lumoti.
forecastle [ˈfəuksl] *n deng.* bak (*ba'zi kemalarning old qismi*).
foreclose [fɔ:ˈkləuz] *v* oldini olmoq, ehtiyot chorasini ko'rmoq.
forecourt [ˈfɔ:kɔ:t] *n* tashqi hovli, bino oldidagi yalanglik.
forefather [ˈfɔ:fɑ:ðə] *n* ota-bobo, avlod-ajdod.
forefinger [ˈfɔ:fɪŋgə] *n* ko'rsatkich barmoq.
forefoot [ˈfɔ:fut] *n* hayvonlarning oldingi oyog'i.
forefront [ˈfɔ:frʌnt] *n* oldingi o'rin, muhim o'rin.
foregather [fɔ:ˈgæðə] *v* to'plamoq, yig'moq.
forego [fɔ:ˈgəu] *v* ilgari bo'lmoq, oldin yuz bermoq.
foregoing [fɔ:ˈgəuɪŋ] *a* ilgari, ilgarigi, oldingi, o'tgan, oldin bo'lgan.
foregone [fɔ:ˈgɔn] **1.** *p. p.* **forego** *dan*; **2.** *a* ilgarilab ketgan, oldinga o'tib ketgan.
foreground [ˈfɔ:graund] *n* 1) oldingi planda (*suratda*); 2) ko'zga yaqin joy, ko'zga tashlanadigan.
forehand [ˈfɔ:hænd] *n* o'ng tarafdan urish (*tennis va b.larda*).
forehead [ˈfɔrɪd] *n* peshana.
foreign [ˈfɔrən] *a* 1) chet el, xorijiy, tashqi; ~ **language** chet tili; ~ **affairs** tashqi aloqalar; 2) notanish, begona; ~ **trade** tashqi savdo.
foreigner [ˈfɔrənə] *n* chet ellik.

foreknowledge [ˌfɔːˈnɔlɪdʒ] *n* oldindan bilish, oldindan ko'rish.
foreland [ˈfɔːlənd] *n* 1) burun (*dengizga oid*); 2) dengiz bo'yi.
foreleg [ˈfɔːleg] *n* oldingi oyoq (*hayvonlarda*).
forelock [ˈfɔːlɔk] *n pl* peshana gajak.
foreman [ˈfɔːmən] *n* 1) usta, mutaxassis; 2) *yur.* sud maslahatchilari raisi.
foremast [ˈfɔːmɑːst] *n deng.* fok-machta (*kemaning old tomonidagi machta*).
foremost [ˈfɔːməʊst] **1.** *a* eng mashhur, eng taniqli; **2.** *adv* birinchi o'rinda, birinchi.
forename [ˈfɔːneɪm] *n* ism, ot, nom.
forenoon [ˈfɔːnuːn] *n* erta, ertalab, tong, sahar.
foresaw [fɔːˈsɔː] *past.* **foresee** *dan.*
foresee [fɔːˈsiː] *v* (**foresaw; foreseen**) oldindan ko'rmoq (bilmoq), bashorat qilmoq.
foreseeable [fɔːˈsiːəbl] *a* kutilayotgan, oldindan ko'riladigan, bilinadigan.
foreseen [fɔːˈsiːn] *p. p.* **foresee** *dan.*
foreshadow [fɔːˈʃædəʊ] *v* bashorat qilmoq.
foreshore [ˈfɔːʃɔː] *n* qirg'oqning suv bilan yuvilib turgan qismi.
foreshorten [fɔːˈʃɔːtn] *v* qisqartirib (kichraytirib) tasvirlamoq.
foresight [ˈfɔːsaɪt] *n* 1) oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish, uzoqni ko'rish; 2) ehtiyotkorlik.
foreskin [ˈfɔːskɪn] *n* tana, badan.
forest [ˈfɒrɪst] **1.** *n* o'rmon; **2.** *v* o'rmonlashtirmoq; daraxt ekmoq.
forestall [fɔːˈstɔːl] *v* 1) ogohlantirmoq, xabar bermoq; 2) oldindan qilmoq, oldini olmoq.
forester [ˈfɒrɪstə] *n* o'rmon nazoratchisi.
forestry [ˈfɒrɪstrɪ] *n* o'rmonchilik, o'rmon xo'jaligi.
foretaste [ˈfɔːteɪst] *n* oldindan lazzatlanish yoki qayg'urish.
forethought [ˈfɔːθɔːt] *n* uzoqni rejalashtirish.
foretell [fɔːˈtel] *v* (**foretold**) oldindan aytmoq.
foretoken [fɔːˈtəʊkən] *v* bashorat qilmoq, oldindan aytib bermoq.
foretold [fɔːˈtəʊld] *v* oldindan aytmoq, bashorat qilmoq.
forever [fərˈevə] *adv* abadiy, doimiy.
forewarn [fɔːˈwɔːn] *v* ogohlantirib qo'ymoq.
foreword [ˈfɔːwɜːd] *n* so'z boshi, muqaddima.
forfeit [ˈfɔːfɪt] *n* musodara, huquqdan mahrum bo'lish.
forfeiture [ˈfɔːfɪtʃə] *n* konfiskatsiya, musodara, musodara qilish.
forgather [fɔːˈgæðə] *v* to'plamoq, yig'moq, yig'ilmoq.
forgave [fəˈgeɪv] *past.* **forgive** *dan.*
forge [fɔːdʒ] **1.** *n* temirchi ustaxonasi; **2.** *v* 1) bolg'a bilan (*biror narsa*) yasamoq; 2) soxtalashtirmoq.
forger [ˈfɔːdʒə] *n* 1) temirchi; 2) soxta pul yasovchi.
forgery [ˈfɔːdʒərɪ] *n* 1) soxtalashtirish, qalbakilashtirish; 2) soxta imzo, qalbaki hujjat.
forget [fəˈget] *v* (**forgot; forgotten**) esdan chiqarmoq, unutmoq; **~ful** unutuvchan, faromushxotir.
forget-me-not [fəˈgetmɪnɔt] *n bot.* bo'tako'z (*gul*).
forgivable [fəˈgɪvəbl] *a* kechiriladigan, kechirsa bo'ladigan.
forgive [fəˈgɪv] *v* (**forgave; forgiven**) kechirmoq, gunohidan o'tmoq.
forgiven [fəˈgɪvn] *p.p.* **forgive** *dan.*
forgiveness [fəˈgɪvnəs] *n* kechirish, gunohidan o'tish.
forgo [fɔːˈgəʊ] *v* (**forwent; forgone**) rad qilmoq, voz kechmoq, sabr-qanoat qilmoq, o'zini (nafsini) tiymoq, saqlanmoq.
forgone [fɔːˈgɔn] *p. p.* **forgo** *dan.*
forgot [fəˈgɔt] *past.* **forget** *dan.*
forgotten [fəˈgɔtn] *p. p.* **forget** *dan.*
fork [fɔːk] **1.** *n* 1) ayri, panshaxa; 2) vilka (*ovqat yeydigan*); 3) sanchqi; **2.** *v* panshaxa bilan ishlamoq.
forlorn [fəˈlɔːn] *a* yolg'iz, baxtsiz, umidsiz, tushkun.
form [fɔːm] **1.** *n* 1) ust-bosh, tashqi ko'rinish; 2) *harb.* tuzilma; 3) (*odam*) shakl, qomat; 4) usul (*adabiyot*) uslub; 5) toifa; tur; **~s of animal** hayvonlar turi; 6) holat; **2.** *v* 1) yaratmoq, 2) tuzmoq, 3) shakllantirmoq; **to ~ an opinion** fikrini shakllantirmoq; 4) qurmoq.
formal [ˈfɔːməl] *a* 1) rasmiy, qonuniy; **~ agreement** rasmiy kelishuv; 2) tashqi; **~ism** rasmiyatchilik.
formality [fɔːˈmælətɪ] *n* 1) rasmiyatchilik; 2) sinchkovlik.
formally [ˈfɔːməlɪ] *adv* rasmiy, rasman.
format [ˈfɔːmæt] *n* format, hajm; shakl; kitob formati.
formation [fɔːˈmeɪʃn] *n* tuzish, tashkil etish, yaratish, shakllanish.
formative [ˈfɔːmətɪv] *a* singitadigan, singiydigan, oqlaydigan.
former [ˈfɔːmə] **1.** *a* oldingi, sobiq; **in ~ time** oldingi paytlarda; **2.** *n* 1) qolib; 2) tuzuvchi, yaratuvchi.
formerly [ˈfɔːməlɪ] *adv* avval, ilgari, qachonlardir.
formic acid [ˌfɔːmɪkˈæsɪd] *n kim.* chumoli kislotasi.
formidable [ˈfɔːmɪdəbl] *a* 1) dahshatli; 2) yengish qiyin bo'lgan; 3) ulkan; **~ army** kuchli armiya.
formless [ˈfɔːmləs] *a* formasiz, shaklsiz.
formula [ˈfɔːmjulə] *n* formula, aniq ifoda, ta'rif.
formulate [ˈfɔːmjuleɪt] *v* ifodalamoq, tahrir qilmoq; **to ~ a proposal** taklifni ifoda etmoq.
formulation [ˌfɔmjuˈleɪʃn] *n* ifodalash, tahrir, tahrir qilish.
fornicate [ˈfɔːnɪkeɪt] *a* zino qilmoq.
forsake [fəˈseɪk] *v* (**forsook; forsaken**) tashlab ketmoq; voz kechmoq, bahridan o'tmoq.

forsaken [fə´seikən] *p.p.* **forsake** *dan.*
forsook [fə´suk] *past.* **forsake** *dan.*
forswear [fɔ:´swєə] *v* **(forswore; forsworn)** inkor qilmoq; tonmoq; qaytmoq.
forswore [fɔ: ´swɔ:] *past.* **forswear** *dan.*
forsworn [fɔ´swɔ:n] *a* qasamni buzgan, qasamxo'r.
fort [fɔ:t] *n* qal'a, qo'rg'on.
forte [´fɔ:tei] **1.** *n* kuchli tomon, kuchli jihat; **2.** *adv mus.* forte, qattiq, kuchli.
forth [fɔ:θ] *adv* olg'a, oldinga; **and so ~** va boshqalar; va h.k.
forthcoming [fɔ:θ´kʌmiŋ] *a* 1) bo'lg'usi, kelgusi, kelajak; **~ book** yaqinda nashrdan chiqadigan kitob; 2) yaqinda bo'ladigan; kelajakdagi, kelgusi.
forthright [´fɔ:θrait] *a* ochiq, beg'araz, halol.
forthwith [ˌfɔ:θ´wiθ] *adv* darrov, darhol, shu zahoti.
forties [´fɔ:iz] *n pl* **(the ~)** qirqinchi yillar; **in the ~** qirqinchi yillarda.
fortieth [´fɔ:iəθ] **1.** *num. ord.* qirqinchi; **2.** *n* qirqinchi qism.
fortification [ˌfɔ:tifi´keiʃən] *n* mudofaa inshooti.
fortify [´fɔ:tfai] *v* 1) mustahkamlamoq; 2) kuchaytirmoq, oshirmoq.
fortissimo [fɔ:´tusimɔu] *adv mus.* fortissimo, juda kuchli, juda qattiq.
fortitude [´fɔ:titju:d] *n* chidamlilik, bardoshlilik.
fortnight [´fɔ:tnait] *n* ikki hafta; **this day ~** roppa-rosa ikki haftadan so'ng; **this ~** so'nggi ikki hafta; **~ly** ikki haftada bir marta.
fortress [´fɔ:trəs] *n* qal'a, qo'rg'on.
fortuitous [fɔ:´tju:itəs] *a* tasodifiy, tasodifan bo'lgan, nogahoniy, kutilmagan.
fortuity [fɔ:´tju:iti] *n* voqea, hodisa.
fortunate [´fɔ:tʃənət] *a* baxtli; o'ng'ay; muvaffaqiyatli; **~ly** baxtiga (baxtimga), xayriyat.
fortune [´fɔ:tʃən] **1.** *n* 1) omad, baxt, taqdir, boylik, davlat, mulk; 2) **had ~** omadsizlik; 3) **to come into a ~** merosga ega bo'lmoq; **to make a ~** boyib ketmoq; **2.** *v* 1) sodir bo'lmoq; 2) urilib ketmoq; urib olmoq; duch kelmoq.
fortune-teller [´fɔ:tʃənˌtelə] *n* folbin, romchi, kinnachi.
forty [´fɔ:ti] *num. card.* qirq.
forum [´fɔ:rəm] *n* 1) anjuman, yig'in; 2) syezd, forum; 3) munozara, ochiq muloqot.
forward [´fɔ:wəd] **1.** *n sport.* hujumchi *(futbolda)*, **centre ~** hujum markazi; **2.** *a* 1) oldingi, ilg'or, birinchi; 2) eng yaxshi; **~ pupil** eng yaxshi o'quvchi; 3) erta, vaqtli; **~ spring** erta bahor; 4) tayyor; **3.** *adv* olg'a; **~!** olg'a!; 2) olg'a, uzoqroq, nariroq; **from this time ~** shu vaqtdan boshlab; **to look ~ for smth.** oldindan sezib zavqlanmoq; **to look ~ to see smb. soon** tez kunda biror kishi bilan ko'rishishga oshiqish; **4.** *v* 1) yordam bermoq; 2) jo'natmoq; **to ~ goods** yukni belgilangan joyga jo'natmoq.
forwent [fɔ:´went] *past.* **forgo** *dan.*
fosse [fɔs] *n harb.* o'r, chuqur, xandaq, zovur.
fossil [´fɔsl] **1.** *n* toshga aylanganlik, toshday qotib qolganlik *(hayvon yoki o'simlik qoldig'i haqida)*; **2.** *a* toshga aylangan, tosh bo'lib qolgan *(qadimgi hayvonlarning qoldiqlari haqida)*.
foster [´fɔstə] *v* tarbiyalamoq, qaramoq; boqmoq; **~ brother** emikdosh *(sut emishgan)* aka yoki uka; **~ child** asrandi *(o'g'il yoki qiz)*; **—father** tutishgan ota; **~ling** asrandi; shogird; **—mother** tutingan ona; enaga; birovning bolasini *(emizib)* boquvchi ayol.
foster-sister [´fɔstəˌsistə] *n* emikdosh singil.
fought [fɔ:t] *past., p. p.* **fight 2** *dan.*
foul [faul] **1.** *a* 1) sassiq, badbo'y; 2) iflos, loy; 3) yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon; 4) yomon, yaramas, xunuk, bemaza, rasvo; **2.** *n* qoidani buzish; **3.** *v* 1) buzmoq, shikast yetkazmoq, ishdan chiqarmoq; 2) chalkashtirmoq; 3) buzilmoq, ishdan chiqmoq.
foul-mouthed [´faulmauðd] *a* behayo, beodob, nojo'ya, yomon.
found I [faund] *v* 1) barpo qilmoq *(shahar)*; **to ~ a building** binoni barpo qilmoq; 2) yaratmoq; **to ~ a theory** nazariya yaratmoq; 3) asos solmoq; 4) ta'sis etmoq; **to be well ~ bounded** yaxshi asoslangan.
found II [faund] *a* ta'minlangan.
found III [faund] *past., p. p.* **find 1.** *dan.*
foundation [faun´deiʃn] *n* 1) zamin, barpo etish, asos, negiz; **to lay the ~s of smth.** nimagadir zamin yaratmoq; 2) tashkilot; **the ~ of a library** kutubxona tashkiloti.
founder [´faundə] **1.** *n* yaratuvchi, asoschi; **2.** *v* 1) oqsamoq; yiqilmoq; 2) judo bo'lmoq, o'lmoq.
foundling [´faundliŋ] *n* tashlandiq bola.
foundry [´faundri] *n* metall quyish zavodi.
fount [faunt] *n* buloq, chashma.
fountain [´fauntin] *n* 1) favvora fontan; 2) buloq; chashma.
fountain-pen [´fauntinpen] *n* avtoruchka.
four [fɔ:] *num. card.* to'rt; to'rtlik; **on all ~s** to'rt oyoqlab; **~ footed** to'rt oyoqli.
fourfold [´fɔ:fəuld] *a* to'rt marta, to'rt karra.
four-footed [ˌfɔ:´futid] *a* to'rt oyoqli.
four-in-hand [ˌfɔ:rinhænd] *n* to'rt kishidan iborat bo'lgan ekipaj.
four-seater [ˌfɔ:´si:tə] *n* to'rt o'rinli mashina.
four-square [ˌfɔ:´skwєə] *n* kvadrat *(tomonlari teng to'g'ri to'rtburchak)*.
fourteen [ˌfɔ:´ti:n] *num. card.* o'n to'rt; **~th** o'n to'rtinchi.
fourth [fɔ:θ] **1.** *num. ord.* to'rtinchi; **2.** *n* to'rtdan bir.
fowl [faul] **1.** *n* uy parrandalari; **2.** *v* qush ovlamoq.
fowling [´fauliŋ] *n* qush ovlash.
fowling-piece [´fauliŋpi:s] *n* ov miltig'i.
fox [fɔks] **1.** *n* tulki; **2.** *v* ayyorlik qilmoq.
fox-brush [´fɔksbrʌʃ] *n* tulkining dumi.
fox-earth [´fɔksə:θ] *n* tulki ini.

foxglove [ˈfɔksglʌv] *n bot.* digitalis (*dorivor o'simlik turi*).
foxhole [ˈfɔkshəul] *n* tulki ini.
foxy [ˈfɔksɪ] *a* 1) tulkiga oid; 2) mug'ambir.
foyer [ˈfɔɪeɪ] *n* foye (*teatrda*).
fracas [ˈfrækɑ:] *n* urish, janjal, nizo, araz.
fraction [ˈfrækʃn] *n* 1) kasr; 2) bo'lak; ulush.
fractional [ˈfrækʃnəl] *a mat.* kasriy, kasr.
fractionally [ˈfrækʃnəlɪ] *adv* juda kichik darajada, juda kichik miqdorda.
fractious [ˈfrækʃəs] *a* 1) injiq, serxarxasha, tantiq; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl.
fracture [ˈfræktʃə] *n* siniq, sinish, singan joy.
fragile [ˈfrædʒaɪl] *a* mo'rt, tez sinadigan.
fragility [frəˈdʒɪlətɪ] *n* mo'rtlik, sinuvchanlik.
fragment [ˈfrægmənt] *n* parcha, bo'lak, qism.
fragmentary [ˈfrægməntərɪ] *a* uzilgan, bir-biriga bog'lanmagan, chala-chulpa.
fragmentation [ˌfrægmenˈteɪʃn] *n* snaryad parchasi.
fragrance [ˈfreɪgrəns] *n* xushbo'y hid, muattar hid.
fragrant [ˈfreɪgrənt] *a* xushbo'y, yaxshi hidli, muattar.
frail [freɪl] 1. *a* nimjon; sinuvchan; **2.** *n* 1) qamish; 2) savat (*meva va sabzavotlar uchun*).
frame [freɪm] **1.** *n* 1) skelet, qobirg'a; 2 qaddi-qomat, gavda; 3) ramka; **2.** *v* 1) yasamoq; qurmoq; solmoq, barpo qilmoq, o'rnatmoq; **to ~ a plan** reja tuzmoq; 2) ramkaga solmoq.
framework [ˈfreɪmwɜ:k] *n* 1) kesish, kesilgan joy; 2) sinch; 3) rom. ramkaga solish, hoshiyalash; **within the ~ of** (*smth.*) biror narsa ichida.
franc [frænk] *n* frank (*pul birligi*).
franchise [ˈfæntʃaɪz] *n* 1) saylash huquqi; 2) imtiyoz, yengillik.
frank [frænk] *a* 1) ochiq, oshkora, ochiqdan-ochiq; samimiy; sofdil; **a ~ look in the eyes** ochiq chehra; 2) saxiy.
frankness [ˈfræŋknəs] *n* ochiqlik, samimiylik.
frankfurter [ˈfræŋkfɜ:tə] *n* sosiska.
frantic [ˈfræntɪk] *a* jazavaga tushgan, g'azab va hayajondan o'zini bilmaydigan; shiddatli.
fraternal [frəˈtɜ:nl] *a* qardoshlikka oid, qardoshlik; do'stona.
fraternity [frəˈtɜ:nətɪ] *n* do'stlik, qardoshlik; birodarlik; **the ~ of all men** hammani qardoshligi, do'stligi.
fraternization [ˌfrætənaɪˈzeɪʃn] *n* do'stlashuv, birodarlashuv.
fraternize [ˈfrætənaɪz] *v* do'stona munosabat bog'lamoq, inoqlashmoq.
fratricidal [ˌfrætrɪˈsaɪdl] *a* yaqin kishilarning bir-birini o'ldirishiga (qirishiga) oid.
fratricide [ˈfrætrɪsaɪd] *n* qon-qarindoshlarning bir-birini o'ldirishi.
fraud [frɔ:d] *n* 1) qallob; muttaham, yolg'onchi; 2) yolg'on gap.
fraudulent [ˈfrɔ:djulənt] *a* aldamchilikka (firibgarlikka) asoslangan, aldovdan iborat bo'lgan.
fraught [frɔ:t] *a* to'la, to'lib-toshgan.
fray [freɪ] *v* 1) teshilmoq, to'zib ketmoq, eskirmoq (*kiyimga nisbatan*); 2) asablari charchamoq.
frazzle [ˈfræzl] *n* charchash, asabning charchashi.
freak [fri:k] *n* 1) injiqlik, g'aroyibot; 2) g'ayritabiiy kishi; 3) nogiron odam.
freakish [ˈfri:kɪʃ] *a* injiq, serxarxasha, tantiq.
freckle [ˈfrekl] *n pl* sepkil.
freckled [ˈfrekld] *a* sepkilli, sepkil bosgan, sepkildor.
free [fri:] **1.** *a* 1) ozod, mustaqil, erkin; **~ country** ozod Vatan (mamlakat); **~ people** ozod xalq; 2) ko'ngilli, ixtiyoriy; **~ choice** ixtiyoriy saylov; 3) band bo'lmagan, bo'sh; **are you ~ in the afternoon** kunduzi siz bo'shmisiz?; 4) bo'sh, ochiq; **is the way ~?** yo'l ochiqmi (bo'shmi)? 5) bepul (*sovg'a sifatida*); **~ board and lodging** bepul yashash va ta'minlash; **~ education** bepul ta'lim (bilim); 6) neytral, xolis, betaraf, erkin; **~ flight** erkin uchish; *tex.* **~ position** betaraf (xolis) taraf; **2.** *v* ozod qilmoq, xalos qilmoq; **to ~ the land from oppression** jabr zulmdan mamlakatni ozod qilmoq.
freebooter [ˈfri:bu:tə] *n* dengiz qaroqchisi.
freedom [ˈfri:dəm] *n* 1) ozodlik, mustaqillik; **the ~ of a country** mamlakat mustaqilligi; 2) imtiyoz, yengillik; **~ of speech** so'z erkinligi; 3) erkin foydalanish.
freedom-loving [ˈfri:dəmˌlʌvɪŋ] ozodlikni sevuvchi, erksevar, xurriyatparvar.
freefone [ˈfri:fəun] *n* bepul qo'ng'iroq qilish tizimi
free-hand [ˈfri:hænd] *a* qo'lda chizilgan; **a ~ drawing** qo'lda chizilgan rasm.
free-handed [ˌfri:ˈhændɪd] *a* saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, himmatli.
freeholder [ˈfri:həuldə] *n tar.* yer egasi.
freelance [ˈfri:lɑ:ns] *n* yollanma ishchi.
freely [ˈfri:lɪ] *adv* 1) erkin, bemalol, to'siqsiz, qiyinchiliklarsiz; 2) keng, mo'l, serob.
Freemason [ˈfri:meɪsn] *n* mason (*masonlik oqimning tarafdori, masonlar tashkilotining a'zosi*).
freepost [ˈfri:ˌpəust] *n* bepul pochta jo'natish.
free-thinker [ˌfri:ˈθɪŋkə] *n* hurfikr (erkin fikr qiluvchi) odam.
freeway [ˈfri:weɪ] *n amer.* avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunalangan katta yo'l*).
freeze [fri:z] **1.** *n* sovuq; ayoz; **2.** *v* (**froze; frozen**) muzlatmoq, muzlamoq, yaxlamoq; tutmoq.
freezer [ˈfri:zə] *n* muzlatgich, muzxona.
freezing [ˈfri:zɪŋ] **1.** *pres. p.* **freeze 2.** *dan*; **2.** *n* muzlash.
freezing-point [ˈfri:zɪŋpɔɪnt] *n* muzlash nuqtasi.
freight [freɪt] *n* 1) (*kemada*) yuk tashish haqi, kira puli; 2) kemada tashiladigan yuk.
freighter [ˈfreɪtə] *n* yuk tashuvchi kema *yoki* samolyot.
French [frentʃ] **1.** *a* fransuzcha; fransuz; **2.** *n* fransuz tili; **~man** fransuz; **~ woman** fransuz ayoli.

frenzied [ˈfrenzɪd] *a* yovvoyi, vahshiy. darg'azab.
frenzy [ˈfrenzɪ] *n* aqldan ozishlik, quturish.
frequency [ˈfri:kwənsɪ] *n* tezlik; tez-tez qaytalanish, takrorlanish.
frequent **1.** *a* [ˈfri:kwənt] tez-tez bo'ladigan, qaytalanib, takrorlanib turadigan; **2.** *v* |frɪ ˈkwent] tez-tez qatnashmoq.
frequentative [frɪˈkwentətɪv] *a gram.* takroriy.
fresco [ˈfreskəu] *n* (*pl* **-os, oes** [-əuz]) devorga ishlangan suratlar.
fresh [freʃ] *a* 1) yangi, endigina uzilgan, yangi chiqqan; 2) musaffo, toza; 3) tiniq, yorqin; 4) tetik, bardam.
freshen [ˈfreʃn] *v* 1) ochmoq, ko'rkamlashmoq, chiroy bag'ishlamoq; 2) kuchaymoq, shiddatlashmoq (*shamolga nisbatan*).
fresher [ˈfreʃə] *n* 1) yangi odam, endigina kelgan odam; 2) birinchi kurs talabasi.
freshet [ˈfreʃɪt] *n* daryoning toshishi.
freshly [ˈfreʃlɪ] *adv* yaqinda, yaqindagina, kechagina, hali, boya.
freshman [ˈfreʃmən] = **fresher.**
fret [fret] **1.** *n* 1) tor, parda (*dutor, gitara va sh.k da.*); 2) azob-uqubat, jafo, aziyat, ozor; **2.** *v* xavotirlanmoq, tashvishlanmoq.
fretful [ˈfretfəl] *a* tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serjahl, serzarda.
fretwork [ˈfretwə:k] *n me'mor.* naqsh bilan bezatish.
friable [ˈfraɪəbl] *a* bo'sh, yumshoq (*yer*); mo'rt.
friar [ˈfraɪə] *n tar.* monax, rohib.
friary [ˈfraɪərɪ] *n* erkaklar monastiri.
fricative [ˈfrɪkətɪv] **1.** *a fonet.* frikativ, sirg'aluvchan; **2.** *n* frikativ, sirg'aluvchi tovush.
friction [ˈfrɪkʃn] *n* 1) ishqalanish; 2) *tib.* malhamning surtilishi; 3) *ko'ch.* kelishmovchilik.
frictional [ˈfrɪkʃnəl] friksion, ishqalanadigan, chig'iriqli.
Friday [ˈfraɪdeɪ] *n* juma.
fridge [frɪdʒ] *n* sovitgich, muzlatgich.
friend [frend] *n* 1) do'st, og'ayni; 2) tanish; **have you any ~s here** bu yerda tanishingiz hormi?
friendless [ˈfrendləs] *a* yakka, yolg'iz, tanho, boshqalardan ajralgan.
friendly [ˈfrendlɪ] *a* 1) do'stona; 2) samimiy munosabatdagi; **~ nation** do'st mamlakat.
friendship [ˈfrendʃɪp] *n* 1) do'stlik; 2) xayrixohlik, samimiyat.
frigate [ˈfrɪgət] *n deng.* fregat (*1. uch machtali yelkanli harbiy kema; 2. soqchi harbiy kema*).
frige [frɪdʒ] *n* sovitgich, muzlatgich.
fright [fraɪt] *n* qo'rqish, qo'rquv; **~ful** qo'rqinchli, vahimali; **to give smb. a ~** biror kimni qo'rqitmoq; **to have a ~** qo'rqib ketmoq.
frighten [ˈfraɪtn] *v* qo'rqitmoq, cho'chitmoq.
frightened [ˈfraɪtnd] **1.** *p. p.* **frighten** *dan*; **2.** *a* qo'rqqan, cho'chigan.
frightful [ˈfraɪtfəl] *a* vahimali, qo'rqinchli.
frightfully [ˈfraɪtfəlɪ] *adv* vahimali, dahshat.
frigid [ˈfrɪdʒɪd] *a* iltifotsiz, e'tiborsiz.
frigidity [frɪˈdʒɪdətɪ] *n* e'tiborsizlik, iltifotsizlik.
frill [frɪl] *n* 1) jabo (*yoqaning chetidagi to'r yoki matodan qilingan burma hoshiya*).
frilled [frɪld] *a* 1) burma bilan bezatilgan; 2) novanova; qat-qat; 3) qirrali kesilgan.
frilly [ˈfrɪlɪ] *n* burmali.
fringe [frɪndʒ] *n* 1) qo'shimcha nafaqa; 2) peshana gajak; 3) popuk, gajim shokila; **the ~ of curtain** pardadagi popuk; 4) jiyak, mag'iz; hoshiya.
frippery [ˈfrɪpərɪ] *n* zar ip, zar, bezak.
frisk [frɪsk] **1.** *v* tinmay o'ynamoq; o'ynoqlamoq; **2.** *n* chopqillash, sakrash.
fritter [ˈfrɪtə] **1.** *n* 1) qism; 2) oladya (*taom turi*); **2.** *v* maydalamoq, ushatmoq.
frivolity [frɪˈvɔlətɪ] *n* mulohazasizlik, yengiltaklik.
frivolous [ˈfrɪvələs] *a* mulohazasiz, yengiltak.
frizz [frɪz] **1.** *v* jiz-jiz qilmoq (*qovurganda*); **2.** *n* gajak qilish.
frizzle [ˈfrɪzl] *v* jaz-juz (jiz-jiz) qilib qovurmoq.
frizzy [ˈfrɪzɪ] *a* jingalak.
fro [frəu] *adv* : **to and ~** u yoqqa-bu yoqqa, orqaga va oldinga.
frock [frɔk] *n* ayollar ko'ylagi (libosi).
frock-coat [ˌfrɔk ˈkəut] *n* surtuk (*erkaklarning uzun belburma kamzuli*).
frog [frɔg] *n* baqa, qurbaqa.
frogman [ˈfrɔgmən] *n* g'avvos (*suv o'tkazmaydigan maxsus kiyimda suvosti ishlarini bajaruvchi ishchi*).
frolic [ˈfrɔlɪk] **1.** *v* sho'xlik qilmoq, to'polon qilmoq; **2.** *n* sho'xlik.
frolicsome [ˈfrɔlɪksəm] *a* sho'x, o'ynoqi, xushchaqchaq.
from [frɔm] *prep.* 1) ...dan; ...dan beri; 2) natijada, sababli; **~ morning till night** ertadan kechgacha.
front [frʌnt] **1.** *harb.* front, oldingi tomon; **look to your ~** oldinga qara; **2.** *a* oldingi; **~ teeth** oldingi tishlar; **3.** *v* oldinga chiqmoq.
frontage [ˈfrʌntɪdʒ] *n* fasad (*binoning old tomoni, oldi*).
frontal [ˈfrʌntl] *a* 1) *anat.* peshana (manglay) suyagi; 2) *harb.* old tomonda joylashgan, oldingi tarafdagi.
frontier [ˈfrʌntɪə] *n* 1) chegara; 2) chegara qal'asi.
frontispiece [ˈfrʌntɪspi:s] *n* frontispis (*1. imoratning old tomoni, peshtoqi; 2. kitobning birinchi betidan oldingi betdagi yoki birinchi betning matndan yuqoridagi rasm*).
frost [frɔst] **1.** *n* sovuq, ayoz; **ten degrees of ~** o'n daraja sovuq; **hard ~ (sharp ~, biting ~)** qattiq sovuq; **2.** *v* sovuq urib ketmoq; muzlamoq.
frost-bite [ˈfrɔstbaɪt] *n* sovuqqa oldirib (urdirib) qo'yilgan joy.

frost-bitten [ˈfrɔstbɪtn] *a* sovuqqa oldirilgan (urdirilgan).
frost-bound [ˈfrɔstbaund] *a* muzlatib qo'yilgan.
frost-hardy [ˈfrɔst,hɑ:dɪ] *a* sovuqqa chidaydigan, sovuqbardosh (*o'simliklar haqida*).
frostily [ˈfrɔstɪlɪ] *adv* sovuqqina, iltifotsiz.
frosting [ˈfrɔstɪŋ] **1.** *n* 1) sir; 2) shakar qiyom, shira; **2.** *v* sirlamoq; yaltiratmoq, jilo bermoq.
frost-work [ˈfrɔstwə:k] *n* oynalardagi muz naqshi (*sovuqdan oynalarga tushgan jim-jimador naqsh*).
frosty [ˈfrɔstɪ] *a* sovuq, muzlatadigan.
froth [frɔθ] **1.** *n* ko'pik; **2.** *v* ko'piklanmoq, ko'pirmoq.
frothy [ˈfrɔθɪ] *a* ko'pikli, ko'pikka o'xshash.
frown [fraun] **1.** *v* qovog'ini solmoq; norozi bo'lmoq; **2.** *n* qovog'ini solish; norozi bo'lish.
frowsty [ˈfraustɪ] *a* dim, dam, bo'g'iq.
frowzy [ˈfrauzɪ] *n* isqirt, iflos, to'zg'igan.
froze [frəuz] *past.* **freeze** *dan.*
frozen [ˈfrəuzn] *a* muzlagan, muzlatilgan.
frugal [ˈfru:gl] *a* 1) tejab (ehtiyotkorlik bilan) sarf qiladigan, tejamkor; 2) o'rtacha, mo'tadil.
frugality [fru:ˈgælətɪ] *n* tejab-tergash, ayash, tejamkorlik.
fruit [fru:t] *n* 1) meva; **to grow ~s** mevali daraxt o'stirmoq; **~er** meva daraxti; **~less** mevasiz, samarasiz; foydasiz, natijasiz; 2) natija.
fruiterer [ˈfru:tərə] *n* meva sotuvchi.
fruitful [ˈfru:tfəl] *a* mevali, samarali, hosildor; **~ tree** sermeva daraxt.
fruition [fruˈɪʃn] *n* orzuning ushalishi, rejaning amalga oshishi.
fruitless [ˈfru:tləs] *a* samarasiz, foydasiz.
frumpish [ˈfrʌmpɪʃ] *a* bichimi (modasi) eskirgan, eski modadagi, eskicha.
frustrate [frʌˈstreɪt] *v* buzmoq, barbod qilmoq; **to ~ plans** rejalarni buzmoq.
frustration [frʌˈstreɪʃn] *n* 1) barbod bo'lish, ostin-ustun bo'lish; **the ~ of smb's plans** kimningdir rejasining buzilishi; 2) halokat.
fry [fraɪ] **1.** *n* qovurdoq; **2.** *v* qovurmoq, qovurilmoq.
frying-pan [ˈfraɪŋpæn] *n* tova (*qovurma ovqat pishirish uchun xizmat qiladigan, gir atrofi qayrilgan yassi metall idish*).
fuddle [ˈfʌdl] *v* mast bo'lmoq, gangimoq.
fudge [fʌdʒ] *n* behuda gap, safsata, bema'ni (bo'lmagan) narsa, uydirma, to'qima.
fuel [fju:əl] *n* yoqilg'i, **oil ~** yonilg'i.
fugitive [ˈfju:dʒətɪv] *n* qochoq, qochqin.
fugue [fju:g] *n mus.* fuga (*bir musiqiy matnning bir necha ovozda izchil takrorlanishi*).
fulcrum [ˈfʌlkrəm] *n* tayanch nuqtasi.
fulfil [fulˈfɪl] *v* 1) bajarmoq, ro'yobga chiqarmoq; **to ~ a promise** va'dani bajarmoq; 2) tugatmoq.
fulfilment [fulˈfɪlmənt] *n* 1) bajarish, ro'yobga chiqarish; **the ~ of one's desires** xohishni bajarish; 2) tugatish.
full [ful] **1.** *a* 1) to'la; butun; **~ glass** to'la stakan; **~ audience** zal odamga to'la; 2) to'lin; **~ moon** to'lin oy; 3) keng; **~ skirt** keng yubka; 4) mo'l; serob; 5) to'q; 6) boy; 6) farovon; 7) eng yuqori darajaga yetgan; **2.** *adv* aniq, xuddi o'zi, rosa; **~ in the centre** qoq o'rtasida; **~ well** juda yaxshi; **~ soon** tez kunda; **3.** *v* kengaytirmoq, kattalashtirmoq.
full-blooded [ˌfulˈblʌdɪd] *a* to'laqonli, qoni ko'p, serqon.
full-blown [ˌfulˈbləun] *a* tamoman so'ligan (gul haqida).
full-length [ˌfulˈleŋθ] *a* 1) bor bo'yicha; 2) boshdan oxirigacha.
fullness [ˈfulnəs] *n* 1) to'lalik; 2) mo'l-ko'lchilik; 3) to'qlik.
fully [ˈfulɪ] *adv* butunlay, tamoman, batamom; tamomila, to'la, to'liq, to'la-to'kis.
fulminant [ˈfulmɪnənt] *a* 1) yashin tezligidagi; yashindek tez; shiddatli; 2) tez o'tib ketadigan, vaqtinchalik, bebaqo.
fulminate [ˈfulmɪneɪt] *v* 1) yarqiramoq, yaltiramoq; 2) guldiramoq; gumbirlamoq; **~ion** portlash
fulness [ˈfulnəs] = **fullness.**
fulsome [ˈfulsəm] *a* 1) samimiyatsiz, ikkiyuzlama, munofiq; 2) dag'al, qo'pol, to'rs.
fumble [ˈfʌmbl] *v* paypaslab topmoq, siypalamoq.
fume [fju:m] *n* tutun; bug'; bug'lanish.
fumes [fju:mz] *n* kuchli hid, achchiq tutun.
fumigate [ˈfju:mɪgeɪt] *v* dudlamoq, tutun bilan ishlamoq, tutatmoq.
fumigation [ˌfju:mɪˈgeɪʃn] *n* tutatish.
fumy [ˈfju:mɪ] *a* tutayotgan, tutab turgan.
fun [fʌn] *n* hazil; xursandchilik; **for ~** hazil, hazillashib; **we did it for ~** biz buni hazillashib qildik; **to make ~ of smb** birovning ustidan kulmoq.
function [ˈfʌŋkʃən] **1.** *n* vazifa, tayinlash, lavozim majburiyatlari; **2.** *v* vazifasini bajarmoq.
functional [ˈfʌŋkʃənəl] *a* funksiyaga oid, funksional.
functionary [ˈfʌŋkʃənərɪ] *a* amaldor.
fund [fʌnd] **1.** *n* fond; pul, mablag'; **2.** *v* mablag' chiqarmoq; mablag' ajratmoq.
fundamental [ˌfʌndəˈmentl] *n* asosiy, muhim, tub; **the ~ rules** asosiy qoidalar.
fund-raising [ˈfʌnd,reɪzɪŋ] *n* mablag' yig'ish.
funeral [ˈfju:nərəl] *n* ko'mish (dafn) marosimi; ko'mish, dafn etish.
fungous [ˈfʌŋgəs] *a* bulutsimon, g'alvirak, kovak, teshik-teshik.
fungus [ˈfʌŋgəs] *n* zamburug', qo'ziqorin.
funicular [fjuˈnɪkjulə] *a* kanatga (arqonga) oid, kanat, arqon.
funk [fʌŋk] **1.** *n* 1) qo'rqinch, vahima, dahshat, qo'rqish; 2) qo'rqoq, yuraksiz; **2.** *v* 1) qo'rqmoq, cho'chimoq; 2) o'zini chetga olmoq.
funnel [ˈfʌnl] *n* 1) voronka; 2) tutun chiqadigan quvur; mo'ri.

funny [ˈfʌnɪ] *a* qiziq; kulgili; ajoyib.
fur [fə:] *n* mo'yna; teri; jun.
furbish [ˈfə:bɪʃ] *v* 1) oynaday silliqlamoq, sayqallamoq; 2) yangilamoq, pardoz berib yangilamoq, tuzatib yangiday qilmoq.
furious [ˈfjuərɪəs] *a* qahrli, yovuz; shiddatli; qaqshatqich.
furl [fə:l] *v* o'ramoq, o'rab (yig'ishtirib) qo'ymoq.
furlong [ˈfə:lɔŋ] *n* milning sakkizdan bir qismi (= 201m).
furlough [ˈfə:ləu] 1. *n* harb. otpuska (mehnat ta'tili); 2. *v* (soldatlarga) otpuska bermoq.
furnace [ˈfə:nɪs] *n* pechka; **blast ~** domna pechka.
furnish [ˈfə:nɪʃ] *v* 1) ta'minlamoq, yetkazib bermoq; 2) jihozlamoq; **~ed rooms** jihozlangan xonalar.
furnishings [ˈfə:nɪʃɪŋz] *n* 1) uy jihozlari; 2) bezash, yasatish, bezatish.
furniture [ˈfə:nɪtʃə] *n* jihoz, mebel.
furore [fjuˈrɔ:rɪ] *n* dabdabali (zo'r) muvaffaqiyat, katta yutuq.
furrier [ˈfʌrɪə] *n* 1) mo'ynafurush; 2) mo'ynado'z.
furrow [ˈfʌrəu] *n* 1) egat, jo'yak; 2) ajin.
furrowed [ˈfʌrəud] *n* burushgan, ajin bosgan, burushiq.
furry [ˈfə:rɪ] *a* mo'ynali; tivitli.
further [ˈfə:ðə] 1. *a* 1) keyingi, keyin keladigan, kelgusi; 2) qo'shimcha; **to obtain ~ information** to'liq ma'lumot olmoq; 3) uzoqroq; 2. *v* siljitmoq; ko'maklashmoq, imkon tug'dirmoq.
furthest [ˈfə:ðɪst] = **farthest.**
furtive [ˈfə:tɪv] *a* yashirin, maxfiy.
furtively [ˈfə:tɪvlɪ] *adv* yashirincha, bekinib, sezdirmasdan.

Gg

G, g [dʒi:] *n* 1) ingliz tili alifbosining yettinchi harfi; 2) *mus.* sol notasi.
gab I [gæb] 1. *n* 1) sergaplik; 2) ezmalik; **stop your ~!** *qo'pol.* bas qil! ovozingni o'chir; 2. *v* vaysamoq, valdiramoq.
gab II [gæb] *n tex.* vilka, ilgak, ilmoq, zanjir.
gabardine [ˌgæbəˈdi:n] *n* gabardin (*palto yoki kastumbop jun mato*).
gabber [ˈgæbə] *n* sergap odam, ezma, safsataboz.
gabble [ˈgæbl] 1. *n* 1) to'ng'illash, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlashish; 2) g'ozlarning g'ag'alashi; 2. *v* 1) ming'illamoq, g'udurlamoq; 2) g'ag'alamoq (*g'ozlar haqida*).
gabbler [ˈgæblə] *n* ming'irlab gapiruvchi odam.
gabby [ˈgæbɪ] *a* sergap, ezma.
gaberdine [ˌgæbəˈdi:n] *n* gabardin (*dag'al movutdan qilingan etakları uzun chakmon*).
gabionade [ˌgeɪbɪəˈneɪd] *n* chiziq, qator, saf.
gable [ˈgeɪbl] *n me'mor.* 1) fronton (*bino fasadining uchburchak shaklida bo'lgan tepa qismi, shuningdek, derazalar tepasidagi shu shaklda ishlangan bezak*); 2) ikki yoqqa nishab tomning tepa qirrasi.
gabled [ˈgeɪbld] *a* uchi o'tkir, uchli, nayzador (*tom haqida*).
gaby [ˈgeɪbɪ] *n* soddadil odam, go'l odam.
gad [gæd] 1. *int.* qo'ysang-chi, qo'y, bor-e, qani (*afsus, g'azab kabilarni ifodalaydi*); 2. *v* tentiramoq, sang'imoq; 3. *n* 1) o'tkir uch, uch; 2) *tar.* nayza; 3) *tex.* zubilo (*temir kesish, tosh tarashlash va sh.k. ishlarda qo'llaniladigan iskanasimon asbob*).
gadabout [ˈgædəˌbaut] *n* daydi, darbadar, miskin kishi.
gadder [ˈgædə] *n* darbadar, daydi, miskin kishi.
gad-fly [ˈgædflaɪ] *n* so'na; so'na pashsha.
gadget [ˈgædʒɪt] *n* moslama, asbob, buyum, jihoz.
gadoid [ˈgædɔɪd] 1. *n* treska oilasiga mansub baliq; 2. *a* treska oilasiga mansub bo'lgan.

gadolinium [ˌgædəˈlɪnɪəm] *n kim.* gadoliniy (*kimyoviy element, metall*).

gaff [gæf] *n* 1) baliq ovlaydigan changak, sanchqi; 2) *so'zl.* arzon teatr; 3) *n* berna'ni gap, safsata; **to blow the** ~ sirini aytib qo'ymoq, og'zidan gullab qo'ymoq.

gaffe [gæf] *n* xato, xatolik, noto'g'ri qadam.

gaffer ['gæfə] *n so'zl.* qizim, hoy qizim (*murojaat shakli*).

gag [gæg] **1.** *n* tiqin; **2.** *v* 1) ovoz chiqarmaslikka majburlamoq; 2) aldamoq; 3) tiqin tiqmoq.

gaga ['gɑ:gɑ:] *a* aqli zaif, miyasi yo'q.

gage [geɪdʒ] **1.** *n* 1) garovga qo'yish; **to give on** ~ garovga bermoq; 2) garov; **2.** *v* garovga bermoq.

gaggle [ˈgægl] **1.** *n* 1) g'ozlar galasi (*to'dasi*); 2) g'ozlarning g'ag'alashi; **2.** *v* g'aqillamoq, g'aq-g'aq qilmoq (*g'oz*).

gag-man ['gægmən] *n* hazil-mutoyiba, askiya to'qiydigan odam.

gaiety ['geɪətɪ] *n* 1) vaqtichog'lik, xursandchilik; 2) quvnoq *yoki* ko'rkam ko'rinish.

gaily ['geɪlɪ] *adv* vaqtichog'lik (xursandchilik) bilan, quvnab.

gain [geɪn] **1.** *v* 1) foyda keltirmoq; 2) ishlab topmoq; 3) erishmoq, qo'lga kiritmoq; ~ **independence** mustaqillikni qo'lga kiritmoq; ~ **weight** semirmoq; ~ **confidence of smb.** biror kishining ishonchini qozonmoq; ~ **experience** tajriba orttirmoq; **2.** *n* daromad; foyda, manfaat, naf.

gainful ['geɪnfl] *a* daromadli, foydali; foyda keltiradigan.

gainings ['geɪnɪŋz] *n pl* 1) ish haqi, ishlab topilgan pul; 2) yutuq.

gainsaid [ˌgeɪnˈsed] *past., p. p.* **gainsay** *dan.*

gainsay [geɪnˈseɪ] *v* rad qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq.

gainst [genst] *prep.* **against** *dan.*

gait [geɪt] *n* yurish, qadam tashlash, oyoq qo'yish; **to know smb. by his** ~ kimnidir yurishidan bilmoq.

gaiter ['geɪtə] *n* gamashi (*boldirdan tovongacha qoplab turadigan, oyoq kiyim ustidan tushirib kiyiladigan issiq paypoq*); **ready to the last** ~ **button** to'la-to'kis tayyor qilib qo'yilgan.

gal [gæl] *n* qiz, qizcha, qiz bola.

gala ['gɑ:lə] **1.** *n* tantanali bayram; **2.** *a* bayramona, tantanali.

galactic [gəˈlæktɪk] *a astr.* galaktikaga, Somon yo'liga oid.

gala day ['gɑ:lədeɪ] *n* tantana, bayram.

gala night ['gɑ:lənaɪt] *n* tantanali kecha.

galanty show [gəˌlæntɪˈʃəu] *n* ekranga soyalar tushirib turli manzaralar hosil qilish yo'li bilan ko'rsatiladigan o'yin, tomosha.

galaxy ['gæləksɪ] *n astr.* Somon yo'li (*Quyosh sistemasini o'z ichiga olgan yulduzlar sistemasi*).

gale [geɪl] *n* 1) dovul, to'fon; **stiff (hard)** ~ kuchli bo'ron; 2) renta pulini vaqti-vaqti bilan to'lash.

galeeny [gəˈli:nɪ] *n* sesarka (*tovuqsimonlar turkumidagi parranda*).

galena [gəˈli:nə] *n* yaltiroq qo'rg'oshin tosh (*qo'rg'oshin rudasi*).

galimatias [ˌgælɪˈmætɪəs] *fr. n* tuturiqsiz gap.

galipot ['gælɪpɔt] *n* ignabargli daraxtlarning smolali yelimi.

gall I [gɔ:l] *n* 1) o't, safro. 2) o't pufagi (qopchasi); 3) o'taka.

gall II [gɔ:l] *n* shilingan (timdalangan, sidirilgan, qirilgan) joy, chaqa (*badanda*).

gall III [gɔ:l] *n bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta, xalq tibbiyotida dori sifatida ishlatiladi*).

gallant ['gælənt] **1.** *a* botir, mard, jasur; ~ **soldier** jasur soldat; **2.** *v* kuzatmoq (*ayolni*).

gallantry ['gælənrɪ] *n* mardlik, botirlik, jasurlik; **to display** ~ jasurlik ko'rsatmoq.

gall-bladder ['gɔ:lˌblædə] *n anat.* o't pufagi (qopchasi), o'taka.

galleass ['gælɪæs] *n* uch machtali, ko'p eshkakli kema.

gallery ['gælərɪ] *n* 1) yerosti yo'li; 2) galereya; **picture** ~ rasmlar galereyasi; 3) *teatr.* ayvon (*balkon*); 4) xor.

galley ['gælɪ] *n* ko'p eshkakli kema.

galley-proof ['gælɪpru:f] *n poligr.* granka (*sahifalanmagan terilgan harflardan tushirib olingan nusxa*).

galley-slave ['gælɪsleɪv] *n* 1) eshkakchi, eshkak eshuvchi; 2) og'ir ish qiluvchi qul.

Gallic ['gælɪk] *a* 1) gal(lar) ga oid, gal; 2) *hazil.* fransuzcha.

gallicism ['gælɪˌsɪzm] *n* gallitsizm (*fransuz tilidan qabul qilingan yoxud unga taqlid qilib tuzilgan so'z yoki ibora*).

galligaskins [ˌgælɪˈgæskɪnz] *n pl* keng ishton, shim, lozim.

gallimaufry [ˌgælɪˈmɔ:frɪ] *n* aralash-quralash narsa.

gallinaceous [ˌgælɪˈneɪʃəs] *a zool.* tovuqqa oid, tovuq.

galliot ['gælɪət] *n* galiot (*ko'p eshkakli yelkanli tezyurar kema*).

gallipot [ˈgælɪpɔt] *n* dorixona (apteka) bankasi, sirli banka.

gallium ['gælɪəm] *n kim.* galliy (*kimyoviy element, oq tusli nodir metall*).

gallivant [ˌgælɪˈvænt] *v* ishva qilmoq, noz-karashma qilmoq.

gall-nut [ˈgɔ:lnʌt] *n bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta*).

Gallomaniac [ˌgæləʊˈmeɪnɪæk] *n* fransuzlar ixlosmandi.

gallon [ˈgælən] *n* gallon (*Angliya va AQSHda: suyuq va sochilma jismlar uchun 4,54 litrli o'lchov birligi*).

galloon [gəˈlu:n] *n* uqa (*bezak uchun gazmol buyumlar, kiyim-kechak va sh.k. narsalar chetiga tikib qadab qo'yilgan uzun ensiz mato*).

gallop [ˈgæləp] **1.** *n* sakrab chopish; **2.** *v* 1) otni qo'ymoq, yeldirmoq; 2) yelmoq, uchmoq (*ot haqida*).

galloper [ˈgæləpə] *n harb.* 1) navbatchi; 2) motosiklda yurib xat-xabar eltuvchi.

galloping [ˈgæləpɪŋ] **1.** *pres. p.* **gallo 2.** *dan.* **2.** *a* g'irillab (tez) olib keladigan.

galloway [ˈgæləweɪ] *n shotl.* bo'yi past, ammo kuchli ot.

gallows [ˈgæləuz] *n* 1) dor (*osishga hukm qilganlarni osadigan*); 2) shimni ko'tarib, tutib turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma.

gallows-bird [ˈgæləuzbə:d] *n* past (razil, qabih) odam.

gall-stone [ˈgɔ:lstəun] *n tib.* o'tdagi tosh.

Gallup poll [ˌgæləp ˈpəul] *n* turli masalalarda xalqning fikrini bilish (*masalan, saylov to'g'risida*).

galluses [ˈgæləsɪz] *n pl amer. so'zl.* 1) tortib taranglash, qattiqroq burab qo'yish; 2) shimni ko'tarib (*tutib*) turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma.

galoot [gəˈlu:t] *n* noshud (epsiz; qo'pol, beso'naqay) odam.

galop [ˈgæləp] *n* galop (*qadimgi sho'x raqs va uning kuyi*).

galore [gəˈlɔ:] **1.** *adv* juda ko'p, mo'l, serob; **2.** *n* mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik.

galosh [gəˈlɔʃ] *n* 1) kalish; **to wear ~es** kalish kiymoq; 2) *amer.* rezina qayiq.

galumph [gəˈlʌmf] *v* xursandchilikdan sakramoq.

galvanic [gælˈvænɪk] *a* galvanik (*kimyoviy reaksiya natijasida olinadigan*).

galvanism [ˈgælvənɪzm] *n* 1) *fiz.* galvanizm; 2) *tib.* galvanizatsiya (*galvani toki bilan davolash*).

galvanization [ˌgælvənaɪˈzeɪʃn] *n tib.* galvanizatsiya (*tok bilan davolash*).

galvanize [ˈgælvənaɪz] *v* galvanizatsiya qilmoq.

galvanometer [ˌgælvəˈnɔmɪtə] *n* galvanometr (*kuchsiz toklarni o'lchaydigan asbob*).

gambade [gæmˈbeɪd] = **gambado**.

gambado [gæmˈbeɪdəu] *n* otning oldingi oyoqlarini bukib sakrashi.

gambit [ˈgæmbɪt] *n* gambit (*shaxmatda: tezroq hujumga o'tish uchun bir donani qurbon berib o'yin boshlash*).

gamble [ˈgæmbl] **1.** *n* qimor o'yini, qimor; **2.** *v* 1) qimor o'ynamoq; **I never ~** men hech qachon pulga o'ynamayman; 2) tavakkal qilmoq; **~ away** yutqazmoq.

gambler [ˈgæmblə] *n* 1) qartaboz, qimorboz; 2) firibgar, qalloh, tovlamachi kishi.

gamboge [gæmˈbəudʒ] *n* bir xil tropik o'simliklarning sutsimon shirasi.

gambol [ˈgæmbl] *n* 1) irg'ish, sakrash; 2) o'yin-kulgi, xursandchilik.

game [geɪm] **1.** *n* 1) o'yin; **noisy ~** shovqinli o'yin; **football ~** futbol o'yini; 2) *pl* sport o'yinlari; **the Olimpic ~s** Olimpiada o'yinlari; 3) o'yinchoq; 4) tavakkal o'yin; **stock market ~** birja o'yini; 5) fokus (*ayyorlik*); 6) hazil, kulgi; **to speak in ~** hazil qilmoq; 7) o'yin-kulgi; 8) o'lja; **big ~** katta o'lja; (*yovvoyi hayvonlar go'shti*); **2.** *a* jasur, baquvvat; **3.** *v* tavakkal o'yinlar (qimor) o'ynamoq; **~ away** yutqazmoq.

game-bag [ˈgeɪmbæg] *n* ovchining sumkasi.

game-bird [ˈgeɪmbə:d] *n* ovlanadigan (*qanotli*) yovvoyi qushlar.

game-chicken [ˈgeɪmˌtʃɪkən] = **game-cock**.

game-cock [ˈgeɪmkɔk] *n* urushqoq xo'roz.

game-fish [ˈgeɪmfɪʃ] *n* ovlanadigan laqqa baliq.

gamekeeper [ˈgeɪmˌki:pə] *n* o'rmon qorovuli, o'rmon nazoratchisi.

game-laws [ˈgeɪmlɔ:z] *n pl* ov qoidalari.

game-preserve [ˌgeɪmprɪˈzə:v] *n* ovchilar qo'riqxonasi.

games-master [ˈgeɪmzˌmɔ:stə] *n* jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

games-mistress [ˈgeɪmzˌmɪstrəs] *n* jismoniy tarbiyadan dars beradigan o'qituvchi ayol.

gamesome [ˈgeɪmsəm] *a* sho'x, xushchaqchaq, quvnoq, xursand, shod.

gamester [ˈgeɪmstə] *n* qimorboz, qimor o'ynovchi.

gamete [ˈgæmi:t] *n biol.* jinsiy hujayra.

gamin [ˈgæmɪn] *n* boqimsiz bola, qarovchisiz (ko'chada qolgan) bola.

gaming-house [ˈgeɪmɪŋhaus] *n* qimorxona, qimor o'ynaydigan joy.

gaming-table [ˈgeɪmɪŋˌteɪbl] *n* qimor stoli.

gamma [ˈgæmə] *n* gamma (*yunon alifbosining uchinchi harfi*).

gamma rays [ˈgæmərеɪz] *n fiz.* gamma-nurlar.

gammer [ˈgæmə] *n* onajon, buviginam; onaxon (*katta yoshdagi xotinlarga murojaat shakli*).

gammon [ˈgæmən] **1.** *n* aldash, aldov; **2.** *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq.

gammy [ˈgæmɪ] *a* cho'loq, oqsoq.

gamp [gæmp] *n* soyabon, zontik.

gamut [ˈgæmət] *n mus.* gamma (*bir pardadan ko'tarilib yoki tushib boruvchi tovushlar majmuyi*).

gamy [ˈgeɪmɪ] *a* 1) qushlarni ko'paytiradigan; 2) *so'zl.* mard, jasur, botir.

gander [ˈgændə] *n* 1) erkak g'oz; 2) *so'zl.* uylangan odam; 3) tentak, ahmoq.

gang [gæŋ] **1.** *n* 1) ishchilar guruhi; 2) o'g'rilar to'dasi; 3) guruh; **2.** *v* 1) *shotl.* yurmoq, ketmoq, bormoq, harakat qilmoq; 2) bosqinchilar to'dasini tuzmoq; 3) tashlanmoq (*guruh bo'lib*); **they ~ed (up) on me** ular menga tashlandilar.

ganger [ˈgæŋə] *n* 1) ishboshi, o'nboshi; 2) piyoda, yayov yuruvchi.

gangling [ˈgæŋglɪŋ] *a* 1) bo'yi uzun, novcha; 2) beso'naqay, qo'pol.

ganglion [ˈgæŋgliən] *n anat.* asab tuguni.
gang-plank [ˈgæŋplæŋk] *n* 1) taxta zina (*kemadan tushish uchun*); kema narvoni; 2) samolyotga chiqib tushish uchun maxsus yasalgan ko'chma zina.
gangrene [ˈgæŋgri:n] *n tib.* biologik to'qima *yoki* a'zoning jonsizlanib tiriklayin chirishi; qorason kasalligi.
gangrenous [ˈgæŋgrınəs] *a* qorason kasalligiga duchor bo'lgan.
gang-saw [ˈgæŋsɔ:] *n* taxta tiladigan mashina (*arra*).
gangster [ˈgæŋstə] *n* bosqinchi, yo'lto'sar, qurollangan o'g'ri, bosmachi.
gangway [ˈgæŋweı] *n dengiz.* taxta zina (*kema, havoza va h .k. dan tushish uchun*).
ganoid [ˈgænɔıd] *a* silliq va yaltiroq (*baliq terisidagi tangachalari to'g'risida*).
gantlet [ˈgæntlət] *n* qo'lqop.
gantry [ˈgæntrı] *n* porta, supacha (*kran, kema va b.da; kuzatish, boshqarish o'rni*).
gantry-crane [ˈgæntrı,kreın] *n* portalli kran.
gaol [dʒeıl] **1.** *n* qamoqxona, turma; **2.** *v* qamamoq, qamoqqa olmoq.
gaol-bird [dʒeılbə:d] *n* qamalgan, qamoqqa, hibsga olingan kishi, mahbus.
gaoler [ˈdʒeılə] *n* qamoqxona nazoratchisi.
gap [gæp] *n* 1) uzilish, farq, tafovut, oraliq; 2) kovak, tirqish, yoriq, teshik, yorilgan joy.
gape [geıp] **1.** *n* esnoq, bir esnash; **2.** *v* esnamoq.
gaper [ˈgeıpə] *n* anqov, sanqi, bekorchi.
gape-seed [ˈgeıpsi:d] *n* maqsadsiz qarash, razm solish, tikilish.
gappy [ˈgæpı] *a* to'liq emas, to'lmagan, yarim.
garage [ˈgærɔ:ʒ] **1.** *n* garaj; **2.** *v* garajga qo'ymoq.
garb [gɔ:b] **1.** *n* 1) kiyim, sarpo, libos; **in the ~ of a sailor** matros kiyimida; **2.** *v* kiyinmoq.
garbage [ˈgɔ:bıdʒ] **1.** *n* 1) axlat, chiqit, tashlandiq; 2) makulatura (*chiqindi qog'oz*); **2.** *v og'z.* chiqindi bilan oziqlanmoq.
garbage-collector [ˈgɔ:bıdʒkə,lektə] *n* farrosh, supurib-sidiradigan ishchi.
garble [ˈgɔ:bl] *v* buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq (*dalil isbotlarni*).
garbled [ˈgɔ:bld] *a* tushunarsiz (*xabar, hikoya va b.larga nisbatan qo'llanadi*).
garçon [ˈgɔ:sɔŋ] *n fr.* garson, ofitsiant (*fransuz restoranida*).
garden [ˈgɑ:dn] *n* bog'; **botanical ~** botanika bog'i.
garden-bed [ˈgɑ:dnbed] *n* pushta, jo'yak, ariq.
garden city [ˌgɑ:dn'sıtı] *n* shaharbog'.
gardener [ˈgɑ:dnə] *n* bog'bon.
garden-frame [ˈgɑ:dnfreım] *n* parnik romi.
garden hose [ˈgɑ:dnhəuz] *n* bog' shlangi.
garden-house [ˈgɑ:dnhaus] *n* 1) shiyponcha; 2) bog'dagi kichkina uy.
gardening [ˈgɑ:dnıŋ] *n* bog'dorchilik.
garden-party [ˈgɑ:dn,pɑ:tı] *n* mehmonlarni bog'da kutish.
garden-plot [ˈgɑ:dnplət] *n* bog'dagi yer maydoni.
garden pruner [ˈgɑ:dn,pru:nə] *n* tokqaychi; gulqaychi.
garden seat [ˈgɑ:dnsi:t] *n* bog'dagi joy (*skameyka, eshak*).
garden-stuff [ˈgɑ:dnstʌf] *n* 1) sabzavotlar; 2) mevalar, ho'l meva; 3) gullar; 4) ko'kat, rezavor.
garden-tillage [ˈgɑ:dn,tılıdʒ] *n* bog'dorchilik, bog'shunoslik.
garden truck [ˌgɑ:dn'trʌk] *n amer.* meva va sabzavotlar.
garfish [ˈgɑ:fiʃ] *n* 1) dengiz cho'rtan balig'i; 2) zirhli baliq (*ustki qobig'i qattiq baliq*).
gargantuan [gɑ:ˈgæntjuən] *a* juda katta, kattakon, ulkan, azim.
garget [ˈgɑ:gıt] *n* halqumning yallig'lanishi (*cho'chqalarda*).
gargle [ˈgɑ:gl] **1.** *n* (*tomoqni*) chayqash; **2.** *v* chayqamoq (*tomoqni*).
garibaldi [ˌgærı'bɔ:ldı] *n* ayollarning *yoki* bolalarning keng xonaki ko'ylagi (*bluza*).
garish [ˈgeərıʃ] *a* ko'zni oladigan, ko'zni qamashtiradigan.
garland [ˈgɑ:lənd] **1.** *n* gul (*barg, novda va shu kabi*) o'rimi, tizmasi; marjon; **2.** *v* gulchambar bilan bezamoq.
garlic [ˈgɑ:lık] *n* sarimsoq, sarimsoqpiyoz.
garlicky [ˈgɑ:lıkı] *a* sarimsoqqa oid, sarimsoqpiyozga oid.
garment [ˈgɑ:mənt] **1.** *n pl* kiyim, kiyim-bosh, libos; sarpo; **2.** *v* kiyinmoq.
garner [ˈgɑ:nə] **1.** *n* omborxona, g'alla ombori, g'allaxona; **2.** *v* omborga donni to'kmoq.
garnet [ˈgɑ:nıt] 1) yoqut; 2) to'q-qizil rang.
garnish [ˈgɑ:nıʃ] *n* 1) garnir; 2) bezak, zeb-ziynat, pardoz.
garniture [ˈgɑ:nıtʃə] *n* bezash, bezatish.
garret [ˈgærət] *n* 1) cherdak (*ustki tom bilan pastki tom yoki shipning oralig'i*); 2) qiya shipli boloxona.
garreteer [ˌgærə'tıə] *n* qiya shipli boloxonada yashovchi odam.
garrison [ˈgærısən] *n harb.* garnizon; **~ commander** garnizon boshlig'i.
garrotte [gə'rɔt] **1.** *isp. n* bosqinchilik (o'g'rilik) qilish maqsadida bo'g'ish; **2.** *v* bosqinchilik (o'g'rilik) qilish maqsadida bo'g'ib o'ldirmoq.
garrulity [gæ'ru:lətı] *n* sergaplik, ezmalik, vaysaqilik.
garrulous [ˈgærələs] *a* sergap, ezma, vaysaqi, ko'p gapiradigan.
garter [ˈgɑ:tə] *n* bog', bog'ich (*paypoqni tutib turadigan rezina bog'ich*).
garth [gɑ:θ] *n* 1) hovli, qo'ra; 2) bog'; 3) *q.x.* baliq ovlash uchun to'silgan (bo'g'ilgan) suv.

gas [gæs] **1.** *n* 1) gaz; **natural ~** tabiiy gaz; **to turn the ~ on** gazni yoqmoq; **to turn the ~ off** gazni o'chirmoq; 2) *amer. og'z.* benzin (*yoqilg'i*); 3) *og'z.* safsata; **that's all ~** bu hammasi safsata; **~ chamber** gaz kamerasi; **~ signal** *harb.* kimyoviy trevoga; **~ warfare** *harb.* kimyoviy urush; **2.** *v* 1) *harb.* kimyoviy moddalar bilan zaharlamoq; 2) gaz bilan to'ldirmoq; 3) *amer. og'z.* yonilg'i bilan avtomobilni ta'minlamoq; 4) vaysamoq, bemaza gaplar gapirmoq; **stop ~ sing!** vaysashni bas qil!

gas-alarm [ˌgæsə'lɑ:m] *n* kimyoviy trevoga (*xavfni bildiruvchi signal*).

gas-alert [ˌgæsə'lɜ:t] *n* kimyoviy shaylik (tayyorlik).

gasateria [ˌgæsə'tɪərɪə] *n amer.* o'z-o'ziga xizmat qilish usulida ishlaydigan mashinalarga yog' (*benzin*) quyish tarmog'i (*kolonkasi*).

gas attack ['gæsəˌtæk] *n* kimyoviy hujum (*hamla, tajovuz*).

gas-bag ['gæsbæg] *n* 1) gaz balloni; 2) *so'zl.* sergap, ezma kishi.

gas-bomb ['gæsbɒm] *n* kimyoviy bomba.

gasbracket ['gæs,brækɪt] *n* gaz rojogi (*rojog – ichi shox shaklida kengayib boruvchi naychasimon asbob*).

gas-burner ['gæs,bɜ:nə] = **gas-jet**.

heart-broken [ˈhɑːtbrəukən] *a* xudo urgan, aqli pastroq, telbaroq (*odam*); g'amdan ezilgan.
heartburn [ˈhɑːtbəːn] *n* zarda, jig'ildon qaynashi.
heart-burning [ˈhɑːtˌbəːniŋ] *n* 1) rashk, rashk qilish, hasad, hasad qilish; 2) o'kinch, achinish.
heart-disease [ˈhɑːtdɪziːz] *n* yurak xastaligi, yurak kasalligi.
hearten [ˈhɑːtn] *v* ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq, g'ayratini oshirmoq.
heartfelt [ˈhɑːtfelt] *a* samimiy, sofdil, ochiqko'ngil.
hearth [hɑːθ] *n* o'choq, tosh plita.
heartily [ˈhɑːtili] *adv* samimiy, chin yurakdan.
heartless [ˈhɑːtləs] *a* berahm, toshbag'ir, rahmsiz, shafqatsiz.
heartsick [ˈhɑːtsɪk] *a* xafa bo'lgan, ranjigan, tashvishli, qayg'uli, g'amgin.
hearty [ˈhɑːti] *a* samimiy; chin yurakdan.
heat [hiːt] **1.** *a* issiqlik, harorat; **2.** *v* isimoq; **~ up** qizdirmoq.
heated [ˈhiːtid] **1.** *p. p.* **heat 2.** *dan*; **2.** *a* qizigan, qizdirilgan.
heater [ˈhiːtə] *n* isitgich, pechka.
heath [hiːθ] *n* dasht.
heathen [ˈhiːðn] *n* 1) majusiy, butparast; 2) yovvoyi odam, vahshiy.
heather [ˈheðə] *n bot.* archagul, supurgigul.
heating [ˈhiːtɪŋ] **1.** *p. p.* **heat 2.** *dan*; **2.** *n* isitish, qizdirish, dog' qilish; **3.** *a* isitadigan, qizitadigan; **~ apparatus** isitish asbobi.
heat-lightning [ˌhiːtˈlaitniŋ] *n* uzoqdan ko'rinadigan chaqmoqning shu'lasi.
heat-spot [ˈhiːtspɔt] *n* sepkil, husnbuzar.
heave [hiːv] **1.** *n* ko'tarish; **2.** *v* **(hove, heaved)** ko'tarmoq, tortmoq.
heaven [ˈhevn] *n* ko'k, osmon, samo, falak; jannat; **~ly** samoviy.
heavenly [ˈhevnli] *a* 1) samoviy; 2) ajoyib, juda yoqimli.
heaver [ˈhiːvə] *n* 1) yuk tashuvchi (tushiruvchi) ishchi; 2) *tex.* richag, dastak, pishang; 3) *deng.*
heavily [ˈhevili] *adv* og'ir, qattiq; **to be punished ~** qattiq jazolamoq.
heaviness [ˈhevɪnəs] *n* 1) og'irlik; 2) harakatsizlik, faoliyatsizlik; 3) qayg'u, g'am.
heavy [ˈhevi] *a* og'ir, salmoqli, vazmin; qiyin; yomon; **~ work** og'ir ish.
heavy-handed [ˌhevi ˈhændid] *a* qo'pol, beso'naqay.
heavy-hearted [ˌhevɪˈhɑːtid] *a* g'amgin, xafa, ma'yus.
heavy-weight [ˈhevɪweit] *n sport.* og'ir vaznli sportchi (kurashchi, bokschi, shtangachi va sh.k.).
Hebrew [ˈhiːbruː] *n* yahudiy.
heckle [ˈhekl] *v* titmoq, titkilamoq, to'zg'itmoq.
hectare [ˈhekteə] *n* gektar.
hectic [ˈhektɪk] *a* 1) silga (sil kasaliga) yo'liqqan; 2) isitmali, isitma vaqtida bo'ladigan.
hector [ˈhektə] **1.** *n* maqtanchoq, janjalkash (*odam*); **2.** *v* janjal chiqarmoq, g'ashiga tegmoq.
he'd [hiːd] = **he had, he would.**
hedge [hedʒ] **1.** *n* 1) jonli devor; 2) to'siq, panjara; **2.** *v* 1) jonli devor ekmoq; 2) to'smoq, panjara bilan o'ramoq.
hedgehog [ˈhedʒhɔg] *n* tipratikan.
heed [hiːd] *n* 1) diqqat, e'tibor; 2) g'amxo'rlik, iltifot.
heedful [ˈhiːdfəl] *a* g'amxo'r, mehribon, jonkuyar.
heel I [hiːl] **1.** *n* tovon, poshna; **2.** *v* 1) poshna qoqmoq; 2) ketma-ket ergashib yurmoq.
heel II [hiːl] **1.** *n* qiyshayish, og'ish; **2.** *v* deng. qiyshaymoq (kema).
heel-piece [ˈhiːlpiːs] *n* poshna.
heft [heft] *v* tortib ko'rmoq.

hefty [ˈhefti] *a* 1) og'ir, vazmin; 2) baquvvat, azamat; 3) katta, ulkan, azim, yirik.
hegemonic [ˌhi:gəˈmɔnik] *a* rahbar, boshlovchi.
hegemony [hiˈgeməni] n boshchilik, rahbarlik.
heifer [ˈhefə] *n* g'unajin, tana.
height [hait] *n* 1) balandlik, yuksaklik, tepalik; 2) bo'y.
heighten [ˈhaitn] *n* biror narsaga qiziqish uyg'otmoq.
heinous [ˈheinəs] *a* jirkanch, yaramas, razil, qabih.
heir [eə] *n* merosxo'r, voris.
heirdom [ˈeədəm] *n* 1) meros olish, vorislik; 2) nasldan-naslga o'tish.
heiress [ˈeəris] *n* merosxo'rlik, voris (*ayol*).
heirloom [ˈeəlu:m] *n* avloddan avlodga o'tuvchi oila yodgorligi.
held [held] *past., p. p.* **hold** *dan.*
helicopter [ˈhelikɔptə] *n* vertolyot.
helium [ˈhi:liəm] *n kim.* geliy.
hell [hel] *n* jahannam; do'zax.
he'll [hi:l] = **he will.**
hello [ˈheˈləu] *int.* salom!
helm [helm] **1.** *n* rul, rul boshqarish; **2.** *v* boshqarmoq.
helmet [ˈhelmit] *n* dubulg'a; temir qalpoq, kaska.
helmsman [ˈhelmzmən] *n* rulda o'tiruvchi, rulni boshqaruvchi.
helot [ˈhelət] *n* haq-huquqsiz kishi, qul.
help [help] **1.** *n* yordam, madad, ko'mak; **Can I help you?** Sizga yordam beraymi? **2.** *v* yordam bermoq.
helper [ˈhelpə] *n* yordamchi, ko'makchi.
helpful [ˈhelpful] *a* foydali.
helping [ˈhelpiŋ] *n* 1) yordam, madad, dalda; 2) doza, o'lchovli miqdor (*dori-darmon va h.k. haqida*).
helpless [ˈhelpləs] *a* 1) o'zini eplay olmaydigan, nochor, notavon; 2) ojiz, bechora, himoyachisiz.
helpmate [ˈhelpmeit] *n* yordamchi, yordam ko'rsatuvchi.
helter-skelter [ˈheltəˌskeltə] *n* tartibsizlik, to'sto'polon.
hem [hem] *n* 1) yamoq, chandiq; 2) yo'g'onlashgan chok *yoki* jiyak; 3) hoshiya, jiyak.
he-man [ˈhi:mæn] *n so'zl.* haqiqiy erkak kishi.
hemisphere [ˈhemisfiə] *n* yarim shar.
hemoglobin [ˌhi:məˈgləubin] *n biol.* gemoglobin.
hemorrhage [ˈhemərɪdʒ] *n tib.* 1) qon quyilish; 2) qon ketish, qon oqish.
hemorrhoids [ˈhemərɔidz] *n pl tib.* gemorroy, bavosil.
hemp [hemp] *n* kanop.
hen [ˈhen] *n* tovuq, makiyon.
hence [hens] *adv* shu yerdan, hozirdan, shu paytdan.
henceforth [ˌhensˈfɔ:θ] *adv* bundan so'ng (keyin), hozirdan boshlab.
henceforward [hensˈfɔ:wəd] *adv* hozirdan boshlab, bundan buyog'iga.
henchman [ˈhentʃmən] *n* yordamchi; tarafdor; yoqlovchi.
hen coop [ˈhenku:p] *n* tovuqxona.
hen-hearted [ˌhenˈhɔ:tid] *a* qo'rqoq, yuragi yo'q, yuraksiz.
hen-house [ˈhenhaus] *n* tovuqxona, tovuq katagi.
henna [ˈhenə] **1.** *n bot.* xina; **2.** *a* xina rangli.
hepatitis [ˌhepəˈtaitis] *n tib.* gepatit, sariq kasal.
her [hə:] **1.** *pers. pron.* uni, unga (*ayollarga nisbatan*); **2.** *pron. poss.* uning.
herald [ˈherəld] 1) darak, xabar; 2) darakchi; 3) axborotnoma.
herb [hə:b] *n* o't; ko'k; maysa (*shifobaxsh o'tlar*).
herbaceous [hə:ˈbeiʃəs] *a* o't-alafga oid; o'tsimon.
herbal [ˈhə:bl] *a* o'tli, giyohli.
herbarium [hə:ˈbeəriəm] *n* gerbariy (*quritilgan o'simliklar kolleksiyasi*).
herbivorous [hə:ˈbivərəs] *a* o'txo'r, alafxo'r.
Hercules [ˈhə:kjuli:z] *n afs.* gerkules, azamat, pahlavon.
herd [hə:d] **1.** *n* 1) poda; gala; 2) podachi, cho'pon; **2.** *v* (*poda*) boqmoq, o'tlatmoq; **~sman** podachi.
herdsman [ˈhə:dzmən] *n* 1) cho'pon, podachi; 2) chorvador, chorvachi.
here [hiə] *adv* 1) bu yerda (joyda, yoqda), shu yerda; 2) bu yoqqa, bu tomonga; **come ~** bu yoqqa kel; 3) mana, ana; **~ is your pen** mana sizning ruchkangiz.
hereabouts [ˌhiərəˈbauts] *adv* yaqin, yaqinida, yaqin orada, shu orada.
hereafter [hiərˈɑ:ftə] **1.** *adv* pastga, past tomonga; so'ng, so'ngra, keyin; **2.** *n* kelgusi, kelgusidagi, kelasi, bundan buyon, shu kundan boshlab.
hereby [ˌhiəˈbai] *adv* shunday qilib.
hereditary [hoˈredətəri] *a* 1) meros bo'lib qolgan; 2) odat tusiga kirgan, rasm bo'lib qolgan (*oilada*).
heredity [hiˈreditɪ] *n* irsiyat, irs, nasldan naslga o'tish.
herein [ˌhiərˈin] *adv* bunda, shunda.
hereof [ˌhiərˈɔv] *adv* shuning bilan, bunda, shunda, bundan so'ng.
heresy [ˈherəsi] *n* bid'at (*hukmron din aqidalariga xilof ish, harakat yoki ta'limot*).
heretic [ˈherətik] *n* kofir, bid'atchi.
heretofore [ˌhiətuˈfɔ:] *adv* avval, burun, oldin, hozirgacha.
hereupon [ˌhiərəˈpɔn] *adv* bundan keyin, shuning natijasida.
herewith [ˌhiəˈwið] *adv* buning ustiga, shu bilan birga.
heritable [ˈheritəbl] *a* meros, meros (bo'lib) qolgan.
heritage [ˈheritidʒ] *n* meros, meros qolgan mulk.

hermetic [hə: ˈmetik] *a* zich yopiladigan; havo kirmaydigan chiqmaydigan.
hermit [ˈhə:mit] *n* zohid, tarki dunyochi; qalandar, darvesh.
hernia [ˈhə:nıə] *n tib.* grija, dabba, churra tushish.
hero [ˈhıərəu] *n* (*pl* **-oes** [-əuz]) qahramon, mard.
heroic [hı ˈrəuık] **1.** *adv* qahramonona; mardlarcha, mardona; **2.** *n* balandparvoz, dabdabali nutq.
heroin [ˈherəuın] *n* geroin (*kuchli narkotik modda, dori*).
heroine [ˈherəuın] *n* qahramon ayol.
heroism [ˈherəu,ızm] *n* qahramonlik.
heron [ˈherən] *n zool.* qo'ton.
herpes [ˈhə:pi:z] *n tib.* temiratki.
herring [ˈherıŋ] *n* seld (*baliq*).
herring-bone [ˈherıŋbəun] *n* boshqacha o'xshatib tikilgan gul (gazlama).
hers [hə:z] *poss. pron.* uniki (*ayollarga nisbatan*); **this pencil is –** bu qalam uniki.
herself [hə: ˈself] *pron. refl.* o'zi-o'zini, o'ziga, o'zida.
he's [hi:z] = **he is, he has.**
hesitancy [ˈhezıtənsı] *n* ikkilanish, taraddudlanish.
hesitant [ˈhezıtənt] *a* ikkilanuvchi; jur'atsiz.
hesitate [ˈhezıteıt] *v* 1) shubhalanmoq, ikkilanmoq; 2) jur'at etolmaslik, botinolmaslik; **to ~ to affirm** tasdiqlashdan qo'rqmoq.
hesitatingly [ˈhezıteıtıŋlı] *adv* ikkilanib, qat'iyatsizlik bilan, qo'rqa-pisa.
hesitation [ˌhezı ˈteıʃn] *n* ikkilanish, qat'iyatsizlik.
heterogeneous [ˌhetərə ˈdʒi:nıəs] *a* kelib chiqishi jihatidan har xil, turli jinsli.
heterosexual [ˌhetərəu ˈsekʃuəl] *a* qarshi jinsga oid.
hew [hju:] *v* **(hewed; hewed)** yiqitmoq, ag'anatmoq, kesib yiqitmoq; **~er** daraxt kesuvchi; tosh o'yuvchi; toshtarosh.
hewn [hju:n] *p.p.* **hew** *dan.*
hexagon [ˈheksəgən] *n mat.* oltiburchak, oltiburchakli shakl.
hey [hei] *int.* ey! hey! (*xursandchilik, hayron bo'lishni ifodalaydi*).
heyday [ˈheıdeı] *n* 1) ilk davr, tong; 2) cho'qqi, avj, yuqori daraja.
hi [hai] *int.* salom.
hiatus [haı ˈeıtəs] *n* 1) bo'sh qolgan joy, ochiq joy, oraliq (*matnda*); 2) teshik, yoriq, tuynuk.
hibernate [ˈhaıbəneıt] *v* qishlamoq; qish paytida uyquga ketmoq (*hayvon va hasharotlar haqida*).
hibernation [ˌhaıbə: ˈneıʃn] *n* qishda yashaladigan joy.
hiccough [ˈhıkʌp] **1.** *n* hiqichoq; hiqichoq tutish, hiq-hiq qilish; **2.** *v* hiqichoq tutmoq, hiq-hiq qilmoq.
hiccup [ˈhıkʌp] = **hiccough.**
hid [hıd] *p. p.* **hide II** *dan.*
hidden I [ˈhıdn] *a* yashirin; maxfiy.
hidden II [ˈhıdn] *p. p.* **hide II** *dan.*
hide I [haıd] **1.** *n* teri; **2.** *v* terisini shilmoq.
hide II [haıd] *v* **(hid; hid, hidden)** yashirmoq, bekitmoq, yashirinmoq.
hide-and-(go)-seek [ˌhaıdn(gəu)ˈsi:k] *n* bekinmachoq (*o'yinda*).
hidebound [ˈhaıdbaund] *a* aql-idroki past, bilim doirasi cheklangan, fikri tor.
hideous [ˈhıdıəs] *a* jirkantiradigan, juda yomon, juda xunuk, yoqimsiz.
hiding [ˈhaıdıŋ] *n* yashirish, maxfiylik; **to be in –** yashirinmoq.
hiding-place [ˈhaıdıŋpleıs] *n* yashirin, maxfiy, birov bilmaydigan.
hierarchy [ˈhaıərɑ:kı] *n* iyerarxiya (*quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bo'ysunishi*).
hieroglyph [ˈhaıərəglıf] *n* iyeroglif (*butun bir tushunchani, bo'g'inni yoki tovushni bildiradigan tasvirli belgi*).
hieroglyphics [ˌhaıərəˈglıfiks] *n* iyeroglif (*tovushni bildiradigan tasvirli belgi*).
hi-fi [haı ˈfaı] *n* **(high-fidelity** *so'zining qisqartmasi*) *radio.* ovozni xuddi o'ziday qilib qayta ishlab chiqarish (eshittirish).
higgle [ˈhıgl] *v* savdo qilmoq, oldi-sotdi bilan shug'ullanmoq.
higgledy-piggledy [ˌhıgldı ˈpıgldı] *adv* aralash-quralash, ayqash-uyqash.
high [haı] *a* 1) yuqori, oliy; 2) katta, kuchli; **~ wind** kuchli shamol; 3) hashamatli, dabdabali; **~ building** hashamatli bino; 4) baland, qimmat (*narx*); **~ price** qimmat narx; 5) baland (*ovoz*); 6) baland; **~ mountain** baland tog'; 7) yuqori, baland; **~ temperature** yuqori harorat.
highball [ˈhaıbɔ:l] **1.** *n amer.* 1) soda va muzli viski; 2) *tem. yo'l.* jo'nash ishorasi; 3) tezyurar poyezd; **2.** *v* katta tezlikda yurmoq.
high-blown [ˈhaıbləun] *a* gerdaygan, balandparvoz.
high-born [ˈhaıbɔ:n] *n* aslzodalar nasabi.
high-bred [ˈhaıbred] *a* 1) nasldor, yaxshi nasl beruvchi; 2) yaxshi tarbiya olgan.
highbrow [ˈhaıbrau] *n* aql-idrok egasi, aql-zakovatli odam, bilimdon.
higher [ˈhaıə] *a* yuqori, oliy; **~ education** oliy ta'lim.
high-flyer [ˌhaıˈflaıə] *n* 1) shuhratparast, izzattalab; 2) balandda uchadigan (*qush, samolyot haqida*).
high-grade [ˈhaıgreıd] *a* yuqori navli, yuqori sifatli, oliy darajali.
high-handed [ˌhaıˈhændıd] *a* qudratli, so'zi o'tadigan.
Highlander [ˈhaıləndə] *n* 1) tog'li joyda yashovchi kishi; 2) Shotlandiyaning tog'li joylarida yashovchi kishi.

highland ['hailənd] *n pl* tog'li mamlakat.
high-level [,hai'levl] *a* oliy martabali, yuqori mansabli, martabasi ulug'.
highlight ['hailait] *v* 1) katta ahamiyat bermoq, birinchi o'ringa qo'ymoq; 2) oldinga o'tkazmoq; 3) yoritmoq.
highly ['hаili] *adv* juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, bag'oyat.
high-minded [,hai'maindid] *a* olijanob, olihimmat.
highness ['hainəs] *n* 1) balandlik, tepalik, tepa joy; 2) aslzodalik, zodagonlik.
high-priority [,haipraі'ɔrəti] *a* birinchi navbatdagi; muhim; shoshilinch.
high-speed [,hai'spi:d] *n* tezlik, tez yurish.
high-spirited [,hai'spiritid] *a* dadil, jur'atli; g'ayratli, yuragida o'ti bor.
highway ['haiwei] *n* katta (asosiy) yo'l.
highwayman ['haiweimən] *n* qaroqchi, bosqinchi, yo'lto'sar (*katta yo'llarda*).
hijack | 'haidʒæk] *v* qo'lga olmoq (*samolyot va sh.k.ni*).
hijacker ['haidʒækə] *n* 1) bosqinchi, qaroqchi, bosmachi; 2) havo qaroqchisi (*aholi punktlariga hujum qiluvchi dushman samolyoti va uchuvchisi haqida*).
hijacking ['haidʒækiŋ] *n* 1) hujum, hamla, tajovuz; 2) talash, talon-taroj qilish.
hike [haik] **1.** *n og'z.* 1) uzoq muddatli sayr; 2) ekskursiya; 3) piyoda sayr qilish; **2.** *v* piyoda yurmoq, sayr qilmoq.
hilarious [hi'leəriəs] *a* 1) shod, xursand, quvnoq; 2) qiziq, g'alati.
hilarity [hi'lærəti] *n* qattiq kulgi, lol-hayron.
hill [hil] *n* tepa, tepalik, do'nglik, balandlik.
hillock ['hilək] *n* tepalik, do'nglik, balandlik; do'ng, tepa.
hillside ['hilsaid] *n* yonbag'ir, qiyalik.
hilly ['hili] *a* tepaliklar bilan qoplangan, balandpast.
hilt [hilt] *n* sop, dasta.
him [him] *pers. pron.* uni, unga.
himself [him'self] *pron. refl.* o'zi, o'ziga, o'zigao'zi.
hind [haind] **1.** *n* batrak; fermada ishlovchi kishi; **2.** *a* keyingi, orqadagi; **~ leg** orqadagi oyoq.
hinder I ['haində] *a* orqa tomondagi, keyingi.
hinder II ['hində] *v* xalaqit bermoq; **to ~ smb.** kimgadir xalaqit bermoq.
Hindi ['hindi:] *n* hindi, hind tili.
hindmost ['haindməust] *a* oxirgi paytda, oxirgi, so'nggi.
Hindoo [,hin'du:] = **Hindu.**
hindrance ['hindrəns] *n* to'siq, to'sqinlik, xalal.
hindsight ['haindsait] *n* 1) ehtiyotsizlik; 2) oqibatini o'ylamasdan ish qilishlik; 3) o'tmishga nazar tashlash.
Hindu [,hin'du:] *n* hindu, hindi.
Hinduism ['hinduizm] *n* induizm (*Hindistonda eng keng tarqalgan din*).
hinge [hindʒ] *n* oshiq, oshiq-moshiq (*eshikda*).
hint [hint] **1.** *n* 1) shama, ishora; **gentle ~** nozik shama; 2) luqma; **2.** *v* imo-ishora qilmoq, sezdirmoq, biror narsaning uchini chiqarib qo'ymoq.
hinterland ['hintəlænd] *n* 1) qirg'oq bo'yidagi yerlar *yoki* chegaradan uzoqda joylashgan tumanlar; 2) sanoat markazidan uzoqda joylashgan tuman.
hintingly ['hintiŋli] *adv* imo-ishora qilib.
hip [hip] *n* 1) son (*a'lo*); tos; 2) yonbosh, biqin.
hippodrome ['hipədrəum] *n* otchopar, ippodrom.
hippopotamus [,hipə'pɔtəməs] *n zool.* begemot.
hire ['haiə] **1.** *v* yollamoq, kiraga (ijaraga) olmoq; **2.** *n* yollash, ijara, kira; **to let out on ~** ijaraga bermoq.
hireling ['haiəliŋ] *n* 1) yollangan askar; 2) yollangan ishchi; 3) yollangan ot.
hirsute ['hə:sju:t] *a* sochlari o'sib ketgan, sermo'y, serjun.
his [hiz] *pron. poss.* uning, uniki (*erkaklarga nisbatan*); **~ book** uning kitobi.
hiss [his] **1.** *n* vishillash, pishillash, vijillab qaynash (*choy*); **2.** *v* vishillamoq, pishillamoq.
historian [hi'stɔ:riən] *n* tarixchi, tarixshunos.
historic [hi'stɔrik] *a* tarixiy, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, tarixga oid.
historical [hi'stɔrikl] *a* tarixiy; tarixga oid, tarix bilan bog'liq bo'lgan; **~ method** tarixiy uslub; **~ cities** tarixiy shaharlar.
history ['histri] *n* tarix; **~ lesson** tarix darsi; **modern ~** yangi tarix.
histrionic [,histri'ɔnik] *a* aktyorlarga, aktyorlikka oid.
hit I [hit] *n* zarba, turtki; **a ~ with a hammer** bolg'a zarbasi.
hit II [hit] *v* **(hit; hit)** urmoq, zarba bermoq; **to ~ smth. hard** nima bilandir qattiq urmoq.
hitch [hitʃ] *n* 1) itarib yuborish, turtish, itarish, uzish, zarba; 2) siltash, irg'ish, sapchish.
hither ['hiðə] *adv* bu yoqqa, bu yerda, bu tomonga.
hitherto [,hiðə'tu:] *adv* hozirgacha.
hit-or-miss [,hitɔ:'mis] *adv* tavakkaliga, chamalab, taxminan.
hive [haiv] *n* asalari uyasi, arixona.
hives [haivz] *n pl tib.* eshak yemi (*kasallik*).
h'm [hm] *int.* hm, ha (*shubha, ikkilanish ma'nolarini bildiradi*).
hoar [hɔ:] **1.** *n* 1) qirov; 2) qarilik; **2.** *a* chol bo'lib qolgan, soch-soqoli oqargan.
hoard [hɔ:d] **1.** *n* to'plab qo'yilgan, yashirib qo'yilgan narsa; **2.** *v* to'plamoq, yig'ib qo'ymoq.
hoarding ['hɔ:diŋ] *n* vaqtinchalik (to'siq) devor (*qurilayotgan uyning atrofida*).
hoar-frost [,hɔ:'frɔst] *n* qirov, sovuq nam havo.
hoarse [hɔ:s] *a* 1) bo'g'iq, 2) xirillamoq, xirildoq; **speak ~ly** xirillab gapirmoq.

hoary [ˈhɔːrɪ] *a* 1) oq, oqargan; 2) qadimgi, uzoq o'tmishdagi.
hoax [həuks] **1.** *n* yolg'on, noto'g'ri gap; **2.** *v* hazillashmoq, hazil qilmoq.
hob [hɔb] *n* 1) gaz plitasining tepa qismi, qopqog'i; 2) qayrilma qoziq; 3) chananing oyog'i.
hobble [ˈhɔbl] **1.** *n* oqsash, cho'loqlanib yurish; **2.** *v* oqsamoq.
hobby [ˈhɔbɪ] *n* sevgan qiziqadigan narsa, ko'ngilochar ish, sevgan mashg'ulot.
hobby-horse [ˈhɔbɪhɔːs] *n* yog'och ot (*o'yinchoq*).
hobgoblin [ˌhɔb ˈgɔblɪn] *n* 1) jin, ajina; 2) qo'riqchi.
hobnail [ˈhɔbneɪl] *n* katta qalpoqli etikka qoqadigan mix; **~ed boots** toqqa kiyadigan etik.
hob-nob [ˈhɔbnɔb] **1.** *n* do'stona suhbat; **2.** *adv* o'ylmasdan, tavakkaliga.
hobo [ˈhəubəu] *n* daydi, darbadar.
hock [hɔk] **1.** *n* 1) tizza paylari; 2) uzum vinosining bir navi; 3) garov.
hockey [ˈhɔkɪ] *n* xokkey (*sport o'yini*); **field ~** chim ustidagi xokkey; **ice ~** muz ustidagi xokkey.
hocus [ˈhəukəs] *v* aldamoq, boshini aylantirmoq, miyasini gangitmoq; 2) (*narkotik bilan*) zaharlamoq.
hocus-pocus [ˌhəukəs ˈpəukəs] *n* hiyla, hiylanayrang.
hodge-podge [ˈhɔdʒpɔdʒ] *n* sabzavot va go'shtdan qilingan ragu.
hoe [həu] *n* ketmon; **~ing** yumshatish, chopiq.
hog [hɔg] *n* 1) cho'chqa; 2) qo'zi, qo'zichoq.
Hogmanay [ˈhɔgmənеɪ] *n* yangi yil arafasi (kechasi).
hogshead [ˈhɔgzhed] *n* 1) katta bochka; 2) suyuqlik o'lchovi (*vaqin 238 l.*).
hog-wash [ˈhɔgwɔʃ] *n* yuvundi.
hoist [hɔɪst] *n* ko'tarish, ko'tarilish, chiqish.
hoity-toity [ˌhɔɪtɪ ˈtɔɪtɪ] *n* 1) shovqin, shovqinsuron, to'polon; 2) yengiltaklik.
hold [həuld] *v* **(held; held)** 1) to'xtatmoq; 2) ega bo'lmoq; 3) ushlab turmoq; 4) kasb egallamoq; 5) sig'dirmoq; 6) majlis o'tkazmoq; 7) bayram qilmoq, nishonlamoq; 8) qamoqda ushlamoq; **~ back** o'zini tutmoq; **~ by** maslahatga quloq tutmoq; **~ on** a) nimadandir ushlab turib olmoq; b) nimanidir qilishni davom ettirmoq; **~ out** tortmoq; **~ over** qoldirmoq; **~ to** fikrida, gapida turmoq; **~ up** ko'rsatmoq.
holdall [ˈhəuldɔːl] *n* 1) jild, g'ilof; 2) ashyolar (buyumlar) solinadigan xalta, qopcha.
holdback [ˈhəuldbæk] *n* 1) sekinlik, kechikish; 2) xalal, xalaqit, to'sqinlik.
holder [ˈhəuldə] *n* 1) ijarachi; 2) ega, xo'jayin, sohib (*veksel va b.*); 3) dasta, sop.
holdfast [ˈhəuldfɑːst] *n* mahkam (qattiq) ushlash.
hold-up [ˈhəuldʌp] *n* 1) hujum, bostirib kirish; 2) talash, shilish (*ko'chada, yo'lda*).
hole [həul] **1.** *n* teshik, tuynuk, darcha, kovak; **2.** *v* teshmoq, o'ymoq.
holiday [ˈhɔlɪdɪ] **1.** *n* 1) bayram; 2) ta'til; **a week's ~** bir haftalik ta'til; **2.** *v* dam olmoq, ta'tilni o'tkazmoq.
holiday-maker [ˈhɔlɪdɪˌmeɪkə] *n* bekorchi, dam oluvchi.
holiness [ˈhəulɪnəs] *n* 1) muqaddaslik, tabarrukliк; 2) olijanoblik.
hollo(a) [ˈhɔləu] **1.** *int.* hey, hoy, ey; **2.** *n* chaqiriq ovozi, chaqirish; **3.** *v* otini aytib chaqirmoq.
hollow [ˈhɔləu] **1.** *n* bo'shlik, po'k, kovak; **~ in the ground** yerdagi kovak; **2.** *a* bo'sh joy, kovak; **~ tree** kovak daraxt.
holly [ˈhɔlɪ] *n bot.* padub (*nayzabargli daraxtning bir turi*).
hollyhock [ˈhɔlɪhɔk] *n bot.* gulxayri.
holocaust [ˈhɔləkɔːst] *n* 1) yo'q qilish, qirib tashlash; 2) qirg'in, xunrezlik.
holster [ˈhəulstə] *n* to'pponcha qini.
holy [ˈhəulɪ] *a* 1) muqaddas, aziz, tahorat; 2) avliyo.
holystone [ˈhəulɪstəun] *n* ko'piktosh, jilvirtosh (*silliqlash ishlarida ishlatiladi*).
homage [ˈhɔmɪdʒ] *n* izzat-ikrom, hurmat, ehtirom.
home [həum] **1.** *n* 1) uy, uy-joy, turar joy, hovli; **at ~** uyda; **make yourself at ~** o'z uyingizdek his qiling; 2) Vatan, yurt; 3) oila, oilaviy hayot; 4) boshpana; manzil, makon; **~ an orphan's ~** yetimxona; **2.** *a* xonaki, uyniki, uyga doir.
homeland [ˈhəumlænd] *n* Vatan, yurt.
homeless [ˈhəumləs] *a* uysiz, boshpanasiz.
homely [ˈhəumlɪ] *a* 1) samimiy; ochiq chehrali; 2) o'ziga tortmaydigan, jalb qilmaydigan.
homesick [ˈhəumsɪk] *a* uyni sog'inuvchi, Vatanni sog'inuvchi.
homesickness [ˈhəumsɪknəs] *n* Vatanni (uyni) sog'inish.
homestead [ˈhəumsted] *n* 1) qo'rg'on, chorbog'; 2) ferma.
homeward [ˈhəumwəd] *a* uyga yo'nalgan.
homewards [ˈhəumwədz] *adv* uyga, uy tarafga.
homicidal [ˌhɔmɪˈsaɪdl] *a* halokatli, o'ldiradigan, halok qiladigan.
homicide [ˈhɔmɪsaɪd] *n yur.* 1) qotil, odamkush; 2) o'ldirish, o'ldirib ketish.
homily [ˈhɔməlɪ] *n* 1) *cherk.* va'z, xutba; 2) nasihat, o'git, ibrat.
homoeopathy [ˌhəumɪˈɔpəθɪ] *n tib.* 1) gomeopatiya (*davolash usuli*); 2) emlash.
homogeneous [ˌhɔməˈdʒiːnɪəs] *a* 1) bir xildagi, o'xshash; 2) *gram.* uyushiq bo'lakli; 3) *mat.* tarkibi, kelib chiqishi jihatidan bir xil, bir jinsli.
homonym [ˈhɔmənɪm] *n tilsh.* omonim.
homosexual [ˌhəumə ˈsekʃuəl] *a* o'z jinsiga moyil.
hone [həun] **1.** *n* qayroqtosh; **2.** *v* qayramoq, o'tkir qilmoq.

honest [ˈɔnɪst] *a* 1) ochiq; 2) rostgo'y; 3) haqiqiy; halol, vijdonli, to'g'ri; 4) pokiza, iffatli, ma'sum; **an ~ girl** nomusli qiz.

honesty [ˈɔnəstɪ] *n* halollik, vijdonlilik, to'g'rilik.

honey [ˈhʌnɪ] *n* 1) asal; bol; 2) shirinlik.

honey-bee [ˈhʌnɪbi:] *n* ishchi asalari, asal tashiydigan asalari.

honeycomb [ˈhʌnɪkəum] *n* asalari ini.

honeycombed [ˈhʌnɪkəumbd] *a* g'ovak, teshik.

honeyed [ˈhʌnɪd] *a* 1) asaldek, shirin; 2) xushomadgo'y, laganbardor, tilyog'lama; **~ words** xushomadli gaplar.

honeymoon [ˈhʌnɪmu:n] *n* asal oyi.

honey-mouthed [ˈhʌnɪmauðd] *a* shirin so'zli, xushomadgo'y.

honeysuckle [ˈhʌnɪsʌkl] *n bot.* shil va uchqat (*buta o'simlik*).

honk [hɔŋk] *v* signal chalmoq, signal bermoq.

honor [ˈɔnə] = **honour.**

honorable [ˈɔnərəbl] *amer.* = **honourable.**

honorarium [ˌɔnəˈrɛərɪəm] *n* (*pl* **-riums, -ria**) gonorar, qalam haqi.

honorary [ˈɔnrərɪ] *a* hurmatli, izzatli, aziz, hurmatli.

honorific [ˌɔnəˈrɪfɪk] *a* hurmatli, aziz, muhtaram.

honour [ˈɔnə] *n* 1) nomus; 2) yaxshi nom; 3) shon so'zlik; 4) hurmat; **to give ~ to smb** kimgadir hurmatda bo'lmoq; 5) shon-shuhrat, sharaf, obro'-e'tibor.

honourable [ˈɔnərəbl] *a* 1) hurmatli, aziz, muhtaram; 2) faxriy, sharafli, ulug'vor; **~ duty** sharafli burch.

hooch [hu:tʃ] *n amer.* 1) spirtli ichimlik; 2) qo'lbola araq, uyda tayyorlangan araq.

hood [hud] **1.** *n* qalpoq, g'ilof; **2.** *v* yopib qo'ymoq.

hoodie [ˈhudɪ] *n* ko'k qarg'a.

hoodlum [ˈhudləm] *n amer.* bezori, xuligan.

hoodwink [ˈhudwɪŋk] *v* laqillatmoq, aldamoq.

hoof [hu:f] **1.** *n* **(hoofs, hooves)** tuyoq; **2.** *v* tuyog'i bilan tepmoq.

hoofed [hu:ft] *a* tuyoqqa oid, tuyoqli, tuyoqlilar.

hook [huk] *n* 1) ilgak, ilmoq; 2) tuzoq.

hooked [hukt] *a* egri, bukik, qiyshiq, egri-bugri.

hooker [ˈhukə] *n* baliq ovlaydigan kema.

hooknosed [ˌhukˈnəuzd] *a* do'ngburun bilan, qirg'iyburun bilan.

hooligan [ˈhu:lɪgən] *a* bezori, to'polonchi.

hoop [hu:p] **1.** *n* gardish, chambarak, qasqon; **2.** *v* gardishlamoq, chambarak bilan mahkamlamoq.

hooping-cough [ˈhu:pɪŋkɔf] *n* ko'kyo'tal.

hooray [huˈreɪ] *pl* **hurra(h)** *dan.*

hoot [hu:t] *n* 1) signal ovozi; 2) qichqiriq; 3) kulgili, qiziq.

hooves [hu:vz] = **hoof.**

hop [hɔp] *v* 1) sakramoq, irg'imoq; 2) raqsga tushmoq.

hope [həup] **1.** *n* ishonch, umid, orzu; **2.** *v* umid qilmoq, ishonmoq.

hopeful [ˈhəupfəl] *a* umidvor, umidli.

hopefully [ˈhəupfəlɪ] *adv* umid bilan, umidvorlik bilan.

hopefulness [ˈhəupfəlnəs] *n* kelajakka ishonish.

hopeless [ˈhəupləs] *a* umid qilib bo'lmaydigan, tuzalmaydigan, tuzalishi (o'zgarishi) qiyin.

hopper [ˈhɔpə] *n* sakrovchi, irg'uvchi.

hopscotch [ˈhɔpskɔtʃ] *n* sopolak, chertak (*yerni katak-katak chizib, sopolakni katakdan-katakka hakkalab tepib o'tkazib o'ynaladigan bolalar o'yini*).

horde [hɔ:d] *n* 1) *tar.* o'rda (*qadimiy turk-mo'g'ul hokimiyati*); 2) gala, to'p, to'da, guruh.

horizon [həˈraɪzn] *n* ufq, ufq chizig'i.

horizontal [ˌhɔrɪˈzɔntl] *n* gorizontal (*parallel chiziq*).

hormone [ˈhɔ:məun] *n* gormon (*qonga qo'shiladigan modda*).

horn [hɔ:n] **1.** *n* shox; **2.** *a* shoxdan yasalgan; **~ed** shoxli; **~ed cattle** shoxli mol.

hornbeam [ˈhɔ:nbi:m] *n bot.* grab (*qayinlar oilasiga mansub daraxt yoki buta*).

horned [hɔ:nd] *a* shoxli, muguzli; **~ cattle** shoxli mol.

hornet [ˈhɔ:nɪt] *n zool.* qovog'ari, qizil ari.

horny [ˈhɔ:nɪ] *a* shoxga (muguzga) oid.

horoscope [ˈhɔrəskəup] *n* goroskop (*munajjimlar fol ochish uchun tuzgan yulduzlar jadvali*).

horrendous [hɔˈrendəs] *a* juda yomon, yoqimsiz.

horrible [ˈhɔrəbl] *a* qo'rqinchli, dahshatli, jirkantiradigan, nafratli, vahimali.

horrid [ˈhɔrɪd] *a* qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, qo'rqitmoq.

horrific [hɔˈrɪfɪk] *a* 1) dahshatli; 2) juda yomon.

horrify [ˈhɔrɪfaɪ] *v* qo'rqitib yubormoq, qattiq qo'rqitmoq.

horror [ˈhɔrə] *n* 1) dahshat, vahima; **the ~ s of war** urush dahshatlari; 2) *attr.* dahshatli; **a ~ film** dahshatli film.

horse [hɔ:s] *n* ot; **~man** chavandoz; **~shoe** taqa.

horseback [ˈhɔ:sbæk] **1.** *n* otning orqasi; **on ~** ot ustida; **2.** *adv amer.* otda, otga minib, ot ustida.

horse-breeding [ˈhɔ:sˌbri:dɪŋ] *n* yilqichilik bilan shug'ullanadigan; yilqichilik.

horse chestnut [ˌhɔ:sˈtʃesnʌt] *n* 1) kashtan (*o'simlik*); 2) kashtan yong'og'i.

horse-collar [ˈhɔ:sˌkɔlə] *n* xomut (*yog'och bo'yincha*).

horse-flesh [ˈhɔ:sfleʃ] *n* ot go'shti.

horse-fly [ˈhɔ:sflaɪ] *n* so'na, so'na pashsha.

horseless [ˈhɔ:sləs] *n* oti yo'q, otsiz.

horseman [ˈhɔ:smən] *n* 1) otliq, chavandoz; 2) otboqar.

horsepower [ˈhɔ:spauə] *n* ot kuchi (quvvat birligi).

horseradish [ˈhɔ:srædɪʃ] *n* yerqalampir, achchiq o'simlik.

horseshoe [ˈhɔ:sʃu:] **1.** *n* taqa; **2.** *v* otni taqalamoq.

horsewhip [ˈhɔːswɪp] *v* qamchilamoq, savalamoq.
horsewoman [ˈhɔːswumən] *n* ayol chavandoz, otliq ayol.
horticulture [ˈhɔːtɪkʌltʃə] *n* 1) bog'dorchilik; 2) polizchilik.
hose [həuz] *n* shlang, ichak.
hosiery [ˈhəuzɪərɪ] *n* chulki, paypoq kabi buyumlar.
hospice [ˈhɔspɪs] *n* o'lim to'shagidagilar shifoxonasi.
hospitable [hɔˈspɪtəbl] *a* mehmondo'st, mehmonnavoz.
hospital [ˈhɔspɪtl] *n* kasalxona, shifoxona; **to be in ~** kasalxonada yotmoq.
hospitality [ˌhɔspɪˈtælətɪ] *n* mehmondo'stlik; samimiylik, iltifot.
host [həust] **1.** *n* 1) xo'jayin; mezbon; 2) mehmonxona xo'jayini; 3) ko'pchilik; olomon; **2.** *v* 1) eshittirish olib bormoq (*radio, televideniya orqali*); 2) mehmon kutmoq.
hostage [ˈhɔstɪdʒ] *n* 1) garov; kafolat; 2) qarov tariqasida ushlangan kishi.
hostel [ˈhɔstl] *n* yotoqxona.
hostess [ˈhəustɪs] *n* uy bekasi, uy egasi.
hostile [ˈhɔstaɪl] *a* dushmanlik ruhidagi, urushqoq.
hostility [hɔˈstɪlətɪ] *n* 1) adovat; dushmanlik; 2) harbiy harakatlar; **to open ~ties** harbiy harakatni boshlamoq.
hot [hɔt] *a* 1) shiddatli; 2) issiq; 3) qiziqqon; 4) maqsadga yaqin; 5) yuqori radioaktivli; **to get one's water ~** qaynab ketmoq; **~ stuff** zo'r ishlaydigan ishchi.
hotbed [ˈhɔtbed] *n* manba, o'choq.
hot-blooded [ˌhɔtˈblʌdɪd] *a* qizg'in , jo'shqin, otashin.
hotchpotch [ˈhɔtʃpɔtʃ] *n* sabzavot va go'shtdan qilingan ragu.
hot dog [ˈhɔtdɔg] *n so'zl.* issiq sosiskali buterbrod.
hotel [ˌhəuˈtel] *n* mehmonxona.
hotfoot [ˌhɔtˈfut] *adv* shoshilib, tez, tezda, darrov, darhol, tezlik (zudlik) bilan.
hot-headed [ˌhɔt ˈhedɪd] *a* issiq, qaynoq; qizib turgan.
hothouse [ˈhɔthaus] *n* issiqxona.
hotline [ˈhɔtlaɪn] *n* bevosita telefon aloqasi.
hound [haund] *n* ov iti, ovchi it.
hour [ˈauə] *n* soat, vaqt; **at an early ~** juda vaqtli, erta.
hour-glass [ˈauəglɑːs] *n* qum soat.
hour-hand [ˈauəhænd] *n* soat mili.
hourly [ˈauəlɪ] *adv* har soatda, soat sayin.
house [haus] **1.** *n* 1) uy, palata; 2) uy-joy; 3) oila, ro'zg'or; 4) parlament; 5) savdo firmasi; 6) birja; 7) *teatr.* tomoshabin; 8) seans; 9) mehmonxona; **to keep ~** ro'zg'ormi tutmoq; **to keep the ~** uyda o'tirmoq; **2.** *v* 1) uy-joy (boshpana) bermoq; 2) uyda yashamoq; 3) boshpana topmoq.
household [ˈhaushəuld] **1.** *n* oila, xonadon; **2.** *a* xonaki, uyda tayyorlangan, qo'lda qilingan.
householder [ˈhaushəuldə] *n* uy egasi *yoki* ijarachi.
housekeeper [ˈhauskiːpə] *n* 1) uy xizmatchisi; 2) uy bekasi.
housekeeping [ˈhauskiːpɪŋ] *n* uy-ro'zg'or tutish; uy-ro'zg'or ishlari.
houseless [ˈhauslәs] *a* uy-joysiz, boshpanasiz.
housemaid [ˈhausmeɪd] *n* oqsoch, uy xizmatchisi.
houseman [ˈhausmæn] *n* xizmatkor, malay (*mehmonxona, xususiy uy va b.*).
house-surgeon [ˈhausˌsɜːdʒən] *n* kasalxonada yashaydigan bosh jarroh (*bosh shifokor*).
house-to-house [ˌhaustə ˈhaus] *a* uyma-uy.
house-top [ˈhaustɔp] *n* 1) tom; 2) tim, boshpana, uy.
house-warm [ˈhauswɔːm] *v* yangi uyga (joyga) ko'chib borganligini nishonlamoq.
house-warming [ˈhausˌwɔːmɪŋ] *n* yangi joyga ko'chib borganligini (kelganligini) nishonlash.
housewife [ˈhauswaɪf] *n* uy bekasi.
housewifely [ˈhausˌwaɪflɪ] *a* 1) xo'jalikka oid; 2) tejamkor.
housewifery [ˈhauswɪfərɪ] *n* uy-ro'zg'or ishlari, uy-ro'zg'or tutish.
housework [ˈhauswɜːk] *n* uy-ro'zg'or ishlari.
housing I [ˈhauzɪŋ] **1.** *pres. p.* **house 2.** *dan*; **2.** *n* uy-joy, uy-joy bilan ta'minlash, uy-joy qurilishi.
housing II [ˈhauzɪŋ] *n* yopiq (*ot va ba'zi boshqa uy hayvonlarining yopig'i*).
hove [həuv] *past., p.p.* **heave 2.** *dan*.
hovel [ˈhɔvl] *n* faqirona uy, kapa, kulba.
hover [ˈhɔvə] *n* 1) tebranmoq, pirpiramoq; 2) yaqindan kutmoq; 3) ikkilanmoq.
hovercraft [ˈhɔvəkrɑːft] *n* havo yostiqli kema *yoki* poyezd.
how [hau] **1.** *adv* 1) qanday, qanday qilib; 2) necha; **~ old is he?** U necha yoshda? 3) qanday! **~ funny** qanday kulgili; **how comes it?** nimaga bunaqa chiqayapti? **~ are you** qanday yashayapsiz, qalaysiz?; **2.** *n so'zl.* usul, yo'l.
how-do-you-do [ˌhaudjuˈduː] *n* assalomu alaykum; yaxshimisiz?
how-d'ye-do [ˌhaudɪˈduː] = **how-do-you-do.**
however [hauˈevə] **1.** *cj.* ammo, biroq; **2.** *adv* shunga qaramay, qanday bo'lmasin.
howitzer [ˈhauɪtsə] *n harb.* gaubitsa (*kalta stvolli og'ir zambarak*), to'p.
howl [haul] **1.** *n* ingrash, yig'i, nola; **2.** *v* uvlamoq, ingramoq.
howler [ˈhaulə] *n* 1) yig'ichi, go'yanda (*o'z qo'shig'ini aytuvchi ayol*); 2) *so'zl.* eng qo'pol xato.
howling [ˈhaulɪŋ] **1.** *pres. p.* **howl 2.** *dan*; **2.** *a* ma'yus, g'amgin, umidsiz.
howsoever [ˌhausəuˈevə] *adv* qanchalik (naqadar, nechog'lik) ... masin.

hoy [hɔɪ] **1.** *n* barja (*shatakka olib yuriladigan yoki o'ziyurar yassi yuk kemasi*); **2.** *int* hoy! hey! (*chaqiruv, undov*).

hoyden [ˈhɔɪdn] *n* to'polonchi qizcha.

hub [hʌb] *n* 1) g'ildirak gupchagi; 2) diqqat-markazi (*mimaningdir*).

hubble-bubble [ˈhʌblbʌbl] *n* 1) chilim; 2) qult-qult qilish; 3) qulqullagan tovush; 4) safsata, bekorchi gap.

hubbub [ˈhʌbʌb] *n* 1) to'polon, shovqin-suron; 2) gumburlagan ovoz.

hubby [ˈhʌbɪ] *n so'zl.* erjon, ergina.

hubris [ˈhju:brɪs] *n grek.* kibr-havo, g'urur.

huckaback [ˈhʌkəbæk] *n* zig'irpoya tolasidan to'qilgan polotno (*polotno – gazlamaning qalinroq bir turi, sochiq va b. uchun*).

huckleberry [ˈhʌklbərɪ] *n* chernika (*buta va mevasi*).

huckle-bone [ˈhʌklbəun] *n anat.* to'piq suyagi (*hayvonlarda*).

huckster [ˈhʌkstə] *n* 1) chakana savdogar; 2) makler; 3) televideniya va radioda reklama dasturlarini tuzuvchi kishi.

huddle [ˈhʌdl] *n* 1) to'p, to'plam, quchoq; 2) tartibsizlik.

hue [hju:] *n* 1) tus, rang, alomat, belgi; 2) (**~ and cry**) quvish, orqasidan (ketidan) quvib borish, quvg'in; 3) shovqin-suron.

huff [hʌf] **1.** *n* qattiq g'azablanish; **2.** *v* qattiq g'azablanmoq, nafratlanmoq.

huffish [ˈhʌfɪʃ] *a* tez achchiqlanadigan, serjahl, tez xafa bo'ladigan.

huffy [ˈhʌfi] *a* 1) o'zidan xursand, mag'rurona; 2) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan.

hug [hʌg] **1.** *n* bag'riga qattiq bosish, qattiq quchoqlab olish; **to give smb. a ~** kimnidir bag'riga bosmoq; **2.** *v* 1) bag'riga qattiq bosmoq, qattiq quchoqlab olmoq; 2) tashakkur bildirmoq (*kimgadir*).

huge [hju:dʒ] *a* katta, ulkan, buyuk.

hugely [ˈhju:dʒlɪ] *adv* juda, g'oyatda.

hugeness [ˈhju:dʒnəs] *n* g'oyat kattalik, ulkanlik, buyuklik, zo'rlik.

hugeous [ˈhju:dʒəs] = **huge.**

hugger-mugger [ˈhʌgə,mʌgə] **1.** *n* sir; **in ~** yashirincha; **2.** *a* yashirin, maxfiy, ko'pchilik bilmaydigan; **3.** *adv* yashirincha, maxfiy, bildirmay; **4.** *v* yashirmoq, bekitmoq.

Huguenot [ˈhju:gənəu] *n fr. tar.* gugenotlar (*16 – 17 asrlardagi fransuz protestantlari*).

huh [hə] *int.* g'azab, g'ayrat va h.k.ni izhor qilish uchun qo'llaniladi.

hulk [hʌlk] *n* katta kema (*burilmaydigan*), suzishga yaramaydigan katta kema korpusi (*tomasi*).

hulking [ˈhʌlkɪŋ] *a* ulkan, juda katta.

hull I [hʌl] **1.** *n* po'choq, po'st; **2.** *v* po'chog'ini archmoq.

hull II [hʌl] *n* sinch, qobirg'a; (*tank, kema va b.ning*) tanasi.

hullabaloo [ˌhʌləbəˈlu:] *n* to'polon, shov-shuv.

hulled [hʌld] **1.** *p. p.* **hull I, 2.** *dan*; **2.** *a* tozalangan, soflangan.

hullo(a) [ˈhʌˈləu] *int.* allo.

hum [hʌm] **1.** *n* 1) g'o'ng'illash; 2) sassiq hid; **2.** *v* go'ng'illamoq; **3.** *int* hm, ha (*shubha, kinoya, ishonchsizlik, ikkilanish va sh.k. ma'nolarni ifodalaydi*).

human [ˈhju:mən] *a* insoniy; **the ~ race** inson zoti.

humane [hju:ˈmeɪn] *a* insonparvar odamga oid; insonparvar...; **a man of ~ character** insonparvar odam.

humaneness [hju:ˈmeɪnnəs] *n* yaxshilik, ezgulik; insonparvarlik.

humanism [ˈhju:mənɪzm] *n* insonparvarlik, odamgarchilik, gumanitar.

humanist [ˈhju:mənɪst] *n* 1) gumanizm tarafdori; 2) insonparvar, insonparvar odam.

humanitarian [hju,mænɪˈteərɪən] **1.** *n* gumanist, gumanizm tarafdori; **2.** *a* insonparvarlik.

humanity [hju:ˈmænətɪ] *n* 1) insoniyat; 2) kishilik tabiati; **the humanities** gumanitar fanlar.

humanize [ˈhju:mənaɪz] *v* odamga aylantirmoq.

humankind [ˌhju:mənˈkaɪnd] *n* insoniyat, kishilik, odamzod, bashariyat.

humanly [ˈhju:mənlɪ] *adv* insonlarcha; **all that is ~ possible** insonning qo'lidan keladigan barcha narsalar.

humble [ˈhʌmbl] *a* kamtar, oddiy, kamsuqum.

humble-bee [ˈhʌmblbi:] *n* tukli ari.

humbug [ˈhʌmbʌg] **1.** *n* aldash, firib berish; **2.** *v* aldamoq, firib bermoq.

humdinger [ˌhʌmˈdɪŋə] *n amer. so'zl.* ayni ko'ngildagi yigit.

humdrum [ˈhʌmdrʌm] **1.** *n* ko'p chaynalgan gap, siyqasi chiqqan ibora; **2.** *a* ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan (*ibora*).

humect [hju:ˈmekt] *v* ho'llamoq, namlamoq.

humeral [ˈhju:mərəl] *a anat.* yelkaga oid, yelka.

humid [ˈhju:mɪd] *a* zax, ho'l, nam.

humidify [hju:ˈmɪdɪfaɪ] *v* ho'llamoq, namlamoq.

humidity [hju:ˈmɪdətɪ] *n* namlik, zaxlik, ho'llik.

humidor [ˈhju:mɪdə] *n* ma'lum bir foizdagi namlikni saqlab turadigan kamera *yoki* quti.

humify [ˈhju:mɪfaɪ] *v* 1) namlamoq, ho'llamoq; 2) *q.x. esk.* o'g'itlamoq, o'g'itlab unumdor qilmoq (*yerni*).

humiliate [hju:ˈmɪlɪeɪt] *v* xo'rlamoq, kamsitmoq, haqorat qilmoq.

humiliating [hju:ˈmɪlɪeɪtɪŋ] *a* xo'rlaydigan, kamsitadigan, haqoratli.

humiliation [hju,mɪlɪˈeɪʃn] *n* kamsitish, haqorat qilish, xo'rlash.

humility [hju:ˈmɪlətɪ] *n* itoatkorlik, bo'ysunish, bo'yin egish, itoat qilish.

hummel [ˈhʌml] *a* shoxi yo'q, shoxsiz, to'qol, muguzsiz.

hummer [ˈhʌmə] *n radio.* zummer (*tovush signali beradigan elektr asbob*).

humming [ˈhʌmɪŋ] **1.** *pres. p.* **hum 2.** *dan*; **2.** *a* g'uvullaydigan, g'ong'illaydigan, vizillaydigan.

humming-bird [ˈhʌmɪŋbə:d] *n* kolibri (*Amerikada yashaydigan rangdor kichkina qush*).

humming-top [ˈhʌmɪŋtɔp] *n* piridoq, pildiroq, hizbizak, g'irg'irak (*o'yinchoq*).

hummock [ˈhʌmək] *n* tepalik, do'nglik, balandlik.

humor [ˈhju:mə] = **humour.**

humorist [ˈhju:mərɪst] *n* 1) xushchaqchaq odam, hazilkash; 2) qiziqchi, hazilkash.

humorous [ˈhju:mərəs] *n* kulgili, qiziq, g'alati.

humour [ˈhju:mə] *n* 1) yumor, hazil; hazil-mutoyiba; **sense of ~** hazil tuyg'usi; 2) kayfiyat; **in good ~** yaxshi kayfiyatda.

humourist [ˈhju:mərɪst] = **humorist**.

humous [ˈhju:məs] *a* chirindili, chirindi aralash, chirindi aralashgan, chirindi qo'shilgan.

hump [hʌmp] *n* bukur, do'ng.

humpback [ˈhʌmpbæk] *n* 1) bukur odam; 2) *so'zl.* yomon kayfiyat.

humpbacked [ˈhʌmpbækt] *a* bukur, bukchaygan.

humph [mm, hʌmf] *int.* hm, ha (*shubha, ikkilanish va sh.k. ma'nolarni ifodalaydi*).

humpy [ˈhʌmpɪ] *n avst.* kulba, kichik uy.

humus [ˈhju:məs] *n* 1) chirindi; 2) qoratuproq.

Hun [hʌn] *n* 1) vahshiy; 2) nemis.

hunch [hʌntʃ] **1.** *n* bukur, chiqiq; **2.** *v* bukmoq, egmoq, bukchaytirmoq.

hunchback [ˈhʌntʃbæk] *n* bukur odam.

hundred [ˈhʌndrəd] *n num. card.* yuz, yuztalik; **about ~** yuzga yaqin.

hundredfold [ˈhʌndrədfəuld] *a* yuz marta oshirilgan (*kattalashtirilgan, ko'paytirilgan*).

hundredth [ˈhʌndrədθ] *num. ord.* yuzinchi.

hundredweight [ˈhʌndrədweɪt] *n* sentner (*Amerikada = 45,3 kg, Angliyada = 50,8 kg*).

hung [hʌŋ] *past., p. p.* **hang** *dan.*

Hungarian [hʌŋˈgeərɪən] *a* 1) Vengriyaga va vengrlarga oid; 2) vengr, vengrlar tili.

hunger [ˈhʌŋgə] **1.** *n* 1) ochlik; 2) qattiq xohish, chanqoqlik (*nimagadir: **for, after***); **2.** *v* 1) och qolmoq; 2) qattiq xohlamoq, chanqamoq.

hunger-march [ˈhʌŋgəmɔ:tʃ] *n* och yurish.

hunger-marcher [ˈhʌŋgəmɔ:tʃə] *n* ochlik yurishi qatnashchisi.

hunger-strike [ˈhʌŋgəstraɪk] **1.** *n* norozilik bildirib ovqatdan voz kechish; **2.** *v* ochlik e'lon qilmoq.

hungry [ˈhʌŋgrɪ] *a* 1) och, och qolgan, qorni och; 2) chanqoq (*nimagadir; **for***).

hunk [hʌŋk] *n* bir tilim yaproq, bir parcha, bir burda (*ba'zlak*).

hunker [ˈhʌŋkə] *n amer.* jaholatparast, taraqqiyot dushmani.

hunkers [ˈhʌŋkəz] *n pl so'zl.* **on one's ~** 1) o'tirib qolgan; 2) juda og'ir ahvolda.

hunks [hʌŋks] *n* o'taketgan xasis (*ziqna*) odam.

hunky-dory [ˌhʌŋkɪ ˈdɔ:rɪ] *a* birinchi darajali.

hunt [hʌnt] **1.** *n* 1) ov, ov qilish; 2) qidirish (*nimanidir; **for***); **to be on the ~ for smth.** nimanidir juda qidirmoq; **2.** *v* 1) ov qilmoq; 2) izidan bormoq; **~ after** quvlamoq; **~ down** tutib olmoq; **~ for** qidirmoq.

hunter [ˈhʌntə] *n* 1) ovchi; 2) ovchi it; 3) qopqoqli cho'ntakda olib yuradigan soat.

hunter's moon [ˈhʌntəzmu:n] *n* kuzda kechakunduz teng bo'lgan oy to'lgan vaqt.

hunting [ˈhʌntɪŋ] *n* ov, ovlash; ov qilish.

hunting-box [ˈhʌntɪŋbɔks] *n* ovchining kichkina uyi (*kulbasi*).

hunting-crop [ˈhʌntɪŋkrɔp] *n* ovchining xipchini (*xivichi*).

hunting-ground [ˈhʌntɪŋgraund] *n* ovlaydigan yer (*joy*).

hunting-horn [ˈhʌntɪŋhɔ:n] *n* ovchi burg'usi (*burg'u – hayvon shoxidan yasalgan cholg'u asbobi*).

hunting-party [ˈhʌntɪŋˌpɑ:tɪ] *n* 1) ovlash, ov qilish; 2) ovchilar, ov qatnashchilari.

hunting-season [ˈhʌntɪŋˌsi:zn] *n* ovlash, (*ov*) mavsumi.

hunting-whip [ˈhʌntɪŋwɪp] = **hunting-crop.**

huntress [ˈhʌntrəs] *n* ovchi ayol.

huntsman [ˈhʌntsmən] *n* 1) ovchi; 2) ovchilikni o'ziga kasb qilib olgan ovchi.

hunt-the-slipper [ˌhʌntðə slɪpə] *n* davradagi tufli (*o'yin*).

hup(p) [hʌp] **1.** *int* chu, cho' (*ot haydaganda aytiladigan xitob*); **2.** *v* otni «chu» deb haydamoq.

hurdle [ˈhə:dl] **1.** *n* to'siq, chetan devor, g'ov; **2.** *v* g'ov tutmoq.

hurdler [ˈhə:dlə] *n sport.* baryerchi (*baryer osha yuguruvchi, chopuvchi sportchi, poygachi*).

hurdle-race [ˈhə:dlreɪs] *n sport.* to'siqlar osha yugurish (*chopish*).

hurdling [ˈhə:dlɪŋ] **1.** *pres. p.* **hurdle 2.** *dan*; **2.** *n* to'siqlar osha yugurish (chopish).

hurdy-gurdy [ˈhə:dɪgə:dɪ] *n* sharmanka (*burab chalinadigan qutisimon musiqa asbobi*).

hurl [hə:l] **1.** *n* kuchli otish (uloqtirish); **2.** *v* kuch bilan otmoq (uloqtirmoq).

hurley [ˈhə:lɪ] *n* Irlandiya chim usti xokkeyi.

hurly-hurly [ˈhə:lɪbə:lɪ] *n* betartib (*bosh boshga qovushmagan*) harakat.

hurra(h) [hə´rɑ:] **1.** *int.* ura! (qichqiriq); **2.** *v* ura deb (baqirmoq) qichqirmoq.

hurray [hə´reɪ] = **hurra(h).**

hurricane [ˈhʌrɪkən] *n* dovul, bo'ron; to'fon.

hurricane-lamp [ˈhʌrɪkənlæmp] *n* chaqmoq chirog'i.

hurried [ˈhʌrɪd] **1.** *p. p.* **hurry 2.** *dan*, **2.** *a* shoshadigan, shoshqaloq, hovliqma; **to write a few**

~ lines bir necha qatorlarni o'chirmoq (chizmoq).

hurriedly ['hʌrɪdlɪ] *adv* shoshilinch ravishda, shoshilib, shoshib.

hurry ['hʌrɪ] **1.** *n* shoshqaloqlik; shoshilish, hovliqish; **to be in a ~** shoshilmoq; **2.** *v* 1) shoshilmoq; **~ off** shoshilib ketmoq; 2) shoshilinch ravishda bajarmoq.

hurry-scurry [ˌhʌrɪ'skʌrɪ] *n* 1) yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon; 2) ovoragarchilik, yugurib-yelish, yugur-yugur.

hurry-up ['hʌrɪʌp] *a amer.* shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan; **~ repairs** shoshilinch ta'mirlash.

hurst [hə:st] *n* tepalik, balandlik, do'nglik.

hurt [hə:t] **1.** *n* 1) zarar, shikast; 2) urib olish, lat yeyish; 3) og'riq; 4) ranj-alam, xafagarchilik; **2.** *v* **(hurt; hurt)** 1) zarar yetkazmoq, xafa qilmoq; **to ~ smb's feelings** kimnidir xafa qilmoq; 2) og'rimoq; **my hand still ~s** qo'lim hali ham og'riyapti.

hurtful ['hə:tfl] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ozor beruvchi.

hurtle ['hə:tl] *v* 1) g'uvullab uchmoq, uchib o't-moq; 2) kuch bilan tashlanmoq.

husband ['hʌzbənd] **1.** *n* er, qalliq; xo'jayin; **2.** *v* xo'jalikni tejamkorlik bilan yurgizmoq.

husbandly ['hʌzbəndlɪ] *a* 1) erga tegishli, erniki; erlarga xos; 2) tejamkor, tejab sarf qiladigan.

husbandman ['hʌzbəndmən] *n esk.* dehqon, ziroatchi.

husbandry ['hʌzbəndrɪ] *n* 1) ayash, tejamkorlik; 2) qishloq xo'jaligi; **~ animal** chorvachilik.

hush [hʌʃ] **1.** *n* sukunat, sukut saqlash; tinchlik; **2.** *v* tinchimoq; jim bo'lmoq, tinchlanmoq; **3.** *int.* jim! sekinroq!.

hushaby ['hʌʃəbaɪ] *int* alla bolam, alla.

hushfully ['hʌʃfulɪ] *adv* pichirlab, shivirlab, past ovoz bilan.

hush-hush [ˌhʌʃ'hʌʃ] *a* maxfiy, yashirin, sir tutiladigan.

hush-money ['hʌʃmʌnɪ] *n* biror gapni hech kimga aytmaslik uchun olinadigan pora.

husk [hʌsk] **1.** *n* qobiq, po'choq, po'st; **2.** *v* archimoq, po'chog'ini (po'stini) olmoq.

husky ['hʌskɪ] **1.** *a* xirillagan, xirilloq, pishillagan, ovozi bo'g'ilgan, bo'g'iq; **2.** *n* layka (*ovchi it turi*).

hussar [hu'zɑ:] *n* gusar (*Chor Rossiyasi va ba'zi xorijiy armiyalarda: yengil suvoriy qismlarda xizmat etuvchi askar yoki zobit*).

hussy ['hʌsɪ] *n* 1) sayoq (suyuqoyoq) xotin, buzuq; 2) qo'rs qizcha; qo'pol muomalali qiz bola.

hustings ['hʌstɪŋz] *n pl* saylov kampaniyasi.

hustle ['hʌsl] *v* itarmoq, itarib yurgizmoq.

hut [hʌt] **1.** *n* kulba, kapa, uycha; **2.** *v* kulbada yashamoq.

hutch [hʌtʃ] *n* quyon va boshqalar uchun qafas.

hybrid ['haɪbrɪd] *n* gibrid, chatishma, duragay.

hydra ['haɪdrə] *n* gidra (*1) mif. Yunon afsonalarida: ko'p boshli ajdar; 2) zool. umurtqasiz suv jonivorlaridan biri*).

hydrangea [haɪ'dreɪndʒə] *n bot.* yirik gulli dekorativ o'simlik.

hydrant ['haɪdrənt] *n* gidrant (*suv quvuri kolonkasi yoki jo'mragi*).

hydrate ['haɪdreɪt] *n kim.* gidrat (*biror kimyoviy moddaning suv bilan birikmasi*).

hydraulic [haɪ'drɔ:lɪk] *a* gidravlikaga oid; **~ cement** gidravlik sement; **~s** gidravlika (*suyuqliklar muvozanati va harakati haqidagi fan*).

hydrocarbon [ˌhaɪdrə'kɑ:bən] *n kim.* uglevodorod (*uglerod bilan vodorodning kimyoviy birikmasi*).

hydroelectric [ˌhaɪdrəʊɪ'lektrɪk] *a* suvdan elektr toki oluvchi.

hydrogen ['haɪdrɪdʒən] *n* vodorod (*kislorod bilan birikib suv hosil qiladigan kimyoviy element, yengil gaz*).

hydropathic [ˌhaɪdrə'pæθɪk] **1.** *a* suv bilan davolaydigan; **2.** *n so'zl.* suv bilan davolaydigan shifoxona.

hydropathy [haɪ'drɔpəθɪ] *n* suv bilan davolash.

hydrophobia [ˌhaɪdrə'fəubɪə] *n tib.* quturish kasalligi.

hydroplane ['haɪdrəpleɪn] *n* gidroplan (*suvdan uchadigan va suvga qo'nadigan samolyot*).

hyena [haɪ'i:nə] *n* sirtlon, yoldor bo'ri.

hygiene ['haɪdʒi:n] *n* gigiyena (*sog'liqni saqlash nazariyasi; sog'liqni saqlashga doir amaliy choralar, ozodalik*).

hygroscopic [ˌhaɪgrə'skɔpɪk] *a* nam tortadigan, suv shimadigan.

hymn [hɪm] *n* madhiya.

hyperbola [haɪ'pə:bələ] *n* (*pl* **-lae, -s** [-z]) *mat.* giperbola (*konus kesimlaridan biri*).

hyperbole [haɪ 'pə:bəlɪ] *n* giperbola, bo'rttirish, mubolag'a.

hyperbolic(al) [ˌhaɪpə'bɔlɪk(əl)] *a adab.* mubolag'ali, mubolag'adan iborat bo'lgan.

hyperborean [ˌhaɪpə:bɔ:'rɪən] *n* shimolning chekkasida yashaydigan kishi.

hypercritical [ˌhaɪpɔ: 'krɪtɪkl] *n* 1) aybsituvchi, tirnoq ostidan kir izlovchi; 2) juda ham qattiqqo'l.

hypermarket ['haɪpəmɑ:kɪt] *n* keng maydon va katta avtomobillar to'xtash joyiga ega bo'lgan shahar chekkasida joylashgan o'z-o'ziga xizmat qilish do'koni.

hypersonic [ˌhaɪpə 'sɔnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq. tovushdan ham tez (*uchadigan*); **~ speed** tovush tezligidan ham ortiq tezlik.

hyphen ['haɪfn] **1.** *n tilsh.* defis; **2.** *v* defis bilan yozmoq, defis qo'ymoq.

hyphenate ['haɪfəneɪt] = **hyphen 2.**

hypnosis [hɪpˈnəʊsɪs] *n* gipnoz (*birovning ta'siri ostida behush bo'lish, ishontirish, ta'sir o'tkazish, sehrlash yo'li bilan uxlatib qo'yish*).
hypnotic [hɪpˈnɒtɪk] *a* uyqu keltiradigan, uxlatadigan.
hypnotist [ˈhɪpnətɪst] *n* gipnozchi (gipnoz qiluvchi) odam.
hypnotize [ˈhɪpnətaɪz] *v* gipnoz qilmoq, behush qilmoq, sehrlamoq.
hypochondriac [ˌhaɪpəˈkɒndrɪæk] *n* doim sog'lig'i haqida qayg'uradigan.
hypocrisy [hɪˈpɒkrəsɪ] *n* ikkiyuzlamachilik, soxtakorlik, munofiqlik, ayyorlik.
hypocrite [ˈhɪpəkrɪt] *a* ikkiyuzlamachi, munofiq, tilyog'lama, riyokor.
hypodermic [ˌhaɪpəˈdɜːmɪk] **1.** *a* teri ostidagi, teri osti; **2.** *n* teri ostiga dori yuborish.

Ii

I, i [aɪ] *n* ingliz tili alifbosining to'qqizinchi harfi.
I [aɪ] men; **~ say** menga qarang; **~ am a student** Men talabaman.
iamb [ˈaɪæm] = **iambus**.
iambi [aɪˈæmbaɪ] *pl* **iambus** *dan*.
iambic [aɪˈæmbɪk] *a* yambga oid.
iambus [aɪˈæmbəs] *n* (*pl* **-bi, -es** [-ɪz]) yamb (*she'r vazni*).
Iberian [aɪˈbɪərɪən] **1.** *a* iberiylarga oid; **~ Peninsula** Pireney yarimoroli; **2.** *n* 1) iberiylar (*1. qadimgi sharqiy gruzin qabilalari; 2. qadimgi Ispaniyada yashagan qabilalar*); 2) iberiy tillari.
ibex [ˈaɪbeks] *n* (*pl* **ibices**) *zool.* tog' echkisi.
ibices [ˈaɪbɪsiːz] *pl* **ibex** *dan*.
ibid [ɪˈbɪd] *adv* o'sha yerda, o'sha joyda.
ibidem [ˈɪbɪdem] *adv* o'sha yerda, o'sha joyda.
ibis [ˈaɪbɪs] *n zool.* ibis (*issiq mamlakatlarda yashaydigan, laylakka o'xshash uzunoyoq qush*).
ice [aɪs] *n* muz; **to keep smth. on ~** muzlatgichda saqlamoq; **~-age** muz davri.
ice-axe [ˈaɪsæks] *n* muzyorar bolta (*alpinistlarda*).
iceberg [ˈaɪsbɜːg] *n* aysberg (*suzib yuruvchi muztog'*).
ice-cream [ˈaɪskriːm] *n* morojniy, muzqaymoq.
ice-field [ˈaɪsfiːld] *n* muz maydoni.
ice-floe [ˈaɪsfləʊ] *n* suzib yuradigan muz.
ice-house [ˈaɪshaus] *n* sovuqxona, muzxona.
Icelander [ˈaɪsləndə] *n* islandiyalik kishi *yoki* ayol.
iceman [ˈaɪsmæn] *n* 1) muzqaymoq sotuvchi kishi; 2) alpinist.
ice-yacht [ˈaɪsjɔt] *n* buyer (*muzda yuradigan yelkanli chana, yengil yelkanli qayiq*).
ichneumon [ɪkˈnjuːmən] *n zool.* fir'avn sichqoni (*kichkina sutemizuvchi yirtqich hayvon*).
ichthyologist [ˌɪkθɪˈɒlədʒɪst] *n* ixtiologiya mutaxassisi, ixtiolog.
hypothec [haɪˈpɒθək] *n* 1) ipoteka (*1. qo'zg'almas mulkni garovga olib beriladigan qarz; 2. shunday qarz olish uchun garovga qo'yilgan mulk*); 2) garov xati (hujjati).
hypotheses [haɪˈpɒθəsiːz] *pl* **hypothesis** *dan*.
hypothesis [haɪˈpɒθəsɪs] *n* (*pl* **-ses**) gipoteza (*ilmiy faraz*), taxmin, mo'ljal, gumon.
hypothetic(al) [ˌhaɪpəˈθetɪk(əl)] *a* gipotezaga asoslangan, taxminiy, faraziy.
hysteria [hɪˈstɪərɪə] *n* jazava (*asabiy – ruhiy kasallik*)
hysterical [hɪˈsterɪkl] *a* 1) jazavaga oid; 2) jazava kasaliga duchor bo'lgan, jazavasi tutadigan.
hysterics [hɪˈsterɪks] *n pl* isterika (*isteriya tutqanog'i, asabiy tutqanoq, isteriya natijasida qattiq jazavasi tutish*).

ichthyology [ˌɪkθɪˈɒlədʒɪ] *n* zoologiyaning baliqlar haqidagi bo'limi, ixtiologiya.
ichthyosaurus [ˌɪkθɪəˈsɔːrəs] *n* ixtiozavr (*tuxumi qurib ketgan sudraluvchi dengiz hayvoni*).
icicle [ˈaɪsɪkl] *n* sumalak (*qorning erib qayta muzlashi natijasida hosil bo'lgan naysimon muz*).
icily [ˈaɪsɪlɪ] *adv* 1) sovuq; 2) *ko'ch.* iltifotsiz.
icon [ˈaɪkɒn] *n* 1) ikona..., but, sanam; 2) o'yma naqsh, surat.
iconic [aɪˈkɒnɪk] *a* portretga oid.
iconoclast [aɪˈkɒnəklæst] *n* urf-odatlarga qarshi kurashuvchi kishi.
iconography [ˌaɪkəˈnɒgrəfɪ] *n* ikonografiya (*biror kishi yoki sujetga doir tasvirlarni o'rganish va tavsiflash*).
iconoscope [aɪˈkɒnəskəup] *n* tasvir uzatadigan elektron nur trubka.
icteric [ɪkˈterɪk] *a* sariq kasaliga oid.
icterus [ˈɪktərəs] *n tib.* sariq, sariq kasali (kasalligi).
ictus [ˈɪktəs] *n tib.* tomir urishi.
icy [ˈaɪsɪ] *a* muzli, muzday, juda ham sovuq.
I'd [aɪd] = **I would, I should, I had.**
idea [aɪˈdɪə] *n* 1) fikr, g'oya; 2) tushuncha; **to give an ~ of smth.** nimadir haqida ozgina tushuncha bermoq.
ideal [aɪˈdɪəl] *n* oliy maqsad; eng yuksak orzu; **~ gift** ajoyib sovg'a.
idealism [aɪˈdɪəlɪzm] *n* idealizm (*butun borliqning negizi materiya emas balki ong, ruh deb biluvchi falsafiy oqim*).
idealist [aɪˈdɪəlɪst] *n* xayolparast.
idealistic [aɪˌdɪəˈlɪstɪk] *n* idealizm ruhidagi.
ideality [ˌaɪdɪˈælətɪ] *n* har jihatdan bekam-ko'stlik.
idealization [aɪˌdɪəlaɪˈzeɪʃn] *n* ideallashtirish.
idealize [aɪˈdɪəlaɪz] *v* benuqson qilib ko'rsatmoq.
ideally [aɪˈdɪəlɪ] *adv* juda soz, juda yaxshi, a'lo darajada.

idem [ˈaɪdəm] *n* aynan o'sha muallif; aynan o'sha kitob; aynan o'sha so'z.

identic [aɪˈdentɪk] = **identical**.

identical [aɪˈdentɪkl] *a* 1) xuddi o'zi, o'zginasi; 2) aynan, bir xil, o'xshash; 3) teng.

identification [aɪˌdentɪfɪˈkeɪʃn] *n* shaxsni (kimligini) tanish, biror kishining shaxsiyatini tasdiqlaydigan hujjatlar.

identify [aɪˈdentɪfaɪ] *v* 1) aniqlamoq; 2) tanimoq, tanib olmoq.

identity [aɪˈdentətɪ] *n* 1) aynan o'xshashlik, tenglik, bir xillik; 2) asllik, chinlik, to'g'rilik, haqiqiylik; 3) shaxsiyat; **to establish smb.'s ~** kimningdir shaxsiyatini aniqlamoq; **~ card** shaxsni tasdiqlovchi hujjat; 4) o'ziga xoslik, o'ziga xos xususiyat; **national ~** millatning o'ziga xos xususiyati.

jink [dʒɪŋk] **1.** *n* 1) chetga chiqish; bosh tortish; 2) hiyla, nayrang, makr (*qilish, ishlatish*); **2.** *v* 1) chetga chiqmoq; bosh tortmoq; 2) hiyla ishlatmoq.
jinn [dʒɪn] *pl* **jinnee** *dan.*
jinnee [dʒɪ ˈni:] *n afs.* jin, ajina.
jinny [ˈdʒɪnɪ] *n* foydali qazilmalarni kondan tashib chiqaradigan chig'ir (*yuk ko'taradigan mashina*).
jinrick(i)sha [dʒɪnˈrɪkʃə] *n* rikisha (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida: ikki g'ildirakli aravaga qo'shilib, odam yoki yuk tashiydigan hammol*).
jinx [dʒɪŋks] *n so'zl.* baxtsizlik, musibat, falokat, ofat, balo keltiruvchi inson *yoki* narsa.
jitney [ˈdʒɪtnɪ] **1.** *n amer. so'zl.* 1) besh sent; 2) arzon yo'nalishdagi taksi *yoki* avtobus; **2.** *a* arzon, uchinchi navli; **3.** *v* arzon yo'nalishdagi taksi *yoki* avtobusda yurmoq.
jitter I [ˈdʒɪtə] *n* hayajondan titramoq, hayajondan qaltiramoq, asabiylashmoq.
jitter II [ˈdʒɪtə] *n tv.* tasvirning pir-pirashi.
jitterbug [ˈdʒɪtəbʌg] *n* vahimachi; asabiy odam.
jittery [ˈdʒɪtərɪ] *a* asabiylashgan, asabi buzuq, tajang.
jiu-jitsu [ˌdʒju:ˈdʒɪtsu:] *n* jiu-jitsu (*yaponcha kurash turi*).
jive [dʒaɪv] **1.** *n* 1) jaz, jaz musiqasi; 2) bekorchi gap, safsata; **2.** *v* jaz musiqasiga o'ynamoq.
Job [dʒəub] *n* ko'p azob chekkan, chidamli odam (*bibliyaga oid*).
job I [dʒɔb] **1.** *n* 1) ish, mehnat; 2) amal, mansab; **2.** *v* ishlamoq, mehnat qilmoq.
job II [dʒɔb] **1.** *n* kutilmagan zarba, turtish, itarish; **2.** *v* itarmoq, zarba bermoq.
jobber [ˈdʒɔbə] *n* 1) ishbay (*asosida*) haq oladigan odam; 2) birja dalloli; 3) ulgurji savdo qiluvchi savdogar.
jobbernowl [ˈdʒɔbənəul] *n so'zl.* ahmoq, tentak, nodon.
jobbery [ˈdʒɔbərɪ] *n* 1) olibsotarlik; chayqovchilik; 2) o'z shaxsiy manfaati uchun lavozimidan foydalanish.
jobbing [ˈdʒɔbɪŋ] *n* ahyon-ahyonda bir bo'lib turadigan ish.
jobholder [ˈdʒɔbˌhəuldə] *n* doimiy ish bilan shug'ullanuvchi kishi.
jobless [ˈdʒɔbləs] *a* ishsiz, ishdan mahrum qilingan, ishsiz bo'lib qolgan.
job-work [ˈdʒɔbˌwə:k] *n* baylashib qilinadigan ish, ishbay asosida qilingan ish.
Jock [dʒɔk] *n harb.* shotlandiyalik askar.
jockey [ˈdʒɔkɪ] **1.** *n* 1) poygachi, chavandoz; 2) yolg'onchi, aldoqchi, firibgar; **2.** *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq.
jock-strap [ˈdʒɔkstræp] *n sport.* handaj, qullob (*tananing kasal joyini tang'ib qo'yadigan maxsus kamar*).
jocose [dʒəuˈkəus] *a* hazillashadigan, hazilkash, hazil tariqasida aytilgan.
jocosity [dʒəuˈkɔsətɪ] *n* hazilkashlik.
jocular [ˈdʒɔkjulə] *a* hazillashadigan, quvnoq, xushchaqchaq, vaqtchog', xursand.
jocularity [ˌdʒɔkjuˈlærətɪ] *n* 1) hazil; 2) vaqtchog'lik, xursandlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik.
jocund [ˈdʒɔkənd] *a* shod, xursand, xushchaqchaq, quvnoq.
jocundity [dʒəˈkʌndətɪ] *n* quvnoqlik, xushchaqchaqlik, shodmonlik.
jodhpurs [ˈdʒɔdpəz] *n pl* ot minish uchun kiyiladigan shim.
Joe Blow [ˈdʒəuˈbləu] *n amer. harb.* askar.
joey [ˈdʒəuɪ] *n* hayvonlarning yangi tug'ilgan, onasidan ajralmagan bolasi, kenguruning bolasi.
jog [dʒɔg] *n* turtish, itarish, silkitish, siltash.
joggle [ˈdʒɔgl] *v* itarmoq, turtmoq, silkitmoq.
joggly [ˈdʒɔglɪ] *a* notekis, egri-bugri, qiyshiq (*husnixat haqida*).
jogtrot [ˈdʒɔgtrɔt] *n* mayda qadamlab chopish.
john [dʒɔn] *n so'zl.* hojatxona.
John Collins [ˌdʒɔnˈkɔlɪnz] *n* limon va shakar qo'shilgan araq.
johnny [ˈdʒɔnɪ] *n* 1) o'spirin, yigitcha; 2) olifta, kiyimga zeb beradigan odam.
johnny-cake [ˈdʒɔnɪkeɪk] *n* yopgan non, obinon, kulcha.
Johnny-jump-up [ˌdʒɔnɪˈdʒʌmpʌp] *n* Amerika o'rmon binafshasi.
Johnny Raw [ˌdʒɔnɪˈrɔ:] *n* yangi odam, endigina kelgan odam.
join [dʒɔɪn] **1.** *v* qo'shilish; **2.** *v* qo'shilmoq.
joinder [ˈdʒɔɪndə] *n* ittifoq, birlashma, uyushma; birlashish.
joiner [ˈdʒɔɪnə] *n* duradgor.
joint [dʒɔɪnt] *a* qo'shma, birlashgan; ~ **venture** qo'shma korxona.
jointer [ˈdʒɔɪntə] *n tex.* katta randa, taxta randa.
jointly [ˈdʒɔɪntlɪ] *adv* birga, birgalikda, birgalashib.
joint-stock [ˈdʒɔɪntstɔk] *n* aksiyali; aksiyadorlik, hissadorlik.
joint-stock company [ˌdʒɔɪntˈstɔkˌkʌmpənɪ] *n* aksiyadorlar jamiyati.
joist [dʒɔɪst] *n* 1) brus (*chorqirra yoki boshqa shakldagi yog'och, temir va h.k.*); 2) to'sin.

joke [dʒəuk] **1.** *n* hazil, latifa; **2.** *v* hazillashmoq.
joker [ˈdʒəukə] *n* hazilkash, qiziqchi, masxaraboz.
joky [ˈdʒəukɪ] *a* kuldiradigan, qiziqchilik uchun aytilgan.
jollier [ˈdʒɔlɪə] *n amer.* xushchaqchaq odam, hazilkash odam, qiziqchi, kuldiruvchi odam.
jollification [ˌdʒɔlɪfɪˈkeɪʃn] *n* xursand qilish, vaqtni chog' qilish.
jollify [ˈdʒɔləfaɪ] *v* vaqtchog'lik qilmoq, vaqtini chog' qilmoq.
jolly [ˈdʒɔlɪ] *a* shod, xurram, quvnoq, xursand, xushchaqchaq.
jolt [dʒəult] **1.** *n* turtki; zarba; **2.** *v* turtmoq, zarba bermoq.
jolterhead [ˈdʒəultəhed] *n* ahmoq, tentak, nodon kishi.
jolty [ˈdʒəultɪ] *a* silkitadigan, qoqadigan, notekis, o'nqir-cho'nqir.
Jonah [ˈdʒəunə] *n* 1) baxti yo'q odam, baxtsiz odam; 2) baxtsizlik keltiradigan kishi.
jonquil [ˈdʒɔŋkwɪl] *n* 1) nargis gul; 2) sarg'ish rang, malla rang.
jorum [ˈdʒɔːrəm] *n* kosa, qadah, jom.
josh [dʒɔʃ] *n* 1) muloyim hazil; 2) aldash, laqillatish, aldoqchilik.
joskin [ˈdʒɔskɪn] *n* 1) qishloqda o'sgan odam, sodda odam; 2) *sl* madaniyatsiz (tarbiya ko'rmagan) kishi.
joss [dʒɔs] *n* tumor.
josser [ˈdʒɔsə] *n* pop, ruhoniy.
joss-house [ˈdʒɔshaus] *n* majusiylar ibodatxonasi, kichkina butxona.
jostle [ˈdʒɔsl] *n* turtish, itarish, urish, to'qnashish.
jot [dʒɔt] **1.** *n* juda oz miqdor; **2.** *v* qisqa qilib yozmoq.
jotter [ˈdʒɔtə] *n* bloknot, yon daftarcha, yozuv daftari.
jotting [ˈdʒɔtɪŋ] **1.** *pres. p.* **jot 2.** *dan.* **2.** *n* 1) esdalik; 2) qisqacha yozuv.
joule [dʒuːl] *n el.* joul (*elektr toki ishining o'lchov birligi*).
jounce [dʒauns] *v* urilmoq, qoqilmoq, urib olmoq, qoqilib ketmoq.
jour [dʒɔː] *n* malakali yollanma ishchi.
journal [ˈdʒəːnl] *n* 1) kundalik; 2) oynoma, jurnal; 3) ro'znoma, gazeta.
journal-box [ˈdʒɔːnlbɔks] *n tex.* yo'l. buksa (*vagon, lokomotiv g'ildiragining gupchagi*).
journalese [ˌdʒəːnəˈliːz] *n* gazeta qolipi.
journalism [ˈdʒəːnəˌlɪzm] *n* jurnalistika, jurnalistlika kasbi.
journalist [ˈdʒəːnəlɪst] *n* jurnalist, muxbir.
journalistic [ˌdʒəːnəˈlɪstɪk] *n* jurnalga oid, jurnal uchun belgilangan, jurnalda bosilgan.
journalize [ˈdʒəːnəlaɪz] *n* jurnalga yozib qo'ymoq (kiritmoq).
journey [ˈdʒəːnɪ] *n* sayohat, safar; **a five days ~** besh kunlik sayohat.
journeyman [ˈdʒəːnɪmən] *n* ixtisosli ishchi; malakali ishchi.
jovial [ˈdʒəuvɪəl] *a* 1) shod, xursand; 2) odamga el bo'ladigan, kirishimli, dilkash.
joviality [ˌdʒəuvɪˈælətɪ] *n* 1) vaqtchog'lik, xursandlik, quvnoqlik; 2) odamga el bo'lish, kirishimlilik, dilkashlik.
jowl [dʒaul] *n* jag', jag' suyagi.
jowly [ˈdʒaulɪ] *a* tumshug'i katta, qalin tumshuqli; tumshuqdor.
joy [dʒɔɪ] **1.** *n* shodlik, huzur, quvonch, sevinch, shod-xurramlik, xursandlik; **2.** *v* xursand (shod) bo'lmoq, sevinmoq, quvonmoq.
joyful [ˈdʒɔɪfl] *a* 1) xursand, quvnoq, shod; 2) baxtli, omadli, baxtiyor, iqboli baland.
joyless [ˈdʒɔɪlәs] *a* g'amgin, qayg'uli, g'am-hasratli, huzur-halovatsiz.
joyous [ˈdʒɔɪəs] = **joyful.**
joy-ride [ˈdʒɔɪraɪd] *n so'zl.* mashina *yoki* samolyot orqali qiladigan ko'ngilochar sayr-tomosha.
joystick [ˈdʒɔɪstɪk] *n so'zl.* (*samolyot, avtomobil, o'yin avtomati va b.larning*) boshqarish tutqichi.
jubilance [ˈdʒuːbɪlәns] *n* shodlik, shod-xurramlik.
jubilant [ˈdʒuːbɪlәnt] *a* shodiyona, tantanali, tantanavor, tantanani ifodalaydigan.
jubilate [ˌdʒuːbɪˈleɪtɪ] **1.** *n* shodlik, shod xurramlik; **2.** *v* tantana qilmoq, bayram qilmoq.
jubilation [ˌdʒuːbɪˈleɪʃn] *n* shodlik, shodiyona.
jubilee [ˈdʒuːbɪliː] *n* 1) tantanali bayram; 2) yubiley.
Judaic [dʒuˈdeɪɪk] *a* yahudiy diniga va yahudiylarga oid.
Judaism [ˈdʒuːdeɪɪzm] *n* iudaizm, yahudilar dini.
Judas-coloured [ˈdʒuːdəsˌkʌlәd] *a* malla, qizg'ish.
judge [dʒʌdʒ] **1.** *n* 1) sudya; 2) hakam; **2.** *v* 1) hakamlik qilmoq; 2) sud qilmoq, hukm chiqarmoq.
judgematic(al) [dʒʌdʒˈmætɪk(әl)] *a so'zl.* bama'ni, andishali, mulohazali, o'ylab (aql bilan) ish qiladigan.
judgement [ˈdʒʌdʒmәnt] *n* 1) *yur.* hukm, sud qarori; 2) tanqid; 3) fikr.
Judgement-Day [ˈdʒʌdʒmәntdeɪ] *n din.* qiyomat, qiyomat qoyim, mahshar kuni.
judgement-seat [ˈdʒʌdʒmәntsiːt] *n* 1) sud joyi, sud o'rni; 2) tribunal.
judgment [ˈdʒʌdʒmәnt] = **judgement.**
judicature [ˈdʒuːdɪkәtʃə] *n* 1) sud (organlari) tuzilishi; 2) sud.
judicial [dʒuˈdɪʃl] *a* sudga, sudyalarga (hakamlarga) oid.
judicious [dʒuˈdɪʃәs] *a* bama'ni, mulohazali, sog'lom fikrli.
judo [ˈdʒuːdəu] *n sport.* dzyudo (*yapon kurashi*).
Judy [ˈdʒuːdɪ] *n* qo'g'irchoq teatridagi ayol qahramon.

jug I [dʒʌg] *n* ko'za, kuvacha; **milk ~** sut uchun ko'za.

jug II [dʒʌg] *n* (*bulbul va b.*) sayrashi.

jugate ['dʒu:gɪt] *a bot.* juft, qo'sh, qo'shaloq, qirrali (*barglar va b.*).

jugful ['dʒʌgful] *n* bir ko'za, bir kuvacha (*nimadir*).

jugged [dʒʌgd] *a* tishli, dandanali.

juggins ['dʒʌgɪnz] *n so'zl.* jinni, ahmoq, tentak, esi past odam.

juggle ['dʒʌgl] **1.** *v* 1) fokus ko'rsatmoq; 2) aldamoq, firibgarlik qilmoq; **2.** *n* fokus, yolg'on, nayrang.

juggler ['dʒʌglə] *n* 1) fokuschi, ko'zbo'yamachi; 2) muttaham, firibgar, aldoqchi.

jugglery ['dʒʌgləri] *n* 1) soxtalashtirish; 2) aldash, tovlash.

jug-handled ['dʒʌg,hændld] *a amer.* 1) bir tomonlama; 2) nohaq, adolatsiz.

Jugoslavian [,ju:gəu'slɑ:vɪən] *n* Yugoslaviya fuqarosi, yugoslavlar, yugoslaviyaliklar.

jugular ['dʒʌgjulə] *a anat.* bo'yinga oid; **~ vein** bo'yinturuq venalar, ko'k tomirlar (*bosh va yuzdan yurakka boradigan qon tomirlar*).

jugulate ['dʒʌgjuleɪt] *v* bo'g'ib o'ldirmoq.

juice [dʒu:s] *n* sharbat, shira; **orange ~** apelsin sharbati.

juicer ['dʒu:sə] *n* sharbatsiqqich (*shirasini, suvini siqib oladigan asbob yoki mashina*).

juicy ['dʒu:sɪ] *a* sersuv, shirali.

ju-jitsu [dʒu'dʒutsu:] *n* jiu-jitsu (*yaponcha kurash turi*).

ju-ju ['dʒu:dʒu:] *n* afsun, sehr, jodu, tilsim, duo, kuf-suf.

juke [dʒu:k] *n amer.* bahosi (narxi) past, arzon restoran.

julep ['dʒu:lɪp] *n* sirop, sharbat, qiyom.

Julian ['dʒu:lɪən] *a* juliy kalendari (*miloddan avvalgi 46-yilda Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan ta'sis qilingan kalendar*).

July [dʒu'laɪ] **1.** *n* iyul; **2.** *attr.* iyul oyida bo'ladigan.

jumble ['dʒʌmbl] **1.** *n* chalkashlik, chigallik, chatoqlik, fikrlashdagi chalkashlik; **2.** *v* aralashtirmoq, chalkashtirmoq.

jumble-sale ['dʒʌmblseɪl] *n* narsalar arzon narxda sotiladigan bozor.

jumble-shop ['dʒʌmblʃɔp] *n* turli xildagi arzon mollar sotiladigan do'kon.

jumbo ['dʒʌmbəu] *n* (*pl* **~s** [-əuz]) katta qo'pol odam, yirik hayvon.

jump [dʒʌmp] **1.** *n* 1) sakrash, irg'ish; **~ high** tepaga sakrash; 2) to'satdan suvning ko'tarilishi; **from the (very) first ~** boshidan boshlab; **on (upon) the ~** juda band; **2.** *v* 1) sakramoq, hakkalamoq; **to ~ high well** tepaga yaxshi sakramoq; **to ~ for joy** xursandchilikdan sakramoq; 2) ko'tarilmoq, sakramoq (*narx to'g'risida*); 3) urishmoq, koyimoq, aybламoq (*kimnidir*).

jumped-up [,dʒʌmpt'ʌp] *a* o'ziga ishongan, o'zini katta oladigan.

jumper ['dʒʌmpə] *n* 1) sakrovchi (*sportchi haqida*); 2) jemper.

jumping-off ground [,dʒʌmpɪŋ'ɔfgraund] *n harb.* plastdarm (*harbiy operatsiyaga tayyorgarlik ko'riladigan maydon*).

jumping-off place [,dʒʌmpɪŋ'ɔfpleɪs] *n harb.* hujum qilish uchun dastlabki holat.

jumping-rope ['dʒʌmpɪŋrəup] *n amer.* sakramachoq o'ynaydigan arg'amchi.

jumpy ['dʒʌmpɪ] *a* nervga (asabga) oid; asabiy, asabi buzuq.

junction ['dʒʌŋkʃən] *n* qo'shilish, birikish.

junction board ['dʒʌŋkʃənbɔ:d] *n* kommutator (*telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*).

juncture ['dʒʌŋktʃə] *n* ulash, payvandlab ulash.

June [dʒu:n] **1.** *n* iyun; **2.** *attr.* iyun oyiga oid; iyunda bo'ladigan.

jungle ['dʒʌŋgl] *n* 1) chakalakzor, changalzor; 2) qalin o'rmon.

junior ['dʒu:nɪə] *n* yoshi kichik, yoshroq; yosh, kenja, eng kichik; **to be smb.'s ~** kimdandir yosh bo'lmoq.

juniper ['dʒu:nɪpə] *n* archa, qora archa.

junk I [dʒʌŋk] *n* 1) eski-tuski, lash-lush; 2) tashlandiq, chiqindi.

junk II [dʒʌŋk] *n* jonka (*xitoycha yelkanli kema*).

junk III [dʒʌŋk] *v* bo'lak-bo'laklarga kesmoq (bo'lmoq).

junker ['dʒʌŋkə] *n nem.* yunker (*inqilobdan oldingi Rossiyada: harbiy maktab o'quvchisi*).

junket ['dʒʌŋkɪt] *amer.* **1.** *n* katta (tantanali) ziyofat, bazm; **2.** *v* bazm qurmoq, ziyofat uyushtirmoq.

junkman ['dʒʌnkmən] *n amer.* eskichi, eskifurush.

junky ['dʒʌŋkɪ] *n so'zl.* bangi (*giyohvand, nashavand odam*).

junta ['dʒʌntə] *n* xunta (*harbiy reaksion terroristik guruh*).

junto ['dʒʌntəu] *n* yomon niyatli to'da, niyati buzuq kishilar.

Jupiter ['dʒu:pɪtə] *n* Yupiter (*yorituvchi kuchli elektr asbob*).

jura ['dʒu:rə] *pl* **jus** *dan.*

Jurassic [dʒu'ræsɪk] *a geol.* yura davri (*mezozoy erasining ikkinchi davri*).

juratory ['dʒu:rətərɪ] *n* ont ichilgan, qasamyod qilingan.

juridical [dʒu'rɪdɪkl] *a* yuridik; huquqiy; **~ person** yuridik shaxs.

jurisconsult [,dʒuərɪs'kɔnsʌlt] *n* huquqshunos.

jurisdiction [,dʒuərɪs'dɪkʃn] *n* sud qilish huquqi; biror sud idorasiga oidlik.

jurisprudence [,dʒuərɪs'pru:dns] *n* huquqshunoslik, qonunshunoslik; **medical ~** sud tibbiyoti.

jurisprudent [,dʒuərɪs'pru:dnt] **1.** *n* yurist, huquqshunos; **2.** *a* qonunni yaxshi biladigan.

jurist [ˈdʒuərɪst] *n* yurist, huquqshunos.
juristic(al) [dʒuəˈrɪstɪk(əl)] *a* qonunga muvofiq, qonunga asoslangan, qonun asosidagi.
juror [ˈdʒuərə] *n* 1) hakamlar hay'ati; 2) yoqlovchi, advokat.
jury [ˈdʒuərɪ] *a* hay'at a'zolari.
jus [dʒʌs] *n* qonun, qonunlar majmuasi.
jussive [ˈdʒʌsɪv] *a gram.* buyruq tarzidagi.
just [dʒʌst] **1.** *adv* 1) xuddi shunday; ~ **the man** xuddi shunday odam; 2) zo'rg'a; 3) hozirgina; **I've ~ come** hozirgina kelib turibman; **2.** *a* odilona, adolatli.
justice [ˈdʒʌstɪs] *n* 1) adolat, haqqoniyat, to'g'rilik; 2) adolatlilik, haqqoniylik, to'g'rilik.
justiceship [ˈdʒʌstɪsʃɪp] *n* sudyalik unvoni, mansabi.
justiciable [dʒʌˈstɪʃɪəbl] *n* sudda ko'rilishga tegishli bo'lgan.
justification [ˌdʒʌstɪfɪˈkeɪʃn] *n* kechirish, gunohidan o'tish, avf etish.
justificative [ˈdʒʌstɪfɪkeɪtɪv] *a* oqlaydigan, to'g'riligini tasdiqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan.
justificatory [ˈdʒʌstɪfɪkeɪtərɪ] *a* to'g'riligini (haqligini) tasdiqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan.
justify [ˈdʒʌstɪfaɪ] *v* o'zini oqlamoq, aybsizligini isbotlamoq.
justly [ˈdʒʌstlɪ] *adv* haqqoniy ravishda, odilona; tog'ri.
jut [dʒʌt] *n* turtib chiqqan joy, do'ng.
jute [dʒu:t] *n bot.* jut (*tola beradigan o'simlik*).
juvenescene [ˌdʒu:vɪˈnesns] *n* yoshlik.
juvenile [ˈdʒu:vənaɪl] **1.** *a* o'spirin, balog'atga yetmagan; **2.** 1) o'smir, o'spirin; 2) *pl so'zl.* bolalar kitobi; 3) yosh qahramonlar rolini o'ynaydigan aktyor; 4) yoshlik; ~ **years** yoshlik yillari.
juvenility [ˌdʒu:vəˈnɪlətɪ] *n* yoshlik, o'spirinlik.
juvey [ˈdʒu:vɪ] = **juvenile.**
juxtapose [ˌdʒʌkstəˈpəuz] *v* solishtirmoq, taqqoslamoq, qiyoslab ko'rmoq.
juxtaposition [ˌdʒʌkstəpəˈzɪʃn] *n* solishtirish, taqqoslab ko'rish.

Kk

K, k [keɪ] *n* ingliz tili alifbosining o'n birinchi harfi.
kadi [ˈkɑ:dɪ] *n arab.* qozi, shariat qozisi.
kaftan [ˈkæftæn] *fors. n* 1) kaftan, chakmon; 2) sharqona uzun to'n (chopon).
kail [keɪl] = **kale.**
kailyard [ˈkeɪljɑ:d] = **kaleyard.**
kale [keɪl] *n* 1) karam sho'rva; 2) ovqatga solinadigan.
kaleidoscope [kəˈlaɪdəskəup] *n* 1) tez-tez o'zgarish; 2) kaleydoskop.
kaleidoscopic(al) [kəˌlaɪdəˈskɔpɪk(əl)] *a* tez-tez o'zgaradigan, kaleydoskopik.
kalends [ˈkælendz] *n* oyning birinchi kuni, oy boshi (*qadimgi Rimda*).
kaleyard [ˈkeɪljɑ:d] *n shotl.* poliz, poliz ekinlari (sabzavot) ekilgan yer.
kali [ˈkælɪ] *n kim.* kaliy oksidi.
Kalmuck [ˈkælmʌk] **1.** *n* qalmoqlar (*Qalmog'istonning mahalliy aholisi*); 2) qalmoq tili; **2.** *a* qalmoqlar va qalmoqliklarga oid.
Kalmyk [ˈkælmɪk] = **Kalmuck.**
kanaka [ˈkænəkə] *n* kanak (*Tinch okeani orollarida yashovchi xalq*).
kangaroo [ˌkæŋgəˈru:] *n zool.* kenguru.
Kantian [ˈkæntɪən] *n filos.* 1) kantchilarga oid; 2) Kant falsafasi ruhidagi.
Kantianism [ˈkæntɪənɪzm] *n filos.* kantchilik (*Kant va uning tarafdoshlarining idealistik falsafasi*).
kaoliang [ˌkɑ:əulɪˈæŋ] *n* Xitoy *yoki* Manchjuriya qo'nog'i.
kaolin [ˈkeɪəlɪn] *n* chinnigil, oqgil (*chinni ishlab chiqarish va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlatiladigan o'tga chidamli cho'ziluvchan oq loy*).
kapellmeister [kəˈpel,maɪstə] *n nem.* dirijor.
kappa [ˈkæpə] *n* kappa (*grek alifbosining o'ninchi harfi*).
kaput [kʌˈput] *a nem.* yo'qotib tashlangan, yo'q qilingan; muvaffaqiyatsizlikka uchragan.
Karaite [ˈkærəaɪt] *n* karaimlar (*Ukraina, Litva va Polshada yashovchi, turkiy tilda so'zlashuvchi kichik bir elat*).
Kara-Kalpak [ˌkɑ:rəˈkɑ:lpɑ:k] **1.** *n* 1) qoraqalpoq, qoraqalpoq ayoli; 2) qoraqalpoq tili; **2.** *a* qoraqalpoqlarga oid.
karate [kəˈrɑ:tɪ] *n yap.* karate.
kartell [kɑ:ˈtel] *n* kartel (*kapitalistik birlashma turi*).
kathode [ˈkæθəud] *n fiz.* katod (*manfiy elektrod*).
katydid [ˈkeɪtɪdɪd] *n* yashil chigirtka.
kayak [ˈkaɪæk] *n* 1) qayiq (*eskimoslarning usti berk qayig'i*); 2) baydarka (*ensiz, yengil sport qayig'i*).
kayo [ˌkeɪˈəu] *n sport, jarg.* nokaut.
Kazakh [kəˈzæk] *n* 1) qozoqlar, qozoq xalqi; 2) qozoq tili.
kebab [kɪˈbæb] *n* kabob; ~ **house** kabobxona.
keck [kek] *v* 1) kekirmoq; 2) yegan narsani qayt qilib tashlash uchun harakat qilmoq.
kedgeree [ˌkedʒəˈri:] *n* guruch, tuxum va piyozdan tayyorlangan hind taomi.
keek [ki:k] **1.** *n* ayg'oqchi, josus; **2.** *v* (*biror narsani bilish uchun*) yashirincha qaramoq, bildirmasdan kuzatmoq.
keeker [ˈki:kə] *n* josus, ayg'oqchi.
keeking-glass [ˈki:kɪŋglɑ:s] *n so'zl.* oyna, ko'zgu.

keel [ki:l] *n deng.* kemaning tubini mahkam tutib turuvchi uzunasiga joylashgan asosiy balkasi, pushtagi.

keen [ki:n] **1.** *a* 1) o'tkir; ~ **knife** o'tkir pichoq; 2) qattiq; **a** ~ **wind** qattiq shamol; **2.** *n* yig'i, yig'i-sig'i; **3.** *v* aytib yig'lamoq.

keen-witted [ˌki:n'wɪtɪd] *a* tez tushunadigan, fahmli, idrokli, zehni o'tkir.

keep [ki:p] **1.** *v* **(kept)** 1) ushlamoq, saqlamoq; **to** ~ **money in the savings bank** omonat kassada pul saqlamoq; 2) asramoq, qoldirmoq; **to** ~ **old clothes** eski kiyimlarini asramoq; 3) qolmoq *(biror joyda)*; **to** ~ **at home** uyida qolmoq; 4) esda saqlamoq; **2.** *n* oziq-ovqat.

keeper ['ki:pə] *n* 1) xo'jayin; 2) saqlovchi.

keeping ['ki:pɪŋ] *n* saqlash, asrash; qo'riqlab turish.

keeping-room ['ki:pɪŋrum] *n* mehmonxona; umumiy xona.

keepsake ['ki:pseɪk] *n* esdalik uchun sovg'a.

kef [kef] *arab. n* kayf, yallo, mastlik holati.

kefir ['kefə] *n* kefir *(maxsus tvitilgan qatiq)*.

keg [keg] *n* kichkina bochka, bochkacha.

keif [keɪf] = **kef.**

kelp [kelp] *n* laminariya *(yod olinadigan suv o'simligi)*.

kelpie, kelpy ['kelpɪ] *n shotl. afs.* yovuz suv alvastisi, suvdagi jin.

Kelt [kelt] *n* keltlar *(G'arbiy Yevropada yashaydigan qabilalar)*.

Keltic ['keltɪk] *a* keltlarga oid.

ken [ken] *n* saviya, bilim darajasi.

kennel ['kenl] *n* 1) itning uychasi; 2) tor uy, hujra; katalak.

kentledge ['kentlɪdʒ] *n* doimiy posangi yuk *(kema, aerostat va h.k)*.

kepi ['kepɪ] *n* kepi *(1. XIX asrda rus va fransuz armiyasida rasm bo'lgan formali bosh kiyim; 2. koziryokli yumshoq bosh kiyim)*.

kept [kept] **1.** *past., p. p.* **keep 1.** *dan*; **2.** *a* : ~ **woman** o'ynash.

keratin ['kerətɪn] *n biol.* keratin *(soch, pat va shoxda bo'ladigan oltingugurt moddasiga boy oqsil modda)*.

keratoid ['kerətɔɪd] *a* shoxga oid; shoxdan qilingan.

kerb [kə:b] *n* yo'l cheti.

kerchief ['kə:tʃɪf] *n* ro'mol *(boshga kiyish uchun)*.

kerf [kə:f] *n* kertma belgi *(daraxtda)*.

kernel ['kə:nl] *n* don, urug', mag'iz.

kerosene ['kerəsi:n] *n* kerosin.

kerseymere ['kə:zɪmɪə] *n* kashmiri *(yung gazlama)*.

kestrel ['kestrəl] *n* miqqiy *(qirg'iylar oilasiga kiradigan yirtqich qush)*.

ketchup ['ketʃəp] *n* ketchup *(achchiq pomidor qaylasi)*.

kettle ['ketl] *n* metall choynak.

kettle-drum ['ketldrʌm] *n* nog'ora, qo'shnog'ora.

key [ki:] **1.** *n* 1) kalit; 2) jumboqning yechimi; **2.** *v* qulflamoq.

keyboard ['ki:bɔ:d] *n* klaviatura.

keyhole ['ki:həul] *n* qulf teshigi.

keyman ['ki:mæn] *n* tajribali mutaxassis.

key money ['ki:mʌnɪ] *n* qo'shimcha haq.

key-note ['ki:nəut] *n mus.* 1) ohangdoshlik, tovushlarning uyg'unligi (sozlanishi); 2) asosiy g'oya.

keynoter ['ki:ˌnəutə] *n amer.* asosiy ma'ruzachi.

keystone ['ki:stəun] *n* qasr (bino) toshi; poydevor tosh.

khaki ['kɑ:kɪ] **1.** *a* yashil, mosh rang; **2.** *n* mosh rang pishiq gazlama va shu gazlamadan tikilgan kiyim.

khalifa [kɑ:'li:fə] *n* xalifa.

khalifate ['kæli:feɪt] *n* xalifalik, xalifalik hokimiyati.

khamsin ['kæmsɪn] *n arab.* xamsin, garmsel *(Afrikaning kuchli issiq shamoli)*.

khan [kɑ:n] *n turk.* xon.

khanate ['kɑ:neɪt] *n turk.* xonlik, xonlik saltanati.

kibble ['kɪbl] *n* pastak yog'och paqir, pastak yog'och idish.

kibbler ['kɪblə] *n* maydalash mashinasi.

kibitzer ['kɪbɪtsə] *n amer. so'zl.* so'ramagan maslahatlarni beraverib jonga tegadigan odam.

kibosh ['kaɪbɔʃ] *n sl* 1) bema'ni *(bo'lmag'ur, bekor)* gap, safsata; behuda gaplar; 2) ahamiyati yo'q, ahamiyatsiz *(arzimas)* narsa.

kick [kɪk] **1.** *n* oyoq bilan tepish; **2.** *v* tepmoq.

kicker ['kɪkə] *n* tepag'on ot.

kick-off ['kɪkɔf] *n sport.* to'pni o'yinga kiritish *(markazdan)*.

kickshaw ['kɪkʃɔ:] *n* 1) shirinlik; shiravor; 2) mayda-chuyda bezak.

kick-up ['kɪkʌp] *n so'zl.* shovqin, to'polon.

kid [kɪd] **1.** *n* 1) echki bolasi; 2) kichkintoy; **2.** *v so'zl.* aldamoq, chalg'itmoq.

kiddle ['kɪdl] *n* tizma qarmoq *(arqon, sim kabilarga tizib bog'langan qarmoqlardan iborat baliq ovlash asbobi, odatda suv oqimiga ko'ndalang qilib qoziqlarga bog'lab qo'yiladi)*.

kiddy ['kɪdɪ] *n so'zl.* go'dak, bola.

kid-glove [ˌkɪd'glʌv] *a* xushmuomala, yumshoq.

kidnap [kɪdnæp] *v* bola o'g'irlamoq.

kidnapper ['kɪdnæpə] *n* bola o'g'risi.

kidney ['kɪdnɪ] *n anat.* buyrak.

kidney bean ['kɪdnɪbi:n] *n* loviya *(o'simligi va doni)*.

kid-skin ['kɪdskɪn] *n* mayin teri.

kief [ki:f] = **kef.**

kilderkin ['kɪldəkɪn] *n* kichkina bochka, bochkacha.

kill [kɪl] **1.** *n* o'lja *(ovda)*; **plentiful** ~ ko'p o'lja; **2.** *v* 1) o'ldirmoq; **to** ~ **a man** odam o'ldirmoq; 2) so'ymoq *(hayvonni)*; 3) yo'q qilmoq, hujum

qilmoq; ~ **off** yo'q qilmoq; ~ **out** umuman izini o'chirmoq.

killer ['kılə] *n* qotil.

killing ['kılıŋ] **1.** *pres. p.* **kill 2.** *dan*; **2.** *a* halok qiluvchi, o'ldiradigan; **3.** *n* o'ldirish, so'yish.

killjoy ['kıldʒɔı] *n* boshqalarning kayfiyatini buzuvchi odam.

kill-time ['kıltaım] *n* bekorchi ish bilan shug'ullanish, vaqtni bekor o'tkazish.

kiln [kıln] *v* pishirmoq, qizdirib ishlov berish (*g'isht, ohak va b.*).

kilo ['ki:lou] = **kilogram(me).**

kilogram(me) ['kıləgræm] *n* kilogramm.

kilometer ['kılə,mi:tə] = **kilometer.**

kilometre ['kılə,mi:tə] *n* kilometr.

kilowatt ['kıləwɔt] *n* kilovatt.

kilt [kılt] *n* 1) kilt (*Shotland erkaklari yubkasi*); 2) qat-qat taxli yubka.

kilter ['kıltə] *n amer.* tartib, saranjomlik, sarishtalik.

kimono [kı'məunəu] *n yap.* kimono (*yaponlarning ust kiyimi*).

kin [kın] *n* 1) qarindosh, avlod; 2) nasl, oila.

kinchin ['kıntʃın] *n sl* go'dak, bola.

kind [kaınd] **1.** *n* nav, zot, tur, xil; **2.** *a* 1) mehribon, iltifotli; ~ **person** mehribon odam; 2) yuvosh (*hayvon*).

kindergarten ['kındə,gɔ:tn] *n* bolalar bog'chasi; ~ **teacher** tarbiyachi.

kind-hearted [,kaınd'hɔ:tıd] *a* ko'ngli yumshoq, mehribon.

kindle ['kındl] *v* yoqmoq, yondirmoq.

kindliness ['kaındlınəs] *n* yaxshilik, mehribonlik.

kindling ['kındlıŋ] **1.** *pres. p.* **kindle** *dan*; **2.** *n* yondirish, yoqish.

kindling-wood ['kındlıŋwud] *n* tutantiriq.

kindly ['kaındlı] 1) yaxshi, marhamatli; ~ **heart** ochiq ko'ngil; 2) yoqimli.

kindness ['kaındnıs] *n* mehribonlik, yaxshilik; nazokat.

kindred ['kındrıd] **1.** *n* 1) qon-qarindoshchilik, jigarchilik; qardoshlik; 2) qarindosh, urug', xesh-aqrabo; **2.** *a* 1) qarindoshlikka oid, qarindoshlik; 2) o'xshash, yaqin, bir-biriga bog'langan.

kinematic [,kını'mætık] *a fiz.* kinematik.

kinematics [,kını'mætıks] *n pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) kinematika (*nazariy mexanikaning jismlar harakatini yuzaga keltiruvchi kuchlardan qat'i nazar o'rganadigan bo'limi*).

kinescope ['kınəskəup] *n* kineskop (*televizorning tasvir qabul qilib oladigan va ko'rsatadigan elektron-nur trubkasi*).

kinetic [kaı'netık] *a* kinetikaga oid.

kinetics [kaı'netıks] *n* kinetika (*nazariy mexanikaning dinamika va statikani o'z ichiga olgan bo'limi*).

king [kıŋ] **1.** *n* qirol, podsho; **2.** *v* boshqarmoq.

kingbolt ['kıŋbəult] *n* o'q.

kingdom ['kıŋdəm] *n* 1) qirol, podsho; 2) podsholik.

kingfisher ['kıŋ,fiʃə] *n* ko'ktorg'ay.

kingly ['kıŋlı] *a* qirolga oid.

kingmaker ['kıŋ,meıkə] *n amer.* oliy mansabga tayinlovchi shaxs.

king's evil [,kıŋz'i:vl] *n so'zl.* shirincha (*bolalar kasalligi*).

kingship ['kıŋʃıp] *n* podsholik, qirollik.

king-size(d) ['kıŋsaız(d)] *n* juda katta.

Kingston valve ['kıŋstənvælv] *n* kinston (*kemaning ostki qismidagi suv kiritiladigan qopqog'i*).

kink [kıŋk] **1.** *n* 1) bukilgan (qayrilgan) joy; 2) tugilgan (bog'langan) joy; **2.** *v* tugmoq, bog'lamoq.

kinsfolk ['kınzfəuk] *n* qarindoshlar, urug'lar.

kinship ['kınʃıp] *n* qarindoshchilik, qardoshlik.

kinsman ['kınzmən] *n* qarindosh, urug', qavm-qarindosh.

kinswoman ['kınz,wumən] *n* qarindosh (*ayol*).

kiosk ['ki:ɔsk] *n* 1) do'koncha, kioska; 2) telefon budkasi.

kip I [kıp] *n* kichkina hayvonning terisi.

kip II [kıp] **1.** *n* yotadigan, uxlaydigan joy; **2.** *v jarg.* uxlamoq.

kip III [kıp] *n amer.* 1000 funt (*=453,59 kg*).

kipper ['kıpə] *n* dudlangan baliq.

Kirghiz ['kə:gız] *n* qirg'iz, qirg'iz ayoli.

kirk [kə:k] *n shotl.* butxona, cherkov.

kirn [kə:n] *n* hosil bayrami.

kismet ['kızmet] *n arab.* taqdir, qismat.

kiss [kıs] **1.** *n* o'pich, bo'sa; **2.** *v* o'pmoq , bo'sa olmoq.

kiss-curl ['kıskə:l] *n* jingalak soch.

kisser ['kısə] *n* o'puvchi kishi.

kiss-in-the-ring [,kısınðə'rıŋ] *n* qadimdan qolgan o'yin (*quvib ushlagan kishi ushlagan kishisini o'padi*).

kiss-me-quick [,kısmı'kwık] *n* kapalakgul, farang binafsha.

kit I [kıt] *n* 1) sarpo, kiyim-bosh; 2) safar xalta, yuk xalta; 3) bir sidra asbob, asboblar to'plami.

kit II [kıt] *n* (**kitten** *so'zining qisqartmasi*) mushuk bolasi.

kit-bag ['kıtbæg] *n* yuk xalta, safar xalta.

kit-cat ['kıtkæt] *n* belgacha olingan portretdan ham bir qancha kichikroq bo'lgan rasm (*portret*).

kitchen ['kıtʃın] **1.** *n* oshxona; **2.** *attr.* oshxonaga oid.

kitchen-cabinet [,kıtʃın'kæbınət] *n* oshxonadagi idish-tovoq javoni.

kitchener ['kıtʃınə] *n* oshxona plitasi.

kitchenette [,kıtʃı'net] *n* o'choqboshi, kichkina oshxona.

kitchen garden [,kıtʃın'gɑ:dn] *n* poliz, poliz ekinlari ekiladigan yer.

kitchen herbs ['kıtʃınhə:bz] *n* xushbo'ylik, o'tkir hidlilik (*ko'katlarda*).

kitchen-maid ['kɪtʃɪnmeɪd] *n* idish yuvuvchi xotin (*oshxona, restoran va b.da*).
kitchen midden [ˌkɪtʃɪn'mɪdn] *n* kir o'ra, axlat o'ra, yuvindi o'ra.
kitchen police [ˌkɪtʃɪnpə'li:s] *n harb. so'zl.* (*maxsus xizmat vazifalarini bajarayotgan vaqtda*) oshxonada ishlash.
kitchen-range ['kɪtʃɪnreɪndʒ] *n* plita, pechka; o'choq.
kitchen-sink [ˌkɪtʃɪn'sɪŋk] *n* oshxona chanog'i.
kitchen-stuff ['kɪtʃɪnstʌf] *n* oshxona mahsulotlari.
kitchen-ware ['kɪtʃɪnweə] *n* oshxona buyumlari.
kite [kaɪt] *n* 1) *zool.* kalxat; 2) varrak.
kiteflying ['kaɪtˌflaɪŋ] *n* qalbaki veksel (tilxat) bilan pul olish.
kitten ['kɪtn] *n* mushuk bolasi, mushukcha.
kittenish ['kɪtnɪʃ] *a* mushuk bolasidek o'yinqaroq.
kittle ['kɪtl] *a* salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan.
kitty I ['kɪtɪ] *n* mushuk bolasi, mushukcha.
kitty II ['kɪtɪ] *n* bank; tikilgan pul (*qarta o'yinida*).
kiwi ['ki:wi:] *n zool.* kivi (*ucha olmaydigan qush*).
klaxon ['klæksən] *n* klakson (*avtomobil va sh. k. da mexanik signal turi*).
kleptomania [ˌkleptəu'meɪnɪə] *n* kleptomaniya (*o'g'irlikka moyillikdan iborat ruhiy kasallik*).
kleptomaniac [ˌkleptəu'meɪnɪæk] *n* kleptoman (*kleptomaniya kasaliga yo'liqqan kishi*).
kluxer ['klʌksə] *n amer.* Ku-Kluks-Klan (*irqchilarning maxfiy terrorchi tashkiloti*) a'zosi.
klystron ['klɪstrɔn] *n* klistron (*elektron lampa turi*).
knack I [næk] *n* 1) kasbiy mahorat, qobiliyat; 2) yaxshi qabul qilish; 3) odat.
knack II [næk] *n* 1) qars-qurs, chars-churs; 2) qattiq ovoz.
knacker I ['nækə] *n* olib sotuvchi, clibsotar (*otlarni go'shi uchun, uylarni buzish uchun*).
knacker II ['nækə] *n pl* qayroq.
knackery ['nækərɪ] *n* kushxona, hayvonlarni so'yib terisini shiladigan joy.
knacky ['nækɪ] *a* epchil, chaqqon, abjir, mohir.
knag [næg] *n* butoq, shox (*daraxtlarda*).
knaggy ['nægɪ] *a* shoxlari ko'p bo'lgan, serbutoq.
knap [næp] *n* 1) tepalik, do'nglik; 2) tog' qirrasi.
knapsack ['næpsæk] *n* safar xalta, yuk xalta.
knapweed ['næpwi:d] *n bot.* (*qora*) bo'tako'z.
knar [nɑ:] *n* shish, g'urra, g'udda (*daraxtlarda*), butoq.
knarred [nɑ:d] *a* sershox, serbutoq.
knarry ['nɑ:rɪ] = **knarred**.
knave [neɪv] *n* muttaham, firibgar, qallob, aldamchi, tovlamachi.
knavery ['neɪvərɪ] *n* aldamchilik, muttahamlik, qalloblik, firibgarlik, tovlamachilik.
knavish ['neɪvɪʃ] *a* muttahamlik bilan qilingan.
knead [ni:d] *v* 1) tepmoq (*loyni*); 2) aralashtirmoq, qormoq, pishitmoq.
kneading-trough ['ni:dɪŋˌtrɔf] *n* xamir tog'ora.
knee [ni:] **1.** *n* tiz, tizza; **to sit ~ by** – yonma-yon o'tirmoq; **2.** *v* tizza bilan urmoq, turtmoq.
knee-breeches ['ni:ˌbrɪtʃɪz] *n* briji, etik shim.
knee-cap ['ni:kæp] *n anat.* tizza ko'zi, tizza kosasi.
knee-deep [ˌni:'di:p] *a* tizza bo'yi, chuqurligi tizza bilan teng bo'lgan.
kneel [ni:l] *v* **(knelt, kneeled)** cho'kkalamoq, tiz cho'kmoq.
kneeling position [ˌni:lɪŋpə'zɪʃn] *n harbiy.* tizzalab otish holati.
knell [nel] *n* yomonlik alomati (belgisi); yomon belgi.
knelt [nelt] *past., p. p.* **kneel** *dan.*
knew [nju:] *past.* **know** *dan.*
Knickerbocker ['nɪkəbɔkə] *n* Nyu Yorkda istiqomat qiluvchi, yashovchi.
knickerbockers ['nɪkəbɔkəz] *n* briji, etik shim.
knickers ['nɪkəz] *n* 1) *so'zl.* etik shim; 2) ayollarning uzunroq bichimdagi kiyimi.
knick-knack ['nɪknæk] *n* mayda-chuyda bezak, buyum; zeb-ziynat.
knick-knackery ['nɪkˌnækərɪ] *n* 1) mayda-chuyda bezaklar; 2) zar ip.
knife [naɪf] **1.** *n pl* **(knives)** pichoq; **2.** *v* 1) pichoqlamoq; 2) pichoq bilan kesmoq.
knife blade ['naɪfbleɪd] *n* pichoqning tig'i.
knife-board ['naɪfbɔ:d] *n* pichoqlarni tozalash uchun taxta.
knife-grinder ['naɪfˌgraɪndə] *n* 1) charxchi, charxlaydigan ishchi; 2) qayroqtosh, qayroq.
knife-switch ['naɪfswɪtʃ] *n* rubilnik (*kuchli elektr toklarini ulash va uzish uchun xizmat qiladigan moslama*).
knight [naɪt] *n* 1) ritsar (*G'arbiy Yevropada harbiy zamindorlar tabaqasiga mansub kishi*); bahodir; 2) *shaxm.* ot.
knightage ['naɪtɪdʒ] *n* 1) ritsarlik; 2) ritsarlik unvoni.
knight errant [ˌnaɪt'erənt] *n* 1) kezib yuradigan ritsar; 2) xayolparast odam.
knight errantry [ˌnaɪt'erəntrɪ] *n* soddadillik, xomxayollik.
knighthood ['naɪthud] *n* 1) ritsarlik; 2) ritsarlik unvoni.
knightly ['naɪtlɪ] *a* 1) ritsarga oid; 2) oliyjanob, oliyhimmat.
knit [nɪt] *v* **(knitted, knit)** to'qimoq.
knitted ['nɪtɪd] **1.** *past., p. p.* **knit** *dan*; **2.** *a* to'qilgan.
knitter ['nɪtə] *n* to'r to'quvchi.
knitting ['nɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **knit** *dan* **2.** *n* to'qish.
knitting-machine ['nɪtɪŋməˌʃi:n] *n* to'quv dastgohi, to'qish mashinasi.
knitting-needle ['nɪtɪŋˌni:dl] *n* 1) to'quv ignasi; 2) to'qish piltasi.
knitwear ['nɪtweə] *n* to'qilgan kiyimlar.

knitwork [ˈnɪtwə:k] *n* 1) to'qish ishlari; 2) trikotaj buyumlar.
knives [naɪvz] *pl* **knife** 1. *dan.*
knob [nɔb] *n* 1) qavariq joy, do'ng, do'mboq; 2) dumaloq eshik tutqichi.
knobby [ˈnɔbɪ] *a* g'adir-budur, serbutoq, tugun-tugun.
knobstick [ˈnɔbstɪk] *n* 1) tayoq, so'yil, to'qmoq; 2) gurzi.
knock [nɔk] **1.** *n* 1) urish, turtish, zarba berish; 2) taqillatish; **2.** *v* taqillatmoq, urmoq.
knock-down [ˈnɔkdaun] *n* (*boksda*) bokschining zarba yeb o'n sekund ichida turolmay qoladigan holati.
knocker [ˈnɔkə] *n* eshikni taqillatadigan odam, eshik bolg'achasi (*taqillatish uchun*).
knocker-up [ˌnɔkərˈʌp] *n* ishchilarni ertalab ishga borish uchun turg'izadigan kishi.
knoll [nəul] *n* tepalik, do'nglik, balandlik.
knot [nɔt] **1.** *n* tugun; **2.** *v* tugmoq.
knotty [ˈnɔtɪ] *n* tugunli, sertugun.
knout [naut] *n* qamchi.
know [nəu] *v* (**knew; known**) 1) bilmoq, xabardor (*voqif*) bo'lmoq; bilimga (*ma'lumotga*) ega bo'lmoq; 2) tanimoq, tanish (oshno) bo'lmoq; 3) tushunmoq, fahmlamoq; 4) tanimoq, ko'rib tanimoq, bilib olmoq; **~ing** aqlli, tushunadigan.
know-all [ˈnəuɔ:l] *n* mahmadona, o'zini bilimdon hisoblovchi kishi.
know-how [ˈnəuhau] *n* 1) ishning ko'zini bilish, bilarmonlik; 2) ishlab chiqarish sirlari.
knowing [ˈnəuɪŋ] **1.** *pres. p.* **know** *dan*; **2.** *n* 1) bilish, xabardorlik; 2) tushunish.
knowingly [ˈnəuɪŋlɪ] *adv* ongli (*ravishda*) tushunib, bilib.
knowledge [ˈnɔlɪdʒ] *n* bilim, ilm; **to get ~** bilim olmoq.
knowledgeable [ˈnɔlɪdʒəbl] *a so'zl.* 1) chuqur bilimli; 2) aqlli, fahm-farosatli.
known [nəun] **1.** *p. p.* **know** *dan*; **2.** *a* tanilgan, mashhur, atoqli, buyuk.
know-nothing [ˈnəuˌnʌθɪŋ] *n* o'qimagan, nodon, bilimsiz odam.
knuckle [ˈnʌkl] **1.** *n* bo'g'im (*barmoqniki*); **2.** *v* barmoqning bo'g'in suyagi bilan urmoq (*taqillatmoq*).
knucklebone [ˈnʌklbəun] *n pl* oshiq o'ynamoq.
knuckleduster [ˈnʌkl,dʌstə] *n* kastet (*to'rt barmoqni o'tkazib ushlash uchun to'rtta teshigi bo'lgan mushtlashish quroli*).
knuckle-joint [ˈnʌkldʒɔɪnt] *n* barmoq bo'g'imlari.
knurl [nə:l] *n* g'udda, g'urra, g'udur-budurlik.
knur(r) [nə:] *n* butoq (*daraxtlarda*).
koala [kəuˈɑ:lə] *n zool.* koala.
kodak [ˈkəudæk] *foto.* kodak foto apparatlari bilan rasm (*surat*) olmoq.
kohlrabi [ˌkəulˈrɔ:bɪ] *n bot.* sholg'omkaram, toshkaram (*mazasi sholg'omga o'xshagan karam*).
kola [ˈkəulə] *n* kola (*ichimlik*).
kolinsky [kəˈlɪnskɪ] *n zool.* kolonok (*suvsarsimonlarga mansub sutemizuvchi hayvon*).
kondon [ˈku:du:] *n zool.* antilopalar, kiyiklar (*jufituyoqli kavsh qaytaruvchilarning katta bir guruhi*).
Koran [kɔ:ˈrɑ:n] *n* Qur'on.
Koranic [kɔ:ˈrænɪk] *a* 1) Qur'onga asoslangan; 2) Qur'onda aytilgan.
Korean [kɔˈrɪən] *a* Koreyaga va koreyslarga oid.
kotow [ˌkəuˈtau] = **kowtow.**
koumiss [ˈku:mɪs] *n* qimiz.
kowtow [ˌkauˈtau] *n xit.* ikki bukilib salom berish; kamtarona salom.
kraal [krɑ:l] *n* qoziqdevor (*zich qoqilgan yog'ochlardan yasalgan devor*).
krait [kraɪt] *n zool.* krayt (*zaharli ilon*).
kraut [kraut] *n* 1) tuzlangan karam; 2) nemis.
Kremlin [ˈkremlɪn] *rus. n* Kreml (*qadimgi rus shaharlarida; ichki qal'a*).
krone [ˈkrəunə] *n* krona (*Yevropadagi ba'zi mamlakatlarning pul birligi*).
krypton [ˈkrɪptɔn] *n kim.* kripton (*kimyoviy element, inert gaz*).
kudos [ˈkju:dɔs] **1.** *n so'zl.* shon, sharaf, faxr, iftixor, dong; **2.** *v* shuhratini oshirmoq, maqtamoq, sharaflamoq.
Ku-Klux-Klan [ˌku:klʌksˈklæn] *n* Ku-Kluks-Klan (*AQSHda irqchilarning maxfiy terrorchi tashkiloti*).
kukri [ˈkukrɪ] *n hind.* katta egri pichoq.
kumiss [ku:ˈmɪs] *n* qimiz.
Kurd [kə:d] n kurdlar, kurd xalqi.
kybosh [ˈkaɪbɔʃ] = **kibosh.**
kymograph [ˈkaɪməugrɑ:f] *n* kimograf (*organizmdagi fiziologik jarayonlarni egri chiziq shaklida yozib oladigan apparat*).

Ll

L, l [el] *n* ingliz tili alifbosining o'n ikkinchi harfi.
la [lɑ:] *n mus.* lya (*musiqa gammasining oltinchi tovushi va shu tovushni ifodalovchi nota*).
laager [ˈlɑ:gə] *n* bolalar dam oladigan joy, oromgoh.
lab [læb] = **laboratory.**
labefaction [ˌlæbɪˈfækʃn] *n* organizmning zaiflashib ketishi, shikast.
label [ˈleɪbl] **1.** *n* yorliq, etiketka; **2.** *v* etiketka yopishtirmoq; **~ed** taing'a bosilgan, belgi qo'yilgan.
labial [ˈleɪbɪəl] *a ling.* labga oid, lablangan.
labialization [ˌleɪbɪəlaɪˈzeɪʃn] *n ling.* lablashtirish.
labile [ˈleɪbaɪl] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan.

lability [leɪˈbɪlətɪ] *n* bo'shlik, turg'un emaslik, omonatlik, o'zgaruvchanlik.
labor [ˈleɪbə] *n* 1) ish, mehnat; 2) *ishchi kuchi*, ishchi sinfi.
laboratory [ləˈbɔrətrɪ] *n* laboratoriya; **~ test** laboratoriya tekshiruvi; **~ assistant** laborant.
laborious [ləˈbɔːrɪəs] *a* 1) qiyin, og'ir; 2) ishchan; 3) harakatchan.
labour [ˈleɪbə] *n* 1) mehnat, ish; 2) ishchi kuchi, ishchi sinfi.
Labour Day [ˈleɪbədeɪ] *n amer.* mehnat kuni (*sentabr oyining birinchi dushanbasi*).
laboured [ˈleɪbəd] *a* qiyin, og'ir.
labourer [ˈleɪbərə] *n* tajribasiz ishchi.
Labour Exchange [ˈleɪbəɪksˌtʃeɪndʒ] *n* mehnat birjasi.
labouring [ˈleɪbərɪŋ] *a* ishchi, mehnatkash.
Labourist [ˈleɪbərɪst] *n* leyborist (*leyboristlar partiyasining a'zosi*).
Labourite [ˈleɪbəraɪt] = **labourist.**
labour-market [ˈleɪbəˌmɑːkɪt] *n* mehnat bozori.
Labour Party [ˈleɪbəˌpɑːtɪ] *n* leyboristlar partiyasi (*Angliyada; o'zini ishchilar partiyasi deb atovchi*).
labour-saving [ˈleɪbəˌseɪvɪŋ] *a* ishlab chiqarish jarayonini (*tejamlashtirish*) ixchamlashtirish va takomillashtirishga oid.
labour union [ˈleɪbəˌjuːnɪən] *n* kasaba uyushmasi.
laburnum [ləˈbɜːnəm] *n* kutilmagan (osmondan tushgan) katta boylik.
labyrinth [ˈlæbərɪnθ] *n* chalkash yo'l, yo'lak, ko'cha va sh.k.
labyrinthine [ˌlæbəˈrɪnθaɪn] *a* chigal, chuvalgan, chalkash-chulkash.
lac I [læk] *n* tabiiy lok.
lac II [læk] *hind. n* yuz ming (*rupiy*).
lace [leɪs] **1.** *n* bog'ich, uqa, jiyak; **2.** *v* bog'lamoq; **to ~ up one's boots** botinka ipini bog'lamoq.
lace-boots [ˈleɪsbuːts] *n pl* bo'g'ichli (bog'ichi bor) botinka.
Lacedaemonian [ˌlæsədɪˈməunɪən] *a* Sparta davlatiga oid.
lace paper [ˈleɪsˌpeɪpə] *n* burama to'r naqshli (to'r shaklida gul solingan) qog'oz.
lace-pillow [ˈleɪsˌpɪləu] *n* to'r to'qiladigan yostiq (taglik).
lacerate [ˈlæsəreɪt] *v* yirtmoq, uzmoq, yirtib (uzib) *tashlamoq*.
lacerated [ˈlæsəreɪtɪd] **1.** *p. p.* **lacerate** *dan*; **2.** *a* uzilgan, uzilib ketgan, yirtiq.
laceration [ˌlæsəˈreɪʃn] *n* uzish, buzish, uzilish, buzilish.
lace-ups [ˌleɪs ˈʌps] *n pl* bog'ichli botinka.
laches [ˈlætʃɪz] *n* behafsalalik, beg'amlik, beparvolik.
lachrymal [ˈlækrɪməl] *a* ko'z yoshiga oid; **~ gland** *anat.* ko'z yoshi bezlari.
lachrymatory [ˌlækrɪˈmətərɪ] *a* ko'zdan yosh oqizadigan (*gaz haqida*).
lachrymose [ˈlækrɪməus] *a* yig'loqi, yig'loq, seryig'i.
lacing [ˈleɪsɪŋ] **1.** *pres. p.* **lace 2.** *dan*; **2.** *n* 1) chiyratma ip, bog'ich; 2) bog'ichini bog'lash.
lack [læk] **1.** *n* kamchilik, muhtojlik; **~ of money** pulning kamligi, yetishmasligi; **2.** *v* muhtoj bo'lmoq, qiyinchilikka chidamoq; imkoniyatga ega bo'lmaslik; **to ~ courage** erkaklik g'ururi bo'lmaslik.
lackadaisical [ˌlækəˈdeɪzɪkəl] *a* toliqqan, ruhsiz, majolsiz.
lack-all [ˈlækɔːl] *n* bebaxt, badbaxt, nochor, hamma narsadan mahrum qilingan kishi.
lack-brain [ˈlækbreɪn] *n esk.* jinni, ahmoq, tentak, esi past.
lackey [ˈlækɪ] **1.** *n* 1) xizmatkor, malay; 2) *ko'ch.* laganbardor, xushomadgo'y; **2.** *v* xizmat qilmoq.
lacking [ˈlækɪŋ] **1.** *pres. p.* **lack 2.** *dan*; **2.** *a* yetishmaydigan, kam, yo'q.
lackland [ˈlæklænd] *a* yersiz, yeri yo'q.
lacklustre [ˈlækˌlʌstə] *a* xira, nursiz, jozibasiz, rangsiz.
laconic [ləˈkɔnɪk] *a* 1) lo'nda qilib aytilgan; 2) kam so'zli, qisqa va aniq, lo'nda.
lacquer [ˈlækə] **1.** *n* lok; **2.** *v* loklamoq, lok surtmoq.
lacquey [ˈlækɪ] = **lackey.**
lactation [lækˈteɪʃn] *n* 1) bolani emizish, ko'krakdan sut berish; 2) sut kelishi.
lacteal [ˈlæktɪəl] *a* sutli, sersut, sut beradigan, sog'iladigan, sog'in.
lactescent [lækˈtesənt] *a* sutga o'xshagan, sutdek.
lactic [ˈlæktɪk] *a kim.* sutda bo'ladigan, sutdan olinadigan, sut...
lactiferous [lækˈtɪfərəs] *a* sut ajratuvchi o'simlik.
lactometer [lækˈtɔmɪtə] *n* laktometr (*sutning solishtirma og'irligini o'lchaydigan asbob*).
lactose [ˈlæktəus] *n* laktoza (*sut shakari*).
lacuna [ləˈkjuːnə] *n* bo'sh qolgan joy, ochiq joy, oraliq.
lacunae [ləˈkjuːniː] *pl* **lacuna** *dan.*
lacustrine [ləˈkʌstraɪn] *a* ko'lga oid; ko'lda bo'ladigan, ko'l...
lacy [ˈleɪsɪ] *a* 1) to'r to'qishga oid, to'r to'qish; 2) to'rdan qilingan, to'rli.
lad [læd] *n* o'spirin bola, o'g'il bola; **the ~s of the village** qishloq bolalari.
ladder [ˈlædə] *n* narvon, pog'ona.
laddie [ˈlædɪ] *n shotl.* bola, bolakay.
lade [leɪd] **1.** *n* ariq, kanal, daryoning quyilish joyi; **2.** *v* **(laded; laded, laden)** yuklamoq, ortmoq, joylamoq.
laden [ˈleɪdn] **1.** *p. p.* **lade** *dan*; **2.** *a* yukli, yuk ortilgan.
ladies [ˈleɪdɪz] *n* 1) *pl* **lady** *dan*; 2) *so'zl.* ayollar hojatxonasi.

ladies-in-waiting [ˌleɪdɪzɪn´weɪtɪŋ] *pl* **lady-in-waiting** *dan.*
ladies' man [´leɪdɪzmæn] = **lady's man.**
ladle [´leɪdl] **1.** *n* cho'mich, yog'log'i; **2.** *v* botirib olmoq, suzib olmoq.
lady [´leɪdɪ] *n* xotin, ayol; xonim; ~ **secretary** ayol kotiba.
lady-beetle [´leɪdɪˌbi:tl] = **ladybird.**
ladybird [´leɪdɪbə:d] *n* xonqizi.
lady-bug [´leɪdɪbʌg] *amer.* **ladybird.**
lady-chair [´leɪdɪtʃeə] *n* o'tirg'ich, o'rindiq (*yaradorlarni tashiydigan*).
lady-cow [´leɪdɪkau] = **ladybird.**
Lady Day [´leɪdɪdeɪ] *n cherk.* ibodatga chaqirib qo'ng'iroq chalish (*25-mart*).
ladyhood [´leɪdɪhud] *n* unvon, faxriy nom.
lady-in-waiting [ˌleɪdɪn´weɪtɪŋ] *n* (*pl* **ladies-in-waiting**) freylina (*malika yoki qirolicha huzurida xizmatda bo'lgan, dvoryan oiladan chiqqan ayol*).
lady-killer [´leɪdɪˌkɪlə] *n* 1) ofatijon (*yigit*); 2) xotinlarni shaydo qiluvchi yigit.
ladylike [´leɪdɪlaɪk] *a* 1) yaxshi tarbiya ko'rgan; 2) ayollarga xos, nozik, nazokatli, latofatli.
lady-love [´leɪdɪlʌv] *n* dildan sevilgan, ma'shuqa, mahbuba, jonona.
lady's bedstraw [ˌleɪdɪz´bedstrɔ:] *n bot.* qumrio't, chaqamiq.
lady's finger [´leɪdɪzˌfɪŋgə] *n* me'dasida yarasi bor odam.
ladyship [´leɪdɪʃɪp] *n a* unvon, biron shaxsning xizmati uchun beriladigan nom.
lady's-maid [´leɪdɪzmeɪd] *n* oqsoch, uy xizmatchisi.
lady's man [´leɪdɪzmæn] *n* 1) xushtor, oshiq; 2) xotinlarning ko'nglini ovlovchi shaxs.
lady's purse [´leɪdɪzpə:s] *n bot.* ochambiti (*krestgullarga mansub, mayda, oq gulli va xaltacha shaklidagi o't*).
laevogyrate [ˈli:vəʊ dʒaɪreɪt] *a fiz.* chapga aylanadigan.
lag I [læg] **1.** *n* kechikish, ulgurmay qolish, orqada qolish, kech qolish; **a time ~ of one month** bir oyga kechikish; **2.** *v* kech qolmoq, ulgurmay qolmoq, orqada qolmoq.
lag II [læg] *n* yuborilgan *yoki* surgun bo'lgan kishi.
lag III [læg] *n* planka, uzun taxtacha.
lagan [´lægən] *n yur.* cho'kib ketgan yuk, g'arq bo'lib ketgan yuk.
lager (beer) [´lɔ:gə(bɪə)] *n* kuchsiz pivo.
laggard [´lægəd] *n* beso'naqay odam, qo'pol odam.
lagging I [´lægɪŋ] *n el.* fazaning (o'zgarishi) siljishi (*fazagenerator chulg'amining alohida bir guruhi*).
lagging II [´lægɪŋ] *n* qoplama, jild.
lagoon [lə´gu:n] *n* laguna, qo'ltiq.
laic(al) [´leɪɪk(əl)] *a* dunyoviy.
laicize [´leɪɪsaɪz] *v* 1) cherkov *yoki* monastir mulkini davlat mulkiga aylantirmoq; 2) cherkov qaramog'idan chiqarish; din ta'siridan chiqarish.
laid [leɪd] *v past., p. p.* **lay I, 1.** *dan.*
laid-back [ˌleɪd´bæk] *a* beg'am, g'amsiz.
lain [leɪn] *p. p.* **lie I, 1.** *dan.*
lair [leə] *n* in, uya, makon.
laird [leəd] *n shotl.* zamindor, katta yer egasi, pomeshik.
laissez-faire [ˌleseɪ ´feə] *n fr* aralashmaslik.
laity [´leɪətɪ] *n* dunyoviy kishi, qavm.
lake [leɪk] *n* 1) ko'l; 2) pardoz loki, bo'yaydigan lok.
lake-country [´leɪkˌkʌntrɪ] *n* serko'l o'lka.
lake-land [´leɪklænd] = **lake-country.**
lake-lawyer [´leɪkˌlɔ:jə] *n amer.* nalim, yelimbaliq.
lakh [lɔ:k] = **lac II.**
laky [´leɪkɪ] *a* ko'lga oid, ko'lda bo'ladigan.
Lallan [´lælən] *n* Shotlandiyaning janubiy qismidagi sheva.
lam [læm] *v* 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) urmoq, tushirmoq.
lama I [´lɑ:mə] *n zool.* lama (*Janubiy Amerika tuyasi*).
lama II [´lɑ:mə] *n* buddizm diniga mansub ruhoniy.
lamasery [´lɑ:məsərɪ] *n* lamaistlar monastiri (*buddizmning tarqalgan oqimi*).
lamb [læm] **1.** *n* qo'zi, qo'zichoq; **2.** *v* qo'zilamoq.
lambaste [´læmbeɪst] *v* urmoq, maydalamoq, yanchmoq.
lambency [´læmbənsɪ] *n* yarqirash, chaqnash.
lambent [´læmbənt] *a* o'ynaydigan, o'ynayotgan, nur tarqatuvchi.
lambkin [´læmkɪn] *n* qo'zichoq.
lamblike [´læmlaɪk] *a* yuvosh, beozor, mo'minqobil.
lambrequin [´læmbəkɪn] *n* lambreken (*eshik yoki deraza tepasiga ishlangan o'yma naqsh*).
lambskin [´læmskɪn] *n* qo'yteri, ishlangan qo'y terisi.
lame [leɪm] **1.** *a* oqsoq, cho'loq; ~ **man** cho'loq odam; **2.** *v* mayib qilmoq, urib olmoq; **to ~ a leg** oyog'ini mayib qilmoq.
lamella [lə´melə] *n* 1) plastinka; 2) yupqa qatlam (*suyakda, gazmolda*).
lamellae [lə´meli:] *pl* **lamella** *dan.*
lameness [´leɪmnəs] *n* oqsoqlik, cho'loqlik.
lament [lə ´ment] **1.** *n* achchiq oh-voh qilish; hasrat, ho'ngrab yig'lash, zorlanish, gina; **2.** *v* 1) ingramoq, oh-voh qilmoq, zorlanmoq, nola qilmoq; 2) aza tutib yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq.
lamentable [´læməntəbl] *a* o'ta achinarli, qayg'uli; ~ **result** o'ta achinarli natija.
lamentation [ˌlæmen´teɪʃn] *n* 1) aza; 2) faryod

lamia [ˈleɪmɪə] *n grek. mif.* ayol qiyofasidagi jodugar; qonxo'r.

lamina [ˈlæmɪnə] *n* (*pl* **-nae**) yupqa qatlam.

laminae [ˈlæmɪni:] *pl* **lamina** *dan.*

laminar [ˈlæmɪnə] *a* plastinkasimon, plastinka shaklidagi.

laminate [ˈlæmɪneɪt] *v* 1) yupqa qatlamlarga bo'lib tashlamoq; 2) qog'ozdan plastmassa tayyorlamoq.

laminated [ˈlæmɪneɪtɪd] **1.** *p. p.* **laminate** *dan*; **2.** *a* qat-qat shaklidagi.

lamination [ˌlæmɪˈneɪʃn] *n* qatlamlarga ajralish, qat-qat qilib jo'valamoq.

Lammas [ˈlæməs] *n tar.* hosil bayrami (*1 avgust*).

lamp [læmp] **1.** *n* lampa, chiroq, fonus, fonar; **2.** *v* yoritmoq.

lamphlack [ˈlæmpblæk] *n* lampa qorakuyasi, qurumi, tutuni, isi.

lamp-burner [ˈlæmp,bə:nə] *n* lampa gorelkasi (*gorelka – suyuq yoqilg'i yoki gazni ma'lum maq-sadda yoqish uchun ishlatiladigan asbob*).

lamp-chimney [ˈlæmp,ʧɪmnɪ] *n* lampashisha.

lamp-holder [ˈlæmp,həuldə] *n* patron (*gilzaga joylashgan lampa o'rnatgich*).

lampion [ˈlæmpɪən] *n* lampion (*bezash uchun har xil qog'oz yoki shishadan yasalgan kichkina fonuscha*).

lamplight [ˈlæmplaɪt] *n* sun'iy yoritish (*yorug'lik berish*).

lamplighter [ˈlæmp,laɪtə] *n* fonarchi, fonuschi.

lampoon [læmˈpu:n] **1.** *n* pamflet, achchiq hajviy asar; **2.** *v* hajviy asar ijod qilmoq.

lampooner [læmˈpu:nə] *n* achchiq hajviy asar yozuvchi.

lampoonist [læmˈpu:nɪst] = **lampooner.**

lamppost [ˈlæmppəust] *n* fonar osadigan simyog'och (stolba).

lamprey [ˈlæmprɪ] *n* minoga, ilonbaliq.

lamp-shade [ˈlæmpʃeɪd] *n* abajur, lampa qalpog'i.

lamp-socket [ˈlæmp,sɔkɪt] = **lamp-holder.**

Lancastrian [læŋˈkæstrɪən] **1.** *a* Lankashir va lankashirliklarga oid; **2.** *n* Lankashirda tug'ilgan kishi, lankashirlik.

lance [lɑ:ns] **1.** *n* nayza, nishtar; **2.** *v* nayza sanchmoq.

lance-corporal [ˈlɑ:ns,kɔ:prəl] *n* kichik kapral (*chor armiyasida va ba'zi chet el armiyalarida: kichik boshliqlar yoki askarlar unvoni*).

lance-knight [ˈlɑ:nsnaɪt] *n* 1) nayzali askar; 2) yollanma askar.

lanceolate [ˈlɑ:nsɪəleɪt] *a bot.* nishtarga o'xshagan, nayzasimon.

lancer [ˈlɑ:nsə] *n* 1) ulan (*yengil kavaleriya askari*); 2) *tib.* lanset (*dudama, jarrohlar nishtari*).

lance-sergeant [ˈlɑ:ns,sɑ:ʤənt] *n* kichik serjant.

lancet [ˈlɑ:nsɪt] *n* lanset (*dudama, jarrohlar nishtari*).

lancet arch [ˌlɑ:nsɪtˈɑ:ʧ] *n me'mor.* 1) peshtoq shaklida ishlangan ark; 2) tepasi uchli (cho'qqili) darvoza.

lancinating [ˈlɑ:nsɪneɪtɪŋ] *a* o'tkir, keskir, sanchiq (*og'riq haqida*).

land [lænd] **1.** *n* 1) yer, quruqlik, tuproq; 2) mamlakat, davlat; **2.** *v* quruqlikka chiqmoq; yerga qo'nmoq.

land-agent [ˈlænd,eɪʤənt] *n* 1) yer maydonlarini sotish bo'yicha agent; 2) yer xo'jaligining boshqaruvchisi.

landau [ˈlændɔ:] *n* 1) lando (*to'rt kishilik buklama soyabonli arava*); 2) tepa qismi ochiladigan avtomobil.

land-breeze [ˈlændbri:z] *n* yengil shamol, shabada (*dengiz sohillarida*).

landed [ˈlændɪd] **1.** *p. p.* **land 2.** *dan*; **2.** *a* yerga oid, yerli.

landfall [ˈlændfɔ:l] *n* 1) *deng.* qirg'oqqa chiqish; 2) *av.* yerga qo'nish.

landfill [ˈlændfɪl] *n* chiqindilarni yerga ko'mish.

land-forces [ˈlænd,fɔ:sɪz] *n pl* quruqlikdagi qo'shinlar.

land-grabber [ˈlænd,qræbə] *n* birovning yerini noqonuniy ravishda *yoki* aldab olib qo'ygan kishi.

landgrave [ˈlændgreɪv] *n nem.* landgraf (*yer egasi*).

landholder [ˈlænd,həuldə] *n* yer maydonining egasi *yoki* ijarachi.

land-hunger [ˈlænd,hʌŋgə] *n* yerni sotib olishga intilish.

land-hungry [ˈlænd,hʌŋgrɪ] *a* yersiz, yeri yo'q.

landing [ˈlændɪŋ] **1.** *pres. p.* **land 2.** *dan*; **2.** *n* 1) tushirish, tushirib qo'yish; 2) qo'nish, qo'nish joyi.

landing craft [ˈlændɪŋkrɑ:ft] *n* 1) desantchilar kemasi; 2) desantchilarning suzish moslamalari.

landing field [ˈlændɪŋfi:ld] *n* 1) aerodrom; 2) qo'nish joyi.

landing gear [ˈlændɪŋgɪə] *n* shassi (*turli mashina mexanizmlarining asosiy g'ildirak ramasi*).

landing ground [ˈlændɪŋgraund] = **landing-place.**

landing mark [ˈlændɪŋmɑ:k] *n av.* (*yerga*) qo'nish belgisi (ishorasi).

landing-net [ˈlændɪŋnet] *n* baliq tutadigan matrap (*matrap – baliq ushlash uchun uzun tayoq uchiga to'r xaltali chambarak o'rnatilgan asbob*).

landing-place [ˈlændɪŋpleɪs] *n* 1) qo'nish joyi; 2) kema to'xtaydigan joy.

landing troops [ˈlændɪŋtru:ps] *n pl* desantchi qo'shinlar.

land-jobber [ˈlænd,ʤɔ:bə] *n* yer maydoni bilan chayqovchilik qiladigan (shaxs).

landlady [ˈlænd,leɪdɪ] *n* 1) ijaraga uy *yoki* yer beradigan (*ayol*); 2) mehmonxona egasi (*ayol kishi*).

landless [ˈlændləs] *a* 1) yersiz, yeri yo'q; 2) keng. qirg'oqsiz, bepoyon.

land-locked [ˈlændlɔkt] *a* 1) dengizga chiqa olmaydigan (*mamlakat haqida*); 2) har tomonlama yer bilan o'ralgan (*suv havzasi haqida*); 3) chuchuk suvda yashovchi (*baliq haqida*).

landloper [ˈlænd,ləupə] = **landlouper.**

landlord [ˈlændlɔ:d] *n* ijaraga beradigan uy egasi; katta yer (mulk) egasi; mehmonxona egasi.

landlordism [ˈlændlɔ:dɪzm] *n* 1) katta yer egalarining mafkuralari (ideologiyalari); 2) katta yer egaligi tuzilmasi.

landlouper [ˈlænd,ləupə] *n* daydi, darbadar yuradigan kishi.

landlubber [ˈlænd,lʌbə] *n deng.* quruqlikda yashovchi kishi; dengizda suzishga odatlanmagan kishi.

landmark [ˈlændmɔ:k] *n* 1) yer maydoni chegarasi; 2) taraqqiyot pog'onasi; 3) chegaralarni belgilovchi belgi (qoziq).

mercury [ˈmə:kjurɪ] *n kim.* simob.
mercy [ˈmə:sɪ] *n* 1) rahmdillik; iltifotlilik; 2) kechirish; avf etish.
mere [mɪə] *a* oddiy; **~ly** *adv* faqat; xolos.
merge [mə:dʒ] *v* qo'shilmoq, birlashmoq, birlashtirmoq.
merger [ˈmə:dʒə] *n* (*banklar, korxonalar*) birlashmasi, birlashma.
meridian [məˈrɪdɪən] *n* 1) meridian; **~ line** meridian chizig'i; 2) oliy nuqta; cho'qqi.
meringue [məˈræŋ] *n* 1) mazali (lazzatli) ovqat; 2) shirinlik; shirin narsa.
merino [məˈri:nəu] *n* merinos (*1. mayin yungli qo'y; 2. shunday qo'y yungi va undan to'qilgan mayin gazlama*).
merit [ˈmerɪt] **1.** *n* 1) obro', e'tibor; 2) taqdirga loyiq ish, xizmat; **2.** *v* loyiq bo'lmoq; arzimoq.
merriment [ˈmerɪmənt] *n* xursandchilik, shodlik.
merry [ˈmerɪ] *a* xursand; xushchaqchaq; **to make ~** xursandchilik qilmoq.
merry-go-round [ˈmerɪgəu,raund] *n* karusel (*o'tiradigan joylari ot, ayiq, sher, qayiq va sh. k. shakllarida bo'lib, doira bo'ylab aylanadigan qurilma*).
mesh [meʃ] *n* to'r, setka.
mesmerize [ˈmezmərəɪz] *v* 1) gipnoz qilmoq; 2) sehrlamoq, sehrlab qo'ymoq; 3) maftun etmoq; o'ziga asir qilmoq.
mess I [mes] *n* 1) tartibsizlik, betartiblik; 2) iflos, loy; 3) ko'ngilsizlik.
mess II [mes] *n* oshxona, yemakxona.
message [ˈmesɪdʒ] **1.** *n* 1) noma, xabar, maktub; **telegraph ~** telegramma; 2) topshiriq; **to run ~s** topshiriqni bajarmoq; **2.** *v* xabar yuhormoq.
messenger [ˈmesɪndʒə] *n* darakchi, xabarchi, xat tashuvchi.
messmate [ˈmesmeɪt] *n* 1) maktabdosh, birga (bir maktabda) o'qigan; 2) birga (bir dasturxonda) ovqatlanuvchi, hamtovoq.
messy [ˈmesɪ] *a* 1) iflos, loy; 2) tartibsiz, betartib.
met [ˈmet] *past., p. p.* **meet** *dan.*
metal [ˈmetl] *n* metall.
metallic [mɪˈtælɪk] *a* metalga o'xshash; metal rangidagi.

metallurgy [me'tælədʒi] *n* metallurgiya.
metaphor ['metəfə] *n* istiora; metafora.
metamorphosis [,metə'mɔ:fəsis] *n* (*pl* **-ses**) metamorfoza (*rivojlanish natijasida boshqa ko'rinishga aylanish*).
metaphorical [,metə'fɔrikl] *a* kinoyali, majoziy.
metaphysical [,metə'fizikl] *a* metafizikaga oid, metafizika prinsiplariga asoslangan.
metaphysics [,metə'fiziks] *n* metafizika (*borliqning avvali o'zgarmas, azaliy va adabiy deb qaravchi, uning hodisalarini esa bir-biridan uzilgan va turg'un holda tekshiruvchi idealistik falsafiy ta'limot «fan»*).
mete I [mi:t] *n* chegara, hudud.
mete II [mi:t] *v* belgilamoq, tayinlamoq.
meteor ['mi:tiə] *n* 1) *astr.* uchar yulduz; 2) atmosfera hosimi.
meteorite ['mi:tiərait] *n* meteorit (*fazodan yerga tushgan jism*).
meteorology [,mi:tiə'rɔlədʒi] *n* meteorologiya (*ob-havo va boshqa meteorologik hodisalar haqidagi fan*).
meter ['mi:tə] *n* 1) o'lchagich, o'lchash asbobi, o'lchaydigan asbob; 2) metr, o'lchov.
method ['meθəd] *n* 1) usul, uslub; yo'l, metod; 2) *pl* metodika (*fan*).
methodical [mi'θɔdikl] *a* 1) muntazam, doimiy ravishda; 2) qat'iy tartibga asoslangan, rejali.
methylated ['meθi:leitid] *a* aynitilgan; ~ **spirit** aynitilgan spirt.
meticulous [mə'tikjuləs] *a* puxta, sinchkov.
metre ['mi:tə] *n* metr (*o'lchov*).
metric ['metrik] *a* metrik, metr o'lchovi asosidagi.
metro ['metrəu] *n* metro.
metropolis [mə'trɔpəlis] *n* poytaxt.
metropolitan [,metrə'pɔlitən] *a* poytaxtga oid, poytaxtdagi, poytaxt...
mettle ['metl] *n* 1) insonning xarakteri, tabiati, fe'li, xulqi, fe'l-atvori; 2) botirlik, jasurlik, mardlik, dovyuraklik, jasorat, dadillik.
mew I [mju:] **1.** *n* miyovlash; miyovlash ovozi; miyov-miyov; **2.** *v* miyovlamoq.
mew II [mju:] *n* chayka, baliqchi (*qush*).
mew III [mju:] **1.** *n* katak, qafas (*lochin, qirg'iy, qarchig'ay uchun*); **2.** *v* qafasga qamamoq.
mews [mju:z] *n* otxona, molxona.
Mexican ['meksikən] **1.** *n* meksikalik, meksikalik ayol; **2.** *a* Meksikaga va meksikaliklarga oid.
miaow [mi:'au] *n* miyovlash.
mica ['maikə] **1.** *n* sluda (*shaffof mineral*); **2.** *attr.* sludaga oid; sludali.
mice [mais] *pl* **mouse** *dan.*
microbe ['maikrəub] *n* mikrob.
microchip ['maikrəutʃip] *n elektr.* mikrochip.
microcosm ['maikrəu,kɔzm] *n* mikrokozm (*biror narsaning kichik namunasi*).
microfiche ['maikrəufi:ʃ] *n* (*pl* **-s** [-iz]) mikrofisha.
microphone ['maikrəfəun] *n* mikrofon.
microscope ['maikrəskəup] *n* mikroskop.
microscopic(al) [,maikrə'skɔpik(əl)] *a* mikroskopik, juda kichik, mayda.
microwave ['maikrəweiv] *a radio.* mikroto'lqin.
mid [mid] *a* o'rta, yarim.
midday [,mid'dei] *n* 1) tush, choshgoh, peshin; qiyom (tush) vaqti; 2) *astr.* kun o'rtasi (*quyosh markazining yerning shu joydagi meridianidan o'tish payti*).
middle ['midl] **1.** *n* o'rta yer (*joy*), o'rtalik, oraliq, yarim; **2.** *a* o'rtacha, o'rta hisobdagi; ~ **man** dallol.
middle-aged [,midl'eidʒd] *a* o'rta yoshdagi.
middleman ['midlmæn] *n* vositachi, o'rtada turuvchi; dallol (*savdo ishida*).
midge [midʒ] *n* mayda chivin, mayda pashsha.
midget ['midʒit] *n* mitti (pakana) odam.
Midlands ['midləndz] *n* (**the** ~) Angliyaning yirik markaziy-ma'muriy viloyatlari.
midnight ['midnait] *n* yarim kecha, yarim tun.
midriff ['midrif] *n anat.* diafragma (*ko'krak va qorin bo'shliqlarini bir-biridan ajratib turuvchi mushakli parda*).
midst [midst] *n* orasi, o'rtasi.
midsummer [,mid'sʌmə] *n* 1) yoz o'rtalari; 2) *so'zl.* yozgi quyosh turishi.
midway [,mid'wei] *a* 1) o'rtada, orada; 2) o'rtasi, yarmi (*vaqt haqida*).
mid-week [,mid'wi:k] *n* hafta o'rtalari.
midwife ['midwaif] *n* doya, doya (ona) kampir.
mien [mi:n] *n* 1) chehra, avzo, turq; 2) tashqi ko'rinish, qiyofa, bashara, afti-angor; 3) o'zini tutish (yurish-turish) tarzi.
might [mait] *n* kuch, qudrat, quvvat.
mighty ['maiti] *a* kuchli, qudratli; ~ **nation** kuchli millat (*xalq*).
migraine ['migrein] *n* migren (*boshni qattiq og'ritadigan va ko'ngilni aynitadigan asabiy kasallik*).
migrant ['maigrənt] *a* 1) ko'chmanchi, ko'chib yuradigan; 2) ko'chmanchi, uchib o'tadigan (*qushlar haqida*).
migrate [mai'greit] *v* ko'chmoq; ko'chib o'tmoq.
migration [mai'greiʃn] *n* ko'chib o'tish.
mike [maik] *n so'zl.* mikrofon.
milage ['mailidʒ] = **mileage.**
milch [milʧ] *a* sutlik, sog'in.
mild [maild] *a* 1) yumshoq, mayin; 2) xushfe'l, muloyim; 3) chuchuk (*ovqatga nisbatan*).
mile [mail] *n* mil (*masofa o'lchovi 1609 m ga teng*).
mileage ['mailidʒ] *n* 1) bosib o'tilgan masofa; 2) olinadigan foyda hajmi.
milepost ['mailpəust] *n* chaqirimlarni ko'rsatadigan ustun.
milestone ['mailstəun] *n* chaqirimlarni ko'rsatadigan ustun.
milieu ['mi:ljə:] *n fr.* atrofdagi (o'rab olgan) muhit, sharoit.

militancy [ˈmılıtənsı] *n* urushqoqlik.
militant [ˈmılıtənt] *a* kurashchan, urishqoq, faol, jangovar.
militarist [ˈmılıtərıst] *n* militarist, militarizm tarafdori.
militarization [ˌmılıtəraıˈzeıʃn] *n* harbiylashtirish, harbiylashish.
militarize [ˈmılıtəraız] *a* harbiylashtirilgan.
military [ˈmılıtərı] *a* 1) harbiy, harbiy kuch; 2) harbiy xizmatchi.
militia [mıˈlıʃə] *n* 1) militsiya; 2) *tar.* xalq lashkari (*Angliyada*).
milk I [mılk] *n* sut.
milk II [mılk] *v* sut sog'moq; ~ **maid** sutchi (*ayol. qiz*); ~**man** sut sotuvchi.
milker [ˈmılkə] *n* 1) sut sog'uvchi; 2) sut sog'adigan mashina.
milk-white [ˈmılkwaıt] *a* sutdek oq.
milky [ˈmılkı] *a* sutli.
mill [mıl] *n* 1) tegirmon; 2) yanchadigan mashina; 3) fabrika, zavod.
millennium [mıˈlenıəm] *n* 1) ming yillik, ming yil davom etgan vaqt (davr); 2) ming yillik (ming yil to'lgan payt va shunga bag'ishlangan marosim); 3) oltin asr (*hamma narsa. fan, madaniyat va b.*) ravnaq topgan asr.
miller [ˈmılə] *n* tegirmonchi.
millet [ˈmılıt] *n* tariq.
milliard [ˈmılja:d] *n num. card.* milliard.
milligram(me) [ˈmılıgræm] *n* milligramm.
millilitre [ˈmılıˌli:tə] *n* millilitr.
millimetre [ˈmılıˌmi:tə] *n* millimetr.
milliner [ˈmılınə] *n* shlapado'z va ayollar kiyimlarini tikuvchi xotin.
millinery [ˈmılınərı] *n* 1) ayollar shlapalari; 2) ayollar shlapalarini ishlab chiqarish; 3) ayollar shlapalari savdosi; 4) ayollar shlapasi do'koni.
million [ˈmılјən] *num. card.* million.
millstone [ˈmılstəun] *n* tegirmon toshi; tegirmontosh.
mill-wheel [ˈmılwi:l] *n* tegirmon parragi.
mime [maım] *n* mimika, mimika qilish.
mimeograph [ˈmımıəgrɑ:f] *n* ko'paytiruvchi apparat (*hujjatlar uchun*).
mimic I [ˈmımık] *a* taqlidiy, taqlid dan iborat bo'lgan, o'xshatiladigan.
mimic II [ˈmımık] *n* taqlidchi, o'xshatuvchi (*xuddi o'zi bo'lib ketuvchi odam yoki artist*).
mimic III [ˈmımık] *v* taqlid qilmoq, o'xshatmoq, xuddi o'zi bo'lmoq.
minaret [ˌmınəˈret] *n arab.* minora, minor.
minatory [ˈmınətərı] *a* 1) xavfli, xatarli, qo'rqinchli; 2) do'q (tahdid) qiladigan; 3) do'q (tahdidni) ifodalaydigan.
mince [mıns] *v* qiymalamoq, burdalamoq, to'g'ramoq.
mincemeat [ˈmınsmi:t] *n* turshak, yong'oq va h.k. aralashmasi.
mind I [maınd] *n* 1) aql-idrok; 2) xotira; 3) fikr.
mind II [maınd] *v* 1) qarshi fikr bildirmoq; **if you don't** ~ agar siz qarshi bo'lmasangiz; 2) eslamoq, esda saqlamoq.
mindless [ˈmaındləs] *a* aqliy qobiliyat talab qilmaydigan.
mine I [maın] *pron. poss.* meniki; **the bag is** – bu sumka meniki.
mine II [maın] **1.** *n* kon; **a gold** ~ oltin koni; **2.** *v* kon ochmoq.
miner [ˈmaınə] *n* 1) konchi; 2) *harb.* minachi.
mineral [ˈmınərəl] **1.** *n* 1) mineral (*qazilma noorganik modda*); 2) *pl* foydali qazilmalar.
mineralogy [ˌmınəˈrælədʒı] *n* mineralogiya (minerallar haqidagi fan).
minethrower [ˈmaınˌθrəuə] n minomyot.
mingle [ˈmıŋgl] *v* aralashib ketmoq.
mingy [ˈmındʒı] *a* 1) *so'zl.* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq; 2) past, pastkash, nazari past, maydagap.
miniature [ˈmınətʃə] *n* 1) miniatura (*qadimgi qo'lyozma va kitoblardagi nafis, bejirim surat*); 2) kichik hajmdagi san'at asari.
minibus [ˈmınıbʌs] *n* marshrutka, mikroavtobus.
minimal [ˈmınıməl] *a* juda kam, juda oz, eng kichik, eng oz, juda kichkina.
minimize [ˈmınımaız] *v* kichraytirib (kamaytirib) ko'rsatmoq.
minimum [ˈmınıməm] *n* eng oz miqdor.
mining [ˈmaınıŋ] *n* 1) kon sanoati, konchilik; 2) *harb. deng.* minalashtirish.
minion [ˈmınjən] *n* 1) sevikli, arzanda, jonajon, eng yaxshi ko'rilgan (hamma sevgan) odam; 2) birovning ko'magida martabaga erishgan odam, birovning arzandasi.
minister [ˈmınıstə] **1.** *n* vazir; **2.** *v* 1) xizmat qilmoq; 2) yordam bermoq.
ministerial [ˌmınısˈtıərıəl] *a* 1) vazirga va vazirlikka oid; 2) hukumatga oid.
ministry [ˈmınıstrı] *n* vazirlik.
mink [mıŋk] *n* norka mo'ynasi.
minor [ˈmaınə] *a* uncha ko'p bo'lmagan, ozgina, biroz.
minority [maıˈnɔrətı] *n* 1) kamchilik, ozchilik; 2) balog'atga yetmaganlik.
minster [ˈmınstə] *n* bosh cherkov; eng katta butxona; jome.
mint [mınt] *n bot.* yalpiz.
minus [ˈmaınəs] **1.** *n* minus; **2.** *n* minus belgisi.
minuscule [ˈmınəskju:l] *n* juda kichkina.
minute [ˈmınıt] *n* 1) daqiqa; 2) lahza, on.
minutiae [maıˈnju:ʃı:] *pl n* mayda-chuyda narsalar; arzimagan (arzimas) narsa; ikir-chikir narsalar.
minx [mıŋks] *n* 1) tannoz ayol, ishvagar ayol; 2) sho'x (o'yinqaroq, havoyi) qiz *yoki* ayol.
miracle [ˈmırəkl] *n* mo'jiza.
miraculous [mıˈrækjuləs] *a* mo'jizaviy, g'ayritabiiy.

mirage [mɪrɑ:ʒ] *n* 1) sarob; 2) *ko'chm.* xom xayol.
mire [ˈmaɪə] *n* botqoq, botqoqlik, loy, balchiq.
mirror [ˈmɪrə] *n* ko'zgu, oyna.
mirth [mə:θ] *n* shodlik, xursandchilik, vaqtichog'lik.
mis- [mɪs-] *pref.* noto'g'ri, yolg'on degan ma'nolarni ifodalovchi old qo'shimcha; *masalan*: **misunderstand** noto'g'ri tushunmoq.
misadventure [ˌmɪsədˈventʃə] *n* badbaxtlik; omadsizlik.
misapprehension [ˌmɪsæprɪˈhenʃn] *a* tushunmovchilik, xato (noto'g'ri) tushunish.
misappropriate [ˌmɪsəˈprəuprɪeɪt] *v* 1) g'ayriqonuniy o'zlashtirmoq, egallab (o'ziniki qilib) olmoq; 2) kamomad qilmoq; qonunsiz (jinoyatkorona) sarflab yubormoq.
misbehave [ˌmɪsbɪˈheɪv] *v* o'zini yomon tutmoq.
miscalculate [ˌmɪsˈkælkjuleɪt] *v* yanglish hisoblamoq, oshiq hisoblamoq.
miscarriage [ˌmɪsˈkærɪdʒ] *n* 1) omadsizlik; 2) chala tushgan bola; bola tashlash.
miscarry [mɪsˈkærɪ] *v* muvaffaqiyatsizlikka uchramoq.
miscellaneous [ˌmɪsəˈleɪnɪəs] *a* turli-tuman, har xil, xilma-xil.
mischance [ˌmɪsˈtʃɑ:ns] *n* muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik.
mischief [ˈmɪstʃɪf] *n* 1) sho'xlik, shumlik; 2) zarar, ziyon.
mischievous [ˈmɪstʃɪvəs] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, zararkunanda.
misconception [ˌmɪskənˈsepʃn] *n* anglashilmovchilik, noto'g'ri tasavvur.
misconduct [ˌmɪsˈkɔndʌkt] *n* yomon xulq, yomon muomala.
misconstrue [ˌmɪskənˈstru:] *v* noto'g'ri talqin qilmoq, tushuntirib (izohlab, sharhlab) bermoq.
miscount [ˌmɪsˈkaunt] **1.** *n* hisobda yanglishish, hisobda xatoga yo'l qo'yish; xato sanash; **2.** *v* hisobda yanglishmoq, hisobda xatoga yo'l qo'ymoq, xato sanamoq.
miscreant [ˈmɪskrɪənt] **1.** *n* yaramas, ablah, nobakor, razil, qabih, past odam; **2.** *a* axloqi buzuq, axloqsiz, yomon, fosiq.
misdeed [ˌmɪsˈdi:d] *n* 1) jinoiy harakat, jinoyat, yovuzlik; 2) xato ish, xatolik, xato.
misdemeanour [ˌmɪsdɪˈmi:nə] *n so'zl.* xato, ayb, nojo'ya ish.
miser [ˈmaɪzə] *n* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq odam.
miserable [ˈmɪzərəbl] *a* 1) ayanchli, achinarli; g'amgin; 2) yoqimsiz, yomon; 3) juda oz; sifatsiz.
miserably [ˈmɪzərəblɪ] *adv* qayg'uli, g'amgin, ma'yus.
miserly [ˈmaɪzəlɪ] *a* qurumsoq, xasis, ziqna.
misery [ˈmɪzərɪ] *n* baxtsizlik, qashshoqlik, kambag'allik.
misfire [ˌmɪsˈfaɪə] *n* muvaffaqiyatsizlik, ish yurishmay qolish.
misfit [ˈmɪsfɪt] *n* moslashmagan (qovushmagan) odam.
misfortune [mɪsˈfɔ:tʃən] *n* baxtsizlik; balo, ofat; musibat.
misgiving [mɪsˈgɪvɪŋ] *n pl* qo'rqish, xavfsirash, cho'chish.
misguide [mɪsˈgaɪd] *v* noto'g'ri yo'lga boshlamoq, adashtirmoq.
mishap [ˈmɪshæp] *n* muvaffaqiyatsizlik.
misinform [ˌmɪsɪnˈfɔ:m] *v* notog'ri ma'lumot bermoq, chalg'itmoq, adashtirmoq.
misinterpret [ˌmɪsɪnˈtə:prɪt] *v* noto'g'ri (xato) tushunmoq.
misinterpretation [ˌmɪsɪntə:prɪˈteɪʃn] *n* noto'g'ri (xato) tushunish.
misjudge [ˌmɪsˈdʒʌdʒ] *v* 1) noto'g'ri fikrda bo'lmoq; 2) qadriga yetmaslik, nazar-pisand qilmaslik.
misjudgement [mɪsˈdʒʌdʒmənt] *n* noto'g'ri fikr, noto'g'ri talqin qilish.
mislaid [mɪsˈleɪd] *past., p. p.* **mislay** *dan.*
mislay [mɪsˈleɪ] *v* **(mislaid)** o'z o'rniga qo'ymaslik; yo'qotmoq.
mislead [mɪsˈli:d] *v* **(misled)** noto'g'ri fikr hosil qilmoq.
misleading [mɪsˈli:dɪŋ] **1.** *pres. p.* **mislead** *dan*; **2.** *n* noto'g'ri fikr hosil qiluvchi.
misled [mɪsˈled] *past., p. p.* **mislead** *dan.*
mismanage [ˌmɪsˈmænɪdʒ] *v* yomon (qoniqarsiz) boshqarmoq.
misplace [ˌmɪsˈpleɪs] *v* 1) boshqa joyga qo'ymoq; 2) yo'qotmoq, yo'qotib qo'ymoq.
misprint [ˈmɪsprɪnt] *n* nashr (bosma) xatosi.
mispronounce [ˌmɪsprəˈnauns] *v* noto'g'ri talaffuz qilmoq.
misread [ˌmɪsˈri:d] *v* noto'g'ri o'qimoq; noto'g'ri tushunmoq.
misrepresent [ˌmɪsrepɪˈzent] *v* buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq.
misrepresentation [ˌmɪsreprɪzənˈteɪʃn] *n* noto'g'ri bayonot.
misrule [ˌmɪsˈru:l] **1.** *n* 1) yomon boshqarish, idora qilish; 2) tartibsizlik; **2.** *v* yomon boshqarmoq, idora qilmoq.
miss I [mɪs] *n* miss; xonim; qizcha.
miss II [mɪs] *v* 1) qo'ldan chiqarmoq; 2) kech qolmoq; 3) sog'inmoq.
missile [ˈmɪsaɪl] **1.** *n* 1) raketa, reaktiv snaryad; 2) qurol, aslaha; **2.** *a* reaktiv.
missing [ˈmɪsɪŋ] **1.** *n* (*pl* **the** ~) bedarak yo'qolgan kishilar; **2.** *a* yo'q bo'lgan, kelmagan, qatnashmayotgan.
mission [ˈmɪʃn] *n* topshiriq, jiddiy vazifa.
missionary [ˈmɪʃnərɪ] *n* missioner (*yerli xalqni xristian diniga o'tishga targ'ib qilish uchun o'zga yurtlarga yuborilgan shaxs*).
missive [ˈmɪsɪv] *n* rasmiy noma, maktub, xat.
mis-spell [ˌmɪsˈspel] *v* hatlarni noto'g'ri aytmoq, so'zlarni noto'g'ri yozmoq.

mis-spelt [ˌmɪsˈspelt] *past., p. p.* **mis-spell** *dan.*
mis-spend [ˌmɪsˈspend] *v* (**mis-spent**) bekorga sarflamoq (*pul va b.*).
mis-spent [ˌmɪsˈspent] = **mis-spend**.
mis-state [ˌmɪsˈsteɪt] *v* noto'g'ri bayonot bermoq, yolg'on xabar bermoq.
mis-statement [ˌmɪsˈsteɪtmənt] *n* noto'g'ri, yolg'on ma'lumot.
mist [mɪst] *n* 1) tuman; 2) aniq ko'rishga xalal beradigan holat; 3) (*havodagi, osmondagi*) g'ubor, chang-to'zon.
mistake [mɪˈsteɪk] **1.** *n* xato, adashish; **2.** *v* adashmoq, xato qilmoq.
mistaken [mɪˈsteɪkən] **1.** *p. p.* **mistake 2.** *dan*; **2.** *a* xato, yanglish, noto'g'ri.
mister [ˈmɪstə] *n* janob.
mistletoe [ˈmɪslˌtəu] *n bot.* omela (*daraxtlarga yopishib yashaydigan doim yashil buta*).
mistook [mɪsˈtuk] *pl* **mistake 2.** *dan.*
mistreat [ˌmɪsˈtri:t] *amer.* = **maltreat.**
mistress [ˈmɪstrəs] *n* 1) xo'jayin (*ayol*); 2) uy bekasi.
mistrust [ˌmɪsˈtrʌst] *n* ishonchsizlik, ishonmaslik.
misty [ˈmɪstɪ] *adv* 1) tumanli; 2) qorong'i; 3) noaniq.
misunderstand [ˌmɪsʌndəˈstænd] *v* (**misunderstood**) noto'g'ri tushunmoq; **~ing** tushunmovchilik; anglashilmovchilik.
misunderstood [ˌmɪsʌndəˈstud] *past., p p.* **misunderstand**.
mite [maɪt] *n* kana, jo'lak.
mitigate [ˈmɪtɪgeɪt] *v* yumshatmoq, yengillashtirmoq; oddiylashtirmoq.
mitten [ˈmɪtn] *n* boshmaldoqli qo'lqop.
mix [mɪks] *v* 1) aralashtirib yubormoq; aralashtirmoq; 2) chalkashtirmoq; chigallashtirmoq.
mixed [ˈmɪkst] *a* aralash, qo'shma, aralashtirilgan.
mixer [ˈmɪksə] *n* qorishtiruvchi mashina, qorishtirgich.
mixture [ˈmɪkstʃə] *n* aralashma, qorishma.
mix-up [ˈmɪksʌp] **1.** *n* chigallik, chalkashlik, chatoqlik, fikrlashdagi chalkashlik; **2.** *v* 1) yaxshi aralashtirmoq; 2) chalkashtirib yubormoq.
mo [məu] *n* (*so'zl.* **moment** *so'zining qisqartirilgan shakli*) lahza, on, payt, fursat, mavrid.
moan [məun] **1.** *n* nola; **2.** *v* ingramoq, nola qilmoq.
moat [məut] *n* suv to'ldirilgan chuqur, xandaq.
mob I [mɔb] *n* olomon, to'da, betartib yig'in.
mob II [mɔb] *v* to'planmoq, to'planib turmoq.
mobile [ˈməubaɪl] *a* 1) harakatchan, chaqqon; 2) ko'chma; 3) o'zgaruvchan, beqaror; 4) qo'l telefoni.
mobility [məuˈbɪlətɪ] *n* 1) harakatchanlik, chaqqonlik; 2) o'zgaruvchanlik; betayinlik.
mobilization [ˌməubəlaɪˈzeɪʃn] *n* safarbar qilish, safarbarlik.
mobilize [ˈməubəlaɪz] *v* safarbar etmoq.
mock [mɔk] *v* masxara (*mazax*) qilmoq; xo'rlamoq; **~er** masxaraboz.
modal [ˈməudl] *a* modal; **~ verb** modal fe'l.
mode [məud] *n* tur, xil, nav; usul.
model [ˈmɔdl] *n* 1) andaza; 2) namuna, ibrat.
modem [ˈməudem] *n* modem.
moderate [ˈmɔdərət] *a* 1) o'rtacha (*sifat haqida*); 2) o'zini tuta biladigan, og'ir, vazmin.
moderation [ˌmɔdəˈreɪʃn] *n* o'zini tutish; og'irlik qilish.
modern [ˈmɔdən] *a* yangi, zamonaviy, hozirgi; **~ architecture** zamonaviy me'morchilik.
modernization [ˌmɔdənaɪˈzeɪʃn] *n* zamonaviylashtirish (*zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, yangilash*).
modernize [ˈmɔdənaɪz] *v* zamonaviylashtirmoq.
modest [ˈmɔdəst] *a* sodda, kamtar.
modesty [ˈmɔdəstɪ] *n* kamtarlik.
modification [ˌmɔdɪfɪˈkeɪʃn] *n* o'zgartirish; o'zgarish.
modify [ˈmɔdɪfaɪ] *v* o'zgartirmoq.
modulate [ˈmɔdjuleɪt] *v* 1) *mus.* tuslanmoq (*musiqiy ton, tovush haqida*); 2) *fiz.* o'zgartirmoq.
module [ˈmɔdju:l] *n* bo'lim, qism, parcha.
mohair [ˈməuheə] *n* moxer (*angorka juni*).
moist [mɔɪst] *a* zax, ho'l, nam; **~y** zaxlik, namlik.
moisten [ˈmɔɪsn] *v* namlamoq, xo'llamoq.
moisture [ˈmɔɪstʃə] *n* namlik, zax.
molar [ˈməulə] *n* oziq tish, jag' tishi.
molasses [məuˈlæsɪz] *n pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) quyuq shinni, qiyom.
mold [məuld] *n* po'panak, mog'or; **grow ~** mog'orlamoq, mog'or bosmoq.
Moldavian [mɔlˈdeɪvɪən] **1.** *a* Moldaviyaga va moldavanlarga oid, moldavancha; **2.** *n* 1) moldavan, moldavan ayol; 2) moldavan tili.
mole I [məul] *n* 1) xol; 2) krot (*yer ostida yashaydigan bir turli sutemizuvchi hayvon*).
mole II [məul] *n* to'lqin to'sar; to'g'on.
molecular [məˈlekjulə] *a* molekular, molekulaga oid.
molecule [ˈmɔlɪkju:l] *n* molekula.
molest [məˈlest] *v* shilqimlik qilmoq; bezor qilmoq.
mollify [ˈmɔlɪfaɪ] *v* 1) yumshatmoq, muloyimlashtirmoq; 2) tinchitmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin (orom) bermoq, xotirjam qilmoq.
molly-coddle [ˈmɔlɪˌkɔdl] **1.** *n* nozik-nihol odam; **2.** *v* erkalamoq, erkalatmoq, suymoq.
molt [məult] = **moult.**
molten [ˈməultən] *a* 1) erigan, eritilgan; 2) quyilgan, quyma.
mom [mɔm] *n so'zl. amer.* ona.
moment [ˈməumənt] *n* lahza, payt, on; **just a ~** hozir, bir daqiqa.
momentarily [ˈməumənterəlɪ] *adv* bir lahzaga, bir zumga.
momentary [ˈməumənterɪ] *a* bir lahzali, bir zumli.
momentous [məuˈmentəs] *a* o'ta muhim, katta ahamiyatga ega.

momentum [məʊˈmentəm] *fiz. n* 1) harakatga keltiruvchi kuch; 2) harakat miqdori.
mommy [ˈmɔmɪ] *n so'zl.* oyi; ona.
monarch [ˈmɔnək] *n* monarx, podsho, hokimi mutlaq.
monarchy [ˈmɔnəkɪ] *n* monarxiya (*hokimiyat bir kishining-monarxning qo'lida bo'lgan davlat tuzumi va shunday davlatning o'zi*).
monastery [ˈmɔnəstərɪ] *n* erkaklar monastiri.
Monday [ˈmʌndɪ] *n* dushanba.
monetary [ˈmʌnɪtərɪ] *a* 1) tanga-chaqaga, oltin pulga oid; 2) pulga oid; 3) valutaga oid.
money [ˈmʌnɪ] *n* pul; boylik; – **lender** sudxo'r.
Mongol [ˈmɔŋgəl] **1.** *a* Mongoliyaga va mongollarga oid, Mongoliyaga va mongollarga xos bo'lgan; mongolcha; **2.** *n* 1) mongol, mongol ayol; 2) mongol tili.
Mongolian [mɔŋˈgəʊlɪən] = **Mongol.**
mongrel [ˈmʌŋgrəl] **1.** *n* ko'ppak it, ko'ppak; **2.** *a* aralash, duragay.
monition [məˈnɪʃn] *n* ogohlantirish, tanbeh.
monitor [ˈmɔnɪtə] *n* 1) boshliq; maslahatchi; 2) sinf boshlig'i.
monk [mʌŋk] *n* 1) monax, rohib; 2) darvish.
monkey [ˈmʌŋkɪ] *n* 1) maymun; 2) loydan yasalgan uzun bo'g'izli ko'za.
monkey-wrench [ˈmʌŋkɪrentʃ] *n tex.* keriladigan gayka (kluchi) kaliti (*har qanday gaykaga tushadigan qilib sozlanadigan asbob*).
monologue [ˈmɔnəlɔg] *n* monolog (*so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchilarga, tomoshabinlarga qaratilgan nutqi*).
monopolist [məˈnɔpəlɪst] *n* monopolist, yirik kapitalist.
monopolistic [məˌnɔpəˈlɪstɪk] *a* 1) monopolistik, monopoliyaga asoslangan; 2) monopoliyaga qarashli, monopoliyadan iborat bo'lgan.
monopolize [məˈnɔpəlaɪz] *v* monopoliya qilib olmoq, monopoliyaga aylantirmoq.
monopoly [məˈnɔpəlɪ] *n* monopoliya (*biror narsa ishlab chiqarishda, biror narsadan foydalanishda va u bilan savdo qilishda, bir kishi yoki tashkilot, davlat qo'lida bo'lgan tanho huquq*).
monorail [ˈmɔnəureɪl] *n* bir izli osma temir yo'l.
monosyllable [ˈmɔnəuˌsɪləbl] *n gram.* bir bo'g'inli so'z.
monotone [ˈmɔnətəun] *n* bir xilda bo'lgan, o'xshash ovoz.
monotonous [məˈnɔtənəs] *a* 1) bir ohangdagi, bir ovozli; 2) hamisha bir xil, o'zgarmaydigan, zerikarli.
monotony [məˈnɔtənɪ] *n* bir xillik.
monoxide [məˈnɔksaɪd] *n* oksid; bir turli oksid.
Monsieur [məˈsjə:] *n fr.* janob, mosey (*Fransiyada erkaklarga murojaat shakli*).
monsoon [ˌmɔnˈsu:n] *n* 1) musson (*qishda dengiz tomon, yozda dengizdan quruqlikka tomon esadigan shamol*); 2) yomg'ir mavsumi.
monster [ˈmɔnstə] *n* 1) xunuk, badbashara, bahaybat (*qo'rqinchli odam va hayvonlar haqida*); 2) xunuk (badbashara) odam.
monstrous [ˈmɔnstrəs] *a* dahshatli, bahaybat.
month [mʌnθ] *n* oy.
monthly [ˈmʌnθlɪ] **1.** *a* oyda bir bo'ladigan, oylik, har oygi; **2.** *adv* oyma-oy, oy sayin, har oyda.
monument [ˈmɔnjumənt] *n* haykal, yodgorlik.
monumental [ˌmɔnjuˈmentl] *a* hashamatli, ulug'vor (*binoga nisbatan qo'llaniladi*).
moo [mu:] *n* ma'rash (*molning ovozi*).
mood [mu:d] *n* 1) kayfiyat; ahvol; 2) *gram.* mayl.
moody [ˈmu:dɪ] *a* 1) ma'yus, g'amgin, xafa; 2) yomon kayfiyatda.
moon [mu:n] *n* oy.
moonlight [ˈmu:nlaɪt] *n* oy nuri, oydin, oy yorug'ligi.
moonlit [ˈmu:nlɪt] *a* oy nuriga to'lib ketgan.
moonshine [ˈmu:nʃaɪn] *n* 1) oy nuri, oy yorug'ligi; 2) bema'ni (bo'lmag'ur, bekor, behuda) gap, safsata.
moonstruck [ˈmu:nstrʌk] *a* miyasi aynigan, aqldan ozgan, telba, savdoyi, jinni, devona.
Moor [muə] *n tar.* mavrlar (*qadimgi va o'rta asrlarda Mavritaniya, hozir Mavritaniya Islom Respublikasi deb atalgan, shimoliy-g'arbiy Afrikada joylashgan mamlakat xalqi*).
moor I [muə] *n* ov qiladigan joy.
moor II [muə] *v* 1) (*kema, dirijabl kabilarni to'xtash joyiga*) bog'lab qo'ymoq; 2) langar tashlamoq, langar tashlab to'xtatmoq.
moose [mu:s] *n* los (*bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon*).
moot [mu:t] **1.** *a* janjalli, munozarali, talash; **2.** *v* muhokamaga qo'ymoq, muhokama qilmoq.
mop [mɔp] *n* shvabra, polyuvgich.
mope [məup] *n* ma'yuslik, zerikish, siqilish.
moped [ˈməuped] *n* motorli velosiped, moped (*pedalli mototsikl*).
moppet [ˈmɔpɪt] *n* chaqaloq, go'dak.
moral [ˈmɔrəl] *a* 1) ma'naviy; 2) ruhiy; 3) axloqiy, odob-axloqqa oid.
morale [məˈrɑ:l] *n* ruhiy holat.
morality [məˈrælɪtɪ] *n* 1) axloq, odob; 2) etika (*odob-axloq qoidalari, normalari*); 3) o'git, pand, nasihat.
moralize [ˈmɔrəlaɪz] *v* nasihatgo'ylik qilmoq, pand-nasihat qilmoq.
morass [məˈræs] *n* botqoq, botqoqlik, ichiga tortib ketadigan botqoqlik.
morbid [ˈmɔ:bɪd] *a* kasalmand, tez-tez kasal bo'lib turadigan.
mordant [ˈmɔ:dənt] **1.** *a* 1) istehzoli, achchiq, zahar, qattiq botadigan, uzib oladigan; 2) o'tkir, o'yuvchi, yeyuvchi, achishtiradigan (*kimyoviy moddalar haqida*); **2.** *n* 1) *so'zl.* hasharotlarni qiradigan dori; 2) tezob (*biror narsani yedirib o'yib naqsh solish ishlarida ishlatiladigan dori*).

more I [mɔ:] *a* katta (ko'p) qismi, aksariyati.
more II [mɔ:] *adv* ko'proq.
moreover [mɔ:'rəuvə] *a* undan tashqari, uning ustiga.
morgue [mɔ:g] *n* 1) morg, o'likxona; 2) manmanlik, dimog'dorlik.
moribund ['mɔribʌnd] *a* 1) o'layotgan, o'lib borayotgan; 2) oshini oshagan, yoshini yashagan, umri tugagan, qarib qolgan.
morn [mɔ:n] *n* 1) *shoir.* erta, ertalab, tong; 2) (**the** ~) *shotl.* ertasi kun, ertangi kun; **the ~'s morning** ertaga ertalab.
morning ['mɔ:niŋ] **1.** *n* ertalab; tong; azon; **~ star** tongi yulduz; **good~** salom (*ertalabki salomlashuv*), **2.** *attr.* ertalabki, erta bilan bo'ladigan.
morocco [mə'rɔkəu] **1.** *n* (*pl* **-os** [-əuz]) saxtiyon teri; saxtiyon (*echki yoki qo'y terisidan pishirilgan charm*).
moron ['mɔ:rɔn] *n* aqli kam, aqli (past) zaif.
morose [mə'rəus] *a* qayg'uli, g'amgin, xafa, ma'yus.
morphology [mɔ:'fɔlədʒi] *n gram.* morfologiya.
morrow ['mɔrəu] *n* 1) ertangi kun; 2) tong, ertalab, sahar.
Morse [mɔ:s] : **~ code** Morze alifbosi (*harf va raqamlar, nuqta va tirelar bilan ko'rsatilgan shartli telegraf belgilari sistemasi*).
morse [mɔ:s] *n zool.* morj.
morsel ['mɔ:sl] *n* bir tishlam, kichkina bo'lak.
mortal ['mɔ:tl] *a* 1) o'limga olib keladigan, o'ldiradigan; 2) qahri qattiq, shafqatsiz, rahmsiz.
mortality [mɔ:'tæləti] *n* 1) o'ldiradigan, halokatli; 2) o'lim soni, miqdori.
mortar I ['mɔ:tə] *n* ohak qorishma, ohakli loy.
mortar II ['mɔ:tə] *n* mortira (*qisqa stvolli to'p*).
mortgage ['mɔ:gidʒ] *n* 1) garov; 2) garov xati.
mortician [mɔ:'tiʃn] *n amer.* tobutsoz, tobutchi.
mortification [,mɔ:tifi'keiʃn] *n* 1) ruhi tushganlik, tushkunlik, ma'yuslik, dili xuftonlik; 2) ko'ngil qolish, ko'ngil sovish, ixlosi qaytish; 3) *tib.* gangrene (*biologik to'qima yoki biror a'zoning jonsizlanib tiriklayin chirishi*); qorason kasalligi.
mortify ['mɔ:tifai] *v* 1) xafa qilmoq, ko'nglini ranjitmoq, dilini og'ritmoq, dilini siyoh qilmoq; 2) yengmoq (*qo'rquvni*); 3) o'ldirmoq, sezmaydigan (karaxt) qilib qo'ymoq (*tanani, badanni*).
mortuary ['mɔ:tjuəri] *n* morg, o'likxona.
mosaic [məu 'zeiik] *n* mozaika (*naqsh ishlash san'ati*).
Moslem ['mɔzləm] **1.** *n* musulmon, musulmon ayol; **2.** *a* islom diniga va musulmonlarga oid.
mosque [mɔsk] *n* masjid, machit.
mosquito [mə'ski:təu] *n* mayda chivin, iskabtopar.
moss [mɔs] *n bot.* mox, yo'sin.
moss-back ['mɔsbæk] *n* ashaddiy eskilik tarafdori.
most [məust] *a* eng, eng ko'p; **~ly** asosan.
mote [məut] *n* 1) chang zarrachasi, gard; 2) kichkina dog', dog'cha.
motel [məu'tel] *n* motel (*mehmonxona turi*).
moth [mɔθ] *n* kapalak, parvona, kuya, tun kapalagi.
moth-eaten ['mɔθi:tn] *a* 1) kuya yegan; 2) eskirgan, to'zgan, yeyilgan, yeyilib (eskirib) ishdan chiqqan.
mother ['mʌðə] *n* ona, oyi.
motherhood ['mʌðəhud] *n* onalik, onalarga xos mehr-muhabbat; 2) onalik (*ayollarning homiladorlik, tug'ish va bola emizish davridagi holati*).
mother-in-law ['mʌðərin,lɔ:] *n* qaynana.
motherland ['mʌðəlænd] *n* Vatan, ona-yurt.
motherly ['mʌðəli] *a* onalik.
mother of pearl [,mʌðərəv 'pə:l] *n* sadaf.
mother's mark ['mʌðəzmɑ:k] *n* tug'ma dog'.
motif ['məu'ti:f] *n fr.* asosiy fikr, g'oya.
motion ['məuʃn] **1.** *n* harakat, imo, ishora; **2.** *v* (imo) ishora bilan ko'rsatmoq.
motivate ['məutiveit] *v* 1) (*biror ish qilishga*) undamoq, majbur etmoq; 2) asoslamoq, dalil ko'rsatmoq.
motive ['məutiv] *n* sabab, bahona, vaj, bois.
motley ['mɔtli] **1.** *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli, xilma-xil, turli-tuman; **2.** *n* turli musiqa asarlaridan olib tuzilgan terma musiqa asari.
motor ['məutə] *n* 1) dvigatel, motor; 2) avtomobil; 3) motorli qayiq; 4) *anat.* harakatlantiruvchi mushak; harakatlantiruvchi asab.
motor-car ['məutəkɑ:] *n* yengil avtomobil.
motor cycle ['məutə,saikl] *n* mototsikl.
mottle ['mɔtl] **1.** *n* maydaxol, ziraxol, kichkina dog', dog'cha; **2.** *v* 1) tomchilamoq, maydalab yog'moq; 2) yozib (chizib) tashlamoq; har xil narsalar bilan to'ldirib tashlamoq.
motto ['mɔtəu] *n* 1) shior; 2) epigraf (*adabiy asarning tepasiga yozilgan jumla, ibora*).
mould I [məuld] *n* mog'or, po'panak.
mould II [məuld] *v* mog'or bosmoq, po'panak bosmoq, mog'orlamoq.
mould III [məuld] *n* metall quyiladigan maxsus qolip.
mould IV [məuld] *n* chopilgan yer.
moulder ['məuldə] *n* quyuvchi; qolipchi.
moult [məult] **1.** *n* tullash (*qushlar haqida*); **2.** *v* tullamoq, po'st tashlamoq (*qushlar haqida*).
mound [maund] *n* do'ng, ko'tarma; o'yib yasalgan tepalik.
mount [maunt] **1.** *v* ko'tarilmoq, yuksalmoq; oshmoq; **2.** *n* tepalik, balandlik.
mountain ['mauntin] *n* 1) tog'; 2) g'aram; **~eer** tog'li joyda yashovchi kishi.
mountaineering [,mauntli'niəriŋ] *n* alpinizm (*baland tog'larga, tog' cho'qqisiga ko'tarilish sporti*).

mountainous [ˈmauntɪnəs] *a* 1) tog'li, o'r-soyli; 2) ulkan, juda katta, azim, haybatli, mahobatli.

mountebank [ˈmauntɪbæŋk] **1.** *n* 1) masxaraboz, qiziqchi, hazilkash, nayrangboz; 2) aldamchi, aldoqchi, tovlamachi, firibgar; **2.** *v* 1) ahmoqlik (tentaklik) qilmoq, maynabozchilik (jinnilik) qilmoq; 2) qalloblik qilmoq, muttahamlik (g'irromlik) qilmoq; 3) aldamoq, chalg'itmoq, yolg'on gapirmoq.

mounting [ˈmauntɪŋ] **1.** *pres. p.* **mount 1.** *dan*; **2.** *n* 1) qo'yish, o'rnatish, qurish, o'tkazish; 2) montaj, montaj qilish, yig'ish.

mourn [mɔ:n] *v* 1) aza tutmoq; 2) nolimoq, zorlanmoq; 3) yig'lamoq, ko'z yosh to'kmoq; **–ing** qayg'u, dard-alam, ta'ziya, motam.

mouse [maus] *n* (*pl* **mice**) sichqon; **~ trap** qopqon (*sichqon tutadigan*).

mousse [mu:s] *n fr.* muss (*shirinliklardan tayyorlangan taom*).

moustache [məˈstɑ:ʃ] *n* mo'ylov.

mouth [mauθ] *n* og'iz; **from ~ to ~** og'izdan og'izga.

mouth-organ [ˈmauθˌɔ:gən] *n* nag'ma.

mouthpiece [ˈmauθpi:s] *n* mundshtuk (*puflab chalinadigan asboblarning og'izga olinadigan qismi*).

movable [ˈmu:vəbl] *a* qo'zg'aladigan, siljiydigan, harakatlanadigan.

move [mu:v] **1.** *n* harakat, siljish, yurish; **2.** *v* harakatga keltirmoq, harakat qilmoq, surmoq, surilmoq.

movement [ˈmu:vmənt] *n* 1) harakat, faoliyat; 2) siljish, joyidan qo'zg'ash.

movie [ˈmu:vɪ] *n* 1) kinofilm; 2) *pl* kino sanoati.

movies [ˈmu:vɪz] *pl so'zl.* film, kinokartina.

moving [ˈmu:vɪŋ] **1.** *pres. p.* **move 2.** *dan*; **2.** *a* 1) ta'sirli; 2) harakatlanuvchi; **~ pictures** kino.

mow [məu] **1.** *n* 1) g'aram; to'p; 2) bedaxona, pichanxona; **2.** *v* 1) g'aramlamoq; 2) o'rmoq.

mown [məun] *p. p.* **mow 2** *dan*.

Mr. [ˈmɪstə] *n* janob (**mister** *so'zining qisqartirilgan shakli*).

Mrs. [ˈmɪsɪz] *n* xonim, miss (**mistress** *so'zining qisqartirilgan shakli*).

much [mʌtʃ] *a* (**more; most**) *adv* mo'l; ko'p, juda.

mucilage [ˈmju:sɪlɪdʒ] *n* 1) o'simlik yelimi; 2) shilimshiq, shilliq; 3) shilimshiq parda, shilliq o'tirindi.

muck [mʌk] *n* 1) go'ng, tezak; 2) *so'zl.* iflos, kir.

muck-rake [ˈmʌkreɪk] *v* siyosiy nayrangni har tomonlama tekshirib chiqib fosh etmoq.

mucous [ˈmju:kəs] *a anat.* shilliq, shilimshiq; **~ membrane** shilliq parda.

mucus [ˈmju:kəs] *n* shilimshiq, shilliq.

mud [mʌd] *n* shilta loy, botqoq, balchiq, loyqa.

muddle [ˈmʌdl] *v* adashtirmoq, chalkashtirmoq, gangitmoq.

muddy [ˈmʌdɪ] *a* iflos; loyqa, loyga belangan.

muesli [ˈmju:zlɪ] *n* myusli (*nonushtaga tortiladigan sutli taom*).

muff I [mʌf] *n tex.* mufta (*ikki valni, o'qni ulovchi qism yoki mexanizm*).

muff II [mʌf] **1.** *n* 1) ishning uddasidan chiqa olmaydigan (tajribasiz, mahoratsiz) kishi; 2) xato, yanglish, kamchilik; 3) muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik; **2.** *v* xato qilmoq, yanglishmoq.

muffin [ˈmʌfɪn] *n* 1) yopilgan shirin bo'lka non; 2) tovada pishirilgan qalin qaymoqsimon non.

muffle I [ˈmʌfl] *n* charm qo'lqop.

muffle II [ˈmʌfl] *v* o'ramoq; o'rab qo'ymoq; burkab qo'ymoq.

mufti [ˈmʌftɪ] *arab. n* 1) mufti (*shariat qonunlarini talqin qiluvchi, shariat va huquq masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi kishi*); 2) *so'zl.* oddiy ko'ylak.

mug [mʌg] *n* krujka (*choy ichadigan idish*); **a ~ of coffee** bir krujka qahva.

mugger [ˈmʌgə] *n* 1) *so'zl.* bosqinchi; 2) sopol buyumlar sotuvchisi; 3) *zool.* hind timsohi.

mugging [ˈmʌgɪŋ] *n* 1) bezorilik; 2) guruh bo'lib tashlanish, guruh bo'lib hamla (hujum) qilish.

muggy [ˈmʌgɪ] *a* dim, dimiqtiradigan (*ob-havoga nisbatan qo'llaniladi*).

mulberry [ˈmʌlbərɪ] *n* 1) *bot.* tut daraxti; 2) tut mevasi; 3) *atrr.* to'q qizil, qip-qizil.

mule I [mju:l] *n* 1) xachir; 2) duragay, chatishma; 3) *tex.* ittargich (*poyezdni ketidan*).

mule II [mju:l] *n* shippak, uyda kiyiladigan tufli.

mulish [ˈmju:lɪʃ] *a* qaysar.

multi- [ˈmʌltɪ-] *pref. murakkab so'zlarda* ko'p *degan ma'noni beradi.*

multifarious [ˌmʌltɪˈfeərɪəs] *a* turli-tuman, xilma-xil, har xil, rang-barang.

multiform [ˈmʌltɪfɔ:m] *a* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang.

multilateral [ˌmʌltɪˈlætərəl] *a* har tomonlama, serqirra.

multinational [ˌmʌltɪˈnæʃənəl] *a* ko'p millatli.

multiparty [ˌmʌltɪˈpɑ:tɪ] *a* ko'p partiyali.

multiple [ˈmʌltɪpl] *a* 1) tarkibiy, murakkab, tuzilishi murakkab bo'lgan; qo'shma; 2) ko'p bilim, qismlardan iborat bo'lgan; 3) karrali son, qoldiqsiz bo'linadigan son.

multiplication [ˌmʌltɪplɪˈkeɪʃn] *n* 1) *mat.* ko'paytirish; 2) oshirish, orttirish, o'stirish.

multiplicity [ˌmʌltɪˈplɪsətɪ] *n* 1) murakkablik; 2) xilma-xillik, har xillik.

multiply [ˈmʌltɪplaɪ] *v mat.* ko'paytirmoq, ko'paytmoq, oshirmoq.

multitude [ˈmʌltɪtju:d] *n* 1) ko'p, juda ko'p; anchagina, ko'pgina, birtalay; 2) bir to'da, hisobsiz.

mum [mʌm] *n* ona.

mumble [ˈmʌmbl] *v* javramoq, ming'illamoq, g'uldurlamoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq.

mummery [ˈmʌmərɪ] *n* pantomime (*so'z-siz, imo-ishoralar bilan ko'rsatiladigan tomosha*).
mummy [ˈmʌmɪ] *n* 1) mumiyo (*balzamlab chirimaydigan qilingan jasad*); 2) mumiyo (*qizil mineral bo'yoq*).
mumps [mʌmps] *pl tib.* tepki (*kasallik*).
munch [mʌntʃ] *v* chaynamoq, kavshamoq.
mundane [mʌnˈdeɪn] *a* dunyoviy, el-yurtga oid.
municipal [mjuˈnɪsɪpl] *a* 1) shaharga oid; 2) o'zini o'zi idora qiladigan, o'ziga mustaqil.
munificence [mjuːˈnɪfɪsəns] *n* haddan tashqari saxiylik, qo'li ochiqlik, oliyhimmatlilik, saxovatlilik.
munificent [mjuːˈnɪfɪsənt] *a* haddan tashqari saxiy, qo'li ochiq, oliyhimmat, saxovatli.
munition [mjuːˈnɪʃn] *n* harbiy aslaha, anjomlar (*yarog'-aslaha, o'q-dorilar*).
mural [ˈmjuərəl] *a* 1) devoriy, devorga chizilgan; 2) devorga o'rnatiladigan, devorga osiladigan.
murder [ˈmɜːdə] **1.** *n* o'ldirish, o'ldirib ketish, qatl etish, qotillik; **2.** *v* o'ldirmoq, qotillik sodir etmoq.
murderer [ˈmɜːdərə] *n* qotil; jinoyatchi.
murk [mɜːk] *n* qorong'ilik, zulmat.
murky [ˈmɜːkɪ] *a* zim-ziyo, qoramtir, qorong'i.
murmur [ˈmɜːmə] **1.** *n* shitirlash, shitirlagan ovoz; **2.** *v* 1) jildiramoq (*suv haqida*); 2) pichirlamoq.
muscle [ˈmʌsl] *n* muskul, mushak; **a man of ~** kuchli odam, polvon.
muscular [ˈmʌskjulə] *a* muskullarga, mushaklarga oid.
muse [mjuːz] **1.** *n* 1) muza (*yunon afsonasida: san'at, adabiyot, fan ilohasi, xudosi*); 2) *ko'ch.* ilhom manbayi, ilhom parisi, ilhombaxsh narsa; **2.** *v* o'ylamoq, fikr yuritmoq, mulohaza qilmoq.
museum [mjuːˈziːəm] *n* muzey.
mushroom [ˈmʌʃrum] **1.** *n* qo'ziqorin; **2.** *attr.* qo'ziqoringa o'xshagan.
music [ˈmjuːzɪk] *n* musiqa, kuy, navo; **~-hall** konsert zali; **~ master** musiqa o'qituvchisi.
musical [ˈmjuːzɪkl] *a* 1) musiqiy, ohangdor; 2) musiqaga oid; 3) musiqani yaxshi tushunadigan.
musician [mjuːˈzɪʃn] *n* 1) mashshoq, sozanda; 2) musiqashunos.
musket [ˈmʌskɪt] *n tar.* mushket (*qadimiy pilta miltiq*).
Muslim [ˈmuzləm] **1.** *n* musulmon, musulmon ayol; **2.** *a* islom diniga va musulmonlarga oid.
muss [mʌs] *amer. so'z.* **1.** *n* 1) tartibsizlik, to's-to'polon; 2) chigallik, chalkashlik, chatoqlik; 3) urish, janjal, nizo, araz; **2.** *v* tartibsizlikka olib kelmoq (sabab bo'lmoq).
mussel [ˈmʌsl] *n zool.* qo'shtabaqali chig'anoq.
must [mʌst] **1.** *v* (*zaruriyatni ifodalovchi modal fe'l*) kerak, zarur, lozim; **2.** *n* zaruriyat, majburiyat.
mustache [məˈstɑːʃ] *n* mo'ylov.
mustard [ˈmʌstəd] *n* 1) xantal (*o'simlik*); 2) xantal o'simligi va urug'idan tayyorlangan ziravor.
muster [ˈmʌstə] **1.** *n* 1) yig'ilish, to'planish; 2) ko'rik, ko'rikdan o'tkazish, tekshirib ko'rish; 3) yo'qlama; **2.** *v* 1) yig'moq, bir yerda to'plamoq; 2) yig'ilmoq, bir yerda to'planmoq, yig'ilishmoq, to'planishmoq.
muster-roll [ˈmʌstərəul] *n harb.* shaxsiy tarkib ro'yxati.
musty [ˈmʌstɪ] *a* 1) mog'orlagan, mog'or (*po'panak*) bosgan; 2) eskirgan, eskirib qolgan, iste'moldan chiqqan; 3) qotib qolgan, qoloq, orqada qolgan.
mutable [ˈmjuːtəbl] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan.
mutation [mjuːˈteɪʃn] *n* 1) o'zgarish; 2) teskarilik, noto'g'rilik.
mute [mjuːt] **1.** *a* soqov; **2.** *n* soqov odam.
muted [ˈmjuːtɪd] *a* bo'g'iq, xira (*ovoz haqida*).
mutilate [ˈmjuːtɪleɪt] *v* mayib qilmoq, shikast yetkazmoq.
mutineer [ˌmjuːtɪˈnɪə] *n* isyonchi, isyon qatnashchisi.
mutiny [ˈmjuːtənɪ] *n* isyon, g'alayon.
mutt [mʌt] *n* 1) ahmoq, ablah, kallavaram, to'nka; 2) kichkina it, kuchukcha, laycha.
mutter [ˈmʌtə] *v* ming'illamoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq.
mutton [ˈmʌtn] *n* qo'y go'shti.
mutual [ˈmjuːtʃuəl] *a* 1) o'zaro, ikki tomonlama; 2) birlashgan, qo'shma, umumiy.
mutually [ˈmjuːtʃuəlɪ] *adv* bir-biriga nisbatan, bir-birini, o'zaro.
muz(z) [mʌz] *n so'z.* tushunmasdan yodlovchi, qiroatxon.
muzzle [ˈmʌzl] *n* 1) tumshuq; 2) tumshuqbog', burundiq.
my [maɪ] *pron. poss.* mening, o'zimning.
myocarditis [ˌmaɪəukɑːˈdaɪtɪs] *n tib.* miokardit (*yurak mushaklarining yallig'lanishi*).
myriad [ˈmɪrɪəd] *a* son-sanoqsiz, behisob, ko'p, juda katta, beadad, bitmas-tuganmas.
myrmidon [ˈmɜːmɪdən] *n* laganbardor, xushomadgo'y, malay.
myrrh [mɜː] *n* mirra (*xushbo'y smola turi va shunday smola beradigan daraxt*).
myrtle [ˈmɜːtl] *n bot.* mirt, mirta (*doim yashil, xushbo'y buta, o'simlik*).
myself [maɪˈself] *refl. pron.* 1) o'zim, 2) o'zimni; 3) o'zimcha, o'zimdan-o'zim.
mysterious [mɪˈstɪərɪəs] *a* 1) sirli, maxfiy; 2) aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan.
mystery [ˈmɪstərɪ] *n* 1) sir; 2) maxfiy narsa.
mystical [ˈmɪstɪk(ə)l] *a* tasavvufga asoslangan, tasavvufchi.
mysticism [ˈmɪstɪsɪzm] *n* tasavvuf, mistika.
mystify [ˈmɪstɪfaɪ] *v* 1) aldamoq, laqillatmoq, firib bermoq; 2) chalkashtirmoq, mujmallashtirmoq, tushunib bo'lmaydigan qilib qo'ymoq (*nimaningdir ma=munini*).
mystique [mɪˈstiːk] *n* sirlilik, maxfiylik.

myth [miθ] *n* afsona, uydirma.
mythical [ˈmiθikl] *a* 1) afsonalarda bo'ladigan, afsonaviy; 2) aql bovar qilmaydigan, misli ko'rilmagan; 3) uydirma.

Nn

N, n [en] *n* ingliz tili alifbosining o'n to'rtinchi harfi.
nab [næb] *v* 1) jinoyat ustida ushlamoq, tutmoq, ushlab olmoq; 2) qamamoq, qamoqqa olmoq; 3) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, o'g'irlab olmoq.
nabob [ˈneibɔb] *n tar.* nabob (*Hindistonda yirik musulmon aristokratlarining unvoni va shu unvon sohibi*).
nacelle [næˈsel] *n* 1) havo shari, dirijabl va h.k. ning odam o'tiradigan *yoki* motor o'rnatiladigan kajavasi; 2) samolyotning kabinasi.
nacre [ˈneikə] *n* sadaf (*rang-barang tovlanib turadigan yaltiroq modda*).
nacr(e)ous [ˈneikriəs] *a* sadafga oid, sadaf...
nadir [ˈneidiə] *n* 1) eng past daraja; 2) juda ham yomon ahvolga tushish; **to be at the ~ of one's hope** barcha umidlari puchga chiqmoq.
nag I [næg] *n so'zl.* kichkina ot, pastak ot, toti ot.
nag II [næg] *v* aybsitmoq, gina qilmoq, asossiz ayblamoq, tirnoq ostidan kir izlamoq.
nagger [ˈnægə] *n* 1) vaysaqi, javraqi, ezma, sergap kishi; 2) janjalkash ayol.
nagging I [ˈnægiŋ] *a* sergap, ezma, vaysaqi.
nagging II [ˈnægiŋ] *n* ezmalik qilish, javrash, vaysash.
nail I [neil] *n* 1) mix; 2) tirnoq.
nail II [neil] *v* mix qoqmoq, mixlamoq.
nail-brush [ˈneilbrʌʃ] *n* tirnoq cho'tkasi.
naildrawer [ˈneil,drɔ ə] *n* mix tortadigan asbob.
nailed-up [ˈneild,ʌp] *a* bir amallab qilingan, qo'l uchida qilingan.
nailer [ˈneilə] *n* mix yasaydigan kishi.
nailery [ˈneilərɪ] *n* mix fabrikasi, mix ishlab chiqaradigan fabrika.
nail-head [ˈneilhed] *n* mixning qalpog'i.
nailing [ˈneilɪŋ] **1.** *pres. p.* **nail 2.** *dan*, **2.** *a* juda yaxshi, juda soz, ajoyib.
nail-scissors [ˈneilsizəz] *n pl* tirnoq oladigan qaychi.
nainsook [ˈneinsuk] *n* nansuk (*gazlama*).
naive [nɑˈi:v] *a* sodda, go'l, laqma; **~ness** soddalik.
naivety [nɑˈi:vətɪ] *n* soddalik, go'llik, soddadillik.
naked [ˈneikid] *a* yalang'och; **stark ~** qip-yalang'och.
namby-pamby [ˌnæmbiˈpæmbi] **1.** *n* qiliqdorlik; noz-karashma, ishvagarlik; **2.** *a* nozli, noz-karashmali, ishvagar.
name I [neim] *n* 1) ism, ot, nom; 2) obro'.
mythological [ˌmiθəˈlɔdʒikl] *a* afsonaga oid, afsonaviy.
mythology [miˈθɔlədʒi] *n* 1) afsonalar; 2) mifologiya (*afsonalarni o'rganuvchi fan*).

name II [neim] *v* atamoq, tayinlamoq, ism qo'ymoq, nomlamoq.
name-child [ˈneim,tʃaild] *n* kimningdir sharafiga qo'yilgan ism.
name-day [ˈneimdei] *n* ism to'yi.
nameless [ˈneimləs] *a* 1) nomsiz, otsiz, ismsiz; 2) jirkanch, qabih.
namely [ˈneimli] *adv* ya'ni, chunonchi, masalan.
name-part [ˈneim,pɑ:t] *n* pyesadagi bosh rol.
name-plate [ˈneimpleit] *n* nom yozilgan yupqa taxta (*eshiklarda*).
namesake [ˈneimseik] *n* adash, ismdosh.
name-story [ˈneim,stɔrɪ] *n* to'plamning nomi berilgan hikoya.
nance [næns] *so'zl.* **nancy** *dan.*
nancy [ˈnænsi] *n* tabiati nozik, erkak, ayollarga o'xshagan erkak.
nanism [ˈnænizm] *n* juda ham past (*pak-pakana*) bo'y.
nankeen, nankin [næn ˈki:n, næn ˈkin] *n* sarg'ish rang.
nanny I [ˈnænɪ] *n* enaga, bolaga qarovchi ayol.
nanny II [ˈnænɪ] = **nanny-goat.**
nanny-goat [ˈnænɪgəut] *n* echki, urg'ochi echki.
nap I [næp] **1.** *n* mudroq, mudrash; mudroq bosish, pinak; **2.** *v* mudramoq, mudroq bosmoq.
nap II [næp] **1.** *n* tuk, pat (*baxmal, movut, gilam va sh.k. ning betidagi*); **2.** *v* tuk chiqarmoq.
napalm [ˈneipɑ:m] *n* napalm (*dirildoq holidagi yondiruvchi modda*).
nape [neip] *n* gardan, bo'yin; ensa.
naphtha [ˈnæfθə] *n* 1) ligroin (*og'ir benzin*); 2) ishlov berilmagan neft; 3) kerosin; 4) yoqiladigan moy, chiroq moyi.
naphthalene [ˈnæfθəli:n] *n* naftalin, kuyadori.
napkin [ˈnæpkin] *n* qog'oz sochiq, qo'l sochiq.
napkin-ring [ˈnæpkiniŋ] *n* qo'l sochiqlar solib qo'yiladigan halqa.
napless [ˈnæpləs] *a* tuksiz, patsiz.
napoleon [nəˈpəuliən] *n* 1) napoleon (*qarta o'yinining nomi*); 2) *tar.* napoleondor (*20 frankka teng bo'lgan fransuzlarning oltin tangasi*).
Napoleonic [nə,pəuliˈɔnik] *a* Napoleonga oid.
napoo [næˈpu:] *int. harb.* tamom bo'ldi; tugadi; yo'qoldi; barham topdi; g'oyib bo'ldi.
nappe [næp] *n geol.* qoplama, qatlam.
nappy [ˈnæpɪ] *n* chaqaloq tagligi.
narcissi [nɑˈsisai] *pl* **narcissus** *dan.*
narcissism [nɑˈsisizm] *n* o'ziga bino qo'yganlik, o'ziga bino qo'yish, o'zini yaxshi ko'rish.

narcissist [nɑ:ˊsɪsɪst] *n* o'ziga bino qo'ygan odam.
narcissus [nɑ:ˊsɪsəs] *n bot.* nargiz, narkos (*gul*).
narcosis [nɑ:ˊkəusɪs] *n* 1) *tib.* narkoz (*og'riq sezmaydigan yoki behush qilish, etni o'ldirish*); 2) *so'zl.* narkotik modda, narkotik, narkoz.
narcotic [nɑ:ˊkɔtɪk] **1.** *n* 1) narkotik modda; 2) uyqu dori; **2.** *a* 1) narkotik; 2) behush (*mast, karaxt qiladigan, etni o'ldiradigan*).
narcotism [ˊnɑ:kətɪzm] *n* behush qilish.
narcotization [ˌnɑ:kətaɪˊzeɪʃn] *n tib.* uxlatish, uxlatib qo'yish.
narcotize [ˊnɑ:kətaɪz] *v tib.* 1) uxlatmoq, uxlatib qo'ymoq; 2) etni o'ldirmoq; 3) narkoz bermoq.
nark [nɑ:k] *v* 1) tashib bo'lmoq, tashib qo'ymoq, hammasini olib borib qo'ymoq; 2) qattiq g'azablantirmoq.
narrate [nəˊreɪt] *v* hikoya qilmoq, so'zlab (aytib, gapirib, hikoya qilib) bermoq.
narration [nəˊreɪʃn] *n* 1) hikoya, qissa; 2) hikoya qilish, aytib (so'zlab, gapirib) bermoq.
narrative [ˊnærətɪv] **1.** *n* hikoya, qissa; **2.** *a* hikoyaga (qissaga) oid.
narrator [nəˊreɪtə] *n* hikoya qiluvchi, hikoyachi, ertak (cho'pchak) aytib beruvchi.
narrow I [ˊnærəu] **1.** *a* tor, ensiz, ingichka; **2.** *n* tor dara, ikki tik tog' o'rtasidagi tor yo'l.
narrow II [ˊnærəu] *v* 1) kamaymoq, kamaytirmoq; 2) toraytirmoq, ensiz qilib qo'ymoq.
narrow-gauge [ˌnærəu ˊgeɪdʒ] *a* tor izli temir yo'l.
narrow goods [ˌnærəuˊgudz] *n* to'qilgan tasma, jiyak, lenta, uqa.
narrowly [ˊnærəulɪ] *adv* 1) zich, chambarchas; 2) ozgina, andak.
narrow-minded [ˌnærəuˊmaɪndɪd] *a* bir yoqlama, tushunchasi tor, dunyoqarashi tor, ong-bilim darajasi tor.
narrowness [ˊnærəunəs] *n* 1) cheklanganlik; 2) ensizlik, torlik.
narwhal [ˊnɑ:wəl] *n zool.* yakka-shox, narval (*tumshug'ida shoxsimon tishi bo'lgan kitsimon dengiz hayvoni*).
nary [ˊneərɪ] *a amer. dial.* sira ham, hech ham, ozgina ham, zarracha ham.
nasal [ˊneɪzl] **1.** *n fon.* burun tovushi; **2.** *a* burunga oid, burun..., burun orqali chiqadigan.
nasality [neɪˊzælətɪ] *n fon.* tovushning burun orqali talaffuz qilinishi.
nasalization [ˌneɪzəlaɪˊzeɪʃn] *n fon.* burunlanish (*tovushlarning burun-dimog' orqali talaffuz qilinishi*).
nasalize [ˊneɪzəlaɪz] *v* burun bilan gapirmoq.
nascency [ˊnæsnsɪ] *n* tug'ilish, paydo bo'lish, vujudga kelish, ro'y berish, dunyoga kelish.
nascent [ˊnæsnt] *a* 1) tug'iladigan, bunyod bo'ladigan; 2) tug'ilish arafasidagi; 3) bunyod bo'layotgan.
nastily [ˊnɑ:stɪlɪ] *adv* juda yomon, razil, yaramas, qabih, iflos, jirkanch, ablahona, xunuk.
nasturtium [nəˊstə:ʃəm] *n bot.* lotin chechagi.
nasty [ˊnɑ:stɪ] *a* juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz, nafratni qo'zg'aydigan.
natal [ˊneɪtl] *a* tug'ilishga oid; ~ **day** tug'ilgan kun; ~ **place** tug'ilgan joy.
natality [neɪˊtælətɪ] *n* 1) tug'ilish miqdori; 2) tug'ilish foizi.
natatorial [ˌneɪtəˊtɔ:rɪəl] *a* 1) suzish uchun xizmat qiladigan; 2) suzishga oid.
natatory [ˊneɪtətərɪ] = **natatorial.**
nates [ˊneɪti:z] *n pl anat.* 1) dumba, odamning dumbasi; 2) dumbaning bir pallasi.
nation [ˊneɪʃən] *n* 1) xalq, millat, el, elat; 2) davlat, mamlakat.
national [ˊnæʃənəl] *a* 1) milliy, millatga, millatlarga oid; 2) biror millatga xos; 3) davlatga, mamlakatga oid; davlatga qarashli; 4) xalqqa oid, ommaviy.
nationalism [ˊnæʃənəlɪzm] *n* 1) millatchilik; 2) mustamlaka xalqlarning milliy mustaqillik uchun kurashi.
nationalist I [ˊnæʃənəlɪst] *n* 1) millatchi; 2) milliy ozodlik harakatining qatnashchisi.
nationalist II [ˊnæʃənəlɪst] *a* 1) millatchilikka oid; 2) milliy ozodlikka qaratilgan.
nationalistic [ˌnæʃnəˊlɪstɪk] = **nationalist II.**
nationality [ˌnæʃəˊnælətɪ] *n* millat, milliylik, biror millatga mansublik.
nationalization [ˌnæʃnəlaɪˊzeɪʃn] *n* milliylashtirish.
nationalize [ˊnæʃnəlaɪz] *v* 1) milliylashtirmoq; 2) davlat mulkiga aylantirmoq.
nationally [ˊnæʃənəlɪ] *adv* millatchilik ruhida.
nationhood [ˊneɪʃnhud] *n* davlatchilik, davlat tuzumi.
nation-wide [ˌneɪʃnˊwaɪd] *a* 1) umummilliy; umummillatga oid; 2) umumxalqqa oid (taalluqli); umumxalq.
native [ˊneɪtɪv] *n* falon joylik, falon joyda tug'ilgan kishi, shu yerli, tub joyli kishi.
native-born [ˌneɪtɪv bɔ:n] *a* shu yerlik, mahalliy.
nativity [nəˊtɪvətɪ] *n* 1) tug'ilish; 2) goroskop (*munajjimlar fol ochish uchun tug'gan yulduzlar jadvali*); 3) (**the N.**) *din.* rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*).
natrium [ˊneɪtrɪəm] *n kim.* natriy (*kimyoviy element, kumushsimon yumshoq ishqoriy metall*).
natron [ˊneɪtrən] *n* soda (*karbonat kislotasining natriyli tuzi*).
natter [ˊnætə] *v* 1) javramoq, vaysamoq; 2) birovni asossiz ayblamoq.
natterjack [ˊnætədʒæk] *n zool.* qurbaqa, cho'lbaqa.
natty [ˊnætɪ] *a* 1) pokiza, ozoda, toza; 2) epchil, chaqqon, abjir, mohir, chapdast.

natural [ˈnætʃrəl] *a* 1) tabiatga oid, tabiiy, tabiat...; **resources** tabiiy boyliklar; 2) tabiiy, tug'ma; 3) tabiiy, asl, sof, toza.

natural bar [ˈnætʃrəlbɔ:] *a* tabiiy qumloq, sayozlik (*daryo atrofida*).

natural-ground [ˈnætʃrəl,graund] *n* 1) materik, qit'a; 2) chidamli yer (tuproq).

naturalism [ˈnætʃrəlɪzm] *n* naturalizm (XIX *asrning 60-yillarida Yevropa va AQSH adabiyoti va san'atida yuzaga kelgan va realizmga qarama-qarshi o'laroq, voqelikni faqat tashqi tomondan aniq aks ettirishga ahamiyat bergan oqim*).

naturalist [ˈnætʃrəlɪst] *n* tabiatshunos.

naturalistic [ˌnætʃrəˈlɪstɪk] *a* naturalizmga oid, naturalistik (*voqelikni tasvirlashda maishiy tafsilotlar, ikir-chikirlar bilan cheklanib, umumlashmalardan qochadigan*).

naturalization [ˌnætʃrəlaɪˈzeɪʃn] *n* yangi iqlimga (shariatga) moslashish.

naturalize [ˈnætʃrəlaɪz] *v* boshqa davlat fuqaroligiga o'tmoq.

naturally [ˈnætʃrəlɪ] *adv* 1) albatta, turgan gap, tabiiy, shubhasiz; 2) o'zidan-o'zi; tabiiy ravishda.

nature [ˈneɪtʃə] *n* 1) tabiat; 2) xulq, fe'l-atvor.

nature study [ˈneɪtʃə,stʌdɪ] *n* tabiatni o'rganish.

naught [nɔ:t] *a* hech nima, hech narsa, hech qanday ish (*gap, narsa va h.*).

naughtiness [ˈnɔ:tɪnəs] *n* itoatsizlik, bo'ysunmaslik.

naughty [ˈnɔ:tɪ] *a* itoatsiz, bo'ysunmaydigan, so'zga quloq solmaydigan.

nausea [ˈnɔ:zɪə] *n* 1) ko'ngil aynish; dengiz kasalligi; 2) nafrat, jirkanish.

nauseate [ˈnɔ:zɪeɪt] *v* nafrat uyg'otmoq; jirkantirmoq.

nauseous [ˈnɔ:zɪəs] *a* 1) ko'ngilni aynitadigan; 2) nafratni qo'zg'aydigan.

nautical [ˈnɔ:tɪkl] *a* dengizga oid; dengizga xos bo'lgan.

naval [ˈneɪvl] *a harb. deng.* flotga oid, flot...; harbiy-dengiz..., harbiy-dengizga oid.

nave I [neɪv] *n me'mor.* butxonaning o'rta qismi.

nave II [neɪv] *n tex.* g'ildirak vtulkasi.

navel [ˈneɪvl] *n* 1) kindik; 2) (*nimanidir*) o'rtasi, markazi.

navel-cord [ˈneɪvlkɔ:d] = **navel-string.**

navel-string [ˈneɪvlstrɪŋ] *n* kindik ichakchasi, kesilmagan kindik.

navigability [ˌnævɪgəˈbɪlətɪ] *n* kema qatnoviga yaroqlilik, kema qatnay oladigan bo'lishi (*suv yo'lining*).

navigable [ˈnævɪgəbl] *a* 1) kema qatnoviga qulay; 2) parvoz uchun yaroqli; 3) kema yura (qatnay) oladigan.

navigate [ˈnævɪgeɪt] *v* 1) suzmoq (*kemada*); 2) uchmoq (*samolyotda*); 3) *so'z.l.* o'tkazmoq (*tadbir*).

navigating officer [ˈnævɪgeɪtɪŋ,ɔfɪsə] *n av. deng.* shturman (*paroxod, samolyot kabilarni boshqaruvchi*).

navigation [ˌnævɪˈgeɪʃn] *n* 1) dengizda kemalarning yurishi; 2) kemalar qatnovi; 3) kemachilik; 4) kemalar yurishi mumkin bo'lgan mavsum.

navigator [ˈnævɪgeɪtə] *n* 1) dengiz sayohati; 2) dengizda sayohat qiluvchi kishi.

navvy [ˈnævɪ] *n* 1) yerkov, yer qazuvchi; qora ishlarni bajaradigan odam; 2) suv havzalarini chuqurlashtirib loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina.

navy [ˈneɪvɪ] *n* 1) harbiy-dengiz floti; 2) harbiy dengiz kuchlari.

navy-blue [ˌneɪvɪˈblu:] *a* 1) to'q ko'k; 2) to'q zangori.

nay [neɪ] *n* salbiy javob, rad qilish.

naze [neɪz] *n geogr.* burun, qoyali (*serqoya*) burun.

Nazi [ˈnɑ:tsɪ] *n* natsist (*german fashisti*).

neap [ni:p] *v* kamaymoq, ozaymoq, pasaymoq; kamayib (pasayib, ozayib) ketmoq.

near [nɪə] *n prep.* (*joyni ko'rsatadi*) yaqin; yaqinida.

near-beer [ˈnɪəbɪə] *n* spirtsiz pivo.

near-by [ˌnɪəˈbaɪ] *a* yonma-yon joylashgan, qo'shni, yonma-yon.

near desert [ˈnɪə,dezət] *n* yarimcho'l, yarimdasht.

near-earth [ˌnɪəˈə:θ] *a* yer yaqinidagi, yer oldidagi, yerga yaqin.

nearly [ˈnɪəlɪ] *adv* 1) qariyb, taxminan, yaqin, deyarli; 2) taxminan, yonida; 3) oldida.

near miss [ˌnɪəˈmɪs] *n* xato otish, o'qni xato ketkizish.

nearness [ˈnɪənəs] *n* 1) yaqinlik; 2) yaqin munosabatlar; 3) o'xshashlik.

near sight [ˌnɪəsaɪt] *n* uzoqni yaxshi ko'rolmaslik.

near-sighted [ˌnɪəˈsaɪtɪd] *a* yaqinni ko'ra oladigan, yaqinni ko'ruvchi, uzoqni ko'rolmaydigan.

near-sightedness [ˌnɪəˈsaɪtɪdnəs] = **near sight.**

neat I [ni:t] *a* toza, pokiza, ozoda, saranjom-sarishta.

neat II [ni:t] *n* (*pl o'zgarishsiz*) ho'kiz, buqa, sigir (*katta shoxli hayvonlar*).

neat-handed [ˈni:t,hændɪd] *a* epchil, chaqqon, abjir, usta, mohir, chapdast.

neat-herd [ˈni:thə:d] *n* cho'pon, podachi.

neatly [ˈni:tlɪ] *adv* 1) o'z vaqtida, aniq, muntazam, hech kanda qilmay; 2) epchillik (chaqqonlik) bilan.

neatness [ˈni:tnəs] *n* 1) tartibga aniq rioya qilish; 2) pokizalik, ozodalik.

neb [neb] *n sholt.* 1) tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*); 2) uch (*qalam, ruchka va b.*).

nebula [ˈnebjulə] *n* (*pl* **-lae**) *astr.* tumanlik (*g'uj bo'lib ko'ringan uzoq yulduzlar to'pi*).

nebulae [ˈnebjuli:] *pl* **nebula** *dan.*

nebular [ˈnebjulə] *a* : ~ **hypothesis** nebular kosmogonik nazariyasi.

nebulizer [ˈnebjulaɪzə] *n* purkagich, changlagich.
nebulosity [ˌnebjuˈlɔsətɪ] *n* 1) bulut bosganlik, bulut bilan qoplanganlik, bulutlilik; 2) noaniqlik, xiralik, qorong'ilik.
nebulous [ˈnebjuləs] *a* noaniq, xira, g'ira-shira, tumanli, qorong'i.
necessarian [ˌnesəˈseərɪən] = **necessitarian.**
necessarily [ˈnesəsərəlɪ] *adv* albatta, muqarrar, so'zsiz, turgan gap, ilojsiz.
necessary [ˈnesəsərɪ] *a* zarur, kerak, darkor, zaruriy, kerakli, zarur bo'lgan.
necessitarian [nəˌsesɪˈteərɪən] *n filos.* determinist, determinizm tarafdori.
necessitarianism [nəˌsesɪˈteərɪənɪzm] *n filos.* determinizm (*narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limot*).
necessitate [nəˈsesɪteɪt] *v* 1) zaruratga aylantirmoq; 2) majbur qilmoq; 3) rozi qilmoq; 4) sabab bo'lishi muqarrar; 5) ...ga olib borishi (kelishi) turgan gap.
necessitous [nəˈsesɪtəs] *a* kambag'al, qashshoq, nochor, faqir, bechorahol.
necessity [nəˈsesɪtɪ] *n* zarurat, ehtiyoj.
neck I [nek] *n* 1) bo'yin, gardan; 2) kiyimning yoqasi; 3) shishaning og'zi, bo'g'(i)zi.
neck II [nek] *v so'zl.* quchoqlamoq, quchmoq.
neckband [ˈnekbænd] *n* kiyim yoqasi, yengil matodan tikilgan koftaning ensiz yoqasi.
neckcloth [ˈnekklɔθ] *n esk.* galstuk, bo'yinbog'.
neckerchief [ˈnekətʃɪːf] *n esk.* uchburchak ro'mol, qiyiq ro'mol, bo'yinbog', sharf.
necking I [ˈnekɪŋ] *pres. p.* **neck II** *dan.*
necking II [ˈnekɪŋ] *n me'mor.* ustunning chaspagi.
necklace [ˈneklɪs] *n* marjon, shoda.
necklet [ˈneklət] *n* 1) marjon, shoda; 2) tashlama mo'yna yoqa; 3) mo'yna *yoki* par sharf (*xotin-qizlar uchun*).
neck-piece [ˈnekpiːs] *n* 1) tashlama mo'yna yoqa; 2) kichkina bo'yinbog', sharfcha.
necktie [ˈnektaɪ] *n* galstuk, bo'yinbog'.
neckwear [ˈnekweə] *n* galstuklar, yoqachalar.
neck-yoke [ˈnekjəuk] *n* xomut (*yog'och bo'yincha*).
necrologist [neˈkrɔlədʒɪst] *n* ta'ziyanoma muallifi.
necrologue [ˈnekrəlɔg] *n* ta'ziyanoma.
necrology [neˈkrɔlədʒɪ] *n* 1) ta'ziyanoma; 2) o'lganlar ro'yxati.
necromancer [ˈnekrəumænsə] *n* jodugar, sehrgar, afsungar.
necromancy [ˈnekrəumænsɪ] *n* sehrgarlik, jodu, amal.
necromantic [ˌnekrəuˈmæntɪk] *a* sehrgarlarga va sehrgarlikka oid, sehr-jodu bilan bog'liq bo'lgan.
necrophagous [neˈkrɔfəgəs] *a* o'limtiklarni yeb kun kechiradigan.
necropolis [neˈkrɔpəlɪs] *n* 1) qabriston (*Qadimgi Sharqda, antik mamlakatlarda*); 2) mashhur kishilar qabri.
necropsy [neˈkrɔpsɪ] *n* o'likni yorish.
necroscopy [neˈkrɔskəpɪ] = **necropsy.**
necrose [ˈnekrəus] *v tib.* sezish qobiliyatini yo'qotmoq.
necrosis [neˈkrəusɪs] *n tib.* jonsizlanish, o'lish, jonsiz bo'lib qolish.
nectar [ˈnektə] *n* 1) *mif.* ohihayot, hayot suvi; 2) gul shirasi, suvi; 3) gazlangan meva suvi.
nectariferous [ˌnektəˈrɪfərəs] *a bot.* asalga boy, asal beradigan, serasal.
nectarine I [ˈnektərɪːn] *n* silliq shaftoli.
nectarine II [ˈnektərɪːn] *a* ohihayotdek orombaxsh.
nectary [ˈnektərn] *n* 1) *bot.* shiradon (*o'simlik gulining nektar chiqaradigan bezi*).
neddy [ˈnedɪ] *n so'zl.* eshak, kichkina (pastak) eshak.
née [neɪ] *a fr.* asli, tug'ilishdan (*kelib chiqishi yoki tug'ilgan joyi jihatidan*).
need [niːd] **1.** *n* ehtiyoj, muhtojlik; **2.** *v* muhtoj bo'lmoq; **3.** *a* darkor, kerak, lozim; **~ed** kerakli.
needful [ˈniːdfəl] *a* kerakli, zarur, darkor, zaruriy, zarur bo'lgan.
needle [ˈniːdl] *n* nina, igna.
needle-bath [ˈniːdlbɔːθ] *n* ignasimon dush.
needle-bearing [ˈniːdlˌbeərɪŋ] *n tex.* ninasimon podshipnik.
needle-case [ˈniːdlkeɪs] *n* igna qadab qo'yiladigan yostiqcha, igna quti.
needle-fish [ˈniːdlfɪʃ] *n zool.* ninabaliq, dengiz balig'i.
needleful [ˈniːdlful] *n* ignaga o'tkazilgan ipning uzunligi.
needle-gun [ˈniːdlgʌn] *n tar.* ignasimon miltiq.
needle-lace [ˈniːdlleɪs] *n* ilgak (qarmoq) bog'langan to'r.
needle-point [ˈniːdlpɔɪnt] *n* ignaning uchi.
needle-shaped [ˈniːdlʃeɪpt] *a* ignaga o'xshagan.
needless [ˈniːdləs] *a* keraksiz, foydasiz, ortiqcha.
needlewoman [ˈniːdlˌwumən] *n* tikuvchi ayol.
needlework [ˈniːdlwəːk] *n* 1) tikish, tikuv ishlari; 2) qo'l ishi, qo'l hunari, chevarlik.
needments [ˈniːdmənts] *n pl* barcha kerakli narsalar (*asosan, safar uchun*).
needs [niːdz] *adv so'zl.* zarurat yuzasidan, zaruriyatga (talabga) qarab, zarurat tug'ilganda, kerak bo'lib qolganda.
needy [ˈniːdɪ] *a* kambag'al, muhtoj.
ne'er [neə] *adv* (**never** *so'zining qisqartirilgan shakli*) hech, hech qachon, hech vaqt, aslo.
ne'er-do-weel [ˈneədʊˌweːl] *n* bekorchi, yalqov, tanbal.
nefarious [nɪˈfeərɪəs] *a* 1) betafviq, munkir, gunohli; 2) vijdoni (diyonati) yo'q, vijdonsiz, insofsiz; diyonatsiz, noinsof.
negate [nɪˈgeɪt] *v* inkor qilmoq.
negation [nɪˈgeɪʃn] *n* tonish; tan olmaslik, inkor qilish.

negationist [nɪ ˈgeɪʃənɪst] *n* inkor qiluvchi, gapidan tonadigan kishi.
negative I [ˈnegətɪv] *a* salbiy; manfiy; **~ result** salbiy natija; **~ form of the verb** fe'lning bo'lishsiz shakli.
negative II [ˈnegətɪv] *v* rad qilmoq, inkor qilmoq, yuz o'girmoq, tonmoq, bosh tortmoq.
negativism [ˈnegətɪvɪzm] *n* rad qilishni yaxshi ko'rish.
negativity [ˌnegəˈtɪvətɪ] *n* inkor qilish, tonish, tan olmaslik.
negatory [ˈnegətərɪ] *a* 1) inkor etadigan, salbiy; 2) qarshi, teskari.
neglect I [nɪˈglekt] *n* beparvolik, sovuqqonlik, mensimaslik.
neglect II [nɪˈglekt] *v* beparvo bo'lmoq, e'tiborsiz bo'lmoq; **~ed** qarovsiz, tashlandiq.
neglectful [nɪˈglektfəl] *a* 1) beparvo, sovuqqon; diqqat-e'tiborsiz, parishonxotir; 2) behafsala, beg'am, ishyoqmas.
négligé [ˈneglɪʒeɪ] *n fr.* ayollar xalati.
negligee [ˈneglɪʒeɪ] *n amer.* ayollar (xotin-qizlar) xalati; ayollarning uyda kiyadigan ko'ylagi.
negligence [ˈneglɪdʒəns] *n* beparvolik, e'tiborsizlik, sovuqqonlik, pala-partishlik.
negligent [ˈneglɪdʒənt] *a* beparvo, sovuqqon, e'tiborsiz, pala-partish (chala-chulpa) ish qiladigan.
negligible [ˈneglɪdʒəbl] *a* 1) uncha ko'p bo'lmagan, ozgina, biroz, andak; 2) arzimas, arzimaydigan, ahamiyatsiz.
negotiant [nɪˈgəuʃɪənt] *n* ulgurji savdogar (*ko'pincha chet ellar bilan savdo qiladigan katta savdogarlarga nisbatan ishlatiladi*).
negotiate [nɪˈgəuʃɪeɪt] *v* kelishmoq, muzokara olib bormoq.
negotiated peace [nɪˌgəuʃɪeɪtɪdˈpi:s] *n* kelishilgan tinchlik.
negotiation [nɪˌgəuʃɪˈeɪʃən] *n* muzokara, muhokama, maslahatlashish, o'ylashib ko'rish.
negotiator [nɪˈgəuʃɪeɪtə] *n* muzokara olib boradigan kishi.
Negress [ˈni:gres] *n* negr ayol.
Negrillo [neˈgrɪləu] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əuz]) past bo'yli qabiladagi negr.
Negrito [neˈgri:təu] *n* negritos (*janubi-sharqiy Osiyoning negroidlar irqiga mansub bir necha etnik guruhlariga kiradigan xalqlarning umumiy nomi*).
Negro [ˈni:grəu] *n* negr, habash.
negro-head [ˈni:grəuhed] *n* 1) tamakining qora va o'tkir bir navi; 2) past navli rezina.
Negroid [ˈni:grɔɪd] *a* negroid irq, negroidlar irqi.
Negrophobia [ˌni:grəuˈfəubɪə] *n* negrlarni yomon ko'rish.
Negus [ˈni:gəs] *n tar.* negus (*Abissiniya imperatorlarining unvoni*).
negus [ˈni:gəs] *n* negus (*shirinlik narsalar qo'shib, qizil vinodan tayyorlangan iliq ichimlik*).
neigh [neɪ] **1.** *n* kishnash; **2.** *v* kishnamoq.
neighbour I [ˈneɪbə] **1.** *n* qo'shni, hamsoya; **2.** *v* chegaradosh bo'lmoq.
neighboured II [ˈneɪbəd] *a* atrof, tevarak, kanora.
neighbourhood [ˈneɪbəhud] *n* 1) qo'shnichilik, yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish; 2) atrof, tevarak-atrof.
neighbourhood unit [ˈneɪbəhudˌju:nɪt] *n* qaytadan rejalashtirilgan shaharning odam yashaydigan joyi.
neighbouring [ˈneɪbərɪŋ] **1.** *pres. p.* **neighbour 2.** *dan*; **2.** *a* 1) qo'shni, yonma-yon, chegaradosh; 2) qo'shni uylarda yashaydigan; 3) o'zaro bog'langan, bir-biriga yaqin.
neighbourly [ˈneɪbəlɪ] *a* do'stona, totuv (*qo'shnichilik munosabatlari haqida*).
neighbourship [ˈneɪbəʃɪp] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish.
neither [ˈnaɪðə] *pron.* 1) ot vazifasida kelganda: birortasi ham, bittasi ham (*ikki kishi yoki narsadan*); hech kim, hech kimsa, hech bir inson; 2) sifat vazifasida kelganda: na u, na bu, na u, na boshqasi; 3) ravish vazifasida kelganda: biror ish harakatni u ham bajarmasligini bildiradi: *masalan:* **If you don't read ~ shall I** Agar siz o'qimasangiz men ham o'qimayman.
neither… nor [ˈnaɪðə… nɔ:] *cj.* u ham emas, bu ham emas; na u, na bu.
nek [nek] *n jan. afr.* dovon, tog' ustidagi yo'l.
nekton [ˈnektən] *n biol.* nekton.
nelly [ˈnelɪ] *n* bahaybat (juda katta) bo'ronqush.
nelson [ˈnelsn] *n sport.* nelson (*kurash*).
Nemesis [ˈnemәsɪs] *n* qasos, o'ch, jazo.
nenuphar [ˈnenjufɑ:] *n bot.* oq nilfiya.
neocene I [ˈni:əusi:n] *n geol.* neotsen.
neocene II [ˈni:əusi:n] *a* neotsenga oid.
neocolonialism [ˌni:əukəˈləunɪəlɪzm] *n* neokolonializm (*imperialistik davlatlarning sobiq mustamlaka ustidan iqtisodiy va siyosiy hukmronlik o'rnatishga qaratilgan yangicha juda nozik siyosati*).
neolithic [ˌni:əuˈlɪθɪk] *a arxeol.* neolitga oid, neolit...
neologism [ni:ˈɔlədʒɪzm] *n* neologizm (*yangi so'z yoki ibora*).
neologize [nɪˈɔlədʒaɪz] *v* yangi so'zlar kiritmoq.
neology [nɪˈɔlədʒɪ] *n* 1) neologizm (*yangi so'z yoki ibora*); 2) yangi so'z va iboralarni ishlatish *yoki* kiritish.
neon [ˈni:ɔn] *n* 1) *kim.* neon (*kimyoviy element, rangsiz va hidsiz gaz*); 2) *attr.* neonga oid, neonli; **~ lamp** neon lampa.
neophron [ˈni:əfrɔn] *n zool.* jo'rchi; kal jo'rchi (*o'limtik bilan ovqatlanadigan yirtqich qush*).
neophyte [ˈni:əufaɪt] *n* biror sohada yangi (yosh, tajribasiz) odam; yangi (endigina) kelgan odam.
neoplasm [ˈni:əuplæzm] *n tib.* shish, g'urra, o'sma.

neoplasty [ˈni:əu,plæsti] *n tib.* plastik operatsiya.
neoteric [ˌni:əuˈterik] *a* 1) yaqin kunlardagi, yaqindagi; 2) eng yangi; zamonaviy.
neotropical [ˌni:əuˈtrɔpikl] *a zool.* Markaziy va Janubiy Amerikada ommalashtirilgan.
Neozoic [ˌni:əuˈzəuik] *a geol.* kaynozoy erasiga oid.
nephew [ˈnefju:] *n* jiyan (*o'g'il*).
nephology [neˈfɔlədʒi] *n* nefologiya (*bulutlarni o'rgatadigan fan*).
nephrite [ˈnefrait] *n min.* nefrit (*yashil yoki sutrang yarim shaffof mineral*).
nephritic [neˈfritik] *a tib.* buyrakka oid.
nephritis [neˈfraitis] *n tib.* nefrit (*buyrak yallig'lanishi*).
nepotism [ˈnepətizm] *n* qarindosh-urug'chilik, quda-andachilik, oshna-og'aynigarchilik, urug'-aymoqchilik, bir-birini (yaqinlarini) qo'llash.
nepotist [ˈnepətist] *n* qarindosh-urug'lariga yordam ko'rsatadigan odam.
Neptune [ˈneptju:n] *n mif. astr.* Neptun (*Quyosh sistemasining sakkizinchi katta planetasi*).
Neptunian [nepˈtju:niən] *a geol.* okeanga oid, dengizga oid, dengizda bo'ladigan; suvga oid, suvdagi, suvli.
neptunium [nepˈtju:niəm] *n kim.* neptuniy (*tabiiy uranning parchalanishidan hosil bo'ladigan kumushsimon radioaktiv element*).
nereid [ˈniəriid] *n zool.* bo'g'im-bo'g'im dengiz qurti.
Nero [ˈniərəu] *n tar.* Neron.
nervate [ˈnə:veit] *a bot.* tomirli (*o'simlik barglarida*).
nervation [nə:ˈveiʃn] *n bot.* tomirlash.
nerve [nə:v] *n* 1) asab, nerv; 2) *pl* asab sistemasi; asablar, asabiyat.
nerve-centre [ˈnə:v,sentə] *n* asab markazi.
nerve-knot [ˈnə:vnɔt] *n* asab tuguni.
nerveless [ˈnə:vləs] *a* 1) kuchsiz, bo'sh; 2) *anat.* asab sistemasi mavjud bo'lmagan; 3) *bot.* tomirsiz.
nerve-racking [ˈnə:v,rækiŋ] *a* g'azablantiradigan, achchiqlantiradigan, asabga tegadigan.
nerve-strain [ˈnə:vstrein] *n* haddan tashqari asabiylanish (asabiylashuv).
nervine I [ˈnə:vi:n] *a tib.* asabni tinchlantiruvchi.
nervine II [nə:ˈvi:n] *n* asabni tinchlantiradigan dori.
nervism [ˈnə:vizm] *n fiziol.* nervizm.
nervous [ˈnə:vəs] *a* 1) achchig'i kelgan, asabiylashgan, asabiy; 2) asabga oid; 3) hayajonlangan, to'lqinlangan, iztirobli.
nervy [ˈnə:vi] *a* 1) nervga oid, asabga oid; 2) asablari qo'zg'agan (qo'zg'algan), hayajonli, hayajonlangan; to'lqinlangan, asabiy.
nescience [ˈnesiəns] *n* 1) bilmaslik, bilimsizlik, xabarsizlik, bexabarlik, xabari yo'qlik, g'aflat; 2) *filos.* agnostitsizm (*dunyoni va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta'limot*).
nescient [ˈnesiənt] **1.** *n filos.* agnostik, agnostitsizm tarafdori; **2.** *a* bilmaydigan (**of** *nimanidir*).
ness [nes] *n* burun (*faqat geografik nomlarda*).
nest [nest] **1.** *n* uya, in; **2.** *v* uya solmoq.
nest-doll [ˈnestdɔl] *n* biri ikkinchisining ichiga kiradigan o'yinchoqlar to'plami.
nest-egg [ˈnestəg] *n* 1) kurk tovuqning tagiga qo'yiladigan tuxum; 2) qora kuningga kerak bo'ladi deb asrab qo'yilgan pul.
nesting box [ˈnestiŋbɔks] *n* chug'urchiq uyasi (*maxsus qurilgan*).
nestle [ˈnesl] *v* 1) qulay joylashmoq (**in, into, among**); 2) yopishmoq, qapishmoq, yopishib olmoq (**against, to**); 3) uy, boshpana bermoq.
nestling I [ˈneslɪŋ] *pres. p.* **nestle** *dan.*
nestling II [ˈneslɪŋ] *n* qush bolasi, jo'ja.
net I [net] **1.** *n* to'r, qopqon; tuzoq; **2.** *v* to'r qo'ymoq, to'r bilan ushlamoq.
net II [net] **1.** *a* sof (*og'irlik haqida*); **2.** *n* sof daromad; **3.** *v* sof foyda keltirmoq.
netful [ˈnetful] *n* ichi to'ldirilgan to'r.
nether [ˈneðə] *a og'z.* juda past; pastki, ostki, quyi.
Netherlander [ˈnəðələndə] *n* niderlandiyalik, gollandiyalik; niderlandiyalik ayol.
Netherlandish [ˈneðələndiʃ] *a* niderlandiyalikka, gollandiyalikka oid.
netting [ˈnetiŋ] **1.** *pres. p.* **net I, 2.** *dan*; **2.** *n* to'r bilan ushlash, to'r bilan ov qilish.
nettle [ˈnetl] *n* qichitqi o't, gazanda o't.
nettle-fish [ˈnetlfiʃ] *n zool.* meduza (*suzuvchi, qisuvchi va ovqat qamrab oladigan changali bor, dirildoq tanli dengiz jonivori*).
nettle-rash [ˈnetlræʃ] *n tib.* eshak yemi (*kasallik*).
network [ˈnetwə:k] *n* 1) to'r; 2) tarmoq, shoxobcha (*temir yo'l, kanal va b.*).
network announcer [ˈnetwə:kəˌnaunsə] *n amer.* diktor, suxandon.
neuralgia [njuˈrældʒə] *n* nevralgiya (*asab tizimining biror yeri kasallanishi yoki yallig'lanishi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*).
neuralgic [njuˈrældʒik] *a* nevralgiyaga oid, nevralgiya tufayli bo'lgan.
neurasthenia [ˌnjuərəsˈθi:niə] *n tib.* nevrasteniya (*tez charchash, ozib ketish va bosh og'rig'i bilan xarakterlanadigan asabiy kasallik*).
neurasthenic [ˌnjuərəsˈθenik] **1.** *a* 1) nevrasteniklarda bo'ladigan, nevrasteniklarga xos; 2) nevrasteniya kasaliga chalingan; **2.** *n* nevrasteniya kasaliga chalingan kishi.
neuritis [njuˈraitis] *n tib.* nevrit (*nervlarning ba'zi kasalliklar yoki shikastlanish, zaharlanish, shamollash natijasida yallig'lanishi*).
neurologist [njuˈrɔlədʒist] *n* nevrolog, asab kasalliklari shifokori; nevrologiya mutaxassisi.
neurology [njuˈrɔlədʒi] *n* nevrologiya (*asab tizimi va uning faoliyatini o'rganadigan fan*).
neuroma [njuˈrəumə] *n* (*pl*-**mata**, **-s** [-z]) *tib.* nevroma.

neuromata [njuˊrəumətə] *pl* **neuroma** *dan.*

neuropath [ˊnjurəpæθ] *n* asab kasalligidan azob tortayotgan kishi; nevrasteniya kasaliga chalingan kishi.

neuropathist [njuˊrɔpəθɪst] *n* nevropatolog, nevropatologiya mutaxassisi.

neuroses [njuˊrəusi:z] *pl* **neurosis** *dan.*

neurosis [njuˊrəusɪs] *n* (*pl* **-ses**) nevroz (*markaziy asab tizimining buzilishi natijasida ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik*).

neurotic [njuˊrɔtɪk] **1.** *a* 1) asabga oid, asabiy, asabi buzuq; 2) asabni qo'zg'atadigan; **2.** *n* 1) nevrasteniya kasaliga chalingan kishi; 2) asab sistemasiga ta'sir etadigan dori.

neuter [ˊnju:tə] **1.** *a* 1) *gram.* sredniy rodga oid; 2) *gram.* o'timsiz (*fe'llar haqida*); 3) *bot.* urug'lik alomati yo'q, jinssiz; 4) *biol.* naslsiz, bola tug'maydigan, bepusht; 5) *vet.* axtalangan, bichgan; **2.** *n* 1) *gram.* sredniy rod; 2) *gram.* o'timsiz fe'l; 3) *biol.* jinssiz hasharot; 4) *vet.* axtalangan (bichilgan) hayvon.

neutral [ˊnju:trəl] **1.** *a* betaraf, xolis; **2.** *n* betaraf davlatlar.

neutralism [ˊnju:trəlɪzm] *n* betaraflik, xolislik.

neutralist [ˊnju:trəlɪst] *n* betaraf, xolis kishi.

neutrality [nju ˊtrælətɪ] *n* betaraflik, xolislik.

neutralization [ˌnju:trəlaɪ ˊzeɪʃn] *n* betaraflashtirish, xolis qilib qo'yish.

neutralize [ˊnju:trəlaɪz] *v* 1) zararsizlantirmoq; 2) betaraf, xolis qilib qo'ymoq.

neutrino [ˊnju:tri:nəu] *n fiz.* neytrino.

neutron [ˊnju:trɔn] *n fiz.* neytron (*atom yadrosi tarkibidagi elektr zaryadidan xoli bo'lgan zarra*).

névé [ˊnevet] *n fr.* firn (*muzliklarning yuqori qismida bo'ladigan donador qor*).

never [ˊnevə] *adv* hech qachon, asti, also, hech, sira.

never-ceasing [ˌnevəˊsi:sɪŋ] *a* to'xtamaydigan.

never-dying [ˌnevəˊdaɪŋ] *a* o'lmaydigan, abadiy yashaydigan, o'lmas, boqiy.

never-ending [ˌnevərˊendɪŋ] *a* tugamaydigan, tuganmas, bitmas-tuganmas.

never-fading [ˌnevəˊfeɪdɪŋ] *a* so'nmas, o'chmas, unutilmas.

nevermore [ˌnevəˊmɔ:] *adv* boshqa, hech qachon, hech vaqt, aslo.

never-never [ˌnevəˊnevə] *n* xom xayol, amalga oshmaydigan orzu.

nevertheless [ˌnevəðəˊles] **1.** *adv* ...ga qaramay, ...ga qaramasdan, ... bo'lmasa ham, biroq, ammo; **2.** *cj.* shunday bo'lsa-da, shunga qaramay.

never-to-be-forgotten [ˌnevətəbɪfəˊgɔtn] *a* unutilmas, unutib bo'lmaydigan, esdan chiqmaydigan.

new I [nju:] *a* yangi, endigina qilingan (*qurilgan, olingan*), tutilmagan.

new II [nju:] *adv* yaqinda, yaqindagina, kechagina.

new-blown [ˊnju:bləun] *a* yangi gullagan.

new-born [ˊnju:bɔ:n] *a* yangi tug'ilgan.

new-built [ˊnju:bɪlt] *a* yangidan qurilgan, qaytadan qurilgan.

new-come [ˊnju:kʌm] *a* qaytadan (*yana qaytib*) kelgan.

new-comer [ˊnju:kʌmə] *n* 1) yangi kelgan kishi; 2) kelgindi, musofir, begona odam, notanish odam.

New Deal [ˌnju:ˊdi:l] *n* yangi kurs (*prezident Ruzveltning siyosati*), Ruzvelt hukumati.

newel [ˊnju:əl] *n me'mor.* aylanma (*burama*) zinaning ustuni.

newel post [ˊnju:əlpəust] = **newel.**

newer literature [ˊnju:ə,lɪtərətʃə] *n* eng yangi (zamonaviy) adabiyot.

new-fallen [ˊnju:ˌfɔ:lən] *a* yangi yoqqan (*qor to'g'risida*).

new-fangled [ˌnju: ˊfæŋgld] = **new-fashioned.**

new-fashioned [ˌnju:ˊfæʃənd] *a* modaning yangi turi, yangi urf, rasm bo'lgan.

new-fledged [ˊnju:fledʒd] *a* yangi pat chiqazgan.

new-found [ˊnju:faund] *a* yangi topilgan.

Newfoundland [nju:ˊfəndlənd] *n* Nyufaundlend oroli.

Newfoundland dog [nju:ˊfəndlənddɔg] *n* cho'kkanlarni qutqaradigan it.

Newfoundlander [ˌnju:fənˊlændə] *n* Nyufaundlend aholisi.

New Frontier [ˌnju:ˊfrʌntɪə] *n amer.* «Yangi hududlar» (*prezident Kennedining siyosati*).

Newgate [ˊnju:geɪt] *n* Nyugetdagi qarzdorlar qamoqxonasi (*Londonda*).

new growth [ˌnju:ˊgrəuθ] *n* 1) shish, g'urra; 2) yangidan paydo bo'lish, yuzaga kelish.

newish [ˊnju:ɪʃ] *a* juda yangi, eng yangi.

new-laid [ˌnju: ˊleɪd] *a* yangi tuxum qo'ygan.

newly [ˊnju:lɪ] *adv* 1) yaqinda; 2) yana, qaytadan.

newlywed [ˌnju:lɪˊwed] *n* yangi uylangan; yangi turmushga chiqqan.

new-made [ˌnju:ˊmeɪd] *a* 1) yaqinda qilingan; 2) qaytadan (yangidan) qilingan.

Newmarket [ˊnju:mɔ:kɪt] *n* hadanga yopishib turadigan uzun palto.

Newmarket coat [ˊnju:mɔ:kɪtˊkəut] = **Newmarket**

new-minted [ˌnju:ˊmɪntɪd] *a* yaqinda bosib chiqarilgan (*tanga haqida*).

new moon [ˌnju:ˊmu:n] *n* yangi chiqqan oy, hilol.

newness [ˊnju:nəs] *n* 1) yangilik; 2) yangi narsa (*gap, xabar va h.k.*)

newpenny [ˊnju:ˌpenɪ] *pl* yangi penni (*Angliyada 1971-yildagi pul*).

news [nju:z] *n* (*sing dek ishlatiladi*) 1) yangilik; 2) darak, axborot, xabar.

news agency [ˊnju:z,eɪdʒənsɪ] *n* telegraf agentligi.

news-agent [ˊnju:z,eɪdʒənt] *n* gazeta kioskasidagi sotuvchi.

news-boy ['nju:zbɔi] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi (*o'spirin*).
newscast ['nju:zkɑ:st] *n* so'nggi xabarlar ko'rsatuvi (*radio, televedeniya orqali*).
newscaster ['nju:z,kɑ:stə] *n* 1) diktor; suxandon; 2) radio sharhlovchisi.
news cinema ['nju:z,sinəmə] *n* xronik-hujjatli filmlar ko'rsatadigan kinoteatr.
news-dealer ['nju:z,di:lə] = **news-agent.**
news-department ['nju:zdi,pɑ:tmənt] *n* axborot bo'limi; nashr qilish bo'limi.
newshawk ['nju:zhɔ:k] *n so'zl.* mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*).
news-letter ['nju:z,letə] *n* 1) axborot bulleteni (*savdo firmasi va b.*); 2) reklama xarakteridagi savdo-sotiq ma'lumotnomasi.
news-man ['nju:zmæn] *n* 1) muxbir, mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*); 2) gazeta xodimi; 3) gazeta sotuvchi.
newsmonger ['nju:z,mʌŋgə] *n* g'iybatchi odam, gap tashuvchi.
newspaper ['nju:s,peipə] *n* gazeta, ro'znoma.
newspaperese [,nju:spetpə'ri:z] *n* gazeta uslubi, sharhlovchiga xos uslub.
newsprint ['nju:zprint] *n* gazetabop qog'oz, gazeta qog'ozi.
news-reel I ['nju:zri:l] *n* 1) kinojurnal; 2) xronika (*voqealarni xronikal tasvirlovchi hujjatli film*); 3) xronikal hujjatli film.
news-reel II ['nju:zri:l] *v* kinojurnalda suratga tushmoq.
news-room ['nju:zrum] *n* ro'znoma va oynomalar olish mumkin bo'lgan o'qish zali.
newsservice ['nju:z,sə:vis] *n* axborot agentligi.
news-sheet ['nju:zʃi:t] *n* varaqa.
news-stand ['nju:zstænd] *n* 1) gazeta do'koni; 2) *amer.* = **bookstall.**
news-theatre ['nju:z,θiətə] *n* xronik-hujjatli kinolar ko'rsatiladigan kinoteatr.
New Style [,nju:'stail] *n* yangi uslub (*grigorian yil hisobi; grigorian kalendari*).
news-vendor ['nju:z,vendə] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi kishi.
newsy I ['nju:zi] *a* 1) yangiliklarga *yoki* g'iybatga boy; 2) sinchkov, har narsani bilishga intiluvchi.
newsy II ['nju:zi] *n amer.* = **news-boy.**
newt [nju:t] *n zool.* ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor.
Newtonian [nju:'təunɪən] *n* Nyuton izdoshi.
New Year [,nju:'jiə] *n* yangi yil.
new year's [,nju:'jiəz] *a* yangi yilga oid; ~ **eve** yangi yil arafasi; ~ **day** birinchi yanvar.
next [nekst] **1.** *a* keyingi, navbatdagi; ~ **day** ertasi kuni; **2.** *adv* keyin, so'ng, kelasi, yanagi.
next-best [,nekst'best] *a* faqat eng zo'riga yon beradigan.
next-door [,nekst'dɔ:] *a* yaqin joydagi, yaqin o'rtadagi, qo'shni bo'lgan.
nexus ['neksəs] *n* 1) aloqa, zanjir; 2) *gram.* neksus.
Niagara [nai 'ægərə] *n* 1) oqim; 2) qattiq zarba ovozi; 3) sharshara, shalola, shovva; ~ **falls** Niagara sharsharasi.
nib I [nɪb] *n* 1) metall pero; 2) tumshuq (*qushlarda*); 3) pichoqning o'tkir tomoni.
nib II [nɪb] *v* ruchkaga pero qo'ymoq.
nibble I ['nɪbl] *n* kemirish, g'ajish, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlash, kemirib (g'ajib) yeyish.
nibble II ['nɪbl] *v* kemirmoq, g'ajimoq, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlamoq, kemirib (g'ajib) yemoq.
niblick ['nɪblɪk] *n sport.* klushka (*golf o'yini uchun*).
nibs [nɪbz] *n* iltifot, lutf, yaxshilik.
nice [nais] *a* 1) iltifotli, yoqimli; 2) o'tkir; 3) shirin, mazali (*meva*), 4) yaxshi; **a ~ weather** yaxshi ob-havo.
nice-looking [,nais'lukiŋ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq.
nicely ['naisli] *adv* 1) yaxshi, durust; 2) yaxshilab, yaxshigina, boplab, qotirib, tuzukkina, durustgina.
nicety ['naisəti] *adv* 1) to'g'rilik, aniqlik; 2) puxtalik; 3) noziklik; 4) tartibga aniq rioya qilish, jobajo ish tutish, batartiblik, saranjom-sarishtalik.
niche [ni:tʃ] **1.** *n* 1) kovak; 2) tokcha, taxmon; **2.** *v* tokchaga joylashtirmoq.
Nick [nɪk] *n* shayton, iblis (*odatda* ***Old N.***).
nick [nɪk] **1.** *n* kertma belgi, kertik; **2.** *v* kertma belgi qo'ymoq.
nickel ['nɪkl] **1.** *n kim.* nikel (*kimyoviy element, yaltiroq metall*); **2.** *v* nikellamoq, nikel yugurtirmoq.
nickelage ['nɪklɪdʒ] = **nickel-plating.**
nickelodeon [,nɪkə'ləudiən] *n amer.* patefon-avtomat, pianola-avtomat.
nickel-plating [,nɪkl'pleitiŋ] *n tex.* 1) nikel, nikel qatlami (*buyumda*); 2) nikellash, nikel yugurtirmoq.
nicker ['nɪkə] *v* qahqaha urib (qattiq) kulmoq, xaxolab kulmoq, qah-qaha otib kulmoq.
nick-nack ['nɪknæk] *n* 1) mayda-chuyda bezak, buyum, zeb-ziynat; 2) *esk.* shirinlik; mazali taom
nickname ['nɪkneim] **1.** *n* laqab; **2.** *v* laqab qo'ymoq.
nicotian [nɪ'kəuʃn] **1.** *a* tamakiga oid, tamakidan qilingan; **2.** *n* kashanda odam, chekadigan kishi.
nicotine ['nɪkəti:n] *n* nikotin (*tamaki tarkibida bo'ladigan zaharli modda*).
nicotinism ['nɪkəti:nɪzm] *n* nikotindan zaharlanish.
nictate [,nɪk'teit] = **nictitate.**
nictation [nɪk'teiʃn] = **nictitation.**
nictitate ['nɪktɪteit] *v* 1) pirpiratmoq, uchirmoq; 2) ko'z qismoq, ko'z bilan imlamoq, ko'z qisib imo-ishora qilmoq.

nictitating membrane [ˌnɪktɪteɪtɪŋ membreɪn] *n* ko'zdagi pirpiratadigan parda (*qushlarda*).
nictitation [ˌnɪktɪˈteɪʃn] *n* ko'z qisish, ko'z bilan imlash.
nicy [ˈnaɪsɪ] *n* bol, obaki, obakidandon (*konfet*).
niddle-noddle [ˈnɪdlˌnɔdl] **1.** *a* qimirlaydigan, qaltiraydigan; **2.** *v* bosh qimirlatmoq, bosh qimirlatib (irg'itib) tabriklamoq (*yoki* rozilik bildirmoq, ma'qullamoq).
nidge [nɪdʒ] = **nig**.
nidi [ˈnaɪdaɪ] *pl* **nidus** *dan*.
nidificate [ˈnɪdɪfɪkeɪt] *v* uya (in) to'qimoq (qurmoq, solmoq).
nidify [ˈnɪdɪfaɪ] = **nidificate**.
nid-nod [ˈnɪdnɔd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh irg'itmoq.
nidus [ˈnaɪdəs] *n lot.* (*pl* **nidi, -es** [-ɪz]) *zool.* (*hasharotlar*) uyasi, ini; 2) yuqumli kasalliklar manbayi.
niece [ni:s] *n* jiyan (*qiz*).
nielli [nɪˈeli:] *pl* **niello** *dan*.
niello [nɪˈeləu] *it. n* (*pl* **-li, -os** [-əuz]) 1) qora kumush (*kumush, mis, oltingugurt va qalay qotishmasi, asosan, metall buyumlarni o'yib bezatishda ishlatiladi*); 2) qora kumush bilan bezalgan buyumlar.
nielloed [nɪˈeləud] *a* qoraytirilgan, qoraga bo'yalgan.
nifty [ˈnɪftɪ] **1.** *a* 1) rasm bo'lgan, keng tarqalgan; 2) a'lo darajadagi; **2.** *n* o'tkir gap; donolik bilan aytilgan so'z.
nig [nɪg] *v* toshni tarashlab tekislamoq.
niggard [ˈnɪgəd] **1.** *n* xasis (ziqna) odam, qurumsoq, nokas; **2.** *adv* oz, kam, ozgina, uncha yaxshi (yetarli) emas.
niggardly [ˈnɪgədlɪ] **1.** *a* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq; **2.** *adv* ayab, qizg'anib, ziqnalik bilan.
nigger [ˈnɪgə] *n* zangi, habash; qop-qora (*iflos, isqirt*).
niggle [ˈnɪgl] *v* aldamoq, yolg'on, ahmoq qilmoq.
niggling [ˈnɪglɪŋ] **1.** *pres. p.* **niggle** *dan*; **2.** *a* 1) mayda gap; 2) chalkash, o'qib bo'lmaydigan (*husnixat, yozuv haqida*).
nigh [naɪ] *a* yaqin joydagi, yaqindagi, yaqin.
night [naɪt] *n* tun, kecha, oqshom, kechki payt, kechasi; **to have a good ~** yaxshi uxlamoq.
night binoculars [ˈnaɪtbɪˌnɔkjuləz] *n pl* tunda ko'radigan durbin.
night-bird [ˈnaɪtbə:d] *n* 1) tunda uchadigan qush; 2) kech yotadigan, kechasi uzoq ishlaydigan, kechalari daydib yuradigan.
night-blindness [ˈnaɪtˌblaɪndnəs] *n tib.* shabko'rlik.
nightcap [ˈnaɪtkæp] *n* 1) tungi (*kechasi kiyib yotiladigan*) qalpoq; 2) *amer. sport.* kunning so'nggi musobaqasi.
night-cart [ˈnaɪtkɑ:t] *n* to'rt g'ildirakli arava (*axlat va najaslarni tozalash ishlari uchun ishlatiladigan*).
night-chair [ˈnaɪtʃeə] *n* tuvak (*hojat uchun*).
night-clothes [ˈnaɪtkləuðz] *n* tunda (kechasi) kiyiladigan ich kiyim.
night-club [ˈnaɪtklʌb] **1.** *n* tunda ishlaydigan klub, tungi klub; **2.** *v* kechasi ishlaydigan klublarga qatnashmoq.
night-dress [ˈnaɪtdres] *n* ayollar *yoki* bolalarning tungi ko'ylagi.
nightfall [ˈnaɪtfɔ:l] *n* 1) kech kirishi; 2) g'ira-shira payt, tong yorishgan *yoki* qosh qoraygan payt.
night-fighter [ˈnaɪtˌfaɪtə] *n av.* kechasi qiruvchi samolyot.
night-flower [ˈnaɪtˌflauə] *n* tunda ochiladigan gul.
night-fly [ˈnaɪtflaɪ] *n* tun kapalagi.
night-flying [ˈnaɪtˌflaɪɪŋ] *n av.* tungi uchishlar (parvozlar).
night-glass [ˈnaɪtglɑ:s] *n* kechasi ko'radigan dengiz durbini.
night-gown [ˈnaɪtgaun] = **nigh-dress**.
night-hag [ˈnaɪthæg] *n* 1) jodugar xotin, yalmog'iz, alvasti; 2) yomon tush; bosinqirash.
night-hawk [ˈnaɪthɔ:k] *n* 1) kechasi bilan ishlaydigan odam; 2) kechasi bilan uxlamaydigan odam; 3) tunda ishlaydigan taksi haydovchisi.
nightingale [ˈnaɪtɪŋgeɪl] *n* bulbul.
night-intruder [ˌnaɪtɪnˈtru:də] *n av.* tungi bombardimonchi samolyot.
nightjar [ˈnaɪtdʒɑ:] *n* tentakqush.
night-life [ˈnaɪtlaɪf] *n* (*shaharning*) tungi hayoti.
night-light [ˈnaɪtlaɪt] *n* tunda yoqib qo'yiladigan xira chiroq.
night-long I [ˌnaɪtˈlɔŋ] **1.** *a* tun bo'yi davom etadigan; **2.** *adv* tun bo'yi, kechasi bilan.
nightly [ˈnaɪtlɪ] **1.** *a* tungi, tundagi, har tunda sodir bo'ladigan; **2.** *adv* har kecha, har tun.
nightman [ˈnaɪtmən] *n* 1) tungi qorovul; 2) axlat va najaslarni tozalash ishlari bilan shug'ullanuvchi kishi.
nightmare [ˈnaɪtmeə] *n* 1) yomon tush, bosinqirash; 2) *mif.* uxlagan odamni bo'g'uvchi (bo'g'adigan) alvasti.
nightmarish [ˈnaɪtmeərɪʃ] *a* dahshatli, mudhish.
night-nurse [ˈnaɪtnə:s] *n* tungi hamshira.
night-piece [ˈnaɪtpi:s] *n* tun tasvirlangan surat.
night-rider [ˈnaɪtˌraɪdə] *n amer.* otliq bosqinchi (qaroqchi, bosmachi).
night-robe [ˈnaɪtrəub] = **night-dress**.
night-school [ˈnaɪtsku:l] *n* 1) kechki maktab; 2) kechki kurslar.
nightshade [ˈnaɪtʃeɪd] *n bot.* ituzum; **black ~** qora ituzum; **deadly ~** uyqu karaxtligi.
night-shift [ˈnaɪtʃɪft] *n* tungi navbatchilik.
nightshirt [ˈnaɪtʃə:t] *n* tungi ko'ylak.
night-soil [ˈnaɪtsɔɪl] *n* iflosлik, nopok ish (*asosan, kechalari bajariladigan*).
nightstick [ˈnaɪtstɪk] *n amer.* militsiyalarning kechasi olib yuradigan tayog'i.
night-stool [ˈnaɪtstu:l] = **night-chair**.

night-suit [ˈnaɪtsu:t] *n* pijama (*kurtka va shimdan iborat uy kiyimi*).
night-time [ˈnaɪttaɪm] *n* tungi vaqt, tun.
night-walker [ˈnaɪt,wɔ:kə] *n* lunatik, oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*).
night-watch [ˈnaɪtwɔtʃ] *n* tungi nazorat (*ko'rib chiqish*); tungi soqchilar.
night-watchman [ˌnaɪtˈwɔtʃmən] *n* tungi qorovul.
night-wear [ˈnaɪtweə] *n* tunda kiyiladigan kiyim.
nighty [ˈnaɪtɪ] *n so'zl.* kechki ko'ylak (*bolalar yoki ayollarniki*).
nigrescence [naɪˈgresəns] *n* 1) qorayish, qorayib ketish; 2) qoralik, qorong'ilik.
nigrescent [naɪˈgresənt] *a* qorayib turgan, qoraygan.
nigritude [ˈnɪgrɪtju:d] *n* qoralik, qora, qorong'ilik.
nihilist [ˈnaɪɪlɪst] *n* nigilizm tarafdori, nigilist (*har qanday norma, prinsip va qonunlarni inkor etuvchi*).
nihilistic [ˌnaɪɪˈlɪstɪk] *a* nigilizmga va nigilistlarga oid, nigilistik.
nihilizm [ˈnaɪɪlɪzm] *n* har qanday norma va qonunlarni inkor etish.
nil [nɪl] *n* nol, nul.
nilgai [ˈnɪlgaɪ] *n zool.* antilopalar, kiyiklar (*jufi tuyoqli kavsh qaytaruvchilarning katta bir guruhi*).
nimbi [ˈnɪmbaɪ] *pl* **nimbus** *dan.*
nimble [ˈnɪmbl] *n* tez, chaqqon, epchil, uddaburon, ishbilarmon.
nimbus [ˈnɪmbəs] *n* (*pl* **-bi, -es** [-ɪz]) yorug'lik gardishi; nur sochish, yarqirash.
niminy-piminy [ˌnɪmənɪˈpɪmənɪ] *a* nozli, nozkarashmali, sernoz.
nincompoop [ˈnɪnkəmpu:p] *n* befahm (*anqov, laqma*) odam.
nine [naɪn] *n num. card.* 1) to'qqiz; 2) to'qqizinchi raqam (*qo'lqop o'lchami*).
ninefold [ˈnaɪnfəuld] *a* to'qqiz marta ortiq, to'qqiz baravar ko'p, to'qqiz karra, to'qqiz hissa.
nine-killer [ˈnaɪn,kɪlə] *n zool.* qarqunoq, olato'g'anoq.
ninepins [ˈnaɪnpɪnz] *n pl* kegli (*ma'lum tartibda tikilgan figuralarni shar yumalatib urib yiqitish o'yini*).
nineteen [ˌnaɪnˈti:n] *v num. card.* o'n to'qqiz.
nineteenth [ˌnaɪnˈti:nθ] *n* o'n to'qqizinchi.
nineties [ˈnaɪntɪz] *n pl* to'qsoninchi yillar.
ninetieth [ˈnaɪntɪəθ] *n num. ord.* 1) to'qsoninchi; 2) to'qsoninchi qism.
ninety [ˈnaɪntɪ] *n num. card.* to'qson.
ninny [ˈnɪnɪ] *n* aqli past, jinni, beaql odam.
ninny-hammer [ˈnɪnɪ,hæmə] = **ninny.**
ninth [ˈnaɪnθ] *n num.* 1) to'qqizinchi; 2) to'qqizinchi qism; 3) to'qqizinchi kun (chislo).
ninthly [ˈnaɪnθlɪ] *adv* to'qqizinchi bo'lib.
niobium [naɪˈəubɪəm] *n kim.* niobiy.
Nip [nɪp] *n* (**Nipponese** *ning qisqartmasi*) 1) yapon, yaponiyalik; 2) *attr.* yaponcha.
nip [nɪp] 1. *n* chimdish, chimdilash, chimdilab olish; 2. *v* chimdilamoq, chimchilamoq.
Nipper [ˈnɪpə] *n so'zl.* yapon, yaponiyalik.
nipper [ˈnɪpə] *n* 1) tishlaydigan kishi, tishlaydigan narsa; 2) ombur, qisqich.
nipping [ˈnɪpɪŋ] **1.** *pres. p.* **nip 2.** *dan*; **2.** *a* chimchilaydigan.
nipple [ˈnɪpl] *n* 1) emchak uchi; 2) so'rg'ich; 3) *tex.* nippel (*quvur, shlang sh.k. ni germetik ravishda ulaydigan, shuningdek, kameralardan havoni chiqarmaydigan detal*).
Nipponese [ˌnɪpəˈni:z] *n* yapon ayol, yaponiyalik ayol.
nippy [ˈnɪpɪ] *a* sovuq, juda sovuq.
nipt [nɪpt] *past., p. p.* **nip 2.** *dan.*
nirvana [nɪəˈvɑ:nə] *n* nirvana (*budda dini ta'limotiga ko'ra: bu dunyo tashvishlaridan kechib o'zini rohat-farog'atda sezish*).
Nisei, nisei [ˌni:ˈseɪ] *n* nasli-nasabi yapon bo'lgan amerikalik.
nisi [ˈnaɪsaɪ] *cj. lot. yur.* agar, agarda, mabodo, bordi-yu, basharti..., bo'lmasa.
nisi prius [ˌnaɪsaɪˈpraɪəs] *n yur.* sudning ko'chma majlisi.
nit I [nɪt] *n* sirka (*bit tuxumi*).
nit II [nɪt] *n shotl.* yong'oq, yong'oq mag'zi, yong'oq daraxti, yong'oq ko'chati.
niton [ˈnaɪtɔn] *n kim.* niton, radon (*kimyoviy element*).
nitrate [ˈnaɪtreɪt] *n kim.* nitratlar (*azot kislotasining tuzlari*).
nitration [naɪˈtreɪʃn] *n kim.* azotlash, azotli moddalar o'g'itlash.
nitre [ˈnaɪtə] *n kim.* selitra (*azot kislotasining natriy, kaliy yoki ammoniyli tuzi texnikada va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi*).
nitric [ˈnaɪtrɪk] *a kim.* azotli; ~ **acid** azot kislotasi.
nitrification [ˌnaɪtrɪfɪˈkeɪʃn] *n kim.* nitrifikatsiya.
nitrify [ˈnaɪtrɪfaɪ] *v kim.* selitraga aylantirmoq.
nitrogen [ˈnaɪtrədʒən] *n kim.* azot (*rangsiz va hidsiz kimyoviy element, o'simliklar oziq'ining eng muhim elementlaridan biri*).
nitrogenous [naɪˈtrɔdʒənəs] *a kim.* azotli, azotdan iborat bo'lgan.
nitroglycerine [ˌnaɪtrəuˈglɪsərɪn] *n* nitroglitserin (*glitserin va nitrat kislota birikmasidan iborat moysimon modda*).
nitrometer [naɪˈtrɔmɪtə] *n kim.* nitrometr.
nitron [ˈnaɪtrɔn] *n* nitron (*jun o'rnida ishlatiladigan pishiq sun'iy tola*).
nitrous [ˈnaɪtrəs] *a kim.* tarkibida azot bo'lgan, azotli.
nitty [ˈnɪtɪ] *a* bitlab ketgan, bit bosgan.
nitwit [ˈnɪtwɪt] *n so'zl.* jinni, esi past, ahmoq odam.
nitwitted [ˈnɪt,wɪtɪd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq.

nival [ˈnaɪvl] *a* 1) qorli, qordan iborat bo'lgan, serqor; 2) qorning tagida o'sadigan.

nix [nɪks] *n so'zl.* hech nima, hech narsa.

no [nəu] *adv* 1) yo'q; bo'lmaydi; 2) inkor, rozi emaslik, qo'shilmaslik.

nob [nɔb] *n so'zl.* baland martabali, martabasi ulug'.

nobility [nəu ˈbɪlətɪ] *n* 1) dvoryanlar tabaqasi; 2) oqsuyaklar, zodagonlar; 3) muruvvat, himmat, oliyjanoblik; oliyhimmatlik.

noble [ˈnəubl] *a* 1) himmatli, muruvvatli, oliyhimmat, oliyjanob; 2) ajoyib, a'lo darajadagi.

nobleman [ˈnəublmən] *n* oqsuyak, zodagon, unvonli shaxs.

nobody [ˈnəubədɪ] *pron.* hech kim, hech kimsa, hech bir inson.

nocturnal [nɔkˈtɜ:nl] *a* kechki, kechqurungi.

nocturne [ˈnɔktɜ:n] *a mus.* noktyurn (*kichkina lirik musiqa asari*).

nod [nɔd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh irg'atmoq.

noddle [ˈnɔdl] *n so'zl.* kalla, bosh.

nohow [ˈnəuhau] *adv so'zl.* aslo, hech, sira, mutlaqo.

noise [nɔɪz] *n* shovqin, to'polon.

noise-killer [ˈnɔɪzˌkɪlə] *n* shovqin pasaytirgich.

noiseless [ˈnɔɪzləs] *a* shovqinsiz, tovushsiz, ohista.

noisome [ˈnɔɪsəm] *a* 1) zararli, ziyonli, yomon; 2) hidi yomon, sassiq, badbo'y; 3) juda xunuk, yoqimsiz.

noisy [ˈnɔɪzɪ] *a* 1) shovqin-suronli, sershovqin, shovqinli; 2) yorqin, charaqlagan.

nomad [ˈnəumæd] *n* ko'chmanchi, daydib yuradigan kishi.

nomenclature [nəu ˈmeŋklətʃə] *n* 1) nomenklatura (*nomlar-atamalar, terminlar majmuyi*); 2) terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*).

nominal [ˈnɔmɪnl] *a* nominal.

nominate I [ˈnɔmɪneɪt] *v* tayinlamoq (*lavozimga*).

nominate II [ˈnɔmɪnɪt] *v* (*saylovda*) nomzod ko'rsatmoq.

nomination [ˌnɔmɪˈneɪʃn] *n* 1) tayinlash; 2) nomzodni ko'rsatish.

nominative [ˈnɔmənətɪv] *n gram.* bosh kelishik.

nominee [ˌnɔmɪˈni:] *n* saylovda nomzodi taklif etilgan shaxs (*nomzod*).

non-aggression [ˌnɔnəˈgreʃn] *n* hujum qilmaslik; ~ **pact** hujum qilmaslik haqidagi shartnoma.

non-aligned [ˌnɔnəˈlaɪnd] *a siyos.* qo'shilmaslik siyosatini tutuvchi; harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmagan.

non-alignment [ˌnɔnəˈlaɪnmənt] *n siyos.* blok *yoki* harbiy guruhlarga qo'shilmaslik.

non-belligerence [ˌnɔnbəˈlɪdʒərəns] *n* urushda qatnashmaslik.

nonchalant [ˈnɔnʃələnt] *a* loqayd, beparvo, ehtirossiz, hayajonsiz, sovuqqon.

non-combatant [ˌnɔnˈkɔmbətənt] *n* safdan tashqari, xizmatdagi askar.

non-commissioned officer [ˌnɔnkəˌmɪʃəndˈɔfɪsə] *n* serjant.

non-committal [ˌnɔnkəˈmɪtl] *a* gapni chalg'ituvchi; samimiy bo'lmagan.

non-conductor [ˈnɔnkənˌdʌktə] *n fiz.* dielektrik (*elektr o'tkazmaydigan modda*).

nonconformist [ˌnɔnkənˈfɔ:mɪst] *n* dindan qaytgan, murtad; mazhabparast.

nondescript [ˈnɔndɪˌskrɪpt] *a* zerikarli, qiziq emas.

none [nʌn] **1.** *pron.* hech kim, hech narsa, hech bir; **2.** *adv* zinhor, aslo, sira, hech ham.

nonentity [nɔˈnentətɪ] *n* 1) e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'q odam, faqir, notavon; 2) mavjud bo'lmagan narsa, yo'q narsa; 3) fano, yo'qlik, hayotning, faoliyatning yo'q bo'lib ketishi.

non-existence [ˌnɔnɪgˈzɪstəns] *a* mavjud bo'lmagan.

non-ferrous [ˌnɔnˈferəs] *a* rangli (*metall to'g'risida*).

non-governmental [ˌnɔngʌvənˈmentl] *a* hukumatga qarashli bo'lmagan, nodavlat.

non-interference [ˌnɔnɪntəˈfɪərəns] *n* aralashmaslik.

non-intervention [ˌnɔnɪntəˈvenʃn] *n* aralashmaslik.

nonmember [ˌnɔnˈmembə] *a* a'zo bo'lmagan.

non-nuclear [ˌnɔnˈnju:klɪə] *a* yadro qurolidan foydalanmaydigan.

non-observance [ˌnɔnəbˈzɜ:vns] *n* (*qoidalar va sh. k. ga*) rioya qilmaslik; (*qonunni*) buzish.

non-partisan [ˌnɔnpɑ:tɪˈzæn] *a* partiyasiz, hech qaysi bir partiyaga a'zo bo'lmagan.

non-party [ˌnɔnˈpɑ:tɪ] *a* partiyasiz, partiyaga a'zo bo'lmagan.

non-persistent [ˌnɔnpəˈsɪstənt] *a* turg'un emas, tez tarqaladigan; ~ **gas** tez tarqalib ketadigan gaz.

nonplus [ˌnɔnˈplʌs] *n* qiyin (tang) ahvol.

nonpolitical [ˌnɔnpəˈlɪtɪkl] *a* siyosat bilan bog'liq bo'lmagan.

non-proliferation [ˌnɔnprəuˌlɪfəˈreɪʃn] *n* yadro qurolini tarqatmaslik.

nonrecognition [ˌnɔnrekəgˈnɪʃn] *n* tan olmaslik, qabul qilmaslik.

nonrenewable [ˌnɔnrɪˈnju:əbl] *a* tiklanmaydigan, tiklab bo'lmaydigan.

non-self-governing [ˈnɔnˌself ˈgʌvənɪŋ] *a* o'z-o'zini boshqara olmaydigan.

nonsense [ˈnɔnsəns] *n* safsata, behuda gap; **to talk** ~ bema'ni so'zlarni gapirmoq.

nonsensical [nɔnˈsensɪkl] *a* bema'ni, kelishmagan; tuturiqsiz.

non-smoker [ˌnɔnˈsməukə] *n* chekmaydigan kishi.

non-starter [ˌnɔnˈstɑ:tə] *n* kelajagi yo'q (*shaxs, reja, g'oya va b.*).

non-stick [ˌnɔnˈstɪk] *a* tagi kuymaydigan, tagiga olmaydigan, tagiga oldirmaydigan.

non-stop [ˌnɔnˈstɔp] *a* 1) qo'nmaydigan, to'xtamaydigan; 2) to'xtovsiz davom etadigan.

non-union [ˌnɔnˈju:nɪən] **1.** *a* kasaba uyushmasiga aloqasi bo'lmagan; kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmagan; **2.** *n tib.* sinishdan keyin suyaklarning bitib ketmasligi.

nonuse [ˈnɔnˈju:z] *n* ishlatilmaslik.

nonviolence [ˌnɔnˈvaɪələns] *n* zo'ravonlik uslublarini qo'llashdan voz kechish.

noodle I [ˈnu:dl] *n so'zl.* befahm (anqov, laqma) odam.

noodle II [ˈnu:dl] *n pl* bo'shang odam, latta.

noodles [ˈnu:dlz] *n* ugra, ugra osh.

nook [nuk] *n* go'sha, burchak, pana (xilvat) joy.

noon [nu:n] *n* peshin, kun o'rtasi, tun vaqti; **~ meal** tushlik.

noose [nu:s] *n* ilmoq, sirtmoq, halqa, dor, tuzoq.

nor [nɔ:] *cj.* na..., ham; **~ nor** na... na...; **neither you ~ he** na sen, na u.

norm [nɔ:m] *n* 1) me'yor, tartib; 2) namuna, qolip, andaza.

normal [ˈnɔ:ml] *a* 1) me'yordagi; 2) oddiy, o'rtamiyona.

normalization [ˌnɔ:məlaɪˈzeɪʃn] *n* normallashtirish, tartibga solish, bir me'yorga keltirish, tartibga solish.

normalize [ˈnɔ:məlaɪz] *v* normallashtirmoq, tartibga keltirmoq.

north [nɔ:θ] *n* shimol; **~ Star** Qutb yulduzi.

norther [ˈnɔ:ðə] *n* qattiq shimoliy shamol.

northerly [ˈnɔ:ðəlɪ] *a* shimoliy, shimolda bo'ladigan.

northern [ˈnɔ:ðən] *a* shimoliy; **~ east** shimoli-sharq; **~ Sea** Shimoliy dengiz.

northerner [ˈnɔ:ðənə] *n* shimolda yashovchi kishi; shimollik.

northernmost [ˈnɔ:ðnməust] *a* eng shimoldagi, shimolga eng yaqin bo'lgan.

northward [ˈnɔ:θwəd] *adv* shimolga, shimol tomonga.

northward(s) [ˈnɔ:θwədz] = **northward.**

north-west [ˌnɔ:θˈwest] *n* shimoli-g'arb, shimoli-g'arbiy taraf (tomon).

north-wester [ˌnɔ:θˈwestə] *n* shimoli-g'arbiy shamol.

Norwegian [nɔ:ˈwi:dʒn] **1.** *a* Norvegiya va norvegiyaliklarga oid; **2.** *n* 1) norveg, norveg ayoli; 2) norveg tili.

nor'-wester [ˌnɔ:ˈwestə] *n* 1) = **north-wester**; 2) o'tkir musallasning stakani; bir stakan o'tkir musallas.

nose [nəuz] *n* burun.

nosedive [ˈnəuzdaɪv] *v av.* sho'ng'imoq, sho'ng'ib uchmoq (*samolyot haqida*).

nosegay [ˈnəuzgeɪ] *n* bir dasta gul, gul dastasi.

nosey [ˈnəuzɪ] *a so'zl.* 1) burni katta, burundor; 2) uzuntumshuq, tumshug'i uzun; 3) boshqalarning ishiga qiziquvchan.

nostalgia [nɔˈstældʒɪə] *n* vatanni sog'inish, qo'msash.

nostril [ˈnɔstrɪl] *n* burun teshigi, burun kovagi.

not [nɔt] *adv* yo'q, emas; **He is ~ here** U bu yerda yo'q.

notable I [ˈnəutəbl] *n* mashhur odam.

notable II [ˈnəutəbl] *a* taniqli, mashhur, buyuk, atoqli.

notably [ˈnəutəblɪ] *adv* 1) ayniqsa, asosan; 2) nihoyatda, bag'oyat, juda ham; ancha sezilarli daraja.

notary [ˈnəutərɪ] *n* notarius.

notation [nəuˈteɪʃn] *n* qayd, qayd qilish; shartli belgilar bilan ko'rsatmoq.

notch [nɔtʃ] **1.** *n* kertma belgi, kertik, belgi; **2.** *v* kertmoq, kertik solmoq, kertib belgi qo'ymoq.

note [nəut] **1.** *n* 1) yozuv; 2) izoh, eslatma; **~book** daftar; **~pad** daftarcha; **2.** *v* 1) ahamiyat bermoq; 2) qayd qilmoq, yozmoq.

noted [ˈnəutɪd] **1.** *p. p.* **note 2.** *dan*; **2.** *a* atoqli, mashhur, buyuk, taniqli.

note-paper [ˈnəutˌpeɪpə] *n* pochta qog'ozi.

noteworthy [ˈnəutˌwə:ðɪ] *adv* diqqatga sazovor.

nothing [ˈnʌθɪŋ] **1.** *pron. neg.* hech nima, hech narsa; **2.** *adv* hech, hech bir, sira, aslo, zinhor.

notice I [ˈnəutɪs] **1.** *n* e'tibor berish, payqash; **2.** *v* e'tibor bermoq, payqamoq.

notice-board [ˈnəutɪsˌbɔ:d] *n* e'lonlar taxtasi, e'lonlar osiladigan (yopishtiriladigan) taxta.

notification [ˌnəutɪfɪˈkeɪʃn] *n* bildirish, e'lon, xabarnoma.

notify [ˈnəufaɪ] *v* xabar qilmoq; bildirmoq.

notion [ˈnəuʃn] *n* tushuncha, g'oya, niyat, maqsad, o'y, fikr.

notional [ˈnəuʃnəl] *a filos.* mavhum, sinalmagan, tajribaga asoslanmagan; **~ words** *gram.* leksik ma'no anglatuvchi so'zlar.

notoriety [ˌnəutəˈraɪətɪ] *v* yomon ot chiqarish, yomon shuhrat, badnomlik.

notorious [nəuˈtɔ:rɪəs] *a* salbiy jihatdan mashhur, yomon ot chiqargan, badnom.

notwithstanding [ˌnɔtwɪðˈstændɪŋ] *prep.* shunday bo'lsa ham, shunga qaramay.

nought [nɔ:t] *n* 1) hech nima, hech narsa; 2) *mat.* nol.

noun [naun] *n gram.* ot; **proper ~** atoqli ot; **common ~** turdosh ot.

nourish [ˈnʌrɪʃ] *v* 1) boqmoq, ovqatlantirmoq; 2) hislarni *yoki* ishonchni kuchaytirmoq.

nourishing [ˈnʌrɪʃɪŋ] **1.** *pres. p.* **nourish** *dan*, **2.** *a* to'q tutadigan, to'yimli.

nourishment [ˈnʌrɪʃmənt] *n* ovqat, oziq, taom.

nous [naus] *n* 1) aql, fahm, idrok, zehn; 2) to'g'ri (sog'lom) fikr.

novation [nəu'veɪʃn] *n* yangilik, yangi rasm-rusum, yangi kiritilgan tartib-qoida (*usul, rasm-rusum va h.*), yangilik.
novel ['nɔvəl] **1.** *n* 1) roman; 2) yangi non; 3) yangi hosilning doni (g'allasi); **2.** *a* yangi, noma'lum, notanish.
novelist ['nɔvəlɪst] *n* roman yozadigan yozuvchi.
novelty ['nɔvəltɪ] *n* yangilik; yangi chiqqan narsa.
November [nəu'vembə] *n* noyabr.
novice ['nɔvɪs] *n* shogird; yangi kelgan.
now [nau] *adv* hozir; **just** ~ hozirgina.
nowaday ['nauədeɪ] *a* hozirgi, shu paytdagi, hozirgi vaqtdagi.
nowadays ['nauədeɪz] *adv* hozirgi kunda, bizning davrimizda, shu kunlarda.
nowhere ['nəuweə] *adv* hech qayerga, hech qayerda.
nowise ['nəuwaɪz] *adv* aslo, hech, sira, mutlaqo.
noxious ['nɔkʃəs] *adv* zararli, zarar (ziyon) qiladigan, yomon, halokatli; ~ **air** konning zaharli havosi; ~ **plants** zaharli o'simliklar.
nozzle ['nɔzl] *n tex.* suv *yoki* gaz quvurining jo'mragi.
n't [nt] *so'zl.* **not** *ga qarang.*
nth [enθ] *a mat.* biror, qandaydir, muayyan (ma'lum) bir.
nuance [nju:'ɑ:ns] *n fr.* nozik farq, sezilar-sezilmas farq.
nub [nʌb] *n* 1) yo'g'onlashish, qalinlashish; 2) asl ma'no, tub mohiyat, ishning mohiyati.
nuclear ['nju:klɪə] *a* yadroga (atom yadrosiga) oid; ~ **energy** yadro (atom) energiyasi.
nuclei ['nju:klɪaɪ] *pl* **nucleus** *dan.*
nucleus ['nju:klɪəs] *n* 1) o'zak, markaz; yadro; 2) *biol.* xujayra yadrosi; 3) atom yadrosi.
nude [nju:d] *a* yalang'och; ochilib qolgan, ochiq.
nudge [nʌdʒ] **1.** *n* tirsak bilan sekin turtib qo'yish; **2.** *v* tirsak bilan sekin turtib qo'ymoq (*birovning diqqatini o'ziga tortish uchun*).
nudity ['nju:dətɪ] *n* yalang'ochlik; yalang'och joy.
nugatory ['nju:gətərɪ] *a* 1) arzimas, ahamiyatsiz, behuda, oson; 2) qonuniy kuchga ega bo'lmagan, 3) foydasiz, natijasiz.
nugget ['nʌgɪt] *n* sof holda topilgan metall (oltin).
nuisance ['nju:səns] *n* 1) ko'ngilsizlik; ko'ngilsiz; 2) alam, ranj, o'kinch, achinish.
null [nʌl] *a* qonuniy kuchga ega bo'lmagan, bekor qilingan.
nullify ['nʌlɪfaɪ] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq.
nullity ['nʌlətɪ] *n* 1) e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'qlik, e'tiborsizlik, arzimaganlik, juda kichkinalik, haqirlik, notavonlik; 2) *yur.* qonuniy kuchga ega bo'lmaslik, bekor qilinganlik, bekor qilishlik.
numb [nʌm] *a* karaxt, uvushib qolgan.
number ['nʌmbə] *n* son, miqdor, raqam.
numeral ['nju:mərəl] *n* 1) raqam; 2) *gram.* son.
numerate ['nju:mərət] *v* sanamoq, hisoblamoq.
numeration [ˌnju:mə'reɪʃn] *n* 1) hisoblash, sanash, sanoq; 2) tartib raqamlari.
numerator ['nju:məreɪtə] *n* 1) *mat.* surat; 2) hisoblovchi, hisobchi; 3) *tex.* hisoblagich.
numerical [nju'merɪkəl] *a* raqamlarga oid, raqamlar bilan ko'rsatilgan, raqamli.
numerous ['nju:mərəs] *a* 1) ko'p sonli, ko'p kishili; 2) ko'p, ko'pgina, ancha.
numskull ['nʌmskʌl] *n* ahmoq, tentak, nodon.
nun [nʌn] *n* rohiba.
nunnery ['nʌnərɪ] *n* ayollar monastiri.
nuptial ['nʌpʃl] **1.** *a* nikohga, er-xotinlikka oid; **2.** *n* to'y, nikoh to'yi.
nurse [nə:s] *n* 1) boquvchi xotin, enaga; 2) hamshira.
nurseling ['nə:slɪŋ] *n* 1) emadigan bola; 2) shogird; 3) arzanda.
nursery ['nə:s(ə)rɪ] 1) bolalar xonasi; 2) bolalar bog'chasi.
nursling ['nə:slɪŋ] = **nurseling.**
nurture ['nə:tʃə] *v* 1) parvarish qilmoq, boqmoq; 2) tarbiyalamoq, o'qitmoq, o'rgatmoq.
nut I [nʌt] *n* yong'oq.
nut II [nʌt] *v* yong'oq termoq.
nutcracker ['nʌtˌkrækə] *n* yong'oq chaqadigan qisqich.
nutmeg ['nʌtmeg] *n* muskat yong'og'i.
nutrient ['nju:trɪənt] **1.** *n* ovqat bo'ladigan moddalari; ovqat (oziq) moddalari; **2.** *a* 1) yeb bo'ladigan, ovqat (oziq) bo'ladigan; 2) to'q tutadigan, to'yimli; ~ **value** to'yimlilik, to'q tutish xossasi.
nutrition [nju:'trɪʃn] *n* oziq, ovqat, taom.
nutritious [nju:'trɪʃəs] *a* ovqat (oziq) bo'ladigan, yeb bo'ladigan.
nutritive ['nju:trətɪv] *n* ovqat (oziq) moddalari.
nutshell ['nʌtʃel] *n* yong'oq po'chog'i; **in a** ~ qisqa qilib, ikki og'iz so'z bilan.
nutter ['nʌtə] *n* jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam.
nut-tree ['nʌt'trɪ:] *n* yong'oq daraxti.
nutty ['nʌtɪ] a 1) yong'oq ta'mli; 2) mazali, lazzatli, totli, shirin; 3) qiziqarli.
nutwood ['nʌtwud] *n* 1) yong'oq daraxti; 2) o'rmon yong'og'i (*butasimon o'simlik*).
nuzzle ['nʌzl] *v* hidlamoq, iskamoq, hidlab ko'rmoq (*itlar haqida*).
nyctalopia [ˌnɪktə'ləupɪə] *n* shabko'rlik.
nylon ['naɪlɔn] **1.** *n* neylon (*sun'iy tola va toladan to'qilgan gazlama*); **2.** *a* neylondan tayyorlangan.
nymph [nɪmf] *n* 1) nimfa (*yunon mifologiyasida: tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohiyasi*); 2) *zool.* lichinka (*kapalak, chivin, chuvalchang va sh.k.ning tuxumidan chiqqan qurti*).

Oo

O, o [əu] *n* ingliz tili alifbosining o'n beshinchi harfi.

O' [əu-] *pref.* irlandcha otlardan oldin qo'yiladigan prefiks, *masalan:* **O'Henry** O'Henri.

oaf [auf] *n* (*pl* **oafs** [-s], **oaves**) 1) xunuk *yoki* go'r bola; 2) aqli noqis, esi past, ahmoq odam.

oafish [ˈaufiʃ] *a* 1) aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm; 2) beso'naqay, beo'xshov, qo'pol.

oak [auk] *n* dub, eman; bolut.

oak-apple [ˈauk,æpl] *n* mozi (*bolut daraxtining bargida ba'zi parazitlar ta'sirida hosil bo'ladigan yong'oqsimon o'simta*).

regional [ˈriːdʒnəl] *a* mahalliy, viloyatga qarashli, regional.
register [ˈredʒɪstə] **1.** *n* jurnal (*yozish uchun*); **2.** *v* ro'yxat qilmoq.
registered [ˈredʒɪstəd] *a* ro'yxatga olingan, qayd qilingan, yozib qo'yilgan; **~ letter** buyurtma xat.
registrar [ˌredʒɪˈstrɑː] *n* 1) arxiv boshlig'i, arxivchi; 2) rasmiyatchi, qog'ozboz.
registration [ˌredʒɪˈtreɪʃn] *n* ro'yxatga olish, qayd qilish.
registry [ˈredʒɪstrɪ] *n* ro'yxat bo'limi.
regress 1. *n* [ˈriːgres] 1) qaytish, orqaga qaytish; 2) teskari harakat; **2.** *v* [rɪˈgres] 1) orqaga qaytarmoq; 2) teskari harakat qilmoq.
regression [rɪˈgreʃn] *n* avvalgi holatiga qaytish.
regret [rɪˈgret] **1.** *n* afsuslanish, achinish; afv, uzr, pushaymon bo'lish, o'kinish; **to feel ~** rahmi kelmoq; **2.** *v* afsuslanmoq, achinmoq.
regrettable [rɪˈgretəbl] *a* o'ta achinarli, qayg'uli, hasratli.
regrettably [rɪˈgretəblɪ] *a* achinib, qayg'urib, hasrat bilan.
regular [ˈregjulə] **1.** *n pl* 1) rohib; darvesh, zohid; 2) muntazam (doimiy) qo'shinlar; 3) *so'zl.* doimiy mijoz; **2.** *a* 1) muntazam; 2) navbatdagi; 3) malakali, mahoratli; 4) hozirgi, shu paytdagi; 5) *gram.* to'g'ri; **~ verbs** to'g'ri fe'llar; 6) odatdagi.
regularize [ˈregjuləraɪz] *v* tartibga solmoq, yo'lga qo'ymoq, yaxshilamoq.
regularly [ˈregjulərlɪ] *adv* tez-tez, muntazam.
regulate [ˈregjuleɪt] *v* 1) tartibga solmoq, yo'lga qo'ymoq; 2) (*talabga, sharoitga*) moslashtirmoq.
regulation [ˌregjuˈleɪʃn] *n* 1) tartibga solish, yo'lga qo'yish, tartib, qoida; **~s** nizom; qo'llanma; 2) *attr.* belgilangan; **to exceed the ~ speed** belgilangan tezlikni oshirmoq.
rehabilitate [ˌriːəˈbɪlɪteɪt] *v* 1) huquqni tiklamoq; 2) sog'liqni tiklamoq.
rehabilitation [ˌriːəbɪlɪˈteɪʃn] *n* 1) oqlash, huquqlarini tiklash; 2) sog'likni tiklash.
rehearsal [rɪˈhɜːsl] *n* repetitsiya, tayyorgarlik, mashq qilish; **dress ~** so'nggi (oxirgi) tayyorgarlik.
rehearse [rɪˈhɜːs] *v* tayyorgarlik ko'rmoq; mashq qilmoq.
rehouse [ˌriːˈhaus] *v* yangi uylarga ko'chirmoq.
reign [reɪn] **1.** *n* 1) podshohlik; 2) hokimiyat, hukmronlik; **2.** *v* hukmronlik qilmoq.
reimburse [ˌriːɪmˈbɜːs] *v* pulni qaytarib bermoq.
rein [reɪn] **1.** *v* jilovlamoq; **2.** *n* jilov; **to draw ~** otning jilovini tortmoq.
reincarnation [ˌriːɪnkɑːˈneɪʃn] *n* boshqa formada ifodalanish, boshqacha shaklga kirish.
reindeer [ˈreɪndɪə] *n* shimol bug'usi.
reinforce[ˌriːɪnˈfɔːs] *v* 1) kuchaytirmoq; mustahkamlamoq; 2) *qur.* armaturalamoq (*betonni*).
reinforced concrete [ˌriːɪnfɔːstˈkɔŋkriːt] *n* temirbeton.
reinforcement [ˌriːɪnˈfɔːsmənt] *n* 1) kuchaytirish, mustahkamlash; 2) *qur.* (*temirbetonning*) armaturasi.
reins [reɪnz] *n* 1) jilov; 2) yugan; 3) tutib (jilovlab) turuvchi kuch.
reinstate [ˌriːɪnˈsteɪt] *v* 1) (*kimsaning huquqlarini*) tiklamoq; 2) (*o'z sog'lig'ini*) tiklamoq; 3) eski holiga ko'tarmoq.
reissue [ˌriːˈɪʃuː] *n* qayta nashr qilingan kitob.
reiterate [rɪˈɪtəreɪt] *v* takrorlamoq, qaytarmoq; qaytadan bajarmoq.
reject [rɪˈdʒekt] *v* rad etmoq, yuz o'girmoq.
rejection [rɪˈdʒekʃn] **1.** *n* voz kechish, rad etish; **2.** *a* tashlandiq, qarovsiz.
rejoice [rɪˈdʒɔɪs] *n* 1) sevinmoq; xursand bo'lmoq; 2) bayram qilmoq.
rejoin [rɪˈdʒɔɪn] *v* 1) qaytmoq; 2) qayta qo'shilmoq, birlashmoq.
rejoinder [rɪˈdʒɔɪndə] *n* qarshi harakat, qarshi javob.
rejuvenate [rɪˈdʒuːvəneɪt] *v* yoshartirmoq, yosh qilib ko'rsatmoq.
rejuvenation [rɪˌdʒuːvəˈneɪʃn] *n* yoshartirish, yosh holiga qaytarish.
re-laid [ˈriːleɪd] *past., p. p.* **re-lay** *dan.*
relaid [ˈriːleɪd] *past., p.p.* **relay I** *dan.*
relapse [rɪˈlæps] *n tib.* kasalning qo'zishi.
relate [rɪˈleɪt] *v* 1) hikoya qilib bermoq, 2) munosabat o'rnatmoq.

related [rɪˈleɪtɪd] **1.** *p. p.* **relate** *dan*, **2.** *a* bog'liq, aloqador; taalluqli.
relation [rɪˈleɪʃn] *n* 1) qarindosh; tug'ishgan; **near** ~ yaqin qarindosh; 2) munosabat, rishta, aloqa.
relations [rɪˈleɪʃənz] *n* munosabat, aloqa.
relationship [rɪˈleɪʃnʃɪp] *n* qarindoshlik, yaqinlik, aloqa.
relative [ˈrelətɪv] **1.** *a* nisbiy, qiyosiy, o'zaro; **2.** *n* qarindosh; **a remote** ~ uzoq qarindosh.
relax [rɪˈlæks] *v* 1) bo'shashtirmoq (*muskullarni*); 2) tanaffus qilmoq, dam olmoq.
relaxed [rɪˈlæksɪd] *a* xotirjam, tinch.
relaxation [ˌriːlækˈseɪʃn] *n* 1) bo'shashtirish, (*keskinlikni*) yumshatish; ko'ngil ochish; 2) tanaffus, dam.
relaxing [rɪˈlæksɪŋ] *a* pasaytiradigan, kamaytiradigan; yumshoq (muloyim) qiladigan.
re-lay [ˌriːˈleɪ] *v* (**re-laid; re-laid**) 1) boshqatdan (yangidan) qurmoq; 2) uzatmoq, olib bermoq.
relay I [riːˈleɪ] *v* (**relaid; relaid**) alishmoq, alishtirmoq.
relay II [riːˈleɪ] *n sport.* estafetali musobaqa.
relay-race [ˈriːleɪreɪs] *n* estafeta yugurish.
release [rɪˈliːs] *v* 1) ozod qilmoq; xalos qilmoq (*qamoqdan*); 2) yumshatmoq, yengillashtirmoq (*og'riqni, dardni*); 3) *tex.* ajratmoq, uzib qo'ymoq; 4) chiqarmoq (*ekranga*).
released [rɪˈliːsd] *a* 1) ozod qilingan (*qamoqdan*), 2) yengillashgan (*og'riq, dard*), 3) *tex.* ajratilgan
relegate [ˈrelɪgeɪt] *v* 1) jo'natmoq, yo'llamoq, berib yubormoq; 2) tegishli bo'lmoq (*qandaydir sinfga*).
relent [rɪˈlent] *v* yumshamoq, muloyim (mayin) bo'lmoq.
relentless [rɪˈlentləs] *a* ayamaydigan, shafqatsiz, berahm, qahri qattiq.
relevant [ˈreləvənt] *a* o'rinli, ahamiyatga ega bo'lgan, muhim o'rin tutgan.
reliable[rɪˈlaɪəbl] *a* mustahkam, ishonchli; ~ **information** ishonchli ma'lumot; **a** ~ **friend** ishonchli do'st.
reliance [rɪˈlaɪəns] *n* ishonch, ishonish.
relic [ˈrelɪk] *n* 1) iz, qoldiq; 2) sarqit; 3) *pl* chirimay saqlangan murda; 4) *pl* esdalik, yodgorlik.
relief [rɪˈliːf] *n* 1) yengillashish (*og'riq, azob haqida*), taskin, tasalli; 2) ishsizlik nafaqasi; 3) yordam, ko'mak.
relieve [rɪˈliːv] *v* 1) yengillashtirmoq; yengillatmoq, yengil qilmoq, vaznini kamaytirmoq; 2) yordam bermoq, yordamga kelmoq.
relieved [rɪˈliːvd] *a* xotirjam.
religion [rɪˈlɪdʒən] *n* 1) din; **to get** ~ dinga berilmoq; 2) rohiblik; **to enter into** ~ rohiblikka o'tmoq.
religious [rɪˈlɪdʒəs] *a* 1) diniy; 2) dinga berilgan, xudojo'y, taqvodor.
relinquish [rɪˈlɪŋkwɪʃ] *v* topshirmoq, bermoq, o'tkazmoq.
relish [ˈrelɪʃ] *n* ta'mni sezish; lazzat, maza.
relive [ˌriːˈlɪv] *v* qaytadan hayotga qaytmoq, tirilmoq.
relocate [ˌriːləʊˈkeɪt] *v* ko'chmoq, ko'chirmoq.
reluctance [rɪˈlʌktəns] *n* xohlamaslik, istamaslik; **with** ~ uncha xohlamasdan.
reluctant [rɪˈlʌktənt] *a* (*nimanidir*) istar-istamas bajaruvchi.
rely [rɪˈlaɪ] *v* suyanmoq, tayanmoq, ishonmoq.
remade [ˌriːˈmeɪd] *past., p. p.* **remake** *dan.*
remain [rɪˈmeɪn] *v* qolmoq; ~**der** qoldiq.
remaining [rɪˈmeɪnɪŋ] **1.** *a* qolgan; **2.** *n* qolish.
remains [rɪˈmeɪnz] *n pl* 1) qoldiq; 2) qolgan (ortgan) narsa.
remake [ˈriːmeɪk] *v* (**remade**) qaytadan qilmoq, yangidan yasamoq.
remark [rɪˈmɑːk] **1.** *v* ko'rsatib bermoq, ko'rmoq, sezmoq; **2.** *n* fikr, mulohaza; **to pass a** ~ o'z fikrini aytmoq.
remarkable [rɪˈmɑːkəbl] *a* 1) ajoyib, ajablanarli, g'alati, ajib; juda yaxshi; 2) mashhur, atoqli, mislsiz, misli ko'rilmagan.
remarkably [rɪˈmɑːkəblɪ] *adv* juda yaxshi, ajoyib, benazir.
remedy [ˈremədɪ] *v* 1) to'g'rilamoq, tuzatmoq; 2) davolamoq; 3) dori-darmon.
remember [rɪˈmembə] *v* yodda tutmoq, eslamoq, xotirlamoq.
remembrance [rɪˈmembrəns] *n* esdalik, yodgorlik, xotira.
remind [rɪˈmaɪnd] *v* esiga tushirmoq, eslatmoq, esga tushmoq.
reminder [rɪˈmaɪndə] *n* eslatish, esga solib qo'yish; ogohlantirish; eslatma; **gentle** ~ shama, ishora.
reminisce [ˌremɪˈnɪs] *v* o'tmishni xotirlamoq.
reminiscence [ˌremɪˈnɪsns] *n* esdalik, yodgorlik, xotira.
reminiscent [ˌremɪˈnɪsnt] *a* eslatadigan, esga solib qo'yadigan.
remiss [rɪˈmɪs] *a* beparvo, beg'am; ishyoqmas.
remission [rɪˈmɪʃn] *n* kechirish, avf etish, gunohidan o'tish.
remit [rɪˈmɪt] *v* kechirmoq, avf etmoq.
remittance [rɪˈmɪtns] *n* 1) jo'natish, yuborish; 2) pulni jo'natish.
remnant [ˈremnənt] *n* 1) sarqit, qoldiq, qolgan ovqat; 2) eskilik sarqiti (qoldig'i); 3) parcha, bo'lak, kesik, laxtak (*gazlama haqida*).
remonstrance [rɪˈmɔnstrəns] *n* 1) e'tiroz, qarshilik; 2) nasihat (o'git) qilish.
remonstrate [rɪˈmɔnstreɪt] *v* norozilik bildirmoq, qarshilik qilmoq.
remorse [rɪˈmɔːs] *n* vijdon azobi.
remorseful [rɪˈmɔːsfl] *a* afsuslanish, pushaymon, afsus.
remorseless [rɪˈmɔːsləs] *a* rahmsiz, shafqatsiz, berahm.
remorselessly [rɪˈmɔːsləslɪ] *adv* ayamay, rahmshafqat qilmay, shafqatsizlik bilan, beshafqat.

remote [rɪ´məut] *a* 1) uzoq, olis, yiroq; **the ~ past** uzoq o'tmish; 2) unchalik katta (*yoki* ko'p) bo'lmagan, kam, oz; **~ controller** boshqarish pulti.
remotely [rɪ´məutlɪ] *adv* sira, hech, aslo, hech bir, zarracha ham.
remoteness [rɪ´məutnəs] *adv* olislik, uzoqlik, yiroqlik.
removal [rɪ´mu:vl] *n* 1) ko'chish (*transport vositasida*); 2) olib tashlash, yig'ishtirish, yo'q qilish.
remove [rɪ´mu:v] **1.** *n* 1) qadam, bosqich; uzoqlashish darajasi; **at many ~s** uzoq masofada; 2) o'quvchini keyingi sinfga o'tkazish; **his son has not got his ~** uning o'g'li ikkinchi yilga o'z sinfida qoldi **2.** *v* 1) chetlashtirmoq; 2) ayirmoq; 3) oldini olmoq; 4) bo'shatmoq (*lavozimdan*); 5) yechmoq (*kiyimni*).
removed [rɪ´mu:vd] *a* 1) uzoqlashgan, uzoqlashtirilgan; 2) uzoqdagi, olisdagi.
remuneration [rɪˌmju:nə´reɪʃn] *n* mukofot, haq.
renaissance [rə´neɪsəns] *n* 1) **(the R)** uyg'onish davri; 2) jonlanish, tiklanish; avj olish (*san'at va b.*).
rename [ˌrɪ´neɪm] *v* boshqa nom qo'ymoq, nomini o'zgartirmoq.
rend [rend] *v* **(rent)** ko'chirmoq, shilmoq, ko'chirib (shilib) olmoq, ko'chirib (shilib) tashlamoq.
render [´rendə] **1.** *n* 1) to'lash; 2) to'lanadigan, olinadigan pul, haq, to'lov; **2.** *v* 1) to'lamoq; 2) hermoq, ko'rsatmoq; **to ~ assistance** yordam bermoq; ifodalamoq, bayon etmoq.
rendering [´rendərɪŋ] **1.** *pres. p.* **render 2.** *dan*; **2.** *v* bermoq, to'lamoq.
rendezvous [´rɔndɪvu:] *n fr.* uchrashuv, ko'rishish, ko'rishuv.
renegade [´renɪgeɪd] *n* xoin, sotqin, xiyonatchi.
renew [rɪ´nju:] *v* yangilamoq, tiklamoq, o'rnatmoq, qayta qurmoq, boshidan boshlamoq.
renewable [rɪ´nju:əbl] *a* tiklanadigan resurslar, boylik resurslari.
renewal [rɪ´nju:əl] *n* 1) qaytadan (yangitdan) tiklash; 2) muddatini uzaytirish.
renounce [rɪ´nauns] *v* 1) voz kechmoq, bahridan o'tmoq (*o'z huquqi, talabi, odati va b.*); 2) kechmoq, yuz o'girmoq (*do'stlaridan*).
renovate [´renəuveɪt] *v* yangilamoq, tuzatib yangiday qilmoq, pardoz berib yangilamoq, ta'mirlamoq.
renovation [ˌrenəu ´veɪʃn] *n* tuzatish, yamash, ta'mirlash.
renown [rɪ´naun] *n* shuhrat, dong, nom, mashhurlik.
renowned [rɪ´naund] *a* mashhur, atoqli, nomi chiqqan, dongdorlik.
rent [rent] **1.** *n* ijara puli; **2.** *v* 1) ijaraga olmoq; 2) ijaraga bermoq.
rental [´rentl] *n* ijara haqi.
renunciation [rɪˌnʌnsɪ´eɪʃn] *n* rad etish, voz kechish.
reorganization [rɪ:ˌɔ:gənaɪ´zeɪʃn] *n* 1) qaytadan tuzish, qayta qurish, qayta(dan) tashkil etish; 2) o'zgartirish, qayta o'zgartirish, o'zgartirib yuborish.
reorganize [rɪ:´ɔ:gənaɪz] *v* qayta tashkil qilmoq.
rep I [rep] *n* pishiq gazlama.
rep II [rep] *n* buzuq (axloqsiz) kishi, xotinboz.
re-paid [´rɪ:peɪd] *past., p.p.* **re-pay** *dan.*
repaid [rɪ ´peɪd] *past., p.p.* **repay** *dan.*
repair [rɪ´peə] *v* tuzatmoq, sozlamoq; ta'mirlamoq; **to ~ a house** uyni ta'mirlamoq.
reparation [ˌrepə´reɪʃn] *n* tovon, badal.
repartee [ˌrepɑ:´ti:] *n* gapga ustalik, piching, o'tkir gap.
repast [rɪ ´pɑ:st] *n* ovqat, ovqatlanish.
repatriate [ˌri:´pætrɪeɪt] **1.** *n* vatanga qaytgan (qaytayotgan) kishi; **2.** *v* o'z vataniga qaytarmoq.
repatriation [ˌri:pæ:trɪ´eɪʃn] *n* vatanga qaytish.
re-pay [´ri:peɪ] *v* **(re-paid)** takroran to'lamoq.
repay [rɪ´peɪ] *v* **(repaid)** qarzni to'lamoq **(to)**.
repayable [rɪ´peɪəbl] *a* qaytarib to'lanadigan.
repayment [rɪ´peɪmənt] *n* to'lanadigan, olinadigan pul, haq, to'lov.
repeal [rɪ´pi:l] *v* bekor qilmoq, kuchdan qoldirmoq (*qonun va b.*).
repeat [rɪ´pi:t] *v* takrorlamoq, qaytarmoq.
repeated [rɪ´pi:tɪd] *a* tez-tez bo'ladigan, takroriy, takror.
repeatedly [rɪ´pi:tɪdlɪ] *adv* bir necha marta, qayta, takror-takror, takrorlab.
repeater [rɪ´pi:tə] *n* 1) takrorlaydigan kishi; 2) takror jinoyat qiluvchi kishi.
repel [rɪ´pel] *v* 1) itarib yubormoq, turtib yubormoq, surib qo'ymoq; 2) rad qilmoq, qaytarmoq.
repellent [rɪ´pelənt] *a* 1) nafrat uyg'otadigan; 2) kishini achchiqlantiradigan, g'azablantiradigan.
repent [´ri:pənt] *v* achinmoq; pushaymon bo'lmoq; o'kinmoq; **~ance** achinish, o'kinish; **~ant** achinarli, o'kinchli.
repercussion [ˌri:pə:´kʌʃn] *n* 1) aks sado, uzoqdan eshitilgan (yetib kelgan) ovoz.
repertoire [´repətwɑ:] *n fr.* repertuar (*biror badiiy kollektiv yoki alohida aktyor tomonidan ijro etiladigan pyesalar, musiqa asarlari va boshqa asarlar majmuyi*).
repertory [´repətərɪ] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy.
repetition [ˌrepə´tɪʃn] *n* takrorlash, qaytarish.
repetitious [ˌrepə´tɪʃəs] = **repetitive.**
repetitive [rɪ´petətɪv] *a* 1) tinimsiz takrorlanib turadigan; 2) zerikarli, kishini zeriktiradigan.
replace [rɪ´pleɪs] *v* 1) o'z joyiga qo'ymoq; 2) qaytarmoq; 3) o'rnini bosmoq; **to ~ money borrowed** olgan pulni qaytarib bermoq.

replaceable [rɪ´pleɪsəbl] *a* almashtirib (alishtirib) bo'ladigan, almashinuvchi.
replacement [rɪ'pleɪsmənt] *n* 1) o'rnini olish (bosish); 2) vaqtincha o'rniga ishlash.
replay [ˌri:´pleɪ] *v* qaytadan (boshqatdan) o'ynamoq, yangidan o'ynamoq (*chalmoq*).
replenish [rɪ'plenɪʃ] *v* qaytadan (boshqatdan) to'ldirmoq.
replete [rɪ'pli:t] *a* to'ydirilgan, to'ydirib yuborilgan.
repletion [rɪ'pli:ʃn] *n* to'yib ketish, juda to'ydirish.
replica ['replɪkə] *n* ko'chirma, nusxa, qolip, andaza.
reply [rɪ'plaɪ] *v* javob bermoq, javob qaytarmoq, javob qilmoq.
report [rɪ'pɔ:t] **1.** *v* xabar bermoq, hisobot bermoq; **2.** *n* 1) xabar, hisobot; **~er** muxbir; 2) ma'ruza.
reporting [rɪ´pɔ:tɪŋ] *n* reportaj.
repose [rɪ'pəuz] *n* 1) dam olish, istirohat qilish, orom olish, hordiq chiqarish; 2) nafasni rostlash.
repository [rɪ'pɔzɪtərɪ] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy.
reprehend [ˌreprɪ´hend] *v* tanbeh bermoq, tergab koyimoq.
represent [ˌreprɪ´zent] *v* vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq; **~ country** mamlakat vakili bo'lmoq.
representation [ˌreprɪzen´teɪʃn] *n* vakillik, vakolatxona.
representative [ˌreprɪ´zentətɪv] *n* vakil, delegat, vakil qilib jo'natilgan kishi; **accredited ~** muxtor vakil.
repress [rɪ´pres] *v* 1) kuch bilan bosmoq (*qo'zg'olon va b.*); 2) jazolamoq.
repressed [rɪ´prest] *a* kuch bilan bosilgan, ezilgan.
repression [rɪ´preʃn] *n* jazo, jazo chorasi.
repressive [rɪ'presɪv] *a* jazo tariqasida (jazolash uchun) qo'llaniladigan.
reprieve [rɪ´pri:v] *n* (*o'lim jazosi*) hukm ijrosini qoldirish.
reprimand ['reprɪmɑ:nd] *v* tanbeh bermoq, hayfsan e'lon qilmoq, urishmoq.
reprint ['ri:prɪnt] *v* qayta nashr qilmoq.
reprisal [rɪ'praɪzl] *n* jazo, jazo tadbirlari.
reproach [rɪ'prəutʃ] *n* ta'na, malomat, gina qilish, yuziga solish.
reproachful [rɪ´prəutʃfəl] *a* ta'nali, ginali, ta'nani ifodalaydigan.
reproachfully [rɪ´prəutʃfəlɪ] *adv* ta'na bilan, gina qilib, o'pkalab.
reprobate ['reprəubeɪt] *n* 1) buzuq odam, suyuqoyoq; 2) razil (qabih, past) odam, yaramas, ablah, nobakor.
reproduce [ˌri:prə'dju:s] *v* 1) qayta (takror) ishlab chiqarmoq; 2) aks ettirmoq, tasvirlamoq; 3) nusxa olmoq; 4) tiklamoq, asliga keltirmoq; 5) ishlab chiqarmoq.
reproduction [ˌri:prə´dʌkʃn] *n* 1) qayta ishlab chiqarish; 2) ko'paytirish, ko'payish, nusxa olib ko'paytirish.
reproductive [ˌri:prə´dʌktɪv] *a* qayta ishlab chiqaruvchi (chiqaradigan).
reproof [rɪ´pru:f] *n* 1) ogohlantirish, tanbeh; 2) ta'na, malomat.
reprove [rɪ´pru:v] *v* tanbeh bermoq, tergab koyimoq.
reptile ['reptaɪl] *n* sudralib *yoki* o'rmalab yuradigan hayvon.
republic [rɪ´pʌblɪk] *n* respublika; jumhuriyat; **to proclaim a ~** respublika deb e'lon qilmoq.
republican [rɪ´pʌblɪkən] *a* respublikaga oid, jumhuriyatga oid, respublika, jumhuriyat.
repudiate [rɪ'pju:dɪeɪt] *v* 1) rad qilmoq, inkor qilmoq, tonmoq; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq.
repugnance [rɪ´pʌgnəns] *n* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; nafrat, jirkanish.
repugnant [rɪ´pʌgnənt] *a* bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, yomon, chidab bo'lmaydigan.
repulse [rɪ'pʌls] *n* qarshi zarba, qarshilik; qarshi zarba berish, qaytarish, daf qilish.
repulsion [rɪ´pʌlʃn] *n* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik.
repulsive [rɪ´pʌlsɪv] *a* jirkanch, qabih, razil, manfur, juda yomon, yoqimsiz, sovuq.
reputable ['repjutəbl] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram.
reputation [ˌrepju'teɪʃn] *n* obro', shuhrat, e'tibor, dong, yaxshi nom; **to blacken smb.s ~** birovning obro'sini to'kmoq.
repute [rɪ'pju:t] *n* 1) umumiy fikr (g'oya); 2) obro', e'tibor, shuhrat, dong, nom.
reputed [rɪ'pju:tɪd] *a* 1) yaxshi obro'ga ega bo'lgan; 2) mashhur, nom chiqargan.
reputedly ['repjutədlɪ] *adv* umumiy mulohazalarga ko'ra.
request [rɪ'kwest] **1.** *n* iltimos, talab; **2.** *v* iltimos (*talab*) qilmoq; **to grant smb's ~** birovning iltimosini qondirmoq.
require [rɪ'kwaɪə] *v* 1) talab qilmoq; buyurmoq; 2) muhtoj bo'lmoq (*nimagadir*).
requirement [rɪ'kwaɪəmənt] *n* talab, zaruriy sharoit, zarurat, talabnoma.
requisite ['rekwɪzɪt] *a* kerakli, zarur; **the number of votes ~ for election** saylash zarur bo'lgan ovozlar miqdori.
requisition [ˌrekwɪ´zɪʃn] *n* 1) rasmiy talab; 2) ehtiyoj, talab; 3) talabnoma.
rescind [rɪ´sɪnd] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq.
rescue ['reskju:] **1.** *n* qutqarish, ozod qilish, **to come to ~** yordamga kelmoq; **2.** *v* qutqarmoq.
rescuer ['reskju:ə] *n* qutqaruvchi, xalos qiluvchi, xaloskor, najotkor.

research [rɪˈsɜːtʃ] **1.** *n* tadqiqot, o'rganish, ilmiy tekshirish; **2.** *v* ilmiy ish olib bormoq; **to be engaged in** ~ ilmiy ish bilan band bo'lmoq.
researcher [rɪˈsɜːtʃə] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi.
reseat [riːˈsiːt] *v* 1) yana (qayta) o'tirg'izmoq; 2) yangi kreslolarni qo'ymoq (*teatr va h.*).
resemblance [rɪˈzemblәns] *n* o'xshashlik, bir xillik, bir xil bo'lish; **to bear** ~ o'xshamoq; **to have a strong** ~ **to smb.** kimgadir juda o'xshamoq.
resemble [rɪˈzembl] *v* o'xshamoq.
resent [rɪˈzent] *v* qattiq g'azablanmoq, achchiqlanmoq; g'azabi kelmoq.
resentful [rɪˈzentfl] *a* xafa bo'lgan, ranjigan, ko'ngli og'rigan, dilsiyoh, xafa.
resentment [rɪˈzentmәnt] *n* g'azab, nafrat, qahr.
reservation [ˌrezәˈveɪʃn] *n* saqlash, olib qo'yish, atab qoldirish, zaxira qilib qo'yish; oldindan joy band qilib qo'yish (*mehmonxonada*).
reserve [rɪˈzɜːv] **1.** *v* g'amlab qo'yilgan narsa, zaxira, ehtiyot; **2.** *v* 1) g'amlamoq, g'amlab qo'ymoq; 2) mehmonxonadan joy band qilib qo'ymoq.
reserved [rɪˈzɜːvd] *a* 1) kamgap, pismiq; 2) oldindan buyurtirilgan; ~ **seat** a) oldindan buyurtirilgan joy; b) teatrga oldindan olingan bilet.
reservoir [ˈrezәvwɑː] *n* suv ombori, hovuz.
reshaped [ˌriːˈʃeɪpt] *a* o'zgargan, o'zgartirilgan, boshqa shaklga o'tkazilgan.
reshuffle [ˌriːˈʃʌfl] *n* o'rmini almashtirib qo'yish, boshqa joyga ko'chirib qo'yish, joylarini almashtirib o'rnatish.
reside [rɪˈzaɪd] *v* istiqomat qilmoq, yashamoq, umr kechirmoq.
residence [ˈrezɪdәns] *n* istiqomat qiladigan, yashaydigan joy; turar joy, qarorgoh.
resident [ˈrezɪdәnt] *n* doimiy yashovchi (turuvchi) kishi.
residential [ˌrezɪˈdenʃl] *a* 1) yashash uchun mo'ljallangan; 2) yashash joyi bilan bog'liq bo'lgan.
residue [ˈrezɪdjuː] *n* qoldiq, qolgani, ortgani; qolgan narsa.
resign [rɪˈzaɪn] *v* iste'foga chiqmoq, ishdan bo'shamoq.
resignation [ˌrezɪgˈneɪʃn] *n* iste'foga chiqish.
resigned [rɪˈzaɪnd] *a* gapga kiradigan, rozi bo'ladigan, ko'ngilchan, yumshoq.
resilience [rɪˈzɪlɪәns] *n* egiluvchanlik, taranglik, elastiklik.
resilient [rɪˈzɪlɪәnt] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq, tarang; 2) xushchaqchaq, quvnoq.
resin [ˈrezɪn] **1.** *n* smola, yelim (*ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*).
resist [rɪˈzɪst] *v* qarshilik ko'rsatmoq.
resistance [rɪˈzɪstәns] *n* qarshilik, qarshi chiqish, qarshilik ko'rsatish; **to overcome the** ~ **(of)** qarshilikni yengmoq; **to offer** ~ qarshilik qilmoq.
resistant [rɪˈzɪstәnt] *a* chidamli, pishiq, puxta; mahkam, mustahkam.
resolute [ˈrezәluːt] *a* barqaror, matonatli, mustahkam, salobatli, qat'iy, dadil.
resolutely [ˈrezәluːtlɪ] *adv* qat'iyat bilan, jasurlik bilan, jasurona.
resolution [ˌrezәˈluːʃn] *n* qaror; **to adopt** ~ qaror chiqarmoq; **joint** ~ qo'shma qaror; **draft** ~ qaror loyihasi.
resolve [rɪˈzɔlv] *n* niyat, maqsad, o'y; qasd, ahd.
resonant [ˈreznәnt] *a* jarangdor, jarangli, yaxshi eshitiladigan.
resort [rɪˈzɔːt] *v* 1) himoya, yordam, madad; 2) taskin, tasalli; 3) kurort, 4) murojaat qilish, tayanish.
resound [rɪˈzaund] *v* ovoz (tovush) chiqarmoq, sadolanmoq.
resounding [rɪˈzaudɪŋ] *n* tovushning qaytishi, tovushni qaytarish.
resource [rɪˈsɔːs] *n* 1) boylik, mablag'; **natural** ~**s** tabiiy boyliklar; 2) manba, vosita.
resourceful [rɪˈsɔːsfl] *a* tadbirli, tadbirkor, topqir.
respect [rɪˈspekt] **1.** *n* 1) hurmat, e'tibor; 2) munosabat; **2.** *v* hurmat qilmoq.
respectable [rɪˈspektәbl] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram, hurmatga sazovor bo'lgan, hurmatga loyiq; ulug', tartibli.
respectful [rɪˈspektfl] *a* odobli, hurmat (izzat) qiladigan; hurmat bilan, ehtirom bilan.
respecting [rɪˈspektɪŋ] *prep.* to'g'risida, haqida, xususida.
respective [rɪˈspektɪv] *a* mos, muvofiq, tegishli, kerakli, loyiq.
respectively [rɪˈspektɪvlɪ] *adv* 1) mos ravishda, tegishlicha, tegishli ravishda; yarasha; 2) ko'rsatilgan ravishda.
respiration [ˌrespәˈreɪʃn] *n* nafas olish, nafas.
respirator [ˈrespәreɪtә] *n* respirator (*nafas olish, ko'rish va eshitish a'zolarini zaharli gaz va changdan saqlaydigan asbob*).
respite [ˈrespaɪt] *n* 1) dam olish, nafasni rostlash; 2) keyinga qoldirish, kechiktirish, keyinga surish.
resplendent [rɪˈsplendәnt] *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiramoq.
respond [rɪˈspɔnd] *v* javob bermoq; **to** ~ **with a blow** qarshi zarba bermoq.
response [rɪˈspɔns] *n* 1) javob, **in** ~ **to** ga javoban; 2) sado.
responsibility [rɪˌspɔnsəˈbɪlәtɪ] *n* javobgarlik, burch, mas'uliyat; **to take the** ~ javobgarlikni o'z zimmasiga olmoq.
responsible [rɪˈspɔnsәbl] *a* javobgar, mas'ul; **to be** ~ **for smth.** nimagadir mas'ul bo'lmoq.
responsibly [rɪˈspɔnsәblɪ] *adv* mas'uliyatni (javobgarlikni) o'z bo'yniga olib.
responsive [rɪˈspɔnsɪv] *a* javob tariqasidagi (ma'nosidagi), javoban qilingan.
rest I [rest] **1.** *n* dam, dam olish; **2.** *v* dam olmoq.
rest II [rest] *n* 1) qoldiq; 2) qolganlar, boshqalar; **keep the** ~ **for yourself** qolganini o'zingizga oling.

restaurant ['restərɔŋ] *n* restoran.
restful ['restfl] *a* tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutadigan, orom beradigan.
restitution [ˌrestɪ'tju:ʃn] *n* 1) qaytarish, qaytarib berish; 2) tiklash.
restive ['restɪv] *a* 1) o'jar, qaysar, tutgan joyini kesadigan; 2) asov (ters) ot.
restless ['restləs] *a* 1) notinch; beorom, tinibtinchimaydigan; 2) tinch (tek) tura olmaydigan; 3) tashvishli.
restoration [ˌrestə'reɪʃn] *n* qayta qurish tiklash, tuzatish, ta'minlash.
restorative [rɪ'stɔrətɪv] **1.** *a* quvvatni oshiradigan, tetiklantiradigan; **2.** *n* quvvat (darmon) beradigan vosita.
restore [rɪ'stɔ:] *v* qayta qurmoq; tiklamoq, tuzatmoq, ta'minlamoq; **to ~ one's health** sog'liqni tiklamoq.
restrain [rɪ'streɪn] *v* cheklamoq, chek qo'ymoq, chegaralamoq.
restrained [rɪ'streɪnd] **1.** *p.p.* **restrain** *dan*; **2.** *a* o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq.
restraint [rɪ'streɪnt] *n* o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, o'zini yo'qotmaslik, dadillik.
restrict [rɪ'strɪkt] *v* cheklamoq; **~ive** cheklaydigan, cheklovchi, chek qo'yadigan.
restricted [rɪ'strɪktɪd] **1.** *p. p.* **restrict** *dan*; **2.** *a* cheklangan, chek qo'yilgan, chegaralangan.
restriction [rɪ'strɪkʃn] *n* cheklash, chek qo'yish; **without ~** cheksiz.
restrictive [rɪ'strɪktɪv] *a* cheklaydigan, chek qo'yadigan, cheklovchi, chegaralovchi.
result [rɪ'zʌlt] **1.** *n* natija, oqibat, samara; **without ~** natijasiz; **as a ~ of** natijada; **2.** *v* 1) kelib chiqmoq (*for*); 2) biror natija bilan tugamoq.
resume [rɪ'zju:m] *v* yangidan boshlamoq, qaytadan boshlamoq; yana davom ettirmoq; **well, to ~** demak, davom etamiz.
resumé ['rezjumeɪ] *n fr.* 1) qisqacha anketa ma'lumotlari; 2) ma'lumot; qisqacha xulosa; konspekt.
resumption [rɪ'zʌmpʃn] *n* yangidan, qaytadan boshlash, davom ettirish.
resurgent [rɪ'sə:dʒənt] *a* 1) (avvalgi) holiga qaytayotgan; 2) tiklanayotgan.
resurrect [ˌrezə'rekt] *v so'zl.* 1) tirilmoq, hayotga qaytmoq; 2) tiriltirmoq.
resurrection [ˌrezə'rekʃn] *n* qaytadan vujudga kelish, tug'ilish, jonlanish, tirilish.
resuscitate [rɪ'sʌsɪteɪt] *v* tirilmoq, hayotga qaytarmoq.
retail ['ri:teɪl] *n* 1) chakana savdo; **at ~** donalab; 2) *attr.* chakana savdoga oid; **~ price** chakana narx.
retailer ['ri:teɪlə] *n* 1) do'kondor, attor; 2) g'iybatchi odam, gap tashuvchi.
retain [rɪ'teɪn] *v* 1) ushlab (saqlab) qolmoq, tutib qolmoq; 2) saqlamoq, asramoq; 3) esda tutmoq, yodda saqlamoq, eslamoq.
retaliate [rɪ'tælɪeɪt] *v* o'ch olmoq, qasos olmoq, alamini olmoq.
retaliation [rɪˌtælɪ'eɪʃn] *n* 1) ajr, evaz, mukofot; 2) o'ch, qasos.
retard [rɪ'tɑ:d] *v* to'xtatmoq, to'xtatib (tutib, ushlab) qolmoq.
retarded [rɪ'tɑ:dɪd] *a* sekinlashgan, sekinlagan, sekinlatgan.
retch [retʃ] **1.** *n* qusish, qayt qilish; qusuq; **2.** *v* kekirmoq.
retention [rɪ'tenʃn] *n* 1) tutib qolish; 2) saqlab qolish, saqlash.
retentive [rɪ'tentɪv] *a* 1) saqlab qola oladigan, saqlaydigan; 2) yaxshi (*xotira haqida*).
rethink [ˌri:'θɪŋk] *v* qaytadan ko'rib chiqmoq; yana bir qarab chiqmoq.
reticence ['retɪsəns] *n* 1) o'zini tuta bilish, vazminlik, osoyishtalik; 2) sirini (ichidagini) hech kimga aytmaslik; yashirinlik, maxfiylik.
reticent ['retɪsənt] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) yashirin, maxfiy.
retinue ['retɪnju:] *n* tantanali yurish, namoyish.
retire [rɪ'taɪə] *v* iste'foga chiqmoq; **~d** iste'foga chiqqan.
retirement [rɪ'taɪəmənt] *n* iste'foga chiqish.
retiring I [rɪ'taɪərɪŋ] *v* uzoqlashmoq, yiroqlashmoq, uzoqqa ketmoq.
retiring II [rɪ'taɪərɪŋ] *a* kamtar, oddiy, sipo; uyatchan.
retort I [rɪ'tɔ:t] *n* retorta (*laboratoriyalarda ishlatiladigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qaytarilgan idish*).
retouch ['ri:'tʌtʃ] *n* retush, retushlash (*retush – bo'yoq, qalam kabilar bilan negativ yoki suratning kam-ko'stini to'g'rilash, tuzatish*).
retrace [rɪ'treɪs] *v* iziga (ketiga) tushmoq, orqasidan poylab bormoq, ta'qib qilmoq.
retract [rɪ'trækt] *v* tortib (sudrab) kiritmoq (yoki chiqarmoq).
retreat [rɪ'tri:t] **1.** *n* chekinish; **2.** *v* chekinmoq, orqaga qaytmoq.
retrench [rɪ'trentʃ] *v* qisqartirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq.
retrenchment [rɪ'trentʃmənt] *n* tejash, kamaytirish (*chiqim va b.*).
retribution [ˌretrɪ'bju:ʃn] *n* qasos, o'ch, jazo.
retrieve [rɪ'tri:v] *v* 1) qayta topib olmoq; 2) o'ziga qaytarib olmoq; 3) oldingi holatiga qaytarmoq.
retrospection [ˌretrəu'spekʃn] *n* o'tmishga murojaat, o'tmishga nazar tashlash.
retrospective [ˌretrəu'spektɪv] *a* o'tmishga qaratilgan, o'tmishga nazar solib qilingan.
retrospectively [ˌretrəu'spektɪvlɪ] *adv* o'tmishga nazar solib, o'tmishni hisobga olgan holda.
return [rɪ'tə:n] **1.** *n* qaytarish, qaytarib berish, qaytib kelish; **in ~** javoban; **2.** *v* qaytib kelmoq, qaytarib bermoq; **3.** *pl* saylov natijalari.
returnable [rɪ'tə:nəbl] *a* qaytarib beradigan.

returns [rɪ´tə:nz] *n* 1) xabar, axborot, ma'lumot; 2) saylov natijalari.
reunion [ˌri:´ju:mɪən] *n* qaytadan birlashtirish, qaytadan qo'shilish (birlashish).
reunite [ˌri:ju´naɪt] *v* qaytadan qo'shmoq, qaytadan birlashtirmoq.
rev [rev] *so'zl.* **1.** *n* aylanish (*dvigatel, motor haqida*); **2.** *v* aylanmoq.
revanche [rɪ´vænʃ] *n fr.* qasos olish.
revanchist [rɪ´vænʃɪst] *n* qasoschi, qasos oluvchi kishi.
reveal [rɪ´vi:l] *v* ko'rsatmoq, ochmoq, fosh etmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; **to ~ plot** fitnani fosh etmoq.
revealing [rɪ´vi:lɪŋ] *a* fosh qiladigan, aybini (kamchiliklarini) ochadigan.
reveille [rɪ´vælɪ] *n harb.* uyg'otish, uyg'otish signali, ertalabki jismoniy mashqlar.
revel [´revl] **1.** *n* quvnoqlik, xushchaqchaqlik, xursandlik; 2) *pl* kichik ziyofat.
revelation [ˌrevə´leɪʃn] *n* ochish, fosh etish.
revenge [rɪ´vendʒ] **1.** *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd; **2.** *v* qasos olmoq, o'ch olmoq; **to ~ oneself (up) on smb.** birovdan o'ch olmoq.
revenger [rɪ´vendʒə] *n* qasos (o'ch) oluvchi; qasoskor.
revenue [´revənju:] *n* yillik daromad.
reverberate [rɪ´və:bəreɪt] *v* aks etmoq, qaytmoq.
reverberation [rɪˌvə:bə´reɪʃn] *n* 1) aks, tasvir; 2) aksini (soyasini, tasvirini) ko'rsatmoq.
revere [rɪ´vɪə] *v* izzat-hurmat qilmoq, qadrlamoq, ehtirom qilmoq, ixlos qo'ymoq.
reverence [´revrəns] *n* hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom.
reverend [´revrənd] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram.
reverent [´revrənt] *a* hurmat (izzat) qiladigan; odobli.
reverie [´revərɪ] *n* xayolchan, orzu-xayollarga berilish, xayol surish.
reversal [rɪ´və:sl] *n* 1) (*siyosiy*) vaziyatning o'zgarishi; 2) bekor qilish; **the ~ of judgement** sud qarorini (hukmini) bekor qilish.
reverse [rɪ´və:s] *v* 1) teskari (orqa) tomoni (*tanga pul va b.*); 2) teskarilik, egrilik; 3) muvaffaqiyatsizlik; **to meet with a ~** muvaffaqiyatsizlikka uchramoq.
reversible [rɪ´və:səbl] *a* asl holiga qayta oladigan; qaytariladigan.
reversion [rɪ´və:ʃn] *n* 1) qaytish (*oldingi holatga*); 2) *biol.* atavizm (*ajdodlarda bo'lgan belgilarning bir necha bo'g'indan keyingi avlodda takrorlanishi*).
revert [rɪ´və:t] *v* oldingi holatga qaytmoq.
revet [rɪ´vet] *v* ustini, sirtini qoplamoq.
review [rɪ´vju:] **1.** *n* 1) ko'zdan kechirish, qayta ko'rib chiqish; 2) taqriz, obzor; **to pass in ~** ko'zdan kechirmoq; **2.** *v* ko'zdan kechirmoq, qayta ko'rib chiqmoq.
reviewer [rɪ´vju:ə] *n* sharhlovchi; kuzatib boruvchi.
revise [rɪ´vaɪz] *v* 1) qayta ko'rib chiqmoq, tekshirmoq; 2) tuzatmoq, to'g'rilamoq.
revised [rɪ´vaɪzd] *a* tahrir qilingan, tuzatilgan, to'g'rilangan.
revision [rɪ´vɪʒn] **1.** *p. p.* **revise** *dan*; **2.** *n* qaytadan ko'rish, qaytadan qarab chiqish, takrorlash.
revisionist [rɪ´vɪʒnɪst] *n* revizionist (*revizionizm tarafdori*).
revival [rɪ´vaɪvl] *n* uyg'onish, jonlanish, qayta tiklanish, yuksalish.
revive [rɪ´vaɪv] *v* 1) tiklanmoq, jonlanmoq, ruhlanmoq; 2) qaytadan (yangidan, boshidan) boshlamoq; **to ~ a play** tomoshani boshidan boshlamoq.
revoke [rɪ´vəuk] *v* bekor qilmoq (*qonun, buyruq va b.*).
revolt [rɪ´vəult] **1.** *n* qo'zg'olon, isyon; **2.** *v* isyon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq, qo'zg'olon qilmoq.
revolting [rɪ´vəultɪŋ] **1.** *pres. p.* **revolt 2.** *dan*; **2.** *a* jirkantiradigan, juda xunuk, yoqimsiz.
revolution [ˌrevə´lu:ʃn] *n* 1) inqilob; 2) ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi keskin o'zgarish; to'ntarish, to'ntarilish.
revolutionary [ˌrevə´lu:ʃənrɪ] *a* inqilobiy.
revolutionize [ˌrevə´lu:ʃənaɪz] *v* revolutsion g'oyalarni tarqatmoq (yoymoq), inqilobiylashtirmoq.
revolve [rɪ´vəlv] *v* aylanmoq, aylantirmoq, buramoq, buralmoq.
revolver [rɪ´vəlvə] *n* 1) to'pponcha; 2) *tex.* baraban (*mashina va mexanizmlarning silindr shaklidagi qismi*).
revolving [rɪ´vəlvɪŋ] **1.** *pres. p.* **revolve** *dan*; **2.** *a* aylanadigan, buriladigan, aylanma.
revue [rɪ´vju:] *v* 1) revyu (*teatrda bir mavzudagi ayrim nomer, epizod va ko'rinishlardan iborat tomosha*); 2) kundalik umumiy mavzudagi bir necha xil nomerdan tuzilgan estrada-teatr tomoshasi.
revulsion [rɪ´vʌlʃn] *n* 1) kutilmaganda yuz bergan o'zgarish; 2) nafrat, jirkanish; 3) *tib.* (*qonning*) kamayishi.
revulsive [rɪ´vʌlsɪv] *a tib.* diqqatni chetga tortadigan, chalg'itadigan.
reward [rɪ´wɔ:d] **1.** *n* mukofot; **2.** *v* mukofotlamoq, taqdirlamoq.
rewind [ˌri:´waɪnd] *v* qaytadan (yangidan) o'ramoq; boshqacha qilib o'ramoq.
rewrite [ˌri:´raɪt] *v* qaytadan yozib chiqmoq, ko'chirmoq.
rewritten [ˌri:´rɪtn] *p. p.* **rewrite** *dan*.
rewrote [ˌri:´rəut] *past.* **rewrite** *dan*.
rhapsodic(al) [ræp´sɔdɪk(əl)] *a* 1) g'oyat zavqli, quvonchli; 2) shod-xurram.
rhapsody [´ræpsədɪ] *n mus.* rapsodiya (*xalq qo'shiqlari, dostonlari mavzusidagi musiqa asari*).
rheostat [´ri:əstæt] *n el.* reostat (*tok kuchini va uning kuchlanishini rostlab, tartibga solib turadigan apparat*).

rhesus ['ri:səs] *n zool.* rezus (*makakalar urug'iga mansub maymun*).
rhetor ['ri:tə] *n* nutqi yaxshi shaxs, notiq, gapdon.
rhetoric ['retərɪk] *n* notiqlik san'ati.
rhetorical [rɪ'tɔrɪkl] *a* 1) dabdabali, ritorik; 2) notiqlik qoidalariga asoslangan.
rhetorician [ˌretə'rɪʃn] *n* mahmadona, gapdon.
rheum [ru:m] *n* tumov.
rheumatic [ru'mætɪk] **1.** *a* revmatizmga (*bod kasalligiga*) oid; **2.** *n* bod kasaliga yo'liqqan odam.
rheumaticky [ru'mætɪkɪ] *a so'zl.* bod kasalligiga oid.
rheumatism ['ru:mətɪzm] *n tib.* revmatizm, bod (*kasallik*).
rheumatiz ['ru:mətɪz] = **rheumatism.**
rhinestone ['raɪnstəun] *n* 1) tog' xrustali; 2) soxta brilliant.
Rhine wine [ˌraɪn'waɪn] *n* reyn veyn (*uzum vinosining bir navi*).
rhino I ['raɪnəu] **rhinoceros** *so'zining qisqartirilgan shakli.*
rhino II ['raɪnəu] *n sl.* pul, aqcha.
rhinoceros [raɪ'nɔsərəs] *n zool.* 1) shoxli qo'ng'iz; 2) karkidon (*toq tuyoqli sutemizuvchilarga mansub, bitta yoki ikkita shoxi bor, terisi qalin, bahaybat katta hayvon*).
rhododendron [ˌrəudə'dendrən] *n bot.* alp atirguli.
rhomb [rɔm] *n mat.* romb (*hamma tomonlari teng parallelogramm*).
rhombi ['rɔmbaɪ] *pl* **rhombus** *dan.*
rhombic ['rɔmbɪk] *a* rombga oid, rombsimon, romb shaklidagi.
rhomboid ['rɔmbɔɪd] *n matem.* parallelogramm (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan to'rtburchak*).
rhombus ['rɔmbəs] *n* romb.
rhubarb ['ru:bɑ:b] *n bot.* ravoch, rivoch (*yirik bargli, ildizi yo'g'on o'tsimon ko'p yillik o'simlik*).
rhumb [rʌm] *n deng.* rumb (*ufqning 32 dan bir qismiga, ya'ni 11,25 ga teng kompas darajasi*).
rhyme [raɪm] *n* qofiya, qofiyali she'r, **double ~** urg'u she'riy satrning oxiridan ikkinchi bo'g'iniga tushadigan qofiya; **single ~** urg'u she'riy satrning oxirgi bo'g'iniga tushadigan qofiya.
rhymed [raɪmd] *a* qofiyali, qofiyadosh, qofiyaga solingan.
rhymer ['raɪmə] = **rhymester.**
rhymester ['raɪmstə] *n* qofiyaboz (*no'noq shoir haqida*).
rhythm ['rɪðəm] *n* ritm, vazn, marom, maqom.
rhythmic(al) ['rɪðmɪk(əl)] *a* ritmli, vaznli, ohangli, bir maqomdagi; uyg'un, bir tekis.
rib [rɪb] *n* 1) qovurg'a; 2) qirra, yon, biqin; 3) o't-kir uch.
ribald ['rɪbəld] **1.** *n* og'zi buzuq odam, qo'pol (dag'al, qo'rs, tarbiyasiz) odam; **2.** *a* uyatsiz, adabsiz, yuzsiz, beor.
ribaldry ['rɪbldrɪ] *n* beodob gap, behayo ibora, so'kinish, qo'pollik, dag'allik, qo'rslik.
ribbed [rɪbd] *a* 1) qovurg'asi chiqqan; 2) qovurg'ali, qirrali, qovurg'asimon.
ribbon ['rɪbən] **1.** *n* lenta, tasma; **typewriter ~** yozuv mashinasining lentasi; **2.** *v* lenta bilan bezamoq.
ribboned ['rɪbənd] *a* lenta bilan bezatilgan.
rice [raɪs] *n* 1) sholi; 2) guruch; 3) *attr.* guruchdan qilingan, guruchli; **~ field** sholipoya.
rice-flakes ['raɪs,fleɪks] *n pl* parchalangan (yanchilgan) guruch.
rice-paper ['raɪs,peɪpə] *n* sholi qog'oz (*sholi poxolidan qilingan yupqa pishiq qog'oz*).
rice-water ['raɪs,wɔ:tə] *n* xo'rda, yovg'on xo'rda; guruch qaynatmasi.
rich [rɪtʃ] *a* 1) boy, badavlat; 2) serhosil, hosildor; **~ harvest** mo'l hosil 2) (diqqat-e'tiborga) arziydigan; qimmatli, loyiq; **a ~ suggestion** e'tibor berishga arziydigan taklif.
Richard Roe [ˌrɪtʃəd'rəu] *n yur.* sud jarayonidagi aybdor (javobgar) shaxs (*asosan, ismi ma'lum bo'lmaganlarga ishlatiladi*).
riches ['rɪtʃɪz] *n* boylik, mol-mulk; **the ~ of the soil** yerosti boyliklari.
richly ['rɪtʃlɪ] *adv* farovon, boy, to'q, hasham bilan.
richness ['rɪtʃnəs] *n* boylik, mol-mulk, dunyo, davlat, hisot.
rick I [rɪk] **1.** *n* g'aram, to'p; **2.** *v* g'aramlamoq, to'plamoq.
rick II [rɪk] = **wrick.**
rickets ['rɪkɪts] *n tib.* (*birlik hamda ko'plikda bir xilda yoziladi*) raxit, shirzada, mechkay (*yosh bolalar kasali*).
rickety ['rɪkɪtɪ] *a* 1) raxit (mechkay) kasalligiga oid; 2) nozik, nimjon, zaif (*sog'liq haqida*); 3) liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, shaloq, bo'sh, liqildoq; **~ chair** omonat (shaloq) stul.
ricksha(w) ['rɪkʃɔ:] *n yap.* riksha (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ikki g'ildirakli aravaga qo'shilib, odam va yuk tashiydigan hammol*).
ricochet ['rɪkəʃeɪ] *n* rikoshet (*otilgan tosh, o'q kabilarning tekkan joyidan sapchib, narı uchib ketishi*).
rictus ['rɪktəs] *n lot.* og'iz bo'shlig'i.
rid [rɪd] *v* **(rid; ridded)** ozod qilmoq, qutqarmoq, qutulmoq, qutqazmoq; **to get ~ of smb., smth.** kimdandir, nimadandir qutulmoq.
ridable ['raɪdəbl] *a* otda yurishga yaroqli.
riddance ['rɪdns] *n* 1) qutqarish, ozod qilish, xalos etish; 2) yo'qotish, yo'q qilish, bartaraf qilish, barham berish.

riddel [ˈrɪdl] *n* darparda (mehrobda) cherkov ibodatxonasida.

ridden [ˈrɪdn] *p. p.* **ride II** *dan.*

-ridden [-rɪdn] *a* murakkab so'zlar oldida ishlatilib (*nimaningdir*) ixtiyorida, izmida, qo'lida; (*nimagadir*) butun vujudi bilan berilgan degan ma'nolarni anglatadi.

riddle I [ˈrɪdl] **1.** *n* topishmoq; cho'pchak; **2.** *v* muammo qilib gapirmoq.

riddle II [ˈrɪdl] *n* g'alvir, katta simg'alvir.

riddled [ˈrɪdld] *a* 1) sepilgan, sochilgan, ekilgan; 2) elangan, elakdan o'tkazilgan.

ride I [raɪd] *n* safar, sayohat, sayr, tomosha (*otga minib, mashinada, velosipedda va b.*).

ride II [raɪd] *v* **(rid, ridden)** otga minmoq, ot minmoq.

ridel [ˈrɪdl] = **riddel.**

rider [ˈraɪdə] *n* otliq, ot mingan kishi, chavandoz.

riderless [ˈraɪdələs] *a* chavandozsiz (*chavandozimi yo'qotgan ot to'g'risida*).

ridge I [rɪdʒ] *n* 1) tog' qirrasi; 2) tog'lar tizmasi.

ridge II [rɪdʒ] *v* 1) dikkaymoq, tikkaymoq; 2) yotmasdan tikka turmoq.

ridged [rɪdʒd] *a* uchi o'tkir, cho'qqili.

ridge-pole [ˈrɪdʒpəul] *n* 1) tortib cho'zish; 2) tirgak (*chodir bo'laklarini mustahkamlab va ma'lum vaziyatda ushlab turadigan to'sin*).

ridgy [ˈrɪdʒɪ] = **ridged.**

ridicule [ˈrɪdɪkjuːl] *n* 1) mazaq (masxara) qilish; 2) masxara, istehzo, zaharxanda; **to hold up to** ~ masxara (kalaka) qilmoq.

ridiculous [rɪˈdɪkjuləs] *a* kulgili, kulgidan boshqaga arzimaydigan, qiziq, qovushmagan.

riding [ˈraɪdɪŋ] **1.** *pres. p.* **ride II** *dan.* **2.** *n* ot minish.

riding-habit [ˈraɪdɪŋˌhæbɪt] *n* amazonka (*chavandoz ayollarning maxsus uzun ko'ylagi*).

riding-hag [ˈraɪdɪŋhæg] *n so'zl.* 1) dahshat, tushunib bo'lmaydigan narsa; 2) bosinqirash, yomon tush.

riding hall [ˈraɪdɪŋhɔːl] *n* usti yopilgan sirk maydoni.

riding master [ˈraɪdɪŋˌmɑːstə] *n* bereytor (*otni minishga o'rgatuvchi va chavandozlikdan ta'lim beruvchi mutaxassis*).

Riesling [ˈriːslɪŋ] *n* risling (*oq uzumning bir turi*).

rife [raɪf] *a* oddiy, odatdagi; **to be** ~ oddiy bo'lmoq.

riffle [ˈrɪfl] *n* 1) jimirlash, mavj urish, mavjlanish; 2) ostonatosh (*daryo tagida ko'ndalang ko'tarilib turgan tosh do'nglik*).

riff-raff [ˈrɪfræf] **1.** *n* tubanlik (razolatga) tushgan kishilar; **2.** *a* keraksiz, foydasiz, nokerak.

rifle [ˈraɪfl] *n* 1) miltiq, beshotar; 2) *harb.* o'qchilar qismi.

rifle-green [ˌraɪflˈgriːn] *a harb.* to'q-ko'k (*ingliz o'qchi askarlari liboslarining rangi*).

rifle-grenade [ˌraɪflgrɪˈneɪd] *n harb.* miltiq granatasi.

rifleman [ˈraɪflmən] *n harb.* o'q otuvchi, mergan; **expert** ~ juda yaxshi mergan.

rifle-range [ˈraɪflreɪndʒ] *n* 1) tir (*nishonga otishni mashq qilish uchun moslangan bino*); 2) otish maydoni (*otish mashqlari, mashg'ulotlari o'tkaziladigan maydon*).

rift [rɪft] *n* 1) yoriq, darz; 2) tog'ning (*tepaning, yerning yorig'i*).

rig I [rɪg] *n* yelkanli kema jihozlari (*yelkan va arqonlar*).

rig II [rɪg] **1.** *n* 1) qiliq, hiyla-nayrang, makr ishlatish (qilish); 2) muttahamlik, makr, hiyla; **2.** *v* muttahamlik (qalloblik, firibgarlik) qilmoq; firib bermoq, aldamoq, tovlamoq.

rigging I [ˈrɪgɪŋ] *n deng.* takelaj (*kemaning kanop va sim arqonlari*).

rigging II [ˈrɪgɪŋ] *pres. p.* **rig II, 2.** *dan.*

right I [raɪt] **1.** *n* 1) haq, huquq; **equal** ~**s** teng huquqlar; 2) to'g'ri (haqqoniy) talab (**to**); 3) imtiyoz, yengillik; ~ **to work** mehnat qilish huquqi; ~**s and duties** huquq va burchlar; 4) kerakli, zarur; 5) sog'lom, yaxshi holatda; **2.** *a* to'g'ri, haq, haqqoniy, adolatli; **to be** ~ to'g'ri (haqli) bo'lmoq; ~ **use of words** so'zlarni to'g'ri ishlatish; **3.** *adv* to'g'ri; **to get it** ~ to'g'ri tushunmoq; **to do a sum** ~ topshiriqni to'g'ri yechmoq; **4.** *v* tuzatmoq, to'g'rilamoq, kamchiliklarni bartaraf qilmoq.

right II [raɪt] *n* o'ng tomon; **on the** ~ o'ng tomonda.

right-angled [ˈraɪtˌæŋgld] *a* to'g'ri burchakli.

right-down [ˈraɪtdaun] *a* ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan, borib turgan, nariyog'i yo'q.

righteous [ˈraɪtʃəs] *a* 1) taqvodor, taqvoli, adolatli; 2) xayrli, ezgu.

righteousness [ˈraɪtʃəsnəs] *n* 1) taqvodorlik; 2) odillik.

rightful [ˈraɪtful] *a* qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan.

right-hand [ˌraɪtˈhænd] *a* o'ng, o'ng tomondagi.

rightist [ˈraɪtɪst] *n* o'ng, reaksioner.

rightly [ˈraɪtlɪ] *adv* 1) to'g'ri, rost; 2) haqqoniy ravishda.

right-minded [ˌraɪtˈmaɪndɪd] *a* yaxshi niyatli, niyati xolis.

rightwards [ˈraɪtwədz] *adv* o'ngga, o'ng tomonga.

right-wing [ˈraɪtwɪŋ] *a* o'ng, reaksion.

rigid [ˈrɪdʒɪd] *a* qattiq, egilmaydigan.

rigidity [rɪˈdʒɪdətɪ] *n* 1) qattiqlik; 2) mustahkamlik.

rigidly [ˈrɪdʒɪdlɪ] *adv* qat'iyan, keskinlik bilan, keskin, uzil-kesil.

rigmarole [ˈrɪgmərəul] *n* bema'ni gap, safsata.

rigorism [ˈrɪgərɪzm] *n* rigorizm (*axloqiy prinsiplarga, qoidalarga juda ham qattiq amal qilish, yopishib olish*).

rigorous ['rɪgərəs] *a* 1) qattiqqo'l, qahri qattiq; 2) sovuq, og'ir; ~ **climate** sovuq iqlim.
rigour ['rɪgə] *n* talabchanlik, qattiqqo'llik.
rile [raɪl] *v* g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq.
rill [rɪl] **1.** *n* 1) kichkina soy, jilg'a, ariq; 2) buloq, chashma; **2.** *v* sharillab oqmoq.
rim [rɪm] *n* 1) (g'ildirak) to'gini, tegarchigi; 2) (ko'zoynak) gardishi; 3) band, halqa, tutqich, dasta (*chelak, sandiq va h.*).
rime I [raɪm] = **rhyme.**
rime II [raɪm] **1.** *n* 1) qirov; 2) bulduriq; 3) sovuq nam havo; **2.** *v* qirov bosmoq.
rimer ['raɪmə] *n tex.* teshikni kengaytirish uchun ishlatiladigan asbob.
rimy ['raɪmɪ] *a* qirov bosgan, qirov tushgan.
rind [raɪnd] 1. *n* po'choq, po'stloq; **2.** *v* po'stloqni shilmoq.
ring I [rɪŋ] **1.** *n* 1) to'da, guruh; 2) uzuk; **2.** *v* 1) halqa qilib o'rab olmoq; 2) uzuk taqmoq.
ring II [rɪŋ] **1.** *n* jarang, jaranglagan ovoz; **2.** *v* jaranglamoq.
ring-dove ['rɪŋdʌv] *n zool.* govkaptar.
ringed [rɪŋd] **1.** *p. p.* **ring I, 2.** *dan*; **2.** *a* 1) aylana bilan belgilamoq; 2) halqali; 3) *ko'chm.* (kimgadir) unashtirilgan.
ringer ['rɪŋə] *n* qo'ng'iroqchi, qo'ng'iroq chaluvchi (*cherkovda*).
ring-fence ['rɪŋfens] *n* devor, panjara (*nimanidir hamma tomonidan qurshab olgan*).
ring-finger ['rɪŋ,fɪŋgə] *n* yon barmoq, so'fi barmoq (*jimjiloq yonidagi to'rtinchi barmoq*).
ringing I ['rɪŋɪŋ] *pres. p.* **ring I, 2.** *dan.*
ringing II ['rɪŋɪŋ] **1.** *pres. p.* **ring II, 2.** *dan*; **2.** *n* jarang, jiring, jaranglash, jaranglagan (jiringlagan) ovoz.
ringleader ['rɪŋ,li:də] *n* 1) boshchi, boshliq, sarkor; 2) yetakchi (boshlab) boruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, yo'lboshchi, rahbar; 3) sababchi, boshlagan (boshlab bergan) kishi.
ringlet ['rɪŋlət] *n* jingalak soch, zulf, gajak.
ringleted ['rɪŋlətɪd] *a* jingalak, sochi jingalak.
ring-mail ['rɪŋmeɪl] *n* sovut.
ring-master ['rɪŋ,mɑ:stə] *n* manej (sirk maydoni) nazoratchisi (inspektori).
ring-net ['rɪŋnet] *n* kapalak tutadigan matrap.
ring ouzel ['rɪŋ,u:zl] *n zool.* qorayaloq (*oq bo'qoqli*).
ringtail ['rɪŋteɪl] *n zool.* bo'ktargi (yirtqich qushlarning bir turi) urg'ochisi.
ringworm ['rɪŋwə:m] *n tib.* moyxo'rak, qirma temiratki.
rink [rɪŋk] **1.** *n* 1) yaxmalak (*konki uchish uchun yaxlatilgan maydon*); 2) *sport.* sketingring (*rolikli konkida uchish uchun belgilangan maydoncha*); **2.** *v* g'ildirakchali konkida uchmoq.
rinse [rɪns] **1.** *n* 1) og'iz (tomoq) chayqaydigan dori; 2) davolash maqsadida suyuqlik bilan chayish, chayqash; **2.** *v* chayqamoq, chaymoq.
rinsing ['rɪnsɪŋ] **1.** *pres.* **rinse 2.** *dan*; **2.** *n* 1) og'iz chayqash; 2) og'iz chayqashdan qolgan suv.
riot ['raɪət] **1.** *n* isyon, qo'zg'olon, g'alayon; **2.** *v* isyon (qo'zg'olon, g'alayon) ko'tarmoq.
rioter ['raɪətə] *n* isyonchi, g'alayonchi; isyon (g'alayon) qatnashchisi.
riotous ['raɪətəs] *a* fe'li tez, battol, to'polonchi.
rip I [rɪp] **1.** *n* 1) yorilish, yorilib ketish; 2) kesik (kesilgan, yorilgan) joy; **2.** *v* qirqmoq, kesmoq, tilmoq, tilimlamoq, qirqib (kesib, tilib) qo'ymoq.
rip II [rɪp] *n* 1) dirdov ot, qirchang'i; 2) *so'zl.* axloqsiz (yomon yo'lga kirgan) odam.
riparian [raɪ'peərɪən] *a* qirg'oq bo'yidagi (*oldidagi*).
ripe [raɪp] *a* 1) yetilgan, pishgan (*meva*); 2) balog'atga (voyaga) yetgan, yetilgan, yetuk.
ripen ['raɪpən] *v* 1) pishmoq, yetilmoq; 2) balog'atga yetmoq.
ripeness ['raɪpnəs] *n* 1) pishganlik, yetilganlik; 2) voyaga yetganlik.
ripping ['rɪpɪŋ] **1.** *pres. p.* **rip I, 2.** *dan*; **2.** *a* hayratda qoldiradigan, larzaga soladigan.
ripple I ['rɪpl] *n* jimirlash, mavj urish.
ripple II ['rɪpl] *n* zig'irpoya tozalaydigan taroq.
ripply ['rɪplɪ] *a* to'lqinli, mavj urib turgan.
rip-saw ['rɪpsɔ:] *n tex.* bo'ylama arra (*yog'ochni uzunasiga tiladigan arra*).
rise [raɪz] **1.** *n* 1) ko'tarish, oshirish, balandroq (yuqoriroq) qilish; **to be on the ~** oshirmoq, ko'tarmoq (*narx-navoni*); 2) ko'tarilgan joy; **2.** *v* (**rose, risen**) ko'tarilmoq, turmoq.
risen ['rɪzn] *p. p.* **rise 2.** *dan.*
risibility [,rɪzə'bɪlətɪ] *n* kulong'ichlik, kulag'onlik.
risible ['rɪzɪbl] *a* 1) bekorga kulaveradigan, kulong'ich, kulag'on; 2) kulgili, kulgini qistatadigan.
rising ['raɪzɪŋ] **1.** *pres. p.* **rise 2.** *dan*; **2.** *a* 1) qo'zg'olon, g'alayon, isyon; 2) turish, o'rnidan turish; 3) chiqish; **the ~ of the sun** quyosh (kun) chiqishi.
risk [rɪsk] **1.** *n* tavakkal, qaltis, xavf-xatar; **2.** *v* jur'at etmoq, tavakkal qilmoq.
risky ['rɪskɪ] *a* qaltis, xatarli, xavfli.
risqué ['rɪskeɪ] *a fr.* 1) xavfli, xatarli; 2) shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan; 3) har xil tushunsa bo'ladigan, ilmoqli (*hazil haqida*).
rissole ['rɪsəul] *n* 1) kotlet; 2) tefteli (*yumaloq qilib qovurilgan qiyma go'sht*).
rite [raɪt] *a* marosim, udum.
ritual ['rɪtʃuəl] *n* udum, tamil, odat.
ritualism ['rɪtʃuəlɪzm] *n* marosimlar, udumlar, rasm-rusumlar.
ritually ['rɪtʃuəlɪ] *adv* marosimga (rasm-rusumga, udumga) ko'ra.
rival ['raɪvl] **1.** *n* raqib, raqobatchi; **a ~ team** raqib jamoa; **2.** *v* raqobat qilmoq.

rivalry [ˈraɪvlrɪ] *n* raqobat, raqiblik, kurash, bahs, bellashuv; **friendly ~** do'stona bellashuv.

rive [raɪv] **1.** *n* yoriq, darz, kovak, tirqish; **2.** *v* **(rived; rived, riven)** 1) yormoq, maydalamoq, parchalamoq; 2) yorilmoq, maydalanmoq, parchalanmoq.

riven [ˈrɪvən] **1.** *p. p.* **rive 2.** *dan*; **2.** *a* maydalangan, parchalangan, yorilgan.

river [ˈrɪvə] *n* 1) daryo, soy, anhor; **by (near) the ~** daryo yoqasida; 2) oqim; **to cross the ~** daryoning narigi qirg'og'iga o'tmoq.

river-bed [ˈrɪvəbed] *n* daryo o'zani.

river-horse [ˈrɪvəˌhɔːs] *n* begemot, suv oti.

riverine [ˈrɪvəraɪn] *a* 1) qirg'oq bo'yidagi, qirg'oq oldidagi, qirg'oq oldi; qirg'oq bo'yi...; 2) daryoga oid, daryo...; daryoda bo'ladigan; 3) daryoda suzishga mo'ljallangan; daryoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan.

riverside [ˈrɪvəsaɪd] *n* 1) qirg'oq bo'yidagi yerlar; 2) daryo qirg'og'i.

rivet [ˈrɪvɪt] **1.** *n* mixparchin, chega; **2.** *v* parchinlamoq, parchinlab qo'ymoq.

riveting [ˈrɪvɪtɪŋ] *a* kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maftunkor.

rivière [ˌrɪvɪˈɛə] *n fr.* marjon, shoda (*bir necha ipli*).

rivulet [ˈrɪvjulət] *n* soy, anhor, ariq, jilg'a, kichkina daryocha.

roach [rəʊtʃ] *n zool.* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*).

road [rəʊd] *n* yo'l; **country ~** qishloq yo'li, tuproq yo'l.

road-bed [ˈrəʊdbed] *n* ko'tarma yo'l *(shag'al to'kib ko'tarilgan yo'l).*

Road-Board [ˈrəʊdbɔːd] *n* shosse yo'llar boshqarmasi.

road-book [ˈrəʊdbuk] *n* 1) yo'l ma'lumotnomasi; 2) avtomobil yo'llarining atlasi.

road clearance [ˌrəʊdˈklɪərəns] *n* yoriqdan tushgan shu'la, yorug'lik.

roadless [ˈrəʊdləs] *a* yo'lsiz, qatnov yo'llari yo'q.

road-metal [ˈrəʊdˌmetl] *n* shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*).

road scraper [ˈrəʊd ˈskreɪpə] *n* tog' ishlari va qurilishlarda ishlatiladigan, tuproq tashiydigan mashina.

road-show [ˈrəʊdʃəʊ] *n amer.* teatr *yoki* sirk ijodiy guruhining safardagi tomoshasi.

roadside [ˈrəʊdsaɪd] **1.** *n* yo'l qirg'og'i (cheti, yoqasi); **2.** *a* yo'l bo'yidagi.

roadstead [ˈrəʊdsted] *n dcng.* reyd (*portga kirish oldida kemalar to'xtab turadigan qulay joy*).

roadster [ˈrəʊdstə] *n* yo'l (safar) velosipedi.

road-test [ˈrəʊdtest] *v amer.* mashinani tabiiy sharoitda sinab ko'rmoq.

roadway [ˈrəʊdweɪ] *n* 1) shosse (*asfalt, beton kabilar yotqizilgan katta yo'l*); 2) to'shama yo'l (*tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan yo'l*); 3) transport yuradigan yo'l.

roam [rəʊm] **1.** *n* darbadarlik, joydan joyga ko'chib yurish, darbadar kezish, ovorayi jahon bo'lib yurish, sargardonlik; **2.** *v* 1) tentiramoq; 2) olamni (elma-el, yurtma-yurt) kezmoq; 3) darbadar kezmoq, sargardon bo'lmoq, aylanmoq; **~ about the world** dunyoni kezmoq.

roan I [rəʊn] **1.** *a* burul (*ko'kish, xoldor*); **2.** *n* burul ot.

roan II [rəʊn] *n* yumshoq qo'y terisi (*muqovalar uchun*).

roar [rɔː] **1.** *n* bo'kirish, o'kirish, na'ra; uvillash (*hayvonlar*); **2.** *v* bo'kirmoq, na'ra tortmoq.

roarer [ˈrɔːrə] *n* 1) baqiroq odam, shang'i; baqirib gapiradigan odam; 2) issiqlatilgan ot.

roaring [ˈrɔːrɪŋ] **1.** *pres. p.* **roar 2.** *dan*; **2.** *n* bo'kirish, o'kirish.

roast [rəʊst] **1.** *n* jarkop, qovurma; **2.** *a* qovurilgan; **3.** *v* qovurmoq, pishirmoq.

roaster [ˈrəʊstə] *n* 1) manqal, manqaldon, tova; 2) kabob ko'ra.

roasting-jack [ˈrəʊstɪŋdʒæk] *n* kabob sixi.

rob [rɔb] *v* o'g'irlamoq, bosqinchilik qilmoq, talamoq, shilmoq.

robber [ˈrɔbə] *n* 1) bosqinchi, bosmachi; o'g'ri; 2) qaroqchi, yo'lto'sar.

robbery [ˈrɔbərɪ] *n* 1) o'g'irlik, o'g'irlash; 2) bosqinchilik, talash, talonchilik.

robe [rəʊb] *n* keng kiyim; chopon.

robin [ˈrɔbɪn] *n* 1) *sl.* penni (*finlarda: mayda pul, chaqa*); 2) *zool.* malinovka (*chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush*).

robot [ˈrəʊbɔt] *n* robot (*odamsimon harakat qiladigan avtomat*).

robust [rəʊˈbʌst] *a* 1) mahkam, qattiq, mustahkam; 2) sog'lom, baquvvat, tetik, chidamli.

robustious [rəʊˈbʌstʃəs] *a* 1) kuchli, shiddatli, qattiq; 2) sershovqin, shovqinli.

rock I [rɔk] *n* 1) qoya, jarlik; 2) osilib turgan qoyatosh, tik qoya.

rock II [rɔk] *v* silkinmoq, tebranmoq; **to ~ cradle** beshikni tebratmoq, allalamoq.

rock III [rɔk] *n esk.* charx, ip yigiradigan charx.

rock-crystal [ˌrɔkˈkrɪstl] *n* tog' (billuri) kristali.

rock-drill [ˈrɔkdrɪl] *n tex.* 1) perforator (*tog' jinslarini parmalovchi mashina*); 2) burg'ilash iskanasi.

rocker [ˈrɔkə] *n* tebranma kursi.

rocket [ˈrɔkɪt] **1.** *n* 1) raketa; 2) raketa dvigatelli; 3) reaktiv snaryad; **2.** *v* 1) ko'tarilmoq, parvoz qilmoq; 2) raketa uchirmoq.

rocking-chair [ˈrɔkɪŋtʃeə] *n* tebranma kursi.

rocky [ˈrɔkɪ] *a* qoyalardan iborat, qoyali, serqoya, toshli.

rod [rɔd] *n* xipchin, novda, xivich, chiviq, savag'ich.

rode [rəʊd] *past.* **ride II** *dan.*

rodent [ˈrəʊdnt] *n zool.* kemiruvchi.
roe [rəʊ] *n* ikra, uvuldiriq (*baliq, baqa va h.k. tuxumi, urug'i*).
rogue [rəʊg] *n* tovlamachi; aldamchi, firibgar, qallob, muttaham; **~ry** muttahamlik, qalloblik, firibgarlik, aldamchilik, tovlamachilik.
roguish [ˈrəʊgɪʃ] *a* muttahamroq, qallobroq, aldam-qaldam ishlarga moyil.
roister [ˈrɔɪstə] *v* jamoat tartibini buzmoq, o'zboshimchalik (beboshlik) qilmoq.
role [rəʊl] *n* 1) rol, ahamiyat, xizmat, tutgan o'rin; 2) rol (*sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz*).
roll [rəʊl] **1.** *n* 1) hushtak; 2) o'ralgan narsa; 3) bog'lam, dasta; 4) gumbur-gumbur, gumburlash; **2.** *v* 1) o'ramoq; 2) dumalamoq; 3) g'ildiramoq.
roll-call [ˈrəʊlkɔːl] *n* bir-biriga ovoz (tovush) berib turish, bir-birini chaqirib turish.
roller [ˈrəʊlə] *n* 1) *tex.* val, silindr; rolik; 2) to'lqin, po'rtana, mavj.
roller-mill [ˈrəʊləmɪl] *n* jo'vali tegirmon.
roller towel [ˈrəʊlə,taʊəl] *n* bir rulon (g'o'la shaklida o'ralgan) sochiq.
rollick [ˈrɔlɪk] **1.** *n* sershovqin (g'ovur-g'uvur) o'yin-kulgi; **2.** *v* vaqtini chog' qilmoq, quvonmoq.
rolling-pin [ˈrəʊlɪŋpɪn] *n* o'qloq, jo'va.
rolling-stock [ˈrəʊlɪŋstɔk] *n* harakatdagi sostav (*parovoz va vagonlar*).
roly-poly [ˌrəʊlɪˈpəʊlɪ] *n* murabboli pudding.
Roman [ˈrəʊmən] *n* rimliklar (*qadimgi Rim davlatining aholisi*).
romance [rəʊˈmæns] *n* G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda: ritsarlarning ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarini tasvirlaydigan adabiy asar.
romantic [rəʊˈmæntɪk] *a* xayolparast.
romp [rɔmp] **1.** *n* to'polon, shovqin-suron; **2.** *v* tipirchilamoq, o'ynashmoq.
roof [ruːf] *n* 1) tom, boshpana; **iron ~** tunuka tom; **to live under the same ~** bir uyda yashamoq; 2) kulba.
rook I [rʊk] *n shaxm.* rux.
rook II [rʊk] *n* 1) go'ngqarg'a; 2) muttaham, qallob, firibgar; aldamchi.
room [ruːm] *n* uy; joy; xona; **to make ~ for** joy bo'shatmoq.
room-mate [ˈruːmmeɪt] *n* xonadosh.
roomy [ˈruːmɪ] *a* keng, uzun.
roost [ruːst] *n* 1) qo'noq, qo'ndoq (*masalan: tovuqlarniki*); 2) yotoq (uy); yotoqxona, uxlash xonasi.
rooster [ˈruːstə] *n* 1) xo'roz; 2) urishqoq, janjalkash; jangari.
root [ruːt] **1.** *n* 1) ildiz; 2) o'zak; negiz; **2.** *v* ildiz otmoq.
rootlet [ˈruːtlət] *n* 1) yangi novda, shox, butoq; 2) tomircha, ildizcha.
rope [rəʊp] **1.** *n* arqon; arg'amchi; **2.** *v* arqon bilan bog'lamoq.
rosary [ˈrəʊzərɪ] *n* 1) gulzor, atirgulzor, gulbog'; 2) tasbeh.
rose I [rəʊz] *n* atirgul; **no ~ without a thorn** atirgul tikansiz bo'lmas.
rose II [rəʊz] *past.* **rise 2** *dan.*
rosebud [ˈrəʊzbʌd] *n* atirgul g'unchasi.
rose-bush [ˈrəʊzbʊʃ] *n* atirgul tupi, bir tup atirgul.
rosette [rəʊˈzet] *n* 1) rozetka (*xotin-qizlar ko'ylagiga, shlapasiga taqiladigan lentadan qilingan gul-bezak*); 2) *me'mor.* to'pbarggul shaklidagi bezak, naqsh.
rosin [ˈrɔzɪn] *n* smola, yelim (*ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*).
roster [ˈrəʊstə] *n* 1) *harb.* navbatchilik jadvali; 2) ro'yxat.
rostrum [ˈrɔstrəm] *n* (*pl* **-ra, -s** [-z]) 1) minbar, tribuna; 2) tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*).
rosy [ˈrəʊzɪ] *a* qizil, qizg'ish, pushti rang, och qizil.
rot [rɔt] **1.** *n* chirish, irish, buzilish, sasish, aynish; **2.** *v* chirimoq, buzilmoq; **~ten** chirigan; buzilgan.
rota [ˈrəʊtə] *n* navbatchilik jadvali.
rotary [ˈrəʊtərɪ] *a* aylanadigan, aylanma; **~ current** ko'p fazali tok.
rotate [rəʊˈteɪt] *v* aylantirmoq, buramoq, aylanmoq.
rotation [rəʊˈteɪʃn] *n* 1) aylanish; 2) galma-gal qilish, almashtirib turish; 3) vaqt-vaqti bilan takrorlanib turish.
rote I [rəʊt] *n amer.* qirg'oqqa uriladigan to'lqinlarning shovullashi (shovqini).
rote II [rəʊt] *n* tushunmasdan yodlab olish.
rotten [ˈrɔtn] *a* chirigan, irigan; chirib qolgan; buzilgan; sasigan, aynigan; palag'da, sasigan, hidlangan.
rotter [ˈrɔtə] *n sl* hech narsaga arzimaydigan odam.
rottweiler [ˈrɔtwaɪlə] *n* rotveyler (*itning zoti*).
rotund [rəʊˈtʌnd] *a* to'liq, to'la, liq to'la, semiz, to'ladan kelgan; dum-dumaloq.
rouble [ˈruːbl] *n* rubl (*pul birligi*).
rouge [ruːʒ] *n* 1) pushti-qizil yog'upa (bo'yoq); 2) lab bo'yog'i (pomadasi).
rough [rʌf] *a* 1) dag'al, badhazm; **~ food** dag'al (badhazm) ovqat; 2) notekis, past-baland o'ydim-chuqur (*yo'l haqida*); **~ country** o'nqir-cho'nqir joy; 3) qo'pol, to'ng, qo'rs; **a ~ customer** qo'pol muomala odam; 4) ishlov berilmagan, qora; **~ copy** oqqa ko'chirilmagan qo'lyozma *yoki* daftar; 5) bo'ronli, to'lqinli.
roughage [ˈrʌfɪdʒ] *n* 1) dag'al xashak; 2) dag'al (badhazm) ovqat; 3) dag'al, qo'pol, to'ng, qo'rs.
roughcast [ˈrʌfkɑːst] *n* dastlabki loyiha.
roughen [ˈrʌfn] *v* qo'pollashmoq, dag'allashmoq, qo'rslashmoq.
rough-neck [ˈrʌfnek] *n amer. so'zl.* to'polonchi, urishqoq, battol.
roulette [ruːˈlet] *n fr.* ruletka (*aylanib turuvchi gardishga raqamlar qo'yilgan bir xil qimor o'yini*).

Roumanian [ruˈmeɪnɪən] *a* ruminlar *yoki* Ruminiyaga oid; rumin... .

round [raund] **1.** *n* aylana, doira, aylanma yo'l; **2.** *a* 1) yumaloq, dumaloq; 2) sharsimon, sharga o'xshagan; **~ back** bukchayganlik, yelkasi chiqqanlik; **3.** *v* tugallamoq, silliqlamoq; **to ~ a sentence** jumlani silliqlamoq; **4.** *adv* 1) atrofga, tevarak-atrofga; atrofda; **~ about** gapni aylantirib, masalaga yaqindan yondashmay (yonverida aylanib); **5.** *prep.* atrofida, tevaragida; **~ the world** yer yuzi (dunyo) bo'ylab.

roundabout [ˈraundəbaut] **1.** *a* chetlab o'tadigan, chet, aylanish, aylanma; **2.** *n* aylanma yo'l.

rounders [ˈraundəz] *n pl* inglizlarning chillak o'yini.

roundhead [ˈraundhed] *n* boshi yumaloq, yumaloq bosh.

roundly [ˈraundlɪ] *adv* 1) yumaloq (dumaloq) qilib; 2) ro'yirost, ochiqdan-ochiq, dangal.

round-up [ˈraundʌp] *n* 1) burilish, qayrilish; 2) qurshab olish, o'rash; 3) qurshov.

rouse [rauz] *v* qo'zg'atmoq, uyg'otmoq.

rout [raut] **1.** *n* tor-mor qilish; tor-mor bo'lish; **2.** *v* yer bilan yakson qilmoq; tor-mor keltirmoq.

route [ruːt] *n* yo'l, yo'nalish, marshrut.

routine [ˌruːˈtiːn] *n* aniq belgilangan tartib, o'rnatilgan tartib.

routinely [ˌruːˈtiːnlɪ] *adv* joriy etilgan tartibda.

rove I [rəuv] **1.** *n* olamni kezish, sayohat, safar; **2.** *v* olamni kezmoq, sayohat qilmoq.

rove II [rəuv] *n* 1) *tex.* shayba; 2) xom ip, xom (biroz) pishitilgan ip.

row I [rəu] *n* qator, saf.

row II [rau] **1.** *n* eshkak; **2.** *v* eshkak eshmoq; **to ~ a race** eshkak eshish musobaqasida qatnashmoq.

rowan [ˈrauən] *n* chetan (*daraxti va mevasi*).

rowdy [ˈraudɪ] **1.** *n* urishqoq, to'poloncht; **2.** *a* shovqin-suronli, sershovqin.

rowlock [ˈrɔlək] *n* eshkak qulog'i (*qayiq yonida eshkak o'rnatiladigan ayri va shu ayri qozig'i uchun qilingan teshik*).

royal [ˈrɔɪəl] *a* 1) qirolga oid, podshoga (shohga) oid; **a ~ palace** qirol saroyi; 2) shohona.

royalty [ˈrɔɪəltɪ] *n* 1) qirol (podsho) hokimiyati; 2) mualliflik qalam haqi.

rub [rʌb] *v* 1) surtmoq, surkamoq, uqalamoq, ishqalamoq. ishqamoq; 2) artmoq; 3) o'chirmoq (*so'zni*).

rubble [ˈrʌbl] *n* tosh yoki g'isht bo'laklari.

rubber [ˈrʌbə] *n* o'chirg'ich, rezina.

rubbish [ˈrʌbɪʃ] *n* 1) eski-tuski. lash-lush, latta-putta. 2) bema'ni (behuda) gap.

rubella [ruˈbelə] *n tib.* qizilcha (*bolalar kasalligi*).

rubicund [ˈruːbɪkənd] *a* qizil, qip-qizil, qirmizi (*yuz haqida*).

ruby [ruːbɪ] **1.** *n* la'l, yoqut; **2.** *a* qip-qizil, to'q qizil.

rucksack [ˈrʌksæk] *n* yuk xalta.

rudder [ˈrʌdə] *n av.* rul.

ruddy [ˈrʌdɪ] *a* qizil, qip-qizil, qizargan.

rude [ruːd] *a* qo'pol; qo'rs, to'ng, to'rs.

rudely [ˈruːdlɪ] *adv* qo'pollik bilan, qo'pollik qilib.

rudeness [ˈruːdnəs] *n* qo'pollik, dag'allik.

rudimentary [ˌruːdɪˈmentərɪ] *a* boshlang'ich, ibtidoiy.

rudiments [ˈruːdɪmənts] *n* boshlang'ich (*ma'lumotlar*).

rue I [ruː] *n* rahmi kelish, achinish. rahm qilish, shafqat.

rue II [ruː] *n bot.* toshbaqa toli (*zaharli sariq gulli buta o'simlik*).

rueful [ˈruːfl] *a* 1) ma'yus, g'amgin, umidsiz; 2) ayanchli, achinarli.

ruff I [rʌf] *n* burma hoshiya (*biror narsaning ustiga burib tikiladigan yengil mato*).

ruff II [rʌf] *n zool.* bir turli serqiltanoq baliq.

ruff III [rʌf] **1.** *n* kuzir (*kartada*); **2.** *v* kuzir bilan bosmoq.

ruffian [ˈrʌfɪən] *n* 1) kallakesar; bezori; 2) bosmachi, bosqinchi; 3) yaramas, ablah, qabih odam.

ruffle I [ˈrʌfl] *n* jimirlash, mavj urish.

ruffle II [ˈrʌfl] *n* nog'oraning do'pir-do'piri (takir-tukiri).

rug [rʌg] *n* gilam, gilamcha, kichkina gilam.

rugby [ˈrʌgbɪ] *n sport.* regbi (*futbolning bir turi*).

rugged [ˈrʌgɪd] *a* notekis, g'adir-budur, past-baland; o'ngir-cho'ngir.

ruin [ˈruːɪn] **1.** *n* 1) xaroba, vayrona; **to fall into ~** xarobaga aylanmoq; 2) barbod bo'lish, halok bo'lish, qulash; **2.** *v* 1) xarob qilmoq; 2) inqirozga uchratmoq.

ruinous [ˈruːɪnəs] *a* xarob qiladigan, xonavayron (kafangado) qiladigan.

rule [ruːl] **1.** *n* 1) hukmronlik, boshqarish; 2) qoida; **the ~ of the game** o'yin qoidasi; **2.** *v* idora qilmoq, boshqarmoq.

ruler I [ˈruːlə] *n* hokim, hukmdor, idora qiluvchi, boshqaruvchi.

ruler II [ˈruːlə] *n* chizg'ich.

ruling [ˈruːlɪŋ] **1.** *a* hukmron, hukumat tepasida turuvchi, idora qiluvchi; **2.** *n* boshqarish.

rum I [rʌm] *n* 1) rom (*kuchli spirtli ichimliklarning bir xili*), 2) spirtli ichimlik.

rum II [rʌm] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, g'alati; **~ fellow** g'alati (tentaksimon) odam.

Rumanian [ruˈmeɪnɪən] = **Roumanian.**

rumble [ˈrʌmbl] *n* 1) guldurash, gumburlash, gumbur-gumbur; 2) norozilik, hasrat, shikoyat, nolish.

ruminate [ˈruːmɪneɪt] *v* saqich chaynamoq.

rummage [ˈrʌmɪdʒ] *n* qidiruv, qidirish, izlash, axtarish; tintuv, taftish.

rummy [ˈrʌmɪ] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, g'alati.

rumour [ˈruːmə] **1.** *n* mish-mish gap, ovoza; **2.** *v* ovoza tarqatmoq, mish-mish tarqatmoq.

rumoured [ˈruːməd] *a* odamlarning aytishiga ko'ra ma'lum bo'lgan; **it is ~ that** ... degan mish-mishlar tarqalib yuribdi.
rump [rʌmp] *n* dumg'aza; son go'shti.
rumple [ˈrʌmpl] *v* to's-to'polon qilmoq, tartibsizlik qilmoq.
run [rʌn] *v* (**ran; run**) 1) chopmoq, yugurmoq; 2) tez tarqalmoq (*olov, yangilik haqida*); 3) yurmoq; 4) oqmoq; 5) olib bormoq; 6) rahbarlik qilmoq.
runaway [ˈrʌnəweɪ] *n* qochoq, qochqin.
rung [rʌŋ] **1.** *n* (*tirab qo'yiladigan*) narvonning pog'onasi; **2.** *v p. p.* **ring II, 2.** *dan.*
runner [ˈrʌnə] *n* yuguruvchi; chopuvchi, chopish bilan shug'ullanuvchi sportchi.
running [ˈrʌnɪŋ] **1.** *pres. p.* **run** *dan*; **2.** *a* chopadigan, yuguradigan; **~ track** yugurish yo'lkasi.
running-board [ˈrʌnɪŋbɔːd] *n* zina, zinapoya (*avtomobilda*).
runny [ˈrʌnɪ] *a* oquvchan, (suyulib) oqib ketadigan, suyuq.
runway [ˈrʌnweɪ] *n* uchish va qo'nish yo'lagi.
rupture [ˈrʌptʃə] *n* yorib o'tilgan joy, teshik, yoriq.
rural [ˈruərəl] *a* qishloqqa xos bo'lgan.
ruse [ruːz] *n* hiyla, nayrang, makr ishlatish, makkorlik, ayyorlik.
rush [rʌʃ] **1.** *v* 1) yeldek yugurmoq; 2) tashlanmoq; 3) shoshiltirmoq; **2.** *n* 1) tez (ildam, jadal) harakat; 2) bosish, bosim; 3) intilish, kuchli orzu, niyat, ishtiyoq (*nimagadir*).
rush-hours [ˈrʌʃauəz] *n pl* tig'iz payt.
rusk [rʌsk] *n* to'g'rab qotirilgan non, qoq non.
russet [ˈrʌsɪt] *n* yomon qilib qo'lda to'qilgan jun gazlama.
Russian [ˈrʌʃn] **1.** *n* 1) rus, rus kishi; 2) rus tili; **2.** *a* ruslarga oid.
rust [rʌst] **1.** *n* zang; **2.** *v* zanglamoq, zang bosmoq.
rustic [ˈrʌstɪk] *a* dag'al, xomaki ishlov berilgan.
rusticate [ˈrʌstɪkeɪt] *v* qishloqcha hayot kechirmoq.
rustle [ˈrʌsl] *v* shitirlamoq, shildiramoq.
rustler [ˈrʌslə] *n* shitirlaydigan narsa.
rusty I [ˈrʌstɪ] *a* zanglagan, zang bosgan, zanglab qolgan.
rusty II [ˈrʌstɪ] *a* taxir, achigan.
rusty III [ˈrʌstɪ] *a* 1) asov, qaysar, ters, bo'y bermaydigan (*ot haqida*); 2) *so'zl.* tez achchiqlanadigan, serzarda, serjahl.
rut [rʌt] *n* 1) egat, jo'yak; 2) g'ildirak izi; arava izi.
ruthless [ˈruːθlɪs] *a* berahm, shafqatsiz; ayamaydigan, achinmaydigan; **~ness** shafqatsizlik, rahmsizlik.
rye [raɪ] *n* javdar, javdari bug'doy; qora bug'doy (*o'simligi*).
rye-bread [ˈraɪbred] *n* qora bug'doy unidan qilingan non.
ryot [ˈraɪət] *n* hind dehqoni, ziroatchisi.

Ss

S, s [es] *n* ingliz tili alifbosining o'n to'qqizinchi harfi.
sabbath [ˈsæbəθ] *n* 1) (*yevreylarda*) shanba; 2) (*xristianlarda*) yakshanba (*dam olish kunlari to'g'risida*).
sabbath-school [ˈsæbəθskuːl] *n* yakshanba maktabi (*revolutsiyadan ilgarigi Rossiyada: katta yoshdagi kishilar uchun yakshanba kunlari ishlagan maktab*).
sabbatic(al) [səˈbætɪk(əl)] *a* 1) yakshanba kuniga oid, yakshanba kunidagi, yakshanba kungi, (*xristianlarda dam olish kunlari bo'ladigan ishlar nazarda tutilgan*); 2) shanba kuniga oid, shanba kunidagi, shanba kungi (*yevreylarda*).
saber [ˈseɪbə] *amer.* = **sabre.**
sable I [ˈseɪbl] *n* 1) sobol, Kamchatka suvsari; 2) sobol mo'ynasi; 3) *attr.* sobolga oid, suvsar mo'ynasi.
sable II [ˈseɪbl] **1.** *n* 1) qora rang; 2) *pl* motam, aza; **2.** *a* motam (azaga) oid.
sabot [ˈsæbəu] *n* yog'och kavush.
sabotage [ˈsæbətɔːʒ] *n* 1) ishdan bo'yin tovlash; 2) zimdan qarshilik ko'rsatish, to'sqinlik qilish.
saboteur [ˌsæbəˈtɜː] *n fr.* qo'poruvchi.
sabre [ˈseɪbə] *n* qilich, shamshir.
sabre-rattler [ˈseɪbərætlə] *n* urush olovini yoquvchi.
sabre-rattling [ˈseɪbərætlɪŋ] *n* qilich yalang'ochlash, qurolni pesh qilish, urish bilan do'q urish (po'pisa qilish, tahdid solish).
sabre-toothed [ˌseɪbəˈtuːθt] *a zool.* o'tkir tishli, tishi o'tkir.
sabulous [ˈsæbjuləs] *a* qumli, qum bilan qoplangan.
sac [sæk] *n* 1) *biol.* qopchiq, xalta, xaltacha; 2) sak (*ayollarning keng paltosi*).
saccate [ˈsækeɪt] *a biol.* 1) qopchiq (xalta, xaltacha) shaklidagi; 2) qopchiqqa (xaltachaga) joylashtirilgan.
saccharic [səˈkærɪk] *a* qand (*shakar*)...; **~ acid** qand (*shakar*) kislotasi.
saccharify [səˈkærɪfaɪ] *v kim.* kraxmalga (qandga) aylantirmoq.
saccharin [ˈsækərɪn] *n* saxarin (*qand o'rnida ishlatiladigan juda shirin kimyoviy modda*).
saccharine I [ˈsækəriːn] = **saccharin.**
saccharine II [ˈsækəriːn] *a* 1) qandga, shakarga va uni ishlab chiqarishga oid; 2) qanddan (shakardan) iborat bo'lgan.
saccharose [ˈsækərəus] *n kim.* saxaroza, o'simlik (lavlagi, shakarqamish) shakari.
sacciform [ˈsæksɪfɔːm] *a biol.* qopchiq (xalta, xaltacha) shaklidagi.
sacerdotal [ˌsæsəˈdəutl] *a* kashish (pop *yoki* ruhoniy) larga oid.

sacerdotalism [ˌsæsəˈdəutəlɪzm] *n* ruhoniylar hokimiyatini tan oladigan davlat boshqarmasidagi tuzum.

sachem [ˈseɪtʃəm] *n amer.* dohiy, sardor, qabila boshlig'i (*bir necha hind qabilalarida*).

sachet [ˈsæʃeɪ] *n* 1) kichkina paketcha (quticha); 2) dastro'mol solib qo'yiladigan xaltacha.

sack I [sæk] **1.** *n* talash, talon-taroj qilish, o'g'irlash, o'g'irlab ketish; **2.** *v* talamoq, o'g'irlamoq, shilmoq, bosqinchilik qilmoq.

sack II [sæk] **1.** *n* qop, to'rva; **2.** *v* qopga solmoq.

sackcloth [ˈsækklɔθ] *n* 1) kanopdan to'qilgan mato; 2) qop-qanor tikiladigan mato; 3) dag'al kanop mato.

sack-coat [ˈsækkəut] *n* ochiq (keng) palto.

sackful [ˈsækful] *n* (*biror narsa bilan*) to'ldirilgan qop; **~ of grain** bir qop g'alla bilan to'la.

sacking [ˈsækɪŋ] *n* 1) qop-qanor tikiladigan mato; 2) qopga solish.

sack-race [ˈsækreɪs] *n* qop ichida yugurish.

sacra [ˈseɪkrə] *pl* **sacrum** *dan.*

sacral [ˈseɪkrəl] *a* 1) marosimlarga oid, marosimlarda bo'ladigan; 2) diniy marosim munosabati bilan o'tkaziladigan.

sacrament [ˈsækrəmənt] *n cherk.* 1) sirli ibodat (*dindorlarning e'tiqodiga ko'ra, mo'jizakor ilohiy kuchga ega bo'lgan diniy marosim*); 2) ramz, belgi; 3) ont ichish, qasamyod qilish, ont, qasam.

sacramental [ˌsækrəˈmentl] *a* 1) diniy marosimlarda bo'ladigan (aytiladigan, qilinadigan); 2) muqaddas, aziz, mo'tabar, tabarruk.

sacred [ˈseɪkrɪd] *a* muqaddas, tabarruk, aziz; **it's my ~ duty to do this** buni bajarish mening muqaddas burchim.

sacrifice [ˈsækrɪfaɪs] **1.** *n* 1) qurbonlik, qurbon; 2) qurbon berish, voz kechish, fido qilish, tikish, bahridan o'tish; **to make a ~** qurbon (fido) qilmoq; **2.** *v* 1) ...ni qurbon qilmoq; 2) qurbonlik qilmoq.

sacrificial [ˌsækrɪˈfɪʃl] *a* 1) qurbonlik qilishga (qurbonlikka) oid; 2) qurbonlikka atalgan.

sacrilege [ˈsækrəlɪdʒ] *n* 1) shakkoklik, xudobezorilik, munkirlik, kofirlik; 2) muqaddas narsalarni oyoqosti qilish.

sacrilegious [ˌsækrɪˈlɪdʒəs] *a* 1) shakkoklikdan iborat bo'lgan; 2) dinni, muqaddas narsalarni, joylarni tahqirlovchi, shakkok, kofir.

sacristy [ˈsækrɪstɪ] *n* rizaxona (*rizalar va cherkov anjomlari saqlanadigan bino, ombor*).

sacrosanct [ˈsækrəusæŋkt] *a* 1) ilohiy deb hisoblanadigan, ilohiy; 2) daxlsiz (*qonun himoyasidagi*).

sacrum [ˈseɪkrəm] *n* (*pl* **-ra**) *anat.* dumg'aza.

sad [sæd] *a* g'amgin, ma'yus; qayg'uli, xafa; **a ~ mistake** achinarli xato.

sadden [ˈsædn] *v* 1) xafa qilmoq, qayg'uga solmoq; 2) xafa bo'lmoq, qayg'urmoq, achinmoq.

saddle [ˈsædl] **1.** *n* 1) egar; 2) tog' beli (*tog'ning ikki cho'qqi o'rtasidagi qismi*); **2.** *v* egarlamoq.

saddleback [ˈsædlbæk] *n* tog' beli, ikki cho'qqi orasi.

saddle-bag [ˈsædlbæg] *n* egar ustidagi yukqop, xurjun, xalta.

saddle-blanket [ˈsædl,blæŋkɪt] *n* terlik (*to'qim tagiga solinadigan namat*).

saddle-bow [ˈsædlbəu] *n* egar qoshi (*yoki* orqasi).

saddle-cloth [ˈsædlklɔθ] *n* yopqich, yopiq, jabduq (*egar ostidan otga yopiladigan mato*).

saddlefast [ˈsædlfɑ:st] *a* egarga mahkamlab qo'yilgan, egarni mahkam tutib turadigan.

saddle-girth [ˈsædlgɜ:θ] *n* qorinbog', ayil.

saddle-horse [ˈsædlhɔ:s] *n* salt ot, miniladigan ot.

saddle-pin [ˈsædlpɪn] *n* egarni tutib turish uchun xizmat qiladigan tirgak (*velosiped va h.*).

saddler [ˈsædlə] *n* 1) egar yasaydigan usta, egarchi; 2) sarroj (*egar-jabduq ustasi*).

saddlery [ˈsædlərɪ] *n* 1) sarrojlik ustaxonasi; 2) egar-jabduq va boshqa qayishdan buyumlar tayyorlash ishlari.

saddle shoes [ˈsædlʃu:z] *n pl* rangli boshliqli tufli (*etik boshlig'i*).

saddle-spring [ˈsædlsprɪŋ] *n* egardagi amortizator (*velosipedda*).

saddle-tree [ˈsædltri:] *n* 1) velosiped o'rindig'ining karkasi (qobirg'asi); 2) lola daraxti (*guli lolaga o'xshab ochiladigan daraxt*).

sad-iron [ˈsæd,aɪən] *n* katta (*og'ir*) dazmol.

sadism [ˈseɪdɪzm] *n* sadizm, o'ta shafqatsizlik, birovni qiynab lazzatlanish.

sadist [ˈseɪdɪst] *n* sadist, o'ta shafqatsiz (birovni qiynab lazzatlanuvchi) odam, zolim.

sadly [ˈsædlɪ] *a* 1) xafa bo'lib, qayg'u bilan; 2) baxtga qarshi, afsuski.

sadness [ˈsædnɪs] *n* 1) qayg'u, hasrat, g'am-g'ussa, anduh; 2) ma'yuslik, umidsizlik.

safari [səˈfɑ:rɪ] *n arab.* (*asosan, Sharqiy Afrikada*) ov ekspeditsiyasi (*ekspeditsiya – biror maqsad bilan uyushtirilgan safar*).

safe [seɪf] **1.** *n* po'lat sandiq, temir sandiq; **2.** *a* 1) zarar (shikast) topmagan, ziyon-zahmatsiz; 2) ishonchli, xavf-xatardan xoli, xavfsizlikda; 3) xavfsiz, xavf-xatarsiz, xavf-xatardan xoli.

safe conduct [ˌseɪfˈkɔndʌkt] *n* soqchilar, qo'riqchilar, mudofaachilar.

safe deposit [ˈseɪfdɪˌpɔzɪt] *n* narsalar saqlanadigan joy.

safeguard [ˈseɪfgɑ:d] **1.** *v* himoya qilmoq, qo'riqlamoq; **2.** *n* himoya qilish, saqlash, qo'riqlash.

safely [ˈseɪflɪ] *adv* 1) bexatar (xavfsiz, xavf-xatarsiz) holda; 2) xotirjamlik bilan.

safety [ˈseɪftɪ] *n* xavfsizlik, xavf-xatarsizlik, bexatarlik.

safety-belt [ˈseɪftɪbelt] *n* 1) qutqarish kamari; 2) *av.* bog'lanadigan (bog'lanma) kamar.

safety-bolt [ˈseɪftɪbəult] *n tex.* saqlash bolti.

safety curtain [ˈseɪftɪˌkɜ:tn] *n teatr.* asbestdan qilingan yong'inga qarshi parda.

safety film ['seɪftɪfɪlm] *n* yonmaydigan kinoplyonka.

safety fuse ['seɪftɪfju:z] *n* 1) *tog'.* bikford piltasi (shnuri); 2) *el.* eriydigan saqlagich (predoxranitel).

safety glass ['seɪftɪglɑ:s] *n* sinmaydigan oyna (*shisha*).

safety island ['seɪftɪ,aɪlənd] *n* xavfsizlik yo'lakchasi (*piyodalar uchun*).

safety lamp ['seɪftɪlæmp] *n* kon lampasi, konda ishlatiladigan lampa.

safety match ['seɪftɪmætʃ] *n* xavfsiz gugurt.

safety-nut ['seɪftɪnʌt] *n tex.* kontrgayka (*asosiy gayka ho'shab ketmasligi uchun uning ustidan burab qo'yiladigan ikkinchi gayka*).

safety-pin ['seɪftɪpɪn] *n* xavfsiz nina to'g'nag'ich.

safety razor ['seɪfɪ,reɪzə] *n* xavfsiz ustara.

safety strip ['seɪftɪstrɪp] *n* xavfsizlik chizig'i (mintaqasi) (*o'rmonda yong'in yoyilib ketmasligi uchun ogohlantiruvchi daraxtlarni kesish*).

safety-valve ['seɪftɪvælv] *n* saqlovchi klapan.

saffian ['sæfjən] *n rus.* saxtiyon (*echki yoki qo'y terisidan pishirilgan charm*).

saffron ['sæfrən] **1.** *n bot.* 1) za'faron, za'far (*ziravor o'simlik*); 2) shafran (*olmaning bir navi*); **2.** *v* za'faron rangiga bo'yamoq

sag [sæg] **1.** *n* egish, bukish; egilish, bukilish; **2.** *v* egilmoq, bukilmoq.

saga ['sɑ:gə] *n* rivoyat, doston, qissa.

sagacious [sə'geɪʃəs] *a* 1) o'tkir, ziyrak, sezgir; 2) o'ylab (aql bilan) ish qiladigan, mulohazali, ehtiyotkor.

sagacity [sə'gæsətɪ] *n* o'tkirlik, ziyraklik, sezgirlik.

sagamore ['sægəmɔ:] = **sachem.**

sage I [seɪdʒ] *n bot.* mavrak, marmarak (*yirik xushbo'y gulli o't yoki butasimon bir xil o'simlik*).

sage II [seɪdʒ] *n* dono (*oqil*) odam, donishmand.

sage-brush ['seɪdʒbrʌʃ] *n bot.* shuvoq, yovshan (*murakkabgullilarga mansub yem-xashak bo'ladigan ko'p yillik o'simlik*).

sage-green [,seɪdʒ'gri:n] *a* ko'kimtir-yashil, ko'kimtir-kulrang.

sage tea ['seɪdʒti:] *n* 1) mavrak dimlamasi; 2) quyuq damlangan choy.

saggar ['sægə] *n* kulolchilik buyumlarini pishirish uchun ishlatiladigan kapsula (*kapsula — maxsus berkitilgan kamera yoki joy*).

sagittal ['sædʒɪtl] *a* nayzasimon, o'qsimon.

Sagittarius [,sædʒɪ'teərɪəs] *n astr.* Qavs yulduzlar turkumi, 12 burjdan biri.

sago ['seɪgəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) sago (*sago palmasining, shuningdek, kartoshka yoki makka-jo'xorining kraxmalidan tayyorlanadigan yorma*).

sahib ['sɑ:hɪb] *n hind.* janob, xo'jayin, sohib.

said I [sed] **1.** *past., p. p.* **say** *dan*; **2.** *a* degan, deyilgan, aytilgan; **the ~** yuqorida aytilgan (ko'rsatilgan); **the ~ theme** yuqorida ko'rsatilgan mavzu.

said II [sed] *v past., p.p.* **say** *dan.*

sail [seɪl] **1.** *n* 1) yelkan; 2) yelkanli kema; 3) kemada suzish; **2.** *v* kemada suzmoq.

sailboat ['seɪlbəut] *n* yelkanli qayiq; yelkanli kema.

sailcloth ['seɪlklɔθ] *n* parusina (*kanopdan to'qilgan qalin, puxta mato*).

sailer ['seɪlə] *n* yelkanli kema.

sailing ['seɪlɪŋ] **1.** *pres. p.* **sail 2.** *dan*; **2.** *n* 1) qayiqda suzish; 2) dengizda kemalarning yurishi, yuritilishi; 3) kema yuritish san'ati.

sailing-craft ['seɪlɪŋkrɑ:ft] *n* yelkanli kema.

sailing-master ['seɪlɪŋ,mɑ:stə] *n* shturman (*paroxod, samolyot kabilarni boshqaruvchi*).

sailing-ship ['seɪlɪŋʃɪp] *n* yelkanli kema.

sailing-vessel ['seɪlɪŋ,vesl] = **sailing-ship.**

sailor ['seɪlə] *n* matros, dengizchi; **freshwater ~** tajribasiz dengizchi.

sailorly ['seɪləlɪ] *a* 1) epchil, chaqqon; 2) dengizchiga xos bo'lgan.

sail-plane ['seɪlpleɪn] *n* planyor (*motorsiz uchadigan apparat*).

sainfoin ['sænfɔɪn] *n bot.* esparset (*ozuqabop dukkakli o'simlik*).

saint [seɪnt] *n* (muqaddas, aziz, tabarruk) avliyo odam.

sainted ['seɪntɪd] *a* muqaddas, aziz, tabarruk.

sainthood ['seɪnthud] *n* muqaddaslik, azizlik, tabarruklik, avliyolik.

saintlike ['seɪntlaɪk] = **saintly.**

saintly ['seɪntlɪ] *a* 1) gunohsiz, begunoh; 2) *ko'ch.* sof, pok, halol.

sake [seɪk] *n* : **for the ~ of** ... deb, haqi uchun; **for our ~s** biz uchun.

salaam [sə'lɑ:m] **1.** *n* salom (*sharq odamlarining salomlashishi*); **2.** *v* salomlashmoq.

salable ['seɪləbl] *a* 1) talab (ehtiyoj) katta bo'lgan; 2) bozori chaqqon, tez o'tadigan, tez sotiladigan, bozorgir (*tovar, mol haqida*).

salacious [sə'leɪʃəs] *a* shahvoniy, shahvatparastlarcha, shahvoniy hisga berilgan.

salacity [sə'læsətɪ] *n* shahvoniylik, suqlik, shahvatparastlik.

salad ['sælәd] *n* salat, shakarob.

salad-bowl ['sæləd bəul] *n* salat idish.

salad-days ['sælәddeɪz] *n* 1) tajribasiz yoshlik davri; 2) g'o'r yoshlik.

salad-dressing ['sælәd,dresɪŋ] *n* salatga qo'shadigan ziravorlar.

salad-oil ['sælәdɔɪl] *n* zaytun moyi, salat uchun ishlatiladigan moy.

salamander ['sælə,mændə] *n zool.* salamandra, samandar (*ham suvda, ham quruqlikda yashovchi ba'zi kaltakesaksimon dumli jonivorlarning umumiy nomi*).

salame [sə'lɑ:mɪ] *n* salami (*dudlangan kolbasaning bir turi*).

salami [sə'lɑ:mɪ:] *pl* **salame** *dan.*

sal-ammoniac [ˌsælə´məunıæk] *n* novshadil, nashatir (*ammoniy xlorid, rangsiz kristall modda*).
salary [´sælərı] *n* maosh, ish haqi, oylik.
sale [seıl] *n* savdo, sotish, savdo-sotiq.
saleable [´seıləbl] = **salable.**
sale-price [´seılpraıs] *n* 1) *iqt.* sotiladigan narx; 2) tushirilgan narx **to sell at ~** mavsumiy narxda sotmoq.
sale-room [´seılrum] *n* auksion zali, ochiq savdo zali.
salesclerk [´seılzklɑ:k] *n* 1) sotuvchi (*savdo korxonasida*); 2) sotuvchi, savdogar.
saleslady [´seılz,leıdı] *n amer. so´zl* **saleswoman** *ga qarang.*
salesman [´seılzmən] *n* 1) sotuvchi; 2) vositachi, dallol (*savdo ishida*).
salesmanship [´seılzmənʃıp] *n* savdo-sotiq qila olish.
salespeople [´seılz,pi:pl] *n amer.* sotuvchilar.
salesroom [´seılzrum] = **sale-room.**
saleswoman [´seılz,wumən] *n* sotuvchi ayol.
salicylic [ˌsælı´sılık] *a kim.* salitsil; **~ acid** salitsil kislota (*texnikada va tibbiyotda qo´llaniladigan organik kislota*).
salience [´seıljəns] *n* do´nglik, do´mboqlik, qavariqlik.
salient [´seıljənt] **1.** *a* atoqli, mashhur, taniqli; **2.** *n harb.* pona (*dushman saflarini yorib kirishga qaratilgan operatsiya*).
saline [sə´laın] **1.** *n* 1) sho´r tuproq yer; 2) sho´r ko´l; 3) suvi sho´r buloq; **2.** *a* [´seılaın] tuzli, tarkibida tuz bo´lgan.
salinity [sə´lınıtı] *n* tuzlanganlik, tuzlilik, sho`rlik.
saliva [sə´laıvə] *n* so´lak, so´lakay, tupuk.
salivary [´sælıvərı] *a* tupukka (so´lakka) oid, tupuk (so´lak) chiqaradigan; **~ glands** so´lak bezlari.
salivate [´sælıveıt] *v* so´lagi oqmoq.
salivation [ˌsælı´veıʃən] *n* so´lak oqish.
sallow I [´sæləu] *n bot.* tol.
sallow II [´sæləu] **1.** *a* sarg´ish, nosog´, rangi ketgan (*yuz rangi haqida*); **2.** *v* sarg´aymoq, rangi ketmoq.
sally [´sælı] *n harb.* panadan chiqib qo´qqisdan qilingan hujum.
Sally Lunn [´sælı ´lʌn] *n so´zl.* shirin bulochka.
sally-port [´sælıpɔ:t] *n harb.* panadan qo´qqisdan hujum qilinganda chiqiladigan darvoza.
salmagundi [ˌsælmə´gʌndı] *n fr.* salmagundi (*tuxum, piyoz va go´shi bilan qilinadigan salat*).
salmi [´sælmı] *n fr.* parranda go´shtidan o´tkir sous bilan vinoda (*musallasda*) tayyorlangan taom.
salmon [´sæmən] **1.** *a* qizil-sariq; **2.** *n zool.* 1) sulaymonbaliq; 2) losos (*go´shti qizil baliq*).
salmon-coloured [´sæmən,kʌləd] *a* qizil-sariq.
salmon trout [´sæmən,traut] *n zool.* losos-taymen (*Sibir daryolaridagi yirtqich baliqlarning bir turi*).
salon [´sælɔn] *n fr.* mehmonxona, qabulxona.
saloon [sə´lu:n] *n* 1) avtomobil saloni; 2) zal; 3) *amer.* pivoxona.
saloon-car, saloon-carriage [sə´lu:nkɑ:, sə´lu:n-,kærıdʒ] *n* usti yopilgan mashina.
saloon deck [sə´lu:ndek] *n birinchi darajadagi* yo´lovchilar tashiydigan kema sahni.
saloon-keeper [sə´lu:n,ki:pə] *n amer.* bar xo´jayini, restoran egasi.
Salopian [sə´ləupıən] *n* Shrusberi shahrining fuqarosi.
salsify [´sælsəfı] *n bot.* echkisoqol.
salt [sɔ:lt] **1.** *n* tuz, osh tuzi; **2.** *a* tuzli, sho`r, **~ celler** tuzdon; **~ water** namakob; **3.** *v* tuz solmoq, tuz sepmoq.
saltation [sæl´teıʃn] *n* sakrash, irg´ish.
saltatory [´sæltətərı] *a* sakraydigan, irg´iydigan.
salt-away [´sɔ:ltə,weı] *v* tuzlamoq, tuzlab qo´ymoq.
salt-cellar [´sɔ:lt,selə] *n* tuzdon, tuzluq.
salt-marsh [´sɔ:ltmɑ:ʃ] *n* sho´rxok yer, sho´r tuproq yer.
saltpetre [ˌsɔ:lt ´pi:tə] *n kim.* selitra.
salty [´sɔ:ltı] *a* tuzli, tarkibida tuz bo´lgan, sho´r.
salubrious [sə´lu:brıəs] *a* shifobaxsh, foydali.
salutary [´sæljutərı] *a* foydali, shifobaxsh, davo bo´ladigan.
salutation [ˌsælju´teıʃn] *n* tabrik, tabriklash; salomlashish.
salute [sə´lu:t] *v* 1) tabriklamoq, qutlamoq, 2) ko´rishmoq, so´rashmoq, salomlashmoq.
salvage [´sælvıdʒ] *n* (*dengiz yoki olovdan*) biror narsani qutqarish.
salvation [sæl´veıʃn] *n* qutqarish, qutqaruvchi, saqlovchi, himoya qiluvchi.
Salvation Army [sæl,veıʃn´ɑ:mı] *n* qutqarish armiyasi.
Salvationist [sæl´veıʃnıst] *n* qutqarish armiyasining a`zosi.
salve I [sælv] *n* tinchlantiruvchi malhamdori.
salve II [sælv] *v og´z.* 1) malhamdori surtmoq; 2) og´riqni yengillashtirmoq; 3) miyani tinchlantirmoq.
salver [´sælvə] *n* (*oddiy kumush*) patnis.
salvo I [´sælvəu] *n* 1) sharh, izoh, eslatma; 2) hahona, vaj; 3) uzr; e´tiroz; 4) yupatish, taskin berish.
salvo II [´sælvəu] *n* 1) baravariga o´q otish; 2) gulduros qarsaklar.
sal volatile [ˌsælvə´lætəlı] *n* burunga tortiladigan tuz.
salvor [´sælvə] *n* 1) qutqaruvchi kema; 2) qutqarishda qatnashadigan kishi.
samara [sə´mɑ:rə] *n bot.* qanotli urug´.

samarium [səˈmeɪrɪəm] *n kim.* samariy (*nodir kimyoviy element, kumushsimon oq metall*).

sambo [ˈsæmbəu] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əuz]) 1) sambo (*Lotin Amerikasida hindlar va habashlarning aralashgan avlodi*); 2) (***Samba***) habash, zangi.

Sam Browne [ˌsæmˈbraun] *n amer. so'zl.* ofitser, zobit.

same [seɪm] *pron. demon.* 1) *sifat bo'lib kelganda:* bir xil, o'sha; **they belong to the ~ family** ular bir xil oilaga mansub; 2) *ot bo'lib kelganda:* xuddi o'sha, bir xil; **they must all do the ~** ular hammalari bir xil bajarishlari kerak.

samel [ˈsæməl] *a* yomon pishirilgan, yumshoq (*sopol, g'isht haqida*).

sameness [ˈseɪmnəs] *n* bir xillik, farq qilmaslik, o'xshashlik.

samite [ˈsæmaɪt] *n* 1) qalin shoyi; 2) kimxob, zarbof.

samlet [ˈsæmlɪt] *n* yosh losos (*losos – go'shti qizil baliq*).

Sammy [ˈsæmɪ] *n* Semmi (*amerikalik askarning birinchi Jahon urushi davridagi nomi, laqabi*).

samp [sæmp] *n amer.* makkajo'xori yormasi.

sampan [ˈsæmpæn] *n* sampan, Xitoy qayig'i.

sample [ˈsɑ:mpl] *n* 1) namuna, nusxa; **book of ~s** namunalar albomi; 2) andaza, qolip.

sampling [ˈsɑ:mplɪŋ] *n* namuna olish, nusxa olish.

Samson [ˈsæmsn] *n* kuchli odam, bahodir, polvon.

samurai [ˈsæmuraɪ] *n yap.* (*pl o'zgarishsiz*) samuray (*Yaponiyada: imtiyozli feodal harbiylar tabaqasiga mansub kishi*).

sanative [ˈsænətɪv] *a* 1) shifobaxsh, shifoli, davo bo'ladigan; 2) dorivor.

sanatoria [ˌsænəˈtɔ:nə] *pl* **sanatorium** *dan.*

sanatorium [ˌsænəˈtɔ:rɪəm] *n* sanatoriya, dam olish va davolanish maskani.

sanatory [ˈsænətərɪ] = **sanative**.

sanctified [ˈsæŋktɪfaɪd] *p. p.* **sanctify** *dan.*

sanctify [ˈsæŋktɪfaɪ] *v* 1) bag'ishlamoq, atamoq; 2) kamchiliklardan tozalamoq.

sanctimonious [ˌsæŋktɪˈməunɪəs] *a* riyokor (munofiq)larga xos, riyokorona, munofiqona, ikkiyuzlamalik bilan qilingan.

sanctimony [ˈsæŋktɪmənɪ] *n* riyokorlik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik.

sanction [ˈsæŋkʃn] *n* 1) ruxsat, tasdiq, rozilik; 2) ma'qullash, ma'qul topish, quvvatlash, manzur ko'rish.

sanctity [ˈsæŋktətɪ] *n* muqaddaslik, tabarruklik.

sanctuary [ˈsæŋktʃuərɪ] *n* 1) ibodatxona; 2) boshpana; 3) qo'riqxona; **bird ~** qushlar qo'riqxonasi.

sand [sænd] *n* 1) qum; 2) shag'al; 3) sayoz joy, sayozlik.

sandal [ˈsændl] **1.** *n* sandal, shippak; **2.** *v* shippak kiymoq.

sandal (wood) [ˈsændl(wud)] *n* sandal daraxti.

sand-bag [ˈsæn(d)bæg] *n* qum to'ldirilgan qop.

sandbag [ˈsæn(d)bæg] *v* qum to'ldirilgan qop bilan urmoq.

sandbank [ˈsæn(d)bæŋk] *n* shamol uchirib kelgan qumloq sayozlik, ayrim sayoz joy (*dengizda*).

sand-bar [ˈsæn(d)bɑ:] *n* qumloq sayozlik (*daryo etagida, dengiz chetida*).

sand-bath [ˈsæn(d)bɑ:θ] *n tex.* qum hammom.

sand-bed [ˈsæn(d)bed] *n* daryoning qumli o'zani (yo'li, tagi, osti).

sand-blast [ˈsæn(d)blɑ:st] **1.** *n* (*kuchli havo oqimi bilan*) qum purkaydigan apparat, qumpurkagich; **2.** *v* qum purkamoq.

sand-blind [ˈsæn(d)blaɪnd] *a esk.* ko'zi yomon ko'radigan, ko'zi xira, ojizroq.

sand-box [ˈsæn(d)bɔks] *n* 1) qumdon, qum saqlaydigan idish; 2) qumdon (*bolalar o'ynashi uchun qum to'ldirib qo'yilgan katta pasiak quti*).

sandboy [ˈsæn(d)bɔɪ] *n* haxtli, quvnoq, xushchaqchaq, shodmon bola.

sand-crack [ˈsæn(d)kræk] *n* g'ishtdagi pishishdan oldin paydo bo'ladigan yoriq (darz).

sand-dune [ˈsæn(d)dju:n] *n* qumtepalar (*shamol uchirib yuradigan uyumlari*).

sanded [ˈsændɪd] *a* qum bilan qoplangan, qum to'kilgan, qum sepilgan.

sand-eel [ˌsændˈi:l] *n* qumbaliq (*qumloq qirg'oqlarda yashovchi mayda baliq*).

sand-glass [ˈsændglɑ:s] *n* qum soat.

sand-hill [ˈsæn(d)hɪl] *n* qumtepalar (*shamol uchirib yuradigan qum uyumlari*).

sand hog [ˈsændhɔg] *n amer.* yer ostida ishlaydigan ishchi.

sand-martin [ˈsændˌmɑ:tɪn] *n* qirg'oq qaldirg'ochi.

sandpaper [ˈsænd,peɪpə] *n* jilvir(li) qog'oz.

sand-pit [ˈsæn(d)pɪt] *n* ochiq qum koni.

sand-shoes [ˈsæn(d)ʃu:z] *n* tagi rezinali plajda kiyiladigan oyoq kiyim.

sand-spout [ˈsæn(d)spaut] *n* qum uyurmasi.

sandstone [ˈsæn(d)stəun] *n geol.* qumtosh (*qumning jipslanishidan hosil bo'lgan tog' jinsi*).

sand-storm [ˈsæn(d)stɔ:m] *n* 1) samum (*Osiyo va Afrika cho'llarida: issiq va quruq shamol*), 2) qumli bo'ron, qum bo'roni.

sandwich [ˈsænwɪdʒ] *n* sandvich, buterbrod (*ustiga saryog' surtilgan yoki pishloq, kolbasa yaprog'i qo'yilgan bir kesik non*).

sandwich-board [ˈsænwɪdʒbɔ:d] *n* reklamalar osib qo'yish uchun qilingan taxta.

sandy [ˈsændɪ] *a* qumli, qum bilan qoplangan.

sane [seɪn] *a* 1) ruhiy jihatdan sog'lom, aqli raso, es-hushi joyida; 2) to'g'ri, oqilona, bama'ni.

sang [sæŋ] *past* **sing** *dan.*

sanguinary [ˈsæŋgwɪnərɪ] *a* qonga oid, qonli.

sanguine [ˈsæŋgwɪn] *a* serharakat; tez ta'sirlanadigan; xushchaqchaq.

sanitarium [ˌsæniˈteərɪəm] *n* sanatoriyaga oid, gigiyenaga oid, gigiyena qoidalariga asoslangan, sog'liqni saqlashga xizmat qiladigan, gigiyenik; ~ **belt** gigiyena kamari (belbog'i); ~ **engineering** sanitariya texnikasi.

sanitary [sænɪtərɪ] *n* sanitariya.

sanitation [ˌsæniˈteɪʃən] *n* sog'lig'ini yaxshilash, tuzatish, sog'aytirish.

sanity [ˈsænɪtɪ] *n* aqli rasolik, ruhiy jihatdan sog'lomlik.

sank [sæŋk] *past.* **sink** *dan.*

Santa Claus [ˈsæntəklɔ:z] *n* qorbobo.

sap [sæp] *n* 1) (o'simlik) shirasi, suvi; 2) ignabargli daraxtlarning smolali yelimi; 3) yashash qobiliyati, yashovchanlik; 4) *bot.* po'stloq osti qatlami (*daraxtning po'stloq ostidagi yangi yog'och qismi*).

sapid [ˈsæpɪd] *a* 1) shirin, mazali; 2) mazmundor (*suhbat haqida*).

sapience [ˈseɪpɪəns] *n* donishmandlik, donolik, oqillik.

sapient [ˈseɪpɪənt] *a* donishmand, dono, oqil.

sapling [ˈsæplɪŋ] *n* ko'chat, kichkina daraxt, daraxtcha.

sapper [ˈsæpə] *n* minachi (*minalar qo'yuvchi, ularni zararsizlantiruvchi yosh mina otuvchi*).

sapphire [ˈsæfaɪə] **1.** *n* sapfir (*zangori yoki ko'kish yoqut*); **2.** *a* to'q ko'k, to'q zangori.

sappy I [ˈsæpɪ] *a* 1) sersuv, shirali, shirador; 2) kuchli, quvvatli.

sapply II [ˈsæpɪ] *a so'zl.* aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm.

sarcasm [ˈsɑ:kæzm] *n* achchiq kinoya, piching, istehzo.

sarcastic [sɑ:ˈkæstɪk] *a* 1) istehzoli, achchiq, zahar; 2) qattiq botadigan.

sarcastically [sɑ:ˈkæstɪkəlɪ] *adv* masxara (mazax, mayna) qilib.

sardine [ˌsɑ:ˈdi:n] *n* sardina (*seldlarga mansub mayda baliq*).

sardonic [sɑ:ˈdɔnɪk] *a* istehzoli, achchiq, zaharli.

sari [ˈsɑ:rɪ] *n* sari (*hind ayollarining kiyimi*).

sash I [sæʃ] *n* 1) belbog', kamar, qayish; 2) orden lentasi.

sash II [sæʃ] *n* deraza panjarasi.

sat [sæt] *past., p. p.* **sit** *dan.*

Satan [ˈseɪtn] *n* iblis, shayton, jin.

Satanic [səˈtænɪk] *a* iblisga (shaytonga) oid, iblisga (shaytonga) xos bo'lgan.

satchel [ˈsætʃəl] *n* jild, sumka (*kitob uchun*).

sate [seɪt] v to'ydirmoq, to'yg'izmoq.

sateen [sæˈti:n] *n* satin (*ipakka o'xshash yaltiroq ip gazluma*).

satellite [ˈsætəlaɪt] *n* 1) *astr.* sun'iy yo'ldosh; 2) malay, yugurdak; 3) sherik, yordamchi.

satiate [ˈseɪʃɪeɪt] **1.** *v* juda to'ydirmoq, to'ydirib yubormoq; **2.** *a* juda to'ygan.

satiation [ˌseɪʃɪˈeɪʃn] *n* to'yish, to'yib ketgan, miriqish; juda to'ydirish.

satiety [səˈtaɪətɪ] *n* to'qlik, to'yganlik, qorni to'qlik.

satin [ˈsætɪn] *n* atlas *(geografik karta).*

satire [ˈsætaɪə] *n* 1) hajviy asar; 2) istehzo, kinoya, piching.

satirically [səˈtɪrɪk(ə)lɪ] *adv* hajv qilib, ustidan kulib, mazax qilib.

satirist [ˈsætərɪst] *n* hajviyachi, hajv qiluvchi.

satirize [ˈsætəraɪz] *v* hajv qilmoq, masxara qilmoq, mazax (mayna) qilmoq, kulmoq.

satisfaction [ˌsætɪsˈfækʃn] *n* qondirish, qanoatlantirish.

satisfactory [ˌsætɪsˈfæktərɪ] *a* qanoatlanarli, qoniqarli.

satisfy [ˈsætɪsfaɪ] *v* qanoatlantirmoq, to'g'ri kelmoq, qondirmoq.

saturate [ˈsætʃəreɪt] *v* to'yinmoq, singmoq.

saturation [ˌsætʃəˈreɪʃn] *n* to'yintirish, to'yg'izish, to'ydirish, qondirish.

Saturday [ˈsætədeɪ] *n* shanba.

Saturn [ˈsætə:n] *n astr.* Saturn (*Quyosh sistemasining oltinchi katta planetasi; Zuhayl, Kayvon*).

satyr [ˈsætə] *n* fohishaboz, buzuq odam, suyuqoyoq.

sauce [sɔ:s] *n* qayla, ziravor.

saucepan [ˈsɔ:spən] *n* ovqat pishiriladigan metall idish.

saucer [ˈsɔ:sə] *n* likopcha, tarelkacha, kichkina tarelka.

saucy [ˈsɔ:sɪ] *a* 1) surbet, bezbet, shilqim, beor; 2) yaxshi kiyingan, bezangan.

sauerkraut [ˈsauəkraut] *n* tuzlangan karam.

sauna [ˈsɔ:nə] *n* sauna (*fin hammomi*).

saunter [ˈsɔ:ntə] *n* 1) sayr, tomosha, aylanib kelish; 2) asta-sekin qadam tashlash.

sausage [ˈsɔsɪdʒ] *n* kolbasa, sosiska, hasip, qazi.

savage [ˈsævɪdʒ] **1.** *a* 1) yovvoyi, vahshiy; 2) shafqatsiz, zolim; **2.** *n* 1) yovvoyi odam; 2) *so'zl.* kishilarga qo'shilmaydigan odam; tortinchoq odam.

savagely [ˈsævɪdʒlɪ] *adv* 1) yovvoyilarcha, yovvoyi holda, vahshiylarcha; 2) shafqatsizlik bilan, zolimlarcha.

savagery [ˈsævɪdʒərɪ] *n* 1) yovvoyilik, vahshiylik; madaniyatsizlik; 2) qattiqlik, qo'pollik, dag'allik.

savant [ˈsævnt] *n fr.* olim, biror sohadagi yirik mutaxassis.

save [seɪv] v 1) qutqarmoq, xalos qilmoq, qutqarib (saqlab) qolmoq; 2) tejamoq, ehtiyot qilmoq.

saving [ˈseɪvɪŋ] **1.** *pres. p.* **save** *dan*; **2.** *n* 1) tejash, ehtiyot qilish; 2) qutqarish, xalos qilish; **3.** *a* 1) qutqaradigan, najot beradigan, najotbaxsh; 2) tejamkor, ayab (tejab-tergab) sarf qiladigan.

savings-bank [ˈseɪvɪŋzbæŋk] *n* omonat kassa; jamg'arma bank.

savior [ˈseɪvjə] *n* najotkor, xaloskor, qutqaruvchi.
saviour [ˈseɪvjə] = **savior.**
savory I [ˈseɪvərɪ] *n bot.* jambil.
savory II [ˈseɪvərɪ] = **savoury.**
savoury [ˈseɪvərɪ] *a* 1) mazali, lazzatli, totli, shirin; 2) mazasi (ta'mi) o'tkir.
saw I [sɔ:] **1.** *n* arra; **2.** *v* arralamoq; **~dust** qipiq, qirindi.
saw II [sɔ:] *past.* **see** *dan.*
sawmill [ˈsɔ:mɪl] *n* taxta tiladigan zavod, taxta tilish zavodi.
sawn [sɔ:n] *v* arralamoq, arra bilan kesmoq (qirqmoq), tilmoq.
sawyer [ˈsɔ:jə] *n* arrakash.
sax I [sæks] *n* shifer bolg'asi.
sax II [sæks] *n* saksofon (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining bir turi*).
saxony [ˈsæksənɪ] *n* yupqa jun gazlama.
saxophone [ˈsæksəfəun] *n* saksofon (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining bir turi*).
say [seɪ] *v* (**said**) gapirmoq, ma'lum qilmoq, aytmoq.
saying [ˈseɪɪŋ] **1.** *n* matal, maqol; **2.** *v* gapirmoq, so'zlamoq.
scab [skæb] *n tib.* 1) yaradagi qo'tir; 2) qoraqo'tir, qotgan yara.
scabbard [ˈskæbəd] *n* qin, g'ilof.
scaffold [ˈskæfəuld] *n* 1) havoza (*qurilishlarda ko'tarib ishlangan ish joyi*); 2) jallod to'nkasi, bosh chopiladigan kunda.
scald I [skɔ:ld] *v* ustidan qaynoq suv quymoq, qaynoq suvga botirmoq.
scald II [skɔ:ld] *n* skald (*qadimgi Skandinaviyada: qo'shiqchi-shoir*).
scald III [skɔ:ld] *n* qoraqo'tir, qotgan yara.
scalding [ˈskɔ:ldɪŋ] *v* ustidan qaynoq suv quymoq, qaynoq suvga botirmoq.
scale [skeɪl] *n* 1) tangacha (*baliq, ilon, kaltakesak kabilar terisida*); 2) qatma-qat po'stloq.
scaled I [skeɪld] *a* tangachasimon, tangachaga o'xshagan.
scaled II [skeɪld] *v* 1) tortmoq (*tarozida*); 2) ko'tarilmoq, yuqoriga chiqmoq.
scalene [ˈskeɪli:n] *a geom.* tomonlari teng bo'lgan.
scales [skeɪlz] **1.** *n* tarozi, tarozi pallasi; **2.** *v* tarozida tortmoq.
scalp [skælp] **1.** *n* 1) bosh terisi; 2) sochlari bilan shilinib olingan bosh terisi; **2.** *v* bosh terisini shilib olmoq.
scalpel [ˈskælpl] *n* jarroh pichog'i (maxsus pichoqcha).
scamp [skæmp] *n* bekorchi, tanbal, ishyoqmas.
scamper [ˈskæmpə] *n* 1) tez yurish (chopish); 2) tez (ravon) o'qish.
scampi [ˈskæmpɪ] *n* qisqichbaqa sarimsoqpiyoz va ziravorlardan tayyorlangan taom.
scan [skæn] *n* diqqat bilan o'rganib chiqish; ko'rib chiqish.
scandal [ˈskændl] *n* 1) sharmandalarcha xatti-harakat; **what a ~!** qanday sharmandalik; 2) yomonlab gapirish, yomonlash, g'iybat; **to talk ~** yomonlab gapirmoq.
scandalize [ˈskændlaɪz] *v* 1) g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; 2) uyatga qo'ymoq, xijolatda qoldirmoq.
scandalmonger [ˈskændl,mʌŋgə] *n* g'iybatchi odam, gap tashuvchi; suxanchi.
scandalous [ˈskændləs] *a* 1) uyatli, sharmandali, rasvo; 2) tuhmat qilib aytilgan, bo'hton.
Scandinavian [,skændɪˈneɪvɪən] **1.** *a* Skandinaviyaga va skandinaviyaliklarga oid; **2.** *n* skandinaviyalik kishi.
scanner [ˈskænə] *n* skaner.
scanning [ˈskænɪŋ] *n* matnni diqqat bilan o'qib, uning ikir-chikirlarigacha tushunish.
scant [skænt] **1.** *a* oz, kam, ozgina, yetarli bo'lmagan, yetmaydigan; **2.** *v* qizg'anmoq, ayamoq.
scantily [ˈskæntɪlɪ] *adv* kam, ozgina, uncha yetarli emas.
scanty [ˈskæntɪ] *a* yetarli bo'lmagan, yetmaydigan, kam, oz.
scapegoat [ˈskeɪpgəut] *n* hamma baloga to'g'anoq odam; boshqalarning gunohiga javobgar bo'lib qolgan odam.
scapegrace [ˈskeɪpgreɪs] *n* (*hazil*) yengil (sho'x) yigit, havoyi odam.
scar [skɔ:] *n* yara o'rni, yamoq; chandiq *(yuzdagi).*
scarce [skeəs] *a* noyob, kam uchraydigan; **~ book** nodir kitob.
scarcely [ˈskeəslɪ] *adv* zo'rg'a, qiyinchilik bilan; **she can ~ speak Uzbek** u o'zbek tilida zo'rg'a gapiradi.
scarcity [ˈskeəsɪtɪ] *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik.
scare [skeə] *n* vahima, hayajon, dahshat, sarosima.
scared [skeəd] *a* qo'rqqan, cho'chigan.
scaremonger [ˈskeə,mʌŋgə] *n* vahimachi.
scarf [skɔ:f] *n* (*pl* **-s** [-s], **scarves**) 1) sharf; 2) galstuk, bo'yinbog'.
scarlet [ˈskɔ:lət] **1.** *n* alvon; qirmizi; qizil (och qizil) rang; **2.** *a* alvon, qirmig'i, qizil (och-qizil).
scarlet fever [,skɔ:lətˈfi:və] *n tib.* qizilcha kasali.
scarp [skɔ:p] *n* tik, jar, jarlik, qiyalik, yonbag'ir.
scary [ˈskeərɪ] *a so'zl.* 1) qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, mudhish, dahshatga (vahimaga) soladigan; 2) qo'rqoq, qo'rqadigan, cho'chiydigan.
scathe [skeɪð] **1.** *n* zarar, ziyon; **2.** *a* zarar yetkazmoq.
scatheless [ˈskeɪðləs] *a* butun, zararsiz.
scathing [ˈskeɪðɪŋ] *a* qahri qattiq, shafqatsiz, rahmsiz, berahm, zolim.
scatter [ˈskætə] *v* 1) sochilmoq, yoyilib ketmoq; 2) buzmoq, barbod qilmoq, chipakka (puchga) chiqarmoq.
scatter-brain [ˈskætəbreɪn] *n* yengiltak (betayin) odam.
scavenge [ˈskævɪndʒ] *v* tozalamoq; **~ a street** ko'chadagi axlatlarni olib tashlamoq.

scavenger [ˈskævɪndʒə] *n* farrosh, supurib-sidiradigan ishchi.
scenario [sɪˈnɑːrɪəu] *n* senariy.
scene [siːn] *n* manzara; sahna.
scene-painter [ˈsiːnˌpeɪntə] *n* sahnani bezovchi rassom.
scenery [ˈsiːnərɪ] *n* manzara *(teatrda sahna jihozlari)*.
scenic [ˈsiːnɪk] *a* sahnaga oid, sahna...
scent [sent] **1.** *n* 1) hid; is; 2) atir; 3) iz; **2.** *v* 1) iskamoq, hidlamoq; 2) atir sepmoq, xushbo'y qilmoq; 3) izidan bormoq.
scented [ˈsentɪd] *a* hidi yaxshi, xushbo'y, muattar.
scepter [ˈseptə] *n* saltanat hassasi *(podshoh saltanatining alomati)*.
sceptic [ˈskeptɪk] *n* ishonmovchi, har narsaga shubha bilan qaruvchi.
sceptical [ˈskeptɪkl] *a* ishonmaydigan, shubhaomuz.
schedule [ˈʃedjuːl] **1.** *n* jadval; **2.** *v* jadval tuzmoq.
scheme [skiːm] *n* reja, dastur, loyiha; **to lay a ~** dastur tuzmoq.
schemer [ˈskiːmə] *n* 1) fitnachi, g'alamis; 2) xayolotchi, xayolparast odam.
schism [ˈskɪzm] *n* cherkovning ajralishi *(pravoslav va katolik cherkovlarining bir-biridan ajralishi)*.
schizophrenia [ˌskɪtsəuˈfriːnɪə] *n* shizofreniya *(ruhiy kasallikning bir turi)*.
scholar [ˈskɔlə] *n* olim, bilimli (o'qimishli, ilmli) kishi.
scholarship [ˈskɔləʃɪp] *n* 1) stipendiya; 2) olimlik, bilimdonlik.
scholastic [skəˈlæstɪk] *a* o'qituvchi va o'qituvchilikka oid; o'qituvchi...
school [skuːl] *n* maktab; **~boy** o'quvchi *(bola)* **~girl** o'quvchi (qiz); **secondary ~** o'rta maktab; **primary ~** boshlang'ich maktab; **to go to ~** maktabda o'qimoq.
school-book [ˈskuːlbuk] *n* darslik.
school leaver [ˌskuːlˈliːvə] *n* maktabni bitiruvchi.
schoolmaster [ˈskuːlˌmɑːstə] *n* maktab o'qituvchisi.
school-mate [ˈskuːlmeɪt] *n* maktabdosh o'rtoq.
schoolmistress [ˈskuːlˌmɪstrəs] *n* maktabdagi o'qituvchi ayol.
schoolroom [ˈskuːlrum] *n* sinfxona, darsxona.
schooner [ˈskuːnə] *n* shxuna *(kichikroq yelkanli kema)*.
sciatic [saɪˈætɪk] *a anat.* quymuchga oid; quymuch...
sciatica [saɪˈætɪkə] *n tib.* ishias *(quymuch nervining yallig'lanishi)*.
science [ˈsaɪəns] *n* 1) fan, ilm; **man of ~** olim; **applied ~** amaliy fan, **natural ~s** tabiiy fanlar; 2) mahorat, mohirlik.
scientific [ˌsaɪənˈtɪfɪk] *a* ilmiy, ilm-fanga asoslangan.
scientifically [ˌsaɪənˈtɪfɪkəlɪ] *adv* ilmiy nuqtayi nazardan, ilm-fanga asoslangan holda.
scintillate [ˈsɪntɪleɪt] *v* yarqiramoq, chaqnamoq, yarqirab turmoq, porlamoq.
scintillation [ˌsɪntɪˈleɪʃn] *n* yarqirash, chaqnash, yarqiroqlik.
scientist [ˈsaɪəntɪst] *n* 1) olim; 2) tabiat hodisalarini tekshiruvchi, tadqiqot qiluvchi olim.
scion [ˈsaɪən] *n* 1) o'simlik novdasi; 2) avlod, nasl, urug'.
scissors [ˈsɪzəz] *n pl* qaychi.
scoff [skɔf] *n* masxara (mazax) qilish, piching, masxara.
scoffer [ˈskɔfə] *n* mazaxchi, pichingchi.
scold [skəuld] *v* urishmoq; so'kmoq; **~ing** urishish, so'kish.
scone [skɔn] *n* bug'doy (arpa) non.
scoop [skuːp] *n* 1) cho'mich; 2) kurakcha, xokandoz.
scooter [ˈskuːtə] *n* samokat *(bolalarning bir oyoqlab yer tepib yuritiladigan ikki g'ildirakli aravachasi)*.
scope [skəup] *n* 1) saviya; 2) muhit, ko'lam; 3) imkoniyat, erkinlik, maqsad.
scorbutic [skɔˈbjuːtɪk] *n tib.* lavsha (qinga) bilan og'rigan bemor.
scorch [skɔːtʃ] *n* kuyish, kuyib qolish.
score [skɔː] *n* 1) maxsus belgi; 2) hisob *(o'yinda)*.
scorer [ˈskɔːrə] *n* 1) yutuq hisobini hisoblovchi kishi; 2) to'purar o'yinchi.
scorn [skɔːn] **1.** *n* nafratlanish, jirkanish, hazar qilish; **2.** *v* nafratlanmoq, jirkanmoq, hazar qilmoq.
scornful [ˈskɔːnfl] *a* nafratli, jirkanch, nafratni (jirkanishni) ifodalaydigan.
scorpion [ˈskɔːpɪən] *n* chayon.
Scot [skɔt] *n* Shotlandiya.
scot [skɔt] *n tar.* soliq, o'lpon.
scotch [skɔtʃ] *n* kertik, kesik, tilingan (kesilgan) joy.
Scotchman [ˈskɔtʃmən] *n* shotlandiyalik, shotlandiyalik kishi.
scot-free [ˌskɔtˈfriː] **1.** *a* zarar (shikast) topmagan, eson-omon, sog'-salomat, beshikast; **2.** *adv* bejazo, jazosiz.
Scotsman [ˈskɔtsmən] = **Scotchman**.
Scottish [ˈskɔtɪʃ] *a* shotlandiyaliklarga va Shotlandiyaga oid.
scoundrel [ˈskaundrəl] *n* razil (qabih, past) odam, yaramas, ablah.
scour I [ˈskauə] *a* tozalash, artish, yuvish.
scour II [ˈskauə] *v* izg'imoq, daydib (tentirab) yurmoq.
scourge [skəːdʒ] **1.** *n* 1) o'rma qamchi; 2) uzun qamchi, darra.
scout [skaut] *n harb.* razvedkachi *(dushman va uning qo'shinlari, ularning kuchi, joylanishi va*

shu kabi to'g'risidagi ma'lumot to'playdigan jangchi).

scow [skau] *n* kichikroq yuk kemasi.

scowl [skaul] **1.** *n* xafa ko'rinish; **2.** *v* qovog'i solinmoq, qosh-qovog'ini solmoq.

scrabble ['skræbl] *v* 1) tirnamoq; 2) tirmashib chiqmoq (yozmoq); 3) *so'zl.* aji-buji qilib yozmoq.

scrag [skræg] *n* nihoyatda ozg'in, novcha odam.

scraggy ['skrægɪ] *a* oriq, ozg'in; qotma.

scram [skræm] *v* jo'nab qolmoq, urib (qochib) ketmoq, juftakni rostlamoq.

scramble ['skræmbl] **1.** *v* o'rmalab chiqmoq, tirmashib chiqmoq; **2.** *n* 1) o'rmalab chiqish; 2) mushtlashish, yoqalashish, urishish.

scrap [skræp] *n* parcha, bo'lak.

scrape [skreɪp] *n* tirnalgan joy, tirnoq izi, chaqa.

scrap-heap ['skræphi:p] *n* axlatxona; **to throw on the ~** axlatxonaga tashlamoq.

scrap-iron ['skræpaɪən] *n* temir-tersak.

scrap-metal ['skræpmetl] = **scrap-iron.**

scrap paper ['skræp,peɪpə] *n* makulatura (*chiqindi, qiyqim-siyqim qog'oz*).

scrappy ['skræpɪ] *a* chiqindilardan iborat bo'lgan.

scratch [skrætʃ] **1.** *n* tirnalgan joy; **2.** *v* 1) timdalamoq, tirnamoq; 2) qashimoq; **~ off** o'chirib tashlanmoq (*qatnovchilar, nonxodlar ro'yxatidan*).

scratchy ['skrætʃɪ] *a* yaxshi ishlanmagan.

scrawl [skrɔ:l] **1.** *n* qing'ir-qiyshiq (pala-partish) qilib yozilgan yozuv; **2.** *v* qing'ir-qiyshiq (pala-partish) qilib yozmoq.

scream [skri:m] **1.** *n* qattiq baqirish, qichqirish; **2.** *v* baqirmoq, qichqirmoq; **~y** baqiroq.

screamingly ['skri:mɪŋlɪ] *adv* juda, g'oyatda, nihoyatda, juda ham.

screech [skri:tʃ] *n* 1) xirillash, xir-xir; 2) g'ijirlagan ingichka ovoz, g'ijir-g'ijir.

screech-owl ['skri:tʃaul] *n* yomonlik alomati (belgisi).

screen [skri:n] 1. *n* 1) ko'chma parda, ekran; 2) taxta (*e'lonlar uchun*); 3) *kino.* ekran; **2.** *v* ekranlashtirmoq, ekranda ko'rsatishga moslashtirmoq.

screw [skru:] **1.** *n* vint, burama mix; **2.** *v* buramoq.

screwdriver ['skru:,draɪvə] *n* otvertka, vint buragich.

screwed [skru:d] **1.** *p. p.* **screw 2.** *dan*; **2.** *a* mast, aql-u hushini yo'qotgan, karaxt.

screwy ['skru:ɪ] *a* esi past, tentak, jinni.

sweetheart ['swi:thɔ:t] *n* ma'shuq, ma'shuqa, yor.
sweetmeat ['swi:tmi:t] *n* obaki, obakidandon (*konfet*).
swell [swel] *v* **(swelled; swollen)** 1) shishmoq, do'mbira bo'lmoq, shishib ketmoq, g'urra bo'lmoq; 2) shishirmoq, do'mbira qilmoq.
swelling ['swelıŋ] **1.** *pres. p.* **swell** *dan*; **2.** *n* 1) shish, g'urra; 2) do'nglik, do'mboqlik.
swelter ['sweltə] *n* jazirama issiq, kun qizig'i.
swept [swept] *past. p. p.* **sweep 2.** *dan.*
swerve [swə:v] *n* og'ish, chetga chiqish, farq.
swift [swıft] *a* tez, ildam, jadal.
swig [swıg] **1.** *n* ho'plam, qultum (*spirtli ichimlik*); **2.** *v* ho'plab ichmoq (*musallasni*).
swill [swıl] *v* (*suvda*) chaymoq, chayqamoq.
swim [swim] **1.** *n* (*suvda*) suzish; **2.** *v* (*suvda*) suzmoq; suzib yurmoq.
swimmer ['swimə] *n* suzuvchi.
swimming-bath ['swimiŋbɑ:θ] *n* usti yopilgan cho'milish hovuzi (basseyni).
swimmingly ['swimiŋli] *adv* tekislab, silliq qilib, tep-tekis, sip-silliq.
swimming-pool ['swimiŋpu:l] *n* usti ochiq cho'milish hovuzi (basseyni).
swindle ['swindl] *n* aldamchilik, tovlamachilik, firibgarlik.
swindler ['swindlə] *n* muttaham, qallob, firibgar; aldamchi, tovlamachi.
swine [swain] *n zool.* xonaki cho'chqa.
swineherd ['swainhə:d] *n* cho'chqabon, cho'chqaboqar.
swing [swiŋ] **1.** *n* tebranish, chayqalish, silkinish; **2.** *v* tebranmoq, chayqalmoq, silkinmoq.
swipe [swaip] *v* 1) zarba bermoq, urmoq; 2) o'g'irlab (*o'marib*) ketmoq.
swirl [swə:l] *v* aylanmoq, gir-gir aylanmoq.
swish [swıʃ] *a so'zl.* kelishgan, ko'rkam, zeho, shinam; hashamatli, muhtasham.
Swiss [swıs] **1.** *a* shveysariya *yoki* Shveysariyaga oid; shveysariyalik; **2.** *n* shveysariyalik kishi *yoki* ayol.
switch [swıtʃ] **1.** *n* 1) *el.* vikluchatel; 2) kommutator (*elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2. telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*); 3) chiviq, xivich, xipchin; **2.** *v* 1) xipchin bilan urmoq, savalamoq; 2) elektr toki yo'nalishini o'zgartirmoq (*yoqmoq yoki o'chirmoq*).
switchboard ['swıtʃbɔ:d] *n el.* kommutator (*1) elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2) telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*).
switch off ['swıtʃɔf] *v* o'chirmoq.

switch on [ˈswɪtʃɔn] *v* yoqmoq.
swivel [ˈswɪvl] *n tex.* vertlyug (*turli mexanizmlarda birikkan detallarning bir-biriga nisbatan aylanishini ta'minlovchi zveno*).
swollen [ˈswəʊlən] **1.** *p. p.* **swell** *dan*. **2.** *a* shishgan, kattalashgan, bo'rtgan.
swoon [swu:n] *n* hushdan (o'zidan) ketish, behush bo'lib qolish, behushlik, hushsizlik.
swoop [swu:p] *n* to'satdan hujum qilish.
swop [swɔp] *n so'zl.* alishish, almashish, almashtirish, ayirboshqilish, ayirboshlash.
sword [sɔ:d] *n* qilich, shamshir.
sword-belt [ˈsɔ:dbelt] *n* kamarband (*belga yoki yelkaga taqib yuriladigan, qurol osish uchun xizmat qiladigan tasma*).
swore [swɔ:] *a* qasamyod qilgan, qasam (ont) ichgan; ~ **friends** ajralmas do'stlar.
sworn [swɔ:n] *p. p.* **swear** *dan*.
swot [swɔt] *n so'zl.* 1) og'ir ish, qiyin ish; 2) tushunmasdan yodlash, yodlab olish; 3) *tushunmasdan yodlovchi*.
swum [swʌm] *p. p.* **swim 2.** *dan*.
swung [swʌŋ] *past., p. p.* **swing 2.** *dan*.
sycamore [ˈsɪkəmɔ:] *n bot.* 1) oq zarang; 2) chinor.
sycophant [ˈsɪkəfənt] *n* xushomadgo'y odam, laganbardor, tilyog'lamachi.
syllabic [sɪˈlæbɪk] *a* bo'g'inli, bo'g'inga oid.
syllable [ˈsɪləbl] **1.** *n* bo'g'in; **2.** *v* bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilmoq.
syllabus [ˈsɪləbəs] *n* 1) (*kurs, leksiyaning*) dasturi; 2) konspekt, reja; 3) jadval.
sylvan [ˈsɪlvən] = **silvan.**
symbol [ˈsɪmbl] *n* belgi, alomat; ramz, timsol.
symbolic(al) [sɪmˈbɔlɪk(əl)] *a* simvollar (ramzlar) orqali ifodalangan, simvolik, ramziy.
symbolically [ˌsɪmˈbɔlɪkəlɪ] *adv* simvolik, ramziy, ramzlar bilan (orqali), ramzlar vositasida.
symbolize [ˈsɪmbəlaɪz] *v* simvol (ramziy ishora) bo'lib xizmat qilmoq, ramzi bo'lmoq.
symmetric(al) [sɪˈmetrɪk(əl)] *a* simmetrik.
symmetry [ˈsɪmətrɪ] *n* 1) simmetriya; 2) ...ga moslik, to'g'rilik, mutanosiblik.
sympathetic [ˌsɪmpəˈθetɪk] *a* 1) rahmdillik bilan, (rahmi) kelib qilingan; 2) mehribon, oq ko'ngil, 3) yoqimli, yoqimtoy, istarasi issiq.
sympathize [ˈsɪmpəθaɪz] *v* achinmoq, rahmi kelmoq; rahm qilmoq, hamdard bo'lmoq.
sympathy [ˈsɪmpəθɪ] *n* 1) bir-birini tushunish, hamdardlik; 2) muvofiqlik, uyg'unlik.
symphony [ˈsɪmfənɪ] *n* 1) simfoniya, simfonik musiqa; 2) simfonik; ~ **orchestra** simfonik orkestr.
symposium [sɪmˈpəʊzɪəm] *n* simpozium, ilmiy kengash.
symptom [ˈsɪmptəm] *n* alomat, tashqi belgi, nishona.
synagogue [ˈsɪnəgɔg] *n* sinagoga (*yahudiylar ibodatxonasi*).
synchronize [ˈsɪŋkrənaɪz] *v* sinxronlamoq, sinxron qilmoq, bir-biriga moslamoq (to'g'rilamoq).
syncopate [ˈsɪŋkəpeɪt] *v* 1) *mus.* urg'uning kuchli qismdan kuchsiz qismga o'tishi; 2) *gram.* so'zni qisqartirmoq, so'z o'rtasida bo'g'in *yoki* tovushni tushirib qoldirmoq.
syndicate [ˈsɪndɪkət] *n* sindikat (*yirik monopolistik birlashmalarning bir turi*).
synonym [ˈsɪnənɪm] *n gram.* sinonim.
synonymous [sɪˈnɔnəməs] *a* sinonimlarga (ma'nodosh so'zlarga) oid; ma'nodosh.
synopsis [sɪˈnɔpsɪs] *n* (*pl* **-ses**) konspekt.
synoptic(al) [sɪˈnɔptɪk(əl)] *a kim.* sintetik, sintez yo'li bilan hosil qilingan.
syntax [ˈsɪntæks] *n gram.* sintaksis, gap tuzilishi.
synthesis [ˈsɪnθɪsɪs] *n* (*pl* **-ses**) sintez (*sodda kimyoviy birikma yoki elementlardan murakkab birikmalar hosil qilish*).
synthesizer [ˈsɪnθəsaɪzə] *n* sintezator.
syphilis [ˈsɪfəlɪs] *n* sifilis, zaxm.
syphon [ˈsaɪfn] = **siphon.**
Syrian [ˈsɪrɪən] **1.** *a* Suriyaga va suriyaliklarga *oid*; **2.** *n* suriyalik kishi, suriyalik ayol.
syringe [sɪˈrɪndʒ] **1.** *n* 1) shpris (*hadanga dori yuboradigan asbob*); 2) *tex.* shpris (*mashina qismlarini moylaydigan asbob*); **2.** *v* bosim ostidagi suv *yoki* suyuq dori purkab yuvmoq.
syrup [ˈsɪrəp] *n* shinni, qiyom, sharbat.
system [ˈsɪstəm] *n* 1) yo'l, tartib, usul; 2) tuzum; **social** ~ ijtimoiy tuzum.
systematic(al) [ˌsɪstəˈmætɪk(əl)] *a* 1) sistemali, muntazam, doimiy, har doimgi; 2) tartibli, batartib.
systematize [ˈsɪstəmətaɪz] *a* sistemalamoq, sistemaga (tartibga) solmoq.
systemic [sɪˈstemɪk] *a fiziol.* 1) tartibli, batartib; 2) muntazam, doimiy; 3) barcha organizmga tegishli (taalluqli) bo'lgan; 4) *biol. tib.* somatik, jismoniy.

Tt

T, t [ti:] *n* ingliz tili alifbosining yigirmanchi harfi.
ta [tɑ:] *int. so'zl.* rahmat, tashakkur.
tab [tæb] *n* 1) ilgak (*ustki kiyimga tikilgan yoki qadalgan halqasimon ilgak*), quloqcha, tutqich; 2) etiketka, yorliq, yozuv; 3) *amer.* chek, hisob kitob; 4) quloq (*bosh kiyimda*); 5) pastga tushirib ko'tariladigan kichkina parda (*teatrda*).
tabard [ˈtæbɔ:d] *n tar.* 1) plash; 2) yelkaga tashlanadigan yengsiz keng kiyim.
tabby [ˈtæbɪ] *n* 1) muar, muhayyar (*tovlanadigan qalin shoyi*); 2) ola-bula mushuk; 3) qari qiz.
tabernacle [ˈtæbənækl] *n* 1) chodir; 2) chimildiq, go'shanga; 3) ibodatxona, butxona.

tabes [ˈteɪbiːz] *n tib.* sifilis (zaxm) tufayli orqa miyaning (*nerv sistemasining*) kasallanishi.

tabescence [təˈbesns] *n tib.* oriqlash, ozib ketish.

tabetic [təˈbetɪk] *a tib.* sifilis kasalligidan azob chekayotgan, sifilis kasaliga chalingan.

table [ˈteɪbl] **1.** *n* 1) stol; 2) ovqat, ovqat tayyorlash joyi; 3) jadval; 4) roʻyxat; **upon the** ~ jamoat oldida hal qilinadigan; **2.** *v* 1) stolning ustiga qoʻymoq; 2) jadval tuzmoq.

tableau [ˈtæbləu] *n fr.* chiroyli manzara, chiroyli chizilgan rasm.

tableaux [ˈtæbləuz] *pl* **tableau** *dan.*

table-beer [ˈteɪblˌbɪə] *n* oshxona pivosi (*spirtsiz pivo*).

table-book [ˈteɪblbuk] *n* 1) rasmlar bilan bezatilgan yaxshi kitob; 2) jadvallar toʻplami.

table-cloth [ˈteɪblklɔθ] *n* dasturxon.

table-cover [ˈteɪblˌkʌvə] *n* chiroyli dasturxon.

table d'hôte [ˌtɑːblˈdəut] *n* tabl-dot *(Gʻarbiy Yevropada: umumiy ovqat stoli).*

table-flap [ˈteɪblflæp] *n* stolning qaytarma taxtasi.

tableful [ˈteɪblful] *n* 1) narsalar bilan toʻldirilgan stol; 2) ziyofat ahli.

table-knife [ˈteɪblnaɪf] *n* roʻzgʻor pichogʻi, osh pichogʻi.

tableland [ˈteɪbllænd] *n geogr.* yassi togʻlik, tepalik

table-leaf [ˈteɪblliːf] = **table-flap.**

table-lifting [ˈteɪblˌlɪftɪŋ] *n* spiritizm *(oʻlganlar ruhi narigi dunyoda yashaydigan va ular soʻzlashish mumkin deb ishonuvchi mistik oqim).*

table-linen [ˈteɪblˌlɪnɪn] *n* sochiq-dasturxon.

tableman [ˈteɪblmən] *n* tabelchi

table-money [ˈteɪblˌmʌnɪ] *n harb.* tirikchilik (roʻzgʻor) xarajatlari uchun sarflanadigan pul.

table-napkin [ˈteɪblˌnæpkɪn] *n* qoʻl sochiq, salfetka.

table-spoon [ˈteɪblspuːn] *n* osh qoshiq.

table-stone [ˈteɪblstəun] *n arxeol.* tosh maqbaralar.

tablet [ˈtæblət] *n* 1) *(yozuvli)* kichkina, mayda taxta; 2) bloknot, daftarcha; 3) tabletka, tabletka dori.

table-talk [ˈteɪblˈtɔːk] *n* stol *(dasturxon)* atrofidagi suhbat.

table-tennis [ˈteɪblˌtenɪs] *n* stol tennisi.

table-ware [ˈteɪblweə] *n* turli idishlar, vilka, qoshiq va b.

table-water [ˈteɪblˌwɔːtə] *n* mineral suv *(stol uchun).*

table-work [ˈteɪblwɜːk] *n* jadvallar toʻplami.

tabloid [ˈtæblɔɪd] *n* 1) tuturiqsiz gazeta; 2) qisqartirilgan matnli kichkina hajmdagi gazeta.

taboo [təˈbuː] **1.** *a* man etilgan; **2.** *v* man etmoq, taqiqlamoq.

tabor [ˈteɪbə] *n tar.* kichkina nogʻora.

tabouret [ˈtæbərɪt] *n* kichkina, pastak kursi, kursicha.

tabu [təˈbuː] = **taboo.**

tabular [ˈtæbjulə] *a* jadval shaklidagi, jadvalga oid.

tabulate [ˈtæbjuleɪt] **1.** *a* yassi, yapaloq, tekis; **2.** *v* jadvalga kiritmoq.

tabulation [ˌtæbjuˈleɪʃn] *n* 1) jadval tuzish; 2) jadvaldagi ma'lumot.

tabulator [ˈtæbjuleɪtə] *n* 1) jadval tuzuvchi; 2) tabulator *(hisoblash mashinasining bir turi).*

tachometer [tæˈkɔmɪtə] *n tex.* taxometr *(aylanish tezligini oʻlchaydigan asbob).*

tacit [ˈtæsɪt] *a* 1) soʻz bilan bayon etilmagan; 2) nazarda (koʻzda) tutilgan; 3) soʻzsiz, eʻtirozsiz; lom-mim demay qilingan.

taciturn [ˈtæsɪtəːn] *a* kamgap, indamas.

taciturnity [ˌtæsɪˈtəːnətɪ] *n* kamgaplik, indamaslik.

tack I [tæk] *n* 1) keng qalpoqli mix, knopka; 2) chokning (qaviqning) bir yoʻli (bitta baxyasi).

tack II [tæk] *n deng.* ovqat, oziq, taom; **soft** ~ non.

tackle I [ˈtækl] *n* asbob, buyum, jihoz.

tackle II [ˈtækl] *v amer.* 1) bogʻlamoq, bogʻlab qoʻymoq; 2) ushlab olmoq, tutib olmoq; 3) hal qilmoq; 4) ushlamoq, tutmoq *(futbolda koptokni).*

tacky [ˈtækɪ] *a* yopishqoq, yopishadigan.

tact [tækt] *n* odob, odoblilik, xushmuomalalik, nazokat.

tactful [ˈtæktfl] *a* odobli, xushmuomala, andishali, nazokatli.

tactical [ˈtæktɪkl] *a* 1) *harb.* taktikaga oid; 2) harbiy, jangovar; ~ **efficiency** jangga shaylik; 3) epchil, chaqqon, abjir.

tactician [tækˈtɪʃn] *n* taktik *(taktikani yaxshi biladigan odam).*

tactics [ˈtæktɪks] *n pl* **(sing** *va pl bir xilda ishlatiladi)* taktika *(1. harb. tayyorgarlik koʻrish va jang olib borish sanʻati; 2. koʻzlangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullari).*

tactile [ˈtæktaɪl] *a* 1) sezadigan, sezuvchi, sezish uchun xizmat qiladigan; 2) sezilarli darajadagi.

tactless [ˈtæktləs] *a* odobsiz, beandisha.

tad [tæd] *n amer.* goʻdak, farzand, bola.

Tadjik [tɑːdʒɪk] **1.** *a* tojiklarga, Tojikistonga oid; **2.** *n* 1) tojik, tojik ayoli, tojik qiz; 2) tojik tili.

tadpole [ˈtædpəul] *n* itbaliq, qurbaqa bolasi.

ta'en [teɪn] *shoir.* **taken** *ga qarang.*

taffeta [ˈtæfɪtə] *n* tafta *(gazlama turi).*

tafia [ˈtæfɪə] *n* arzon romning bir turi *(kuchli spirtli ichimliklarning bir turi).*

tag I [tæg] **1.** *n* 1) yozuv, yorliq; 2) quloqcha, tutqich; 3) ilmoq, sirtmoq, halqa; **2.** *v* 1) biriktirmoq, mahkamlamoq; 2) qoʻshmoq, ilova qilmoq *(kitob, xat va b.).*

tag II [tæg] **1.** *n* quvlashmachoq *(bolalar oʻyini);* **2.** *v* orqasidan quvib borib urmoq yoki koptok otib tekkizmoq *(bolalar oʻyinlarida).*

tag day [ˈtægdeɪ] *n amer.* xayr-ehson (sadaqa, qurbonlik) qilish kuni.

tagged [tægd] *a* belgilangan, belgi solingan *(qoʻyilgan, tamgʻa bosilgan).*

tagger [ˈtægə] *n pl* bir taxta juda yupqa tunukalar.

taiga [ˈtaɪgə] *n* tayga (*Yevropa va Osiyo qit'alarining shimolidagi g'oyat zich to'qayzor*).

tail I [teɪl] **1.** *n* 1) dum, orqa qism, quyruq; 2) navbat; 3) kuchsiz, zaif qism; 4) tanganing teskari tomoni; **2.** *v* 1) dum hosil qilmoq; 2) oxirini ulamoq; **~ away** cho'zilib ketmoq, uzoqdan yo'q bo'lmoq.

tail II [teɪl] *n yur.* merosga qoldirilgan buyumlarning cheklangan shartlari.

tail-board [ˈteɪlbɔːd] *n* aravaning qaytarma (*ko'tarma*) orqasi.

tail-coat [ˌteɪl ˈkəut] *n* frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*).

tail-end [ˌteɪlˈend] *n* (*biror narsaning*) yakunlovchi qism (oxiri).

tailings [ˈteɪlɪŋz] *n pl* qoldiq, tashlandiq, chiqit, supurindi.

tail-lamp [ˈteɪllæmp] = **tail-light.**

tailless [ˈteɪlləs] *a* quyruqsiz, dumi yuluq, dumsiz.

tail-light [ˈteɪllaɪt] *n* mashina orqasidagi fonus (fonar).

tailor [ˈteɪlə] **1.** *n* mashinachi, tikuvchi; **2.** *v* tikmoq.

tailored [ˌteɪləd] **1.** *p. p.* **tailor 2.** *dan*; **2.** *a* buyurtma asosida qilingan.

tailoring [ˈteɪlərɪŋ] **1.** *pres. p.* **tailor 2.** *dan*; **2.** *n* 1) tikuvchilik ishi; 2) kiyim (ustbosh) tikish.

tailor-made [ˌteɪlə ˈmeɪd] *a* maxsus buyurtma asosida qilingan.

tailpiece [ˈteɪlpiːs] *n* oxirgi qism.

tail-slide [ˈteɪlslaɪd] *n av.* samolyotning orqa tomonga og'ishi.

tail-spin [ˈteɪlspɪn] *n* 1) boshqarib bo'lmaydigan shtopor (*oliy pilotajda: samolyotning pastga qarab burilib sho'ng'ishi*); 2) iqtisodda inqirozga yuz tutish.

tail-wind [ˈteɪlwɪnd] *n* hamroh shamol.

tain [teɪn] *n* qalaydan qilingan amalgama (*amalgama – simobning biror metall bilan qotishmasi*).

taint I [teɪnt] *n* 1) dog', isnod; 2) axloqi buzuqlik, axloqsizlik, badaxloqlik.

taint II [teɪnt] *v* 1) yuqtirmoq; 2) buzilmoq; **meat ~s readily in hot weather** issiqda go'sht tez buziladi.

tainted [ˈteɪntɪd] **1.** *p. p.* **taint II** *dan*; **2.** *a* buzuq, buzilgan.

taintless [ˈteɪntləs] *a* beayb, benuqson, bekamko'st.

Tajik [ˈtɑːdʒɪk] = **Tadjik.**

take [teɪk] *v* **(took; taken)** 1) olmoq; 2) foydalanmoq; **~ a bus** avtobusga chiqmoq; 3) ijaraga olmoq; 4) *kino.* kadrga olmoq; **~ part in** qatnashmoq; **~ a holiday** ta'tilga chiqmoq; **~ place** sodir bo'lmoq; **~ in** mehmon kutmoq; **~ on** xizmatga qabul qilmoq; **~ out** chiqarmoq; **~ up** muhokama qilmoq; **~ a meal** ovqatlanmoq.

take-down [ˈteɪkdaun] *n* xo'rlash, yerga urish.

take-home pay [ˈteɪkhəumpeɪ] *n* sof ish haqi.

take-in [ˈteɪkɪn] *n* aldash, firib berish.

taken [ˈteɪkən] *p. p.* **take** *dan.*

take-off [ˈteɪkɔf] *n* 1) *so'zl.* taqlid qilish, o'xshatish; 2) *av.* parvoz qilish, uchish.

take-over [ˈteɪkˌəuvə] *n* hosib olish, qo'lga olish.

taker [ˈteɪkə] *n* oluvchi shaxs.

taking [ˈteɪkɪŋ] **1.** *pres. p.* **take** *dan*; 1) hosib olish; zaht qilish, qo'lga olish; 2) qamoqqa (hibsga) olish.

talari [ˈtɑːlərɪ] *n* talari Efiopiyaning pul birligi.

talc [tælk] **1.** *n min.* talk (*texnika va tibbiyotda ishlatiladigan oq yoki ko'kish rangli mineral*); **2.** *v* talk sepmoq.

talcum [ˈtælkəm] = **talc 1.**

talcum powder [ˈtælkəmˌpaudə] *n* gigiyenik upa.

tale [teɪl] *n* hikoya; uydirma; ertak, cho'pchak; rivoyat, qissa; to'qima (*asarlar*).

talent [ˈtælənt] *n* iste'dod, layoqat, qobiliyat.

talented [ˈtæləntɪd] *a* iste'dodli, qobiliyatli.

talentless [ˈtæləntləs] *a* lapashang, qobiliyatsiz, iste'dodsiz.

tales [ˈteɪliːz] *n lot. pl* sud maslahatchilari ro'yxati.

talesman [ˈteɪliːzmən] *n* sud maslahatchisi.

taleteller [ˈteɪlˌtelə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi.

tali [ˈteɪlaɪ] *pl* **talus** *dan.*

taliped [ˈtælɪped] *a tib.* maymoqlikdan azoblanayotgan.

talipes [ˈtælɪpiːz] *n* maymoqlik.

talipot [ˈtælɪpɔt] *n bot.* hind palmasi (*yelpichsimon palma*).

talisman [ˈtælɪzmən] *n* tumor.

talk [tɔːk] **1.** *n* 1) muzokara, ma'ruza; suhbat; 2) nutq so'zlash, gaplashish, suhbatlashish; **2.** *v* gaplashmoq; suhbatlashmoq.

talkathon [ˈtɔːkəθən] *n amer.* juda uzun nutq *yoki* munozara (bahs, tortishuv).

talkative [ˈtɔːkətɪv] *a* sergap, ezma, mahmadona.

talker [ˈtɔːkə] *n* 1) sergap (ezma) odam; 2) yaxshi notiq.

talkie [ˈtɔːkɪ] *n so'zl.* ovozli kino.

talking [ˈtɔːkɪŋ] **1.** *pres. p.* **talk** *dan*; **2.** *a* 1) ifodali, ma'noli; 2) sergap, so'zlashni yaxshi ko'ruvchi; 3) gapiradigan; **~ film** ovozli film.

talking machine [ˈtɔːkɪŋməˌʃiːn] *n* 1) grammofon; 2) fonograf (*ovozni yozib oladigan asbob*).

talking-to [ˈtɔːkɪŋtuː] *n* 1) talaffuz; 2) tanbeh, hayfsan

tall [tɔːl] *a* baland, novcha, uzun bo'yli, baland bo'yli.

tallboy [ˈtɔːlbɔɪ] *n* baland komod (*kiyim-kechak turadigan qutili javon*).

tallow [ˈtæləu] *n* 1) moy; yog'; 2) arava (g'ildirak) moyi.

tally-ho [ˌtælɪ ˈhəu] **1.** *int. ov.* yugur, ol, bos (*o'rgatilgan yoki ovchi itga xitob so'zi*); **2.** *v* itlarni olkishlamoq, gij-gijlamoq.

tally-shop [ˈtælɪʃɔp] *n* mollarni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib oladigan *yoki* sotadigan magazin (do'kon).

tally trade [ˈtælɪtreɪd] *n* bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish *yoki* sotish.

talma [ˈtælmə] *n fr.* talma (*ayollarning yelkaga tashlab yuradigan yengsiz uzun kiyimi*).
talon [ˈtælən] *n* 1) tirnoq, changal; 2) uzun tirnoq; 3) talon.
taluk [tɑːˈluːk] *n hind.* 1) soliq okrugi; 2) merosiy mulk.
talus I [ˈteɪləs] *n anat.* to'piq suyagi.
talus II [ˈteɪləs] *n* 1) qiyalik, yonbag'irlik; 2) *geol.* to'kilma (*tog' yonbag'ridagi ko'chib tushgan tosh, xarsang uyumi*).
tamable [ˈteɪməbl] *a* bo'ysunadigan, rom qilingan, rom bo'lgan.
tamarack [ˈtæməræk] *n bot.* Amerika tilog'ochi (*ignabarglilarga mansub daraxt*).
tamarind [ˈtæmərɪnd] *n bot.* tamar hindiy, hind xurmosi.
tamarisk [ˈtæmərɪsk] *n bot.* yulg'un.
tambour I [ˈtæmbuə] *n* do'mbira, nog'ora.
tambour II [ˈtæmbuə] *v* (*matoga gul*) to'qimoq.
tambourine [ˌtæmbəˈriːn] *n* childirma, doira.
tame [teɪm] **1.** *a* 1) qo'lga oid, qo'lga o'rgatilgan; ~ **bear** qo'lga o'rgatilgan ayiq; 2) xonaki (*mushuk*); **2.** *v* qo'lga o'rgatmoq.
tameable [ˈteɪməbl] = **tamable**.
tameless [ˈteɪmləs] *a* 1) yovvoyi, vahshiy; 2) qo'lga o'rgatib (rom qilib) bo'lmaydigan.
tamer [ˈteɪmə] *n* 1) (*hayvonlarni*) bo'ysundiruvchi, bo'ysundirib o'rgatuvchi, rom qiluvchi.
Tamil [ˈtæmɪl] **1.** *n* 1) tamil; 2) tamil tili; **2.** *a* tamilga oid.
Tamilian [təˈmɪlɪən] *a* Tamil va tamilliklarga oid.
Tammany [ˈtæmənɪ] *n amer.* Nyu-Yorkdagi mustaqil demokratik partiya tashkiloti.
Tammany Hall [ˈtæmənɪhɔːl] *n amer.* Nyu-Yorkdagi demokratik partiya shtabi.
tammy I [ˈtæmɪ] = **tam-o'-shanter**.
tammy II [ˈtæmɪ] *n* suzg'ich, elak, g'alvir.
tam-o'-shanter [ˌtæməˈʃæntə] *n* shotlandiya bereti (*movutdan qilingan yoki baxmaldan tikilgan bosh kiyim*).
tamp [tæmp] *v* to'ldirmoq, to'latmoq, tiqishtirmoq, zichlab tiqmoq.
tampan [ˈtæmpæn] *n* Janubiy Afrikaning zaharli kanasi.
tamper I [ˈtæmpə] *v* 1) aralashmoq, tumshug'ini suqmoq; 2) soxtalashtirmoq; 3) birovni pulga sotib olmoq.
tamper II [ˈtæmpə] *n* shibbalagich (*shibbalaydigan, shibbalab zichlaydigan asbob yoki mashina*).
tampion [ˈtæmpɪən] *n* tiqin.
tampon [ˈtæmpɔn] *n tib.* tampon (*yara ichiga tiqiladigan,qon va yiringni shimib oladigan paxta yoki doka*).
tamtam [ˈtæmtæm] = **tomtom.**
tan [tæn] **1.** *n* 1) oshlaydigan teri; 2) oftobda qorayish; **2.** *a* sarg'ish-jigarrang; **3.** *v* 1) teri oshlamoq; 2) oftobda toblanib yotmoq.
tana [ˈtɑːnə] *n hind.* politsiya uchastkasi.
tanadar [ˈtɑːnədɑː] *n hind.* politsiya mahkamasining boshlig'i.
tandem [ˈtændəm] *a* o'rindig'i oldinma-keyin joylashgan ikki o'rinli velosiped.
tang I [tæŋ] *n* 1) achchiq, o'tkir hid; 2) o'ziga xos xususiyat (fazilat).
tang II [tæŋ] 1. *n* jarang, jiring, jaranglagan (jiringlagan) ovoz, jaranglash; **2.** *v* baland jaranglamoq, jiringlamoq, jingillamoq, jarang-jurung qilmoq.
tangent [ˈtændʒənt] *n* 1) urinma (*egri chiziqning biror nuqtasiga tegib o'tgan to'g'ri chiziq*); 2) *mat.* tangens.
tangential [tænˈdʒenʃl] *a* tangensial (*egri chiziqqa urinma chiziq bo'yicha yo'nalgan*).
Tangerine [ˌtændʒəˈriːn] *n* Tanjer fuqarosi.
tangerine [ˌtændʒəˈriːn] *n* 1) mandarin (*daraxt va mevasi*); 2) to'q sariq rang.
tangibility [ˌtændʒəˈbɪlətɪ] *n* 1) sezilish, sezilishi mumkinlik, seziluvchanlik; 2) haqiqiylik, chinlik.
tangible [ˈtændʒəbl] *v* sezib bo'ladigan, sezish mumkin bo'lgan.
tangle [ˈtæŋgl] **1.** *n* 1) chigallashgan koptok ip; 2) chigal, ishkal; 3) urush; 4) nizo; **2.** *v* 1) chigallashmoq; 2) ovlamoq; 3) aralashib ketmoq.
tangled [ˈtæŋgld] *a* chigal, chalkash, chalkashib (chigallashib) ketgan.
tanglefoot [ˈtæŋglfut] *n* 1) *amer.* viski (*ingliz arag'i*); 2) pashshaga qarshi yopishqoq qog'oz.
tangleleg [ˈtæŋglleg] = **tanglefoot**.
tangly [ˈtæŋglɪ] *a* chigal, chuvalgan, chalkashgan, chigallashib ketgan.
tango [ˈtæŋgəu] *n* tango (*raqsning bir turi va shu raqs musiqasi*).
tank [tæŋk] **1.** *n* 1) sisterna (*1. suyuqliklar saqlanadigan katta metall idish; 2. suyuqlik yoki gaz tashiydigan maxsus vagon*); 2) *harb.* tank; **2.** *v* hochkaga quymoq.
tankage [ˈtæŋkɪdʒ] *n* 1) sisternaning (bakning) sig'imi (hajmi); 2) sisternada saqlash.
tankard [ˈtæŋkəd] *n* uzun pivo krujkasi (*ko'pincha qopqoqli*).
tank-borne [ˈtæŋkbɔːn] *a* sisternada tashiydigan.
tank-car [ˈtæŋkkɑː] *n* 1) sisterna; 2) avtosisterna.
tanked [tæŋkt] *a amer. slang* mast, mast-alast.
tank engine [ˈtæŋkˌendʒɪn] *n* tank-parovoz.
tanker I [ˈtæŋkə] *n* tanker (*suyuq va yarim suyuq mahsulotlar tashiladigan kema*).
tanker II [ˈtæŋkə] *n amer. harb.* tankchi.
tanner I [ˈtænə] *n* teri ovlovchi, ishchi.
tanner II [ˈtænə] *n* 6 pensli tanga pul.
tannery [ˈtænərɪ] *n* ko'n (ishlangan, pishirilgan teri; charm) zavodi.
tannin [ˈtænɪn] *n* tanin (*tibbiyot va texnikada ishlatiladigan, tushni qamashtiradigan modda*).
tantalize [ˈtæntəlaɪz] *v* yolg'on umid bilan havasini keltirmoq.

tantalizing [ˈtæntəlaɪzɪŋ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq.
tantalum [ˈtæntələm] *n kim.* tantal (*qiyin eriydigan qattiq kulrang nodir metall*).
Tantalus [ˈtæntələs] *n grek.mif.* Tantal (*Yunon afsonasi qahramoni*).
tantamount [ˈtæntəmaunt] *a* 1) teng kuchli, kuchi baravar; 2) bahosi (qiymati) bir xil bo'lgan.
tantivy [tænˈtɪvɪ] **1.** *a* tezlik bilan bo'ladigan, tez, ildam, tez bo'lib o'tadigan; **2.** *adv* chopib, yugurib, yelib; yelday uchirib.
tantrum [ˈtæntrəm] *n so'zl.* birdaniga achchig'i chiqish, bir onli g'azab, lov etib bosilgan jahl.
tap I [tæp] **1.** *n* 1) po'kak, tiqin; 2) jo'mrak; 3) pivo, vino markasi; **2.** *v* tiqinni tortib (chiqarib) olmoq.
tap II [tæp] *v* urmoq, tepmoq.
tap-dance [ˈtæpdɑ:ns] *n* chechotka (*raqs turi*).
tape [teɪp] *n* 1) to'qilgan tasma, uqa, jiyak; 2) tasma, kasseta; 3) marra (pakka, finish)dagi lentacha.
tape-line [ˈteɪplaɪn] *n* 1) tasmali metr; 2) o'lchov (o'lchash uchun xizmat qiladigan) lenta.
tape-machine [ˈteɪpmə,ʃi:n] *n* harf yozadigan telegraf apparati (*asbobi*).
tape-measure [ˈteɪp,meʒə] = **tape-line**.
taper [ˈteɪpə] **1.** *n* 1) xira chiroq; 2) asta-sekin pasayish (susayish, zaiflashish); **2.** *v* uchini chiqarmoq; o'tkirlamoq.
tape-record [ˈteɪprɪ,kɔ:d] *v* magnitofon tasmasiga yozib olmoq.
tape-recorder [ˈteɪprɪ,kɔ:də] *n* magnitofon.
tapering [ˈteɪpərɪŋ] *a* 1) ingichka va uzun (*qo'l barmoqlari va h. to'g'risida*); 2) konus shaklidagi.
tapestry [ˈtæpɪstrɪ] *n* 1) devorga osib qo'yiladigan suratli gilam; 2) gul to'qib bezatilgan gazlama (mato).
tapeworm [ˈteɪpwə:m] *n tib.* lentasimon gijja.
tap-hole [ˈtæphəul] *n* ko'z (*metallurgiya pechlarida: erigan metall yoki toshqol oqib chiqadigan teshik*).
taphouse [ˈtæphaus] = **taproom**.
tapir [ˈteɪpə] *n zool.* tapir (*qisqa xartumli sutemizuvchi hayvon*).
tapis [ˈtæpɪ] *n fr.* 1) **to be** (*yoki* **to come**) **on the** ~ muhokamada bo'lmoq, muhokama qilinmoq.
tapper [ˈtæpə] *n* telegraf kaliti.
tappet [ˈtæpɪt] *n tex.* klapanning turtkichi.
taproom [ˈtæpru:m] *n* pivoxona, bar.
tap-root [ˈtæpru:t] *n bot.* asosiy ildiz, o'qildiz.
tapster [ˈtæpstə] *n* bufetchi, bar (mayxona) egasi, bar (mayxona) sotuvchisi.
tar [tɑ:] **1.** *n* qatron; chirkay (*yog'och, torf, toshko'mir kabilardan qizdirib olinadigan qora, quyuq modda*); **2.** *v* qatron surtmoq.
taradiddle [ˈtærədɪdl] *n so'zl.* yolg'on, yolg'on (*noto'g'ri*) gap, yolg'on, yolg'on-yashiq, uydirma.
tarantella [ˌtærənˈtelə] *n* tarantella (*sho'x italyan xalq raqsi hamda shunday raqs musiqasi*).
tarantula [təˈræntjulə] *n zool.* biy, o'rgimchak biyi.
taraxacum [təˈræksəkəm] *n* 1) *bot.* qoqi o't; 2) *tib.* qoqi o'tdan tayyorlangan dori.
tarboosh [ˈtɑ:bu:ʃ] *n* hojido'ppi.
tar-brush [ˈtɑ:brʌʃ] *n* qatron surtish uchun ishlatiladigan kichkina cho'tkacha.
tardigrade [ˈtɑ:dɪgreɪd] *a zool.* imillab yuradigan, sekin harakat qiladigan.
tardy [ˈtɑ:dɪ] *a* 1) sustkash, sust, lanj, kechikish; 2) kech qolgan; 3) orqada qolgan; ~ **arrival** sust kelish, kech kelish; **to be** ~ **for the lyceum** litseyga kechikmoq.
tare I [teə] *n* tara (*tovar-buyum joylanadigan yoki o'raladigan qog'oz, qop, quti va sh.k.*)ning og'irligi.
tare II [teə] *n bot.* ekiladigan xashaki no'xat.
targe [tɑ:dʒ] *n* kichkina yumaloq qalqon.
target [ˈtɑ:gɪt] *n* mo'ljal, nishon.
Tarheel(er) [ˈtɑ:ˌhi:l(ə)] *n amer. so'zl.* Shimoliy Karolinada yashovchi kishilarning laqabi.
tariff [ˈtærɪf] **1.** *n* 1) tarif (*biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmuyi*); 2) narx qo'yish; **2.** *v* 1) tarifga kiritmoq; 2) narx qo'ymoq.
tarlatan [ˈtɑ:ləten] *n* tarlatan (*dokaga o'xshagan mato, gazlama*).
tarmac [ˈtɑ:mæk] = **tar macadam** *so'zining qisqartmasi.*
tar macadam [ˌtɑ:məˈkædəm] *n* shosseni gudronlamoq, shossega gudron yotqizmoq.
tarnation [tɑ:ˈneɪʃn] = **damnation**.
tarnish [ˈtɑ:nɪʃ] **1.** *n* xiralik, shaffofemaslik, nursizlik; **2.** *v* xira bo'lmoq; xiralanmoq, rangi o'chmoq.
tar paper [ˈtɑ:peɪpə] *n* to'l, qora qog'oz (*smolali qalin qog'oz*).
tarpaulin [tɑ:ˈpɔ:lɪn] *n* 1) brezent; 2) matros shapkasi (*yoki* kurtkasi; 3) *og'z.* matros, dengizchi.
tarpon [ˈtɑ:pən] *n zool.* tarpon (*yovvoyi ot*).
tarragon [ˈtærəgən] *n bot.* 1) estragon, tarxun (*ko'p yillik o't, ermanning bir turi*); 2) shuvoq, yoshvan.
tarrock [ˈtærək] *n* bir nechta shimoliy dengiz qushlarining nomlari.
tarry I [ˈtærɪ] **1.** *v* 1) sustkashlik qilmoq; 2) *amer.* kutmoq **(for)**; 3) yashamoq **(in, at)**.
tarry II [ˈtɑ:rɪ] *a* qatron surtilgan, qatronli.
tarsi [ˈtɑ:saɪ] *pl* **tarsus** *dan.*
tarsia [ˈtɑ:sɪə] *n it.* yog'och mozaika (*mozaika – qadoma (terma) naqsh va shunday naqsh ishlash san'ati*).
tarsus [ˈtɑ:səs] *n* (*pl* **-si**) 1) *anat.* oyoqning beti, oyoq kaftining orqasi (*oyoq kafti bilan boldir orasi*); 2) *zool.* oyoqning kafti (*qushlarda*).
tart I [tɑ:t] *a* nordon, achchiq, taxir, turush.
tart II [tɑ:t] *n* 1) pirog; 2) uy torti; 3) mevali pirog.

tartan [ˈtɑːtn] *n* katak-katak gazlama.

Tartar [ˈtɑːtə] **1.** *n* 1) tatar (*kishi*); 2) tatar ayol, tatar qiz; 2. *a* tatarcha; **young ~** injiq bola.

tartar [ˈtɑːtə] *n kim.* tishda paydo bo'ladigan tosh.

Tartarean [tɑːˈteərɪən] *a* do'zaxga (jahannamga) oid, do'zaxda bo'ladigan.

Tartarian [tɑːˈteərɪən] *a* tatarlarga oid.

Tartarus [ˈtɑːtərəs] *n mif.* jahannam, do'zax (*yunon mifologiyasida*).

tartlet [ˈtɑːtlət] *n* kichkina pirog.

task [tɑːsk] **1.** *n* topshiriq, ish, dars, majburiyat, vazifa; **2.** *v* 1) ish bermoq; 2) haddan ortiq yuklamoq; 3) topshirmoq.

taskmaster [ˈtɑːskmɑːstə] *n* 1) brigadir; 2) nazoratchi.

taskwork [ˈtɑːskwɜːk] *n* 1) belgilangan (*kelishilgan*) ish; 2) baylashib qilinadigan ish, baylashib ishlash.

tassel [ˈtæsl] *n* popuk, gajim.

taste I [teɪst] **1.** *n* 1) maza, ta'm; 2) did, ta'b; **2.** *v* 1) mazasini tatib ko'rmoq; 2) yemoq, ichmoq.

taste II [teɪst] *v* 1) mazasini tatib ko'rmoq; 2) yemoq, ichmoq.

tasteful [ˈteɪstfl] *a* mazali pishirilgan, did bilan bajarilgan, ta'mi shirin.

tasteless [ˈteɪstləs] *a* mazasiz, ta'mi yo'q, ta'msiz, didsiz, mazasiz, bemaza.

taster [ˈteɪstə] *n* 1) chashnachi (*mazasiga qarab sinovchi*); sinovchi, degustator; 2) nashriyot taqrizchisi.

tasty [ˈteɪstɪ] *a* mazali, lazzatli, shirin.

tat [tæt] *v* to'r to'qimoq.

ta-ta [tæˈtɑː] *int.* hozircha (vaqtincha) xayr!

Tatar [ˈtɑːtə] = **Tartar.**

tatter [ˈtætə] **1.** *n* 1) eski-tuski sotib oluvchi, eskifurush, eskichi; 2) eski-tuski; uvada; **2.** *v* yirtilmoq, eskirmoq.

tatterdemalion [ˌtætədɪˈmeɪlɪən] *n* yalangoyoq, juldur (*yirtiq-sirtiq*) kiyimli kishi.

tattered [ˈtætəd] **1.** *p. p.* **tatter 2.** *dan*; **2.** *a* yirtiq, yirtiq-sirtiq, uvadasi chiqqan.

tatting [ˈtætɪŋ] *n* to'qilgan to'r.

tattle [ˈtætl] **1.** *n* bekorchi gap, safsata; **2.** *v* valdiramoq, vaysamoq.

tattler [ˈtætlə] *n* sergap odam, ezma, vaysaqi, safsataboz.

tattoo I [tæˈtuː] **1.** *n* kechki payt yotishga chalinadigan signal; **2.** *v* turishga (*yoki* yotishga) signal chalmoq.

tattoo II [tæˈtuː] **1.** *n* 1) tatuirovka (*badandagi yozuvlar, naqshlar*); 2) tatuirovka qilish (*teri ostiga rang o'tkazib badanga naqsh tushirish*); **2.** *v* tatuirovka qilmoq.

tatty [ˈtætɪ] *n hind.* xushbo'y o'tdan qilingan ho'l bo'yra (*xonaning havosini sovitish uchun eshik yoki derazaga osib qo'yiladi*).

taught [tɔːt] *past., p. p.* **teach** *dan.*

taunt I [tɔːnt] *v* masxara qilish, birovning ustidan kulish, birovni masxara (mazax, mayna) qilish.

taunt II [tɔːnt] *a* juda baland (*mashta haqida*).

tauromachy [tɔːˈrɔməkɪ] *n grek.* ho'kizlar urishi (*jangi*).

taut [tɔːt] *a* 1) tarang, tarang qilib tortilgan; 2) tarang tortilgan, kuchlangan; **~ nerves** tarang tortilgan asablar.

tauten [ˈtɔːtn] *v* tarang qilib tortmoq.

tautologize [tɔːˈtɔlədʒaɪz] *v* takrorlamoq, qaytarmoq, qayta-qayta gapirmoq.

tautology [tɔːˈtɔlədʒɪ] *n* tavtologiya (*bir fikrni boshqa so'zlar bilan takrorlash*).

tavern [ˈtævən] *n* kichik mayxona (*Italiya va ba'zi boshqa mamlakatlarda*).

taw I [tɔː] *n* sharchalar (*bolalar o'yini*).

taw II [tɔː] *v* terini oshlamasdan shilib olmoq.

tawdry [ˈtɔːdrɪ] **1.** *a* 1) usti yaltiroq; 2) savlatli, ko'zga tashlanadigan; 3) didsizlik bilan ishlangan; **2.** *n* arzon bezak (zeb-ziynat).

tawny [ˈtɔːnɪ] *a* to'q-sariq.

tax [tæks] **1.** *n* soliq, o'lpon; **2.** *v* soliq solmoq.

taxable [ˈtæksəbl] *a* soliq solingan; soliq solinadigan.

taxation [tækˈseɪʃn] *n* soliq solish, soliq summasi.

tax-collector [ˈtækskəˌlektə] *n* soliq yig'uvchi kishi.

tax evasion [ˈtæksɪˌveɪʒn] *n* soliq to'lashdan bosh tortish.

tax-exempt [ˈtæksɪgˌzempt] *a* soliq solinmaydigan, soliqdan ozod etilgan.

tax-farmer [ˈtæksˌfɑːmə] *n* sotib olgan kishi, ijarakor.

tax-free [ˌtæksˈfriː] *a* soliq to'lashdan ozod qilingan.

tax-gatherer [ˈtæksˌgæðərə] = **tax-collector.**

taxi [ˈtæksɪ] **1.** *n* taksi; **2.** *v* taksida yurmoq.

taxidermy [ˈtæksɪdɜːmɪ] *n* tulumning ichini to'ldirish.

taxi-driver [ˈtæksɪˌdraɪvə] = **taximan.**

taxi-man [ˈtæksɪmən] *n* taksi haydovchisi.

taximeter [ˈtæksɪˌmiːtə] *n* taksometr (*qancha pul to'lashni ko'rsatuvchi moslama*).

taxing [ˈtæksɪŋ] **1.** *n* soliq solish; **2.** *a* 1) soliq yig'adigan (oladigan, oluvchi); 2) soliq yig'ish bilan shug'ullanadigan.

taxing-master [ˈtæksɪŋˌmɑːstə] *n* sud xarajatlarini aniqlaydigan mansabdor kishi.

taxis [ˈtæksɪs] *n biol.* organizmning javobiy reaksiyasi.

taxpayer [ˈtæksˌpeɪə] *n* soliq to'lovchi kishi.

tea [tiː] *n* choy; **~ house** choyxona.

tea-biscuit [ˈtiːˌbɪskɪt] *n* choy bilan yeyiladigan pishiriqlar (*pechenye*).

tea-board [ˈtiːbɔːd] = **tea-tray.**

tea-bread [ˈtiːbred] *n* choy bilan yeyiladigan bulochka *yoki* non.

tea-caddy [ˈtiːˌkædɪ] *n* choy quti, choy idish, choydon.

tea-cake [ˈti:keɪk] *n* choy bilan yeyiladigan keks (bulochka).
teach [ti:tʃ] *v* **(taught)** o'qitmoq, o'rgatmoq; **to ~ children** bolalarni o'qitmoq.
teachable [ˈti:tʃəbl] *a* 1) o'zlashtirish mumkin bo'lgan (*fan haqida*); 2) o'qishga qobiliyatli bo'lgan; 3) zehni o'tkir, farosatli.
teacher [ˈti:tʃə] *n* o'qituvchi.
teachers college [ˈti:tʃəz,kɔlɪdʒ] *n* pedagogika instituti.
teaching [ˈti:tʃɪŋ] **1.** *pres. p.* **teach** *dan*; **2.** *n* ta'lim berish, o'qitish, o'rgatish; **to take up ~** o'qituvchi bo'lmoq.
tea-cloth [ˈti:klɔθ] *n* choy dasturxon; choy idishni artadigan sochiq.
tea-cosy [ˈti:,kəʊzɪ] *n* qavilgan g'ilof, jild (*choynakka*).
teacup [ˈti:kʌp] *n* choy ichadigan piyola.
tea-dealer [ˈti:,di:lə] *n* choyfurush, choy sotuvchi.
tea-fight [ˈti:faɪt] = **tea-party**.
tea-garden [ˈti:,gɑ:dn] *n* ochiq havodagi qahvaxona *yoki* restoran.
tea-house [ˈti:haʊs] *n* choyxona.
teak [ti:k] *n bot.* tik (*issiq mamlakatlarda o'sadigan kemabop qattiq daraxt*).
tea-kettle [ˈti:,ketl] *n* choy qaynatish uchun ishlatiladigan choynak.
teal [ti:l] *n* churrok (*mayda yovvoyi hayvon*).
tea-leaf [ˈti:li:f] *n* choy bargi.
team I [ti:m] *n* jamoa: **football ~** futbol jamoasi.
team II [ti:m] *v* birlashmoq.
team-mate [ˈti:mmeɪt] *n* bitta jamoa o'yinchisi (*jamoadosh*).
teamster [ˈti:mstə] *n* haydovchi, podachi.
teamwise [ˈti:mwaɪz] *n* birga, birgalikda.
team-work [ˈti:mwɜ:k] *n* o'zaro ta'sir; kelishilgan ish, birgalikdagi harakat.
tea-party [ˈti:,pɑ:tɪ] *n* choyga taklif qilingan uyushma.
teapot [ˈti:pɒt] *n* choy damlaydigan choynak.
teapoy [ˈti:pɔɪ] *n hind.* uch oyoqli kichkina stol (*asosan, choy uchun*).
tear I [tɪə] *n* ko'z yoshi: **bitter ~s** achchiq ko'z yoshlar.
tear II [teə] *v* **(tore, torn)** yirtmoq, yirtib tashlamoq: **to ~ paper** qog'ozni yirtmoq.
tear-drop [ˈtɪədrɒp] *n* bir qatra yosh (*ko'z yoshi*).
tear-duct [ˈtɪədʌkt] *n anat.* yosh (ko'z yoshi) yo'li.
tearful [ˈtɪəful] *a* 1) g'amli, qayg'uli; 2) ko'z yoshga to'la.
tear-gas [ˈtɪəgæs] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gaz.
tearing [ˈteərɪŋ] *a sl.* qutirgan.
tearless [ˈtɪələs] *a* 1) ko'z yoshsiz; **~ grief** ko'z yoshsiz g'am; 2) sezmaydigan.
tea-room [ˈti:rum] *n* shakarpazlik mahsulotlari sotiladigan qahvaxona.
tea-rose [ˈti:rəʊz] *n* choygul (*atirgulning oq-sarg'ish turi*).
tear-shell [ˌtɪəˈʃel] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gazlar saqlanadigan asbob.
tear-stained [ˈtɪəsteɪnd] *a* yig'idan qizargan, yig'layverib shishib ketgan.
tease [ti:z] *v* tegajaklik qilmoq, jig'iga tegmoq, jahlini chiqarmoq.
teasel [ˈti:zl] **1.** *n bot.* 1) to'ng'iztaroq; 2) to'ng'iztaroq tikanagi; **2.** *v* paxmoqlamoq, tuk chiqarmoq.
teaseler [ˈti:zlə] *n* tuk chiqaruvchi.
teaser [ˈti:zə] *n* 1) qiyin masala; 2) hammaning jig'iga tegaveradigan (*jangari, urishqoq*).
tea-service [ˈti:,sɜ:vɪs] *n* choy servizi, choy idishlari.
tea-set [ˈti:set] = **tea-service**.
tea-shop [ˈti:ʃɒp] *n* qahvaxona, gazakxona, yemakxona.
tea-spoon [ˈti:spu:n] *n* choy qoshiq.
tea-strainer [ˈti:,streɪnə] *n* choy suzadigan to'r.
teat [ti:t] *n* 1) emchak uchi; 2) *tex.* biror predmet (detal)ning bo'rtib chiqqan joyi.
tea-table [ˈti:,teɪbl] *n* choy ichadigan stol, choy stoli.
tea-things [ˈti:θɪŋz] *n pl* choy idishlari (*choynak, piyola*).
tea-tray [ˈti:treɪ] *n* choy patnisi.
tea-urn [ˈti:ɜ:n] *n* samovar (*suv qaynatadigan asbob*).
tea wagon [ˈti:,wægən] *n* choy *yoki* yengil ovqat olib kelish uchun tayyorlangan g'ildirakli stol.
teazel, teazle [ˈti:zl] = **teasel**.
tec [tek] *n so'zl.* **detective** *so'zning qisqartirilgan shakli.*
technical [ˈteknɪkl] *a* 1) texnikaviy; 2) texnikaga oid.
technicality [ˌteknɪˈkælətɪ] *n* 1) ishning texnik tomoni (tarafi); 2) texnik detal.
technician [tekˈnɪʃn] *n* 1) o'z ishini biladigan kishi; 2) mutaxassis.
technics [ˈteknɪks] *n pl* (*ko'plik hamda birlik shakli bir xil yoziladi*) texnika (*mehnat qurollari va vositalari, majmuyi*); 2) texnika fanlari.
technique [tekˈni:k] *n* 1) texnikaviy usullar; 2) metod, uslub.
technologist [tekˈnɒlədʒɪst] *n* texnolog (*texnologiya bo'yicha mutaxassis*).
technology [tekˈnɒlədʒɪ] *n* texnologiya (*materialga ishlov berish usullari va shu usullar tavsifi*) texnika.
techy [ˈtetʃɪ] = **tetchy**.
tectonic [tekˈtɒnɪk] *a* 1) me'morchilikka oid; 2) *geol.* tektonika (geologiyaning yer po'sti tuzilishini va tektonik harakatlar natijasida unda bo'lib turadigan o'zgarishlarni o'rganadigan bo'limi)ga oid.
ted [ted] *v* pichanni ag'darmoq.
tedder [ˈtedə] *n* pichan (*xashak*) ag'daradigan mashina.

teddy-bear [ˈtedɪbeə] *n* ayiqcha (*bolalar o'yinchog'i*).
teddy boy [ˈtedɪbɔɪ] *n so'zl.* o'ta olifta yigit.
tedious [ˈti:dɪəs] *a* zerikarli, charchatadigan, toliqtiradigan, zeriktiradigan, diqqatni oshiradigan.
tedium [ˈti:dɪəm] *n* 1 zerikish, toliqish; 2) charchaganlik, toliqqanlik, horg'inlik.
tee I [ti:] *n* 1) T harfining nomi; 2) uchtalik; 3) T shaklidagi narsa.
tee II [ti:] *n* nishon, mo'ljal (*o'yinda*); **~ off** birinchi zarba bermoq (*golfda*).
teem I [ti:m] *v* to'lib toshmoq, juda ko'p bo'lmoq.
teem II [ti:m] *v* quymoq, quyib chiqmoq, quyib qo'ymoq (*metall quymasini*).
teeming [ˈti:mɪŋ] *pres. p.* **teem II** *dan.*
teen-age [ˈti:neɪdʒ] *a* 1) 13 dan 19 yoshgacha bo'lgan; 2) voyaga (balog'atga) yetmagan.
teen-ager [ˈti:neɪdʒə] *n* o'spirin, o'smir, 13 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar.
teens [ti:nz] *n pl* 13 dan 19 gacha bo'lgan yosh.
teeth [ti:θ] *n pl* tish, dandon.
teetotal [ˌti:ˈtəutl] *a* mast emas, hushyor, ichmagan.
teetotaller [ˌti:ˈtəutlə] *n* (*spirtli ichimliklar*) ichmaydigan odam.
teg [teg] *n* bir yashardan o'tgan sovliq qo'y.
tegular [ˈtegjulə] *a* cherepitsa (tomga yopiladigan sopol)ga oid.
tegument [ˈtegjumənt] *n* po'st, po'stloq, po'choq, to'pon.
tehee [tiˈhi:] **1.** *n* qiqir-qiqir, qiqirlab kulish; **2.** *v* qiqir-qiqir kulmoq.
telautogram [teˈlɔ:təgræm] *n* fototelegramma (*fototelegraf orqali yuborilgan telegramma, xat, hujjat va sh.k.*).
telautograph [teˈlɔ:təgrɔ:f] *n* fototelegraf (*xat, hujjat, rasm va sh.k.ni telegraf yoki radio vositasida uzoq masofaga yuboradigan qurilma*).
tele [ˈteli] *so'zl.* **television** *so'zining qisqartmasi.*
telecast [ˈtelikɑ:st] *n* 1) teleko'rsatuv; 2) televizion ko'rsatish va eshittirish.
telecasting [ˈtelikɑ:stɪŋ] *attr.* televideniyaga oid; **~ studio** televizion studiya.
telecommunications [ˌtelikəmju:nɪˈkeɪʃn] *n* uzoqdagi aloqa, telefon, telegraf *yoki* radio.
telecontrol [ˈtelikən,trəul] *n* masofadan boshqarish, uzoqdan (turib) boshqarish.
telecruiser [ˈteli,kru:zə] *n* ko'chma televizion stansiyasi.
telefilm [ˈtelifilm] *n* televizion film.
telegenic [ˌteliˈdʒenɪk] *a* televizor ekranida yaxshi ko'rinadigan.
telegram [ˈteligræm] *n* telegramma; **to receive a ~** telegramma olmoq; **to send a ~** telegramma jo'natmoq.
telegraph [ˈtelɪgrɑ:f] *n* telegraf (*1. aloqa turi va apparati; 2. telegraf idorasi va binosi*).
telegrapher [təˈlegrəfə] = **telegraphist.**
telegraphese [ˌteligrɑ:ˈfi:z] *n* «telegrafcha» uslub, qisqa yozish uslubi.
telegraphic [ˌteliˈgræfik] *a* 1) telegrafga oid; 2) telegraf orqali amalga oshiriladigan.
telegraphist [təˈlegrəfist] *n* telegraf xodimi.
telegraph-line [ˈteligrɑ:flaɪn] *n* telegraf liniyasi.
telegraph-pole [ˈteligrɑ:fpəul] *n* telegraf ustuni.
telegraph-post [ˈteligrɑ:fpəust] = **telegraph-pole.**
telegraph-wire [ˈteligrɑ:fwaɪə] *n* telegraf simi.
telegraphy [tɪˈlegrəfi] *n* telegramma berish (*telegraf orqali xabar qilish*).
telekinesis [ˌtelikaɪˈni:sɪs] *n* telekinez.
telemeter [teˈlɪmɪtə] *n* telemetr (*masofa o'lchagich*).
teleology [ˌti:lɪˈɔlədʒɪ] *n* teleologiya (*tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan, maqsadga muvofiq qilib yaratiladigan deb talqin qiluvchi diniy ta'limot*).
telepathy [təˈlepəθɪ] *n* telepatiya (*go'yo uzoqdan turib fikr va tuyg'ularini boshqa kishiga bildira olish*).
telephone [ˈtelɪfəun] **1.** *n* telefon (*aloqa turi*); **~ booth** telefon budkasi; **~ call** telefon qo'ng'irog'i; **2.** *v* 1) qo'ng'iroq qilmoq; 2) telefon apparatini o'rnatmoq.
telephone set [ˈtelɪfəunset] **1.** *n* telefon apparati; **2.** *v* telefonlashtirmoq.
telephonic [ˌtelɪˈfɔnɪk] *n* telefonga oid.
telephonist [təˈlefənɪst] *n* telefon simlari o'rnatuvchi mutaxassis.
telephony [təˈlefənɪ] *n* telefoniya (*elektr va radio orqali uzoqqa tovush yuborish texnikasi*).
telephotography [ˌtelɪfəˈtɔgrəfɪ] *n* telefotografiya (*fototelegraf orqali berilgan tasvir*).
teleprinter [ˈtelɪprɪntə] *n* teletayp (*tekstni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*).
telescope I [ˈtelɪskəup] *n* teleskop.
telescope II [ˈtelɪskəup] *v* 1) siljitmoq; 2) qisqartmoq (*matn, hikoya va b.*).
telescreen [ˈtelɪskri:n] *n* televizor ekrani.
telethon [ˈteləθɔn] *n* saylovdan oldin biror nomzodni qo'llash maqsadida o'tqaziladigan bir necha soatli televizion dastur.
teletype [ˈtelɪtaɪp] *n* teletayp (*matnni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*).
televiewer [ˈtelɪvju:ə] *n* teletomoshabin.
televise [ˈtelɪvaɪz] *n* televizion dasturini ko'rsatmoq.
television [ˈtelɪ,vɪʒn] *n* 1) televideniya; 2) *attr.* televideniyaga oid; **~ set** televizor.
televisional [ˈtelɪ,vɪʒnl] *a* televideniyega oid.
televisor [ˈtelɪvaɪzə] *n* televizor.
televisual [ˌtelɪˈvɪʒjuəl] = **televisional.**
telex [ˈteleks] *n* teleks.
tell [tel] *v* (**told**) 1) gapirmoq, aytib bermoq; 2) hikoya qilmoq; **to ~ a story** hikoya aytmoq; 3) ko'r-

satmoq, guvoh bo'lmoq; **to ~ the time** vaqtni ko'rsatmoq.

teller [ˈtelə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi.

telling [ˈtelɪŋ] **1.** *pres. p.* **tell** *dan.* **2.** *a* 1) amaliy natija (foyda) beradigan; ta'sir ko'rsatadigan, kor qiladigan; 2) zo'r, taassurot qoldiradigan; 3) ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor.

telling-off [ˌtelɪŋˈɔf] *n* tanbeh, ogohlantirish, ta'zir.

telltale [ˈteltel] *n* 1) g'iybatchi odam; 2) chaqimchi.

tellurian [teˈluərɪən] **1.** *n* yerda yashovchi kishi; **2.** *a* yerga oid, yerda bo'ladigan.

telluric [teˈljuərɪk] *a* yerga (zaminga) oid, yer..., zamin...

tellurium [teˈluərɪəm] *n kim.* tellur (*kimyoviy element*).

telly [ˈtelɪ] *n so'zl.* televizor.

telpher [ˈtelfə] **1.** *n tex.* telfer; **2.** *v* osma yo'l orqali bir joydan ikkinchi joyga tashimoq.

temblor [ˌtemˈblɔ:] *n amer.* zilzila, yer qimirlash.

temerarious [ˌtemɘˈreərɪəs] *a* 1) o'ylamay qilingan, muhokama (mulohaza) qilib ko'rilmagan; 2) noilojlikdan qilingan.

temerity [tɪˈmerətɪ] *n* o'ylamay ish qilish, shoshqaloqlik.

temp [temp] **1.** *n* vaqtincha yashaydigan kishi; **2.** *v* vaqtincha ishlamoq.

temper [ˈtempə] *n* 1) fe'l-atvor, xulq; 2) kayfiyat.

tempera [ˈtempərə] *n* tempera (*tuxum sarig'ida ezib tayyorlangan bo'yoq*).

temperament [ˈtemprəmənt] *n* serg'ayratlik, jo'shqinlik.

temperamental [ˌtemprəˈmentl] *a* jo'shqin, serg'ayrat, otashin, qiziqqan.

temperance [ˈtemprəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik.

temperate [ˈtempərət] *a* 1) o'rtacha, o'rtamiyona, 2) o'zini tutib (bosib) olgan.

temperature [ˈtemprətʃə] *n* harorat, isitma; **to take one's ~** haroratni o'lchamoq.

tempest [ˈtempɪst] **1.** *n* his-tuyg'u g'alayoni, tug'yon; **~ in a teapot** arzimagan sabab bilan bo'lgan g'avg'o (mojaro, iztirob); **2.** *v* hamma yoqni boshiga ko'tarmoq, to's-to'polon qilmoq.

tempestuous [tem ˈpestʃuəs] *a* kuchli, shiddatli, qattiq; qizg'in.

tempi [ˈtempi:] *pl* **tempo** *dan.*

template [ˈtempleɪt] *n tex.* andaza, qolip.

temple I [ˈtempl] *n* ibodatxona, butxona, cherkov.

temple II [ˈtempl] *n* chakka.

temple III [ˈtempl] *n tex.* bosib (*tutib*) turadigan planka (*uzun taxtacha*).

templet [ˈtemplət] = **template.**

tempo [ˈtempəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz], **-pi**) 1) *mus.* temp, sur'at, tezlik, marom; 2) (*vashash*) sur'ati.

temporal I [ˈtemprəl] *a* vaqtincha, o'tib ketadigan, muvaqqat.

temporal II [ˈtemprəl] *anat.* **1.** *a* chakkaga oid; **2.** *n* chakka suyagi.

temporarily [ˌtempəˈrərəlɪ] *adv* vaqtincha, muvaqqat.

temporality [ˌtempəˈrælətɪ] *n* 1) tez o'zgaradigan (*vaqtinchalik*) fe'l-atvor; 2) ibodatxona kirimlari (daromadlari).

temporary [ˈtemprərɪ] *a* vaqtinchalik, doimiy bo'lmagan, muvaqqat.

temporize [ˈtempəraɪz] *v* 1) vaqtni cho'zmoq; 2) sustkashlik qilmoq, cho'zmoq, orqaga sudramoq, kechiktirmoq.

tempt [tempt] *v* 1) jalb etmoq; undamoq; qiziqtirmoq; ishontirmoq; 2) aldab qo'ymoq, yo'ldan ozdirmoq; 3) sinab (tajriba qilib) ko'rmoq; **to ~ fate** taqdirni sinamoq, tavakkaliga harakat qilmoq.

temptation [tempˈteɪʃn] *n* vasvasa, nafs (balosi), qiziqtirish, aldov.

tempter [ˈtemptə] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi kishi.

tempting [ˈtemptɪŋ] **1.** *pres. p.* **tempt** *dan*; **2.** *a* qiziqtiradigan, jozibador, havasni keltiradigan.

temptress [ˈtemptrəs] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi (*ayol*).

ten [ten] *num. card.* o'n; **~th** *num.ord* o'ninchi.

tenable [ˈtenəbl] *a* mantiqan to'g'ri, izchil, durust, tuzuk.

tenacious [tɪˈneɪʃəs] *a* tirishqoq, ishga astoydil kirishadigan; **~ memory** yaxshi xotira.

tenacity [tɪˈnæsətɪ] *n* tirishqoqlik, o'tkirlik, kuchlilik.

tenancy [ˈtenənsɪ] *n* 1) bino (imorat, uy, joy)ni ijaraga olish; 2) ijaraning muddati; 3) ijaraga olingan yer; ijaraga olingan uy.

tenant [ˈtenənt] **1.** *n* ijarador, ijarachi; **2.** *v* ijaraga olmoq.

tenantry [ˈtenəntrɪ] *n* ijaraga oluvchilar, ijarachilar.

tench [tenʃ] *n* lin (*zog'ora baliqning bir turi*).

tend I [tend] *v* egilmoq, qarab bormoq, yaqinlashmoq.

tend II [tend] *v* g'amini yemoq, g'amxo'rlik qilmoq.

tendency [ˈtendənsɪ] *n* intilish, niyat, moyillik, mayl, havas, qiziqish; **a ~ to corpulence** semirishga moyillik.

tendentious [tenˈdenʃəs] *n* muayyan bir g'oyani ilgari suradigan.

tender I [ˈtendə] *a* nozik, muloyim; xushmuomala, nafis.

tender II [ˈtendə] *n* 1) (rasmiy) taklif; 2) (qarzga to'lanadigan) pul.

tender III [ˈtendə] *v* 1) taklif qilmoq; 2) talabnoma bermoq (*savdo-sotiq tashkilotlarida*); 3) (*qarzni*) to'lamoq.

tenderfoot [ˈtendəfut] *n so'zl.* yangi odam, yangi (endigina) kelgan odam.

tender-hearted [ˌtendəˈhɑ:tɪd] *a* yaxshilikni ayamaydigan, ko'ngli yumshoq (bo'sh), ko'ngilchan, rahmdil.

tenderling [ˈtendəlɪŋ] *n* 1) nozik-nihol odam, nozik; 2) kichkina bola, chaqaloq.
tenderloin [ˈtendəlɔɪn] *n amer.* 1) biqin go'sht; 2) qirqib olingan narsa, parcha.
tendinous [ˈtendɪnəs] *a* 1) chandir; 2) sertomir, serpoya; 3) muskullari rivojlangan, baquvvat.
tendon [ˈtendən] *n anat.* pay, chandir.
tendril [ˈtendrəl] *n bot.* mo'ylovchalar, shox gajagi.
tenebrous [ˈtenɪbrəs] *a* qorong'i, qorong'ilik (zulmat) bosgan, zulmatdagi.
tenement [ˈtenəmənt] *n* ko'p kvartirali bino.
tenement-house [ˌtenəmənt'haus] *n* ijaraga beriladigan ko'p kvartirali uy.
tenet [ˈtenɪt] *n lot.* 1) dogmat, din aqidalari; 2) ta'limot, nazariya.
tenfold [ˈtenfəuld] **1.** *a* o'n marta oshirilgan, o'n karra qaytarilgan; **2.** *adv* o'n marta, o'n karra, o'n baravar.
tenner [ˈtenə] *n* o'nlik, o'ntalik (*pul*).
tennis [ˈtenɪs] *n* tennis (*sport o'yini*).
tennis-ball [ˈtenɪsbɔ:l] *n* tennis koptogi.
tenon [ˈtenən] *n* 1) tikan, tikanak; 2) shpilka; 3) tilcha.
tenor I [ˈtenə] *n* 1) oqish, oqib ketish, oqim; 2) umumiy ma'no; 3) nusxa.
tenor II [ˈtenə] *n mus.* tenor (*erkaklarning eng baland ovozi*).
tense I [tens] *n gram.* zamon; **past** ~ o'tgan zamon.
tense II [tens] *a* 1) hayajonli; 2) tarang tortilgan, keskin, murakkab, tang; **the situation is** ~ ahvol murakkab; 3) hayajonlangan.
tensely [ˈtensli] *adv* qattiq g'ayrat qilib, zo'r berib, bor kuch (zo'r, g'ayrat) bilan.
tensile [ˈtensaɪl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan.
tensility [ten'sɪlətɪ] *n* cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik.
tension [ˈtenʃn] *n* 1) kuchlanish; kuchanish; 2) keskinlik.
tensity [ˈtensətɪ] *n* 1) qizg'inlik, zo'rlik; 2) jiddiylik, tanglik, keskinlik.
tent I [tent] **1.** *n* palatka, chodir; **2.** *v* chodir qurmoq, palatkada yashamoq.
tent II [tent] **1.** *n* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan dorilangan paxta yoki doka*); **2.** *v* tampon qo'ymoq.
tent III [tent] *n* kuchsiz qizil ispan vinosi.
tentacle [ˈtentəkl] *n* paypaslagich (*ba'zi hayvon va hasharotlarning mo'ylovsimon qo'llari*).
tentative [ˈtentətɪv] *a* sinashga oid, sinash uchun belgilangan, tajribaga mo'ljallangan.
tent-bed [ˈtentbed] *n* ko'chma karavot.
tenterhooks [ˈtentəhuks] *n pl to 'qim.* tarang qilib tortiladigan ilgak.
tenth [tenθ] *num. ord.* o'ninchi.
tenuity [te'nju:ətɪ] *n* 1) havoning siyrakligi; 2) yupqalik, nafis; ingichkalik, xipchalik.
tenuous [ˈtenjuəs] *a* 1) uncha ko'p bo'lmagan, ozgina (*farq haqida*); 2) siyrak, siyraklashgan (*havo haqida*).
tenure [ˈtenjə] *n* 1) egalik, egalik qilish; xo'jayinlik; 2) biror mansabda bo'lish (turish).
tepid [ˈtepɪd] *a* iliq, sal issiq.
teratology [ˌterə'tɔlədʒɪ] *n biol.* teratologiya (*odam, hayvon va o'simliklarning rivojlanish nuqsonlari hamda mayib-majruhlikni o'rganadigan fan*).
terbium [ˈtə:bɪəm] *n kim.* terbiy (*lattonoidlar guruhiga mansub metall*).
tercel [ˈtə:sl] *n* lochin (*erkagi*).
tercet [ˈtə:sɪt] *n* 1) *mus.* uch kishilik ansambl; 2) uch misrali she'r *yoki* she'rning uch misrali bir bandi.
teredo [tə'ri:dəu] *n zool.* yog'och qurti.
terete [tə'ri:t] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi.
tergal [ˈtə:gəl] *a zool. anat.* orqadagi, orqa...
tergiversate [ˈtə:dʒɪvə:seɪt] *v* 1) chalg'itmoq, gapni boshqa yoqqa burib (aylantirib) qutulmoq; 2) sotqinlik (xoinlik) qilmoq, xiyonat qilmoq.
tergiversation [ˌtə:dʒɪvə:'seɪʃn] *n* hiyla, nayrang; vaj, gapni aylantirish.
term [tə:m] **1.** *n* 1) muddat, fursat, vaqt; ~ **of office** vakolat muddati; ~ **of service** xizmat muddati; 2) semestr, chorak; **university** ~ universitet semestri; 3) shart; ~**s of payment** to'lov sharti; 4) termin; **2.** *v* ifoda etmoq, atamoq.
termagant [ˈtə:məgənt] **1.** *n* janjalkash ayol; **2.** *a* janjalkash, mijg'ov.
termer [ˈtə:mə] *n* jazo muddatini o'tayotgan jinoyatchi.
terminable [ˈtə:mɪnəbl] *a* muddati belgilangan (cheklangan).
terminal [ˈtə:mɪnl] *n* 1) bekat; 2) oxirgi bo'g'in *yoki* so'z; **2.** *a* oxirgi; ~ **station** oxirgi bekat.
terminate [ˈtə:mɪneɪt] *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq, bitirmoq, chek qo'ymoq.
termination [ˌtə:mɪ'neɪʃn] *n* oxir, poyon, tamom, natija; 2) muddatning tugashi.
termini [ˈtə:mɪnaɪ] *n* vokzal, so'nggi bekat.
terminology [ˌtə:mɪ'nɔlədʒɪ] *n* terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*).
terminus [ˈtə:mɪnəs] *n* (*pl* **-es** [-ɪz], **-ni**) oxirgi stansiya, oxirgi bekat.
termitary [ˈtə:mɪtərɪ] *n* termit (qirchumoli) ini.
tern [tə:n] *n* uchlik, uchta son.
ternary [ˈtə:nərɪ] *n* uch raqami, uchlik.
terra [ˈterə] *n lot.* yer, zamin, tuproq; yer yuzi, olam.
terrace [ˈterəs] *n* ayvon, peshayvon.
